

ISSN: 2161-1695 (ONLINE)



QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI

ILMIY-ELEKTRON JURNALI
14-SON

KOKAND UNIVERSITY
HERALD | **2025**
VOLUME №14

**QO‘QON
UNIVERSITETI
XABARNOMASI
14-SON**

**KOKAND
UNIVERSITY
HERALD
VOLUME 14**

**ВЕСТНИК
КОКАНДСКОГО
УНИВЕРСИТЕТ
ВЫПУСК 14**

14/2025

QO'QON UNIVERSITETI

XABARNOMASI

Ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

G'.E.Zaxidov

Bosh muharrir:

Z.B.Qobilova

Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

A.A.Yusupov

Sahifalovchi muharrir:

T.M.Umarov

Texnik muharrir:

D.Z.Solidjonov

Tahririyat hay'ati:

1. Akademik, S. G'ulomov (O'z.R. Fanlar Akademiyasi)
2. Akademik, Sh. Sirojiddinov (O'z.R. fanlar akademiyasi)
3. PhD., Prof., Jun Yong Wook (Janubiy Korea)
4. prof., Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
5. prof., Soultana Tania Kapiki (Gretsiya, Xalqaro Hellenic universiteti)
6. prof., Kursad Yilmaz (Turkiya, Dumlupinar universiteti)
7. DSc., Mark Rozenbaum (AQSH)
8. PhD., I. Bobojonov (IAMO, Germaniya)
9. PhD., N. Djanibekov (IAMO, Germaniya)
10. PhD., K. Akramov (IFPRI, AQSH)
11. PhD., N. Yusupov (Woosong University, J.Koreya)
12. DSc., D. Xosilova (University of Wyoming, AQSH)
13. DSc., Prof., V.V. Velikorosov (Rossiya Federatsiyasi)
14. DSc., Prof., M.S.Santalova (Rossiya Federatsiyasi)
15. I.f.d., prof., N. Maxmudov (TDIU)
16. I.f.d., dotsent, J. Qambarov (Qo'qon universiteti)
17. F.f.d., prof., M. Tojiboyeva (Andijon Davlat Pedagogika Instituti)
18. F.f.d., prof., A.Qosimov (FarDU)
19. F.f.d., prof., Asadov (O'z.R. Fanlar Akademiyasi)
20. F.f.d., prof., D.G'oyipov (UrDU)
21. p.f.f.d., prof., F.Qo'chqorova (Qo'qon universiteti)
22. p.f.d., prof., F.Qodirova (Chirchiq davlat pedagogika universiteti)
23. p.f.d., prof., N.Erkaboyeva (QDPI)
24. p.f.d., prof., Z.Azimova (ADU)
25. I.f.n., dotsent, A. Islamov (Qo'qon universiteti)
26. DSc, professor, D. Rustamov (ADCHTI)
27. PhD., M.Najmiddinov (Qo'qon universiteti)
28. T.f.d., prof., M.Kosimxojiyev (Qo'qon universiteti Andijon filiali)
29. T.f.d., prof., M.Ataxodjaev (Qo'qon universiteti Andijon filiali)

Qo'qon universiteti xabarnomasi

("Вестник Кокандского университета – Kokand University Herald") ilmiy-elektron jurnali Qo'qon universiteti Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2020-yil 10- oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1138 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-1695 ISSN-raqami olingan.

© "Kokand University" – 2025

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, Turkiston ko'chasi, 28 a-uy, 1-xonadon

Mundarija:/Outline:

Iqtisodiyot / Economy			
1.	I. Ismanov	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishi va ularning milliy iqtisodiyotga ta'siri	5-7
2.	M. Бутабоев	Иқтисодий ривожланиш ва атроф-муҳит	8-13
3.	E. Muminova X. Talabov	Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda davlat xususiy sherikchiligi asosidagi korxonalarining o'rni	14-17
4.	I. Ergashev	O'zbekiston davlat budjetida aksiz solig'i tushumlarining dinamikasi va tahlili	18-20
5.	B. Utanov	O'zbekiston Respublikasida agrar soha faoliyatining iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini statistik usullardagi tahlili	21-27
6.	M. Бутабоев	Худудий тармоқларда яшил иқтисодиётни шакллантириш ва ривожлантириш	28-31
7.	K. Kayumov	Bugungi "Z" avlod o'ziga xosligining sotsial va psixologik xususiyatlar	32-37
8.	M. Butaboev D. Jumaboev	Elektr energiyasini ishlab chiqarishda ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi muvozanat	38-40
9.	S. Allaberganov	Tijorat banklarida depozitlar tarkibi va dinamikasi: tahliliy yondashuv (atb turonbank va trastbank xab misolida)	41-50
10.	B. Ismoilov	Participation of business entities in public procurement	51-53
11.	R. Oripov	Kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishning iqtisodiy asoslari	54-56
12.	Sh. Po'latov	Kichik korxonalarda hisob siyosati turlarining tasniflanishi	57-60
13.	A. Qo'shbaqov	Tashqi va ichki investitsiyalarning asosiy kapitalni shakllantirishdagi roli	61-68
14.	L. Sabirova	Kredit portfelining sohalar bo'yicha diversifikatsiyasi va uning sifati	69-76
15.	Y. Sultonova M. Rustamov	Tashqi investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri	77-80
16.	M. Temirova	Navoiy viloyatida aholini kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlari	81-86
17.	M. Tojiyeva U. Xolmatov	Yoshlar bandligini ta'minlash ustuvor masala sifatida	87-92
18.	O. Xudayberdiyev	Tadbirkorlikda innovatsion muhit dasturlarining strategik tizimini takomillashtirish orqali samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish	93-96
19.	D. Xushvaqova	Hududlarda kichik biznes sohasi rivojlanish tendensiyalarining ifodalaovchi ekonometrik modellarni tuzish va ularni kompleks baholash	97-99
20.	M. Azamaliyeva	Innovatsion rivojlanish kambag'allikni qisqartirishning asosiy mexanizmi	100-102
Pedagogika / Pedagogy			
21.	Sh. Jumanova M. Odilova	PISA xalqaro baholash tizimining amaliy ahamiyatida xorij tajribasi	103-105
22.	N. Razzakov M. Jalilov Mu. Jalilov	O't toshining kimyoviy tarkibini o'rganishga kirishish	106-108
23.	X. Orziqulov	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirishning pedagogik va psixologik shart sharoitlari	109-111
24.	D. Taylakova	Ta'lim texnologiyalar asosida darslarni tashkil etishning didaktik shart-sharoitlari	112-113
25.	S. Mamajonov G. Komilova	Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalariga "Beshga bo'linish alomati" mavzusini o'qitishda zamonaviy yondashuv	114-116
26.	J. Miraxmedov	Ommaviy axborot vositalarining milliy o'zlikni anglashi va tarixiy ongni shakllanishidagi funksiyalari	117-118
27.	M. Isabayeva S. Olimova	Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limining rivojlanish tarixi	119-121
28.	O. Parpiyev	O'quvchilarning yozma nutq kompetensiyalarini rivojlantirish	122-126
29.	G'. Abdupattayev	Nabijon boqiyning "Rohila" qissasida xarakter va konflikt masalasi	127-128
30.	S. Asilova	Turmush qurgan talabalarning oilaviy munosabatlardagi muammolarni bartaraf etishda psixologik xizmatning ahamiyati	129-131
31.	N. Begmatova	Xalqaro tajribalar asosida oliy ta'lim boshqaruv tizimini raqamlashtirish	132-135
32.	Sh. Boymirzayeva	Tarbiyalanuvchilarning intellektual qobiliyatlarini aniqlash va ularni maqsadli rivojlantirish usullariga qaratilgan o'yin texnologiyalari	136-139
33.	Z. Eraliyeva D. Djo'rayeva	Bolalar tafakkurini rivojlantirishda ayrim didaktik o'yinlarning ahamiyati	140-142
34.	I. Xaydarov	Oliy ta'limda matematika o'qitish metodikasi	143-145
35.	M. Jaloliddinova	Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy transversal kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	146-148

36.	Sh. Madaminova	Kognitiv texnologiyalar yordamida bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirishda samarali yondashuvlar	149-151
37.	S. Normurodova	Ta'lim muassasalari hodimlari orasidagi yetakchilikning ahamiyati hamda fligby orqali qiyosiy tahlili	152-155
38.	T. Umarov	Ta'lim tizimi rahbarlari uchun stressga chidamlilikni oshirish bo'yicha xorijiy ta'lim tizimlarida qo'llaniladigan texnologiyalar	156-159
Filologiya / Philology			
39.	Z. Kobilova	Adabiy turizmni rivojlantirishda "Ijodkor shaharlar" ning o'rni	160-164
40.	G'. Rahmonov	O'zbek tilshunosligida semik tahlil orqali sinonimlarni belgilash usullari	165-167
41.	E. Qobilova	Maktab o'quvchilarining ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishda xalq og'zaki ijodining o'rni	168-169
42.	N. Tursunova	Muqimiy ijodiga yangicha yondashuvlar	170-172
43.	A. Begmatov	O'rta sinf o'quvchilariga ingliz tili darslarida lug'at va grammatikani o'rgatishda neyron tarmoqlarning qo'llanilishi	173-176
44.	D. Rustamova	Lingvistik atamalarning tavsifi xususida	177-180
45.	S. Ergasheva	Yozuvchilar ijodini tanitish orqali adabiy turizmni rivojlantirish	181-184
46.	N. G'opporova	Ingliz va o'zbek tillarida direktiv nutqiy aktlarni ifodalovchi vositalarning kommunikativ-pragmatik tadqiqi	185-188
47.	J. G'ulomov	Mashina va inson tarjimasini: o'zbekcha-inglizcha tarjimaning aniqligi va madaniy sezgirligini baholash	189-191
48.	O. Karimova	A comparative analysis of poetic devices: alliteration, assonance, and enjambment in english and uzbek poetry	192-194
49.	M. Komilova	Konstruktion grammatikaning kognitiv tilshunoslikka qo'shgan hisssasi va farqlari	195-198
50.	S. Latipova	"Me'rojnomayi turkiy" da an'anaviylik va o'ziga xoslik	199-202
51.	M. Madumarov	Asar tarjimasida ekstralingvistik vositalarni ifodalanishi (A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanining inglizcha tarjimasini asosida)	203-206
52.	F. Mulaydinov R. Po'latova	Zamonaviy ingliz tilidagi neologizmlar va ularning taraqqiyoti	207-210
53.	R. Rahmonova	Gender tasvirlari ingliz va o'zbek adabiyotida: tarixiy va ilmiy tahlil	211-213
54.	H. Raimova	Bir mavzuning turfa talqinlari	214-216
55.	M. Raximjonova	Ingliz va o'zbek tillaridagi tahalluslar va laqablarning struktur-semantik tahlili	217-220
56.	F. Saidvaliyeva	The comparative research on conjunctions of comparison of english and uzbek languages	221-224
57.	N. Sobirova	Stilistik figuralar tarjimasining o'ziga xos jihatlari	225-228
58.	S. Sodiqova	The role of linguoculturology in english, uzbek linguistics and the formation of modern research in the field	229-232
59.	H. Абдукаххорова	Сравнительно-лингвокультурологическое исследование русских и узбекских загадок в воспитательной деятельности начального и дошкольного образования	233-237
Raqamli texnologiyalar / Digital technology			
60.	M. Boritov	C++ dasturlash tilida matritsa orqali tasvir rangini aniqlash	238-241
61.	K. Haydarova A. To'ychiboyev S. Nurmatov	Development of a device project that determines the amount of elements that ensure soil fertility (potassium, calcium, nitrogen)	242-247
62.	A. Meliboev E. Asqarov A. Naraliyev	Demographic analysis of population of uzbekistan using data science tool pandas	248-251
63.	M. Tuxtasinov	Aqlii avtoturargoh tizimini loyihalash orqali talabalarning texnik ijodkorligini rivojlantirish	252-254



QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING MILLIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI

I.N.Ismanov

Farg'ona politexnika instituti
iqtisodiyot kafedrası professori

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 1 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1112 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	Qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivojlanishi zamonaviy iqtisodiyotning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Mazkur maqolada quyosh, shamol, suv, geotermal va bioenergiya kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalari tahlil qilingan hamda ularning milliy iqtisodiyotga ta'siri o'rganilgan. Statistik ma'lumotlar va zamonaviy loyihalar misolida bu sohaning global darajadagi o'sishi va ekologik afzalliklari ko'rsatilgan. Maqola yakunida qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivojlanishining kelajagi va uning milliy iqtisodiyot uchun strategik ahamiyati baholandi.
Qayta tiklanuvchi energiya, quyosh energiyasi, shamol energiyasi, suv energiyasi, geotermal energiya, bioenergiya, milliy iqtisodiyot, energiya xavfsizligi, iqlim o'zgarishi, ekologik barqarorlik.	

Kirish. Zamonaviy dunyo qayta tiklanuvchi energiya manbalari (Quyosh, shamol, suv, geotermal va bioenergiya) rivojiga katta e'tibor qaratmoqda. Fosil yoqilg'ilar asosida ishlaydigan energiya tizimlari ekologik muammolar va resurslar chegarasining tugashiga sabab bo'lganligi uchun, jahon mamlakatlari alternativ energiya manbalari ustida jadal ish olib bormoqdalar. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari global iqtisodiyotni yangi bosqichga olib chiqish va ekologik barqarorlikka erishish uchun asosiy vositaga aylanmoqda. Bu soha rivojlanishi bilan birga, milliy iqtisodiyotlar ham energiya xavfsizligini ta'minlash, ekologik toza muhit va innovatsion texnologiyalarga asoslangan yangi imkoniyatlar bilan boyimoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, International Renewable Energy Agency (IRENA) hisob-kitoblari shuni ko'rsatadiki, 2022 yilda dunyo miqyosida qayta tiklanuvchi energiya manbalari elektr energiyasining 30% dan ortig'ini ishlab chiqardi. Bu raqam 2010 yildagi 20% dan sezilarli darajada oshgan. Bundan tashqari, Bloomberg New Energy Finance (BNEF) ma'lumotlariga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya sektoridagi investitsiyalar 2022 yilda 500+ mlrd AQSh dollarini tashkil etdi, bu esa fosil yoqilg'ilariga sarflangan mablag'dan ancha ko'p.

Quyosh energiyasi: Quyosh energiyasi sohasida fotovoltaiik panel va konsentratlanuvchi texnologiyalar samaradorligining oshishi hisobiga bu manba eng tez rivojlanayotgan energiya shakli sifatida ajralib turadi. Xususan, quyosh panellarining narxlarini so'nggi 10 yil ichida 80% ga kamaydi, bu esa ulardan foydalanishni arzon va mavjud qiladi. Masalan, Xitoyda quyosh panellari masshtabli ishlab chiqarilmoqda va AQSh va Yaponiyada ham quyosh elektr stantsiyalari ko'payib bormoqda. Bunday loyihalar natijasida quyosh energiyasi butun dunyo bo'ylab elektr energiyasining asosiy manbai sifatida faoliyat yuritmoqda.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Global Solar Council ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda dunyo bo'yicha quyosh energiyasi quvvati 1 TW (teravatt) ni tashkil etdi. Bu raqam 2010 yildagi 40 GW (gigavatt) dan ancha ko'p. Xitoy, AQSh va Hindiston quyosh energiyasi quvvatini eng ko'p oshirgan mamlakatlar ro'yxatida birinchi o'rinlarda turibdi. Zamonaviy misollar orasida Dubai'dagi Mohammed bin Rashid Al Maktoum quyosh energiyasi parki ajralib turadi. Bu loyiha yakunlangandan keyin 5 GW quvvatga ega bo'lib, Dubai shahrida elektr energiyasining 75% ini ta'minlashga mo'ljallangan.

Shamol energiyasi: Shamol energiyasi sohasida ham jadal rivojlanish kuzatilmoqda. Shamol elektr stantsiyalari (ShES) quvvatining o'sishi va generatorlar texnologiyasining takomillashuvi shamol energiyasini arzon va mavjud qilishga imkon berdi. Daniya, Germaniya va Ispaniya kabi mamlakatlar shamol energiyasidan 20% dan ortiq elektr ishlab chiqaradi. Bundan tashqari, dengizda joylashgan offshore shamol elektr stantsiyalari ham keng tarqalmoqda. Misol uchun, Buyuk Britaniya shamol energiyasidan foydalanish orqali yillik karbon

emissiyalarini sezilarli darajada kamaytirmoqda. Statistika shuni ko'rsatadiki, Global Wind Energy Council (GWEC) ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda dunyo bo'yicha shamol energiyasi quvvati 906 GW ni tashkil etdi. Bu raqam 2010 yildagi 198 GW dan ancha ko'p. Offshore shamol elektr stantsiyalari quvvati esa 2022 yilda 65 GW ni tashkil etdi.

Adabiyotlar tahlili. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasida so'nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar ushbu yo'nalishning global iqtisodiyot va ekologik barqarorlikdagi o'rnini chuqur yoritib bermoqda. Xususan, IRENA (2022) hisobotida qayta tiklanuvchi energiya quvvatining o'sish sur'atlari va mamlakatlar kesimidagi ulushi batafsil yoritilgan bo'lib, bu ma'lumotlar mazkur maqolada qo'llangan asosiy statistik manbani tashkil etadi. Global Wind Energy Council (2022) tomonidan e'lon qilingan hisobotlar shamol energetikasi bo'yicha yetakchi davlatlar va yangi texnologiyalar rivoji haqida tahliliy ma'lumotlar taqdim etgan. Xuddi shuningdek, Global Solar Council (2022) quyosh energetikasi bo'yicha jahon miqyosida erishilgan yutuqlar va istiqbollarni ko'rsatadi. Bloomberg New Energy Finance (2022) va International Energy Agency (IEA, 2022) ma'lumotlari orqali qayta tiklanuvchi energiya bozorining investitsion jozibadorligi va iqtisodiy samaradorligi haqida xulosa chiqarilgan. Ayniqsa, IEA hisobotida qayta tiklanuvchi energiya sektorining milliy iqtisodiyotga ta'siri hamda energetik xavfsizlikdagi o'zni alohida ta'kidlangan. Shuningdek, Carbon Tracker Initiative (2022) tomonidan qayta tiklanuvchi energiyaning global karbon emissiyalarini kamaytirishdagi roli statistik dalillar bilan yoritilgan. Maqolada, suv va geotermal energiya bo'yicha International Hydropower Association (2022) va International Geothermal Association (2022) hisobotlaridan ham keng foydalanilgan. Bu manbalar nafaqat texnik imkoniyatlarni, balki ekologik va iqtisodiy afzalliklarni ham o'z ichiga olgan. Mazkur adabiyotlarning barchasi, maqolada ilgari surilgan g'oyalarning ilmiy va statistik asoslanishini ta'minlagan bo'lib, qayta tiklanuvchi energiyaning zamonaviy iqtisodiyotdagi ahamiyatini ochib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda ilmiy-analitik va statistik tahlil metodlaridan kompleks foydalanildi. Birinchidan, IRENA, IEA, BNEF va GWEC tomonidan taqdim etilgan global statistik ma'lumotlar asosida **dinamik va qiyosiy tahlil** usuli qo'llanilib, 2010-2022 yillardagi energiya quvvatlari va investitsiya hajmlarining o'sish sur'atlari baholandi. Ikkinchidan, **korrelyatsion tahlil** metodi orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivojlanishi va milliy iqtisodiyot ko'rsatkichlari (YAIM, ish o'rinlari soni, eksport hajmi) o'rtasidagi bog'liqlik darajasi aniqlab chiqildi. Uchinchidan, maqolada **mamlakatlar tajribasini o'rganish** asosida mukammallik amaliyotlari va muvaffaqiyatli loyihalar (Xitoyda quyosh panellari, Norvegiyada gidroenergiya, Islandiyada geotermal energiya) **komparativ metod** asosida tahlil qilindi.

Shuningdek, maqolada **prognostik usul** yordamida 2030 yilgacha qayta tiklanuvchi energiya sohasida kutilayotgan tendensiyalar va istiqbollar bashorat qilindi. Ushbu metodik yondashuvlar maqola tahlillarini ishonchli va ilmiy asoslangan bo'lishini ta'minladi hamda milliy iqtisodiyotga ta'sirini chuqur yoritishga imkon berdi.

Tadqiqot natijalari. Zamonaviy misollar orasida Danimarkadagi Horns Rev 3 shamol elektr stantsiyasi ajralib turadi. Bu stantsiya 407 MW quvvatga ega bo'lib, Danimarka aholisining 425 mingdan ortig'i uchun elektr energiyasini ta'minlaydi. Suv energiyasi : Gigavattli gidroelektr stantsiyalardan tashqari, kichik GES va suv nasoslari energiyasini qayta ishlash kabi innovatsiyalar suv resurslaridan samarali foydalanishni oshirdi. Norvegiya va Kanadaning energiya tizimlari deyarli to'liq gidroelektrga asoslangan. Kichik GES lar esa hududlarning mahalliy energiya ehtiyojlarini qondirishda samarali vosita hisoblanadi. Suv energiyasi texnologiyalari yanada rivojlana borib, energiya saqlash va taqsimlash tizimlarini ham modernizatsiya qilmoqda. Statistika shuni ko'rsatadiki, International Hydropower Association (IHA) ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda dunyo bo'yicha gidroelektr stantsiyalari quvvati 1,36 TW ni tashkil etdi. Bu raqam 2010 yildagi 1,01 TW dan ancha ko'p. Norvegiya elektr energiyasining 95% ini gidroelektrdan olishni ta'minlaydi. Zamonaviy misollar orasida Xitoydagi Three Gorges dam ajralib turadi. Bu stantsiya dunyodagi eng katta gidroelektr stantsiyasi bo'lib, uning quvvati 22,5 GW ni tashkil etadi. Biomass va biyogaz : Organik chiqindilardan energiya olish texnologiyalari qishloq xo'jaligi va sanoatni «yashil» energiya bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Biomassadan foydalanish yer mahsulotlarini qayta ishlash va organik chiqindilarni yoqilg'i sifatida qayta ishlash orqali ekologik muvozanatni saqlashga yordam beradi. Finlandiya va Shvetsiya kabi mamlakatlarda biomassadan foydalanish energiya ishlab chiqarishning muhim qismiga aylanmoqda. Biyogaz esa transport vositalari uchun alternativ yoqilg'i sifatida ham qo'llanilmoqda.

Statistika shuni ko'rsatadiki, International Energy Agency (IEA) ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda dunyo bo'yicha biomassadan olinadigan energiya quvvati 144 GW ni tashkil etdi. Bu raqam 2010 yildagi 72 GW dan ikki barobar ko'p. Zamonaviy misollar orasida Germaniyadagi biomassa elektr stantsiyalari ajralib turadi. Germaniya biomassadan foydalanish orqali elektr energiyasining 8% ini ta'minlaydi. Geotermal energiya : Geotermal energiya yer osti issiqliklaridan foydalanish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish va isitish muammolarini hal qiladi. Islandiya va Filippinlar geotermal energiyadan foydalanish orqali energiya ishlab chiqarishning katta qismini o'zlashtirgan. Bu texnologiya davlatlarga energiya xavfsizligini ta'minlash va fosil yoqilg'ilarga bog'liqlikdan ozod bo'lish imkonini beradi. Statistika shuni ko'rsatadiki, International Geothermal Association (IGA) ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda dunyo bo'yicha geotermal energiya quvvati 16 GW ni tashkil etdi. Bu raqam 2010 yildagi 10 GW dan ancha ko'p. Zamonaviy misollar orasida Islandiyadagi Hellisheiði geotermal elektr stantsiyasi ajralib turadi. Bu stantsiya 303 MW quvvatga ega bo'lib, Islandiya elektr energiyasining 30% ini ta'minlaydi.

Ish o'rinlari yaratish : Qayta tiklanuvchi energiya sohasi yuqori texnologiyali va qurilish sohasida minglab ish o'rinlari yaratadi. Masalan, AQSh da shamol va quyosh energetikasi bo'yicha 2022 yilda 500 mingdan ortiq mutaxassis ishlagan. Xitoy va Hindistonda ham qayta tiklanuvchi energiya sohasida yuz minglab ish o'rinlari yaratilmoqda. Bu ish o'rinlari faqat energiya ishlab chiqarish bilan cheklanmay, balki energiya infrastrukturasini, tadqiqot va rivojlanish hamda marketing sohalarida ham keng imkoniyatlar ochadi. Statistika shuni ko'rsatadiki, IRENA ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda dunyo bo'yicha qayta tiklanuvchi energiya sohasida 12,7 milliondan ortiq odam ishlagan. Bu raqam 2010 yildagi 7,3 milliondan ancha ko'p. Energetik mustaqillik : Mahalliy energiya manbalari ustuvorligi mamlakatni xorijiy yoqilg'ilarga bog'liqlikdan ozod qiladi. Masalan, Islandiya geotermal va gidroenergiya hisobiga 85% energiyasini o'zi ishlab chiqaradi. Norvegiya esa neft va gaz eksporti bilan birga, gidroenergiya tufayli energiya mustaqilligiga erishgan. Energiya mustaqilligi milliy xavfsizlikni ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Statistika shuni ko'rsatadiki, IEA ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda Norvegiya elektr energiyasining 95% ini mahalliy manbalardan olishni ta'minladi. Ekologik afzallik : Karbon emissiyalarining kamayishi hafsviz muhitni saqlashga yordam beradi. Germaniyaning «Energiewende» dasturi tufayli 2022 yilda CO₂ chiqindilari 40% ga kamaydi. Shunga o'xshash, Fransiya atom energiyasi va qayta tiklanuvchi energiya

kombinatsiyasi orqali emissiyalarni minimal darajada ushlab turmoqda. Ekologik afzalliklar iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va tabiatni muhofaza qilish uchun muhimdir. Statistika shuni ko'rsatadiki, Carbon Tracker Initiative ma'lumotlariga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalari tufayli dunyo miqyosida 2022 yilda 2,5 milliard tonna CO₂ chiqindisi kamaydi. Iqtisodiy barqarorlik : Qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga investitsiyalar mamlakatning eksport potensialini oshiradi. Masalan, Temir Yo'l bo'yicha quyosh paneli eksporti Xitoy uchun yillik 30+ mlrd AQSh dollari daromad keltiradi. Bundan tashqari, qayta tiklanuvchi energiya infrastrukturasini rivojlanishi bilan birga, energiya tariflari pasayib, iste'molchilar uchun energiya arzonlashmoqda. Bu esa iqtisodiy o'sish va barqarorlikka olib keladi. Statistika shuni ko'rsatadiki, World Bank ma'lumotlariga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga investitsiyalar tufayli dunyo iqtisodiyoti 2022 yilda 2,5% ga o'sgan. Boshlang'ich xarajatlar : Qurilishga katta mablag' kerak bo'lsa-da, davlatlar soliq imtiyozlari va subsidiyalar orqali bu muammoni hal qilmoqda. Masalan, AQSh va Yevropa Ittifoqi qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga katta byudjet ajratadi.

Energiya o'zgaruvchanligi : Bataryalar va «aqli» tarmoqlar texnologiyalari energiya saqlash va taqsimlash muammosini yengashga yordam beradi. Litium-ion bataryalar va vodorod energiyasi saqlash tizimlari energiya o'zgaruvchanligini bartaraf etishda samarali vosita hisoblanadi. Texnologik cheklolar : Innovatsion texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlar natijasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari samaradorligi oshmoqda. Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalari energiya ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonlarini optimallashtirishda katta yordam beradi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivojlanishi milliy iqtisodiyot uchun energiya xavfsizligini ta'minlash, ekologik muvozanatni tiklash va innovatsion ish o'rinlari yaratish imkonini beradi. Davlatlar va xususiy sektor hamkorligi bilan bu sohani yanada rivojlantirish global iqlim maqsadlariga erishish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun zarurdir. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari zamonaviy iqtisodiyotning asosiy tayanchiga aylanmoqda va kelajakda uning roli yanada ortib boraveradi. Mamlakatlar energiya siyosatini qayta tiklanuvchi energiya asosida qurish orqali barqaror kelajakka erishish imkonini topishadi.

Muhokama. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishi bugungi kunda global iqtisodiyot va ekologik barqarorlikning muhim tayanchiga aylanib bormoqda. Maqolada keltirilgan statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi o'n yillikda quyosh va shamol energiyasi quvvatlari keskin oshgan bo'lib, ular nafaqat rivojlangan davlatlarda, balki rivojlanayotgan mamlakatlarda ham keng ommalashmoqda. Xususan, Xitoy, AQSh, Hindiston va Yevropa Ittifoqi davlatlari bu borada yetakchilik qilmoqda.

Ushbu energiya manbalari faqat ekologik foyda bilan cheklanmay, balki iqtisodiy barqarorlik va energetik mustaqillikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya loyihalari yirik investitsiyalar va minglab ish o'rinlari yaratmoqda. Bunda Islandiya va Norvegiya kabi mamlakatlar o'zining mahalliy energiya resurslariga tayanib, energiya importiga bo'lgan ehtiyojini kamaytirgan.

Biroq, bu sohaning rivojida muayyan muammolar ham mavjud. Jumladan, boshlang'ich qurilish xarajatlarining yuqoriligi, energiya o'zgaruvchanligi va texnologik cheklolar qayta tiklanuvchi energiyaning keng joriy etilishiga to'siq bo'lishi mumkin. Bu muammolarni hal qilish uchun bataryalar, energiya saqlash tizimlari va aqli tarmoqlar kabi yangi texnologiyalar ishlab chiqilmoqda.

Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalari orqali karbon chiqindilarini kamaytirish jahon iqlim maqsadlariga erishishda strategik ahamiyatga ega. Germaniya va Fransiya kabi davlatlar bu borada muvaffaqiyatli natijalarga erishgan. Shunday ekan, bu soha kelgusida ham global siyosat va iqtisodiyotning markaziy yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, qayta tiklanuvchi energiya manbalari zamonaviy milliy va global iqtisodiyotlar uchun nafaqat muqobil energiya manbai, balki barqaror rivojlanishning strategik vositasi sifatida maydonga chiqmoqda. Maqolada ko'rsatilganidek, quyosh, shamol, suv, geotermal va bioenergiya manbalari iqtisodiyot uchun ko'plab ijobiy natijalarni ta'minlaydi: energetik mustaqillik, yangi ish o'rinlari, eksport imkoniyatlari va ekologik muhitning yaxshilanishi.

Xususan, qayta tiklanuvchi energiya loyihalari orqali energiya tariflari pasayib, iste'molchilarning xarajatlari kamayadi. Bunda davlat tomonidan soliq imtiyozlari va subsidiyalar muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiyaning rivoji energetik xavfsizlikni

mustahkamlab, milliy iqtisodiyotlarni global yoqilg'i narxlaridagi o'zgarishlardan himoya qiladi.

Biroq, mazkur sohaning kengayishi uchun texnologik va moliyaviy cheklavlarni bartaraf etish zarur. Xususan, energiya saqlash tizimlarini takomillashtirish va mahalliy sanoatni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, davlat va xususiy

sektor hamkorligi orqali qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga keng ko'lamli investitsiyalar jalb etilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, qayta tiklanuvchi energiya manbalari O'zbekiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni ta'minlovchi ustuvor yo'nalish bo'lib qoladi. Bu yo'nalishda faol harakat qilish global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va barqaror kelajakka erishish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. IRENA (International Renewable Energy Agency). (2022). Renewable Capacity Statistics 2022 . Abu Dhabi: IRENA. Manba: <https://www.irena.org>
2. Global Wind Energy Council (GWEC). (2022). Global Wind Report 2022 . Brussels: GWEC. Manba: <https://gwec.net>
3. International Energy Agency (IEA). (2022). World Energy Outlook 2022 . Paris: IEA. Manba: <https://www.iea.org>
4. Bloomberg New Energy Finance (BNEF). (2022). New Energy Outlook 2022 . London: BNEF. Manba: <https://about.bnef.com>
5. Carbon Tracker Initiative. (2022). The Impact of Renewable Energy on Carbon Emissions . London: Carbon Tracker. Manba: <https://carbontracker.org>
6. World Bank. (2022). Energy Sector Management Assistance Program (ESMAP) Report . Washington, D.C.: World Bank. Manba: <https://www.worldbank.org>

7. Global Solar Council. (2022). Solar Market Report 2022 . Rome: Global Solar Council. Manba: <https://globalsolarcouncil.org>
8. International Hydropower Association (IHA). (2022). Hydropower Status Report 2022 . London: IHA. Manba: <https://www.hydropower.org>
9. International Geothermal Association (IGA). (2022). Geothermal Power Generation Report 2022 . Bochum: IGA. Manba: <https://www.geothermal-energy.org>
10. Statista. (2022). Renewable Energy Statistics and Data . Hamburg: Statista. Manba: <https://www.statista.com>
11. Energiewende Germany. (2022). Germany's Energy Transition Report . Berlin: Federal Ministry for Economic Affairs and Climate Action. Manba: <https://www.bmwi.de>
12. UNFCCC (United Nations Framework Convention on Climate Change). (2022). Renewable Energy and Climate Change . Bonn: UNFCCC. Manba: <https://unfccc.int>



ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШ ВА АТРОФ-МУҲИТ

Бутабоев Махаммаджон Туйчиевич

ФарПИ, профессор

MAQOLA HAQIDA

ANNOTATSIYA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil

Jurnal soni: 14

Maqola raqami: 2

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1113>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/
KEYWORDS

углерод газлари, экологик активлар, яшил энергиялар, яшил облигациялар, субсидиялар, сув ва ер инкрузи, иқлим ўзгариши, “декоплинг” самараси, “экологик ҳаёт сифати”, яшил ички маҳсулот “Яшил молия”, “Экологик бозор” биосфера ресурслари экологик деҳқончилик, экологик саноат ва экологик маҳсулот.

Ушбу мақолада инсон ва атроф-муҳит муносабатлари атрофлиха таҳлил қилинган. Инсоннинг атроф-муҳитта антропоген таъсири оқибатида иқлим ва ер инкрузларининг асосий сабаблари инсон фаолияти билан боғланган бўлиб, углерод газларининг атмосферага чиқарилиши жадал ўсиб борапти. Мақолада экологик барқарор ривожланиши оқибатида аҳолининг фаровонлигини ўсиши, ЯИМни ўсиши ва уларнинг атроф-муҳитга салбий таъсири яъни “декоплинг” самараси асосланган шу билан бирга “бизнес-атроф-муҳит”нинг зиддиятли диалектикаси таҳлил қилинган. Глобал экологик инкрузнинг бирламчи сабаблари атрофлиха ёритилган. Мақолада иқтисодий тараққиётнинг экологик компонентлари таҳлил қилиниб, иқтисодий ва экологик номуаносиблик кўрсаткичлари таҳлил қилинган. Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, экологик барқарорлик мезонлари ва иқтисодий ўсиш тамойиллари бир-бирига мос келмаслиги асосланган бўлиб бу вазиятдан чиқиш усуллари тавсия қилинган.

Кириш. “Бугунги кунда она табиатнинг ўзи бизга йўллаётган оғоҳлик кўнғироғига бепаро бўлмаслигимиз керак. Афсуски, иқлим ўзгаришлари тобора кучайиб бормоқда. Биз яшаётган Марказий Осиёда сўнгги 30 йилда ўртача йиллик ҳарорат тахминан бир даражага кўтарилди. Мамалакатимиздаги асосий дарёларнинг ҳавзаси ва биологик хилма-хиллигининг қисқариб бораётгани жиддий ҳавотир уйғотмоқда. Бўғланиш даражасини оширадиган газлар ва атмосферанинг кенг миқёсда ифлосланиши муаммоларни янада чуқурлаштирмоқда.

Бугунги кунда яшил тараққиёт борасидаги мақсадларга эришиш учун мамлакатларнинг ҳаракатлари янада фаол ва самарали бўлиши кераклигига ҳеч ким шубҳа қилмаяпти. Бошқа чорамиз ҳам йўқ”¹.

Кейинги 50 йиллик ичида истеъмолчилик жамияти атроф-муҳитга салбий таъсир ўтказганлиги натижасида бугунги кунда соф табиат тўғрисида гап юритиш қийин, ҳар куни атмосферага 60 миллион тонна карбонат ангдрид чиқарилмоқда, сайёраимизда одамлар тез кўпайиб бормоқда, фан-техника тараққиёти жадал ривожланмоқда, ишлаб чиқариш жараёни автоматлашмоқда, янги-янги шаҳарлар барпо бўлмоқда, ўрмонлар кесилиб кетмоқда, хайвонот ва ўсимликлар хилма-хиллиги камайиб бормоқда ва натижада ҳар йили 15 миллиард тонна кислород йўқолмоқда. Чиқиндилар кўпаймоқда, экология бузилмоқда, тупроқ хосилдорлиги пасайиб бормоқда, экин ерларни чўллаши авж олмоқда (дунёда ҳар йили 12 миллион гектар ер чўлланади), Ўзбекистонда эса ҳар минутда 9 м² ер чўлланмоқда.

1-жадвал

Дунёда углерод (CO₂) газларининг атмосферага ташлаб юборилишини йирик манбалари²

№	Мамалакат номи	Ўлчов бирлиги	Йиллар давомида						
			1990	2000	2010	2015	2020	2022	2023
	Дунё бўйича	Млрд/тон.	22,6	25,7	33,9	36,3	48,5	52,0	55,1
1.	ХХР	Млрд/тон.	2,4	3,7	9,1	10,7	12,1	16,1	19,3
2.	АҚШ	Млрд/тон.	5,1	5,9	5,5	5,3	5,2	5,1	5,2
3.	Хиндистон	Млрд/тон.	5,9	1,01	1,7	2,9	2,6	2,4	3,4
4.	Европа иттифоқи ва Англия	Млрд/тон.	4,4	4,1	3,9	3,5	3,4	3,3	3,1
5.	Россия	Млрд/тон.	2,3	1,7	1,8	1,7	1,8	1,7	1,9
6.	Япония	Млрд/тон.	1,1	1,2	1,2	1,3	1,1	1,1	1,2
7.	Германия	Млн/тон.	1,0	871,3	816,6	781,6	758,1	703,1	702,0
8.	Эрон	Млн/тон.	204,7	352,3	570,8	622,9	679,1	713,4	735,3
9.	Ж.Корея	Млн/тон.	270,1	483,3	597,1	639,1	673,4	651,2	653,3
10.	Халқаро юк ташиш	Млн/тон.	371,2	498,4	662,8	660,1	713,4	730,2	744,1
11.	Халқаро ҳаво йўллари	Млн/тон.	258,3	354,5	420,2	493,1	579,2	625,6	670,3
12.	Индонезия	Млн/тон.	163,9	296,3	420,3	494,2	578,1	630,1	666,1
13.	Саудия Арабистони	Млн/тон.	173,0	264,2	478,1	604,0	628,1	671,3	686,4
14.	Канада	Млн/тон.	473,4	557,4	566,7	587,5	603,4	584,1	591,2
15.	ЖАР	Млн/тон.	312,5	345,3	465,0	477,7	497,2	499,1	511,3
16.	Мексика	Млн/тон.	290,9	397,5	479,3	491,5	496,1	485,7	501,4
17.	Бразилия	Млн/тон.	228,1	362,3	446,5	521,4	479,9	495,1	511,5
18.	Туркия	Млн/тон.	150,1	227,4	246,0	308,8	364,8	423,1	485,3
19.	Австралия	Млн/тон.	277,6	354,2	392,0	403,2	416,0	433,5	491,4
20.	Италия, Сан-Марино ва Ватикан	Млн/тон.	430,0	459,2	497,1	426,1	354,7	332,0	327,1

¹ “Яшил” ўсиш ва глобал мақсадлар учун ҳамкорлик 2030 Жанубий Кореядаги саммитда Ш.М.Мирзиёев сўзлаган нутқи

² Зелёная экономика. Монография. Авторский коллектив. Северо-Западный институт управления. Москва 2023 г. с. 46-51.

21.	Польша	Млн/тон.	371,3	312,2	315,8	327,8	304,2	317,6	314,3
22.	Франция ва Монако	Млн/тон.	386,3	402,1	408,4	379,5	321,3	314,1	330,0
23.	Вьетнам	Млн/тон.	20,4	56,3	99,8	155,2	204,2	257,0	310,3
24.	Испания ва Андора	Млн/тон.	230,4	312,1	369,1	288,2	271,2	270,3	264,3
25.	Нидерландия	Млн/тон.	161,1	176,4	181,3	168,9	161,9	156,2	154,1

Истеъмолчилик жамияти табиий ресурслардан жадал (очкўзларча, тижорат мақсадида) фойдаланиб борса ресурсларимиз 40 йилдан кейин тугайди³.

Адабиётлар таҳлили. Иқтисодий ривожланиш ва атроф-муҳит ўртасидаги мураккаб муносабатларни тадқиқ этишда халқаро ва маҳаллий тадқиқотчиларнинг ишлари катта аҳамиятга эга. Хусусан, экологик барқарор ривожланиш концепциясида “декоплинг” назариясига доир ишлар — Беркли ва Стерн каби олимлар томонидан атрофлича ёритилган бўлиб, уларда иқтисодий ўсиш ва атроф-муҳитга салбий таъсир ўртасидаги боғлиқликни камайтириш имкониятлари таҳлил қилинган.

Яшил иқтисодиёт бўйича Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг (UNEP) маърузаларида яшил энергиялар, яшил молия ва яшил облигацияларнинг иқтисодий самарадорлиги тўғрисида кенг маълумотлар берилган. Шунингдек, Марказий Осиё минтақасидаги иқлим ўзгаришлари ва уларнинг иқтисодий таъсири бўйича Тошкент Давлат Иқтисодиёт Университети олимларининг ишлари ҳам ушбу мавзуда муҳим манбалардан бири ҳисобланади.

Ўзбекистондаги экологик ҳолат ва ер ресурсларининг деградацияси бўйича Орол денгизининг қуриши ва унинг таъсирини тадқиқ этган академикларнинг ишлари (Ж. Зойиров, Н. Мамараймов) алоҳида аҳамиятга эга. Шунингдек, халқаро углевод газлари статистикаси ва прогнозлари БМТнинг Иқлим ўзгариши тўғрисидаги Конвенцияси материалларига асосланган ҳолда таҳлил қилинган.

Тадқиқот методологияси. Ушбу мақолада тадқиқот олиб боришда қиёсий-таҳлилий ва статистик методлардан кенг фойдаланилди. Биринчидан, дунё ва Ўзбекистонда углевод газларининг чиқарилиши бўйича расмий статистик маълумотлар асосида динамик таҳлил ўтказилди. Жадваллар ва диаграммалар ёрдамида турли давлатлардаги CO₂ чиқиндиларининг ўсиш суръатлари қиёсий таҳлил қилинди.

Иккинчидан, декоплинг самарасини баҳолаш учун ЯИМ ўсиш суръати ва атроф-муҳитга таъсир кўрсатувчи кўрсаткичлар (углерод чиқиндилари, ер қўлланиши, сув ресурсларининг қисқариши) ўртасидаги корреляцион анализ олиб борилди. Шу орқали иқтисодий ўсишнинг экологик оқибатларини чуқурроқ ўрганиш имкони яратилди.

Бундан ташқари, мақолада норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар таҳлили (Ўзбекистон Республикасининг “Экология кодекси”, “Яшил иқтисодиёт” стратегияси) асосида мамлакатнинг экологик барқарор ривожланишга қаратилган сиёсатини баҳолаш ўсули ҳам қўлланилди.

Тадқиқот натижалари. Қайта тикланадиган ресурслардан ишлаб чиқариладиган энергия ҳажмининг ортиши ва шунга мос равишда тегишли асбоб-ўсқуналарни ишлаб чиқаришда юқори физикавий ва кимёвий хусусиятларга эга бўлган кўплаб технологик материалларнинг истеъмоли ошади. Шамол генераторлари ва электр транспорт воситалари учун доимий магнитлар, бир хил электр транспорт воситалари ва мобил электроника учун қайта зарядланувчи батареялар, қуёш панеллари учун фотоэлементларнинг қопламалари, юқори қувватли структуравий материаллар ишлатиладиган ноёб тупроқ элементларининг муҳим рўйхатини ўз ичига олади. Ушбу элементлар (металллар) ўскунанинг операцион ва техник хусусиятларини сезиларли даражада оширади. Ноёб тупроқ элементлари учун энг катта талабга эга бўлган сегмент доимий магнитларни ишлаб чиқаришдир. NdFeB магнитлари ҳозирда бозорда энг кучли магнитдир. Ушбу магнитларни ишлаб чиқариш учун ишлатиладиган асосий нодир тупроқ элементлари неодимий, прасеодимий ва диспрозийдир.

Ноёб ер ресурсларини қайта ишлаш натижасида иссиқхона газларининг умумий эмиссиясига асосий ҳисса хлорид кислотаси 38 % ни, буғланиш 32 % ни ва электр энергияси 12 % га тўғри келади.

Умуман олганда, иссиқхона газларининг 51 % и турли шаклларда (масалан, дизель, буғ, мазут, электр энергияси) бўлиб, фойдаланиш ҳисобига ҳосил бўлади. Бошқа турдаги эмиссия компонентлари кимёвий моддалар ва транспортдан келиб чиқадиган газлардир.

Дунёда 70 % литийни Конго Демократик республикасида қазиб олинади.

Россияда 5 %, Австралияда 4,2 %, Канадада 3 %, 67 давлатларда 8,3 % ноёб ер ресурслари чекланган ва баъзилари тугаб бормоқда. Ҳозирги вақтда ноёб ер ресурсларини 90% и Хитойда тўпланган бўлиб, Хитой бозорни монополлаштириб олишга шароит яратилмоқда.

2018 йил Хитой 120 минг тонна ноёб ер ресурсларини ишлаб чиқарган, АҚШ эса 15 минг тонна ишлаб чиқарган ҳолос.

Ноёб ер элементларини ишлаб чиқариш атроф-муҳитга жуда катта салбий таъсир қилади. 1 килограмм диспрозий ишлаб чиқариш учун 1575 МДж электр энергия, 2579 МДж иссиқлик энергияси, 957 минг литр сув ишлатилиб, 738 килорграмм углевод гази атмосферага ташланади.

Ўртача 2 МВт қувватига тенг шамол генератори ўзида 50 килограмм диспрозийни сақлайди ва радиактив чиқиндилар ишлаб чиқаради.

Бундан ташқари кобальт қазиб олишда ишчилар махсус ҳимоя кийимлар кийиши керак бўлади, акс ҳолда инсонлар радиактив моддалардан заҳарланадилар.

Литий ва кобальт қазиб олиш асосан текис, чўл ер ҳудудларда кимёвий усулда қазиб олинади. Жуда кўп сув ҳам сарфланади.

Ҳозирги саноат иқтисодиёти ноёб кимёвий-физикавий хусусиятларга эга бўлган материалларни талаб қилмоқда.

Демак, ноёб ер материаллари тугаб бормоқда, бунинг ўстига у экологияга салбий таъсир қилади.

Шу маънода янги ресурсларни тежовчи, экологик тоза технологияларга ўтиш зарур.

Сўнги йилларда иқтисодий ва молиявий барқарорликни доимий назорат қилиш, қайта кўриб чиқиш ва бартараф этишни талаб қиладиган кўплаб муаммоларга дуч келди. Улар орасида, биринчидан, инсоннинг иқтисодий фаолияти таъсирида CO₂ газларини атмосферага чиқишини меъёрдан кўпайиши, атроф-муҳитнинг ифлосланиши бўлиб, бу табиий мувозанатни тиклаш учун тегишли яшил молиялаш, давлат аралашуви каби ғоят муҳим чоралар кўришни талаб қилади, иккинчидан, иқтисодиётни экологик тоза технологияларга ўтказиш билан боғлиқ янги имкониятлар пайдо бўлдики, бунинг учун сув ва ҳаводек зарур бўлган хорижий инвестицияларни жалб қилиш CO₂ газларининг глобал чиқиндилари ҳажми 2016 йилга нисбатан 2020 йили тарихда биринчи марта 5,8% га қисқариши бўлди. Бироқ, 2021 йилга келиб, энергетика тармоқларида кўмир, газ ва нефтдан жадал фойдаланилганликлари сабаб CO₂ углевод чиқиндилари ҳажми 4,8% га кўпайди, яъни CO₂ углевод чиқиндилари 1,5 млрд тоннага кўпайди. 2021 йил жаҳонда кўмирни истеъмол қилиш аввалги (2018 й.) даражасига кўтарилди ва CO₂ углевод чиқиндиларни глобал даражаси 640 млн. тонна бўлди, бу эса кўмирдан чиқаётган CO₂ углевод чиқиндиси 14,8 Гт. ёки 2019 йилга нисбатан 0,4% юқори бўлди (1-жадвалга қаранг).

Ўзбекистонда бир йилда ҳавога чиқарилаётган CO₂ газлари чиқиндиси 4-5 миллион тонна бўлиб, шундан автотранспорт улуши 50% гача боради, бу белгиланган меъёрдан 3-4 марта кўп (ривожланган давлатларга нисбатан) кейинги 10 йил ичида Ўзбекистон шаҳарларида атмосфера ҳавосини ифлосланиши икки мартага ошди. Нисбатан бу Денов, Сариосиё ва Самарқанд шаҳарларида 1,1 -2,1 балли ифлосланиш кўзатишган. Энг юқори ифлосланиш даражаси Олмалик, Ангрен, Охангарон ва Бўхоро шаҳарларида, 4,5-5,5 балл кўзатишган. Тошкент шаҳрида 6,1 балл бўлиб, ҳаво таркибида диоксид серы 0,6, аммиак - 2,3 , азот оксиди

³ АҚШ ресурслар институти. Нью-Йорк, 2022 йил, 79-81 б.

- 0,29, радиоактив чанг 0,99, углерод оксиди 0,70, фторли водород 0,58, формальдегид 0,24 бўлган.

Тошкент шаҳрида 3,7-4 миллион автотранспорт рўйхатдан ўтган ва ҳар кўни бошқа шаҳарлардан 65-70 минг автотранспорт кириб келади. Булардан 65-70 фоизи бензин ёқилғиси ёқади. Шундан, 13 фоизи дизель (саларка) ёқилғисига ишлайди ва 17-22 фоизи газга ишлайди. Дизель ёқилғисига ҳаракатланадиган автотранспорт 1 тонна дизель ёқилғиси ёқишда 300 литри чала ёниб газ бўлиб чиқиб кетади, 1 тонна бензиндан 500-600 литри чала ёниб газ бўлиб, атмосферага чиқади. Ҳозирги вақтда электромобиллар кўпаймоқда.

Экология вазирлиги дарахтларни ноқонуний кесилгана мониторинг эълон қилинган вақтдан буён (2019-2023) 4 йил ичида Тошкент шаҳри ва унинг атрофида

49 минг дарахт кесиб юборилди яъни 20 гектар яшил макон йукотилди. Дарахтзорлардан бўшаган ерларга режасиз (шаҳар бош режасига киритилмаган) уйлар ва йўллар қўрилди.

Бу давр ичида Ўзбекистон саноат корхоналарида кўмир ва мазутдан фойдаланиш 20%га кўпайди. Цемент ишлаб чиқариш 2 барабарга кўпайди, цемент заводларининг асосий қисми Хитойлик инвесторларга қарашли. Чиқиндиларни ишлаб чиқариш 3 барабарга кўпайди, чиқиндиларни 3 та гуруҳга бўлиб, қайта ишланадиган, қайта ишланмайдиган ва озиқ-овқат тоифасига кирувчи чиқиндиларга бўлини, ҳозирда экология қўмитаси ва хорижий инвесторлар билан чиқиндиларни қайта. ишлаш саноатини барпо қилиш устида ишлашмоқда.

Табиий газни ёқишдан 2021 йили CO₂ углерод чиқиндилари 215 миллион тонна бўлиб, энг юқори даражага эришди. Шунинг ҳам айтиш керакки, 2021 йили глобал CO₂ углерод чиқиндиларининг 65% и ривожланаётган мамлакатлар ҳиссасига тўғри келмоқда. Ривожланаётган мамлакатларда CO₂ углерод чиқиндилари 2019 йилга нисбатан 600 миллион тоннага кўп бўлди.

Хитойда энергетика соҳасида кўмирдан фойдаланиш 330 ТБ ёки 7% га ошди. Ҳиндистонда ҳам кўмирдан фойдаланиш 2021 йили рекорд даражада бўлиб, 2019 йилга нисбатан CO₂ углерод чиқиндилари 30 миллион тоннага кўпайди ва 2022 йили CO₂ углерод чиқиндилари вақтинча меъёрлашди. АҚШ да ҳам саноат иқтисодиёти кўмир ва газга боғлиқ бўлиб, CO₂ углерод чиқиндилари 2019 йилга нисбатан 2021 йили 1,4% га кўпайди. Европа давлатларида CO₂ углерод чиқиндилари 2021 йили 2019 йилга нисбатан 80 миллион тоннага камайган бўлсада, бу давлатларда кўмир ва газ асосий ёқилғи сифатида қўлланилади⁴.

Жаҳонда 2021 йили 859 миллиард долларлик "Яшил" ва ижтимоий облигациялар чиқарди ва иқлим ўзгаришига, экологик муаммоларга ҳамда яшил энергетикага сарфланди. 150 миллиард долларлик ижтимоий облигациялар аҳоли соғлиғини яхшилашга, чўчүк сув билан таъминлашга, "Яшил" транспортни ривожлантиришга сарфланди. Бундай икки томонлама ёндашув, бир томондан, жамиятнинг атроф-муҳит яхлитлиги, ҳаётнинг давом этиши ҳамма учун муносиб меҳнат шароитини яратиш бўлса, иккинчи томондан, янги "яшил" инвестиция истисқоболлари таъсири остида иқтисодий ўсишни рағбатлантиришга олиб келди.

Бугун жамият биосфера ишлаб чиқараётган ресурслардан 50% идан кўпроғини истеъмол қилмоқда, яъни одамзод табиатни такорор ишлаб чиқариш қобилиятидан кўп истеъмол қилмоқда. Чўчки, моддаларнинг биосфера бўйлаб даврий айланиши бўзилди. Н.О сувнинг ифлосланиши ва унинг танқислиги кўчайиб бормоқда. С углерод бу органиқ моддалар. Н. П-азот ва фосфор бизнинг танамизда ҳаракат қилади. Ҳозирги даврда антропоген салбий таъсирлар кўчайиб кетди. Буларнинг ҳаммаси биосферада даврий айланади ва такорор ишлаб чиқарилади. Иқлим ўзгариши биосферага қаттиқ таъсир қилиб, даврий айланишни бўзиб юборди ва натижада биосфера инсон учун зарур ресурсларни тўла ишлаб чиқара олмапти.

Бугунги кўнда дунё аҳолисининг ярми тўйиб овқат емайди, 4/1 саводсиз, 3/1 эса тоза сув танқислигида яшайди. Тоза сув етишмайди. Сув шиддат билан йўқолиб борапти. Дунёда кўллар ва дарёлар қўриб қолмоқда. АҚШда Риогранда дарёси қўриб қолди, шу билан биргаликда барча қитъаларда сув камайиб бормоқда. Шумилов, Пауелл ва Чад кўлларида сув қўриган.

Хитойда 27000 та дарё, Украинада 10000 та дарё, Россияда 2.800.000 та дарёнинг 30 фоизи қўриб қолди. Хўш сув қаёққа кетаяпти? Ҳозирча бўнинг жавоби йўқ. Жамият истеъмолчиликдан ишлаб чиқаришга ўтиши лозим. Ишлаб чиқаришда фойдаланилаётган технологияларнинг экологик сертификатга эгаллиги ва атмосферага чиқарилаётган зарарли газларнинг экологик меъёрлар асосида амалга ошириш муҳим ҳисобланади ҳамда бу масалалар илмий тадқиқотларда тўла ўрганилган эмас.

Дунёда аниқланган мавжуд табиий энергия ресурслари (табиий газ ва нефть) 150 йилгача фойдаланишга етади. Энергетика бўтун дунёда долзарб масалага айланиб бораётганлиги сабабли давлатлар уларнинг муқобил йўлларини изламоқда.

Бугун жаҳон энергетикасида "яшил" энергетика ресурсларининг улуғи 20-30 фоизга етган. Айрим Европа иттифоқи давлатларида (Швеция, Швецария, Голландия, Финландия, Германия, Буюк Британия) давлатларида 80-90 фоизга етган. Глобал иқлим ўзгариши, Орол денгизи фожияси оқибатларини енгиб ўтиш "яшил" иқтисодиёт айнақса, "яшил" молия, "яшил" энергетика соҳаларини жадал ривожланиш "яшил" ўсиш ва углерод нейтраллигини таъминлаш, тоза ичимлик суви таъминотини, йўл- транспорт инфратузилмасини такомиллаштириш масаласига бевосита боғлиқ.

Бир пайтнинг ўзида "яшил" молиялаш, "яшил" ўсишга эришиш масалалари замон талабидан келиб чиқмоқда.

БМТ нинг барқарор ривожланиш мақсадлари (2020-2030 йиллар):

- Дунёда қашшоқликка барҳам бериш, тўйиб овқат емаслик, очликни тугатиш, қишлоқ хўжалигини барқарор ривожлантириш, соғлом турмуш тарзини таъминлаш ва фаровонликка эришиш. Лекин 2022 йилни 2015 йилдаги вазиятга солиштирсак, дунёда тўйиб овқат емаслик, очлик 18,8% га ошган.

- Сифатли таълимни ривожлантириш, дунё аҳолисининг 25% и саводсиз,

- Гендер тенгликка эришиш, ҳамма учун арзон, сифатли ва хавфсиз "яшил" энергия истеъмолини таъминлаш.

- Барқарор иқтисодий ўсишга эришиш, тўлиқ самарали бандлик ва ҳаммани муносиб меҳнат билан таъминлаш. Аммо дунёда 950 миллион одамлар ишсиз.

- Шаҳар ва қишлоқларда яшаётган ҳамма аҳолини тоза ичимлик суви билан таъминлаш. Дунёда 40 дан ортиқ давлатда 2,5 миллиард аҳоли сув танқислигида учраган.

- Дунёда экологик ҳаёт сифатига эришиш, яъни аҳолининг тоза ичимлик суви билан таъминланганлик даражаси, атроф-муҳит тозаллиги, ифлос атмосфера даражаси каби масалаларни таҳлил қилиш катта аҳамиятга эга.

- Иқлим ўзгаришга ва уни тасирига қарши қўрашиш, CO₂ газларини атмосферага чиқишини меъёрлаштириш.

- "Яшил" маконларни кенгайтириш, ерларни чўллашини, сув ресурслари қўчишиши тўхтатиш, каналларни, сув хавзаларини бетонлаш, ер деградациясини тўхтатиш ва биохиммахиллиқни сақлаб қолиш, табиий капитални бойитиш.

- Экологик яхлитлик ва экологик самарадорликка эришиш.

- Бир бирлик ялпи ички маҳсулотнинг энергия сифимкорлигини меъёрлаштириш. Паст углеродли иқтисодиётга эришиш.

- Уй ва коммунал хўжаликларини "яшил" энергия ресурсларидан тўла фойдаланишини таъминлаш, эҳтиёжларини қондириш.

Сайёраимиз аҳолиси 8 миллиардга етди, уларнинг 1,6 миллиарди ўрмон ва қишлоқларда яшайди. Россиянинг 70 миллион ерли аҳолиси ўрмонларда истиқомат қилади. Дунёда 80% ёввойи ҳайвонлар ва жониворлар ўрмонларда, чўлли зоналарида (хўдудларда) яшайди. Ўрмон хўжалиги қўруқликни 4 миллиард гектар ерини банд қилиб, ҳавони тозалаб, кислород ишлаб чиқармоқда.

2015 - 2022 йиллар Россия территориясида 3,4 миллион гектарга яқин ўрмонлар кесиб юборилди, дунёда 2,6 миллиард аҳоли қишлоқ хўжалигида банд, тирикчилик қилмоқда. Бир вақтни ўзида 52% ерлар (қишлоқ хўжалигида) деградацияга учраган, экин ва ҳайдаладиган ерларни 30-35% чўллаган, қўроқчиликдан ҳар йили 12 миллион гектар ер ишдан чиқмоқда (яроқсиз ҳолга айланмоқда), бу дегани 20 миллион тонна буғдой йўқолмоқда.

⁴ С.Н.Бобылев . Зелёная экономика. Новая парадигма развития страны. Москва. 2022 г. с. 49-57

Сайёрамизда ерларни деградацияси 74% и қишлоқ аҳолиси ҳаётига, даромадига салбий таъсир қилмоқда. 120 та давлатларда биохилмаҳиллик ҳар йили 3-4% қисқариб бормоқда. 8300 та турли хайвонлардан 8% нобуд бўлмоқда, 22% йўқолиб кетиш хавфида, 80 минг турдаги дарактлардан ҳар йили 2-3% йўқолиб кетмоқда. Юқоридаги жараёнларни ривожланиб бориши 90% инсон фаолияти билан боғлиқ ҳолда амалга ошади.

Инсон фаолиятини атроф-муҳитга салбий антропоген таъсирини қуйидаги формулада ифодалаш мумкин.

$$I = P \times F \times T^5$$

Бу ерда,

P- аҳоли (ишчи ва ходимлар)

F – реал даромадлар ва фаровонлик

T- ишлаб чиқаришда банд бўлган технологиялар

Ушбу формула оркали атроф-муҳит ифлосланиши, глобал экологик инқирозга иқлим инқирозига инсонлар ва давлатлар қай даражада салбий таъсир қилаётганини баҳолаш мумкин. Ишлаб чиқариш жараёнида турли хил ресурслар истеъмол қилинади, моддий неъматлар ишлаб чиқарилади ҳамда чиқиндилар ва CO₂ газлари атроф-муҳитга ташлаб юборилади.

Шу ўринда, дунёда аҳолисининг табиий кўпайиши 90% и ривожланаётган мамлакатларда юз бермоқда. БМТ нинг маълумотларида 2050 йилга бориб, дунё аҳолиси 9,5 миллиард бўлади ва уларнинг 8 миллиарди ривожланаётган давлатларда яшайди. 2050 йилда Африка аҳолиси 2 баробарга кўпаяди. Европа иттифоқининг ривожланган давлатларда аҳоли камаяди, лекин атроф-муҳитни ифлослантирувчи компаниялар сони ва табиий ресурсларни истеъмол қилиш кўпаяди.

Жамиятнинг экологик барқарор ривожланишида аҳоли фаровонлигини ўсиши бир томондан, иқтисодий ресурсларнинг интенсив истеъмол қилишини иккинчи томондан ва уларнинг атроф-муҳитга салбий таъсирини баҳолаш “декоплинг” самараси пайдо бўлади.

Дунёда барқарор ривожланишга ўтиш зарурияти кўп жиҳатдан иқтисодий ўсиш ва атроф-муҳитнинг деградацияси (инқирози) ўртасидаги номуносивлиқнинг кескин кучайишини англаш билан боғлиқ эканлигидир.

Охириги 30-35 йил ичида жаҳон ЯИМ и сезиларли даражада 4,5 баробардан ортиқ ўсди, бу эса юз миллионлаб одамларнинг турмуш даражасини яхшилади. Лекин бу ўсиш асосан табиий капиталнинг глобал даражада (истеъмол қилиниши оқибатида) камайиши ва экотизимларнинг деградацияси билан узвий боғлиқ эди. Ўзбекистонда ҳам иқтисодий ўсиш 7-8 % бўлиши, табиий бойликларнинг истеъмоли ҳисобига амалга ошган эди. XXI аср бошларидан дунёда экологик муаммолар тез суръатлар билан ўсиб борди, чўчүк ичимлик суви, озик-овқат танқислигининг кучайиши, иқлим ўзгариши, биологик хилма-хиллик, ўрмонларнинг қисқариши, ерларнинг чўлланиши, чиқиндиларнинг кўпайиши ва табиатнинг ифлосланиши ва бошқалар бунга гувоҳлик беради.

Агар мавжуд антибарқарор тенденциялар давом этаверса, кейинги ўн йилликда табиий ресурслардан фойдаланиш ва атроф-муҳитни ифлосланиши икки баробарга ошади.

Дунёда ер ресурсларининг 40% и тупроқ унумдорлигининг пасайиши, эрозия, қуриқлашиб шўрлаши туфайли деградацияга учраган. Ер унумдорлиги пасайиб бориши оқибатида деҳқон ва фермерлар хосилнинг 50% гача йўқотиши мумкин.

Сайёрамизда (56 та давлатда) 2,5 миллиардга яқин одамлар тоза ичимлик сувини тўйиб ичишмайди (ривожланган давлатларда сув ресурсларидан кўр-кўрона фойдаланиб, сувни исроф қилиш ҳолатлари учрайди), 3 миллиард одамлар тегишли гигиена-санитария шароитига эга эмас, ҳар йили 2 миллион болалар тоза сув етишмаслиги ва зарур санитария-гигиена хизматларидан фойдаланиш имконияти йўқлиги сабабли вафот этади. Келажақда сув танқислиги янада кучаяди, 2030 йилга бориб, сув таъминоти дунё эҳтиёжларининг атиги 60% ини қондиради холос, яъни ҳар икки кишидан бирига сув етишмайди.

Дунёдаги дон ва бошоқли маҳсулотларни ишлаб чиқарувчиларнинг 20% гачаси сув ресурсларидан тўла фойдалана олишмайди, бу ҳолат келажақда қишлоқ хўжалигида сув танқислиги юз бериб, хосилдорлик пасайиб кетади.

-Сайёрада ўрмонларни кесиш тижорат мақсадида ишлатилиши кескин ўсади ва 2020-2040 йилларда ўрмон майдони 12% га қисқариб боради.

-Ер аҳолисининг ўчдан бир қисми истиқомат қилаётган лалми-хосилдор ерлар чўлланиш хавфи остида бўлади.

-Иқлим ўзгариши, ҳавони иситиш кетиши натижасида денгиз ва океан қирғоқбўйи ҳудудларида 2 миллиардга яқин одамларни турмуш тарзига салбий таъсир қилади, атроф-муҳит ифлосланади ва инсонлар саломатлигига салбий таъсир қилади.

-Дунёда 2040 йилга келиб, аҳоли 8 миллиарддан 9 миллиардга кўпаяди, ўрта даромадли истеъмолчилар эса кейинги 20 йил ичида 3 миллиардга кўпаяди, ресурсларга бўлган талаб 2 баробардан ошади.

2040 йилга бориб, дунёнинг озик-овқатга бўлган эҳтиёжи 50-60% га, озик-овқат нархлари 50% га ошади, энергия ресурслари 50% га ва сувга бўлган эҳтиёжи 30-35% ошади⁵.

-Ис газларининг (дунёда CO₂ эмиссияси) атмосферага чиқарилиши 65 миллиард тоннага боради, бу ҳолат Ўзбекистонда йиллик ҳажми 45 миллион тоннани ташкил этади ва сайёрада чиқиндилар инқирози юз беради.

Юқоридагиларнинг барчаси экологик сув, ер, иқлим инқирозга олиб келиб, (ЯИМ) иқтисодий ўсишга янги чекловлар кўяди. Шунинг ҳам айтиш лозимки, ЯИМнинг ўсиши, табиий капитални инқирозини яшириши мумкин.

Яна бир ҳолат экологик омиларни ҳисобга оладиган макроиқтисодий кўрсаткичлар қийматлари тўла ҳисобга олинмайди. Чунки, ЯИМ ўсиши энергия ишлаб чиқариш, металл эритиш, ўрмонларни кесиш, табиий бойликларни сотиш, энг муҳими нефть, газ нархининг ошишига асосланган бўлади.

Атроф-муҳитнинг ифлосланиш даражаси ва иқтисодий ўсиш даражаси ўртасидаги номуносивлиқ экологик инқирозга олиб келади. Атроф- муҳитнинг бузилиши ва табиий ресурсларнинг тугатишга асосланган истеъмолчилик жамиятида барқарор иқтисодий ривожланиш узоқ муддатга чўзилмайди. Бунинг натижасида дунё мамлакатлари “яшил” иқтисодиётга оммавий ўтмоқдалар. Ўзбекистонда сўнгги беш-ўн йил ичида қабул қилинган қарорлар (чиқиндиларни қайта ишлаш 12% дан 50% гача етказиш тўғрисида) чиқиндиларни қайта ишлаш саноатини яратишга асос солади, ҳақиқатдан ҳам бу айланма иқтисодиёт сари биринчи қадамдир.

Чиқиндиларни ёқишга ихтисослашган корхоналарни барпо қилиш кўплаб мунозаралар туғдиради, чунки атроф-муҳит ифлосланади, касаллик турлари кўпаяди.

Кўпинча “яшил” иқтисодиёт ўз моҳиятига кўра фақат “яшил” бизнесни англатади, у ҳар хил турдаги тозалаш ускуналарини ишлаб чиқаришни, иккиламчи ресурсларни, экологик маҳсулотларни, хизматларни ва чиқиндиларни “яшил” бизнес меъёрлари ва стандартларини амалиётда қўллаш демакдир, тадқиқотчилар ва эксперт хулосасига кўра Европа халқларининг (Швеция, Финландия, Швеция ва Голландия) 91% ва Россияликларнинг 74% бизнесдан экологик масъулиятни талаб қилади. Шу ўринда жамиятимизда бизнесни кўкаламзорлаштиришга бўлган талаби аҳолида экологик товар ишлаб чиқаришда ва хизматлар кўрсатишда менежерларни рағбатлантириши мумкин. Миллий таомлар ошхонасида, новвойчилик ва сомсахоналарда экологик жиҳатдан самарали технологияларни, ақлли филтёрлардан (ис газини ушлаб қолувчи) фойдаланишни рағбатлаш керак.

Экологик меъёр ва стандартлар экологик тоза материаллар “яшил” бизнеснинг меъёрига айланиб боради⁷.

Шундан келиб чиқиб, “бизнес-атроф-муҳит”нинг бир-бирига боғлиқлиги ва ўзаро таъсир қилиш механизmlарини таҳлил қиламиз. Инсон фаолияти табиат билан боғланган, ўрмон, сув, дала, экинзорларда меҳнат қилган. Масалан, пахта, пилла ишлаб чиқариш ва унинг саноат асосида қайта ишлаб маҳсулот олиш, маҳсулотни сотиш, экспорт қилиш ва фармацевтика ва мебель саноатига хом ашё етказиб бериш натижасида бир вақтда иқтисодий ва экологик самарадорликка эришилади.

$$YaIM = (SE) + PI + YaM + TEM^8$$

Бу ерда:

⁵ Муаллифлар ишланмаси

⁶ Зелёная экономика. Монография. Авторский коллектив. Северо-Западный институт управления. 2023 г. с. 98-201

⁷ Ekologik biznesda tozalik mezonlari. Moskva, 2018, 17-21 b.

⁸ В. А. Ваганова и др. Основы зелёной экономики. Учебно-методическое пособие. Санкт-Петербург 2023, с. 74-77

1. **YalM** - "яшил" ички маҳсулот
2. **SE** - соф экспорт
3. **PI** - провард истеъмол
4. **YaM** - атроф-муҳитни муҳофаза қилишга сарфланган "яшил" молия

5. **TEM** - тоза экологик маҳсулот

Шунингдек, пахта, буғдой, шоли, ипак-шойи, гўшт ва сут, асал ва мева-сабзавот маҳсулотларини етиштиришга, атроф-муҳит муҳофазасига сарфланган "яшил" молия иқтисодий ва экологик самара беради.

Иқтисодий ҳамкорлик ва ривожланиш ташкилоти (ИХРТ) ва Осиё-Тинч океан иқтисодий ҳамкорлик (ОТИХ) ташкилоти 200 турдаги экологик товарларга талаб даражасини таҳлил қилган

1.Атмосфера тозаллигини назорат қилувчи дастгоҳлар.

2.Чиқиндиларни қайта ишлаш ва мониторинг қилиш.

3.Электромобиллар, светодиод лампа ва фонарлар., "яшил" энергиялар, кўмирни қайта ишловчи "яшил" технологиялар.

4. Органик маҳсулотлар, мевалар, полиз экинлари ва сабзавотлари.

5. Калава ип, жун, ипак-шойилар, табиий матолар, кийимлар, озиқ- овқатлар ва ҳақозалар.

6. Ҳамма турдаги коғозлар, тахта-ёғочлар, дарахтлар, чорвачилик хайвонлари.

7 Ун, сут маҳсулотлари, кондитер ва асал маҳсулотлари, ёғ- мой маҳсулотлари ва ҳақозалар.

Муҳокама. Инсон табиат таъсирида яшайди, меҳнат қилади ва маҳсулотларни ишлаб чиқаради. Ишлаб чиқариш жараёнида ресурслардан фойдаланади ва маҳсулотлар ишлаб чиқарди, чиқиндилар яратади, шу билан бирга атроф-муҳитта салбий таъсир қилади, ҳавони ифлослантиради сув хавзаларини заҳарлайди. Шундай экан, "бизнес-атроф-муҳит" доимо зиддиятлар билан ривожланади. Цивилизациянинг ҳозирги даврида бизнес фаолияти ривожланиб борган сари атроф-муҳитга кўпроқ салбий таъсир қилиш тенденцияси намоён бўлмоқда ва натижада бизнес ва атроф-муҳит диалектикаси жамиятда иқтисодий ўсиш ва экологик барқарорлик ўртасида ўртасида номуносивбликни вужудга келтирмоқда.

Миллий даромадни ишлаб чиқаришда аҳолининг эҳтиёжлари қондирилади ва шу билан биргаликда ресурслар истеъмол қилинади, чиқиндилар ҳам ишлаб чиқарилади, атроф-муҳит ифлосланади, сув хавзалари заҳарланади, ерларни шўрлаштиради ва оқибатда ҳосилдорликни пасайтиради.

XX асрда бўлиб ўтган ишлаб чиқаришдаги зиддиятлар, авариялар (фалокатлар), катастрофалар (ижтимоий фожиалар) ва фавкулотда вазиятлар; Ленинград (ҳозирги Санкт-Петербург) шаҳридаги АЭС (1975 йил) авария (фалокат) оқибатида атмосферага чиқиб кетган радиоактив заҳарли газлар, Чернобыль АЭС (1986 йил) аварияси (фожиаси), Фукусүма-1(Япония 2011 йил) аварияси (фожиаси), Англияда (1974 йил) кимё заводи (корхонасини) портлаши, Хиндистонда "Юнион Карбид" заводидаги (1984 йил) портлашда 5 минг одамлар заҳарланиб ўлди, Швецияда "Сандос" кимё заводидаги (1986 йил) пожар (ёнгин) Рейн атрофидаги фауналарга катта зарар етказди, Шотландиядаги "Пайпер Альфа" (1988 йил) нефть маҳсулотлари платформасида ёнгин бўлиб, 150 нафар одам вафот этди, атроф-муҳит ифлосланди ва Мексикада "Бритиш Петролеум" (2010 йил) нефть платформасида ёнгин бўлди ва сув хавзалари тўла заҳарланди. Юқоридаги ҳодисалар, авариялар (фалокатлар), катастрофалар (фожиалар) глобал иқлим ўзгаришига, атроф-муҳит ифлосланишига сабаб бўлди ва келтирилган иқтисодий зарар 1,4 трлн доллар деб баҳоланди.

Шу билан бирга 1970 йилларда бир марталик пластик идишлар, банкалар, қутиларни ишлаб чиқариш, оммавий тўс олди, уларни чиқиндилари денгиз ва океанларда тўпланиб, оролчаларни вужудга келтиради. Натижада денгиз ва океан жониворлари пластикларни сув медузалари, кичик океан жониворлари деб истеъмол қилишди. Бунинг оқибатида фожеалар юз берди, қушлар ва балиқлар оммавий қирилиб кетди.

Бу экологик фожеани олдини олиш мақсадида Европа иттифоқи бир марталик фойдаланиладиган пластик идишларни

ишлаб чиқариш ва сотишни таъқиқлаб қўйди. Бу вақтда собиқ СССРда идишлар, бутилкалар экологик тоза қоғоздан ишлаб чиқаришлар эди, уларни қайта ишлаш арзон эди.

Инсон фаолияти таъсирида атроф-муҳит ўзгаради. Далаларда ҳосил йиғиб олинди, янги йўллар қурилди, батолар, шаҳарлар, фабрика ва заводлар пайдо бўлди, ўрмонлар кесилди, нефть газ кўмир қазиб олинди, хайвонлар тури камайди, тупроқ ва сув инкирози вужудга келди. Дунё аҳолиси 1950 йилда 2,5 млрд эди ва 2022 йилга келиб, 8 млрд бўлди. Гавай университети профессори Роберт Коун таъкидлашча, "биосферани бузилишига, атроф-муҳитнинг ифлосланишига фақат инсонлар сабабчидир"⁹.

Демак, охириги 500 йил ичида биохилмаҳилликнинг 850 тури йўқ бўлиб кетган бўлса, кейинги 30 йил ичида инсон фаолиятини табиатга салбий таъсири ўн икки баробарга ошган.

XX асрнинг 70-80 йилларида Лос-Анжелес ва Токио шаҳарларида атроф-муҳит ифлосланишдан одамлар махсус "противогаз" кийиб юришган. XX асрнинг 70 йилларидан бошлаб, автомобиллардан атмосферага чиқаётган заҳарли газларнинг меъёрлаштириш учун автомобиль двигателларини янгидан реконструкция қилинган.

Ер юзида аҳолини кўпайиши, экин ерларини мелиоратив ҳолатини яхшилаш, озиқ-овқат маҳсулотларини кўпроқ ишлаб чиқариш ва тоза ичимлик сувини таъминлаш масалалари кун тартибига қўйилди. Ҳозирги вақтда моддий неъматларни ишлаб чиқариш жараёни автоматлаштирилмоқда, роботлашмоқда, натижада умумий харажатлар қисқармоқда, меҳнат унумдорлиги ошиб бормоқда, лекин иқтисодий ўсиш ва экологик барқарорлик номуносивблиги кучаймоқда. Яъни анъанавий иқтисодиётнинг провард натижалари (ЯИМ) экологик хавфсизлик мезонларига мос келмаяпти.

Жамиятда жисмоний, табиий ва инсон капиталининг такрор ишлаб чиқариш мезонлари бир-бирига мос келиши лозим.

Хулоса. Келажақда табиий ресурслардан фойдаланишида макроиқтисодиётни ривожланиши бу номуносивбликка ечим топади. Иқтисодий ва экологик экспертлар (ЮНЕСКО ва ЮНЕП) фикрича, табиий капитал таркибига: биологик хилмаҳиллик, экотизим хизматлари, ернинг тузилиши, тупроқ унумдорлиги, сув ресурсларидан фойдаланиш, экин ерлар майдони, ўрмонлар ва х.к.), биологик турлар (озиқ-овқат маҳсулотлари) ва гена (соғлиқни сақлаш, касалликка чидамлик, дори-дармонлар, иқлимга мослашиш ва х.к.) кириши мумкин.

Анъанавий иқтисодиёт ва атроф-муҳит мувозанатини сақлаш учун экологик маҳсулотлар бозорини жадал ривожлантириш зарур.

Агар миллий иқтисодиёт тармоқлар ва соҳалар ишлаб чиқараётган товар ва хизматлар бозори 75-80 % бўлса, бу ҳолда экологик маҳсулотлар бозори 20 % бўлиб, қуйидагича шаклланади.

➤ шаҳар ва қишлоқ аҳолисини тоза ичимлик суви билан таъминлаш, сув тозалаш технологияларидан самарали фойдаланиш;

➤ қаттиқ жисмлар ва радиоактив заҳарли чиқиндиларни қайта ишлаш саноатини барпо қилиш;

➤ чиқиндилардан иккиламчи маҳсулотларни ишлаб чиқаришни ривожлантириш;

➤ энергия тежамкор, "яшил" технологиялардан фойдаланиш;

➤ экологик тоза маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва озиқ-овқат индустриясини барпо қилиш;

➤ ердаги транспорт саноатига муқобил ёқилги турларини жорий қилиш.

Шу билан бир қаторда янги соҳаларни ривожлантириш зарурати туғилади:

- ✓ экологик туризм;
- ✓ органик дехкончилик;
- ✓ экологик машинасозлик;
- ✓ экологик фармацевтика ва косметика;
- ✓ экологик қурилиш.

Хулоса қилиб айтганда, бу ишларнинг амалга ошиши натижасида иқтисодий ўсиш ва экологик хавфсизлик мезонлари бир-бирига мос келишини таъминлайди. Бу жамиятда иқтисодий ва экологик мувозанатни шакллантиради.

⁹ Голованов. Г., Новое массовое вымирание. За 500 лет планета потеряла до 260 тысяч всех видов. <https://hiatech plus 2022 r>.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC). (2021). *Climate Change 2021: The Physical Science Basis*. Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/9781009157896>
 2. Stern, N. (2007). *The Economics of Climate Change: The Stern Review*. Cambridge University Press.
 3. United Nations Environment Programme (UNEP). (2011). *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication*. <https://www.unep.org/resources/report/towards-green-economy>
 4. Zoirov, J., & Mamaraimov, N. (2019). *Ekologik muammolar va ularni hal etish yo'llari*. Toshkent: Fan.
 5. World Bank. (2020). *Uzbekistan: Climate Change and Green Growth Country Assessment Report*. Washington, DC: World Bank Group.
 6. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2012). *Green Growth and Developing Countries: A Summary for Policy Makers*. OECD Publishing.
 7. United Nations Development Programme (UNDP). (2022). *Human Development Report 2022: Uncertain Times, Unsettled Lives*. New York: UNDP.
 8. Butaboyev, M. T. (2023). *Iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhit: Barqarorlik va ziddiyatlar*. *FarPI ilmiy jurnali*, 15(2), 45-62.
- Statistical Committee of Uzbekistan. (2022). *Environmental Statistics of Uzbekistan 2021*. Tashkent: Goskomstat.



BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIGI ASOSIDAGI KORXONALARINING O'RNI

Muminova Elnorakhon Abduakrimovna

Farg'ona davlat texnika universiteti Iqtisodiyot kafedrası professori

ORCID: 0000-0002-1226-7568

Talabov Xumoyun Qahramon o'g'li

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti magistranti

ORCID: 0009-0003-5945-6432

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 3 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1114 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	Maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosidagi korxonalarining iqtisodiyotga ta'siri va ularning faoliyatini takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi. Mamlakatimizning transport va infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan strategik rejalari, DXSh modelini keng joriy etish orqali davlat byudjeti yukini kamaytirish, iqtisodiy o'sishni tezlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, transport-logistika tarmoqlaridagi yangilanishlar, jumladan, temiryo'l, avtomobil, havo va quvur yo'llari infratuzilmasini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklikning roli hamda texnologik innovatsiyalar, raqamli transport xizmatlarining sohadagi o'zni ko'rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilayotgan loyihalar, mintaqaviy farqlarni kamaytirish va mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirishga qo'shayotgan hissa, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi muhokama qilinadi. Shu bilan birga DXSh modelining O'zbekiston iqtisodiyotidagi ahamiyatini, uning barqaror o'sishga qanday xizmat qilishini va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishdagi rolini yoritadi.

Kirish. Mamlakatimiz iqtisodiyotning tarmoq va sohalarini barqaror rivojlantirish, iqtisodiy jihatdan musatahkamlash, aholi turmush darajasini oshirishda davlat xususiy sheriklik munosabatlarini yaxshilash, malakali kadrlarni yetishtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hususan, davlat xususiy sheriklik amaliyotini mamlakat iqtisodiyotida kengroq joriy etish, davlat xususiy sherikchilik munosabatlariga xususiy investorlarni qiziqishini oshirish, xususiy investorlarning infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishdan oladigan daromadlilikini oshirish va bu orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Bu borada hukumat tomonidan bir qator - chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" ¹ gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" ² gi 30.10.2024 yildagi 720-son qarori shular jumlasidandir. Mamlakatimizda "Davlat-xususiy sheriklik asosida va xalqaro moliya institutlaridan jalb qilinadigan mablag'lar hisobidan 2 milliard dollarlik umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish loyihalarini amalga oshirish, davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalarni daromadlilik va Davlat budjetiga yukini inobatga olib, ularni tasniflash hamda loyiha yo'nalishlari bo'yicha boshqarish tizimini joriy etish, 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish, Samaradorligi past bo'lgan hududiy aeroportlarni davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish, Toshkent — Samarqand va Toshkent — Farg'ona vodiysi yo'nalishlarida davlat-xususiy sheriklik asosida avtomobil yo'llarini qurish, xalqaro moliya institutlari bilan O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ishlab chiqish jamg'armasini tashkil etish" ³ masalalari bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqish asosiy maqsadlardan deb belgilangan.

Adabiyotlar tahlili. Davlat xususiy sherikchiligi asosidagi korxonalar va ularning faoliyatini takomillashtirish bo'yicha mamlakatimiz bir qator olimlari tadqiqot olib borganlar. Hususan, N.

Shavkatov o'z tadqiqotlarida davlat xususiy sheriklik (DXSh) amaliyotini rivojlantirish orqali infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda xususiy investorlar ishtirokini oshirish masalalari va ahamiyati keng yoritgan. Hususan, DXSh o'zaro iqtisodiy munosabatlar, bunday munosabatlarni rivojlantirish borasidagi xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishning ahamiyatli jihatlari, xususan, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini qarz kapitali orqali moliyalashtirishning ekonometrik asoslarini tahlili va moliyalashtirishni takomillashtirishga doir takliflar N.N. Obblomurov tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Y. A. Toyirov tadqiqotlarida davlat-xususiy sherikchilik asosida amalga oshiriladigan loyihalarni moliyalashtirishning xorij tajribalari va mamlakatimizda DXShlarni moliyalashtirishning o'ziga xos tomonlarini o'rganish, xulosa va takliflarini kiritgan.

A.I. Raxmatov o'z tadqiqotlarida turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda davlat va xususiy sherikchilikning o'zaro bog'liqligini asoslab bergan.

Davlat-xususiy sheriklik barqaror rivojlanishni moliyalashtirishning istiqbolli mexanizmi, xususiy va davlat manfaatlarini uyg'unlashtirish, tadbirkorlik va davlat investitsiyalarini birlashtirish, barqaror rivojlanish sohasidagi tashabbuslarni yuqori samarali va keng miqyosda amalga oshirish bo'yicha Bruno S. Sergi, Elena G. Popkova, Kseniya V. Borzenko va Natalia V. Przhedetskayalar amaliy tavsiyalarni asoslab berishgan.

Chethan Ramanna Kumar, Balaji Kannan, Pooja Hemmachimane Keshavammaiah va Satyanarayana Parayitamlar o'z tadqiqotlarida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) ham davlat, ham xususiy sektorning kuchli tomonlaridan foydalanish orqali infratuzilma va barqarorlik muammolarini hal qilish va ushbu infratuzilmani rivojlantirish bilan bog'liq bir nechta taklif va mulohazalar keltirishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda davlat xususiy sherikchilik korxonalarining ahamiyati va hususiyatlarini o'rganish uchun bir nechta asosiy metodlardan foydalanildi. Ma'lumotlar yig'ishda ilmiy manbalar, statistik hisobotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahliliga asoslangan ish olib borildi. Tahlil jarayonida yig'ilgan

¹ O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" gi Qonuni. 2019-yil 3-may. <https://lex.uz/mact/-4329270>

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 30.10.2024 yildagi 720-son qarori. <https://lex.uz/docs/-7180726>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" gi 11.09.2023 yildagi PF-158-son farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

ma'lumotlar strukturaviy va qiyosiy usullar yordamida qayta ishlanib, ularning dinamikasini aniqlash uchun statistik metodlar qo'llanildi. Tahlilning asosiy yo'nalishi transport va logistika sohasidagi o'zgarishlar dinamikasi, transport xizmatlarining umumiy hajmi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash va mazkur sohalarida davlat xususiy sherikchili borasida amalga oshirilayotgan ishlar va ularning natijalarini aniqlashga qaratildi. Ushbu metodologiya tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlab, davlat xususiy sherikchiligi asosidagi korxonalarning

Davlat-xususiy sherikligining umumiy xususiyatlari⁴

Xususiyatalari	Umumiy tavsifi
Hamkorlik	davlat va xususiy sektor ma'lum loyihalarni amalga oshirish uchun hamkorlik qiladi.
Uzoq muddatlilik	DXSh odatda 10-30 yil yoki undan ko'proq muddatga mo'ljallangan bo'ladi.
Tavakkalchilik va foyda taqsimoti	tomonlar o'zaro risklarni taqsimlaydi va loyihadan foyda ko'rishadi.
Yuridik tartibga solish	DXSh qonuniy shartnomalar asosida amalga oshiriladi.
Davlat va xususiy manfaatlar uyg'unligi	asosiy maqsad davlat xizmatlarining sifatini oshirish va infratuzilmani rivojlantirishdir.

Xalqaro miqyosda davlat-xususiy sheriklik yangi infratuzilma obyektlarini qurish va amalga oshirish yoki mavjud transport infratuzilmasini ta'mirlash, ekspluatatsiya qilish, saqlash va boshqarish uchun samarali usul bo'lishi mumkin.

Transport infratuzilmasi (aeroportlar, portlar, temir yo'llar, avtomobil yo'llari, shahar transporti) barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va savdo uchun zarur hisoblanadi. U insonlarni va mintaqalarni bog'laydi hamda korxonalarni bozorga ulaydi. Samarali transport infratuzilmasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shadi.

Kelgusi 20 yil ichida dunyo miqyosida transport sohasiga juda katta investitsiyalar kiritilishi kutilmoqda. Bu aholining ko'payishi va iqtisodiy o'sish natijasida oshib borayotgan talabni qondirish uchun zarur bo'ladi. Shu bilan birga, mavjud infratuzilmani ta'mirlash va kengaytirish ham talab etiladi, chunki transport vositalarining hajmi oshib boradi (masalan, yirik samolyotlar va kemalar). Ushbu talabning katta qismi rivojlanayotgan iqtisodiyotlardan kelishi kutilayotgan bo'lsa-da, rivojlangan mamlakatlarda ham katta infratuzilma loyihalariga ehtiyoj bo'ladi.


faoliyatini takomillashtirish bo'yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi.

Tadqiqot natijalari. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) – bu davlat va xususiy sektor o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik shakli bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish uchun yaratiladi. Bu sheriklik davlatning resurslari va boshqaruv vakolatlari bilan xususiy sektorning investitsiyalari, innovatsion yondashuvlari va samaradorligini birlashtiradi.

DXSh hukumatlarga qo'shimcha kapital va xususiy sektorning texnik tajribasidan foydalanish imkonini beradi. Bu kelgusi o'n yilliklarda aholining yangi va kengaytirilgan transport infratuzilmasiga bo'lgan talabini qondirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Transport sohasi bir nechta yo'nalishlarni o'z ichiga olganligi sababli, DXSh tuzilmalari har bir yo'nalishga mos ravishda turlicha bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, barcha yo'nalishlar uchun muhim bo'lgan bir qancha umumiy mavzular mavjud⁵:

- Transport infratuzilmasi o'z mohiyatiga ko'ra monopolistik aktiv hisoblanadi. Shuning uchun infratuzilmaga kirish va raqobatni tartibga solish iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.
- Xususiy konsorsiumning infratuzilma foydalanuvchilaridan tarif undirish imkoniyati muhim tarkibiy jihat hisoblanadi. Bu ham jamoat manfaatiga, ham xususiy konsorsiumning investitsiyalarini qoplash imkoniyatiga ta'sir qiladi.
- Infratuzilmaning daromad / talab xavfini taqsimlash masalasi transport sohasidagi DXSh loyihalarida hukumat va xususiy konsorsium o'rtasidagi asosiy muzokaralardan biridir.



1-rasm. Transport va logistika sohasidagi bitimlarning umumiy qiymati⁶

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, dunyoda transport va logistika sohasidagi global M&A faoliyat 2023-yilda o'n yillik eng past

darajaga tushib ketgan. Biroq 2024-yilda biroq o'sish darajasi kuzatilgan bo'lsa-da, avvalgi yillarga nisbatan hali ham pastligicha qolmoqda.

⁴ Muallif ishlanmasi.

⁵ <https://ppp.worldbank.org/public-private-partnership/transportation/public-private-partnerships-transport>

⁶ <https://www.pwc.de/de/transport-und-logistik/pwc-transport-and-logistics-barometer-h2-2024.pdf>

2024-yilda o'rtacha bitim qiymati 483,8 million dollarga yetdi (2023-yilda 393,2 million dollar edi). Jami bitim qiymati esa 96,3 milliard dollarga ko'tarildi (2023-yilda 75,9 milliard dollar edi). Ushbu o'sish 21 ta mega-bitim tomonidan ta'minlandi, ular 2024-yildagi umumiy bitim qiymatining taxminan 55% ini tashkil etdi. Ushbu bitimlarning asosiy yo'nalishi logistika, yuk tashish va infratuzilma bo'ldi.

Investorlar logistika va yuk tashish segmentiga katta qiziqish bildirishda davom etmoqda. 2024-yilda ushbu yo'nalish barcha bitimlarning 50% ini (99 ta bitim) va umumiy bitim qiymatining 52% ini (50,2 milliard dollar) tashkil qildi. Ushbu segment bo'yicha bitimlar soni 2023-yildagiga (79 ta bitim) nisbatan qariyb chorak qismga oshgan

bo'lsa-da, umumiy bitim qiymati deyarli ikki baravar ko'paydi (2023-yilda 25,3 milliard dollar edi).

Fikrimizcha, infratuzilma bilan bog'liq bitimlar barcha bitimlarning 26% ini tashkil etdi va jami bitim qiymatining 30% ga to'g'ri keldi. Bu avvalgi davrlarga mos keladi.

Umuman olganda, transport va logistika sanoati gorizonttal va vertikal integratsiya orqali faoliyatini kengaytirishda davom etmoqda. Asosiy maqsad operatsiyalarni diversifikatsiya qilish, samaradorlikni oshirish va kompleks xizmatlar ko'rsatishdan iborat. Ushbu tendensiyalar Transport & Logistics Barometer 2024 hisobotining o'rta yilgi nashrida batafsil tahlil qilingan.

O'zbekistonda transport vositalari orqali jo'natilgan yuklar va yuk aylanmasi (mln t-km)⁷

Transport turlari	2019	2020	2021	2022	2023
Havo transporti	21,5	20,3	48,5	75,5	61,2
Temir yo'l	5 386,1	5 500,5	5 523,5	5 778,4	5 912,9
Avtomobil transporti	2 782,8	2 917,4	3 212,3	3 406,7	3 420,2
Quvur yo'li transporti	8 551,2	8 397,8	7 987,1	7 979,0	7 272,6

O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha belgilangan strategik maqsadlar va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mamlakatning mintaqaviy va global transport tizimiga chuqur integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan bo'lib jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki:

1. O'zbekiston transport-logistika tarmoqlariga chuqur integratsiya qilish orqali tranzit yuklarini 16 mln tonnaga yetkazish maqsad qilib qo'yilgan. Jadvaldagi temiryo'l transportini o'sib borayotgan ko'rsatkichlari (2019-yildan 2023-yilgacha 5 912,9 mln t-km o'sish) bu maqsadga erishishda asosiy vositalardan biridir. Shu bilan birga, quvur yo'li transportida hajmlarning pasayishi global eksport bozoridagi o'zgarishlarga moslashish zarurligini ko'rsatadi.

2. Avtomobil transporti yuk tashishda moslashuvchan vosita hisoblanadi. Jadvalga ko'ra, avtomobil transportining yuk tashish hajmi 2019-yildan 2023-yilgacha 3 420,2 mln t-km ga o'sdi. 56 ming km yo'llarni qurish va ta'mirlash, shuningdek, qishloq hududlarida 5,5 ming km sement-beton qoplamali yo'llarni barpo etish ushbu sohaning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

3. Havo transporti infratuzilmasini rivojlantirish orqali xalqaro yuk va yo'lovchi tashishni kengaytirish rejalashtirilgan bo'lib va jadvalga

asosan shuni ko'rishimiz mumkinki havo transportida 2023-yilda yuk tashish hajmi 61,2 mln t-km ni tashkil etdi. Shu bilan birga aviaqatnovlar sonini 4 barobarga oshirish, aeroportlarni modernizatsiya qilish va "Ochiq osmon" rejimini joriy etish orqali O'zbekistonning havo transporti bo'yicha logistika markaziga aylanishi rejalashtirilgan.

4. Jadvalda quvur yo'li transportida 2019-yildan 2023-yilgacha yuk tashish hajmining pasaygani (8 551,2 mln t-km dan 7 272,6 mln t-km gacha) ko'zga tashlanadi. Ushbu pasayishni bartaraf etish uchun eksport yo'nalishlarida yangi quvurlarni qurish, tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va mavjud quvur tarmoqlarini modernizatsiya qilish ko'zda tutilgan.

Transport-logistika sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va investitsiya dasturlari O'zbekistonni mintaqaviy va xalqaro miqyosda strategik transport markaziga aylantirishga xizmat qiladi. Mazkur chora-tadbirlar transport tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, tranzit yuklarni ko'paytirish hamda transport xizmatlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Davlat xususiy sherikchiligi asosidagi korxonalarning iqtisodiyotga ta'siri⁸

Ta'sir sohalari	Umumiy tavsifi
Investitsiyalarni jalb qilish	DXSh xususiy sektor mablag'larini jalb qilish orqali davlat byudjeti yukini kamaytiradi va infratuzilma loyihalarini tezroq amalga oshirishga yordam beradi. Bu esa iqtisodiy o'sishga turtki beradi.
Ish o'rinlari yaratish	Yangi loyihalar amalga oshirilishi natijasida yangi ish o'rinlari yaratiladi. Bu ishsizlik darajasining pasayishiga va aholi daromadlarining oshishiga olib keladi.
Samaradorlik va innovatsiyalarni oshirish	Xususiy sektor menejmenti va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tajribaga ega bo'lgani uchun DXSh asosida tashkil etilgan korxonalar samarali ishlaydi va innovatsiyalarni tezroq qo'llaydi.
Davlat xarajatlarini kamaytirish	DXSh modeli davlatga infratuzilma va ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirishda xususiy kapitalni jalb qilish imkoniyatini beradi, bu esa byudjet xarajatlarini kamaytiradi.
Mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish	DXSh orqali davlat yirik loyihalarda mahalliy xususiy kompaniyalarni ishtirok etishga jalb qiladi, bu esa kichik va o'rta biznes rivojlanishiga yordam beradi.
Xizmatlar sifatini oshirish	DXSh asosidagi korxonalar bozor mexanizmlariga asoslangan ishlashi tufayli taqdim etilayotgan xizmatlar sifati oshadi.
Mintaqaviy rivojlanishga hissa qo'shish	DXSh loyihalari odatda infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ular uzoq hududlarda yo'llar, elektr energiyasi va suv ta'minotini yaxshilash orqali mintaqaviy farqlarni kamaytirishga yordam beradi.

Umuman olganda, DXSh asosidagi korxonalar davlat va xususiy sektor imkoniyatlarini birlashtirib, iqtisodiyotning barqaror o'sishiga va rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

⁷ O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi Ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=436&id=3324&Itemid=1000000000000

⁸ Muallif ishlanmasi

Transport xizmatlari hajmi (Yillik) viloyatlar kesimida (mlrd.so'm hisobida)⁹

Klassifikator	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	54473,5	53662,9	67238,6	83985,6	108090,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1486,3	1673,4	2303,7	2867	3180,7
Andijon viloyati	2184,2	2479,7	2991,3	3589,9	4373,3
Buxoro viloyati	1983,9	2238,4	2906,5	3298,1	4034,3
Jizzax viloyati	716,4	826,8	1056	1182	1466,8
Qashqadaryo viloyati	1994,4	2171,7	2916,3	3405,2	4104
Navoiy viloyati	935,2	998,5	1337,6	1541,3	1791,6
Namangan viloyati	1501,9	1632,1	2216	2624,7	3369,3
Samarqand viloyati	3152,9	3371,1	4604,7	5383,4	6680,9
Surxondaryo viloyati	1150	1252,6	1608,4	1922	2398,9
Sirdaryo viloyati	470,2	526,9	591,9	646,8	745,9
Toshkent viloyati	3531,5	4018,4	5186	5930,2	7274,3
Farg'ona viloyati	2435	2664,3	3618,6	4190,1	5120,6
Xorazm viloyati	1431,8	1568,3	2007,2	2432	2803,9
Toshkent shahri	7979,6	8114,7	10012,7	14363	19346

Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, transport xizmatlari hajmi yildan-yilga o'sib bormoqda, ayniqsa 2023-yilda sezilarli oshish kuzatilgan. O'zbekiston bo'yicha jami transport xizmatlari hajmi 2019-yildagi 54473,5 mlrd so'mdan 2023-yilda 108090,2 mlrd so'mga yetgan bo'lib, 2 barobar oshganligini ko'rish mumkin. Eng o'siah sur'atini Toshkent viloyati, Toshkent shahri, Samarqand viloyati, Farg'ona viloyatlarida kuzatilgan.

Toshkent shahri transport xizmatlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib 2023 yil yakunlari bo'yicha 19346 mlrd so'mni tashkil etgan. Toshkent viloyati ham yirik iqtisodiy markaz bo'lib, 7274,3 mlrd so'm bilan ikkinchi o'rinni egallamoqda. Bu hududlarda sanoat, logistika va savdo markazlarining ko'pligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Samarqand, Farg'ona va boshqa yirik viloyatlari tarixiy va turistik jihatdan muhim bo'lib, logistika va transport infratuzilmasi rivojlangan. Farg'ona viloyati ham 5120,6 mlrd so'm bilan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, sanoat va savdo faoliyati tufayli transport xizmatlariga talab katta ekanligi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bank, T. X. O. Z. R. (2024). DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY VA NAZARIY ASOSLARI: Toshmanov XA. *Ustozlar uchun*, 1(1), 117-120.
2. Elmiraev S.E., Shavkatov N.Sh. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining ilg'or xorij tajribalari va mamlakatimizda qo'llash istiqbollari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. No 3, iyun,2019 yil
3. Oblomurov, N., & Shavkatov, N. (2023). Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini qarz kapitali orqali moliyalashtirishni takomillashtirish. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(11-12).
4. Toyirov, Y. (2024). Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(7).

Xulosa va takliflar.

Fikrimizcha, transport xizmatlari hajmining oshishi O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining muhim ko'rsatkichi bo'lib, urbanizatsiya, sanoat, savdo va turizmning o'sishi bilan chambarchas bog'liq. Mazkur sohani rivojlantirish uchun bir qator ishlarni amalga oshirilmogda. Jumladan, transport va logistika tizimi yanada rivojlanishi kutiladi, chunki yirik shaharlar o'rtasida infratuzilma loyihalari amalga oshirilmoqda; mintaqaviy transport xizmatlari diversifikatsiyalanishi mumkin, ya'ni yuk tashish, jamoat transporti va logistika sohalarida yangi xizmatlar paydo bo'lmoqda; texnologik o'zgarishlar – Raqamli transport xizmatlari, onlayn logistika platformalari va aqlli transport tizimlari rivojlanishi kutilmoqda. Texnologik innovatsiyalar, raqamli logistika xizmatlari va ekologik toza transport tizimlariga sarmoya kiritish bu sohaga yangi sur'at bag'ishlashi mumkin. Shu sababli, mamlakat transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish strategik jihatdan muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

5. Raxmatov, A. (2024). Turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda davlat va xususiy sherikchilikning o'zaro bog'liqligi tahlili. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(4).
6. Sergi, B. S., Popkova, E. G., Borzenko, K. V., & Przhedetskaya, N. V. (2019). Public-private partnerships as a mechanism of financing sustainable development. *Financing sustainable development: Key challenges and prospects*, 313-339.
7. Kumar, C. R., Kannan, B., Keshavammaiah, P. H., & Parayitam, S. (2025). Public private partnership for the sustainable infrastructure development: a systematic literature review. *Quality & Quantity*, 1-19.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonida tuzilgan. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>
https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_1213.pdf



О'ZBEKISTON DAVLAT BUDJETIDA AKSSIZ SOLIG'I TUSHUMLARINING DINAMIKASI VA TAHLILI

Ergashev Ilxomjon Obodovich

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti dekan muovini,
iqtisod fanlari nomzodi,
ilxomjonergashev849@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil

Jurnal soni: 14

Maqola raqami: 4

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1115>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

aksiz solig'i, davlat budjeti, soliq tushumlari, fiskal siyosat, iqtisodiy barqarorlik, soliq stavkalari, soliq bazasi, byudjet daromadlari, o'sish sur'atlari.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi davlat budjetida aksiz solig'i tushumlarining o'rni va ularning yillik o'sish sur'atlari tahlil qilingan. 2017–2024 yillar davomida aksiz tushumlarining dinamikasi statistik ma'lumotlar asosida ko'rib chiqilgan hamda ularning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi fiskal ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birga, soliq tushumlarining umumiy budjet daromadlaridagi ulushi, strukturaviy o'zgarishlar va asosiy omillar (aksiz stavkalari, soliq bazasi kengayishi, ichki iste'mol) tahlil qilinib, sohada mavjud muammolar va istiqboldagi yo'nalishlar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada grafiklar va jadval ko'rinishidagi ko'rsatkichlar orqali real holat ochib berilgan.

Kirish. Dunyo shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda har bir davlat o'zining iqtisodiy mustaqilligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashi zarur. Moliyaviy erkinlik esa asosan davlatning ichki ishlab chiqarish salohiyati, eksport imkoniyatlari va fiskal siyosatining samaradorligi bilan belgilanadi. Bu jarayonda bilvosita soliqlar, xususan aksiz solig'i, davlat budjetining barqaror moliyaviy manbasi sifatida muhim o'rin egallaydi.

Empirik tahlillar orqali aksiz solig'i tushumlarining o'sish sur'atlari, iqtisodiy faollik, iste'mol darajasi va davlat moliyaviy siyosati o'rnatidagi bog'liqliklar aniqlanadi. Ayni tahlillar aksiz stavkalaridagi o'zgarishlar, iste'mol strukturasi, ishlab chiqarish hajmi va import hajmining fiskal tushumlarga ta'sirini hisoblash imkonini beradi. Bu esa hukumat uchun soliqqa oid siyosatni takomillashtirish, sog'liqni saqlash va ekologik xavfsizlik bilan bog'liq ehtiyojlarni moliyalashtirishda muhim axborot manbaiga aylanadi. Aksiz solig'i tushumlarining daromadlar tarkibidagi ulushi va ularning fiskal foydaliiligi o'rganiladi. Tahlillar natijasida mazkur soliq turi orqali byudjetga tushayotgan daromadlar strukturasi aniqlash, ularni iqtisodiy tarmoqlar kesimida taqsimlash va samaradorligini baholash mumkin. Empirik yondashuv yordamida esa kelgusida aksiz solig'i siyosatini qayta ko'rib chiqish, uning fiskal samaradorligini oshirish va barqaror byudjet siyosatini yuritish uchun asos yaratiladi.

Aksiz solig'i tushumlarini chuqur tahlil qilish davlat budjetining daromad bazasini mustahkamlash, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va soliqqa tortish tizimini optimallashtirishda muhim vositaga aylanib borayotgani mavzuning dolzarbligi va shu mavzuda tadqiqot olib borishni taqozo etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi davlat budjetida aksiz solig'i tushumlarining o'rni va ularning yillik o'sish sur'atlari tahlil ta'sirini baholashning empirik taxlilarni amalga oshirish uchun quyidagi metod va usullardan foydalanilgan:

Statistik tahlil usullari: Aksiz solig'i tushumlarining yillik o'sish sur'atlari, ularning davlat budjeti daromadlaridagi ulushi va nomutanosib o'zgarishlari o'rganildi. Soliq tushumlari bilan iqtisodiy o'sish, inflyatsiya darajasi va iste'mol hajmi o'rnatidagi bog'liqlik korrelyatsiya va chiziqli regressiya analizi orqali baholandi.


Panel tahlil: Bu usul orqali aksiz solig'i tushumlarining yillik o'zgarishi va davlat budjeti barqarorligi o'rnatidagi bog'liqlik ko'p yillik kesimda tahlil qilindi. Bu metodologiya orqali 2017–2024 yillar orasidagi vaqt oralig'i bo'yicha aniq trendlar va ta'sir omillari aniqlangan.

Siyosiy-iqtisodiy yondashuv: 2017–2024 yillar davomida qabul qilingan prezident qarorlari, normativ-huquqiy hujjatlar va fiskal islohotlar aksiz tushumlariga qanday ta'sir ko'rsatgani tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari tarkibida aksiz solig'i muhim o'rin tutadi. 2017–2024 yillar davomida aksiz solig'i tushumlarining o'zgarish dinamikasi, tarkibiy ulushi hamda yillik o'sish sur'atlari tahlil qilindi. Shuningdek,

aksiz stavkalaridagi o'zgarishlar, ichki iste'mol hajmidagi o'zgarishlar va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bilan bog'liqlik asosida soliq tushumlariga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi.

1-rasm. Aksiz solig'i tushumlari va o'sish sur'atlari bo'yicha 2017–2024 yil ma'lumotlari.



O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarining muhim manbalaridan biri bo'lgan aksiz solig'i 2017–2024-yillar mobaynida salmoqli o'sish sur'atlarini namoyon etgan. Ushbu davr mobaynida tushumlar hajmi 9,2 trln so'mdan (2017) 17,8 trln so'mga (2024) yetgan bo'lib, bu soliq turi byudjetga barqaror tushum manbai sifatida xizmat qilayotganini tasdiqlaydi.

Tushumlar dinamikasi:

- 2017-yilda tushum 9,2 trln so'm, bu boshlang'ich nuqtadir.
- 2018-yilda 11,2 trln so'm ga oshgan (o'sish: 121,7%). Bu yil soliq stavkalari va aksiz ostidagi tovarlar ro'yxati qayta ko'rib chiqilgan.
- 2019-yilda 10,3 trln so'm tushum (o'sish: 92%) — bu pasayish fiskal siyosatdagi vaqtinchalik yumshatishlar, ayrim mahsulotlarga aksiz stavkalarining pasayishi bilan bog'liq.

2020–2024 yillarda esa tushumlar izchil o'sib borgan:

- 2020: 11,7 trln so'm (113,6%)
- 2021: 13,1 trln so'm (112%)
- 2022: 13,5 trln so'm (103,1%)
- 2023: 15,8 trln so'm (117%)
- 2024: 17,8 trln so'm (112,7%)

Ushbu dinamikadan ko'rinib turibdiki, aksiz tushumlari bo'yicha pandemiya davri (2019–2020) ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatgan, biroq barqaror fiskal siyosat va raqamlashtirilgan soliq boshqaruvi tufayli bu soliq turi tez fursatda tiklanib, barqaror o'sish sur'atiga qayta olgan.

O'sish sur'atlari (% , yillik) ham muhim iqtisodiy indikator sifatida xizmat qiladi.

- 2018 yildagi 121,7% o'sish – bu yuqori o'sish yillik stavkalarining o'zgarishi, yangi tovar guruhlarning aksizga tortilishi va iste'mol o'sishi bilan bog'liq.

- 2019 yildagi 92% o'sish – bu soliq yukining qisqarganidan darak beradi. Ayrim tovarlar aksiz ro'yxatidan chiqarilgan bo'lishi mumkin.

- 2020–2024 yillardagi barqaror 103–117% oralig'idagi o'sish – bu aksiz solig'i tushumlari hajmida muvozanatli siyosat yuritilayotganining belgisi.

Aksiz solig'i fiskal siyosatning ikki asosiy yo'nalishini qamrab oladi:

1. Byudjet barqarorligini ta'minlash yuqori rentabellikka ega mahsulotlardan tushum yig'ish orqali davlat xarajatlarini moliyalashtirish.

2. Ijtimoiy tartibga solish tamaki, alkohol, energetik ichimliklar, elektron sigaretlar kabi zararli mahsulotlar iste'molini kamaytirish.

Shu sababli, bu soliq turi davlat siyosatining ham iqtisodiy, ham sog'lomlashtirish strategiyasida muhim vositadir.

2014–2024 yillar oralig'idagi Aksiz solig'i Toshkent Shahar uchun prognoz va tushum ma'lumotlari bitta modelga jamlanib, Pooled OLS regressiya usuli orqali baholangan.

OLS Regression Results

Dep. Variable:	Tushum	R-squared:	0.998			
Model:	OLS	Adj. R-squared:	0.998			
Method:	Least Squares	F-statistic:	3.718e+04			
Date:	Tue, 01 Apr 2025	Prob (F-statistic):	2.06e-216			
Time:	05:26:34	Log-Likelihood:	-4124.3			
No. Observations:	165	AIC:	8255.			
Df Residuals:	162	BIC:	8264.			
Df Model:			2			
Covariance Type:			nonrobust			
	coef	std err	t	P> t	[0.025	0.975]
const	3.285e+12	8.72e+11	3.768	0.000	1.56e+12	5.01e+12
Prognoz	1.0488	0.004	272.465	0.000	1.041	1.056
Year	-1.626e+09	4.32e+08	-3.766	0.000	-2.48e+09	-7.74e+08
Omnibus:	73.246	Durbin-Watson:	0.588			
Prob(Omnibus):	0.000	Jarque-Bera (JB):	865.534			
Skew:	1.233	Prob(JB):	1.13e-188			
Kurtosis:	13.946	Cond. No.	2.50e+14			

Notes:

[1] Standard Errors assume that the covariance matrix of the errors is correctly specified.

[2] The condition number is large, 2.5e+14. This might indicate that there are strong multicollinearity or other numerical problems.

Model Natijalari

R-chiqarilgan (R²): 0.998

F-statistika: 3.718e+04

Prob(F-statistika): 2.06e-216

Regressiya tenglamasi

Tushum = 3.285e+12 + 1.0488 × Prognoz - 1.626e+09 × Yil

Omialarning statistik ahamiyati

- **Prognoz**: koefitsiyent 1.0488 (t = 272.465, P < 0.001) → Prognoz o'sishi tushumni sezilarli darajada oshiradi.

- **Yil**: koefitsiyent -1.626e+09 (t = -3.766, P < 0.001) → Vaqt o'tishi bilan tushumning pasayish tendensiyasi mavjud.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, prognoz va tushum o'rtasida juda kuchli bog'liqlik mavjud. R² qiymati 0.998 bo'lgani sababli, model tushumlarni deyarli to'liq aniqlikda bashorat qilishi mumkin.

Prognoz qilinayotgan tushum oshgani sari haqiqiy tushum ham sezilarli darajada ortadi (koefitsiyent: 1.0488). Bu shuni anglatadiki, prognozlash mexanizmi yaxshi ishlayotgani va unga asoslanib kelajakdagi tushumlarni ishonchli taxmin qilish mumkin.

Biroq, yillar o'tishi bilan tushumning biroz pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda (yil koefitsiyenti: -1.626e+09). Bu iqtisodiy omillar, soliqlarning o'zgarishi yoki bozor sharoitlarining ta'siri bo'lishi mumkin. Shu sababli, kelgusi yillarda tushumning pasayishiga yo'l qo'ymaslik uchun siyosiy va iqtisodiy choralar ko'rilishi kerak.

Agar prognozlash mexanizmi mukammallashtirilsa, tushumlarni yanada aniqroq bashorat qilish imkoniyati oshadi. Shu bilan birga, davlat daromadlarini barqaror saqlash uchun strategik rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot doirasida Toshkent shahri bo'yicha aksiz solig'i tushumlariga oid ekonometriya tahlili olib borildi. Ushbu tahlilda bilvosita soliqlarning davlat budjeti tushumlariga ta'sirini aniqlash maqsadida Oddiy Kichik Kvadratlar (OLS) usulida regressiya modeli

tuzildi. Modelda tushum (y) bog'lanuvchi o'zgaruvchi, prognoz va yil esa mustaqil o'zgaruvchilar sifatida olinib, ularning o'zaro ta'siri baholandi.

Model natijalari yuqori aniqlikka ega bo'lib, R² (aniqlik koefitsienti) 0.998 darajada baholandi, bu esa tushumlarning 99,8 foizi aynan prognoz va yil omillari bilan izohlanishini bildiradi. Regressiya tenglamasiga ko'ra, prognoz ko'rsatkichidagi har bir so'mlik o'sish haqiqatda o'rtacha 1.0488 baravariga tushumga aylanishi kuzatilgan. Bu esa byudjet ko'rsatkichlari ortiqcha bajarilishiga moyillik mavjudligini ko'rsatadi. Boshqa tomondan, "yil" ko'rsatkichi salbiy qiymatga ega bo'lib, vaqt o'tgan sayin aksiz tushumlariga tashqi iqtisodiy omillar (inflyatsiya, iste'mol kamayishi, tartib o'zgarishlari va h.k.) salbiy ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi.

Regressiya tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

Tushum = 3.285 × 10¹² + 1.0488 × Prognoz - 1.626 × 10⁹ × Yil

Agar 2025-yilda aksiz solig'i bo'yicha prognoz 5,1 trln so'mni, 2026-yilda esa 5,5 trln so'mni tashkil etsa, ushbu ko'rsatkichlarga mos holda regressiya asosidagi taxminiy tushum miqdori quyidagicha hisoblanadi:

$Tushum_{(2025)} = 3.285 \times 10^{12} + 1.0488 \times 5.1 \times 10^{12} - 1.626 \times 10^9 \times 2025 \approx 5.34 \text{ trln so'm}$

$Tushum_{(2026)} = 3.285 \times 10^{12} + 1.0488 \times 5.5 \times 10^{12} - 1.626 \times 10^9 \times 2026 \approx 5.76 \text{ trln so'm}$

Ushbu natijalar Toshkent shahrida bilvosita soliq tushumlari o'sishi davom etayotganini, biroq barqarorligini saqlab qolish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar zarurligini ko'rsatadi. Xususan, aksiz solig'i bazasini kengaytirish (yangi tovar turlarini aksizga tortish), imtiyozli rejimlarni tahlil qilish, sohalar bo'yicha differensial soliq yondashuvini qo'llash, shuningdek, elektron nazorat vositalari orqali soliq intizomini oshirish ushbu tushumlar barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, mazkur modelda olingan yuqori aniqlik va statistik ahamiyatli ko'rsatkichlar (t-statistika, p-qiymatlar) asosida ushbu metodologiyani boshqa hududlar va soliq turlariga nisbatan ham qo'llash mumkinligi aniqlanib, u universal tahliliy yondashuv sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Xulosa va takliflar. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarida aksiz solig'i muhim o'rinni egallab, fiskal barqarorlikni ta'minlashda asosiy moliyaviy manbalardan biri hisoblanadi. 2017–

2024 yillar oralig'ida aksiz tushumlari dinamikasi ijobiy tendensiyaga ega bo'lib, bu soliq turining fiskal salohiyati yildan-yilga ortib borayotganini ko'rsatmoqda.

Aksiz solig'i stavkalarining bosqichma-bosqich ko'tarilishi, zarur tovarlar ro'yxatining kengaytirilishi va soliqqa tortish bazasining takomillashtirilishi byudjetga tushumlar o'sishining asosiy omillari sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, sog'liqqa zararli mahsulotlarga nisbatan qo'llanilgan differensial stavkalar ijtimoiy siyosat bilan uyg'unlashgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aksiz tushumlarining o'sish sur'atlari mamlakatdagi iste'mol darajasi, ishlab chiqarish hajmi va import o'zgarishlari bilan bevosita bog'liq. Soliq siyosatining doimiy takomillashtirilishi fiskal samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Aksiz solig'i tushumlarini chuqur tahlil qilish orqali nafaqat davlat byudjetining barqarorligini ta'minlash, balki iqtisodiy-ijtimoiy siyosatni maqbullashtirish imkonini beruvchi aniq qarorlar qabul qilish mumkin. Bu esa o'z navbatida, sog'lom fiskal muhitni shakllantirish va resurslarni samarali taqsimlashga xizmat qiladi.

Takliflar:

1. Aksiz solig'i stavkalarini tabaqalashtirishni kuchaytirish – ijtimoiy zararli mahsulotlar (tamaki, alkogol, shakarli ichimliklar) uchun yuqoriroq stavkalar belgilash orqali sog'liqni saqlash xarajatlarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Soliq kodeksi 2020y
2. ipek yolu ve o'tesi kongre serisi kuşak ve yol: firsatlar ve cıkmazlarözet kitabı (24-dekabr, 2023-yil.)
3. ipek yolu ve o'tesi kongre serisi kuşak ve yol: firsatlar ve zorluklar tam metin kitabı (12-dekabr, 2022-yil.)

Internet mabalari.

1. <https://stat.uz/uz/>
2. <https://soliq.uz/>

2. Aksiz to'lovchilarning raqamli ro'yxatga olish va monitoring tizimini joriy qilish, ayniqsa ichki ishlab chiqaruvchilar va importyorlar faoliyatini avtomatlashtirilgan nazorat ostiga olish.

3. Aksiz solig'i tushumlarini tarmoq kesimida tahlil qilish – qaysi sohalar eng ko'p tushum keltirayotganini aniqlab, shu yo'nalishlarda soliq siyosatini qayta ko'rib chiqish.

4. Yashirin iqtisodiyot va noqonuniy mahsulot aylanmasiga qarshi kurashish choralarini kuchaytirish orqali aksiz solig'i tushumlarini ko'paytirish.

5. Import o'rnini bosuvchi mahsulotlarga nisbatan soliq yengilliklarini joriy qilish, ichki ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish orqali aksiz tushumlarining ichki manbalardan oshishini ta'minlash.

6. Soliq tushumlarining prognozlash mexanizmini takomillashtirish, ya'ni aksiz solig'i bo'yicha yillik tushumlar bo'yicha aniq prognoz modelini ishlab chiqish (masalan, ARIMA yoki regressiya modeli asosida).

7. Davlat byudjeti ochiqqligini ta'minlash va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish – aksiz solig'i tushumlarining qanday sarflanayotganini aholiga ochiq ko'rsatish orqali ishonchni oshirish.

8. Aksiz tovarlar ro'yxatini zamon talablariga mos ravishda qayta ko'rib chiqish, masalan, atrof-muhitga zararli mahsulotlar (plastik, chiqindili mahsulotlar)ni ham ushbu ro'yxatga kiritish.

3. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/download/212/203>
4. <https://green-eco.uz/index.php/GED/article/download/2494/2602>
5. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/download/171/165>
6. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/download/171/165>



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AGRAR SOHA FAOLIYATINING IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI STATISTIK USULLARDAGI TAHLILI

B.Utanov

TDIU "Iqtisodiy statistika" kafedrası proeffessori, PhD.

E-mail: bunyod1285@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil

Jurnal soni: 14

Maqola raqami: 5

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1116>

KALIT SO'ZLAR / КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

agrар soha, iqtisodiy rivojlanish, dehqonchilik mahsulotlari, hududiy tahlil, statistik usullar, o'sish sur'ati, ishlab chiqarish hajmi, suv resurslari.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida agrar soha faoliyatining iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari statistik tahlillar asosida o'rganilgan. Mamlakatning asosiy hududlari bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlari, ayniqsa, dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish ko'rsatkichlari yillik o'sish sur'atlari orqali tahlil qilingan. 2021–2024 yillar oralig'idagi real statistik ma'lumotlar asosida ishlab chiqarish hajmi, tashkilotlar ulushi, resurslardan foydalanish darajasi, suv ta'minoti, va hududiy tafovutlar ko'rib chiqilgan. Tahlillar natijasida agrar sohada mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish va sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan amaliy takliflar ilgari surilgan. Tadqiqot yakunida ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar shakllantirildi.

Kirish. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy taraqqiyotida agrar soha alohida o'rin tutadi. Aholining katta qismi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadi, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda esa ushbu sohaning roli beqiyosdir. So'nggi yillarda agrar sektorda tub islohotlar amalga oshirilayotgani, erkin bozor mexanizmlarining joriy qilinayotgani va ilmiy yondashuvlarning kuchaytirilayotgani ushbu sohaning iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini chuqur tahlil qilishni talab qilmoqda. Ayniqsa, statistik usullar orqali olib boriladigan tahlillar qishloq xo'jaligi faoliyatining hozirgi holatini, rivojlanish sur'atlarini hamda istiqboldagi imkoniyatlarini aniq belgilashga xizmat qiladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, O'zbekistonda agrar sohani raqamli transformatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha davlat darajasida strategik vazifalar belgilangan. Bunda har bir subyekt faoliyatining samaradorligini statistik jihatdan tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va yechim taklif etish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

2024-yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligi umumiy ishlab chiqarish hajmi 533,4 trillion so'mni tashkil etgan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 4,1 foizga o'sishni ko'rsatdi¹. Ushbu raqamlar agrar sohaga qaratilayotgan e'tibor va iqtisodiy o'sishning izchil davom etayotganini anglatadi.

Demak, agrar soha faoliyatining statistik tahlili nafaqat ilmiy izlanishlar, balki iqtisodiy strategiyalarni shakllantirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston agrar sohasi faoliyatining iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini statistik yondashuvlar orqali tahlil qilish masalasi so'nggi yillarda ko'plab olimlar va tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlarning markazida turibdi. Ularning ishlari ushbu sohaning o'ziga xos jihatlari, muammolari va istiqbollarini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

R.Evenson qishloq xo'jaligida texnologik o'zgarishlar va ularning samaradorlikka ta'sirini o'rgangan. U, asosan, rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi tadqiqotlari va rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilgan[5].

V.Ruttan qishloq xo'jaligida texnologik taraqqiyot va institutsional o'zgarishlarni o'rgangan. Uning ishlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishda innovatsiyalar va texnologik o'zgarishlarning rolini yoritadi[6].

D.Gollin qishloq xo'jaligi mahsuldorligi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan. Uning tadqiqotlari agrar sektorda

samaradorlikni oshirishning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini tahlil qiladi[7].

K.Fuglie qishloq xo'jaligida texnologik taraqqiyot va mahsuldorlik o'sishini o'rgangan. U global miqyosda qishloq xo'jaligi tadqiqotlari va rivojlanishining samaradorligini baholagan[8].

P.Pardey qishloq xo'jaligi tadqiqotlari va rivojlanishining iqtisodiy jihatlari o'rgangan. Uning ishlari qishloq xo'jaligi tadqiqotlariga sarmoya kiritishning mahsuldorlik va iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qiladi[9].

W.Huffman qishloq xo'jaligi tadqiqotlari va ta'limining samaradorlikka ta'sirini o'rgangan. Uning tadqiqotlari qishloq xo'jaligida inson kapitali va innovatsiyalarning rolini yoritadi[10].

Olimlarning ishlari agrar soha faoliyatining samaradorligini statistik baholashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular qishloq xo'jaligida texnologik innovatsiyalar, tadqiqotlar va rivojlanishning mahsuldorlikka ta'sirini chuqur tahlil qilganlar. J.Smith va A.Brownlar qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish va ularning samaradorlikka ta'sirini o'rgandilar. Tadqiqot natijalari raqamli yechimlar qishloq xo'jaligi jarayonlarini optimallashtirish va hosildorlikni oshirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatdi[11].

Tadqiqotchilar L.Wang va M.Garcia qishloq xo'jaligida barqaror amaliyotlarning iqtisodiy samaradorligini statistik baholadilar. Ular barqaror qishloq xo'jaligi usullarini qo'llash nafaqat ekologik foyda keltiradi, balki uzoq muddatda iqtisodiy jihatdan ham foydali ekanligini aniqladilar[12].

Jo'rayev va Shermatov (2022) o'z tadqiqotida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishining hududlar kesimidagi o'sish sur'atlarini statistik indikatorlar orqali baholagan. Ular ishlab chiqarish hajmidagi tafovutlar, hosildorlik va yer maydonlaridan foydalanish samaradorligiga alohida e'tibor qaratib, tahliliy natijalar asosida hududiy strategiyalar ishlab chiqishni taklif qilganlar. Tadqiqotda ko'rsatib o'tilishicha, Samarqand, Andijon va Qashqadaryo viloyatlarida paxta va g'alla yetishtirish ko'rsatkichlari yuqori bo'lib, bu holat ishlab chiqarish infratuzilmasining nisbatan yaxshi rivojlangani bilan izohlanadi[13].

Shuningdek, Karimova (2023) o'z maqolasida raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishning agrar soha rivojlanishiga ta'sirini o'rgangan. U statistik usullar yordamida qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi, hosildorlik va eksport ko'rsatkichlarining o'zgarishini tahlil qilib, texnologik innovatsiyalarning ijobiy ta'sirini isbotlagan. Tadqiqotda 2018–2022 yillar oralig'ida raqamlashtirish jarayonlari bosqichma-bosqich joriy qilinishi mahsuldorlikda sezilarli

¹ O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2024-yil hisobot

o'sishga olib kelgani qayd etilgan[14].

Bundan tashqari, Xudoyberganov va Mamatqulov (2021) O'zbekistonda agrar sohani moliylashtirishning iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha statistik modellardan foydalangan. Ular kredit resurslarining taqsimoti, subsidiyalar va investitsiyalar hajmining ishlab chiqarish natijalariga ta'sirini tahlil qilib, kreditlarning maqsadli taqsimoti ishlab chiqarish hajmiga bevosita ta'sir qilishi haqida xulosa qilganlar[15].

Shuningdek, xalqaro manbalarda ham O'zbekiston agrar sektoridagi islohotlar va ularning iqtisodiy natijalari haqida tadqiqotlar mavjud. Jahon bankining 2023-yilgi hisobotida qishloq xo'jaligi sohasidagi erkinlashtirish siyosati, suv resurslaridan samarali foydalanish va texnologik yangilanishlar tufayli sektorning umumiy ichki mahsulotdagi ulushi barqaror o'sib borayotgani ta'kidlangan [16].

Yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston agrar sohasi rivojlanishida statistik tahlillar asosida olib borilgan ilmiy yondashuvlar sohaning samaradorligini oshirish, muammolarni aniqlash va istiqbolli strategiyalarni belgilashda muhim vosita hisoblanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Agrar va oziq-ovqat sohalari uchun subsidiya ajratish tizimini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (03.08.2023 yildagi 331-son)[1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi (07.07.2023 yildagi PQ-216-son) [2] va "Agrar va oziq-ovqat sohalari boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (18.03.2020 yildagi PQ-4643-son) qarorlari ham ushbu sohani rivojlantirishdagi asos bo'lib xizmat qilmoqda [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida agrar soha faoliyatining iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini chuqur o'rganish va baholash maqsadida bir nechta zamonaviy ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalaniladi. Har bir metod o'ziga xos ma'lumotlar to'plami, tahlil yondashuvi va xulosalar chiqarish imkoniyatlarini taqdim etadi. Quyida tadqiqot doirasida qo'llaniladigan asosiy metodlar va ularning qo'llanilish maqsadi bayon etiladi:

1. Statistik tahlil usuli. Ushbu metod orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, hosildorlik, bandlik, eksport-import ko'rsatkichlari kabi asosiy iqtisodiy parametrlar tahlil qilinadi. Statistika agentligi, Jahon banki, FAO kabi tashkilotlarning ochiq ma'lumotlar bazalari asosida 2018–2024 yillar oralig'idagi o'zgarishlar dinamikasi grafik va jadvallar orqali tahlil qilinadi. Bu metod yordamida agrar sohaning rivojlanish sur'atlari aniqlanadi hamda muayyan tendensiyalar yuzasidan ilmiy xulosalar chiqariladi.

2. Taqqoslama tahlil (Comparative analysis). Taqqoslama tahlil usuli yordamida O'zbekiston agrar sohasi ko'rsatkichlari boshqa mintaqaviy davlatlar – Qozog'iston, Tojikiston va Ozarbayjon bilan solishtiriladi. Bu orqali sohaning raqobatbardoshligi, samaradorlik darajasi va institutsional mexanizmlarning farqlari aniqlanadi. Shu bilan birga, ayrim rivojlangan davlatlar tajribasi bilan taqqoslash ham olib boriladi, bu esa ilg'or yondashuvlarni o'zlashtirishga zamin yaratadi.

3. SWOT tahlili. Agrar sohaning kuchli (Strengths), zaif (Weaknesses) tomonlari, imkoniyatlari (Opportunities) va tahdidlari (Threats) SWOT modeli asosida aniqlanadi. Misol uchun, kuchli jihat sifatida O'zbekistonning iqlimiy sharoitlari va mehnat resurslari, zaif tomon sifatida esa suv ta'minoti va texnologik ortda qolganlik ko'rsatib o'tiladi. Ushbu tahlil natijalari sektorni strategik rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga asos bo'ladi.

4. Korrelatsion-regression tahlil. Ushbu usul yordamida agrar sohadagi turli omillar o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi. Masalan, investitsiyalar hajmi bilan hosildorlik o'rtasidagi korrelatsiya darajasi yoki ishchi kuchi soni bilan yalpi mahsulot hajmi o'rtasidagi bog'liqlik regressiya modeli orqali baholanadi. Bu esa muayyan omilning ta'sir darajasini raqamli ko'rsatkichlar asosida aniqlash imkonini beradi.

Ushbu metodlar orqali agrar sohaning hozirgi holati chuqur tahlil qilinadi, rivojlanish tendensiyalari aniqlanadi va mavjud muammolar

statistik asosda tavsiflanadi. Tahlil natijalari asosida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

Agrar sohaning iqtisodiy ko'rsatkichlarini raqamli asosda tahlil qilish;

Hududlar bo'yicha samaradorlik va resurslardan foydalanish darajasini solishtirish;

Rivojlanishni cheklovchi ichki va tashqi omillarni aniqlash;

Strategik takliflar va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Bu metodologik yondashuv, o'z navbatida, mamlakatda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ilmiy va amaliy qarorlarni qabul qilishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari. O'zbekiston Respublikasida agrar sohaning iqtisodiy rivojlanishi so'nggi yillarda jadallik bilan davom etmoqda. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, yer munosabatlarining erkinlashtirilishi, resurslardan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarning joriy qilinishi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining iqtisodiy erkinligining oshirilishi agrar sektorda yangi bosqichni boshlab berdi. Davlat tomonidan fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash, subsidiyalar ajratish, kredit liniyalarini kengaytirish hamda eksportbop mahsulotlarni yetishtirishga e'tibor qaratilishi iqtisodiy natijalarga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Statistika agentligining 2024-yilgi yakuniy ma'lumotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy ishlab chiqarish hajmi 533,4 trillion so'mni tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 4,1 foizga o'sdi. Ayniqsa, don, meva-sabzavot, uzum va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida sezilarli o'sish kuzatildi. Shu bilan birga, issiqxona xo'jaliklarining soni oshib, yil davomida yuqori daromad keltiruvchi mahsulotlarni yetishtirish imkoniyatlari kengaydi.

Hududiy kesimda olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, Andijon, Namangan va Qashqadaryo viloyatlarida yillik hosildorlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lib, bu hududlarda ilg'or agrotexnologiyalar va mexanizatsiyalash darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, suv tanqisligi muammosi mavjud bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyatlarida hosildorlik nisbatan past bo'lmoqda, bu esa mintaqaviy resurslar boshqaruvining yanada takomillashtirilishini talab etadi.

2024 yil 1 aprel holatiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) soni – 34 165 birlikni, shundan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarda – 31 366 birlikni, o'rmon xo'jaligida – 249 birlikni hamda baliqchilik xo'jaligida – 2 550 birlikni tashkil etdi.

2024 yil yanvar-mart oyida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) soni – 1 670 birlikni tashkil etdi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p korxona va tashkilotlar Qashqadaryo viloyatida – 4 649 birlikni yoki respublika bo'yicha mazkur sohada faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning 13,6 % ini tashkil etgan bo'lsa, aksincha eng kam korxona va tashkilotlar Toshkent shahrida – 607 birlik (1,8 %) qayd etildi².

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Surxondaryo (572,8 mlrd. so'm), Toshkent (436,1 mlrd. so'm), Buxoro (277,9 mlrd. so'm) va Farg'ona (262,3 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Navoiy viloyati (92,8 mlrd. so'm), Jizzax viloyati (96,3 mlrd. so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasi (110,6 mlrd. so'm) va Sirdaryo viloyatini (112,3 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin (1-rasm).


Yuqori o'sish sur'atlari Navoiy (115,7 %), Xorazm (111,5 %), Buxoro (106,2 %), Namangan (105,1 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (105,0 %) qayd etildi. Surxondaryo (101,5 %), Toshkent (103,1 %), Samarqand (103,2 %) va Farg'ona (103,9 %) viloyatlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Respublikadagi dehqonchilik mahsulotlari tarkibini hududlar kesimida tahlil qilar ekanmiz, eng katta ulush Surxondaryo (19,8 %),

² www.stat.uz

Toshkent (15,1 %), Buxoro (9,6 %) va Farg'ona (9,1 %) viloyatlariga to'g'ri kelganligini kuzatishimiz mumkin.

Eng kam ulush Navoiy viloyati (3,2 %), Jizzax viloyati (3,3 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,8 %) qayd etildi.



1-rasm. Dehqonchilik mahsulotlarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, mlrd. so'm³

Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi va uning hududlarida qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmining yillik o'sish sur'atlari ko'rsatilgan. Jadval 2019-2023 yillarni qamrab olib, ushbu besh yillik davr mobaynida har bir viloyatdagi o'zgarishlar dinamikasini solishtirish

imkonini beradi. Bu ma'lumotlar agrar sohaning hududiy rivojlanishiga oid muhim tendensiyalarni tahlil qilish, samaradorlik darajalarini baholash va strategik qarorlar qabul qilish uchun asosiy statistik manba hisoblanadi.

1-jadval

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmining o'sish sur'ati (yillik), foizda

Hududlar	yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	159.6	147.5	129.1	123.9	112.8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	132.9	176.7	166.4	105	111
Andijon viloyati	183.8	245.5	160.1	102.3	101.5
Buxoro viloyati	232.1	106	126.7	112.5	88.4
Jizzax viloyati	206.6	217.1	122.5	192.8	92.5
Qashqadaryo viloyati	167.9	178.8	79.8	239.8	95.7
Navoiy viloyati	147.7	132.2	112.5	129.1	123.3
Namangan viloyati	119.6	135.4	139.5	116.8	96.5
Samarqand viloyati	189	130.4	77.7	182.3	106.4
Surxondaryo viloyati	65.3	180.9	144	112.4	115.8

³ www.stat.uz

Sirdaryo viloyati	153.8	122.2	122.1	138.2	137.7
Toshkent viloyati	216.7	125.7	130.9	96.2	132.5
Farg'ona viloyati	165.2	109	125.6	123.2	94.9
Xorazm viloyati	85.6	295.6	231.6	117.2	151.4
Toshkent shahri	0	0	0	0	0

O'zbekiston Respublikasida 2019–2023 yillarda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmining yillik o'sish sur'atlari hududlar kesimida sezilarli o'zgarishlarga ega bo'ldi. 2019-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda mamlakat bo'yicha o'sish sur'atlari pasayib borayotgani kuzatilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasida 2019-yilda 159.6% bo'lgan o'sish sur'ati 2023-yilda 112.8% gacha tushgan. Bu pasayish davlat tomonidan agrar sektorni rivojlantirish uchun amalga oshirilgan islohotlarga qaramay, resurslardan samarali foydalanish va iqlim o'zgarishlari kabi omillarga bog'liq.

Viloyatlar bo'yicha tahlil qilishda, Xorazm viloyati eng yuqori o'sish ko'rsatkichlarini ko'rsatgan. 2019-yilda 295.6% bo'lgan o'sish 2023-yilda 151.4% ga tushgan bo'lsa-da, bu viloyat hali ham yuqori o'sish sur'atlariga ega. Bu yerda dehqonchilik faoliyati uchun iqlim sharoitlari, suv resurslari va infratuzilma to'g'ri boshqarilganligini ko'rsatadi. Sirdaryo viloyati ham yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolgan, 2023-yilda 137.7% bo'lib, bu hududda qishloq xo'jaligiga innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi natijasida dehqonchilikda sezilarli o'sish kuzatilmoqda.

Toshkent viloyatida ham o'sish sur'ati barqaror bo'lib, 2023-yilda 132.5% ga yetgan. Ushbu hududda yuqori iqtisodiy salohiyat, yaxshi rivojlangan logistik tarmoq va zamonaviy texnologiyalar dehqonchilik faoliyatining o'sishiga katta hissa qo'shmoqda. Boshqa tomondan, Buxoro va Jizzax viloyatlarida sezilarli pasayish kuzatildi. Buxoro viloyatidagi o'sish 232.1% dan 88.4% gacha kamaygan. Bu holat resurslar taqchilligi, suv bilan ta'minotning sustligi va texnologik yangilanishning past darajasi bilan izohlanadi. Jizzax viloyatida esa 2023-yilda o'sish sur'ati 92.5% bo'lib, 2020-yildagi yuqori ko'rsatkich (217.1%)ga nisbatan pasaygan.

Qashqadaryo viloyatida 2022-yilda 239.8% o'sish sur'ati kuzatilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 95.7% ga tushgan. Bu o'zgarish qisqa muddatli omillar, masalan, yagona eksport va import cheklavlari, ishlab chiqarishning o'zgaruvchan holatiga bog'liqdir. Surxondaryo viloyatida esa 2023-yilda 115.8% o'sish sur'ati qayd etilgan

bo'lib, bu hududda ham davlat yordami va investitsiyalarning rivojlanishga ta'siri sezilarli.

Toshkent shahri bo'yicha esa barcha yillarda dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarilmaydi yoki juda kam, bu hududning asosan urbanizatsiyalashgan va sanoatga ixtisoslashganligi bilan bog'liqdir. Boshqa hududlarda esa o'sish sur'atlari turlicha bo'lib, ba'zilarida o'sish sur'ati past bo'lsa, boshqalarda yuqori va barqaror ko'rsatkichlar saqlanmoqda.

Umuman olganda, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan dehqonchilik mahsulotlari hajmining o'sish sur'atlari turli viloyatlarda farqlanmoqda. Ba'zi hududlarda yuqori o'sish sur'atlari davom etmoqda, boshqalarda esa iqtisodiy va ekologik omillar ta'siri bilan pasayish kuzatilmoqda. Bu holat agrar sektorni rivojlantirishda hududiy farqlarga e'tibor qaratish va har bir viloyatning o'ziga xos sharoitlariga mos strategiyalarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Agrar sohada faoliyat yuritayotgan tashkilotlarning iqtisodiy salohiyatini aniqlashda ularning dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida tashkilotlar tomonidan yetishtirilgan mahsulotlar ulushining yildan-yilga qanday o'zgarayotgani hududlar kesimida iqtisodiy faoliyatning qamrovi va intensivligidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkich agrar sektorning sanoatlashuvi, kooperatsiyalashuvi va mexanizatsiyalashuvi darajasini ham bilvosita ifodalaydi.

Quyidagi jadvalda 2019–2024 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi va uning barcha viloyatlarida qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining umumiy ulushi (foizda) keltirilgan. Ushbu ma'lumotlar asosida hududlar bo'yicha ishlab chiqarish strukturasidagi farqlar, o'sish yoki pasayish dinamikasi, shuningdek, iqtisodiy faollik darajasining o'zgarishi aniqlanishi mumkin. Statistik tahlil ushbu ko'rsatkichlar asosida sohani hududiy va umumrespublika darajasida rivojlantirishga doir ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

2-jadval

Dehqonchilik mahsulotlari umumiy hajmida qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining ulushi (yillik, foizda)⁴

Hududlar	yillar					
	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	4	5.7	6.9	9	9.2	9.5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5.1	7.4	12.4	14.9	16.1	17.2
Andijon viloyati	1.5	3.5	5.4	5.3	5.4	5.6
Buxoro viloyati	3.2	5.5	5.9	8.1	6.6	6.4
Jizzax viloyati	3	7.6	7.9	16.4	14.3	13.8
Qashqadaryo viloyati	3.3	5.2	3.8	10.1	9	9.3
Navoiy viloyati	3.6	4.6	4.8	6	7.7	8.1
Namangan viloyati	2.2	3	4	4.5	4	4.2
Samarqand viloyati	3.2	3.8	3.1	4.8	4.5	4.3

⁴ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>

Surxondaryo viloyati	4.5	6.9	10.4	11.8	13.2	13.5
Sirdaryo viloyati	8.8	9.9	10.8	17.2	20.4	21.6
Toshkent viloyati	13.1	16.1	19.2	20	22.7	23.3
Farg'ona viloyati	2.4	2.3	2.7	3.3	2.8	3.0
Xorazm viloyati	1.1	3	6.2	7.6	10.5	11.2
Toshkent shahri	0	0	0	0	0	0

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha dehqonchilik mahsulotlarining umumiy hajmidagi ulush 2019-yilda 4% bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilda 9.5% ga yetadi. Bu, umumiy o'sishning izchil ravishda davom etishini va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan e'tiborning oshganini ko'rsatadi. Biroq, o'sish sur'atining nisbatan pasayish tendensiyasi ham mavjud, chunki 2022-yildan keyin ko'rsatkichlar sekinlashgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi 2019–2024 yillar orasida eng yuqori o'sish sur'atiga ega viloyatlardan biridir. 2024-yilda dehqonchilik mahsulotlari ulushi 17.2% ga yetadi. Bu viloyatdagi o'sish, asosan, yer resurslarining samarali ishlatilishi, suv resurslaridan to'g'ri foydalanish va modernizatsiya qilingan texnologiyalar bilan izohlanadi.

Sirdaryo viloyati 2020-yildan boshlab yuqori o'sish sur'atlarini saqlagan, 2024-yilda ulush 23.3% ga yetadi. Bu viloyatdagi dehqonchilikning intensiv rivojlanishini va ilg'or texnologiyalarning keng joriy etilishini ko'rsatadi.

Toshkent viloyati 2024-yilda 10.5% ulush bilan yuqori o'sishni davom ettiradi. Toshkentning ishlab chiqarish va logistika imkoniyatlari, shuningdek, agroteknologiyalarni joriy etish va yuqori talabni hisobga olgan holda, bu hududda agrar sektorning salohiyati oshmoqda.

Farg'ona viloyatida dehqonchilik mahsulotlari ulushi 2019-yilda 3.3% bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 6.4% ga ko'tariladi. Bu o'sish, viloyatdagi yer resurslaridan samarali foydalanish va modernizatsiya qilish natijasida amalga oshirilgan.

Buxoro viloyatida o'sish sur'atlari sezilarli darajada past: 2019-yildagi 3.2% ulush 2024-yilda 6.4% ga oshgan bo'lsa-da, boshqa

viloyatlarga nisbatan pastroq o'sish sur'atlari kuzatilmoqda. Buxoro viloyatida iqlim sharoitlari, yer resurslarining kamroq samarali ishlatilishi va texnologiyalarning pasayganligi ushbu pasayishning sabablaridan biridir.


Jizzax viloyati 2024-yilda 13.8% ulush bilan yuqori ko'rsatkichlarga erishgan. Bu hududda qishloq xo'jaligi modernizatsiyasiga qaratilgan investitsiyalar va texnologik yangilanishlar faol amalga oshirilmoqda.

Andijon viloyatida ulush ko'rsatkichi 2019-yildan 2024-yilgacha past o'sish sur'atlariga ega bo'lib, 5.6% ga ko'tarilgan. Bu hududda iqtisodiy faollik va ishlab chiqarishning izchil rivojlanishi kuzatilmoqda, ammo past o'sish sur'ati mavjud.

Navoiy viloyati 2024-yilda 8.1% ulushni tashkil qiladi. Bu hududda dehqonchilik mahsulotlarining ulushi o'sishda, ammo boshqa viloyatlarga nisbatan nisbatan sekinlashgan.

Toshkent shahri bo'yicha 2024-yilda 10.5% ulush ko'rsatilgan. Toshkent shahri asosan sanoat va xizmat ko'rsatish sohasiga ixtisoslashgan bo'lib, dehqonchilik sektori sezilarli rivojlanmagan. Bu shaharda qishloq xo'jaligi faoliyati nisbatan kam amalga oshiriladi.

O'zbekiston agrar sohasida 2019–2024 yillarda dehqonchilik mahsulotlarining umumiy hajmida yillik o'sish sur'atlari barqaror o'sishga olib keldi. Har bir viloyat o'ziga xos iqtisodiy sharoitlar, yer resurslari va texnologik darajalariga asoslangan holda rivojlanmoqda. Qoraqalpog'iston, Sirdaryo va Toshkent viloyatlari eng yuqori o'sish sur'atlariga erishgan bo'lsa, Buxoro va Andijon viloyatlarida o'sish sur'atlari sekinlashgan. Bu natijalar agrar siyosatni hududlar bo'yicha individual yondashuvlar asosida takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.



2-rasm. Dehqonchilik mahsulotlari umumiy hajmida dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining ulushi (yillik), foizda⁵

⁵ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>

2010-yildan 2023-yilgacha O'zbekistonda dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining umumiy hajmidagi ulushning yillik foizda o'zgarishi kuzatilgan. O'zbekiston bo'yicha bu ulush 2010-yilda 39.4% bo'lib, 2019-yilda 46.8% ga yetgan. 2020-yilda esa ulush 42.3% ga kamaydi va 2023-yilda 36.9% ga tushgan. Bu, o'z navbatida, dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar va xo'jaliklar o'rtasidagi resurslar taqsimotining o'zgarishiga ishora qiladi.

Andijon viloyatida dehqonchilik mahsulotlari ulushi 2010-yildan 2019-yilgacha sezilarli darajada o'sdi, 53.3% dan 57% gacha, lekin 2020-yildan boshlab bu ulush pasayib borayotganini ko'rish mumkin. 2023-yilda ulush 46.8% ga tushgan. Bu o'zgarish hududdagi agrar sektorning sharoitlariga, suv resurslarining taqsimlanishi va iqlim sharoitlariga bog'liq.

Qoraqalpog'iston Respublikasida o'zgarishlar nisbatan keskinroq. 2011-yildan boshlab bu viloyatdagi dehqonchilik mahsulotlari ulushi barqaror ravishda pasayib borgan. 2023-yilda ulush 24% ga tushgan. Bu erda suv resurslarining tanqisligi va iqlim o'zgarishlari asosiy omil bo'lishi mumkin.

Buxoro viloyatida o'sish ko'rsatkichi 2010-yilda 47.1% bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 37.7% ga tushgan. Bu o'zgarish asosan tuproq sifatining pasayishi, suv resurslaridan samarali foydalanilmasligi va texnologik yangilanishlarning sustligi bilan izohlanadi.

Surxondaryo viloyatida 2010-yildan 2019-yilgacha dehqonchilik mahsulotlari ulushi barqaror o'sgan. 2023-yilda esa ulush 43.6% bo'lib, pastroq bo'lib qolmoqda. Bu hududda resurslarni boshqarish va sifatli texnologiyalarni joriy qilish zarurligini ko'rsatadi.

Toshkent shahrida dehqonchilik mahsulotlari ulushi juda past va 2010–2023 yillar davomida nisbatan barqaror qolgan. Toshkent shahri asosan sanoat va xizmatlar sohasiga ixtisoslashgan bo'lib, bu hududda dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish sezilarli darajada pastdir.

Toshkent viloyatida esa o'sish sur'ati 2019-yilda yuqori (50.8%) bo'lib, keyinchalik bu ko'rsatkich 2023-yilda 45.9% gacha tushgan. Bu hududda dehqonchilikka qaratilgan sa'y-harakatlar va texnologik yondashuvlar o'sishni saqlab qolmoqda.

Farg'ona viloyatida dehqonchilik mahsulotlari ulushi 2010-yildan 2023-yilgacha yuqori darajada saqlanib qolgan. 2023-yilda ulush 45.9% ga yetgan. Bu viloyatning agrar sektori salohiyatining yuqori ekanini ko'rsatadi.

Navoiy viloyatida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 2010-yildan 2023-yilgacha kichik o'zgarishlar ko'rsatgan. 2023-yilda bu ko'rsatkich 43.6% ni tashkil qiladi, bu esa dehqonchilik va tomorqa xo'jaliklari o'rtasida o'rtacha o'sish ko'rsatkichiga ega ekanini bildiradi.

O'zbekistonning turli viloyatlarida dehqonchilik mahsulotlarining umumiy hajmidagi ulushning o'zgarishi, hududiy resurslar va iqlim sharoitlariga bog'liq. Ba'zi viloyatlarda (masalan, Andijon, Toshkent, Farg'ona) dehqonchilik mahsulotlari ulushi yuqori o'sgan, ba'zi viloyatlarda esa (masalan, Buxoro, Qoraqalpog'iston) pasayish kuzatilgan. Bu o'zgarishlar agrar sektorda innovatsiyalarni

joriy qilish, suv resurslarini boshqarish va iqlim sharoitlariga moslashuv zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida agrar sohaning iqtisodiy rivojlanishi so'nggi yillarda bosqichma-bosqich modernizatsiya, texnologik yangilanish va institutsional islohotlar asosida amalga oshirilmoqda. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi umumiy o'sishda davom etmoqda, biroq hududlar kesimidagi tafovutlar, ayrim viloyatlardagi pasayishlar va suv resurslarining cheklangani muammoli jihatlar bo'lib qolmoqda. Agrar sohadagi tashkilotlar tomonidan yetishtirilgan mahsulotlar ulushi ba'zi hududlarda barqaror o'sishga erishgan bo'lsa, boshqalarida pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Olib borilgan statistik, taqqoslama hamda korrelatsion-regression tahlillar natijalariga ko'ra, quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

— Agrar sohada statistik jihatdan kuzatilayotgan o'sish sur'atlari barqaror bo'lsa-da, ayrim hududlarda sekinlashuv mavjud;

— Dehqonchilik mahsulotlarining umumiy hajmida tashkilotlar ulushi hali ham past darajada qolmoqda, bu esa agrar sohaning ko'proq kichik xususiy sektorga tayanayotganini bildiradi;

— Texnologik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda (Toshkent, Sirdaryo, Qoraqalpog'iston) o'sish sur'atlari yuqori bo'lib, bu zamonaviy boshqaruv tizimlari va agriinnovatsiyalarning samarasini ko'rsatadi;

— Iqlim, suv resurslari, infratuzilma va moliyaviy imkoniyatlar kabi omillar hududlar kesimida agrar ishlab chiqarishga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Mazkur tahlillarga asoslangan holda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Hududiy rivojlanish strategiyalarini qayta ko'rib chiqish – past samaradorlik kuzatilayotgan viloyatlar uchun individual yondashuv asosida rivojlantirish rejalari ishlab chiqilishi zarur.

2. Suv resurslaridan foydalanishni optimallashtirish – suv tanqisligi mavjud hududlarda tomchilatib sug'orish tizimlari, yomg'ir suvini yig'ish texnologiyalarini keng joriy etish lozim.

3. Statistik monitoring tizimini kuchaytirish – agrar sohaga oid aniq, tizimli va real vaqt rejimidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish orqali tahlil sifatini oshirish mumkin.

4. Katta fermer xo'jaliklari va kooperatsiyalarni qo'llab-quvvatlash – ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun tashkilotlararo kooperatsiya, texnika va subsidiyalar bilan ta'minlashga e'tibor qaratish kerak.

5. Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish – OTMlar, ilmiy tadqiqot institutlari va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish orqali ilmiy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, statistik tahlil agrar sohaning iqtisodiy salohiyatini aniqlashda muhim vosita bo'lib, u asosida samarali siyosiy va iqtisodiy qarorlar ishlab chiqish imkoniyati mavjud. O'z navbatida, bu yondashuv mamlakat qishloq xo'jaligini barqaror va raqobatbardosh tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Agrar va oziq-ovqat sohalari uchun subsidiya ajratish tizimini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (03.08.2023 yildagi 331-son).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (07.07.2023 yildagi PQ-216-son).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Agrar va oziq-ovqat sohalari boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (18.03.2020 yildagi PQ-4643-son).
4. World Bank Group - International Development, Poverty and Sustainability. (<https://www.worldbank.org/ext/en/home?/>)
5. Evenson, R. E. (2001). Economic impacts of agricultural research and extension. Handbook of Agricultural Economics, 1, 573-628.

6. Ruttan, V. W. (2002). Productivity growth in world agriculture: Sources and constraints. Journal of Economic Perspectives, 16(4), 161-184.
7. Gollin, D., Parente, S. L., & Rogerson, R. (2002). The role of agriculture in development. American Economic Review, 92(2), 160-164.
8. Fuglie, K. O. (2012). Productivity growth and technology capital in the global agricultural economy. Productivity Growth in Agriculture: An International Perspective, 335-368.
9. Pardey, P. G., Alston, J. M., & Piggott, R. R. (Eds.). (2006). Agricultural R&D in the developing world: Too little, too late? International Food Policy Research Institute.
10. Huffman, W. E., & Evenson, R. E. (2006). Science for agriculture: A long-term perspective. Blackwell Publishing.
11. Smith, J., & Brown, A. (2024). Digital technologies in agriculture: Enhancing productivity through innovation. Journal of Agricultural Research, 58(3), 245-260.

12. Wang, L., & Garcia, M. (2024). Economic efficiency of sustainable agricultural practices: A statistical evaluation. *International Journal of Agricultural Sustainability*, 22(1), 15-32.
13. Jo'rayev, S., & Shermatov, A. (2022). Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining hududiy tahlili: O'zbekiston tajribasi. *Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar*, 5(3), 45-52.
14. Karimova, D. (2023). Agrar sohada raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi: statistik tahlil. *Yosh Olimlar Jurnal*, 2(7), 30-36.
15. Xudoyberganov, O., & Mamatqulov, B. (2021). Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish va iqtisodiy samaradorlik: statistik baholash. *Milliy iqtisodiyot muammolari*, 4(1), 60-68.
16. World Bank. (2023). *Uzbekistan Economic Update: Reform Momentum and Growth in Agriculture*. Retrieved from <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/economic-update>



ХУДУДИЙ ТАРМОҚЛАРДА ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ

М.Т. Бутабоев

и.ф.д., профессор, Фарғона политехника институти

m.butaboyev@fargpi.uz

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil

Jurnal soni: 14

Maqola raqami: 6

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1117>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

иссиқхона газлари, атмосфера, иқлим ўзгариши, глобал иссиқ, экологик хавф-хатар, яшил макон.

ANNOTATSIIYA

Ушбу мақолада жаҳонда ва Ўзбекистонда иссиқхона газларининг атмосфера чиқарилиши, экологик вазият ҳамда унинг оқибатлари баён этилган. Шунингдек, ҳудудларда яшил иқтисодиётни янада ривожлантириш масалалари бўйича зарур тақлиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Кириш. Ҳудудларда “яшил иқтисодиёт”га ўтиш зарурлигини белгилловчи асосий омиллар қуйидагилар: атроф-муҳитнинг ифлосланиш даражаси, CO₂ углерод газларининг атмосферага чиқарилиш динамикаси, ички иқлим ўзгариши ва ҳавони иссиқ кетиши, электр энергия тармоғини модернизация қилиш, сув ва ер ресурсларидан самарали фойдаланиш, чиқиндилар ва уларни қайта ишлаш, ердаги автомобиль парклари электриштириш, уй-жой коммунал хўжалигидаги экологик муаммоларни баҳолаш ва бошқалар кирати.

Бугун Ўзбекистонда сув танқислигининг асосий сабабларидан бири ердаги иссиқлик даражасини ошиб кетиши бўлиб, бунга инсон, яъни сиз ва биз айбдоримиз. Ёқилғи энергия ресурслари, газ, нефть ва кўмирлар минг йиллар давомида жойлашган, улар ер остида турса 1 градус ҳам иссиқлик чиқармайди. XXI асрга келиб саноат ривожланиши, янги шаҳарларнинг барпо бўлиши, транспорт йўлларининг кўпайиши, саноат корхоналарининг қурилиши, савдо объектларини кўпайиши, аҳолининг тез табиий кўпайиб бориши оқибатида ёқилғи ресурсларига эҳтиёжимиз кескин ошиб кетди. Шу билан бирга нефть, газ ва кўмирни эски технологиялар асосида қазиб олиниб, ёқилиши жуда кўп миқдорда атмосферага иссиқлик чиқармоқда. Жаҳонда бир суткада миллиард тонналаб кўмир ва нефть, бир неча 100 миллиард метр куб газ ёқилади ва углерод газларини ҳавога чиқарилиши натижасида иқлим ўзгаради. Глобал иссиқ юз беради. Авваллари қиш пайтида табиий ҳолда 15-20 градус совуқ бўларди ва ёққан қорлар баҳор фаслигача тоғларда эримасдан турар эди. Баҳорда хаволар иссиқ билан қорлар эриб, дарёлар сувга тўлиб кетарди. Бугун эса иқлим ўзгариши сабабли қишдаёқ тоғдаги қорлар эриб сингиб кетмоқда ва сув танқислиги вужудга келиб, ҳосилдорлик пасайиб кетаяпти.

Адабиётлар таҳлили. Тадқиқот мавзуси бўйича олиб борилган адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, “яшил иқтисодиёт” концепцияси нафақат экологик муаммоларни ҳал этишда, балки барқарор иқтисодий ривожланишнинг асосий омили сифатида қаралмоқда. Иминов Т.К. ва ҳаммуаллифлари (2019) томонидан тайёрланган монографияда яшил иқтисодий тизимнинг назарий асослари ва амалий татбиқлари чуқур ёритилган. Бутабоев М.Т. (2023) дарслигида Ўзбекистон шароитида яшил иқтисодиёт моделини жорий этиш йўллари таҳлил қилинган. Вахабов А.В. ва Ҳажибакиев Ш.Х. (2018) эса барқарор ривожланишда бу моделнинг ўрнини кўрсатиб, иқтисодий ва экологик манфаатларнинг уйғунлашувини таъкидлаган. БМТ (2018) ва Жаҳон банки (2012) ҳисоботларида эса глобал миқёсда яшил ўсиш тажрибалари ва уларни ривожланаётган давлатларга мослаштириш усуллари ёритилган. ЮНЕСКО (2010) маълумотлари эса концепциянинг халқаро даражадаги стратегик аҳамиятини очиб берган.

Тадқиқот методологияси. Мазкур тадқиқотда назарий ва эмпирик методлар уйғун ҳолда қўлланилди. Биринчи босқичда, мавзу бўйича мавжуд адабиётлар — монографиялар, дарсликлар ва халқаро ташкилотлар ҳисоботлари — танқидий таҳлил қилинди. Бу жараёнда таққослаш, синтетик ва аналитик усуллар орқали

мавжуд илмий қарашлар умумлаштирилди. Кейинги босқичда эса, статистик ва эмпирик маълумотларга таянган ҳолда Ўзбекистон иқтисодиётида яшил моделни жорий этиш имкониятлари ўрганилди. Сўрономалар ва расмий маълумотлар таҳлили орқали экологик ва иқтисодий кўрсаткичларнинг ўзаро боғлиқлиги аниқланган. Шунингдек, қиёсий метод ёрдамида Ўзбекистон тажрибаси бошқа давлатлар билан солиштирилиб, ўзига хос хусусиятлар белгилаб олинди. Натижалар умумлаштирилиб, илмий ва амалий тавсиялар ишлаб чиқилди. Бу методологик ёндашув тадқиқот натижаларининг ишончлилигини оширишга хизмат қилди.

Тадқиқот натижалари. Сайёрамизда одамлар йилига 86 миллионга кўпаймоқда. Уларнинг эҳтиёжлари ҳам кўпаймоқда, фан-техника ривожланмоқда. Ишлаб чиқариш компьютерлаштирилмоқда (автоматлаштирилмоқда), ўрмонлар кесилиб кетмоқда, ҳайвон турлари ва ўсимликлар камайиб бормоқда. Чиқиндилар кўпаймоқда. Табиат бузилмоқда. Тўпроқ унумдорлиги пасайиб кетмоқда. Қўроқчилик ва чўлланиш авж олмоқда. Ва натижада экология ўлиб бормоқда. Инсоният табиий ресурслардан жадал фойдаланиб бора, ресурсларимиз 40 йилдан кейин тугайди. Бунинг устига қор ёғиш камайиб кетмоқда. Чунки шимолдан келаётган совуқ ҳаво оқими 3 мартага камайиб кетди. Ўзбекистондан сув захираси тугамоқда. Захирамиз 53000³ км эди. Эҳтиёжимиз эса 62000-65000³ км.

Дунёда 75 % территория сув билан қопланган. Атиги 3% сув экологик тоза ҳисобланади. Маълумотларга кўра ҳар бир одам бир суткада 1-2 литр сув истеъмол қилади. Умри давомида эса 35 тонна сув истеъмол қилади. 2030 йилга бориб сувга бўлган эҳтиёжимиз 55%га ошади. Бугун тоза ичимлик сувини бир литри 90\$ туради. Ўзбекистонда эса 750 сўмдан 7500 сўмгача бўлади. Афсуски, республикамиздаги 8000 сув қудуғидан 2000та сув қудуғи қуриб қолди. Ханузгача биз сувни хўжақўрсинларча талон-тарож қиляпмиз. 80% сувларни қишлоқ хўжалигида ишлатамиз. 15%ини кир ювиш ва гилам ювишга ишлатамиз. Атиги 5%ини истеъмол қиламиз.

Сувнинг танқислиги оқибатида биохилма-хиллик ҳам қисқариб бормоқда. Биохилма-хиллик тўғрисида 1798 йилда Англия иқтисодчиси Томас Маркуз биринчи марта биохилма-хиллик ўчоғи тўғрисида назариясини ишлаб чиққан. Сайёрамизда 36 та биохилма-хиллик ўчоғи мавжуд бўлиб, биохилма-хиллик ўчоғлари ер юзи қон-томирларини бошқаради деб ўқтирган. Биохилма-хиллик экотизимларнинг барқарорлигини таъминлайди. Маркузнинг фикрича, инсоният бутун сайёрани сақлаб қололмайди. Чунки унга имконияти ҳам етмайди. Ҳозирги вақтда экологик инқироз тобора кучайиб бормоқда. Яъни сув инқирози, ер инқирози, иқлим инқирози таъсирида сайёрамиз инсонлар учун зарур бўлган ресурсларни атиги 50%ини ишлаб чиқармоқда. Яъни, сайёра инсонларни яшашига, ишлашига ва ривожланишига яроқсиз бўлиб қолмоқда. Ҳудудларнинг барқарор ривожланишини таъминлашга келсак, бу ҳолда ҳудудлар иқтисодиётига яшил технологияларни жорий этиш лозим бўлади.

Шунингдек, Фарғона вилояти ҳудудларида қишлоқ хўжалиги юқори улушга эга эканлигини ҳисобга олсак, ушбу соҳани диверсификация қилишга эътибор қаратиш талаб этилади. Шу билан бирга етиштирилган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлаш, қайта ишлаш(консервациялаш), экспорт қилиш тизимини кенгайтириш лозим. Айниқса, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишловчи саноатга алоҳида эътибор бериш талаб этилади. Бу ўз навбатида ҳудудда иш билан бандликни ошишига, иқтисодий кўрсаткичларни ривожланишига, даромадларни кўпайиши, солиқ тушумини кўпайиши ҳисобига молиявий барқарорликни таъминлаш имконияти вужудга келади.

Вилоятда ҳозирги кунда 867 та ўрта мактаб, 205та коллеж, 3270та мактабгача таълим муассасалари мавжуд бўлиб, улардан 2370сини хусусий боғчалар, 897тасини давлат боғчалари ташқил қилади. Йилнинг совуқ мавсумларида мактабларни иситиш учун ёқилғи сифатида кўмирдан фойдаланилади. Агар битта мактабда ўртача қиш мавсусида 10,8 тонна кўмир ёқирилиб, унда бта кичик котелдан фойдаланилса, кўмирнинг ёниши натижасида битта мактабдан атмосферага чиқарилаётган захарли газлар қуйидагилардан ташкил топади: 1 та печ учун сарф бўладиган газ сарфи – 1,4 нм^3 / соатга тенг. Газнинг секунддаги сарфи $1,4/3600=0,000389 \text{ м}^3 / \text{сек}$.

Кичик ёниш печлари учун 1000 м^3 газ ёнганда атмосферага қуйидаги миқдорда ташламалар чиқарилади: углерод оксидлари – 12,9 кг, азот оксидлари – 2,15 кг, олтингургурт диоксиди – 0,0037 кг бўлиб, Бунда қуйидагича ташламалар ҳосил бўлади:

$$M_{\text{CO}} = 12,9 * 0,000389 = 0,00502 \text{ г/сек.}$$

$$M_{\text{NO}} = 2,15 * 0,000389 = 0,000836 \text{ г/сек.}$$

$$M_{\text{SO}} = 0,0037 * 0,000389 = 0,00000 \text{ г/сек.}$$

$$M_{\text{CO}} = 0,00502 * (3600 * 3,6 * 10^3) = 0,00502 * 12,96 = 0,0651 \text{ т/йил.}$$

$$M_{\text{NO}} = 0,000836 * 12,96 = 0,0108 \text{ т/йил.}$$

$$M_{\text{SO}} = 0,00000 \text{ т/йил.}$$

Олита котёл учун:

$$M_{\text{CO}} = 6 * 0,00502 = 0,0301 \text{ г/сек.}$$

$$M_{\text{CO}} = 6 * 0,0651 = 0,3906 \text{ т/йил}$$

$$M_{\text{NO}} = 6 * 0,000836 = 0,005 \text{ г/сек}$$

$$M_{\text{NO}} = 6 * 0,0108 = 0,065 \text{ т/йил.}$$

Вилоят бўйича 867 та мактабдан газдан фойдаланилганда қуйидаги миқдордаги ташламалар ҳосил бўлади.

$$M_{\text{CO}} = 867 * 0,3906 \text{ т/йил} = 339 \text{ т/йил} = 339000 \text{ кг/йил}$$

$$M_{\text{NO}} = 867 * 0,065 \text{ т/йил} = 56,4 \text{ т/йил} = 56400 \text{ кг/йил}$$

2. Агар ёқилғи сифатида кўмирдан фойдаланилса қуйидагича

ташламалар ҳосил бўлади.

Кўмир ва ўтин сарфи 3кг/соат. Йиллик сарфи $B=3*24*150=10800 \text{ кг/йил}=10,8 \text{ т/йил}$ ни ташкил қилади.

Кул

$$867 * 1,4856 \text{ т/йил} = 1288 \text{ т/йил}$$

Ис газы

$$M_{\text{CO}} = 867 * 0,2094 \text{ т/йил} = 182 \text{ т/йил} = 182000 \text{ кг/йил}$$

Азот оксидлари ташламалари (азот (II)-оксидга нисбатан)

$$M_{\text{NO}} = 867 * 0,1074 \text{ т/йил} = 94 \text{ т/йил}$$

Олтингургурт оксидлари ташламалари (олтингургурт (II)-оксидга нисбатан)

$$M = 867 * 0,17 \text{ т/йил} = 147,4 \text{ т/йил}$$

Вилоят бўйича 205 та коллежда газдан фойдаланилганда қуйидаги миқдордаги ташламалар ҳосил бўлади. Ҳар бир коллежда ўртача 16 тадан миникотел ишлатилади

$$M_{\text{CO}} = 12,9 * 0,000389 = 0,00502 \text{ г/сек.}$$

$$M_{\text{NO}} = 2,15 * 0,000389 = 0,000836 \text{ г/сек.}$$

$$M_{\text{SO}} = 0,0037 * 0,000389 = 0,00000 \text{ г/сек.}$$

$$M_{\text{CO}} = 0,00502 * (3600 * 3,6 * 10^3) = 0,00502 * 12,96 = 0,0651 \text{ т/йил.}$$

$$M_{\text{NO}} = 0,000836 * 12,96 = 0,0108 \text{ т/йил.}$$

$$M_{\text{SO}} = 0,00000 \text{ т/год.}$$

16 та котёл учун:

$$M_{\text{CO}} = 16 * 0,0651 = 1,04 \text{ т/йил}$$

$$M_{\text{NO}} = 16 * 0,0108 = 0,17 \text{ т/йил.}$$

205 та коллежда газдан фойдаланилганда қуйидаги миқдордаги ташламалар ҳосил бўлади.

$$M_{\text{CO}} = 205 * 1,04 \text{ т/йил} = 213,2 \text{ т/йил}$$

$$M_{\text{NO}} = 205 * 0,17 \text{ т/йил} = 34,85 \text{ т/йил}$$

Агар ёқилғи сифатида кўмирдан фойдаланилса қуйидагича

ташламалар ҳосил бўлади.

1та миникотелда қаттиқ ёқилғи учун ўрнатиладиган меъёрлар

Кул чиқиндисы

$$M_{\text{тв}} = A * B * f * (1 - \eta) \text{ (т/йил, г/сек)}$$

$$M = 16 * 13,1 * 0,0035 * (1 - 0,5) = 0,3668 \text{ т/йил}$$

$$\text{ёки } 0,3668 / 3600 * 3,6 * 10^3 = 0,0283 \text{ г/сек}$$

$$Q = (0,0283 / 0,106) * 10^3 = 266,981 \text{ мг/м}^3$$

$$205 \text{ та коллежда } 205 * 16 * 0,3668 = 1209,5 \text{ т/йил кул}$$

б) углерод монооксид ташламалари

$$M = 205 * 16 * 0,05174 = 170,2 \text{ т/йил}$$

в) Азот оксидлари ташламалари (азот (II)-оксидга нисбатан)

$$M = 205 * 16 * 0,0265 = 87 \text{ т/йил}$$

г) Олтингургурт оксидлари ташламалари (олтингургурт (II)-оксидга нисбатан)

$$M = 205 * 16 * 0,0416 = 138 \text{ т/йил}$$

3270 та мактабгача таълим муассасаларида ҳосил бўлаётган

чиқиндилар миқдори қуйида келтирилган

Ушбу муассасаларда ўртача 4 тадан миникотеллардан фойдаланилади. Ёқилғи сифатида газдан фойдаланилганда 3270 та МТМ дар атмосферага ташланаётган ташламалар миқдори қуйидагича:

$$M_{\text{CO}} = 3270 * 4 * 0,0651 = 851,6 \text{ т/йил}$$

$$M_{\text{NO}} = 3270 * 4 * 0,0108 = 235,44 \text{ т/йил.}$$

Кўмирдан фойдаланилганда қуйидаги ташламалар ҳосил бўлади

кул

$$3270 * 4 * 0,2476 = 3239 \text{ т/йил}$$

б) углерод монооксид ташламалари

$$M_{\text{CO}} = 3270 * 0,001 * 3,25 * 10,8 * (1 - 0,5 / 100) = 114,123 \text{ т/йил}$$

4 та котелдан чиқаётган ташлама

$$M_{\text{CO}} = 3270 * 4 * 0,0349 = 456,5 \text{ т/йил}$$

в) Азот оксидлари ташламалари (азот (II)-оксидга нисбатан)

$$M_{\text{NO}} = 3270 * 4 * 0,0179 = 234,132 \text{ т/йил}$$

г) Олтингургурт оксидлари ташламалари (олтингургурт (II)-оксидга нисбатан)

$$M = 3270 * 4 * 0,02801 = 366,24 \text{ т/йил}$$

Ушбу муассасаларда газдан фойдаланилганда ҳосил бўлаётган ташламаларнинг умумий миқдори

$$M_{\text{CO}} = 339 + 213,2 + 851,6 = 1403,8 \text{ т/йил}$$

$$M_{\text{NO}} = 56,4 + 34,85 + 235,44 = 326,69 \text{ т/йил}$$

Кўмирдан фойдаланилгандаги қуйидагича ҳосил бўладиган ташламалар

Кул

$$1288 + 1209,5 + 3239 = 5736,5 \text{ т/йил}$$

Ис газы

$$M_{\text{CO}} = 182 + 170,2 + 114,123 = 466,323 \text{ т/йил}$$

Азот оксидлари ташламалари (азот (II)-оксидга нисбатан)

$$M_{\text{NO}} = 94 + 87 + 234,132 = 415,132 \text{ т/йил}$$

Олтингургурт оксидлари ташламалари (олтингургурт (II)-оксидга нисбатан)

Statistika shuni ko'rsatadiki, Global Wind Energy Council (GWEC) ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda dunyo bo'yicha shamol energiyasi quvvati 906 GW ni tashkil etdi. Bu raqam 2010 yildagi 198 GW dan ancha ko'p. Offshore shamol elektr stantsiyalari quvvati esa 2022 yilda 65 GW ni tashkil etdi. Statistika shuni ko'rsatadiki, Global Wind Energy Council (GWEC) ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda dunyo bo'yicha shamol energiyasi quvvati 906 GW ni tashkil etdi. Bu raqam 2010 yildagi 198 GW dan ancha ko'p. Offshore shamol elektr stantsiyalari quvvati esa 2022 yilda 65 GW ni tashkil etdi.

Zamonaviy misollar orasida Danimarkadagi Horns Rev 3 shamol elektr stantsiyasi ajralib turadi. Bu stantsiya 407 MW quvvatga ega bo'lib, Danimarka aholisining 425 mingdan ortig'i uchun elektr energiyasini ta'minlaydi. Zamonaviy misollar orasida Danimarkadagi Horns Rev 3 shamol elektr stantsiyasi ajralib turadi. Bu stantsiya 407 MW quvvatga ega bo'lib, Danimarka aholisining 425 mingdan ortig'i uchun elektr energiyasini ta'minlaydi.

Gigavattli gidroelektr stantsiyalardan tashqari, kichik GES va suv nasoslari energiyasini qayta ishlash kabi innovatsiyalar suv resurslaridan samarali foydalanishni oshirdi. Norvegiya va Kanadaning energiya tizimlari deyarli to'liq gidroelektrga asoslangan. Kichik GES lar esa hududlarning mahalliy energiya ehtiyojlarini qondirishda samarali vosita hisoblanadi. Suv energiyasi texnologiyalari yanada rivojlana borib, energiya saqlash va taqsimlash tizimlarini ham modernizatsiya qilmoqda. Gigavattli gidroelektr stantsiyalardan tashqari, kichik GES va suv nasoslari energiyasini qayta ishlash kabi innovatsiyalar suv resurslaridan samarali foydalanishni oshirdi. Norvegiya va Kanadaning energiya tizimlari deyarli to'liq gidroelektrga asoslangan. Kichik GES lar esa hududlarning mahalliy energiya ehtiyojlarini qondirishda samarali vosita hisoblanadi. Suv energiyasi texnologiyalari yanada rivojlana borib, energiya saqlash va taqsimlash tizimlarini ham modernizatsiya qilmoqda.

Statistika shuni ko'rsatadiki, International Hydropower Association (IHA) ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda dunyo bo'yicha gidroelektr stantsiyalari quvvati 1,36 TW ni tashkil etdi. Bu raqam 2010 yildagi 1,01 TW dan ancha ko'p. Norvegiya elektr energiyasining 95% ini gidroelektrdan olishni ta'minlaydi. Statistika shuni ko'rsatadiki, International Hydropower Association (IHA) ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda dunyo bo'yicha gidroelektr stantsiyalari quvvati 1,36 TW ni tashkil etdi. Bu raqam 2010 yildagi 1,01 TW dan ancha ko'p. Norvegiya elektr energiyasining 95% ini gidroelektrdan olishni ta'minlaydi.

Zamonaviy misollar orasida Xitoydagi Three Gorges dam ajralib turadi. Bu stantsiya dunyodagi eng katta gidroelektr stantsiyasi bo'lib, uning quvvati 22,5 GW ni tashkil etadi. Zamonaviy misollar orasida Xitoydagi Three Gorges dam ajralib turadi. Bu stantsiya dunyodagi eng katta gidroelektr stantsiyasi bo'lib, uning quvvati 22,5 GW ni tashkil etadi.

Organik chiqindilardan energiya olish texnologiyalari qishloq xo'jaligi va sanoatni «yashil» energiya bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Biomassadan foydalanish yer mahsulotlarini qayta ishlash va organik chiqindilarni yoqilg'i sifatida qayta ishlash orqali ekologik muvozanatni saqlashga yordam beradi. Finlandiya va Shvetsiya kabi mamlakatlarda biomassadan foydalanish energiya ishlab chiqarishning muhim qismiga aylanmoqda. Biyogaz esa transport vositalari uchun alternativ yoqilg'i sifatida ham qo'llanilmoqda. Organik chiqindilardan energiya olish texnologiyalari qishloq xo'jaligi va sanoatni «yashil» energiya bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Biomassadan foydalanish yer mahsulotlarini qayta ishlash va organik chiqindilarni

yoqilg'i sifatida qayta ishlash orqali ekologik muvozanatni saqlashga yordam beradi. Finlandiya va Shvetsiya kabi mamlakatlarda biomassadan foydalanish energiya ishlab chiqarishning muhim qismiga aylanmoqda. Biyogaz esa transport vositalari uchun alternativ yoqilg'i sifatida ham qo'llanilmoqda.

Statistika shuni ko'rsatadiki, International Energy Agency (IEA) ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda dunyo bo'yicha biomassadan olinadigan energiya quvvati 144 GW ni tashkil etdi. Bu raqam 2010 yildagi 72 GW dan ikki barobar ko'p. Statistika shuni ko'rsatadiki, International Energy Agency (IEA) ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda dunyo bo'yicha biomassadan olinadigan energiya quvvati 144 GW ni tashkil etdi. Bu raqam 2010 yildagi 72 GW dan ikki barobar ko'p.

Zamonaviy misollar orasida Germaniyadagi biomassa elektr stantsiyalari ajralib turadi. Germaniya biomassadan foydalanish orqali elektr energiyasining 8% ini ta'minlaydi. Zamonaviy misollar orasida Germaniyadagi biomassa elektr stantsiyalari ajralib turadi. Germaniya biomassadan foydalanish orqali elektr energiyasining 8% ini ta'minlaydi.

Muhokama. Geotermal energiya yer osti issiqliklaridan foydalanish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish va isitish muammolarini hal qiladi. Islandiya va Filippinlar geotermal energiyadan foydalanish orqali energiya ishlab chiqarishning katta qismini o'zlashtirgan. Bu texnologiya davlatlarga energiya xavfsizligini ta'minlash va fosil yoqilg'larga bog'liqlikdan ozod bo'lish imkonini beradi. Geotermal energiya yer osti issiqliklaridan foydalanish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish va isitish muammolarini hal qiladi. Islandiya va Filippinlar geotermal energiyadan foydalanish orqali energiya ishlab chiqarishning katta qismini o'zlashtirgan. Bu texnologiya davlatlarga energiya xavfsizligini ta'minlash va fosil yoqilg'larga bog'liqlikdan ozod bo'lish imkonini beradi.

Statistika shuni ko'rsatadiki, International Geothermal Association (IGA) ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda dunyo bo'yicha geotermal energiya quvvati 16 GW ni tashkil etdi. Bu raqam 2010 yildagi 10 GW dan ancha ko'p. Statistika shuni ko'rsatadiki, International Geothermal Association (IGA) ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda dunyo bo'yicha geotermal energiya quvvati 16 GW ni tashkil etdi. Bu raqam 2010 yildagi 10 GW dan ancha ko'p.

Zamonaviy misollar orasida Islandiyadagi Hellisheiði geotermal elektr stantsiyasi ajralib turadi. Bu stantsiya 303 MW quvvatga ega bo'lib, Islandiya elektr energiyasining 30% ini ta'minlaydi. Zamonaviy misollar orasida Islandiyadagi Hellisheiði geotermal elektr stantsiyasi ajralib turadi. Bu stantsiya 303 MW quvvatga ega bo'lib, Islandiya elektr energiyasining 30% ini ta'minlaydi.

Boshlang'ich xarajatlar : Qurilishga katta mablag' kerak bo'lsa-da, davlatlar soliq imtiyozlari va subsidiyalari orqali bu muammoni hal qilmoqda. Masalan, AQSh va Yevropa Ittifoqi qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga katta byudjet ajratadi. Boshlang'ich xarajatlar: Qurilishga katta mablag' kerak bo'lsa-da, davlatlar soliq imtiyozlari va subsidiyalari orqali bu muammoni hal qilmoqda. Masalan, AQSh va Yevropa Ittifoqi qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga katta byudjet ajratadi.

Energiya o'zgaruvchanligi : Batareyalar va «aqlli» tarmoqlar texnologiyalari energiya saqlash va taqsimlash muammosini yengashga yordam beradi. Litium-ion batareyalar va vodorod energiyasi saqlash tizimlari energiya o'zgaruvchanligini bartaraf etishda samarali vosita hisoblanadi. Energiya o'zgaruvchanligi: Batareyalar va «aqlli» tarmoqlar texnologiyalari energiya saqlash va taqsimlash muammosini yengashga yordam beradi. Litium-ion batareyalar va vodorod energiyasi saqlash tizimlari energiya o'zgaruvchanligini bartaraf etishda samarali vosita hisoblanadi.

Texnologik cheklolar : Innovatsion texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlar natijasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari samaradorligi oshmoqda. Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalari energiya ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonlarini optimallashtirishda katta yordam beradi. Texnologik cheklolar: Innovatsion texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlar natijasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari samaradorligi oshmoqda. Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalari energiya ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonlarini optimallashtirishda katta yordam beradi.

Xulosa. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivojlanishi milliy iqtisodiyot uchun energiya xavfsizligini ta'minlash, ekologik muvozanatni tiklash va innovatsion ish o'rinlari yaratish imkonini beradi. Davlatlar va xususiy sektor hamkorligi bilan bu sohani yanada rivojlantirish global iqlim maqsadlariga erishish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun zarurdir. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari

zamonaviy iqtisodiyotning asosiy tayanchiga aylanmoqda va kelajakda uning roli yanada ortib boraveradi. Mamlakatlar energiya siyosatini qayta tiklanuvchi energiya asosida qurish orqali barqaror kelajakka erishish imkonini topishadi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivojlanishi milliy iqtisodiyot uchun energiya xavfsizligini ta'minlash, ekologik muvozanatni tiklash va innovatsion ish o'rinlari yaratish imkonini beradi. Davlatlar va xususiy sektor hamkorligi bilan bu sohani

yanada rivojlantirish global iqlim maqsadlariga erishish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun zarurdir. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari zamonaviy iqtisodiyotning asosiy tayanchiga aylanmoqda va kelajakda uning roli yanada ortib boraveradi. Mamlakatlar energiya siyosatini qayta tiklanuvchi energiya asosida qurish orqali barqaror kelajakka erishish imkonini topishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. IRENA (International Renewable Energy Agency). (2022). Renewable Capacity Statistics 2022. Abu Dhabi: IRENA. Manba: <https://www.irena.org>
2. Global Wind Energy Council (GWEC). (2022). Global Wind Report 2022. Brussels: GWEC. Manba: <https://gwec.net>
3. International Energy Agency (IEA). (2022). World Energy Outlook 2022. Paris: IEA. Manba: <https://www.iea.org>
4. Bloomberg New Energy Finance (BNEF). (2022). New Energy Outlook 2022. London: BNEF. Manba: <https://about.bnef.com>
5. Carbon Tracker Initiative. (2022). The Impact of Renewable Energy on Carbon Emissions. London: Carbon Tracker. Manba: <https://carbontracker.org>
6. World Bank. (2022). Energy Sector Management Assistance Program (ESMAP) Report. Washington, D.C.: World Bank. Manba: [<https://www.worldbank.org>]



TIJORAT BANKLARIDA DEPOZITLAR TARKIBI VA DINAMIKASI: TAHLILIY YONDASHUV (ATB TURONBANK VA TRASTBANK XAB MISOLIDA)

Allaberganov Sirojali Saxatovich

Xalqaro Nordik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Sirojali_Q4.10.1991@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil

Jurnal soni: 14

Maqola raqami: 9

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1120>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

bank tizimi, bank depoziti, bank aktivi,
bank krediti, iqtisodiy o'sish.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tijorat banklarining depozit siyosatida depozitlar tarkibi va ularning o'zgarish dinamikasi tahlil qilinadi. Tahlil obyekti sifatida O'zbekistondagi ATB "Turonbank" va XAB "Trastbank" tanlangan bo'lib, ularning 2020–2024 yillar oralig'idagi depozit portfeli tarkibi, segmentlar bo'yicha tuzilmasi va o'sish sur'atlari solishtirma asosda ko'rib chiqiladi. Maqolada jismoniy va yuridik shaxslar depozitlari o'rtasidagi nisbat, muddatli va talab qilib olinadigan depozitlar ulushi, shuningdek, valyuta strukturasidagi farqlar asosida resurs bazasining barqarorligi baholanadi. Shuningdek, har ikki bankning marketing strategiyasi, foiz siyosati va innovatsion depozit mahsulotlarining ommaviyligi asosida mijozlar ishonchining shakllanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Tahlil natijalariga ko'ra, depozitlar tarkibini diversifikatsiyalash va uzoq muddatli omonatlarni ko'paytirish banklar uchun strategik ustuvorlik ekanligi asoslab beriladi. Maqola natijalari tijorat banklari rahbariyati, moliyaviy tahlilchilar va bank tizimi ishtirokchilari uchun amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kirish. Bank tizimida davlat ulushining yuqori bo'lishi moliyaviy sektorning samaradorligini pasaytirishi mumkin, chunki davlat banklari ko'pincha bozor tamoyillaridan ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy siyosatga yo'naltirilgan qarorlar qabul qiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqobatbardosh bank tizimi moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishiga va kredit bozorining rivojlanishiga xizmat qiladi.¹ Davlat banklarining monopol holatda bo'lishi esa kredit ajratish jarayonida noratsional qarorlarni keltirib chiqarishi va xususiy sektorning rivojlanishiga to'siq yaratishi mumkin. Shu boisdan, davlat ulushini kamaytirish orqali bozor tamoyillariga asoslangan bank tizimini shakllantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun muhim hisoblanadi.

Xususiy banklarning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish bank tizimiga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda kapital bozorining liberallasuvi hamda xususiy sektorning moliyaviy tizimdagi ishtirokini kengaytirish iqtisodiy o'sishni tezlashtirishi aniqlangan.² Xususiy banklar bozor talablariga mos xizmatlar taklif qilish va mijozlar segmentatsiyasini kengaytirish orqali bank tizimining barqarorligini oshiradi. Shuningdek, xususiy banklar raqobat muhitida ilg'or texnologiyalar va innovatsion moliyaviy xizmatlarni joriy etish orqali sektordagi samaradorlikni oshiradi, bu esa bank tizimining umumiy ishonchligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat ulushining kamaytirilishi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va kredit bozorining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bank tizimidagi davlat ulushining ortiqcha bo'lishi kreditlar ajratilishida resurslarning noto'g'ri taqsimlanishiga olib kelishi mumkin, chunki davlat banklari ko'pincha strategik sohalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi va bu bozorda nosog'lom raqobat muhitini yuzaga keltiradi.³ Xususiy sektor ishtirokining ortishi esa kredit bozorining diversifikatsiyalashuviga, bank xizmatlarining raqobatbardoshligi oshishiga va kapitalning samarali aylanishiga imkon yaratadi. Natijada, bank tizimi moliyaviy stress va iqtisodiy tanglik sharoitlariga tezroq moslashadi, bu esa iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi.

Davlat ulushiga ega bo'lgan banklarda depozit operatsiyalarining ahamiyati iqtisodiy xavfsizlik va ishonchlik bilan bog'liq bo'ladi. Bunday banklar odatda uzoq muddatli barqaror depozit bazasiga ega bo'lib, ularning likvidlik inqirozlariga uchrash ehtimoli past bo'ladi. Shuningdek, ular aholining ishonchiga ega bo'lgani uchun depozitlar oqimi ancha barqaror bo'lib, inqiroz davrlarida ham omonatchilar o'z mablag'larini ushbu banklardan olib ketishga shoshilmaydi. Shu sababli,

davlat banklari depozit siyosatini shakllantirishda kamroq tavakkalchilikka yo'l qo'yib, konservativ yondashuvni tanlaydi.

Xususiy banklarda esa depozit operatsiyalari mijozlarni jalb qilish va bozor raqobatbardoshligini oshirish vositasi hisoblanadi. Ular ko'proq moslashuvchan bo'lib, depozit foiz stavkalarini o'zgaruvchan holatda saqlash, turli bonus va rag'batlantiruvchi dasturlar orqali mijozlarni jalb qilishga intiladi. Xususiy banklarning depozit siyosati bozor talabiga moslashish orqali shakllantiriladi, ya'ni ular inflyatsiya, markaziy bank siyosati va moliyaviy bozor tendensiyalarini inobatga olgan holda strategiyalar ishlab chiqadi. Natijada, bunday banklar omonatchilar bilan yanada faol ishlaydi va depozit portfelinig tezroq o'sishini ta'minlaydi.

Davlat banklari va xususiy banklarning depozit siyosati o'rtasidagi farqlarning ilmiy-nazariy asoslarini tushuntirishda moliyaviy ishonch va xavf omillarini hisobga olish zarur. Davlat banklari odatda ishonchli investitsiya vositasi sifatida qaraladi, chunki ularning orqasida hukumat kafolati mavjud. Xususiy banklarda esa tavakkalchilik yuqori bo'lib, depozitlar bozor sharoitlariga bog'liq ravishda keskin o'zgarishi mumkin. Shuning uchun ham rivojlanayotgan davlatlarda davlat banklari aholining depozit mablag'larini jalb qilishda uzoq muddatli ishonch omiliga tayanadi, xususiy banklar esa qisqa muddatli jozibador shartlar bilan depozit jalb qilishga harakat qiladi.

Umuman olganda, rivojlanayotgan davlatlarda bank kapitalining tarkibi depozit operatsiyalarining yo'nalishi va strategiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Davlat ulushiga ega banklar iqtisodiy barqarorlik va uzoq muddatli likvidlikni saqlashga qaratilgan bo'lsa, xususiy banklar mijozlarni jalb qilish va depozit portfelini kengaytirish uchun ko'proq innovatsion yondashuvlarni qo'llaydi. Shu sababli, har ikkala turdagi banklarda depozit siyosati va operatsiyalarining ahamiyati turlicha namoyon bo'ladi va har birining o'ziga xos moliyaviy strategiyalari mavjud.

Adabiyotlar tahlili. Banke va Yitayav tomonidan olib borilgan tadqiqotda Efiopiyaning tijorat banklarida depozitlarni mobilizatsiya qilish va uning determinantlari o'rganilgan. Mualliflar depozitlar mobilizatsiyasining asosiy omillarini aniqlash va ularning bank faoliyatiga bo'lgan ta'sirini baholashga harakat qilishgan. Maqolada, depozitlar mobilizatsiyasini taqozo etuvchi omillar sifatida mijozlar bilan ishlashning samaradorligi, bank xizmatlarining sifatini oshirish, iqtisodiy sharoitlar, davlat siyosati va moliyaviy tahlillar hamda makroiqtisodiy shart-sharoitlar ko'rib chiqilgan. Tadqiqotning maqsadi — Efiopiyadagi tijorat banklarida depozitlarni mobilizatsiya qilishga ta'sir etuvchi

¹ Levine, R. (2005). *Finance and Growth: Theory and Evidence*. Handbook of Economic Growth, Elsevier.

² La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., & Shleifer, A. (2002). *Government Ownership of Banks*. The Journal of Finance, 57(1), 265–301.

³ Megginson, W. L. (2005). *The Economics of Bank Privatization*. Journal of Banking & Finance, 29(8-9), 1931-1980.

omillarni aniqlash va ushbu omillar orqali depozitlar miqdorini oshirish bo'yicha tavsiyalar berishdir. Mualliflar, depozitlar mobilizatsiyasini to'g'ri boshqarish banklarning moliyaviy barqarorligini va rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashgan.

Tadqiqotda panel regressiya modeli qo'llangan bo'lib, bu model banklarning moliyaviy hisobotlari asosida depozitlar mobilizatsiyasini determinantlar bilan bog'lashga yordam bergan. Ma'lumotlar 2010-2019 yillar davomidagi Efiopiya tijorat banklarining moliyaviy natijalariga asoslangan. Natijalarga ko'ra, depozitlar mobilizatsiyasining asosiy determinantlari sifatida bankning xizmatlar sifati, mijozlar bilan munosabatlar, kredit stavkalari, iqtisodiy o'sish sur'ati va inflyasiya darajasi aniqlangan. Shuningdek, davlatning moliyaviy siyosatlarini va iqtisodiy barqarorlik ham depozitlar mobilizatsiyasini yo'lga qo'yishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, to'g'ri bank siyosati, raqobatbardoshlik va xizmatlarning sifatini oshirish depozitlar mobilizatsiyasini kuchaytirishga yordam beradi. Mualliflar, banklar uchun, mijozlar bilan samarali ishlash va tezkor depozit xizmatlarini yaratish orqali, depozitlar miqdorini oshirish bo'yicha aniq tavsiyalar berishgan.⁴

Legass, Shikur va Ahmed tomonidan olib borilgan tadqiqotda Efiopiyaning tijorat banklarida depozit o'sishini belgilovchi omillar o'rganilgan. Mualliflar, depozitlar o'sishini ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularning banklar faoliyatiga bo'lgan ta'sirini aniqlashga harakat qilishgan. Maqolada, depozitlar o'sishini belgilaydigan determinantlar sifatida mijozlarning ishonchini oshirish, inflyasiya darajasi, iqtisodiy o'sish, banklar faoliyatining samaradorligi va moliyaviy barqarorlik omillari o'rganilgan. Tadqiqotning maqsadi Efiopiya tijorat banklarida depozit o'sishini ta'minlashga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va ushbu omillarning banklarning moliyaviy natijalariga qanday ta'sir ko'rsatishini tushunishdir. Mualliflar, depozit o'sishini ta'minlash banklar uchun moliyaviy barqarorlik va rivojlanishni ta'minlashda muhim ekanligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotda panel regressiya modeli qo'llangan bo'lib, banklarning moliyaviy hisobotlari va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida depozitlar o'sishini belgilaydigan omillarni tahlil qilishga yordam bergan. Ma'lumotlar 2010-2019 yillar davomidagi Efiopiyaning tijorat banklarining moliyaviy natijalaridan olingan. Natijalarga ko'ra, depozitlar o'sishini belgilaydigan asosiy omillar sifatida inflyasiya darajasi, iqtisodiy o'sish sur'ati, kredit foizlari, bankning moliyaviy xizmatlarining sifati va mijozlar bilan ishlashning samaradorligi aniqlangan. Shuningdek, banklar uchun ichki operatsiyalarning samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni saqlash orqali depozitlar o'sishini ta'minlashga yordam bergan. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, banklar mijozlar bilan ishlashda yaxshi xizmat ko'rsatish va moliyaviy barqarorlikni saqlash orqali depozitlar miqdorini oshirishga muvaffaq bo'lishadi.⁵

Koroleva, Jigeer, Miao va Skhvediani tomonidan olib borilgan tadqiqot, Xitoyning davlatga tegishli tijorat banklarining rentabelligiga ta'sir etuvchi determinantlarni tahlil qilishga qaratilgan. Mualliflar davlat banklarining moliyaviy natijalarini belgilaydigan asosiy omillarni aniqlash va ularning rentabellikka ta'sirini baholashga harakat qilishgan. Maqolada, davlat banklarining rentabelligini belgilaydigan omillar sifatida iqtisodiy sharoitlar, davlatning moliyaviy siyosatlarini, banklar faoliyatining samaradorligi, aktivlarning sifatini va kapital ko'rsatkichlarini muhokama qilishgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — Xitoy davlat banklarining rentabelligini oshirishga yordam beradigan asosiy determinantlarni aniqlash va banklar faoliyatining

samaradorligini ta'minlashga qaratilgan tavsiyalar berishdir. Mualliflar davlatga tegishli banklar uchun rentabellikni oshirish va iqtisodiy barqarorlikni saqlashda muhim faktorlar haqida xulosa chiqarishgan.

Tadqiqotda panel regressiya modeli va korrelyasion tahlillar qo'llangan bo'lib, ular davlatga tegishli banklarining moliyaviy natijalariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga yordam bergan. Ma'lumotlar 2009-2018 yillar davomidagi Xitoyning davlat banklari moliyaviy hisobotlaridan olingan. Natijalarga ko'ra, davlat banklarining rentabelligini belgilaydigan asosiy omillar sifatida kapital samaradorligi, aktivlar sifati, likvidlik darajasi, iqtisodiy o'sish sur'ati va davlatning moliyaviy siyosati aniqlangan. Shuningdek, iqtisodiy barqarorlik va davlatning banklar faoliyatiga ta'sirini kuchaytirish rentabellikka ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, davlat banklari uchun ishlab chiqarish samaradorligi va moliyaviy barqarorlikni oshirishning muhim ahamiyati bor, va bu olib kelgan tavsiyalar moliyaviy strategiyalarni to'g'ri ishlab chiqish va banklarning rentabelligini oshirishga yordam berishi mumkin.⁶

Farkasdi, Septiawan va Alghifari tomonidan olib borilgan tadqiqot Germaniyadagi tijorat banklarining rentabelligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishga qaratilgan. Mualliflar Germaniya banklarining moliyaviy natijalariga ta'sir etuvchi asosiy determinantlarni aniqlash va bank faoliyatining samaradorligini belgilaydigan omillarni muhokama qilishgan. Maqolada banklarning rentabelligiga ta'sir ko'rsatayotgan omillar sifatida makroiqtisodiy sharoitlar, likvidlik, kapital adekvatligi, kredit siyosati va ichki operatsiyalarning samaradorligi ko'rib chiqilgan. Tadqiqotning maqsadi — Germaniya tijorat banklarining rentabelligini oshirish uchun muhim omillarni aniqlash va bu omillarning rentabellikka bo'lgan ta'sirini baholashdir. Mualliflar banklar rentabelligini oshirish uchun mamlakatdagi iqtisodiy sharoitlar va banklarning ichki boshqaruv samaradorligini to'g'ri tarzda boshqarishning ahamiyatiga e'tibor qaratgan.

Tadqiqotda panel regressiya modeli va korrelyasion tahlillar qo'llangan bo'lib, ular Germaniya banklarining moliyaviy natijalarini belgilaydigan omillarni aniqlashga yordam bergan. Ma'lumotlar 2010-2019 yillar davomidagi Germaniyaning tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari asosida yig'ilgan. Natijalarga ko'ra, rentabellikka asosiy ta'sir etuvchi omillar sifatida likvidlik darajasi, kapital adekvatligi, inflyasiya darajasi, iqtisodiy o'sish va kredit siyosatining samaradorligi aniqlangan. Shuningdek, bankning ichki boshqaruv tizimi, operatsiyalarning samaradorligi va resurslardan foydalanish darajasi ham rentabellikka ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, banklar uchun iqtisodiy barqarorlik va samarali boshqaruv tizimini o'rnatish rentabellikni oshirishga yordam beradi.⁷

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, tijorat bankari resurs bazasi barqarorligini tahlil qilishda tijorat banklarining rasmiy statistik ma'lumotlari olingan.


Tadqiqot natijalari. Rivojlanayotgan davlatlarda bank sektorining rivojlanish darajasi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning eng muhimlaridan biri kapitalida davlat ulushining mavjudligi yoki yo'qligidir. Davlat ulushiga ega bo'lgan banklar odatda barqarorlik nuqtayi nazaridan kuchliroq hisoblanadi, chunki ular hukumat kafolati va qo'llab-quvvatloviga ega bo'ladi. Biroq, bunday banklar ko'pincha xususiy banklarga qaraganda depozit siyosatini shakllantirishda ancha konservativ yondashadi. Davlat banklari asosan iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, xususiy banklar esa depozitlar hajmini oshirish orqali bozor ulushini kengaytirishga intiladi.

⁴ Banke, N. K., & Yitayaw, M. K. (2022). Deposit mobilization and its determinants: evidence from commercial banks in Ethiopia. *Future Business Journal*, 8(1), 32.

⁵ Legass, H. A., Shikur, A. A., & Ahmed, O. M. (2021). Determinants of commercial banks deposit growth evidence from Ethiopian commercial banks. *Journal of Finance and Accounting*, 9(6), 207-215.

⁶ Koroleva, E., Jigeer, S., Miao, A., & Skhvediani, A. (2021). Determinants affecting profitability of state-owned commercial banks: Case study of China. *Risks*, 9(8), 150.

⁷ Farkasdi, S., Septiawan, B., & Alghifari, E. S. (2021). Determinants of commercial banks profitability: Evidence from Germany. *JRAK*, 13(2), 82-88.



1-rasm. ATB Turonbank asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi⁸ (mlrd. so'mda).

Turonbankning 2020-2025 yillar oralig'idagi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi grafikni tahlil qilish natijasida bankning barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligi kuzatiladi. Grafikda aktivlar, majburiyatlar, kapital, kreditlar va depozitlar hajmining yildan yilga ortib borayotgani aniq ko'rsatilgan. Ayniqsa, aktivlar va majburiyatlar bo'yicha o'sish sur'ati yuqori ekanligi e'tiborni tortadi.


Birinchi navbatda, Turonbank aktivlari 2020-yilda 5 978,87 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilga kelib 17 585,25 mlrd so'mga yetgan. Bu esa bankning o'sish sur'ati juda yuqori ekanligini hamda uning moliyaviy barqarorligi oshib borayotganini anglatadi. Aktivlarning oshishi bankning yangi investitsiyalar jalb qilishi va kredit portfeli kengayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, majburiyatlar ham sezilarli darajada oshgan. 2020-yilda 4 888,28 mlrd so'mni tashkil qilgan majburiyatlar 2025-yilda 15 666,36 mlrd so'mga yetgan. Bu ko'rsatkich bankning mijozlari oldidagi majburiyatlari va moliyaviy bozor bilan aloqalarining kuchayganligini

ko'rsatadi. Majburiyatlarning ko'payishi odatda depozitlar va boshqa moliyaviy manbalar hisobiga yuzaga keladi.

Kapitalning o'sish dinamikasi esa nisbatan sekinroq kechmoqda. 2020-yilda 1 090,59 mlrd so'm bo'lgan bank kapitali 2025-yilda 1 918,89 mlrd so'mga yetgan. Bu esa bankning o'z mablag'larini ko'paytirish sur'ati majburiyatlarga nisbatan pastroq ekanligini bildiradi. Biroq, kapital hajmining oshishi bankning barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Nihoyat, kredit va depozitlar ham barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Kredit hajmi 2020-yilda 4 263,71 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 12 557,53 mlrd so'mga yetgan. Depozitlar esa 2020-yildagi 1 652,82 mlrd so'mdan 2025-yilda 5 486,19 mlrd so'mga oshgan. Bu esa bank mijozlari ishonchining ortib borayotganidan dalolat beradi. Umuman olganda, grafikdan Turonbankning barqaror rivojlanayotganligi va moliyaviy salohiyatining ortib borayotganligini anglash mumkin.



2-rasm. Trastbank XAB asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi⁹ (mlrd. so'mda).

XAB Trastbankning 2020-2025 yillar oralig'idagi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari aks ettirilgan grafikdan ko'rinib turibdiki, bankning barcha asosiy moliyaviy indikatorlari barqaror o'sish tendensiyasiga

ega. Ayniqsa, aktivlar va majburiyatlarning dinamikasi bankning umumiy moliyaviy salohiyati ortib borayotganidan dalolat beradi. Shu

⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.


bilan birga, depozitlar va kreditlar hajmining yil sayin oshib borishi bank mijozlari va investorlar orasida ishonch ortib borayotganini ko'rsatadi.

Birinchi navbatda, bank aktivlari 2020-yilda 3 317,12 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 10 867,59 mlrd so'mga yetgan. Aktivlarning uch barobarga yaqin oshishi bankning operatsion samaradorligi va bozor ulushining kengayganini bildiradi. Aktivlarning o'sishi, asosan, kreditlar va depozitlar hajmining oshishi, shuningdek, bankning investitsion faoliyati kengayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ushbu bank majburiyatlari ham shu davr mobaynida sezilarli darajada oshgan. 2020-yilda 2 798,78 mlrd so'mni tashkil etgan majburiyatlar 2025-yilga kelib 7 947,71 mlrd so'mga yetgan. Majburiyatlarning ortishi, asosan, bank tomonidan jalb qilingan depozitlar va boshqa qarz majburiyatlari hisobiga yuzaga kelgan. Bu holat bankning iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlarga moslashuvchanligini va moliyaviy manbalar jalb qilish salohiyatini oshirganini bildiradi.

Bank kapitali ham sezilarli darajada oshgan bo'lib, 2020-yilda 518,34 mlrd so'm bo'lsa, 2025-yilga kelib 2 919,88 mlrd so'mga yetgan. Kapital hajmining oshishi bankning barqarorligini oshiradi va unga kredit portfelini yanada kengaytirish imkoniyatini yaratadi. Kapitalning o'sish sur'ati majburiyatlarga nisbatan sekinroq bo'lsa-da, bu bankning uzoq muddatli barqaror rivojlanish strategiyasini qo'llayotganini anglatadi.


Nihoyat, kredit va depozit operatsiyalarining o'sish tendensiyasi bankning bozor ishtirokchilari bilan mustahkam aloqaga ega ekanligini ko'rsatadi. Kredit hajmi 2020-yildagi 1 737,20 mlrd so'mdan 2025-yilda 5 705,50 mlrd so'mga oshgan bo'lsa, depozitlar 2 652,20 mlrd so'mdan 7 421,33 mlrd so'mga yetgan. Bu esa bankning kreditlash imkoniyatlari kengayganini va omonatchilar orasida ishonch ortib borayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, XAB Trastbankning moliyaviy ko'rsatkichlari barqaror rivojlanish tendensiyasini namoyon etib, uning uzoq muddatli strategiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini bildiradi.



3-rasm. ATB Turonbank balans passivining holati¹⁰

Grafikdan ko'rinib turibdiki, ATB Turonbankning depozitlari, kapitali va boshqa majburiyatlari yildan yilga o'sib bormoqda. 2020-

Kapitalga kelsak, 2020-yilda 1 090,6 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 1 918,9 mlrd so'mga yetgan. Kapitalning



yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda bank depozitlari 1 652,8 mlrd so'mdan 5 486,2 mlrd so'mga yetgan, ya'ni taxminan uch barobarga oshgan. Bu esa bankning mijozlar orasida ishonchi ortganini va omonatchilar tomonidan kapital qo'yilmalar hajmi kengayganini anglatadi. Depozitlarning ortishi bankning kreditlash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi bilan birga, uning likvidlik darajasini ham oshiradi.

Bankning boshqa majburiyatlari ham sezilarli darajada ortib borgan bo'lib, 2020-yildagi 3 235,5 mlrd so'mdan 2025-yilga kelib 10 180,2 mlrd so'mga yetgan. Bu bankning moliyaviy majburiyatlari ortib borayotganini, shu bilan birga, investorlar va kreditorlar tomonidan jalb qilinayotgan mablag'larning ham ko'payganini ko'rsatadi. Mazkur holat bankning bozor iqtisodiyotidagi raqobatbardoshligini oshirishiga xizmat qiladi.


o'sish sur'ati boshqa ko'rsatkichlarga nisbatan sustroq bo'lsa-da, uning barqaror o'sishi bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Umuman olganda, grafik bankning faoliyati izchil rivojlanayotganini, depozit bazasi mustahkamlanayotganini va bank tomonidan jalb qilinayotgan mablag'larning hajmi ortayotganini ko'rsatmoqda.

Quyidagi grafikdan ko'rinib turibdiki, XAB Trastbankning asosiy mablag' manbai mijozlarning depozitlari bo'lib, ularning umumiy ulushi yillar davomida sezilarli darajada ortgan. 2020-yilda depozitlar 2 652,2 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 7 421,3 mlrd. so'mga yetgan, ya'ni 2,8 baravarga oshgan. Bu bankning mijozlar orasida ishonch qozonayotganini va depozit jalb qilish borasida samarali siyosat yuritayotganini ko'rsatadi. Depozitlarning umumiy mablag'lardagi ulushi har doim 65% dan yuqori bo'lib kelgan, bu esa bankning barqarorlik strategiyasiga muvofiq keladi.

4-rasm. Trastbank XAB balans passivining holati¹¹

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



5-rasm. ATB Turonbank depozitlarining bank faoliyatidagi o'rnini¹²

Bankning boshqa majburiyatlari esa depozitlarga nisbatan ancha kichik ulushni tashkil etmoqda. Masalan, 2020-yilda ular 146,6 mlrd. so'm bo'lsa, 2025-yilga kelib 526,4 mlrd. so'mga yetgan. Lekin bu o'sish bank mablag'lari tarkibida katta o'zgarish qilmagan, ya'ni boshqa majburiyatlarning umumiy ulushi 3-5% atrofida qolgan. Bu esa bankning asosan ichki mablag'larga tayanayotganini va tashqi qarz majburiyatlaridan minimal darajada foydalanayotganini ko'rsatadi. Bunday strategiya bankni iqtisodiy o'zgarishlarga nisbatan barqaror qiladi.


Kapital ko'rsatkichi ham yillar davomida sezilarli darajada oshgan. 2020-yilda kapital 518,3 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 2 919,9 mlrd. so'mga yetgan, ya'ni 5,6 baravarga o'sgan. Kapitalning umumiy ulushi ham oshib, 2020-yilda 15% atrofida bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 25-30% oralig'ida bo'lishi kuzatilmoqda. Bu bankning moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasi bo'lib, uning kelajakdagi rivojlanish salohiyatini kuchaytiradi.

ATB Turonbankning depozitlari umumiy aktivlar, majburiyatlar va kreditlarga nisbatan qanday o'zgarib borayotganini ko'rsatuvchi quyidagi grafik bankning moliyaviy barqarorligi va likvidlik darajasi haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Grafikdagi ko'rsatkichlarga ko'ra, 2020-yilda bankning depozitlari aktivlarga nisbatan 27,6% ni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 24,3% gacha kamaygan, keyinchalik esa asta-sekin o'sib, 2025-yilda 31,2% ga yetgan. Bu shuni anglatadiki, bank o'z aktivlarini moliyalashtirishda depozitlardan foydalanish ulushini biroz oshirgan, lekin bu hali ham past darajada qolmoqda. Depozitlarning aktivlardagi ulushi qancha yuqori bo'lsa,

bankning tashqi qarzlariga kamroq bog'liq bo'lishi va barqaror moliyaviy manbaga ega bo'lishi ta'minlanadi.

Bank majburiyatlarining qanchalik qismi depozitlar bilan ta'minlanayotganiga e'tibor qaratsak, 2020-yilda bu ulush 33,8% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda 28,2% gacha kamaygan. So'ngra, keyingi yillarda asta-sekin ortib, 2025-yilda 35,0% ga yetgan. Bu shuni ko'rsatadiki, ATB Turonbank o'z majburiyatlarini bajarishda asosan depozitlardan emas, balki boshqa moliyaviy manbalardan foydalanmoqda. Agar bank majburiyatlarining katta qismi tashqi qarzlar yoki boshqa qisqa muddatli moliyaviy manbalar hisobidan moliyalashtirilsa, bu uning likvidlik xavfini oshirishi mumkin. Depozitlar bank uchun barqaror va nisbatan uzoq muddatli resurs bo'lsa, tashqi majburiyatlar yuqori foiz stavkasi va muddat cheklovlari tufayli bankning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Eng muhim jihatlardan biri – depozitlarning kreditlarga nisbati. Grafikda ko'rinib turibdiki, 2020-yilda bankning kreditlari depozitlar bilan 38,8% ta'minlangan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 31,7% gacha kamaygan. Keyingi yillarda esa o'sish kuzatilib, 2025-yilda 43,7% ga yetgan. Bu shuni anglatadiki, bank o'z kredit portfelini ko'proq depozitlar hisobidan moliyalashtirishga intilgan, lekin bu ko'rsatkich hali ham nisbatan past darajada. Agar kreditlarning katta qismi depozitlar emas, balki boshqa qisqa muddatli moliyaviy manbalar hisobidan ta'minlansa, bu likvidlik riskini oshiradi. Chunki tashqi moliyalashtirish manbalari o'zgaruvchan foiz stavkalari va muddat cheklovlari sababli bankning majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.



6-rasm. XAB Trastbank depozitlarining bank faoliyatidagi o'rnini¹³

¹² O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.


¹³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

XAB Trastbankning depozitlar bilan ta'minlanganlik darajasi yuqori bo'lib, bu bankning barqaror moliyalashtirish manbalariga tayanayotganini ko'rsatadi. Quyidagi grafikdan ko'rinib turibdiki, bankning depozitlarining aktivlarga nisbati 2020-yilda 80,0% ni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda asta-sekin pasayib, 2025-yilda 68,3% ga tushgan. Bu kamayish tendensiyasiga qaramay, bankning aktivlari tarkibida depozitlarning katta ulushga ega ekanligi moliyaviy mustaqillikni oshirish va tashqi qarzlardan kamroq foydalanish imkonini beradi. Depozitlarning aktivlardagi yuqori ulushi bankning o'z mijozlari tomonidan jalb qilingan mablag'lar hisobiga faoliyat yuritayotganini anglatadi, bu esa likvidlik xavfini kamaytiradi.

Shuningdek, bankning majburiyatlarining qanday qismi depozitlar bilan ta'minlanayotganiga e'tibor qaratsak, ushbu ko'rsatkich deyarli barqaror darajada saqlanib qolgan. 2020-yilda bu ulush 94,8% ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 93,4% darajasida qolgan. Bu shuni anglatadiki,

XAB Trastbank tashqi qarz jalb qilishga ehtiyoj sezmay, o'zining asosiy majburiyatlarini mijozlarning depozitlari hisobidan qoplay olmoqda. Majburiyatlarining depozitlar bilan ta'minlanganligi yuqori bo'lgani sababli, bank likvidlik muammolariga duch kelish ehtimolini kamaytiradi va foiz stavkalarining o'zgarishi yoki tashqi moliyaviy bozorlardagi noaniqliklardan kamroq ta'sirlanadi.

Grafikdagi eng e'tiborga molik ko'rsatkich – bu kreditlarning depozitlar bilan ta'minlanganligi darajasi. 2020-yilda bank kreditlarining 152,7% qismi depozitlar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 198,5% gacha o'sib, keyinchalik pasayib, 2025-yilda 130,1% ni tashkil etgan. Bu shuni anglatadiki, bank o'z kredit siyosatini asosan mijozlarning omonatlari hisobidan yuritmoqda va tashqi mablag'larga kamroq bog'liq. Kreditlarning depozitlar bilan yuqori ta'minlanganligi bank uchun ijobiy holat bo'lib, bu uning kreditlash faoliyatini barqaror resurslar asosida olib borishga imkon yaratadi.




7-rasm. ATB Turonbank depozitlarning sub'ektiga ko'ra taqsimoti¹⁴ (mlrd so'mda).

Grafikdan ko'rinib turibdiki, ATB Turonbankdagi depozitlarning asosiy qismini yuridik shaxslar depozitlari tashkil etadi. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, jismoniy shaxslarning omonatlari taxminan 35-40% atrofida bo'lsa, yuridik shaxslarning omonatlari umumiy depozitlarning 60-65% ni tashkil qilgan. Keyingi yillarda ham bu nisbat deyarli o'zgarmay, yuridik shaxslar omonatlari ustunlik qilgan. 2025-yilga kelib, jismoniy shaxslarning omonatlari nisbatan biroz ortgan bo'lsa-da, umumiy balansda ularning ulushi 40% dan oshmagan. Bu holat bankning asosan yirik mijozlar – kompaniyalar va tashkilotlar bilan ishlashga yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

Biroq, yillar davomida jismoniy shaxslarning depozitlari ulushi biroz ortib borayotgani kuzatilmoqda. 2022-yildan boshlab, bu ko'rsatkich 1-2% ga oshib borib, 2025-yilga kelib 40% ga yaqinlashgan. Bu esa aholi orasida bank xizmatlariga bo'lgan ishonch oshayotganini

anglatadi. Jismoniy shaxslarning depozitlari odatda qisqa va o'rta muddatli bo'lishi sababli, bu bank uchun qisqa muddatli likvidlikni oshirish imkonini beradi. Shu sababli, bankning kelajak strategiyasida jismoniy shaxslar omonatlarini jalb qilish muhim yo'nalish bo'lishi mumkin.

Yuridik shaxslarning omonatlari esa 2021-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda deyarli o'zgarishsiz qolgan, taxminan 60-65% atrofida bo'lib, bu bankning yirik mijozlar bilan ishlashga yo'naltirilgan strategiyasini tasdiqlaydi. Bunday mijozlar odatda uzoq muddatli va barqaror depozitlarni bankda saqlashadi, bu esa bankning barqaror faoliyat yuritishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Yuridik shaxslar depozitlarining yuqori ulushi bankning likvidlik darajasini ham yaxshilaydi, chunki kompaniyalar odatda katta miqdordagi mablag'larini uzoq muddatga joylashtiradi.



8-rasm. XAB Trastbank depozitlarning sub'ektiga ko'ra taqsimoti¹⁵ (mlrd so'mda).

Grafikdan ko'rinib turibdiki, XAB Trastbankdagi depozitlarning asosiy qismini yuridik shaxslar omonatlari tashkil etmoqda. 2021-yil 1-

yanvar holatiga ko'ra, jismoniy shaxslarning depozitlari umumiy depozitlarning taxminan 20-25% ini tashkil qilgan bo'lsa, yuridik


¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

shaxslarning omonatlari esa 75-80% ni tashkil qilgan. 2022-yildan boshlab, jismoniy shaxslarning omonatlari ulushi asta-sekin oshib borgan va 2023-yilda 25-30% oralig'iga yetgan. 2024-2025-yillarga kelib, bu ko'rsatkich 30% dan oshib, aholi omonatlarining ortib borayotganini ko'rsatmoqda.

Quyidagi grafikdan ko'rinib turibdiki, ATB Turonbankda jismoniy shaxslarning depozitlari yildan-yilga sezilarli o'sish tendensiyasiga ega.

2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, bankdagi aholi omonatlari hajmi 782,2 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilda 1 124,6 mlrd so'mga yetib, 43,8% ga o'sgan. Aholi tomonidan bankka ishonch ortib borayotgani depozitlarning barqaror o'sishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa bankning resurs bazasini mustahkamlash va kreditlash imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.




9-rasm. ATB Turonbankda jismoniy shaxslar depozitlari hajmining o'zgarish dinamikasi¹⁶

2023-yilga kelib, jismoniy shaxslarning omonatlari 1 281,6 mlrd so'mga yetgan bo'lsa-da, o'sish sur'ati sezilarli darajada pasaygan. Ya'ni, 2022-yildagi 43,8% lik o'sish 2023-yilda 14,0% ga tushgan. Bu esa aholi depozitlarining oshish tezligi sekinlashayotganidan dalolat beradi. Ushbu tendensiya iqtisodiy omillar, aholi daromadlarining o'zgarishi yoki boshqa investitsiya imkoniyatlarining shakllanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

2024-yilda esa jismoniy shaxslarning omonatlari yana o'sib, 1 628,1 mlrd so'mga yetgan va o'tgan yilga nisbatan 27,0% o'sish qayd etilgan. Bu o'sish ko'rsatkichi 2023-yildagiga qaraganda yuqori bo'lib,

aholi omonatlariga bo'lgan ishonch qayta mustahkamlanganini bildiradi. Bu holat bankning mijozlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi, depozit foiz stavkalarining raqobatbardoshligi va bank tizimining barqarorligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Eng e'tiborga molik o'zgarish esa 2025-yilga kelib kuzatilgan. Bankdagi jismoniy shaxslarning omonatlari hajmi 2 039,7 mlrd so'mga yetib, o'tgan yilga nisbatan 25,3% ga oshgan. 2021-yil bilan solishtirganda, ushbu depozitlar 2,6 barobarga ko'paygan. Bu esa bankning resurs bazasi mustahkamlanayotganini va aholi tomonidan omonatlarga bo'lgan talab yuqoriligini tasdiqlaydi.



10-rasm. ATB Turonbankda yuridik shaxslar depozitlari hajmining o'zgarish dinamikasi¹⁷

Grafikdan ko'rinib turibdiki, ATB Turonbankda yuridik shaxslarning depozitlari yildan-yilga ortib bormoqda. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, bankdagi yuridik shaxslar depozitlari 1 334,2 mlrd so'mni

tashkil qilgan. 2022-yilda esa bu ko'rsatkich 1 713,1 mlrd so'mga yetib, o'tgan yilga nisbatan 28,4% ga o'sgan. Bu kompaniyalar va

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.


tashkilotlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchi ortib borayotganidan dalolat beradi.

2023-yilda yuridik shaxslar tomonidan qo'yilgan depozitlar hajmi 2 211,0 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, bu 2022-yilga nisbatan 29,1% ga o'sish demakdir. Ushbu ko'rsatkich 2021-yildagi o'sishdan biroz yuqoriroq bo'lib, yuridik shaxslarning bank depozitlariga bo'lgan qiziqishi barqarorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu kompaniyalar o'z mablag'larini saqlash va ko'paytirish uchun aynan ATB Turonbankni afzal ko'rayotganidan dalolat beradi.

2024-yilda yuridik shaxslar depozitlari hajmi sezilarli darajada oshib, 3 033,5 mlrd so'mga yetgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan 37,2% lik o'sishni ko'rsatadi. Ushbu natija avvalgi yillardagi o'sish ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lib, bankning yuridik shaxslar bilan ishlash strategiyasi muvaffaqiyatli ekanligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, bu

Biroq, 2025-yilga kelib, yuridik shaxslar tomonidan bankka qo'yilgan depozitlar hajmi 3 446,5 mlrd so'mga yetgan bo'lsa-da, o'sish sur'ati 13,6% ga pasaygan. Bu avvalgi yillardagi o'sish sur'atlariga qaraganda ancha past ko'rsatkich hisoblanadi. Bu pasayishning sabablari iqtisodiy vaziyat, yuridik shaxslarning likvidlik ehtiyojlari yoki boshqa investitsiya imkoniyatlariga e'tibor qaratayotganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Quyidagi grafikdan ko'rinib turibdiki, XAB Trastbankda jismoniy shaxslarning depozitlari yillar davomida o'zgaruvchan dinamika bilan o'sib bormoqda. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, bankdagi jismoniy shaxslar depozitlari 574,8 mlrd so'mni tashkil qilgan. 2022-yilda bu ko'rsatkich 816,0 mlrd so'mga yetib, o'tgan yilga nisbatan 42% ga o'sdi. Bu jismoniy shaxslarning bankka bo'lgan ishonchi ortganidan va omonatlarning jozibadorligidan dalolat beradi.




davrdan bank tomonidan korporativ mijozlar uchun qulay shartlar va xizmatlar taklif etilgan bo'lishi mumkin.

11-rasm. XAB Trastbankda jismoniy shaxslar depozitlari hajmining o'zgarish dinamikasi¹⁸

Biroq, 2023-yilda kutilmagan pasayish kuzatilgan. Jismoniy shaxslarning depozitlari hajmi 805,0 mlrd so'mni tashkil qilib, 2022-yilga nisbatan -1,4% ga kamaygan. Bu pasayishning sabablari iqtisodiy muhit, foiz stavkalari yoki boshqa investitsiya variantlarining jozibadorligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, inflyatsiya yoki moliyaviy bozorlar beqarorligi ham omonat hajmiga ta'sir qilgan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

2024-yilda esa keskin o'sish qayd etilgan. Jismoniy shaxslarning depozitlari hajmi 1 538,4 mlrd so'mga yetib, oldingi yilga nisbatan 91,1% lik katta o'sish kuzatilgan. Bu yilgi keskin o'sish bank tomonidan joriy etilgan yangi depozit siyosati, foiz stavkalarining oshirilishi yoki mijozlar uchun yanada qulay shartlar yaratilganligi bilan izohlanishi mumkin.

2025-yilda depozit hajmi yana ortib, 2 232,8 mlrd so'mni tashkil qilgan. Biroq, o'sish sur'ati 45,1% ga pasaygan, ya'ni avvalgi yilga nisbatan o'sish sekinlashgan. Bu sekinlashish, ehtimol, mijozlarning muqobil investitsiya variantlariga e'tibor qaratishi yoki bank sektorida raqobat kuchayishi natijasida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin.



12-rasm. XAB Trastbankda yuridik shaxslar depozitlari hajmining o'zgarish dinamikasi¹⁹

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Grafikdan ko'rinib turibdiki, XAB Trastbankda yuridik shaxslarning depozitlari 2021–2022-yillar oralig'ida o'zgaruvchan dinamikaga ega bo'lgan. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, yuridik shaxslarning bankdagi depozitlari 3 097,4 mlrd so'mni tashkil qilgan. 2022-yilda esa bu ko'rsatkich keskin o'sib, 4 631,5 mlrd so'mga yetgan va oldingi yilga nisbatan 49,5% lik o'sish kuzatilgan. Bu jarayon biznes subyektlarining bank xizmatlariga bo'lgan ishonchi ortgani yoki iqtisodiy faollik oshgani bilan izohlanishi mumkin.

2023-yilda ham yuridik shaxslar depozitlari hajmi o'sishda davom etgan va 5 488,4 mlrd so'mga yetgan. Biroq, o'sish sur'ati sezilarli darajada pasayib, atigi 18,5% ni tashkil qilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, 2022-yildagi keskin o'sishdan so'ng, depozit qo'yish hajmi nisbatan sekinlashgan. Sabablari orasida iqtisodiy barqarorlik, bank foiz stavkalarining o'zgarishi yoki yuridik shaxslarning likvidlikka ehtiyoji ortgan bo'lishi mumkin.

2024-yilda esa bankdagi yuridik shaxslar depozitlari 5 204,6 mlrd so'mga kamaygan. Bu esa oldingi yilga nisbatan -5,2% lik pasayishni anglatadi. Mazkur pasayishning sabablari yuridik shaxslarning depozitlarni boshqa investitsion yo'nalishlarga yo'naltirishi, bank xizmatlarining raqobatbardoshligi yoki iqtisodiy vaziyat bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

2025-yilda esa yuridik shaxslarning depozitlari nisbatan barqarorlashgan. Ko'rsatkich 5 188,5 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024-yilga nisbatan deyarli o'zgarishsiz (-0,3%) qoldi. Bu bankdagi yuridik shaxslarning depozit siyosati nisbatan barqaror darajaga yetganini, lekin sezilarli o'sish kuzatilmaganini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Tahlil natijalariga ko'ra, XAB Trastbank davlat ulushiga ega bo'lmagan tijorat banki sifatida o'zining asosiy mablag'larini depozitlar hisobidan shakllantirgan. XAB Trastbank uchun 2020-yilda depozitlar umumiy balans passivining 79,3% ini tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 70,1% gacha pasaygan. Bunga sabab, bank kapitalining va boshqa majburiyatlarining oshgani, ya'ni balans tarkibida muvozanatni saqlash strategiyasi amalga oshirilganidir. Shunga qaramay, 2025-yilda ham Trastbankning asosiy mablag' manbai mijozlar depozitlari bo'lib qolmoqda. Demak, Trastbank mijozlarning ishonchini qozonish va depozit jalb qilish borasida barqaror rivojlanish tendensiyasini namoyon etmoqda. Ayniqsa, davlat ulushiga ega bo'lmagan bank sifatida bu kabi natijalarga erishish, bankning mijozlarga qulay shart-sharoitlar yaratgani va ishonchni mustahkamlash strategiyasining samaradorligini ko'rsatadi.

Analitik metod tadqiqotning asosiy usuli sifatida tanlangan bo'lib, u kichik korxonalarda hisob siyosati turlarini tahlil qilish va ularning samaradorligini baholashga yordam beradi. Bu metod yordamida hisob siyosati turlarining qanday tasniflanishi va amaliyotda qanday qo'llanilishi o'rganiladi. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlar, ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar va amaliyotdagi misollar tahlil qilinadi. Taqqoslash metodi orqali tadqiqotda kichik korxonalarda qo'llanilayotgan hisob siyosatining turli turlarini solishtiramiz. Bu metod yordamida bir nechta kichik korxonalarda hisob siyosatining qo'llanilishi, uning samaradorligi va amaliyotdagi farqlar o'rganiladi. Empirik metod orqali kichik korxonalarda hisob siyosatining amaliy qo'llanilishi va uning ish faoliyatiga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqotda kichik korxonalarda o'tkazilgan so'rovlar, intervyyular va amaliy tahlillar orqali ma'lumotlar to'planadi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi kichik korxonalarda qo'llanilayotgan hisob siyosatining turli turlarini tahlil qilish va ularning korxona faoliyatiga ta'sirini o'rganishdir. Tadqiqotda qo'llanilayotgan metodlar, xususan, taqqoslash metodi, kichik korxonalarda hisob siyosati turlarini solishtirishga imkon beradi. Bu metod orqali, bir nechta kichik korxonalarda qo'llanilgan hisob siyosatining farqlari va o'xshashliklari aniqlanadi. Empirik metod esa amaliyotda ushbu siyosatlarining qanday ishlashini, qanday samaradorlikka erishilishini va ular korxonaning moliyaviy natijalariga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashga yordam beradi. Kichik korxonalar — jami daromadi kalendar yil davomida 1 milliard so'mdan 10 milliard so'mgacha bo'lgan tadbirkorlik subyektlari.

Kichik korxonalarda hisob siyosatining asosiy turlari, odatda, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tasniflanadi:

Moliya hisoboti siyosati: Bu turda korxonalar o'z moliyaviy hisobotlarini tayyorlashda qaysi uslubni qo'llashini tanlaydilar. Bunday siyosat kichik korxonaning moliyaviy natijalarini qanday aks ettirishiga ta'sir qiladi va ularning investitsiya jozibadorligini belgilaydi.

Soliq siyosati: Kichik korxonalar o'z soliq majburiyatlarini qanday tartibda bajarishlarini belgilashadi. Bu siyosatning samaradorligi, soliq imtiyozlarini qanday qo'llash va soliqlarni qoplashdagi yaxlitlikka ta'sir qiladi.

Mulk va moddiy boyliklar siyosati: Korxona moddiy boyliklarni (masalan, inventarizatsiya, uskunalar va boshqa aktivlar) qanday

hisoblashini belgilaydi. Ushbu siyosat, ayniqsa kichik korxonalarda, moliyaviy resurslarni samarali boshqarishga yordam beradi.

Kasbiy va mehnat haqidagi siyosat: Kichik korxonalarda ishchilarning mehnat haqi, yillik ta'tillar va boshqa kasbiy shartlar bo'yicha hisob siyosati ham ahamiyatli. Bu siyosat kichik korxonalarda ishchilarni rag'batlantirish va ularni saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot davomida, taqqoslash metodini qo'llab, turli kichik korxonalarda qo'llanilgan hisob siyosatlari o'rganildi. Masalan, kichik korxonalar o'z moliyaviy hisobotlarini soddalashtirilgan usulda tayyorlashni afzal ko'rishadi, bu esa ularning operatsion samaradorligini oshiradi, ammo murakkab hisobot talablarining bartaraf etilishiga olib keladi. Aksincha, boshqa kichik korxonalar har bir moliyaviy ko'rsatkichni batafsil va aniq shaklda hisoblashi mumkin, lekin bu jarayon resurslarni ko'p talab qiladi va vaqtni talab etadi.

Likvidatsion qiymat —bu aktivni majburiy ravishda sotishda eng ehtimoliy narxni aks ettiruvchi qiymatdir. Ushbu qiymatni belgilashda sotuvchini favqulodda holatlarda aktivni sotishga majbur qiluvchi shartlar hisobga olinadi. Likvidatsion qiymatning asosiy xususiyati —aktivning qisqartirilgan tayinlanish muddati, bu esa mulk egasining aktivni sotishga majbur bo'lishi bilan bog'liq.¹

Empirik tadqiqotlar natijalari ko'rsatadiki, kichik korxonalar soliq siyosatini o'ziga xos tarzda tanlashadi, ba'zi kompaniyalar o'z xarajatlarini optimallashtirish uchun soliq to'lovlarini kechiktirgan holda amalga oshiradi, boshqalari esa tezkor soliq to'lovlarini afzal ko'radilar. Ularning moliyaviy natijalariga soliq siyosatining ta'siri bevosita bog'liq. Tadqiqotda aniqlangan asosiy natijalardan biri, kichik korxonalarda qo'llanilgan hisob siyosatining korxonaning umumiy ish faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ekanligidir. Hisob siyosatining yaxshi ishlab chiqilgan va samarali joriy etilgan turlari korxonalarga moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, soliqlardan foyda ko'rish, hamda ishlash jarayonlarini soddalashtirish imkoniyatlarini beradi. Bundan tashqari, hisob siyosatining to'g'ri tanlanishi kichik korxonaning moliyaviy xavfini kamaytiradi, chunki ular faqat kerakli darajada sarmoya kiritishadi va riski yuqori bo'lgan faoliyatlardan qochadilar. Shuningdek, hisob siyosatining turlari ham korxonaning resurslarni boshqarish, xarajatlarni kamaytirish va foydani oshirishda qanday yordam berishini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik korxonalarda hisob siyosati turlari o'rtasida aniq farqlar mavjud bo'lib, bu farqlar korxonaning moliyaviy va operatsion faoliyatiga ta'sir qiladi. Kichik korxonalar uchun hisob siyosatini tanlashda qarorlar qabul qilish jarayoni faqat moliyaviy holatni yaxshilashga yordam bermaydi, balki uzoq muddatli barqarorlik va o'sishni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Shunday qilib, kichik korxonalarda hisob siyosatining turli turlarini muvaffaqiyatli joriy etish ularning iqtisodiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, ammo bu jarayon korxonaning o'ziga xos ehtiyojlari va resurslariga mos ravishda ishlab chiqilishi kerak.

1-jadval Taqqoslama jadval Kichik korxonalar va Yirik tadbirkorlik subyektlari.

Kichik korxonalar	Yirik tadbirkorlik subyektlari
Jami daromadi kalendar yil davomida 1-milliard so'mdan 10-milliard so'mgacha bo'lgan tadbirkorlik subyektlari	Jami daromadi kalendar yil davomida 100-milliard so'm va undan yuqori bo'lgan tadbirkorlik subyektlari.
QQS to'lovchisi majburiy tarzda.	QQS to'lovchisi majburiy tarzda.
Aylanma soliq to'lovchisi emas.	Aylanma soliq to'lovchisi emas.
Ishchilar soni nisbati mavjud.	Ishchilar soni nisbati mavjud.

1-jadvaldagi taqqoslama jadvalni yana davom ettirishimiz mumkin sababi bu ikkita tadbirkorlik subyektlarining farqli jihatlari ko'plab topiladi. Tadbirkorlik subyekti faoliyatini tashkil etishdan oldin qaysi soliq turini tanlashi bu korxonaning iqtisodi uchun juda muhim hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlarining sonini ortishi, buning pirovarda natijasida davlat budjeti tushumlari ortishi turadi.

¹ Turanboyev, B. (2024). KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING KAPITALINI BAHOLASH NAZARIY JIHATLARI. *University Research Base*, 240-244.

Kichik korxonalarda hisob siyosatining turlarini tahlil qilishda, avvalo, bu siyosatlarining ta'siri va amaliyotdagi ahamiyati to'g'risida umumiy tushuncha hosil qilish kerak. Hisob siyosati — bu korxona tomonidan qabul qilinadigan moliyaviy va soliq hisobotlarining asosiy tamoyillari, qoidalar va usullari to'plami hisoblanadi. Ularning to'g'ri va samarali qo'llanishi kichik korxonalarning uzoq muddatli muvaffaqiyati uchun muhim omil hisoblanadi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun hisob siyosatining turli turlarini tahlil qilish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash zarur.

Kichik biznes subyektlarida inson resurslaridan foydalanish metodologiyasi aniq maqsadlarga qaratilgan bo'lib, uni umumiydagi holda uch guruhga bo'lish mumkin.²

Taqqoslash metodini qo'llash orqali tadqiqotda kichik korxonalarda qo'llanilayotgan hisob siyosatining turli turlari solishtirildi. Bu metod kichik korxonalarning turli hisob siyosatlarini, ularning samaradorligi va amaliyotga qo'llanilishi jihatidan o'rganishga imkon beradi. Taqqoslash metodini qo'llab, tadqiqotda quyidagi asosiy tahlillar amalga oshirildi:

Moliyaviy hisobot siyosatining soddaligi va batafsilligi: Kichik korxonalar o'z moliyaviy hisobotlarini soddalashtirilgan usulda tayyorlashadi, bu esa ularning xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi, ammo bu turdagi siyosat moliyaviy ma'lumotlarning aniqroq bo'lishini talab qiladigan qarorlarni qabul qilishda cheklovlar yaratadi.

Soliq siyosatining kechikish va tezlik bilan bog'liq farqlari: Kichik korxonalar soliqlardan foydalangan holda, o'z xarajatlarini optimallashtirishga harakat qilishadi, boshqalari esa to'lovlarni tez amalga oshirib, soliqlarni o'z vaqtida to'lashni afzal ko'rishadi.

Mulk va moddiy boyliklarni boshqarishdagi farqlar: Moddiy boyliklar va aktivlarni boshqarishning turli usullari kichik korxonalarda farq qiladi. Ba'zi korxonalar aktivlarining qiymatini aniq belgilashga harakat qiladilar, boshqalari esa soddalashtirilgan va yengillashtirilgan usullardan foydalanadilar.

Empirik tadqiqotlar natijalari kichik korxonalarda hisob siyosatining amaliy qo'llanilishini ko'rsatdi. Tadqiqotda olingan ma'lumotlarga asoslanib, kichik korxonalarda hisob siyosatining amaliyotga qanday tatbiq etilishi va uning korxonaning moliyaviy faoliyatiga ta'siri quyidagi tahlil qilingan:

Hisob siyosatining samaradorligi: Kichik korxonalar o'zlarining hisob siyosatlarini qanday amalga oshirayotganini o'rganish orqali, ularning samaradorligini aniqlash mumkin bo'ldi. Ko'plab kichik korxonalar uchun hisob siyosatining soddaligi va aniq qoidalariga amal qilish moliyaviy muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Biroq, ba'zi korxonalar kompleks va aniqroq hisob siyosatini qo'llash orqali yanada barqaror moliyaviy natijalarga erishmoqdalar.

Mehnat haqining ta'siri: Kichik korxonalarda mehnat haqini belgilash siyosati ishchilarni saqlash va ishchi kuchining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Kichik korxonalarda xodimlarga to'lanadigan mehnat haqi va bonuslar tizimi to'g'ri boshqarilganida, ishchilar o'z ishiga ko'proq motivatsiyalangan bo'ladi.

Soliq to'lovlarining ta'siri: Soliq siyosatining kichik korxonalarning moliyaviy faoliyatiga ta'siri juda katta. Soliq imtiyozlaridan foydalanish va soliq to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish kichik korxonalarga moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda yordam beradi. Ba'zi kichik korxonalar soliqlarni kechiktirishni afzal ko'rishadi, bu esa ularning qisqa muddatli naqd pul oqimiga ijobiy ta'sir qiladi, ammo uzoq muddatda jarimalarga olib kelishi mumkin. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, kichik korxonalarda hisob siyosatining turli turlari ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Kichik korxonalar o'z hisob siyosatlarini to'g'ri tanlash orqali, moliyaviy resurslarini samarali boshqarishlari va bizneslarini rivojlantirishlari mumkin. Hisob siyosati turlarini tanlashda kichik korxonalarning o'ziga xos ehtiyojlari va sharoitlarini hisobga olish zarur. Shu bilan birga, kichik

korxonalar uchun muvaffaqiyatli hisob siyosatini ishlab chiqish ularning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Korxonalarda buxgalteriya hisobi, tahliliy materiallar, balanslarda jamlangan moliyaviy hisobotlarning to'g'ri yuritilishini talab etadi. Bu orqali esa inson resurslarining tartibli boshqarilish hamda foydalanish jarayonini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu orqali esa hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida 2022-yilning 1-iyul holatiga kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 13,9 birlikni tashkil qilmoqda.³

Kichik korxonalar, iqtisodiyotda katta ahamiyatga ega bo'lgan va o'ziga xos xususiyatlarga ega tashkilotlar bo'lib, ular o'z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borish uchun aniq va samarali hisob siyosatini ishlab chiqishlari zarur. Hisob siyosati - bu korxona faoliyatini moliyaviy boshqarish, moliyaviy hisobotlarni tuzish va soliq majburiyatlarini bajarish kabi masalalarni tartibga soluvchi qoidalar va usullar to'plamidir. Kichik korxonalar o'zlarining hisob siyosatini qanday tashkil etishlari, moliyaviy natijalariga va operatsion samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu maqolada kichik korxonalarda hisob siyosati turlarining tasnifi va ularning amaliy qo'llanilishi tahlil qilinadi.

Kichik korxonalarda hisob siyosati turlari turli yo'nalishlarda tasniflanadi. Ularning har biri korxonaning moliyaviy faoliyatini boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Hisob siyosatining asosiy turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Moliya hisobotlari — korxonaning moliyaviy faoliyatining aks ettirilgan ma'lumotlaridir. Hisob siyosati doirasida moliyaviy hisobotlarning qanday tuzilishini, qanday tamoyillar asosida tayyorlanishini va qanday usullar qo'llanilishini belgilovchi siyosat ishlab chiqiladi. Bu siyosat kichik korxonalarning moliyaviy holatini aniq aks ettirish, iqtisodiy qarorlarni to'g'ri qabul qilish va tashqi auditlar uchun zarur bo'lgan hisobotlarni tayyorlashni ta'minlaydi. Moliyaviy hisobot siyosatining turli shakllari mavjud: oddiy (soddalashtirilgan) va batafsil (kompleks) hisobotlar.

Soliq siyosati kichik korxonalarda soliq majburiyatlari va soliqlarga bo'lgan qarashlarni belgilaydi. Kichik korxonalar uchun soliq siyosatining samarali qo'llanilishi, soliqlarni to'lashda imtiyozlardan foydalanish va soliq to'lovlarini boshqarish muhimdir. Kichik korxonalarda soliq siyosati ko'pincha soliqlarning kechiktirilishi yoki kechiktirilgan to'lovlar asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, soliq siyosatining to'g'ri tuzilishi va amalga oshirilishi soliq jarimalarini oldini olishga yordam beradi.

Kichik korxonalarda hisob siyosatining amaliy qo'llanilishi ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi. Hisob siyosatining to'g'ri qo'llanilishi nafaqat moliyaviy hisobotlar sifatini yaxshilash, balki soliq to'lovlarini samarali boshqarish, aktivlarni to'g'ri saqlash va mehnat shartlarini belgilashda ham muhimdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kichik korxonalar uchun hisob siyosatining samarali qo'llanilishi quyidagi ta'sirlarga olib keladi:

Moliyaviy barqarorlik: To'g'ri hisob siyosatini amalga oshirish kichik korxonalar uchun moliyaviy holatini yaxshilashga yordam beradi. Moliya siyosatining aniq belgilanishi moliyaviy resurslarni samarali boshqarishga va soliq majburiyatlarini to'g'ri bajarishga imkon beradi.

Naqd pul oqimi: Soliq siyosati va mulkni boshqarish siyosati kichik korxonalar uchun naqd pul oqimini boshqarishda yordam beradi. Soliq imtiyozlaridan foydalanish va mulkni samarali boshqarish kichik korxonalar uchun qo'shimcha naqd pul oqimini ta'minlaydi.

Samarali xodim boshqaruvi: Mehnat haqidagi siyosat kichik korxonalarda xodimlarning motivatsiyasini oshirish, ularni saqlab qolish va ish samaradorligini yaxshilashga yordam beradi. Mehnat shartlarining aniq belgilanishi xodimlar o'rtasida adolatni ta'minlaydi va ular o'z ishlariga ko'proq motivatsiya bilan yondashadi.

Kichik korxonalarda hisob siyosatining turli yo'nalishlar va metodlarga asoslangan holda faoliyat yuritadi. Moliya hisobotlari, soliq

² Yusupov, A. A. (2023). Kichik biznes subyektlari faoliyatida inson resurslaridan foydalanishning metodologik asoslari. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 7, 46-48.

³ A.A.Yusupov. (2023). KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INSON RESURSALARIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 7(7), 46-48. <https://doi.org/10.54613/ku.v7i7.777>

siyosati, mulkni boshqarish va mehnat haqidagi siyosatlar korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va ularning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kichik korxonalar o'z hisob siyosatini samarali qo'llash orqali nafaqat moliyaviy resurslarni boshqarish, balki korxonaning barqarorligini ta'minlash, soliq majburiyatlarini bajarish va xodimlarni rag'batlantirishda katta muvaffaqiyatlarga erishadilar. Kichik korxonalarga hisob siyosatini to'g'ri ishlab chiqish va amalga oshirish orqali uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari kengayadi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytib o'tishimiz mumkinki, kichik korxonalarda hisob siyosati moliyaviy boshqaruvni samarali tashkil etishning asosiy vositasi bo'lib, ularning iqtisodiy barqarorligi va o'sishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Hisob siyosati turlari, ularning tuzilishi va qo'llanilishi kichik korxonalarda resurslarni qanday boshqarish, moliyaviy natijalarni qanday aks ettirish va soliq majburiyatlarini qanday bajarish kabi masalalar bilan chambarchas bog'liqdir. Tadqiqotda ko'rsatilganidek, kichik korxonalarda hisob siyosatining turli turlari, masalan, moliyaviy hisobot siyosati, soliq siyosati, mulk va moddiy boyliklar siyosati, mehnat haqidagi siyosat kabi asosiy yo'nalishlarda faoliyat yuritadi va har biri o'z navbatida korxonaning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiladi. Tadqiqot davomida kichik korxonalarda hisob siyosatining turlarini tasniflashda bir necha yondashuvlar va metodlar qo'llanildi. Hisob siyosati turlarining tasnifi, asosan, korxonaning moliyaviy boshqaruvini yaxshilash va soliq majburiyatlarini to'g'ri bajarish, shuningdek, aktivlarni boshqarish orqali korxonaning umumiy ish faoliyatini optimallashtirishga qaratilgan. Tadqiqotda ko'rsatilganidek, har bir hisob siyosati turi kichik korxonaning moliyaviy va operatsion faoliyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oybek o'g', P. L. S., & Nazarali o'g'li, M. S. (2023). THE STUDY OF VALUE-ADDED TAX: KNOWLEDGE FROM THE EU VAT EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S VAT SYSTEM. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 131-135.
2. Po'latov, S., & Farmonov, I. (2023). The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(11-12).
3. Otto, M., & Thornton, J. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I VA AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQ TO'LOVCHILARINI BIR-BIRIDAN FARQLI JIHATLARINI BAHOLASH. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 140-143.
4. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – Toshkent.: «Akademiya», 2002. - 14 b.
5. Yo'ldoshev M., Tursunov Y. Soliq huquqi. Toshkent.: «Moliya», 2000. - 76 b.
4. Yusupov, A. A. (2023). Kichik biznes subyektlari faoliyatida inson resurslaridan foydalanishning metodologik asoslari. Qo 'qon universiteti xabarnomasi, 7, 46-48.

Kichik korxonalarda hisob siyosatini takomillashtirish, kichik korxonalarga o'z hisob siyosatini yanada samarali ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Hisob siyosati turlari kichik korxonaning moliyaviy holatini mustahkamlash va uning barqaror ishlashini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, kichik korxonalar uchun soliq siyosatini takomillashtirish, mulk va moddiy boyliklarni samarali boshqarish, mehnat haqini aniq belgilash va soddalashtirilgan hisobot tizimlarini joriy etish kerak.

Hisob siyosatining soddalashtirilishi, kichik korxonalar uchun hisob siyosatini soddalashtirish operatsion samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Hisob siyosatining soddalashtirilgan shakllari nafaqat tezkor qarorlar qabul qilishga yordam beradi, balki kichik korxonalarga moliyaviy hisobotlarni tezda tayyorlash imkoniyatini yaratadi.

Soliq siyosatining samarali joriy etilishi, soliq siyosati kichik korxonalarning moliyaviy natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kichik korxonalar uchun soliqlarni vaqtida to'lash, soliq imtiyozlaridan foydalanish va soliq majburiyatlarini to'g'ri bajarish ularning iqtisodiy o'sishini ta'minlaydi.

Korxonaning barqarorligini ta'minlash, hisob siyosatining to'g'ri joriy etilishi kichik korxonalar uchun uzoq muddatli barqarorlik va o'sishni ta'minlaydi. Hisob siyosati turlarining to'g'ri tanlanishi kichik korxonalarning moliyaviy xavfini kamaytiradi va ularning o'sishini ta'minlashga yordam beradi. Kichik korxonalarda hisob siyosatining turlarini mukammal ishlab chiqish va ularning samarali qo'llanilishi korxonalarning moliyaviy barqarorligini oshirish va ularning uzun muddatli muvaffaqiyatiga erishish uchun muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida keltirilgan tahlillar va natijalar, kichik korxonalarga hisob siyosatini yanada samarali joriy etishda yordam beradi.

6. Elmurodov, M. N., & Tojiyeva, M. M. (2023). Kichik biznes subyektlari faoliyatini tashkillashtirishda moliyaviy hisobning ahamiyati. Qo 'qon universiteti xabarnomasi, 44-47.

7. Akbarovna, N. N. (2024). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK IQTISODIYOTNING MUHIM SOHASI SIFATIDA. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(3), 307-313.

8. Xursanaliyev, B. (2023). KICHIK VA YIRIK BIZNESNI BOSHQARISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 7, 28-30.

9. Boburmirzo, X., & Abbosxon, Y. (2022, March). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINING RIVOJLANISH TAHLILI. In E Conference Zone (pp. 168-170).

10. www.stat.uz
11. www.soliq.uz
12. www.lex.uz



TASHQI VA ICHKI INVESTITSİYALARNING ASOSIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

oybekxosilbekov@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 13 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1124 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS asosiy kapital, xorijiy investitsiyalar, ichki investitsiyalar, iqtisodiy rivojlanish, investitsiya siyosati, moliyalashtirish manbalari.	Ushbu maqolada tashqi va ichki investitsiyalarning asosiy kapitalni shakllantirishdagi o'zni va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi. Xorijiy investitsiyalar, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri sarmoyalar, ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash, texnologiyalarni olib kirish va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim ahamiyatga ega. Ichki investitsiyalar esa iqtisodiy tizim barqarorligi, mahalliy tadbirkorlik faolligi va milliy kapital aylanishini ta'minlaydi. Maqolada ikki turdagi investitsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning moliyalashtirish manbalari va iqtisodiy samaradorligi solishtirma tahlil asosida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekiston misolida amaldagi holat va istiqbolli yo'nalishlarga ham baho berilgan.

Kirish. Asosiy kapitalga investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish orqali korxonalar faoliyatini jadallashtiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi va milliy mahsulot hajmini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, asosiy kapital yangilanishi zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga zamin yaratib, iqtisodiyotning texnologik rivojlanish darajasini oshiradi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorlashtiradi.

Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar ko'p hollarda iqtisodiy tizimda zanjirli yoki multiplikativ ta'sirlar keltirib chiqaradi. Masalan, transport infratuzilmasi yoki sanoat korxonalari qurilishi bilan bog'liq investitsiyalar nafaqat mazkur obyektlarning o'zida ish o'rinlari yaratadi, balki qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi, logistika va xizmat ko'rsatuvchi boshqa sohalarni ham faoliyatga jalb etadi. Bu esa bandlik darajasining oshishiga olib keladi, ish haqi va aholining iste'mol salohiyatini kuchaytiradi. Aholi daromadining ortishi esa ichki iste'mol bozorini jonlantirib, korxonalarning ishlab chiqarish hajmini kengaytirishiga turtki bo'ladi. Shu tariqa investitsiyalar real sektor orqali iqtisodiy o'sishning ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi.

Asosiy kapitalga sarmoya kiritilishi ishlab chiqarish jarayonlarida zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish imkoniyatini beradi. Yangi texnika va uskunalar joriy etilishi ishlab chiqarishning resursga nisbatan samaradorligini oshiradi, tannarxni pasaytiradi va mahsulot sifatini yaxshilaydi. Ayniqsa, avtomatlashtirilgan tizimlar va raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi inson omiliga bo'lgan ehtiyojni optimallashtirib, inson kapitalini yanada samarali yo'naltirishga zamin yaratadi. Innovatsion rivojlanish esa global raqobat sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ekologik toza va energiya tejamon texnologiyalarning joriy qilinishi barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq, uzoq muddatli iqtisodiy manfaatlarini ta'minlaydi.

Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri, avvalo, ularning samaradorligi va maqsadga muvofiqligi bilan belgilanadi. Investitsiya muhitining jozibadorligi, moliyaviy resurslarga erkin kirish imkoniyati, soliq va huquqiy imtiyozlar, byurokratik to'siqlarning mavjud emasligi kabi omillar investorlar faolligini belgilaydi. Davlat tomonidan xususiy sektorni qo'llab-quvvatlovchi siyosat olib borilishi – xususan, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining rivojlanishi, kredit kafolatlar, grantlar va subsidiyalarning mavjudligi – investitsiya oqimini yanada faollashtiradi. Shu bilan birga, investitsiya loyihalarining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini baholash, ularning monitoringi va natijalari tahlili asosida strategik rejalashtirish olib borilishi lozim. Faqat mana shunday tizimli va uzoq muddatli yondashuv asosida investitsiyalar iqtisodiy o'sishning barqaror va inklyuziv bo'lishini ta'minlay oladi.

Adabiyotlar tahlili. Bist tadqiqotida 16 ta Afrika va Afrika emas past daromadli mamlakatlarda moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Nazariy jihatdan, muallif moliyaviy rivojlanishning iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi roliga alohida e'tibor qaratgan. Moliyaviy infratuzilma va moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyati iqtisodiy faollikni oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash va sarmoyalarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, moliyaviy sektorning rivojlanishi kambag'allikni kamaytirish va ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Muallif ushbu ilmiy ishda moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqurroq tushuntirish uchun har bir mamlakatning iqtisodiy va moliyaviy infratuzilmasini tahlil qilgan. Empirik tahlil natijalari 1990-2015 yillar davomida 16 ta past daromadli Afrika va Afrika emas mamlakatlari bo'yicha olingan ma'lumotlarga asoslangan. Panel ma'lumotlaridan foydalangan holda olingan natijalarga ko'ra, moliyaviy rivojlanishning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Bundan tashqari, natijalarga ko'ra, moliyaviy rivojlanishning ta'siri davlatlar o'rtasida turlicha bo'lib, ayrim mamlakatlarda moliyaviy infratuzilmaning rivojlanishi iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shgan, boshqa mamlakatlarda esa bu ta'sir kamroq bo'lgan. Mualliflar natijalarga asosan, moliyaviy rivojlanishning iqtisodiy o'sishga ta'sirini kuchaytirish uchun moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish va moliyaviy salohiyatni oshirish zarurligini ta'kidlaydilar.¹

Younsi va Bechtini tadqiqotida BRICS mamlakatlarida iqtisodiy o'sish, moliyaviy rivojlanish va daromad tengsizligi o'rtasidagi munosabat va Kuznessning "invertlangan U-shukarali" (inverted U-shaped) shaklining mavjudligini tekshirish maqsad qilingan. Nazariy jihatdan, mualliflar Kuzness gipotezasini moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o'sish bilan bog'lashgan yordam tahlil qilganlar. Ushbu gipoteza, iqtisodiy rivojlanishning boshida daromad tengsizligi oshishi mumkin, lekin mamlakatlar rivojlanayotgan bo'lsa, davrning ma'lum bir bosqichida tengsizlik pasayadi, ya'ni "invertlangan U" shakli paydo bo'ladi. Moliyaviy rivojlanish ushbu jarayonga ta'sir qiladi, chunki u iqtisodiy aktivlikni rag'batlantirish, sarmoyalarni jalb qilish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi, natijada daromad tengsizligi ko'pincha kamayishi mumkin. Empirik tahlil natijalari BRICS mamlakatlari uchun 1990-2018 yillar davomida olingan ma'lumotlarga asoslangan. Panel ma'lumotlaridan foydalangan holda olingan natijalarga ko'ra, moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o'sish o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud. Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatlardagi daromad tengsizligi o'zgarishlarini ko'rib chiqishda Kuznessning invertlangan U-shukarali qismlari aniqlangan. Moliyaviy rivojlanish, ikkala davrda ham, tengsizlikni kamaytirishga yordam bergan, lekin bu ta'sir har bir davlatning rivojlanish bosqichi va moliyaviy

¹ Bist, J. P. (2018). Financial development and economic growth: Evidence from a panel of 16 African and non-African low-income countries. *Cogent Economics & Finance*, 6(1), 1449780.

infratuzilmasiga bog'liq bo'lgan. Mualliflar natijalarga asosanib, rivojlanish bosqichidagi moliyaviy sektorning rivojlanishi davrlarida daromad tengsizligini kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga katta ahamiyat berish zarurligini ta'kidlaydilar.²

Opoku, Ibrahim va Sare tadqiqotida Afrikada moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi sabab-natiya bog'liqligini tahlil qilganlar. Nazariy jihatdan, mualliflar moliyaviy rivojlanishning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini, buning ortidan ishlab chiqarish, sarmoyalar jalb qilish va resurslarni samarali taqsimlash orqali iqtisodiy faollik oshishini ta'kidlaydilar. Ular shuningdek, moliyaviy rivojlanishning iqtisodiy o'sishga ta'siri sabab-natiya munosabatidagi mexanizmlarni aniqlashga intilishgan. Moliyaviy sektorning rivoji, xususan, kreditlar va moliyaviy xizmatlar bilan bog'liq munosabatlar iqtisodiy aktivlikni yordamchi omil sifatida ko'rib chiqilgan. Empirik tahlil natijalari Afrika mamlakatlari uchun 1990-2016 yillar davomidagi ma'lumotlarga asoslangan. Panel ma'lumotlarini ishlatgan holda olingan natijalarga ko'ra, moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o'sish o'rtasida ikki tomonlama sabab-natiya bog'liqligi aniqlangan. Moliyaviy rivojlanish iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan va shunga parallelb iqtisodiy o'sish moliyaviy sektorning rivojlanishini rag'batlantirgan. Bundan tashqari, natijalar Afrikadagi turli davlatlarda moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o'sishning o'zaro ta'siri mamlakatlar infratuzilmasi va moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lganini ko'rsatadi. Mualliflar natijalarga asosan, moliyaviy sektorni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun moliyaviy infratuzilmani yaxshilashni tavsiya qiladilar.³

Pan va Mishra tadqiqotida Xitoyda fond bozorining rivojlanishi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik empirik tadqiqot orqali o'rganilgan. Nazariy jihatdan, mualliflar fond bozorining rivojlanishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Ular fond bozorining moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, sarmoyalarni jalb qilish va ishlab chiqarishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadilar. Shuningdek, fond bozorining rivojlanishi ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni tezkor va samarali taqsimlashni ta'minlashga yordam beradi, bu esa iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Empirik tahlil natijalari Xitoy uchun 1990-2015 yillar davomida olingan ma'lumotlarga asoslangan. Panel ma'lumotlaridan foydalangan natijalarga ko'ra, fond bozorining rivojlanishi iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Tadqiqotda fond bozorida aktivlik, xususan, aksiyalar va obligatsiyalar bozorining rivoji, mamlakatning umumiy iqtisodiy o'sishini rag'batlantirgani aniqlangan. Mualliflar natijalarga asosan, fond bozorining rivojlanishi va iqtisodiy o'sishning o'zaro ta'sirini to'g'ri tartibga solish va mamlakatdagi moliyaviy bozorlarning samaradorligini oshirish uchun iqtisodiy siyosatlarni kengaytirishni tavsiya etdilar.⁴

Salahuddin, Alam, Ozturk va Sohag tadqiqotida Kuveytda elektr energiyasi iste'moli, iqtisodiy o'sish, moliyaviy rivojlanish va xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar (FTI)ning CO2 emissiyalari bo'yicha ta'siri o'rganilgan. Nazariy jihatdan, mualliflar ekologik muammolarni hal qilish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning o'zaro bog'liqligini tahlil qilishga harakat qilganlar. Ular, moliyaviy rivojlanish va xorijiy investitsiyalar ekologik xavflarni kamaytirishda muhim rol o'ynashini, shu bilan birga, elektr energiyasining ko'p iste'moli va iqtisodiy o'sishning har doim ekologik izlar bilan bog'liqligini ta'kidladilar. Elektr

energiyasining iste'mol qilinishining yuqori darajasi, ishlab chiqarish jarayonlari va transport tizimlarining ifloslanishiga olib kelishi mumkin, bu esa CO2 emissiyalarini oshirishga sabab bo'ladi. Empirik tahlil natijalari 1970-2014 yillar davomida Kuveyt uchun olingan ma'lumotlarga asoslangan. Panel ma'lumotlaridan foydalangan natijalarga ko'ra, elektr energiyasining iste'mol qilinishining CO2 emissiyalari bilan ijobiy bog'liqligi aniqlangan. Moliyaviy rivojlanish va xorijiy investitsiyalar emissiyalarni pasaytirishga yordam berishi mumkin, chunki ular yangi va barqaror energiya manbalarini ishlab chiqarishga sarmoya kiritishga yordam beradi. Shuningdek, iqtisodiy o'sish va energiya iste'moli bir-biriga bog'langan, bu holda yuqori iqtisodiy faollik ekologik muammolarni kuchaytirishi mumkin. Mualliflar, natijalarga asosanib, ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun yangi texnologiyalar, ekologik tozalash usullariga investitsiyalar va energiya manbalarini diversifikatsiya qilishni tavsiya etdilar.⁵

Eren, Taspinar va Gokmenoglu tadqiqotida Hindistonda moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o'sishning yangilanadigan energiya iste'moliga ta'siri empirik tahlil qilingan. Nazariy jihatdan, mualliflar moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o'sishning yangilanadigan energiya manbalarining iste'moliga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini taqdim etdilar. Moliyaviy rivojlanishning ahamiyati shundaki, bu yangi va samarali energiya manbalarini ishlab chiqarish va joriy qilish uchun sarmoyalar jalb qilishda muhim omil bo'ladi. Iqtisodiy o'sish ham, yangilanadigan energiyaga bo'lgan talabni oshirishga yordam berishi mumkin, chunki iqtisodiy faollikning ortishi energetika resurslariga bo'lgan ehtiyojni kengaytirishi mumkin. Empirik tahlil natijalari 1990-2016 yillar davomida Hindiston uchun olingan ma'lumotlarga asoslangan. Panel ma'lumotlaridan foydalangan natijalarga ko'ra, moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o'sishning yangilanadigan energiya iste'moliga ijobiy ta'siri aniqlangan. Natijalarga ko'ra, moliyaviy rivojlanish, yangi energiya manbalarini ishlab chiqarish va ularni joriy qilishda muhim rol o'ynaydi, shuningdek, iqtisodiy o'sish yangilanadigan energiyaga bo'lgan talabni kuchaytirishga yordam beradi. Mualliflar natijalarga asosan, moliyaviy salohiyatni oshirish va yangilanadigan energiya texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun davlat siyosati va investitsiyalar strategiyasini kengaytirishni tavsiya etdilar.⁶

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, tijorat bankari resurs bazasi barqarorligini tahlil qilishda tijorat banklarining rasmiy statistik ma'lumotlari olingan.

Tadqiqot natijalari. Asosiy kapitalga investitsiyalarning manbalariga qarab taqsimlanish ko'rsatkichlarning o'zgarishini tahlil qilishda har bir manbaning ulushi, vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishlar yuz berganligi va bu o'zgarishlarning iqtisodiyotga ta'siri haqida gapirish mumkin.

2000 yilda davlat budjeti asosiy kapitalga investitsiyalarning 29,2% ini tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilga kelib bu ko'rsatkich 5,2% ga tushgan. Keyin esa davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar o'sib, 2019 yilda 9% ni tashkil qilgan. 2020-2023 yillar davomida bu ulushni sezilarli darajada qisqarganligini ko'rish mumkin, 2023 yilda 6,5% ni tashkil etgan. Bu davlatning investitsiyalarni moliyalashtirishdagi roli pasayganini, shuningdek, boshqa manbalar orqali moliyalashtirishga o'tishni anglatadi.


² Younsi, M., & Bechtini, M. (2020). Economic growth, financial development, and income inequality in BRICS countries: does Kuznets' inverted U-shaped curve exist?. *Journal of the Knowledge Economy*, 11(2), 721-742.

³ Opoku, E. E. O., Ibrahim, M., & Sare, Y. A. (2019). The causal relationship between financial development and economic growth in Africa. *International Review of Applied Economics*, 33(6), 789-812.

⁴ Pan, L., & Mishra, V. (2018). Stock market development and economic growth: Empirical evidence from China. *Economic Modelling*, 68, 661-673.

⁵ Salahuddin, M., Alam, K., Ozturk, I., & Sohag, K. (2018). The effects of electricity consumption, economic growth, financial development and foreign direct investment on CO2 emissions in Kuwait. *Renewable and sustainable energy reviews*, 81, 2002-2010.

⁶ Eren, B. M., Taspinar, N., & Gokmenoglu, K. K. (2019). The impact of financial development and economic growth on renewable energy consumption: Empirical analysis of India. *Science of the Total Environment*, 663, 189-197.



1-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalarning manbalariga ko'ra turkumlanishi, foizda⁷

2000 yildan 2010 yilgacha bank kreditlari ulushi oshgan bo'lsa, 7,2% dan 9% gacha ko'tarilgan. 2016 yilda esa bank kreditlari ulushi 10,8% ga, 2017-2019 yillarda esa 12,6% va 17,8% ga ko'tarilgan. Bu davrda banklarning iqtisodiyotga ta'siri va ularning investitsiyalarga qo'shgan hisssasi sezilarli darajada o'sgan. Ammo 2020 yilda bank kreditlari ulushi 7,6% gacha kamaygan va 2023 yilga kelib 3,8% ni tashkil qilgan. Bu esa kredit olishda cheklovlar yoki iqtisodiy sharoitlar sababli kreditlarning kamayganligini ko'rsatadi.

2000 yilda asosiy kapitalga investitsiyalarda korxona va aholining o'z mablag'lari ulushi 39,1% ni tashkil qilgan, bu ko'rsatkich 2010 yilda 52,5% ga o'sdi. 2016-2019 yillar davomida o'z mablag'larining ulushi pasayib, 2019 yilga kelib 29,3% ga tushgan. 2020-2023 yillarda bu ulush 38-40% oralig'ida saqlanib qolgan. Bu o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, korxonalar va aholining investitsiyalarni moliyalashtirishdagi roli vaqt o'tishi bilan o'zgargan va iqtisodiy sharoitlarga qarab ularning ulushi pasaygan.

1-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalarda davlat budjeti ulushining viloyatlar bo'yicha o'zgarish dinamikasi⁸

	Klassifikator	2000	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
	O'zbekiston Respublikasi	29,2	5,2	4,2	4,3	4,8	4,5	9,0	6,8	9,3	8,0	6,5
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	45,5	6,6	2,6	2,5	7,4	3,0	15,3	12,1	12,4	14,0	9,3
2	Andijon viloyati	41,1	4,8	3,7	3,2	4,0	4,1	8,6	6,3	8,3	8,9	9,3
3	Buxoro viloyati	38,0	2,4	1,5	1,1	0,9	2,4	7,1	5,8	4,7	4,8	4,2
4	Jizzax viloyati	43,0	6,3	4,9	4,3	6,7	9,4	10,8	5,5	9,9	10,8	8,9
5	Qashqadaryo viloyati	14,8	2,6	2,3	1,4	1,5	1,9	3,7	3,6	6,5	8,9	7,6
6	Navoiy viloyati	24,5	2,4	2,7	4,9	5,1	0,7	2,8	1,9	4,6	3,7	2,8
7	Namangan viloyati	36,7	5,5	7,9	2,5	3,6	2,8	4,9	5,9	8,3	6,6	2,5
8	Samarqand viloyati	21,8	4,6	1,8	4,5	5,5	2,7	12,1	8,0	14,0	9,6	7,0
9	Surxondaryo viloyati	56,0	10,2	3,4	7,8	7,1	3,2	5,8	7,5	10,8	12,3	12,4
10	Sirdaryo viloyati	31,8	16,3	27,8	22,9	18,7	9,6	10,5	7,8	9,8	6,0	3,8
11	Toshkent viloyati	25,4	3,3	2,6	5,1	4,3	3,4	11,5	9,6	8,3	5,8	5,6

⁷ O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

⁸ O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

12	Farg'ona viloyati	21,0	12,2	8,9	10,3	8,2	3,6	8,1	7,6	10,0	7,4	11,0
13	Xorazm viloyati	42,3	4,7	6,8	4,9	6,9	5,0	9,5	8,5	10,2	9,2	6,5
14	Toshkent shahri	29,4	6,7	4,3	4,4	7,2	6,0	7,6	6,8	8,2	8,0	5,1

Chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi 2000 yilda 23,2% bo'lgan, 2010 yilda esa 26,4% ga oshgan. 2016-2019 yillar davomida bu ulush 43,6% ga qadar o'sdi va 2020-2023 yillar davomida 42-56,7% oralig'ida o'zgarib turdi. 2023 yilga kelib chet el investitsiyalarining ulushi eng yuqori darajaga yetganini ko'ramiz. Bu chet eldan kapital jalb qilishning ahamiyati oshganini, mamlakat iqtisodiyotida chet el manbalarining rolini kuchayishini ko'rsatadi.

Quyidagi ma'lumotlar asosiy kapitalga investitsiyalarni turli hududlar bo'yicha tahlil qilish imkonini beradi. Har bir viloyatning davlat budjeti ulushining vaqt o'tishi bilan o'zgarishini ko'rib, har bir hududning o'sish va pasayish tendensiyalarini kuzatish mumkin.

Davlat budjeti ulushi umumiy investitsiyalarda 2000 yildan 2023 yilgacha doimiy ravishda kamaygan. Bu holat butun respublikada tashqi va ichki manbalarni diversifikatsiya qilishning zaruriyatini ko'rsatadi. Boshqa manbalar, masalan, chet el investitsiyalari va bank kreditlari, davlatning iqtisodiyotga bo'lgan moliyaviy yukini kamaytirishga yordam berdi. Shu bilan birga, ba'zi hududlar (masalan, Toshkent shahri va Samarqand viloyati) davlat budjeti ulushini nisbatan yuqori darajada saqlab qolishgan.

Qoraqalpog'istonda davlat budjeti ulushi 2000 yildan boshlab yuqori bo'lgan va 45,5% dan 9,3% gacha pasaygan. Bu hududda davlatning investitsiyalarda sezilarli roli borligi, ammo 2020-yillar davomida o'sishning kuchayishi ko'zga tashlanadi (2020 yilda 15,3%, 2023 yilda esa 14%). Bu Qoraqalpog'iston iqtisodiyotida davlat tomonidan moliyalashtirishning o'rni saqlanib qolganini ko'rsatadi. Andijon viloyatida davlat budjeti ulushi 2000 yilda 41,1% bo'lgan va

2023 yilda 8,9% ga tushgan. Biroq, 2020 yilda bu ulush 8,6% ga yetgan va undan keyin barqarorlashgan. Bu o'zgarishlar Andijon viloyatidagi iqtisodiy o'sish va investitsiyalarning tashqi manbalarga tayanishini aks ettiradi.

Buxoro viloyatida davlat budjeti ulushi 2000 yildan 2012 yilgacha yuqori bo'lgan (38% dan 1,9% gacha), keyinchalik pasayib, 2023 yilga kelib 4,2% ni tashkil etdi. Buxoro viloyatida davlat investitsiyalarining ulushi nisbatan past bo'lsa-da, boshqa manbalar orqali investitsiyalarni jalb qilishga erishildi. Samarqand viloyatida davlat budjeti ulushi 2000 yilda 21,8% bo'lgan, 2008 yilga kelib bu raqam 4,6% ga tushdi, 2012 yilga kelib esa u 6% atrofida o'zgardi. 2020-yillarda esa bu ulush o'zgarmay, 2023 yilda 7% ni tashkil etdi. Samarqand viloyatida davlat budjeti ulushining pasayishi, lekin barqaror o'sish jarayonlari kuzatilgan.

Farg'ona viloyatida davlat budjeti ulushi 2000 yilda 21% bo'lgan, 2023 yilda esa 11% atrofida saqlanib qolgan. Farg'ona viloyati boshqa hududlarga qaraganda davlat budjeti ulushini nisbatan yuqori darajada saqlagan. Bu o'rinda, o'sishning barqarorligi va investitsiya manbalarining muvozanati ustida ishlashning davom etishi mumkin. Toshkent shahri, mamlakatning poytaxti sifatida, davlat budjeti ulushining pasayishini ko'rsatmoqda. 2000 yilda 29,4% bo'lgan ulush 2023 yilda 5,1% ga tushdi. Bu shaharda iqtisodiy faoliyatning sezilarli darajada diversifikatsiyalashganini va davlatning moliyaviy yukining kamayganini bildiradi. Toshkent shahri ko'proq investitsiya va rivojlanishga oid tashqi manbalarga tayanmoqda.

2-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalarda bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari ulushining viloyatlar bo'yicha o'zgarish dinamikasi⁹

	Klassifikator	2000	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
	O'zbekiston Respublikasi	7,2	9	11	10,8	12,6	17,8	13,8	7,6	8	6,6	3,8
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	14,8	9,3	5	6,1	12,2	14,1	7,1	7,7	6,1	6,2	4,1
2	Andijon viloyati	4,6	7,8	18,1	17,4	18,1	25,7	12,3	8,7	6,8	4	1,9
3	Buxoro viloyati	6,1	2,4	5,9	4,1	3,8	13,9	9,1	7,4	4,4	3,6	1,8
4	Jizzax viloyati	0,7	13,7	17,6	16,6	18,6	26,8	15,6	9,3	9,9	6,9	2,2
5	Qashqadaryo viloyati	11	3,6	6,4	4,3	5,6	6,3	3	3,8	4,1	3,5	1,3
6	Navoiy viloyati	17,6	10,1	9,4	6,3	10,9	6	22,1	2,3	4,6	2,7	2,2
7	Namangan viloyati	4	11,7	10,7	17,3	11,6	15,7	15,9	14,3	23,3	19,2	1,9
8	Samarqand viloyati	4,4	8,2	12,3	9,9	18,6	27,1	20	10,7	7,8	4,3	6,6
9	Surxondaryo viloyati	1,1	12,5	15,8	14,2	14,3	28,9	11,1	7,6	7,3	6,7	2,2
10	Sirdaryo viloyati	7,2	14,6	13,4	17,8	30,2	36,1	22,4	11,2	9,2	3,6	1,7
11	Toshkent viloyati	6,5	19,8	17,6	18,5	21,3	20,7	16,2	8,8	10,8	9,5	3,4
12	Farg'ona viloyati	11	10,8	14,2	13,2	14,7	22,9	13,7	7	6,2	7,5	4,8
13	Xorazm viloyati	1,6	11,1	13,4	13,1	13,3	25	13,6	14,5	7,7	7,7	1,8

⁹ O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

14	Toshkent shahri	4,3	7,9	12	13	16,2	20,3	16,1	6,1	7,5	6,4	7,6
----	-----------------	-----	-----	----	----	------	------	------	-----	-----	-----	-----

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida 2000-2023 yillar oralig'ida asosiy kapitalga investitsiyalarda bank kreditlari va boshqa qarz mablag'larining viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha ulushi tahlil qilamiz.

Asosiy kapitalga investitsiyalarda bank kreditlari va boshqa qarz mablag'larining ulushi umumiy ravishda o'sish va pasayishlarni ko'rsatadi. 2000 yilda 7,2% bo'lgan ulush 2023 yilda 3,8% ga tushdi, bu kreditlarning ulushining o'zgarishini bildiradi. Boshqa mablag'lar va moliya manbalarining ko'proq jalb qilinishi bu holatni izohlaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi 2000-2023 yillarda bank kreditlari va boshqa qarz mablag'laridan foydalanish bo'yicha o'zgaruvchan dinamikani ko'rsatdi. 2000 yilda ulush 14,8% bo'lgan, lekin 2023 yilga kelib 4,1% gacha pasaygan. 2020 yillarda esa bu ulush 7% atrofida bo'lgan, bu hududda investitsiyalarni jalb qilish uchun boshqa manbalar faoliyatining kuchayganini ko'rsatadi. Andijon viloyatida bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lar ulushi 2000 yilda 4,6% bo'lgan va 2023 yilga kelib 1,9% ga pasaygan. 2010-yillarda bu ulush ancha yuqori bo'lib, 20% ga yaqinlashgan, lekin 2020 yillarda pasayib, barqarorlashgan. Bu viloyatning kreditlar va qarzlar bo'yicha qarorlarida o'zgarishlarni aks ettiradi.

Buxoro viloyatida 2000 yilda bank kreditlari ulushi 6,1% bo'lgan va 2023 yilga kelib 1,8% gacha kamaygan. Buxoroda 2000-yillar oxirlarida bu ulush pasayib, 2010-yillarda o'zgarmadi, so'ngra 2020-yillarda yana kamaydi. Bu hududda bank kreditlari ulushi kam bo'lishi, boshqa

manbalar bilan investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilishga intilishning ko'rinishidir. Jizzax viloyatida bank kreditlari va boshqa qarz mablag'larining ulushi 2000-2023 yillar davomida o'zgaruvchan bo'lgan. 2000 yilda ulush 0,7% bo'lib, 2023 yilga kelib 2,2% gacha oshgan. 2010-yillarda bu ulush yuqori darajaga yetib, 20% atrofida o'zgargan. Bu o'zgarishlar Jizzax viloyatida iqtisodiy rivojlanish va investitsiya faoliyatining o'zgarishlarini aks ettiradi.

Surxondaryo viloyatida 2000 yilda bank kreditlari ulushi 1,1% bo'lgan va 2023 yilga kelib 2,2% ga pasaygan. 2010-yillarda ulush o'sib, 20% ga yaqinlashgan, lekin 2020-yillarda pasaygan. Bu hududda kreditlarni jalb qilish va investitsiya manbalarining bir qismini boshqa yo'nalishlarga sarflashga intilish ko'zga tashlanadi. Sirdaryo viloyatida 2000-2023 yillar davomida bank kreditlari va boshqa qarz mablag'larining ulushi o'zgaruvchan. 2000 yilda ulush 7,2% bo'lgan va 2023 yilga kelib 1,7% gacha tushgan. 2010-yillarda bu ulush ancha yuqori bo'lib, 30% gacha chiqqan. Bu hududda investitsiya manbalarining turli yo'nalishlarga sarflanishi va kreditlardan foydalanishning o'zgarishlaridan dalolat beradi.

Toshkent shahri 2000 yilda bank kreditlari ulushi 4,3% bo'lib, 2023 yilga kelib 7,6% ga oshgan. 2010-yillarda Toshkentda bank kreditlari ulushi ko'p bo'lishi, lekin 2020-yillarda kamayish kuzatiladi. Toshkent shahri, iqtisodiy markaz sifatida, yuqori kredit va qarz mablag'laridan foydalanishni saqlab qolgan.

3-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalarda korxona va aholining o'z mablag'lari ulushining viloyatlar bo'yicha o'zgarish dinamikasi¹⁰

	Klassifikator	2000	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
	O'zbekiston Respublikasi	39,1	52,5	56,2	54,4	47,3	42	29,3	40,8	38	40,6	31,8
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	32,7	57,3	27,8	35,2	62,8	37,9	34,3	39,1	39,9	38	29,2
2	Andijon viloyati	49,1	77,8	66,8	67,6	65,6	47,8	38,2	47,6	37,4	36,1	23,8
3	Buxoro viloyati	45,4	29,7	51,8	39,5	20,6	35,5	28,9	38,3	31	32,6	21,4
4	Jizzax viloyati	26,8	70,2	58,4	62,9	55,4	44,3	22,5	20,9	32,2	33,4	17
5	Qashqadaryo viloyati	42,9	63,7	61	53,5	39,1	33,6	22,2	21,6	32,7	38,3	31,7
6	Navoiy viloyati	37,6	41,9	60,8	50	46,5	37,1	15,7	25,8	28,6	38,8	27,9
7	Namangan viloyati	44	72,1	55,5	50,9	49,9	29,7	29,4	41,9	36,7	38,4	39,9
8	Samarqand viloyati	60,5	77,9	73,1	76,3	68,4	57,5	38,5	53	41	32,5	36,2
9	Surxondaryo viloyati	37,7	56	61,2	58,7	50	34,9	15,7	23,7	29,4	33	18,7
10	Sirdaryo viloyati	39,3	55,9	41,2	41,2	38,7	34,9	20,4	29,9	19,6	10,8	13
11	Toshkent viloyati	36,5	52,8	53,6	58,6	51,4	51	38,6	51,6	45,4	46,5	30,9
12	Farg'ona viloyati	40,4	61,6	63,8	61,8	67,9	46,1	34,7	43,3	41,7	38	30,7
13	Xorazm viloyati	46,5	63,4	67,5	70,5	64,5	49,1	32,8	41,2	45,8	48,3	42,4
14	Toshkent shahri	30,2	41,4	64,4	56,1	52,8	49,7	36,6	54	44,7	55,1	46,6

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida 2000-2023 yillar davomida asosiy kapitalga investitsiyalarda korxona va aholining o'z mablag'larining ulushi tahlil qilamiz. 2000-2023 yillar oralig'ida asosiy kapitalga investitsiyalarda korxona va aholining o'z mablag'larining ulushi o'zgaruvchan dinamikaga ega. 2000 yilda bu ulush 39,1% bo'lgan va 2023 yilga kelib 31,8% gacha pasaygan. 2010-yillarda o'z mablag'larining ulushi yuqori bo'lgan, ammo 2020-yillarga kelib, korxona va aholining o'z mablag'laridan foydalanish kamaydi. Bu kreditlar va boshqa moliyaviy manbalar orqali o'sishning ko'rsatkichi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi 2000-2023 yillar davomida korxona va aholining o'z mablag'laridan foydalanish ulushi bilan nisbatan o'zgarishlarni ko'rsatadi. 2000 yilda 32,7% bo'lgan ulush, 2023 yilga kelib 29,2% gacha pasaygan. 2007-2009 yillar o'rtasida ulushning oshishi kuzatilgan, lekin 2020-yillarda pasayish ro'y berdi. Bu hududda investitsiyalar uchun boshqa moliyaviy manbalar ko'proq jalb qilinganini ko'rsatadi. Andijon viloyatida 2000 yilda 49,1% bo'lgan ulush, 2023 yilga kelib 23,8% ga pasaygan. 2010-yillarda o'z mablag'larining ulushi 70% atrofida bo'lgan, lekin 2020-yillarda bu ko'rsatkich sezilarli darajada kamaygan. Bu o'zgarishlar viloyatda investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish va kreditlardan foydalanishning ko'payganligini aks ettiradi. Buxoro viloyatida 2000 yilda 45,4% bo'lgan ulush, 2023 yilga kelib 21,4% gacha kamaygan. 2000-yillarda o'z mablag'larining ulushi yuqori bo'lgan, ammo 2010-yillarga kelib bu ko'rsatkich tushgan.

2020-yillarda ham o'z mablag'larining ulushi kamaygan. Buxoroda o'z mablag'larining ulushining pasayishi, boshqa moliyaviy manbalarga bo'lgan talabni oshirgan.

Sindisyalashtirilgan kreditlar hajmi nisbatan barqaror o'sish sur'atini saqlab kelmoqda. 2021 yilda 3,9 trln so'mni tashkil etgan ushbu kreditlar hajmi 2024 yilda 5,5 trln so'mga, 2025 yilda esa 4,8 trln so'mga yetgan. Bu kreditlar, odatda, yirik investitsion loyihalar va kapital talab qiluvchi ishlab chiqarish sohalariga ajratiladi. Sindisyalashtirilgan kreditlar miqdorining nisbatan barqarorligicha

qolayotgani – yirik kreditlar bozorining sekin o'sayotganini bildiradi. Shuningdek, yirik loyihalarining amalga oshirilish sur'ati, ularning moliyaviy bahosi va risk darajalari bu segmentdagi barqarorlikka ta'sir ko'rsatmoqda.

Xulosa va takliflar. Kredit hajmining keskin o'sishi banklar uchun muayyan xavflarni ham yuzaga keltiradi. Avvalo, bunday o'sish kredit sifati, ya'ni mijozlarning qarzni qaytarish qobiliyati va kreditlarning ta'minlanganlik darajasi bilan muvozanatda bo'lmasa, yomon kreditlar ulushi ortib ketish xavfi tug'iladi. Shu sababli, grafikda aks etgan raqamlar bank sektorining faqat hajmiy ko'rsatkichlar bo'yicha emas, balki sifat jihatdan ham o'sishini talab qiladi. Kredit portfelining barqarorligi, risklarni boshqarish tizimining mustahkamligi, shaffof monitoring va kredit siyosati siyosiy yoki ma'muriy bosimlardan holi bo'lishi muhim. Aks holda, bu o'sish bank sektorining ortiqcha yuklanishiga, moliyaviy barqarorlikning zaiflashishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, kredit hajmining keskin o'sishini tahlil qilishda inflyatsiya, iqtisodiy o'sish sur'ati va real sektorning samaradorligi bilan bog'liq murakkab omillarni hisobga olish zarur.

Umuman olganda, mazkur tendensiyalar bank sektorining diversifikatsiyalashuvi, kredit portfelining ko'p qirrali segmentlarga ajralib borayotgani va risklarni muvozanatlashgan holda boshqarish mexanizmlarining shakllanayotganini ko'rsatadi. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar ulushining ortib borayotgani banklar uchun barqaror daromad manbai hisoblanadi, chunki bu segment, odatda, katta miqdordagi kreditlar emas, balki ko'plab mayda kreditlar orqali portfelni kengaytiradi. Bu esa kredit portfelining xatar darajasini pasaytiradi va bank barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli, so'nggi yillarda kuzatilayotgan bu strukturaviy siljishlar moliyaviy tizimda muhim sifat o'zgarishlarini yuzaga keltirib, bank xizmatlarining aholiga yanada yaqinlashishiga olib keldi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda bank sektorini liberallashtirish, xususiy banklarning raqobatbardoshligini oshirish va xorijiy kapital

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

ishtirokidagi banklar sonini ko'paytirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirildi. Xususan, "Ipoteka-bank", "Asaka bank", "O'z sanoatqurilishbank" kabi yirik davlat banklarining xususiy lashtirish jarayonlari ham umumiy tizimga raqobat ruhi olib kirib, xususiy banklar uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Shuningdek, "Open banking" ekotizimi, raqamli identifikatsiya va mijozga yo'naltirilgan xizmatlar orqali xususiy banklar aholining keng qatlamiga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ldi. Natijada, xususiy banklar jismoniy shaxslar segmentida faol o'sishga erishdi va kredit portfelining yarmidan ortig'ini ushbu segment egallaydi. Bu esa islohotlarning amaliy samarasi sifatida baholanishi mumkin.

Milliy valyutadagi kreditlarning hajm jihatidan ortib borayotgani nafaqat makroiqtisodiy barqarorlik, balki banklar uchun aktivlar sifati va kredit xavflarining kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Milliy valyutada moliyalashtirishning kengayishi bilan banklar kredit siyosatini yanada moslashuvchan yurita boshladi, bu esa, o'z navbatida, kredit oluvchilar soni va kreditlash segmentlarining diversifikatsiyalashuviga olib keldi. Xorijiy valyutadagi kreditlarning nisbatan pasayib borayotgan salmog'i esa tashqi qarzlikka bog'liqlikning kamayib borayotganini bildiradi. Bu jarayonlar, o'z navbatida, mamlakat moliyaviy tizimining ichki manbalar hisobidan rivojlanayotganini anglatadi.

Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar tarkibida mikroqarzarlar va iste'mol kreditlarining tez o'sishi, banklar tomonidan chakana moliyalashtirish bozoriga bo'lgan e'tibor ortganini bildiradi. Bu jarayon bank tizimining xizmatlar doirasini aholining keng qatlamlariga yoyish,

moliyaviy inkluziyani oshirish va kredit bozorida raqobatning kuchayishi natijasidir. Barcha kredit turlari bo'yicha barqaror o'sish tendensiyasi esa jismoniy shaxslar moliyaviy imkoniyatlarining kengayib borayotganidan va banklar bilan aloqalarning kuchayganidan dalolat beradi.

Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar tarkibi bo'yicha o'zgarishlar tijorat banklarining moliyalashtirish strategiyalarida sezilarli darajada diversifikatsiyalashga intilayotganini ko'rsatadi. Eng katta hajm kredit tashkilotlari bo'lmagan yuridik shaxslarga to'g'ri kelmoqda, biroq mikroqarzarlar segmentining keskin o'sib borayotgani, shuningdek, sindisiyalashtirilgan kreditlarning barqarorligi, bank tizimi yirik va kichik subyektlar uchun birdek moliyaviy xizmatlarni taklif qilayotganidan dalolat beradi. Banklar o'rtasidagi kreditlash hajmining pasayishi esa tizimda moliyaviy mustahkamlikning ortayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tijorat banklari tomonidan sektorlar bo'yicha kredit qo'yilmalari O'zbekiston iqtisodiy strategiyasidagi ustuvor yo'nalishlar bilan chambarchas bog'liq. Sanoat va qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan kreditlar hajmining sezilarli darajada ortishi, ayniqsa klasterlash, eksportbop mahsulot yetishtirish, urbanizatsiya va xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar samarasidir. Shu bilan birga, ayrim tarmoqlarda, xususan, uy-joy kommunal xizmati va moddiy-texnik ta'minotda past o'sish yoki qisqarishlar kuzatilayotgani bu yo'nalishlardagi kredit siyosatini qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirza, N., Afzal, A., Umar, M., & Skare, M. (2023). The impact of green lending on banking performance: Evidence from SME credit portfolios in the BRIC. *Economic Analysis and Policy*, 77, 843-850.
2. Miyamoto, K. (2022). Quantum algorithm for calculating risk contributions in a credit portfolio. *EPJ Quantum Technology*, 9(1), 1-16.
3. Jakob, K. (2022). Estimating correlation parameters in credit portfolio models under time-varying and nonhomogeneous default probabilities. *Journal of Credit Risk*, 18(4).

4. Castillo, J. A., & Mora-Valencia, A. (2023). The effect of moral hazard on the SMEs credit portfolio guaranteed by Colombia's National Guarantee Fund. *Estudios Gerenciales*, 39(168), 379-386.
5. Mbeukam, L. S. (2024). *Pricing and hedging of transition risk in Credit Portfolio* (Doctoral dissertation, Université Paris Cité).
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari



TASHQI INVESTITSIALARNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI

Sultonova Yulduzxon Kamoldinovna

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

sultonovayulduzxon66@gmail.com

Rustamov Muhammadazizxon Ulug'bek o'g'li

Qo'qon universiteti Iqtisodiyot yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ORCID: 0009-0000-6958-5121

rustamovmuhammadazizxon@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 15 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1126 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS tashqi investitsiyalar, iqtisodiy o'sish, O'zbekiston iqtisodiyoti, ekonometrik tahlil, investitsiyalar ta'siri, investitsiya, infratuzilma	Mazkur maqola O'zbekiston iqtisodiyotida tashqi investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Tashqi investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shuvchi omillar orqali ta'sir etishini ko'rsatib o'tgan. Iqtisodiy tahlilni investitsiya strategiyalarini takomillashtirish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha keng qamrovli va taqqoslanadigan ma'lumotlarni, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning O'zbekiston Respublikasining investitsiyalar iqtisodiy o'sishga bog'langan holda investitsiyalarga ta'siri o'rganildi, uni ekonometrik usullar orqali investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga bo'lgan ta'siri tahlil qilindi.

Kirish. Bugungi jadal rivojlanayotgan muayyan bir davrda xorijiy investitsiyalar har bir iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat moliyaviy resurslarni taqdim etadi, balki texnologik innovatsiyalar, boshqaruvni takomillashtirish va global bozorlar bilan integratsiyani kuchaytiradi. O'zbekiston, o'zining iqtisodiy o'sishini ta'minlash uchun chet el investitsiyalarini jalb qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu maqola O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarining ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

Xorijiy investitsiyalar (XI) globallashtirish markazida joylashgan bo'lib, kapital, tovarlar, xizmatlar va ma'lumotlarni iqtisodiyotlar o'rtasida o'tkazish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni o'lchash mamlakatlarning bugungi global iqtisodiyotiga qanday bog'langanligini va integratsiyalashganligini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning afzalliklari quydagilardan iborat:

1. Iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish: To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar maqsadi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirishi va kompaniyalar, investorlar uchun yanada qulay muhit yaratishi va iqtisodiyotni rag'batlantirishi mumkin.

2. Xalqaro savdo: Mamlakatlar odatda o'zlarining import tariflariga ega, bu esa savdoni ancha qiyinlashtiradi. Ko'pgina iqtisodiy sektorlar savdo va maqsadlarga erishish uchun odatda xalqaro ishlab chiqaruvchilarda bo'lishni talab qiladi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar xalqaro savdoning barcha jihatlarini osonlashtiradi.

3. Bandlik va iqtisodiy o'sish: Investorlar xorijiy mamlakatlarda yangi kompaniyalar qurayotganligi sababli to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar yangi ish o'rinlari va ko'proq imkoniyatlar yaratadi. Bu mahalliy aholining daromadlari va sotib olish qobiliyatining oshishiga olib kelishi mumkin, bu esa o'z navbatida iqtisodiyotning o'sishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi qator tashqi investitsiyalarni jalb etish maqsadida qator qonun, qaror, farmon va farmoyishlar joriy etilmoqda. Tashqi savdo sohasida boshqaruvni amalga oshirish tizimlarini takomillashtirish va tashqi investitsiyalarni rag'batlantirish shubhanan birga ishsiz aholini bandlik bilan ta'minlash yuzasida chora tadbirlar nazarda tutilgan. Bulardan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-5643-son "Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Mamlakatimizda investitsiya iqlimini yaxshilash, eksport salohiyatini oshirish, biznesni jadal rivojlantirish uchun asos sifatida investitsiya va tashqi savdo faoliyatini samarali tartibga solish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilishi haqida.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-4434-son "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" bunda investitsiyaviy muhit shakllantirildi, xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qonun yo'li bilan keng ko'lamdagi imtiyozlar, afzalliklar va kafolatlar tizimi belgilanganligi ko'rsatib o'tilgan.²

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo'llari:

1. Tashqi investitsiyalar orqali O'zbekistonga zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv usullari kiradi. O'zbekistonning ko'p tarmoqlarida, masalan, energetika, qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmatlar sohalarida texnologik yangilanishlar amalga oshiriladi. Natijada mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy holatda rivojlanishini ko'zda tutadi

2. Investitsiyalar yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga va mavjud ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga yordam beradi hamda yangi texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi.

3. Bunda mamlakat tashqi faoliyatida eksport salohiyatini oshirish muhim ahamiyatga ega mamalakat faqat xom ashyo eksportidan tashqari, ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportiga yo'naltirishi. Investitsiyalar orqali ishlab chiqariladigan mahsulotlar xalqaro bozorlarga chiqishi mumkin. Tashqi savdosi yanada kengayadi, bu esa mamlakatning joriy balansini yaxshilaydi va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Tashqi investitsiyalarni iqtisodiy o'sishga ta'sirini samarali darajada o'rganish tadqiqot amalga oshirgan olimlardan biri Morgan "Investitsiyalar va iqtisodiy o'sish" maqolasida investitsiyalarni iqtisodiy o'sishning asosiy manbai sifatida ko'radi. U investitsiyalar, texnologik taraqqiyot, madaniy va institutsional omillar,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2019 yildagi PF-5643-son "Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" <https://lex.uz/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.04.2012 yildagi PF-4434-son "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" <https://lex.uz/>

shuningdek rivojlanayotgan mamlakatlarda xorijiy investitsiyalarining o'sishga ta'sirini tahlil qiladi.³

Blomstrom, Kokko va Mucchielli o'z asarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish iqtisodiyoti muhokama qilinadi. Ular, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sish va rivojlanishga ta'sirini tahlil qilib, bu investitsiyalarni jalb qilishda samarali strategiyalarni, jumladan soliq imtiyozlari va reglamentlarni ko'rib chiqadilar. Shuningdek, investitsiyalarni boshqarish va regulatsiya qilishning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri haqida fikr yuritadilar. Ular sanoat va moliyaviy sektorlarga xorijiy investitsiyalarning qanday ta'sir qilishini ham tadqiq etadilar.⁴

Meyer rivojlanayotgan mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bo'yicha ishi uning iqtisodiy o'sish, texnologiyalar transferi, bozorga kirish va raqobatdagi rolini ta'kidlab, kapitalga qaramlik va tashqi zarbalar kabi xavflarni o'z maqolasida ta'kidlab o'tadi. U imtiyozlarni maksimal darajada oshirish va mumkin bo'lgan kamchiliklarni minimallashtirish uchun samarali siyosat va tizimlar zarurligini ta'kidlaydi.⁵

Borensztein, Gregorio va Li o'z maqolalarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiladilar. Ular xorijiy investitsiyalar texnologiya va bilim transferini ta'minlab, rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarish

samaradorligini oshiradi deb ta'kidlaydilar. Shuningdek, investitsiyalarni rag'batlantirishda institutsional va siyosiy barqarorlikning ahamiyatini va iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganadi, bu jarayonda statistik tahlil va regressiya modellari qo'llanilgan.⁶

Moosa o'z asarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning nazariyasi, dalillari va amaliyoti tahlil qiladi. U investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini nazariy jihatdan ko'rib chiqadi va global tajribalarga asoslangan dalillarni taqdim etadi. Moosa, shuningdek, investitsiyalarni jalb qilish siyosatlari va amaliyotlarini, hukumatlarning rolini o'rganadi. Asarida (To'g'rida-to'g'ri xorijiy investitsiyala) TXning texnologik transfer, ishlab chiqarish va ish o'rinlari yaratishda qanday hissa qo'shishini ko'rsatadi.⁷

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola O'zbekistonga kirayotgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o'sishga bo'lgan ta'siri bilan o'rganilgan, uni to'g'ridan to'g'ri tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, tahlil uchun bir nechta metodologik yondashuvlar qo'llanilgan. Metodologiya quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: Ma'lumotlar to'plash, statistik tahlil, solishtirma tahlil, ekonometrik tahlil qilish va umumlashtirish, grafik va jadval ko'rinishidagi ma'lumotlarni taqdim etish, tahlil natijasiga asoslangan takliflar, amaliyotga yo'naltirilgan tavsiyalar.

Tadqiqot natijalari.

1-jadval

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni - O'zbekiston 2013-2022 yillarda

Yillar	Iqtisodiy o'sish milliard so'm	O'zbekistonga to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar milliard so'm
2013	153311,3	79991
2014	186829,5	82250
2015	221350,9	84631
2016	255421,9	87057
2017	356453,8	91177
2018	473652,8	93013
2019	594659,6	94671
2020	668038	99706
2021	820536,6	101080,7
2022	995573,1	103893,1

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida O'zbekiston iqtisodiy o'sishi va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish uchun oddiy regressiya modeli qo'llanildi. Ushbu model iqtisodiy o'sishning (bog'liq o'zgaruvchi) investitsiyalar miqdoriga (mustaqil o'zgaruvchi) qanday ta'sir qilishini baholashga imkon berdi.

Ekonometrik tahlil

1) **Korrelyatsion tahlil natijasi:** Natijaga ko'ra omillar o'zaro o'rtacha ijobiy bog'langan. Empirik tahlil xulosasiga ko'ra to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar oshirilsa O'zbekistonning iqtisodiy o'sishi ortishiga olib keladi.

$$r_{xy} = \frac{\overline{xy} - \bar{x} \cdot \bar{y}}{\sigma_x \cdot \sigma_y} = 0,972087704879294$$

2) **Regressiya tahlil natijasi:** Natijaga ko'ra tuzilgan regressiya tenglamasi O'zbekistonga to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar hajmini 10 hajmiga ortishi O'zbekiston iqtisodiy o'sish hajmiga ta'siri 2 66 125 ga kamayishini ko'rsatadi.

$$\hat{y}_x = -2666468 + 34,21421 * x$$

3) Determinatsiya ko'effitsienti

$$(r_{xy})^2 = 0,97208^2 = 0,944954505977493$$

4) Fisherning F-kriteriyasini tahlil natijasi:

Natijaga ko'ra bunda jadval qiymat xaqiqiy qiymatdan kichik shuning uchun biz gipotezani qabul qilmaymiz.

$$F = \frac{R^2}{1-R^2} \cdot \frac{n-k-1}{k} = 137,3343$$

Agar $F_{jad} > F_{haq}$ shart o'rinli bo'lsa H_0 gipoteza rad etilmaydi va regressiya tenglamasining statistik ma'noga ega emasligi, ishonchli emasligi tan olinadi.

$$F_{xaq} = 137,3343$$

$$F_{jad} = 2,57$$

5) Student t-kriteriyasini

va har bir ko'rsatkichning ishonch intervali bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak bizdagi $t_{\alpha_1}; t_{\alpha_2}$ ko'effitsentlar statistik ma'noga ega degan xulosaga kelamiz.

³ Morgan, T. (1969). Investitsiyalar va iqtisodiy o'sish. Iqtisodiy rivojlanish va madaniy o'zgarishlar, 17 (3), 392-414. <https://doi.org/10.1086/450366>

⁴ Blomström, M., Kokko, A. va Mucchielli, J.L. (2003). To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish iqtisodiyoti. Sanoat mamlakatlari real va moliyaviy sektoriga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (37-60-betlar). Berlin, Geydelberg: Springer Berlin Heidelberg. <https://cepr.org/publications/DP3775>

⁵ Meyer, K. E. (2005). Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar. Siyosat muhokamasi hujjati, Templeton kolleji, Oksford, dekabr.

⁶ Borensztein, E., De Gregorio, J. va Li, J. V. (1998). To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir qiladi? Xalqaro iqtisodiyot jurnali, 45 (1), 115-135. [https://doi.org/10.1016/S0022-1996\(97\)00033-0](https://doi.org/10.1016/S0022-1996(97)00033-0)

⁷ Moosa, I. (2002). To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar: nazariya, dalillar va amaliyot. Palgrave.

$$m_r = \sqrt{\frac{1-r^2}{n-2}} = 0,003489 \quad m_b = \sqrt{\frac{\sum(y-\hat{y}_x)^2/(n-2)}{\sum(x-\bar{x})^2}} = 11,71$$

$$m_a = \sqrt{\frac{\sum(y-\hat{y}_x)^2}{n-2} * \frac{\sum x^2}{n * \sum(x-\bar{x})^2}} = \sigma_{qol} \sqrt{\frac{\sum x^2}{n * \sum(x-\bar{x})^2}} = -9,918$$

$$t_{r_{xy}} = 16,45708$$

$$t_{jadval} = 9,02$$

6) **Darbin-Uatson mezon** bo'yicha avtokorrelatsiya mavjudligi yoki mavjud emasligini tekshirish uchun qoldiqlarning avtokorrelatsiyasi tekshiriladi. Avtokorrelatsiyaning mavjudligi bir necha qadamlarda tekshiriladi. Tekshirish 0-4 oraliq bo'yicha bir nechta qismlarda tekshiriladi.

0	Musbat avtokorrelatsiya	DW 1	Aniqmaslik sohasi	DW 2	Avtokorelyatsiya mavjud emas	4-DW 2	Aniqmaslik sohasi	4-DW 1	Manfiy avtokorelyatsiya	4
---	-------------------------	------	-------------------	------	------------------------------	--------	-------------------	--------	-------------------------	---

Darbin-Uatson jadvali

	e-ei1	(e-ei1)^2	e^2
82950,10521	-82950,10521	6880719955	6880719955
39178,40737	43771,69784	1915961532	1534947604
-7764,223953	46942,63132	2203610636	60283173,59
-56696,89468	48932,67072	2394406264	3214537866
-96627,53523	39930,64055	1594456055	9336880564
-42245,82272	-54381,71251	2957370656	1784709537
22033,81897	-64279,64169	4131872336	485489178,6
-76856,32269	98890,14167	9779260119	5906894338
28608,00437	-105464,3271	11122724283,05	818417914
107420,4633	-78812,45897	6211403689	11539155944
		49191785523,98	41562036073,93

Darbin-Uatson tahlil natijasi: Natijaga ko'ra ijobiy avto korrelyatsiya mavjud hamda qoldiqlar o'rtasida bog'lanish mavjud.

$$DW = \frac{\sum_{i=1}^n (e_i - e_{i-1})^2}{\sum_{i=1}^n e_i^2}$$


$$e_i = y_i - \hat{y}_{x_i}$$

$$\frac{49191785523}{41562036073} = 1,183575$$

$DWL < DW_{natija} < DWU$ bo'lsa, noaniqlik holati qoldiqlar.

$$0 \leq d \leq dL$$

$$0,525 \leq 1,183575 \leq 2,16$$



Yuqoridagi grafikda o'tkan yilga nisbatan iqtisodiy o'sish va to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni mablag'lari foizda ko'rsatilgan. Kutilayotgan prognozga ko'ra iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi ba'zi davrlarda sezilarli darajada pasaygan. Eng katta o'zgarish avvalgi yilga nisbatan 40% ga bo'lgan o'zgarish uchragan. Bu o'zgarish iqtisodiy

holatning keskin oshganligini ko'rsatadi. 40% va 33% o'rtasidagi pasayish ham iqtisodiy faollikning qisqarishiga ishora qiladi, chunki 33% o'zgarish iqtisodiy o'sish avvalgi yilga nisbatan kamayganligiga ishora qilmoqda.

Investitsiyalar bo'yicha esa 5% foiz ikki marta uchragan, bu kichik bir ijobiy o'zgarish dalolat beradi, unda 2017-2020 yillarda ro'y bergan. Boshqa tomondan, O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bo'yicha yuqori darajadagi investitsiyalarni anglatadi umumiy 10 yillik davrda.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak mazkur maqola, O'zbekiston iqtisodiyotiga tashqi investitsiyalarning ta'sirini o'rganish va bu jarayonda iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi rolini yoritishga qaratilgan. Tashqi investitsiyalar, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shib, iqtisodiy o'sishning asosiy manbalaridan biri sifatida ajralib turadi. Investitsiyalar nafaqat moliyaviy resurslarni taqdim etadi, balki texnologik innovatsiyalarni olib keladi, boshqaruv usullarini yaxshilaydi va global bozorlarga integratsiyani kuchaytiradi.

O'zbekistonning tashqi investitsiyalarni jalb qilishda qo'llanilayotgan siyosatlar, imtiyozlar va kafolatlar tizimi xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratmoqda. Hukumatning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy siyosatni samarali olib borish

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2019 yildagi PF-5643-son "Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" <https://lex.uz/>
2. Sultonova, Y. (2023). KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH VA UNING INFRATUZILMASINI QO'LLAB-QUVVATLASHNI O'RGANISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 2(2), 101-104.
3. Sultonova, K. Y. (2023). MATEMATIKANI ZAMONAVIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI. Interpretation and researches, 1(8).
4. Kamoldinovna, S. Y. (2024). O 'ZBEKISTONDA TURIZM BOZORINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHDA SMART MUTAXASSISLIK O 'RNI. University Research Base, 529-532.
5. Yulduzxon, S. (2022). Six key principles for effective teaching of mathematics: Six key principles for effective teaching of mathematics. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000006).
6. Kamoldinovna, S. Y. (2023). Turistik mahsulotlar va xizmatlar mohiyatiga yondashuvlar va ularni diversifikatsiyalash jarayonining nazariyuslubiy jihatlari. Qo 'qon universiteti xabarnomasi, 358-362.
7. Kamoldinovna, S. Y. (2022). Tadbirkorlik faoliyatida ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil etish va boshqarish. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(5), 309-314.

bo'yicha olib borayotgan sa'y-harakatlari O'zbekistonning global iqtisodiyotda o'rin egallashini ta'minlamogda.

O'zbekiston iqtisodiyotidagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib o'tgan va ularning iqtisodiy o'sishga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishini tushuntirgan. Tashqi investitsiyalar nafaqat moliyaviy resurslar, balki texnologik innovatsiyalar va boshqaruvni takomillashtirishga ham yordam beradi. O'zbekistonning iqtisodiy o'sishiga investitsiyalar ta'siri to'g'risida amalga oshirilgan iqtisodiy tahlil natijalari, xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mamlakatning iqtisodiy o'sishiga muhim hissa qo'shishini tasdiqlaydi.

Tahlilda, 2013-2022 yillar davomidagi investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik oddiy regressiya modeli yordamida o'rganilgan. Natijalar ko'rsatganidek, investitsiyalarning oshishi iqtisodiy o'sishning tezlashishiga olib keladi, ammo ba'zi yillarda iqtisodiy o'sishda pasayish kuzatilgan. Ekonometrik tahlilning ko'rsatkichlari, xususan, korrelyatsiya va regressiya natijalari, investitsiyalarning O'zbekiston iqtisodiyotiga ijobiy ta'sirini tasdiqladi.

8. Sultonova, K. Y. (2023). Matematikani zamonaviy Iqtisodiyotdagi o'rni. Interpretation and researches, 1(8).
9. Sultonova, Y. (2023). Kichik biznesni rivojlantirish va uning infratuzilmasini qo'llabquvvatlashni o'rganishning nazariy va uslubiy asoslari. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 2(2), 101-104.
10. Sultonova, Y., & Muhammadsobirov, Q. (2024). SANOATDA ISHLAB CHIQUV TIZIMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. O 'ZBEKISTON MISOLIDA EKONOMETRIK TAHLIL. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 67-70.
11. Sultonova, Y., & Muhammadsobirov, Q. (2024). SANOATDA ISHLAB CHIQUV TIZIMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. O 'ZBEKISTON MISOLIDA EKONOMETRIK TAHLIL. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 67-70.
12. Kamoldinovna, S. Y. (2024). TURIZMDA MAHSULOT VA BOZORNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH. University Research Base, 906-909.
13. Yulduzxon, S. (2021). Muammolar va echimlar Sanoat-4.0 ni joriy etish O 'zbekistonda dastur. Muammolar va echimlar Sanoat-4.0 ni joriy etish O 'zbekistonda dastur. Qo 'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000002).
14. Kamoldinovna, S. Y. (2022). A boundary matter for a fifth-order private derivative differential equation with two double and one simple real characteristic. Eurasian Research Bulletin, 4, 45-47.



NAVOIY VILOYATIDA AHOLINI KAM TA'MINLANGAN VA IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ QATLAMLARINI MUHOFAZA QILISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Temirova Muxabbat Temirovna

Kadrlar malakasini oshirish va statistik
tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi.

E-mail: tmt_jobs@mail.ru

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 16 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1127	Ushbu maqola "Z" avlodining ijtimoiy va psixologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada "Z" avlodi yoshlarining texnologiyalar bilan ajralmas bog'lanishi, ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritish, onlayn muloqotga qiziqish, stress va depressiya kabi psixologik muammolar, shaxsiy erkinlikni qadrlash, ijtimoiy mas'uliyat va kreativlik kabi asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maqolada ushbu xususiyatlarning jamiyatdagi o'rnini va avlodlar o'rtasidagi farqlar ko'rsatilgan. Takliflar qismida esa, yoshlar uchun ta'lim, psixologik qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS Z avlodi, texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn muloqot, psixologik holat, stress, depressiya, shaxsiy erkinlik, kreativlik, ijtimoiy mas'uliyat.	

Kirish. Bugungi kunda "Z" avlodi – bu 1997-yildan 2012-yilgacha tug'ilgan yoshlar bo'lib, ularning hayotga qarashlari, ijtimoiy munosabatlari, shaxsiy va psixologik xususiyatlari xuddi avvalgi avlodlarga nisbatan sezilarli darajada farq qilmoqda. Ushbu avlodning o'ziga xosligi, ularning dunyoqarashi va texnologiyalarga bo'lgan aloqasi, shuningdek, o'rganish va muloqot uslublari butun jamiyat uchun muhim dolzarb masalalarga aylangan. Ayniqsa, ularning ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritishi, onlayn ta'lim olishga bo'lgan qiziqishi va real va virtual olam o'rtasida o'zgaruvchan chegaralar orqali o'zgarishlar yaratishi, jahonning barcha sohalarida katta o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda.

"Z" avlodining psixologik va sotsiologik xususiyatlarini tahlil qilish, ularning tarbiyasi, o'qish va ishga bo'lgan qarashlarini to'g'ri tushunish, hozirgi jamiyatdagi o'zgarishlarni chuqur anglashda juda muhim ahamiyatga ega.

"Z" avlodi, yoshligidan boshlab internet va texnologiyalar bilan ichki aloqada bo'lib, raqamli dunyoda yashashni o'rgangan. Ularning hayoti onlayn muhitda o'tadi va bu ularda o'ziga xos psixologik holatlarni yuzaga keltiradi. Ularning asosiy psixologik xususiyatlaridan biri – tezkor axborot oqimiga moslashish va internetdagi muloqotga asoslangan ijtimoiy aloqalar. Ular tez-tez onlayn do'stliklar o'rnatishadi va bu jarayonlar real dunyoda o'zaro muloqotga qaraganda ko'proq ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, "Z" avlodining sotsiologik xususiyatlariga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Ular o'zlarini individualist sifatida his qilishadi, ammo shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda hamjamiyatlar yaratish va o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarini ko'rishadi. Boshqalar bilan do'stlashish va ularning fikrlarini qadrlash, ijtimoiy tenglik va adolatga katta ahamiyat berishadi. Bu avlodda muvaffaqiyatli bo'lish uchun, tez o'zgarayotgan dunyoda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab qilinadi.

Ularning o'ziga xosligini tushunish, nafaqat ularning jamiyatdagi o'rnini belgilashda, balki ularga to'g'ri pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishda ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois, "Z" avlodining psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini o'rganish bugungi jamiyatda zarur va dolzarb masaladir, chunki ular kelajakda global iqtisodiyot va ijtimoiy tizimlarda katta rol o'ynaydilar.

Adabiyotlar tahlili. "Z" avlodining ijtimoiy va psixologik xususiyatlarini o'rganish sohasida bir qancha ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Ushbu mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosan yoshlarning texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarga bo'lgan aloqasi, muloqot usullari, psixologik holatlari va ijtimoiy qaramlik masalalariga qaratilgan. Bir nechta olimlar bu avlodning o'ziga xosliklarini tahlil qilib, bir qator muhim natijalarga erishganlar.

Birinchi o'rinda, Prensky (2001) tomonidan ilgari surilgan "Raqamli mahalliy aholi, raqamli immigratlar" kontsepsiyasi, texnologiyaga yuqori darajada bog'liq bo'lgan yosh avlodni o'rganishga qaratilgan. U o'zining tadqiqotida yoshlarning o'rganish va muloqot qilishda raqamli texnologiyalarni qanday qo'llayotganini tahlil qilgan. Prensky, shuningdek, yoshlar va texnologiyalar o'rtasidagi farqni ko'rsatgan va bu farqni pedagogik yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishga zarurat sifatida ta'kidladi. Bu izlanishlar shuni ko'rsatdiki, "Z" avlodi texnologiyalarni o'zlarining kundalik hayotlarining ajralmas qismiga aylantirgan, va bu ularning muloqot qilish usullarini o'zgartirishga olib kelgan¹.

Twenge (2017) tomonidan olib borilgan izlanishlar esa, "Z" avlodining psixologik xususiyatlariga ta'sir qilgan ijtimoiy omillarni ko'rib chiqadi. Twenge o'zining "iGen" kitobida, "Z" avlodi yoshlarining ijtimoiy aloqalariga ta'sir qilayotgan texnologiyalar va onlayn platformalarning ularga ta'sirini tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlar va internetning ortiqcha ishlatilishi "Z" avlodi o'rtasida stress, depressiya va o'zlikni tanishish masalalarini keltirib chiqarmoqda. Twenge shuningdek, bu avlodning o'z-o'zini anglash va shaxsiy xususiyatlar bo'yicha qiyinchiliklar bilan kurashayotganligini ta'kidlagan².

Seemiller va Grace (2016) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar esa, "Z" avlodining ijtimoiy va psixologik rivojlanishidagi o'zgarishlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Ularning ishida, texnologik o'zgarishlar, o'zgaruvchan media muhitida yoshlarning xarakter va qadriyatlarini qanday rivojlanayotgani o'rganilgan. Seemiller va Grace, "Z" avlodi yoshlarining o'ziga xos ijtimoiy ehtiyojlarini aniqlab, ularga mos pedagogik va psixologik yondashuvlarni ishlab chiqishga chaqirishgan³.

¹ Prensky, M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants. On the Horizon, 9(5), 1-6.

² Twenge, J. M. (2017). iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy—and Completely Unprepared for Adulthood—and What That Means for the Rest of Us. Atria Books.

³ Seemiller, C., & Grace, M. (2016). Generation Z Goes to College. Jossey-Bass.

Shuningdek, McCrindle (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, "Z" avlodining ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik muhitga qanday moslashgani, o'zgaruvchan global iqlimda o'z hayot tarzlarini qanday shakllantirganlari o'rganilgan. McCrindle bu avlodni "o'ziga xos va yuqori darajadagi texnologik ko'nikmalarga ega" deb atagan va ularning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda texnologiyaning rolini o'rganib chiqqan⁴.

"Z" avlodining ijtimoiy va psixologik xususiyatlarini o'rganish sohasida so'nggi yillarda bir qator muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu izlanishlar avlodning raqamli texnologiyalar bilan o'zaro munosabati, shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy aloqalariga qaratilgan. Mahalliy olimlardan **E.Yoziyev (2023)** tomonidan olib borilgan tadqiqotda, shaxs rivojlanishining psixologik jihatlarini, shaxsiy tushuncha va uning ijtimoiylashuvi muammolari o'rganilgan. Ushbu tadqiqotda yoshlarning muloqot qilish usullari va ularning ijtimoiy psixologik holatlari tahlil qilingan. Maqola, shaxslararo munosabatlar psixologiyasining ahamiyatini va uning psixologik o'rganilishi zaruriyatini ta'kidlagan⁵.

Yana bir olim J.Majidov (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda jamoa faoliyatini boshqarish va guruh munosabatlarni o'rganishning psixologik omillari tahlil qilindi. Tadqiqotda guruh psixologiya va jamoa a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni boshqarishdagi psixologik jihatlar, shuningdek, "Z" avlodi yoshlarining jamoaviy ishlash qobiliyatlari o'rganilgan⁶.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "Z" avlodi yoshlarining psixologik va sotsiologik xususiyatlarini tahlil qilishda, texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning ularga bo'lgan ta'sirini inkor etish mumkin emas. Ushbu sohada ilmiy ishlar, "Z" avlodining o'ziga xos ehtiyojlarini va kelajakdagi rivojlanishini aniq tushunishga yordam beradi, bu esa nafaqat psixologik yondashuvlar, balki pedagogik va sotsiologik strategiyalarni ishlab chiqishda ham muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada "Z" avlodining ijtimoiy va psixologik xususiyatlarini o'rganish uchun bir nechta tadqiqot metodlari qo'llaniladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi bu avlodning o'ziga xos ijtimoiy aloqalarini, psixologik holatlarini va texnologiyalarga bo'lgan munosabatlarini aniqlashdir. Shuning uchun metodologiya sifatida kombinatsiyalangan yondashuv tanlangan bo'lib, bu usulda kvantitativ va sifatli usullar birgalikda ishlatiladi.

Tadqiqotning birinchi bosqichi sifatida, anketalar va so'rovnoma orqali ma'lumotlar to'planadi. Anketalar yordamida "Z" avlodi vakillarining texnologiyalarni qanday qabul qilishi, o'zaro ijtimoiy aloqalarida texnologiyalarning roli, shuningdek, ularning psixologik holati va o'zlikni anglash darajasi o'rganish mumkin.

Tadqiqotda intervyu usuli ham qo'llaniladi. Intervyular yoshlar, psixologlar va pedagoglar bilan o'tkazilib, ularning "Z" avlodining shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiylashuvi haqidagi fikrlari yig'ish mumkin. Bu intervyular yordamida o'rganishning sifatli jihatlarini, ya'ni yoshlarning shaxsiy dunyoqarashi, o'ziga bo'lgan ishonch darajasi va texnologiyalarning ijtimoiy muloqotdagi roli haqida chuqurroq ma'lumotlar to'planadi.

Shuningdek, tadqiqotda kontent tahlili metodidan foydalaniladi. Ushbu metod yordamida "Z" avlodi vakillarining ijtimoiy tarmoqlarda o'zaro muloqotini, ularning postlari, kommentariyalari va boshqa faoliyatlarini tahlil qilish orqali psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini aniqlashga harakat qilinadi.

Tadqiqotda, shuningdek, statistik tahlil va grafik tasvirlash

metodlari ham qo'llash maqsadga muvofiq. To'plangan ma'lumotlar SPSS dasturida tahlil qilindi va ular asosida "Z" avlodining psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini ifodalovchi diagrammalar va grafiklar yaratiladi. Bu metod yordamida texnologiyalarning yoshlar o'rtasidagi ta'siri, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va o'zlikni anglash masalalari bo'yicha aniq raqamli ko'rsatkichlar chiqariladi.

Yuqoridagi metodlarning barchasi tadqiqotning samarali o'tishini ta'minladi va "Z" avlodi vakillarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini to'g'ri va keng qamrovli ravishda o'rganishga imkon beradi. Ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish jarayonida ehtiyotkorlik bilan tanlangan metodlar va yondashuvlar tadqiqotning ishonchligini va aniqligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu metodologiya orqali, "Z" avlodining ijtimoiy va psixologik o'ziga xosliklari haqida aniq va chuqur bilimlarga ega bo'lish mumkin bo'ladi.

Tadqiqot natijalari. So'nggi yillarda "Z" avlodining ijtimoiy va psixologik xususiyatlarida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu avlodning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, ularning jamiyatdagi o'rni va ta'sirini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Texnologiyaning tezkor rivojlanishi va raqamli kommunikatsiyaning kengayishi "Z" avlodining ijtimoiy va psixologik xususiyatlarini shakllantirishda muhim omilga aylangan. Ushbu yoshlar onlayn platformalarda faol bo'lib, global axborot tarmoqlariga kirish imkoniyatiga ega. Bu esa ularning dunyoqarashi, muloqot usullari va shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda ham "Z" avlodining o'ziga xos xususiyatlari o'rganilmoqda. Olib borilgan tadqiqotlarda, muloqotning psixologik muammolari va uning mamlakatimiz psixologiya fanidagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotda shaxslararo munosabatlarning milliy xarakteri, uni belgilovchi omillar va insonlarning bir-birlarini to'g'ri idrok qilish yo'llari ko'rib chiqilgan.

"Z" avlodi vakillarining psixologik holatini o'rganish uchun o'tkazilgan tajribalarda quyidagi natijalar kuzatildi:

- Emotsional barqarorlik. Onlayn muloqot va ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z fikrlarini ifoda etish imkoniyati yoshlarning emotsional barqarorligini oshirishga yordam bermoqda.
- Ijtimoiy aloqalar. Raqamli platformalarda faoliyat yuritish orqali yoshlar o'rtasida ijtimoiy aloqalar ko'paygan, ammo yuzma-yuz muloqot ko'nikmalari ba'zan zaiflashgan.
- O'zlikni anglash. Onlayn muhitda turli fikrlar va qarashlar bilan tanishish orqali yoshlar o'zlikni anglash jarayonini tezlashtirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda 14-24 yoshdagi aholi soni 3,2 million kishini tashkil etdi. Ularning 85% ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lib, kuniga o'rtacha 4 soat vaqt o'tkazmoqda. Bu yoshlarning raqamli dunyoga qiziqishi va unda faol ishtirok etishini ko'rsatadi⁷.

"Z" avlodi ijtimoiy va psixologik xususiyatlari global va mahalliy omillar ta'sirida shakllanmoqda. Texnologiyalarning rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi va madaniy o'zgarishlar ushbu avlodning dunyoqarashi va muloqot usullarini o'zgartirmoqda. Tadqiqotlar va statistik ma'lumotlar bu o'zgarishlarning yoshlarning psixologik holati va ijtimoiy aloqalariga qanday ta'sir ko'rsatayotganini yoritib beradi.


Kelajakda bu boradagi izlanishlar davom ettirilishi, yoshlar siyosati va ta'lim tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

⁴ McCrindle, M. (2018). The ABC of XYZ: Understanding the Global Generations. Unpublished manuscript.

⁵ E.Yoziyev. (2023). O'zbekiston psixologlarining tadqiqotlarida muloqotning psixologik muammolari tahlili.

⁶ Majidov, J. B. (2023). Jamoalar faoliyatini samarali boshqaruvda psixologik omillarning o'rni.

⁷ www.stat.uz



1-rasm. "Z" avlodning o'ziga xos sotsial va psixologik xususiyatlari

Bugungi "Z" avlodi (1997-2012 yillarda tug'ilgan yoshlar) o'zining ijtimoiy va psixologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular global texnologik inqilobning guvohidan bo'lib, raqamli dunyoda tug'ilib, o'sgan avlod hisoblanadi. Shuning uchun, "Z" avlodining psixologik va sotsiologik xususiyatlari ularning jamiyatdagi o'rnini va munosabatlarini tushinishda muhim ahamiyatga ega.

1. *Texnologiyalarga bo'lgan yuqori qiziqish va raqamli dunyo bilan o'zaro munosabat.* "Z" avlodi raqamli asrda tug'ilgan bo'lib, ularning har biri mobil telefon, kompyuter va ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanadi. Texnologiyalarga bo'lgan bu qiziqish ularning kundalik hayotiga, muloqot qilish usullariga va qarorlar qabul qilish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu avlodda tezkor axborot olish va o'rganish uchun internetdan foydalanish odat tusiga kirgan. Internet, ijtimoiy tarmoqlar (masalan, Instagram, TikTok, YouTube) va o'yinlar ularning hayotining ajralmas qismiga aylangan.

2. *Sotsiologik aloqa va o'zaro muloqot.* "Z" avlodi yoshlarining ko'p qismi onlayn muloqot qilishni afzal ko'radi. Yuzma-yuz muloqotdan ko'ra, ular internet orqali o'z fikrlarini ifoda etishadi va ijtimoiy tarmoqlarda o'zlarining shaxsiy hayotini ko'proq ochiq qiladi. Shuningdek, ular global hamjamiyat bilan bog'lanishga qiziqishadi, shu bilan birga o'zaro ijtimoiy aloqalar o'rtasidagi chegaralarni o'zlariga moslashtirganlar.

3. *Yuqori darajadagi individualizm va shaxsiy erkinlikka intilish.* "Z" avlodi o'zlarini individualist sifatida ko'rishga moyildir. Ular o'z fikrlariga ega bo'lishni, o'zini ifoda etishni va o'zini tanitishni xohlaydilar. Shu bilan birga, ular o'zlarining mustaqil qarorlar qabul qilish huquqini qadrlashadi va shu asosda jamiyatda o'z o'rnini topishga intilishadi.

4. *Ijtimoiy tenglik va adolatga bo'lgan talablar.* "Z" avlodi yoshlarining ijtimoiy va siyosiy qarashlari sezilarli darajada ijtimoiy tenglik va adolatga asoslanadi. Ular jinsiy tenglik, irqiy tenglik va boshqa ijtimoiy adolat masalalariga katta ahamiyat beradilar. Shu bilan birga, ular ijtimoiy masalalarga qarshi bo'lish va muammolarni hal qilishga qaratilgan xatti-harakatlarga moyildirlar. Misol uchun, "Z" avlodi yoshlarining ko'plari ekologik muammolarni hal qilish, iqlim o'zgarishi va boshqa ijtimoiy masalalarga qiziqishadi va o'zgarishlarni amalga oshirishga harakat qiladilar.

5. *O'zlikni anglash va psixologik holatlar.* "Z" avlodi yoshlarining o'zlikni anglash jarayoni zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar bilan chambarchas bog'liq. Ular ko'pincha o'zini boshqalarga taqqoslab, o'zining ijtimoiy rolini va shaxsiy qadr-qimmatini aniqlashga intilishadi. Shuningdek, onlayn dunyodagi ijtimoiy bosim, tanqidlar va o'zini taqqoslashlar ularning psixologik holatiga ta'sir qilishi mumkin. Bu yoshlarning stress, xavotir, depressiya kabi psixologik holatlar bilan bog'liq muammolarni yanada chuqurlashtirishi mumkin.

6. *Ishonch va xavfli qarorlar qabul qilish.* "Z" avlodi yoshlarining qarorlar qabul qilishda ishonchli bo'lishlari va o'zlarini tajriba qilishga tayyor bo'lishlari xususiyati ham mavjud. Ular yangi texnologiyalarni o'zlashtirishda o'zini ishonchli his qilishadi va shu orqali innovatsion yondashuvlarni qo'llashga moyil bo'lishadi. Shu bilan birga, bu avlod xavfli qarorlar qabul qilishda, masalan, o'zlarini onlayn xavf-xatarlar va kiberhujumlarga duchor qilishda ko'proq risk qilishadi.

7. *O'qish va ishlashdagi yondashuvlar.* "Z" avlodi yoshlarining o'qish va ishlashdagi yondashuvlari sezilarli darajada o'zgargan. Ular o'rganish jarayonida texnologiyalarga asoslangan, ko'proq interaktiv va mustaqil o'rganishga yo'naltirilgan metodlarni afzal ko'rishadi. O'rganishning raqamli shakllari, onlayn kurslar va masofaviy ta'lim ularning bilim olish usullarida katta o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Shuningdek, ular ko'proq mustaqil ishlashga moyil, ko'p hollarda onlayn bizneslar yaratishga yoki startaplar ochishga intilishadi. Pandemiya davrida "Z" avlodi o'zining ta'lim va ish uslublarini tezda moslashtirdi. Onlayn ta'lim va masofaviy ishlashni afzal ko'rishlari, mustaqil o'rganish va ish faoliyatini raqamli platformalar orqali tashkil etishni ko'rsatadi. Bu, shuningdek, ularga yanada ko'proq moslashuvchanlik va erkinlik beradi.

"Z" avlodi, texnologiyalar bilan ajralmas bog'langan holda, ijtimoiy va psixologik xususiyatlari nuqtai nazaridan o'ziga xosdir. Ular zamonaviy dunyoqarash va muloqot uslublarini rivojlantirgan avlod bo'lib, jamiyatdagi o'zgarishlarga tez moslashadi va yangi texnologiyalardan foydalanishni yuqori darajada o'zlashtirganlar. Biroq, bu avlodda ijtimoiy tarmoqlardagi taqqoslashlar va yuzma-yuz muloqotdagi qiyinchiliklar kabi psixologik masalalar ham mavjud. Ularning ijtimoiy o'zgarishlarga bo'lgan katta qiziqishi va global muammolarni hal qilishga intilishi, ularni kelajakda muhim ijtimoiy yetakchilar qilib tarbiyalashga imkon yaratadi.

Quyidagi 1-jadvalda "Z" avlodi, Millennials (Y avlodi), X avlodi va Baby Boomers avlodlarining ijtimoiy va psixologik xususiyatlari solishtirilgan. Har bir avlodning texnologiyalarga bo'lgan qiziqishi, ijtimoiy aloqalar, psixologik holat, shaxsiy erkinlik, ijtimoiy mas'uliyat,

kreativlik, innovatsion yondashuvlar va ta'lim hamda ish uslublaridagi farqlar tahlil qilinadi. Bu solishtirma jadval avlodlar o'rtasidagi sezilarli o'zgarishlarni va ularning jamiyatdagi roli, muloqot usullari va ijtimoiy mas'uliyatga qanday yondashishini ko'rsatadi.

1-jadval

Turli davr avlodlarining solishtirma tahlili ⁸			
Xususiyatlar	Z avlodi	Millennials (Y avlodi)	X va Baby Boomers avlodi
Texnologiyalarga qiziqish	Yuqarilangan qiziqish, raqamli dunyoda o'sgan	Texnologiyalarni kuzatib borish, ammo real dunyoda ham aloqalar o'rnatish	Texnologiyalardan foydalanish, lekin raqamli dunyoga nisbatan an'anaviy yondashuv
Ijtimoiy aloqalar va muloqot	Onlayn muloqot, yuzma-yuzdan ko'ra raqamli aloqaga moyil	Ijtimoiy tarmoqlarda faollik, lekin yuzma-yuz muloqotga ham katta ahamiyat berish	Ko'proq yuzma-yuz muloqot va an'anaviy aloqalar
Psixologik holat va stress	Stress va depressiya ko'proq, ijtimoiy tarmoqlardan taqqoslashlar ta'siri	Boshqa avlodlar bilan solishtirganda stress darajasi kamroq	Biroz past stress darajasi, an'anaviy qiymatlar
Shaxsiy erkinlik va individualizm	Shaxsiy erkinlikni qadrlash, "brand" yaratish	Mustaqillik va o'zgarishlarga ochiqlik	An'anaviy yondashuvlar, ijtimoiy normaga qat'iy rioya qilish
Ijtimoiy mas'uliyat	Ijtimoiy adolat, ekologiya, tenglik	Ijtimoiy o'zgarishlar, global muammolarga qiziqish	Ijtimoiy muammolarni kuzatish, lekin kamroq faoliyat
Kreativlik va innovatsion yondashuv	Kreativlik va yangilik yaratishga intilish	Ishda va shaxsiy hayotda innovatsiyalarni o'rganish	Innovatsiyalarni qabul qilishda ehtiyotkorlik
Ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat	O'z shaxsiyatini onlayn platformalarda namoyish etish	Ijtimoiy tarmoqlarda faol, ammo haqiqiy aloqalar muhim	Ijtimoiy tarmoqlarda kamroq faollik, lekin shaxsiy aloqalar
Ta'lim va ish uslublari	Onlayn ta'lim va masofaviy ishlashni afzal ko'rish	Ko'pincha oflayn ta'lim va ishlashni afzal ko'rish	O'qish va ish uslublarida an'anaviy yondashuv

Jadvalni tahlil qilganda, har bir avlodning o'ziga xos xususiyatlari va yondashuvlari aniq farqlanadi:

1. Texnologiyalarga qiziqish. "Z" avlodi texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar bilan yaqindan bog'langan. Ular onlayn muloqot va raqamli dunyo orqali o'z fikrlarini ifodalashga qiziqishadi. Millennials ham texnologiyalarni kuzatib boradi, lekin ular real dunyoda ham aloqalar o'rnatishga intilishadi. X avlodi va Baby Boomers esa texnologiyalardan foydalanishni bilishadi, lekin raqamli dunyoga nisbatan an'anaviy yondashadilar.
2. Ijtimoiy aloqalar va muloqot. "Z" avlodi uchun onlayn muloqot asosiy usulga aylangan, yuzma-yuz muloqot esa kamaygan. Millennials uchun ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat muhim, ammo ular yuzma-yuz aloqalarni ham qadrlashadi. X va Baby Boomers avlodlari esa an'anaviy yuzma-yuz muloqotga ko'proq ahamiyat berishadi.
3. Psixologik holat va stress. "Z" avlodi onlayn muloqotlar va taqqoslashlar tufayli stress va depressiyaga ko'proq moyil. Millennials o'zaro solishtirganda kamroq stressga ega, lekin X va Baby Boomers avlodlari ancha past stress darajasiga ega bo'lishadi va qadriyatlar asosida yashashadi.
4. Shaxsiy erkinlik va individualizm. "Z" avlodi o'z shaxsiyatini onlayn platformalarda ko'rsatishga intiladi va individualizmi qadrlaydi. Millennials ham mustaqillikni yaxshi ko'rishadi, lekin ular ijtimoiy o'zgarishlarga ochiq. X va Baby Boomers avlodlari an'anaviy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlashadi va ijtimoiy normaga qat'iy rioya qilishadi.
5. Ijtimoiy mas'uliyat. "Z" avlodi global muammolarni hal qilishga intilmoqda, masalan, ekologiya va tenglik masalalari.

Millennials ijtimoiy mas'uliyatga e'tibor qaratishadi, lekin X va Baby Boomers avlodlari bu masalalarga kamroq faoliyat ko'rsatadilar.

6. Kreativlik va innovatsion yondashuv. "Z" avlodi kreativlik va yangilik yaratishga intilishadi, texnologiyalardan foydalanish orqali yangi g'oyalar ishlab chiqadilar. Millennials va X avlodi ham innovatsiyalarni o'rganishga intilishadi, lekin Baby Boomers avlodi ehtiyotkorlik bilan yangiliklarga qarashadi.

7. Ta'lim va ish uslublari. "Z" avlodi onlayn ta'lim va masofaviy ishlashni afzal ko'radi. Millennials esa oflayn va onlayn ta'limni birlashtiradi, X va Baby Boomers esa an'anaviy ta'lim va ishlash uslublarini afzal ko'rishadi.

Umuman olganda, har bir avlodning o'ziga xos ijtimoiy va psixologik xususiyatlari mavjud. "Z" avlodi zamonaviy texnologiyalarga va innovatsion yondashuvlarga o'ta moslashgan, Millennials ancha muvozanatli va o'zgarishga ochiq, X avlodi va Baby Boomers esa an'anaviy qadriyatlar va yondashuvlarni afzal ko'rishadi.

2-jadvalda "Z" avlodining ijtimoiy va psixologik xususiyatlari foiz ko'rsatkichlari bilan aks ettirilgan. Ushbu jadvalda har bir xususiyatning foizdagi ta'siri va uning jamiyatdagi o'rni ko'rsatilgan. "Z" avlodi texnologiyalar bilan ajralmas bog'langan bo'lib, ularning raqamli dunyoga bo'lgan qiziqishi, ijtimoiy aloqalari, stress darajalari va shaxsiy erkinlikni qadrlash kabi psixologik va sotsiologik jihatlarini raqamli muhit bilan chambarchas bog'liq. Jadvalda bu xususiyatlarning jamiyatda qanday o'rin tutayotgani va bu avlodning hayot tarzini qanday shakllantirayotgani tahlil qilinadi.

2-jadval

Z avlodining sotsial va psixologik xususiyatlari ⁹		
Xususiyatlar	Foiz (%)	Tahlil
Texnologiyalarga qiziqish	95	Texnologiyalar va internetga bo'lgan yuqori qiziqish, raqamli dunyo bilan o'zaro aloqada bo'lish.

⁸ Muallif ishlanmasi

⁹ "Generation Z: A Snapshot of Today's Young People and Their Social and Psychological Characteristics" (2023)

Onlayn muloqot	90	Onlayn muloqotning ustunligi, yuzma-yuzdan ko'ra ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat ko'rsatish.
Stress va depressiya	75	Onlayn taqqoslashlar va raqamli dunyoning psixologik ta'siri tufayli stress va depressiya.
Shaxsiy erkinlik	85	Shaxsiy erkinlikni qadrlash, o'z brendini yaratishga intilish va individualizm.
Ijtimoiy mas'uliyat	80	Ijtimoiy mas'uliyat, global muammolarga qiziqish, ekologiya va tenglikka bo'lgan ishtiyoq.
Kreativlik va innovatsion yondashuv	88	Innovatsiyalarni qabul qilish, yangi texnologiyalar va kreativ yondashuvlar orqali o'zlarini namoyon etish.
Ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat	92	Ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat, o'zlikni ifoda etish va shaxsiyatni yaratishda texnologiyalardan foydalanish.
Masofaviy ta'lim va ishlash	90	Masofaviy ishlash va ta'limni afzal ko'rish, an'anaviy o'qish va ishlash usullaridan ko'ra raqamli vositalarni tanlash.

"Z" avlodi uchun texnologiyalar va internetga bo'lgan qiziqish juda yuqori. Ular raqamli dunyoda o'sib-ulg'aygan, shuning uchun texnologiya ular uchun kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan. Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "Z" avlodi yoshlarining 95% i texnologiya va internetdan faol foydalanadi.

Bu avlodning ijtimoiy aloqalari asosan onlayn platformalar orqali rivojlanmoqda. Yuzma-yuz muloqotdan ko'ra, ular ko'proq ijtimoiy tarmoqlarda, masalan, Instagram, Twitter va TikTok kabi platformalarda o'z fikrlarini ifodalashadi. Bu esa, ularning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligini 90% ga oshiradi.

Raqamli dunyoda onlayn taqqoslashlar va o'zini boshqalar bilan solishtirish ko'pincha stress va depressiya keltirib chiqaradi. Bu avlod uchun bu psixologik ta'sirlarning 75% ga yetishi kuzatilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda o'zlikni namoyon etishning yuqori darajasi, ba'zan yoshlarning psixologik holatini murakkablashtiradi.

"Z" avlodi individualizmni yuqori qadrlaydi. Ular o'z shaxsiyatlarini onlayn platformalarda namoyish etishga intilishadi va shaxsiy erkinlikni qo'llab-quvvatlaydilar. Ularning 85% o'zining shaxsiy brendini yaratishga, mustaqil ravishda o'z g'oyalarini ilgari surishga tayyor.

Bu avlod ekologiya, tenglik va ijtimoiy adolat kabi global masalalarga katta e'tibor qaratadi. "Z" avlodi yoshlarining 80% i ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni va global muammolarni hal qilishga hissa qo'shishni xohlaydi. Ular atrof-muhitni himoya qilish va tenglikni ta'minlashga qiziqishadi.

"Z" avlodi innovatsion fikrlash va kreativ yondashuvlarga o'ta moslashgan. Ular yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, kreativ g'oyalar yaratish va ularni onlayn platformalarda amalga oshirishni afzal ko'rishadi. Bu xususiyat 88% ga etadi, chunki ular yangi g'oyalarni rivojlantirishda doimo yangi texnologiyalarni qo'llashadi.

"Z" avlodi o'zini onlayn dunyoda namoyish etishga juda qiziqadi va ijtimoiy tarmoqlarda yuqori faollik ko'rsatadi. Ular 92% i ijtimoiy tarmoqlarda muntazam faoliyat yuritadi, o'z g'oyalarini va shaxsiy brendlarini keng ommaga taqdim etishadi.

"Z" avlodi ta'lim va ish joylarida masofaviy usullarga o'ta moslashgan. Pandemiya davrida bu usulni qo'llashni afzal ko'rganlar. 90% i masofaviy ta'lim va ishlashni oddiy va samarali deb hisoblashadi.

Yuqoridagi tahlil ko'rsatadiki, "Z" avlodi texnologik inqilob va ijtimoiy o'zgarishlarga tezda moslashgan. Ular raqamli dunyo bilan chambarchas bog'langan bo'lib, shu bilan birga ijtimoiy mas'uliyat, kreativlik va shaxsiy erkinlikni yuqori baholashadi. Biroq, onlayn muhitda yuzaga kelgan stress va depressiya kabi psixologik muammolar ham ularning hayotida katta rol o'ynaydi.

Xulosa va takliflar. Bugungi "Z" avlodi o'zining ijtimoiy va psixologik xususiyatlari bilan ancha farq qiladi. Raqamli texnologiyalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Prensky, M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants. On the Horizon, 9(5), 1-6.
2. Twenge, J. M. (2017). iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy—and

va onlayn muloqot ular uchun hayotning ajralmas qismiga aylangan. Bu avlodning yuqori texnologik qiziqishi, onlayn aloqalarda faolligi va shaxsiy erkinlikni qadrlashi ularning shaxsiyatini shakllantiradi. Shu bilan birga, stress va depressiya kabi psixologik muammolar, shuningdek, ijtimoiy mas'uliyat va kreativ yondashuvlar kabi ijobiy xususiyatlar ham mavjud. Ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z fikrlarini ifoda etish, o'zlikni yaratish va yangi g'oyalar ishlab chiqish "Z" avlodining eng muhim psixologik va ijtimoiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ularning masofaviy ta'lim va ishlashga bo'lgan qiziqishi, zamonaviy jamiyatning ehtiyojlariga mos keladigan yondashuvni ko'rsatadi.

Takliflar:

1. Pedagogik yondashuvni takomillashtirish. "Z" avlodining o'ziga xos o'rganish va muloqot usullarini inobatga olib, ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlarga asoslash zarur. O'qituvchilar va ta'lim muassasalari onlayn ta'lim va masofaviy ishlashni qo'llab-quvvatlashga tayyor bo'lishi kerak.
 2. Psixologik qo'llab-quvvatlash. "Z" avlodida stress va depressiya kabi psixologik muammolar ko'proq uchraydi, shuning uchun ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lgan yoshlarni psixologik qo'llab-quvvatlash va maslahat xizmatlari bilan ta'minlash kerak. Bu, ularning psixologik holatini yaxshilashga yordam beradi.
 3. Ijtimoiy mas'uliyat va ekologik ta'lim. "Z" avlodi ekologiya, tenglik va ijtimoiy adolat kabi global muammolarga qiziqishadi. Ular bilan ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ko'paytirish va ekologik ta'limni kengaytirish zarur.
 4. Innovatsion texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash. "Z" avlodi kreativlik va innovatsion yondashuvlarga qiziqadi. Shu sababli, yoshlarni yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni o'rganishga rag'batlantirish, shuningdek, ular uchun raqamli loyiha va tadbirlarga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish kerak.
 5. Ijtimoiy va psixologik ta'limni integratsiya qilish. "Z" avlodining ijtimoiy va psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun ta'lim jarayonida ijtimoiy-psixologik ta'limni integratsiya qilish zarur. Yoshlarni o'zlikni anglash, muloqot qilish va stressni boshqarish kabi ko'nikmalarga o'rgatish, ularga sog'lom va muvaffaqiyatli rivojlanishga yordam beradi.
- Umuman olganda, "Z" avlodi, zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'langan, shuning uchun ularning ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim, psixologik qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy mas'uliyatni oshirish muhimdir. Bu yondashuvlar yoshlarning jamiyatga qo'shadigan hissasini yanada kuchaytiradi va ularning kelajakda muvaffaqiyatli bo'lishlarini ta'minlaydi.

Completely Unprepared for Adulthood—and What That Means for the Rest of Us. Atria Books.

3. Seemiller, C., & Grace, M. (2016). Generation Z Goes to College. Jossey-Bass.

4. McCrindle, M. (2018). The ABC of XYZ: Understanding the Global Generations. Unpublished manuscript.
5. E.Yoziyev. (2023). O'zbekiston psixologlarining tadqiqotlarida muloqotning psixologik muammolari tahlili.
6. Majidov, J. B. (2023). Jamoalar faoliyatini samarali boshqaruvida psixologik omillarning o'rni.
7. www.stat.uz
8. "Generation Z: A Snapshot of Today's Young People and Their Social and Psychological Characteristics" (2023)



YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASH USTUVOR MASALA SIFATIDA

Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

muhabbatxontojiyeva11@gmail.com

Xolmatov Umidjon Adhamjon o'g'li

Qo'qon universiteti talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 17 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1128 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS bandlik, yoshlar, aholi, rivojlanish, omil, ma'lumot, tahlil, iqtisodiy, ijtimoiy, davlat siyosati, talab, taklif	Ushbu maqola yoshlar bandligini ta'minlashga ta'sir etuvchi asosiy omillarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, dastlab bugungi kunda mamlakatimizda bu borada olib borilayotgan siyosiy islohotlar o'rganib chiqilgan. Yoshlar bandligini ta'minlashda asosiy ijtimoiy ko'rsatkichlar sifatida respublika aholisi soni va uning tarkibida yoshlarning ulushi, aholi bandlik darajalari hamda yoshlarning bandlik darajalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida birlamchi hamda ikkilamchi ma'lumot manbalaridan foydalanilgan. Dastlab yoshlar bandligini ta'minlash borasida mamlakat rahbari va vazirliklar tomonidan chiqarilgan eng so'nggi qaror va farmonlar o'rganilgan. So'ngra, O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida O'zbekiston respublikasi aholi soni, yoshlar soni, jami aholi tarkibida yoshlarning ulushi o'zgarish tendensiyalari yillar kesimida tahlil qilingan. Shuningdek, respublikada bandlik ko'rsatkichlari, yoshlarning bandlikdagi ulushi qiyosiy tahlil qilingan. Yoshlar o'rtasida ijtimoiy so'rovnoma o'tkazilgan bo'lib, ushbu so'rovnoma orqali yoshlar bandligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, ishga joylashish jarayonida yoshlar duch kelayotgan muammolar o'rganilgan. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yoshlarning hissasi to'g'risida fikrlar hamda bandlikni rivojlantirish bo'yicha takliflar o'rganib chiqilgan. Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, dinamik tahlil va empirik tahlil usullaridan foydalanilgan bo'lib, tahlil jarayonida jadvallar va grafiklar bilan ishlashda Excel dasturi qo'llanilgan. So'rovnoma Google Forms platformasida o'tkazilgan.

Kirish. Yoshlar bandligi har bir jamiyatning barqarorligi va kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yoshlar — har qanday mamlakatning eng dinamik va energiyaga to'la qatlamidir. Ularning ish bilan ta'minlanishi nafaqat individual darajada, balki jamiyat va iqtisodiyotning umumiy holatiga ham bevosita ta'sir qiladi. Yoshlar bandligi masalasi ko'plab iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning har biri o'z navbatida iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ta'sir etadi. Shuning uchun ham har qanday mamlakatda yoshlar hamda ularning bandligiga e'tibor qaratilishi dolzarb masaladir. Yoshlar bandligining yuqori darajasi iqtisodiy o'sish va barqarorlikka erishish uchun muhimdir. Ta'lim, malaka va ko'nikmalarning zamon talablariga mos bo'lishi yoshlarning ishga joylashish imkoniyatlarini oshiradi. O'z navbatida, malakali ishchi kuchi iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Yoshlar bandligi muammolari global miqyosda dolzarb masalalardan biri bo'lib, ko'plab davlatlar yoshlarni bandlikka jalb qilish bo'yicha turli dasturlarni ishlab chiqib, amaliyotga joriy qilmoqda. Jahon Bankining ilmiy tadqiqotlar hujjatlari to'plamida yoshlar bandligi masalalariga keng qamrovli yondashuvning samaradorligi tahlil qilingan, shuningdek, talab va taklif yo'nalishidagi yondashuvlarning qiyosiy natijalari keltirilgan[10]. Taklif yondashuvlariga oid dasturlar yoshlarni ish bilan ta'minlash va bozor talablariga javob bera oladigan ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'nikmalarni rivojlantirish dasturlari, jumladan, texnik va kasbiy o'qitish va ijtimoiy ko'nikmalarni oshirish (masalan, jamoada ishlash, muloqot qobiliyati va liderlik qila olish) kabi dasturlar samarali natijalar beradi. Olimlar o'tkazgan tahlillarga ko'ra, bunday dasturlar ishtirokchilarning ish topish imkoniyatlarini oshirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ammo ularning samaradorligi dastur turi va ishtirokchilar guruhiga qarab farq qilishi mumkinligini aytib o'tilgan. Talab yondashuvlari yoshlar uchun ish joylari yaratishga qaratilgan bo'lib, bunda kichik va o'rta korxonalarni moliyalashtirish, tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirish, yangi ish joylarini yaratish uchun rag'batlantiruvchi tadbirlarni ko'plab amalga oshirish kabi targ'ibotlar mavjud.

N.O'Higgins tadqiqotida Yevropa va Markaziy Osiyoda yoshlar mehnat bozori va yoshlar bandligi siyosati o'rtasidagi o'zaro ta'sir chuqur tahlil qilingan [12]. Ushbu tadqiqotda Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi iqtisodiy o'zgarishlar va sanoat qayta qurilishi yoshlar

bandligi ko'rsatkichlariga qanday ta'sir qilgani o'rganilgan. Shuningdek, xalqaro tashabbuslar, xususan, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) va Jahon Banki tomonidan yoshlar bandligini oshirish uchun tashkil etilgan Yoshlar Bandligi Tarmog'i (YEN) kabi dasturlar Markaziy Osiyoda ham yoshlar bandligi masalalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ta'kidlangan.

T.Pettingerning tadqiqotida iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy farovonlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, hamda iqtisodiy rivojlanishga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni keng ko'rib chiqadi[13]. Maqolada muhim omillar sifatida: Infrastruktura va investitsiyalar, Siyosiy va ijtimoiy barqarorlik, Ta'lim va inson kapitali, Xalqaro savdo va globallashuvlar ko'rsatib o'tiladi. M.Dung va L.Vasilenko tadqiqot ishida iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishda qo'llaniladigan bir necha modellar o'rganiladi va har bir modelning afzalliklari, shuningdek, cheklovlari haqida ma'lumot beriladi[11]. Ushbu modellarga quyidagilarni sanab o'tilgan: O'sish modeli, Empirik modellar, Makroiqtisodiy modellar. G.Gatava maqolasi iqtisodiy o'sishga ijtimoiy omillar qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganishga bag'ishlangan[8]. Maqolada ijtimoiy omillar, jumladan, ta'lim darajasi, sog'liqni saqlash tizimi, aholining ijtimoiy farovonligi va demografik tendensiyalarning iqtisodiy o'sishga bevosita va bilvosita ta'siri yoritilgan.

Aholining ko'payishi va o'rtacha ish haqi bandlikka sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi[5]. Axmedovanning maqolasida O'zbekistonning iqtisodiy o'sishini ta'minlashda yoshlar bandligiga alohida e'tibor qaratadi. Maqolada ta'kidlanishicha, har yili mehnat bozoriga yangi mutaxassislar kirib keladi va ularni ish bilan ta'minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Maqolada yoshlar bandligiga ta'sir qiluvchi bir qancha asosiy omillar yoritilgan. Ular orasida demografik o'sish, iqtisodiy sharoitlar, sarmoyalar va eksport ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. Masalan, sarmoya kiritish yangi ish o'rinlarini yaratish orqali bandlikni oshirishga yordam beradi. Maqolada O'zbekiston sharoitida bandlik darajasini prognoz qilish uchun ARIMA modeli qo'llanilgan. A.Atakulov tadqiqot ishida yoshlar bandligini oshirish usullari, xususan, kasb-hunar ta'limi, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish va raqamli iqtisodiyotning ahamiyati ta'kidlangan[7]. Bundan tashqari kelgusi yillar uchun bir nechta bashoratlar qilingan. Jumladan 2025-yilgacha yoshlar bandligini 60% ga, raqamli xizmatlar sektorini 30% ga oshirish mumkinligi prognoz qilingan. N.Qodirova va boshqalar maqolasida O'zbekiston sharoitida bitiruvchi yoshlarning ish

bilan bandligi, mavjud muammolar va yechimlari batafsil tahlil qilingan [9]. Mualliflar yoshlarni ish bilan ta'minlash masalasining ijtimoiy va iqtisodiy jihatlariga e'tibor qaratishgan hamda qator muammolarni sanab o'tishgan, jumladan: Ishsizlikning yuqori darajasi, Mehnat bozorida nomutanosiblik, Ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar kabilar. Ushbu muammolarga yechim sifatida Kasb-hunar ta'limini rivojlantirish va tadbirkorlikni rag'batlantirish taklifini ilgari surishgan.

Iqtisodiy rivojlanish bu turli omillar ta'sirida yuzaga keladigan kompleks jarayondir [4]. Infratuzilmaga investitsiyalar, texnologik taraqqiyot, inson kapitalini rivojlantirish, moliyaviy resurslar va inklyuziya, siyosiy barqarorlik va boshqaruv, savdo siyosati va tabiiy resurslar kabi tarmoqlarning rivojlanishi umumiy iqtisodiyotning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatishini muallif ta'kidlab o'tgan. M.Boymirzayeva va M.Yusupovanning tadqiqot ishida O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi va raqamli texnologiyalar o'rtasidagi munosabatlar tahlili yoritilgan [6]. Ushbu maqolaning asosiy maqsadlari O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishi jarayonida raqamli texnologiyalarning ahamiyatini tahlil qilish, raqamli texnologiyalarning bozor rivoji, elektron tijorat, innovatsiyalar va markaziy bank islohotlariga ta'sirini o'rganish.

Yoshlar bandligi hamda mamlakat iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan dolzarb mavzular qatoriga kiradi. Quyida bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar bandligini ta'minlash maqsadida olib borilayotgan davlat siyosati hamda yoshlar bandligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarni o'rganib chiqilib tahlil qilindi, shuningdek, yoshlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma asosida yoshlar bandligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, muammolar, shuningdek, bandlikni rivojlantirish bo'yicha takliflar o'rganib chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda yoshlar bandligini ta'minlash masalasi ko'p omilli yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot uslubiy jihatdan quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Ikkilamchi manbalarni tahlil qilish: Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, tegishli vazirlik va idoralarning nizomlari orqali yoshlar bandligini ta'minlashda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, mexanizmlari va amalga oshirishdagi institutsional ishtiroki o'rganildi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish orqali davlat siyosatining maqsadi, vazifalari hamda yoshlar bandligiga ta'sir darajasi aniqlab berildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari asosida aholi soni, undagi yoshlarning ulushi, umumiy bandlik darajasi va yoshlar bandlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Ushbu ma'lumotlar yordamida yoshlar bandligi holati bo'yicha umumiy tasavvur hosil qilindi va mavjud tendensiyalar aniqlab berildi.

Birlamchi ma'lumotlar asosidagi tahlil (so'rovnoma): Tadqiqot doirasida yoshlar orasida maxsus so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada 16–30 yosh oralig'idagi ishtirokchilardan quyidagi yo'nalishlarda ma'lumotlar olindi:

- ✓ Mehnat bozorida holati (band, ishsiz, o'qiydi, o'z biznesi bor va h.k.)
- ✓ Yoshlar bandligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar
- ✓ Ish topishda duch kelayotgan muammolari
- ✓ Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan yordam va dasturlarga munosabati
- ✓ Yoshlarni iqtisodiy faollikka jalb qilish bo'yicha takliflari
- ✓ Yoshlarning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi hissasi hamda ularni ish bilan ta'minlanganlik darajasi jamiyat rivojiga qanday hissa qo'shishi to'g'risida shaxsiy fikr va munosabatlari.

So'rovnoma natijalari statistik usullar (ulushlar, diagrammalar va boshqalar) yordamida tahlil qilindi hamda yoshlarning bandlikdagi ishtiroki va duch kelayotgan muammolar aniqlandi.

Tahlil usullari: Tadqiqotda deskriptiv statistika, grafik tahlil, guruhlash usuli kabi klassik iqtisodiy-statistik metodlardan foydalanildi. Bu orqali davlat siyosatining ta'siri va ijtimoiy omillarning yoshlar bandligiga ta'siri aniqlanib, tegishli xulosalar chiqarildi.

Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining aniqligini ta'minlash, yoshlar bandligini har tomonlama o'rganish va mavjud muammolarga kompleks yondashuvni qo'llash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari. Yoshlar bandligini ta'minlash mamlakatning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy o'sishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli, O'zbekiston hukumati yoshlar bandligini oshirishga qaratilgan turli dasturlarni amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, kasbiy ta'limni rivojlantirish, kredit va grantlar ajratish kabi mexanizmlar joriy etilgan.


Ushbu bo'limda yoshlar bandligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati, uning asosiy yo'nalishlari hamda samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlarning bandligiga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy omillar, jumladan, aholi soni va uning tarkibida yoshlarning ulushi, ta'lim darajasi, mehnat bozorida bandlik va bandlikda yoshlarning ulushi ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, yoshlarning ushbu dasturlardan foydalanish darajasi va ularga bo'lgan munosabati bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma natijalari ham ko'rib chiqildi.

Davlat siyosati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi PQ-4768-son "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori orqali yoshlarga yanada keng imkoniyatlar yaratib berildi. "Yoshlar daftari" va "Temir daftar" kabi o'z kategoriyalariga ega dasturlar ishlab chiqilishi umumiy yoshlar to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish hamda har bir yosh bilan individual ishlarni olib borishga imkon beradi. Shuningdek, yoshlarni band qilish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish uchun zaruriy tavsiyalar berilgan[1].

"O'zbekiston – 2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishlarining "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish" bo'limida yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha bir qancha istiqbolli yo'nalishlar belgilab qo'yilgan [2]. Yoshlar bandligining yuqori darajasi iqtisodiy o'sish va barqarorlikka erishish uchun muhimdir. Ta'lim, malaka va ko'nikmalarning zamon talablariga mos bo'lishi yoshlarning ishga joylashish imkoniyatlarini oshiradi. O'z navbatida, malakali ishchi kuchi iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta'minlaydi.

2025- yil 14-fevral sanasida davlatimiz rahbarining yoshlar bilan ochiq muloqoti bo'lib o'tdi. Ushbu o'tkazilgan ochiq muloqotda yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qancha tashabbusli loyihalar ilgari surilgan hamda qator vazifalar belgilangan bo'lib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin:



1-rasm. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash tashabbuslari¹

Ushbu tashabbuslarga batafsil to'xtalib o'tsak:

"El-yurt umidi" jamg'armasi kvotalari ko'paytiriladi:

- ✓ Dunyoning nufuzli "Top-100" oliygohlariga milliy darajada imtihon topshirib o'qishga kirgan 35 yoshgacha bo'lganlarga uy-joy xaridi uchun 10 yil muddatga 800 million so'mgacha foizsiz ssuda ajratiladi;
- ✓ Nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida final va sovrindor bo'lganlar uchun bir martalik mukofot miqdori ikki barobar oshiriladi.
- ✓ Xorijiy oliygohlarga milliy imtihon orqali o'qishga kirganlarga "Oliy bo'g'in talabalari" davlat stipendiyasi joriy etiladi.

¹ Muallif ishlanmasi

Xorijiy tillardan imtihon topshirgan yoshlar uchun qo'shimcha imkoniyatlar

- ✓ C1 darajasiga ega bo'lgan yoshlar chet tillariga ixtisoslashgan o'quv markazlarini ochishi mumkin.
- ✓ Xususiy o'quv markazlarida xorijiy tillarni o'rganuvchi yoshlarga o'quv xarajatlarining 2 oyi qoplab beriladi.
- ✓ Ularga 120 million so'mgacha foizsiz ssuda ajratiladi.
- ✓ Qolgan 6 oylik to'lov davlat hisobidan qoplanadi.

Servis sohasida ham yoshlar uchun imkoniyatlar kengaytiriladi:

- ✓ Tadbirkorlar yosh xodimlarni ishga olib, kamida 3 million so'm oylik to'lasa, ijtimoiy soliq 1 foiz bo'ladi.
- ✓ Kreativ industriya parklari hududida barpo etilib, barcha zarur resurs va infratuzilma bilan ta'minlanadi.
- ✓ Kreativ industriya parki rezidentlariga 2030 yil yakunigacha maxsus soliq rejimi joriy etiladi.
- ✓ Bunda ijtimoiy va daromad solig'i stavkalari 50 foizga kamaytiriladi.
- ✓ Rezidentlar tovarlarini realizatsiya qilish hajmidan qat'iy nazar litsenziyalash olinmaydi.
- ✓ Majburiy to'lovlar yengillashtiriladi.
- ✓ Parklar negizida kreativ soha vakillarini o'qitadigan biznes maktablari tashkil qilinadi.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha imkoniyatlar

Ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha yoshlar uchun imtiyozli kreditlar ajratilmoqda va qo'shimcha sohalar ham rivojlantirilib yoshlar bandligini ta'minlashga e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbarining yoshlar bilan bo'lib o'tgan ochiq muloqotida asosan Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilishi va ushbu loyihaga 100 million AQSh dollari ajratilishi aytib o'tildi. Shuningdek,

- ✓ O'z-o'zini band qilgan yoshlarga banklar tomonidan 100 mln. so'mgacha bo'lgan mikroqarzlarini bir qancha imtiyozlar asosida ajratiladi;
- ✓ Kamida 20 nafar yoshlarni ish bilan ta'minlagan yosh tadbirkorlarga 7 yil muddatga 5 mlrd. so'mgacha bo'lgan imtiyozli kreditlar ajratiladi.
- ✓ Kambag'al oilaning bir nafar farzandiga ta'lim krediti foizsiz beriladi;
- ✓ Iqtidorli, bilimga chanqoq, lekin og'ir oilaviy sharoiti sababli o'qish imkoniyatiga ega bo'lmagan yoshlarni horijda o'qitish bo'yicha yangi tizim – "Yorqin kelajak" loyihasi joriy etiladi [3].

Yoshlarni band qilish dasturlari, ta'lim va malaka oshirish loyihalari, ishga joylashishni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, ijtimoiy himoya tizimlari kabi strategiyalar yoshlarning iqtisodiy faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy omillar. Yoshlar bandligi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlik va jamiyat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Aholining yosh qatlami mehnat bozoriga faol kirib borishi, ularning kasbiy malakasi va ishga joylashish imkoniyatlari ijtimoiy omillarga bevosita bog'liq.

Aholi soni va yoshlar. Ushbu diagrammada O'zbekiston Respublikasi aholisi, yoshlar soni hamda yoshlar sonining jami aholi sonining necha foizini tashkil etishi yoritib berilgan (2-rasm):



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi doimiy Aholi soni, Yoshlar soni va Yoshlar ulushi²

Aholi sonining o'sishi. 2013-yilda O'zbekiston aholisi 29 993 500 kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 36 799 800 kishiga yetgan. 11 yil ichida jami aholi soni 6 806 300 kishiga yoki taxminan 22,7% ga oshgan.

Yoshlar sonining kamayishi. 2013-yilda yoshlar soni 8 678 015 kishi bo'lgan, 2024-yilda esa bu raqam 7 712 079 kishiga tushgan. 11 yil ichida yoshlar soni 965 936 kishiga yoki taxminan 11,1% ga kamaygan.

Yoshlar ulushining pasayishi. 2013-yilda yoshlar jami aholi tarkibining 28,9% ini tashkil qilgan. 2024-yilda esa yoshlar ulushi 21% ga tushgan. Bu degani, yoshlarning jami aholidagi ulushi 7,9 foizga pasaygan.

Bandlik va yoshlar. Bandlik darajasi mehnat bozorining umumiy holati va iqtisodiy faollik darajasini ifodalaydi. Quyida 2018-2023 yillar oralig'ida respublika hududlarida bandlik darajasining dinamikasi, hududlar kesimida tahlili, shuningdek, iqtisodiyotda bandlar sonida yoshlarning ulushi hamda o'zgarish tendensiyalari ko'rib chiqiladi (1-jadval).

1-jadval. Iqtisodiyotda bandlar soni va bandlikda yoshlarning ulushi³

Yillar	Iqtisodiyotda Bandlar soni (ming kishi)	15 - 30 yoshgacha iqtisodiyotda bandlar soni (ming kishi)	Yoshlarning Umumiy bandlikdagi ulushi (%da)
2018	13273,1	4343,9	32,7
2019	13541,1	3902,3	28,8
2020	13236,4	3656,1	27,6
2021	13538,9	3731,7	27,6
2022	13706,2	3795,2	27,7
2023	14014,2	3905,7	27,9

Iqtisodiyotda bandlar sonining ortishi. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2018–2023 yillar davomida O'zbekistonda iqtisodiyotda band aholi soni doimiy ravishda o'sib borgan. 2018 yilda iqtisodiyotda band bo'lgan jami aholi soni 13 273,1 ming kishi bo'lsa, 2023 yilga kelib bu ko'rsatkich 14 014,2 ming kishiga yetgan. Bu esa 5,6% o'sish demakdir.

Yoshlar bandligining umumiy tendensiyalari. 2018 yilda 15–30 yosh oralig'idagi iqtisodiyotda band bo'lgan yoshlar soni 4 343,9 ming kishi bo'lib, umumiy bandlikdagi ulushi 32,7% ni tashkil etgan. 2019–2023 yillarda yoshlar bandligi son jihatdan o'zgarib borgan bo'lsa-da, umumiy bandlikdagi ulushi sezilarli kamaygan. Ayniqsa, 2019 yilda yoshlar bandligi 3 902,3 ming kishiga tushgan va bu yoshlarning umumiy

² Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

³ Muallif ishlanmasi

bandlikdagi ulushining 28,8% ga pasayishiga olib kelgan. 2020 yilda ushbu pasayish davom etgan va yoshlar bandligining umumiy bandlikdagi ulushi 27,6% gacha tushgan. 2021–2023 yillarda yoshlar bandligi asta-sekin ko'tarilgan bo'lsa-da, 2018 yilgi 32,7% darajaga yetmagan.


Yoshlar bandlik ulushining kamayishi. 2018 yilda har 100 nafar band kishidan 32 nafari yoshlar bo'lgan bo'lsa, 2023 yilda bu ko'rsatkich 27 nafarga tushgan. Bu yoshlar bandligining umumiy iqtisodiy o'sishga nisbatan sust rivojlanayotganini ko'rsatadi. 2020 yil pandemiya yili bo'lgani uchun yoshlar bandligi 3 656,1 ming kishiga tushib ketgan. Bu ko'rsatkich 2021 yilda biroq o'sgan bo'lsa-da, umumiy foiz o'zgarishsiz qolgan (27,6%). 2022 yilga kelib, yoshlarning iqtisodiyotdagi bandlik soni 3 795,2 ming kishiga yetgan va ulushi 27,7% ga ko'tarilgan. 2023 yilda esa 3 905,7 ming kishiga yetib, ulush 27,9% ga oshgan.

2-jadval. Demografik ko'rsatkichlar

Kategoriya	Sub-kategoriya	Respondentlar soni	Foiz (%)
Jinsi	Erkak	82	40,6
	Ayol	120	59,4
Yosh toifasi	17-19 yosh	75	36,6
	20-22 yosh	52	25,4
	23-25 yosh	20	9,8
	25 yosh va undan katta	58	28,3
Mehnat bozoridagi holati	Band	73	36,1
	Ishsiz	12	5,9
	Talaba	105	52
	O'z biznesi bor va h.k.	12	5,9

So'rovnoma asosan 30 yoshgacha bo'lganlar: 40,6% erkaklar va 59,4% ayollar qatnashishgan. Jadvaldan ko'rinib turganidek 17-19 yoshdagilar 36,6% ni tashkil qilib 75 ta ovoz bilan yuqori darajani qayd qilgan. 25 yosh va undan kattalar 58 ta ovoz bilan 28,3% ni tashkil qilgan. Undan keyin esa 52 ta ovoz bilan 25,4% da 20-22 yosh vakillari, 23-25 yosh vakillari 20 ta ovoz bilan umumiy ishtirokchilarni 9,8% ini tashkil qilishgan. Shuningdek, aksariyat so'rovnoma ishtirokchilari talaba yoshlar bo'lib ular 105 nafar yoki 52%. Ushbu ko'rsatkich yoshlar orasida ta'lim olish eng ko'p uchraydigan faoliyat turi ekanini ko'rsatadi, aytish joizki bugungi kunda talabalar o'qish bilan bir vaqtda mehnat faoliyatini ham yo'lga qo'yishni xohlashadi. Band bo'lganlar — 73 nafar yoki 36,1%. Bu guruh rasmiy yoki norasmiy tarzda doimiy ish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yoshlardan iborat. Ishsizlar — 12 nafar yoki 5,9%. Ular ayni paytda ish izlayotgan, lekin hozircha bandlik holatiga ega bo'lmagan yoshlar hisoblanadi. O'z biznesi yoki mustaqil daromad manbai borlar — 12 nafar yoki 5,9%. Bu yoshlar kichik tadbirkorlik, freelancing yoki boshqa shakllarda o'z faoliyatini olib borayotganini bildiradi.

Asosiy savollardan dastlabkisida so'rovnoma qatnashchilaridan yoshlar bandligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar haqida so'ralgan, bunda respondentlar bir nechta omillarni ko'rsatgan (3-rasm).



3-rasm. Yoshlar bandligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar

Ta'lim sifati eng ko'p — 60 nafar (30%) respondent tomonidan asosiy omil sifatida tanlangan. Bu natija shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik

So'rovnoma natijalari. Yoshlar bandligi va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish maqsadida yoshlar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Ushbu so'rovnoma orqali yoshlarning ish topishdagi asosiy qiyinchiliklari, malakali ish o'rinlariga ehtiyoj, bandlik darajasi, davlat tomonidan taqdim etilayotgan dasturlardan foydalanish holati hamda ularning mehnat bozoriga bo'lgan qarashlari o'rganildi.

So'rovnoma Google Forms platformasida tuzildi va respondentlarga ijtimoiy tarmoqlar orqali yetkazildi. So'rovnoma 200 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi, saralash natijasida tahlil uchun 202 tasi qabul qilindi. So'rovnoma asosan 17 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigitlar va qizlar qatnashishdi.

So'rovnoma jami 9 ta savoldan iborat bo'lib, dastlab respondentlarga tegishli demografik ma'lumotlar aniqlangan (2-jadval):

ishtirokchilar ta'lim tizimi darajasi va sifati yoshlarning mehnat bozorida muvaffaqiyatli ishtirok etishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblashadi. Zamonaviy va amaliy bilimlarga ega bo'lgan ta'lim tizimi mehnatga layoqatli yosh avlodni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Yoshlarning malakasi va ko'nikmalari 54 nafar (27%) respondent tomonidan muhim omil deb topilgan. Bu ko'rsatkichdan kelib chiqib aytish mumkinki, nafaqat ta'lim sifati, balki yoshlarning o'z ustida ishlashi, zamonaviy kasbiy va texnik ko'nikmalarni egallashi ham bandlik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat bozori talab va taklifi 40 nafar (20%) ovoz to'plagan. Bu esa mehnat bozorida mavjud ish o'rinlari bilan yoshlar egallagan malakalar o'rtasidagi muvofiqlik darajasining bandlikka bevosita ta'siri borligini ko'rsatadi. Demak, ta'lim va kasbga yo'naltirish tizimlari mehnat bozorining real talablariga moslashtirilishi lozim.

Iqtisodiy sharoit 35 nafar (17%) respondentlarning fikricha, bandlikka ta'sir qiluvchi omillar sirasiga kiradi. Bu omil iqtisodiyotning umumiy rivojlanish darajasi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, investitsiyalar hajmi bilan bog'liq.

Boshqa sabablar esa 13 nafar (6%) ishtirokchi tomonidan ko'rsatilgan bo'lib, bu toifadagi javoblar orasida sog'liq muammolari, ijtimoiy muhit, oilaviy holatlar kabi omillar bo'lishi mumkin.

Keyingi savol yoshlarning ish topish jarayonida duch kelayotgan asosiy muammolari to'g'risida berilgan edi, natijalar quyidagicha taqsimlangan (4-rasm):



4-rasm. Ish topish jarayonida yoshlar duch kelayotgan asosiy muammolar

Korrupsiya va tanish-bilishchilik eng ko'p — 70 nafar respondent tomonidan ko'rsatilgan (taxminan 35%). Bu ko'rsatkichdan ko'rinib turibdiki, ko'plab yoshlar adolatli tanlov va shaffof ishga qabul qilish tizimining yetishmasligi sababli o'z salohiyatlarini to'liq namoyon eta olmayapti. Bu muammo nafaqat ishsizlikka, balki ijtimoiy adolatsizlik tuyg'usiga ham olib keladi.

Ish tajribasi yetishmasligi — 42 nafar respondent (21%) tomonidan tilga olingan. Bu holat ko'plab ish beruvchilarning tajribaga ega bo'lgan xodimlarni afzal ko'rish bilan bog'liq. Oqibatda, o'qishni endi bitirgan yoshlar mos ish topishda qiyinchilikka duch kelmoqda.

Bilim yoki malaka yetishmasligi — 41 nafar respondent (20%) tomonidan muammo sifatida belgilangan. Bu esa ta'lim sifati, amaliy ko'nikmalarning yetishmasligi va yoshlarning o'z ustida ishlashga bo'lgan sust munosabatini aks ettiradi.

Mos ish o'rinlarining yo'qligi — 37 nafar respondent (18%) bu muammoni asosiy deb ko'rsatgan. Bu holat mehnat bozori va ta'lim tizimi o'rtasida nomuvofiqlik mavjudligini bildiradi — ya'ni bitiruvchilar egallagan mutaxassisliklar amalda talab qilinmayotgan bo'lishi mumkin.

Boshqa sabablar esa 12 nafar (6%) ishtirokchi tomonidan qayd etilgan. Bu turkumga shaxsiy muammolar, hududiy imkoniyatlar yetishmasligi, sog'liq bilan bog'liq muammolar va boshqa omillar kirishi mumkin.

Tadqiqot doirasida respondentlarga yo'naltirilgan: *"Sizningcha, yoshlar bandligini oshirish uchun davlat qanday chora-tadbirlarni ko'rish kerak?"* savolga berilgan javoblar quyidagicha taqsimlandi (5-rasm):


Ish o'rinlari yaratish — 41,4%. So'rovda ishtirok etganlarning katta qismi yoshlar bandligini oshirishda eng muhim omil sifatida yangi ish o'rinlari yaratishni ko'rsatgan. Bu esa mehnat bozori taklifining talabga to'liq javob bermayotganini anglatadi.

Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari — 22,7%. Respondentlarning to'rtidan biriga yaqini yoshlar o'z biznesini yo'lga qo'yish istagida ekani va bunda davlat yordamini muhim deb hisoblashini ko'rsatmoqda.

Kasbiy ta'limni rivojlantirish — 18,7%. Ushbu javob variantini tanlaganlar yoshlarning zamonaviy mehnat bozoriga mos kasb va ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlash orqali bandlik darajasini oshirish mumkin deb hisoblaydi.

Mehnat qonunchiligini yaxshilash — 12,3%. Qonunchilikning yanada shaffof va moslashuvchan bo'lishi, ayniqsa yoshlarni norasmiy bandlikdan rasmiy sektorga o'tkazishda muhim omil sifatida ko'rilmoqda.

Boshqa sabablar — 4,9%. Bu guruhga kirganlar turli individual yoki hududiy xususiyatlarga asoslangan takliflar bildirgan.



5-rasm. Yoshlar bandligini oshirish uchun zarur chora- tadbirlar

So'rovnoma qatnashchilari tomonidan yoshlarni iqtisodiy faollikka jalb qilish uchun bir qancha takliflar ilgari surilgan bo'lib, bular:

Ta'lim sifati oshirish (39,9%) - respondentlarning deyarli 40% ta'lim sifati oshirilishini yoshlarning iqtisodiy faolligi uchun eng muhim omil deb hisoblaydi. Bu shuni anglatadiki, ta'lim sifati yuqori bo'lsa, yoshlarning ishga joylashishi va mehnat bozorida muvaffaqiyatli bo'lishi osonlashadi;


Innovatsiyalar va startaplarni qo'llab-quvvatlash (28,6%) - yoshlarning qariyb 29% i tadbirkorlik va innovatsiyalarni rag'batlantirish

muhim deb hisoblaydi. Bu esa innovatsion ekotizim va startap madaniyatini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi;

Yoshlar uchun maxsus ish o'rinlari (19,7%) - respondentlarning qariyb 20% i yoshlar uchun alohida ish o'rinlari yaratilishini muhim deb hisoblaydi. Bu natija mehnat bozorida yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi;

Kredit va moliyaviy yordam dasturlari (7,9%) - bu omil boshqa variantlarga qaraganda kamroq ovoz olgan bo'lsa-da, moliyaviy qo'llab-quvvatlash tadbirkorlikni rivojlantirish va yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Boshqa sabablar (3,9%) - bu kategoriya juda oz respondent tomonidan tanlangan, bu esa yuqoridagi asosiy omillar yoshlar uchun eng dolzarb ekanini ko'rsatadi (6-rasm).



6-rasm. Yoshlarni iqtisodiy faollikka jalb qilish uchun takliflar

So'rovnomaning keyingi savollariga olingan javoblar natijasiga ko'ra, Yoshlarning ish bilan ta'minlanganlik darajasi jamiyat rivojiga qanday ta'sir ko'rsatishi masalasida respondentlarning aksariyati — 91,2 foizi bu jarayon ijobiy ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblagan. Jumladan, ular yoshlarning bandligi mamlakatda iqtisodiy o'sish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qilishini ta'kidlaganlar. Shu bilan birga, 8,8 foiz respondentlar esa mazkur holat salbiy oqibatlariga — raqobatning kuchayishi, mavjud ish o'rinlarining yetishmovchiligi kabi muammolarga olib kelishi mumkinligini bildirgan.

Yoshlarning bevosita iqtisodiy jarayonlardagi ishtirokiga berilgan baholar ham e'tiborga molik. "Hozirgi kunda yoshlarning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi hisssasi qanday?" degan savolga javoban respondentlarning 31 foizi yoshlarning hissasini yuqori deb baholagan bo'lsa, 58,1 foizi bu darajani o'rtacha deb hisoblagan. Faqatgina 9,9 foiz ishtirokchi yoshlarning iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki past darajada ekanini ta'kidlagan.

Mazkur natijalar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning bandligini ta'minlash nafaqat ularning shaxsiy farovonligini oshiradi, balki kengroq ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ularni iqtisodiyotga faol jalb etish va bu borada mavjud muammolarni bartaraf etish mamlakat barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. O'zbekiston aholisi yildan- yilga oshib bormoqda, ammo yoshlar soni kamayib ketmoqda. Yoshlar ulushining kamayishi demografik muammolarga olib kelishi, kelajakda iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga ta'sir qilishi mumkin. Demografik tendensiyalarni hisobga olib, yosh avlodni qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlari yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Tug'ilish darajasining pasayishi, migratsiya va yoshlar orasida bandlik masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2018–2023 yillar davomida yoshlar bandligi son jihatdan biroz oshgan bo'lsa ham, uning umumiy iqtisodiy bandlikdagi ulushi kamaygan. Buning asosiy sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Mehnat bozorida yoshlar uchun munosib ish o'rinlarining yetishmovchiligi;
- Ish beruvchilar tomonidan tajribali kadrlarni afzal ko'rish;
- Yoshlar orasida migratsiya darajasining oshishi;
- Kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarini bitirgan

yoshlarning darhol ish topishda qiynalishi.

Umuman olganda, iqtisodiyotning o'sishi bilan yoshlarning bandlik darajasi ham mutanosib oshib borishi lozim. Shu sababli, davlat siyosati yoshlarni mehnat bozoriga samarali jalb qilishga yanada ko'proq e'tibor qaratishi kerak.

So'rovnoma natijalari yoshlar orasida ta'lim olish hali ham asosiy faoliyat shakli ekanini ko'rsatadi. Band bo'lganlar ulushi nisbatan yuqori bo'lsa-da, mustaqil faoliyat yuritayotganlar soni anchagina kam. Bu esa davlat tomonidan yoshlarni tadbirkorlikka yo'naltirish, ularni qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha siyosatni kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi.

Yoshlar bandligi masalasida asosiy e'tibor ta'lim sifati va yoshlarning kasbiy malakasiga qaratilishi kerak. Shuningdek, mehnat bozorida real ehtiyojlar bilan ta'lim tizimini uyg'unlashtirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va qo'shimcha omillarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

Aytish mumkinki, yoshlar ish topish jarayonida eng ko'p duch keladigan muammo korrupsiya va tanish-bilishchilikka bog'liq. Bu holat tizimli islohotlar, adolatli va ochiq ishga qabul jarayonlari, hamda

yoshlar uchun teng imkoniyatlar yaratishni taqozo etadi. Shu bilan birga, tajriba o'ttirish imkoniyatlarini kengaytirish (amaliyot dasturlari, stajirovkalar), ta'lim va kasbiy malaka sifati oshirish ham muhim masalalardandir. Yoshlar bandligini oshirish uchun birinchi navbatda amaliy ish o'rinlari yaratish, tadbirkorlikni rag'batlantirish va kasbiy tayyorgarlik tizimini takomillashtirish muhim omillar sifatida ko'rilmogda. Bu esa davlat siyosatining mazkur yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratishi zarurligini anglatadi.

Tahlil natijalaridan yoshlarni iqtisodiy faollikka jalb qilish uchun ta'lim sifati oshirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash eng muhim omillar ekanini ko'rinib turibdi. Shu bilan birga, maxsus ish o'rinlari yaratish va moliyaviy yordam dasturlarini rivojlantirish ham muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori, 30.06.2020-yildagi PQ-4768-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar bilan ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 26.03.2025 yildagi PF-61-son
4. Adolatxon, M., & To'rayevich, U. A. (2024). IQTISODIY RIVOJLANISH VA UNING ASOSIY OMILLARI. *worldly knowledge confere*ns, 7(1), 32-34.
5. Ахмедова, М. (2016). Прогнозирование численности занятого населения в условиях Узбекистана с использованием математических методов. *Экономика и инновационные технологии*, (6), 270-276.
6. Boymirzayeva, M., Yusupova, M., & Yaxiyaxonova, M. (2024). O'ZBEKISTONNING IQTISODIY RIVOJLANISHIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA'SIRI. *Естественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 3(3), 27-31.
7. Baxtiyor o'g'li, A. A. (2024). O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASH ORQALI DAROMADLILIGINI OSHIRISH. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024*, 3(33), 71-76.
8. Gerri, Gatava. (2022). 8. Iqtisodiy o'sishga ijtimoiy omillarning ta'siri. doi: 10.31124/advance.19397081.v1
9. G'ayratovna, Q. N., Adhamovna, R. D., & Usmonbekovich, Y. I. (2023). BITIRUVCHI YOSHLARNING ISH BILAN BANDLIGINI TA'MINLASHDA MUAMMO VA YECHIMLAR. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(11), 103-106.
10. Datta, N., Assy, A. E., Buba, J., Johansson De Silva, S., & Watson, S. (2018). *Integrated Youth Employment Programs*.
11. Dung, Nguyen, Thi, Thu., LA, Vasilenko. (2023). 4. Iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish modellari. doi: 10.1007/978-981-99-2710-4_47
12. O'Higgins, N. (2004). *Recent Trends in Youth Labor Markets and Youth Employment Policy in Europe and Central Asia*.
13. Tejvan, Pettinger. (2022). 2. Factors Affecting Economic Development. *International Journal of Development Strategies in Humanities Management and Social Sciences*, doi: 10.48028/ijprds/ijdsms.v12.i2.08
14. Tojiyeva, M. (2024). KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILIDA EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANING QO'LLANILISHI. *University Research Base*, 268–272. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/513>
15. Tojiyeva, M. M. (2023). KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MAMLAKAT IJTIMOY-IQTISODIY HAYOTIDAGI AHAMIYATI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 126-130.
16. Tojiyeva, M. M. (2024). O'ZBEK IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH USTUVOR MASALASI SIFATIDA. *University Research Base*, 439-443.
17. Tajiyeva, M. M. (2022). SOCIO-ECONOMIC SYSTEM OF SMALL BUSINESS THEORETICAL VIEWS OF SCIENTISTS IN DEVELOPMENT. *A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 55-59.
18. O'zbekiston Respublikasiqonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz)
19. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ittifoqi (yoshlar.uz)
20. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi (stat.uz)



TADBIRKORLIKDA INNOVATSION MUHIT DASTURLARINING STRATEGIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH

Xudayberdiyev Otabek Absalomovich

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

"Iqtisodiyot" kafedrası assistenti

e-mail: khudayberdiyevotabek@umail.uz

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil

Jurnal soni: 14

Maqola raqami: 18

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1129>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

Tadbirkorlik, innovatsion muhit, strategik boshqaruv, raqamli transformatsiya, ilmiy-tadqiqot, investitsiyalar.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tadbirkorlikda innovatsion muhit dasturlarining strategik tizimini takomillashtirish orqali samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish masalasi tahlil qilingan. Innovatsion muhitning asosiy tarkibiy qismlari, jumladan, texnologik infratuzilma, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari, investitsion muhit hamda raqamli transformatsiyaning tadbirkorlik subyektlari samaradorligiga ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, maqolada innovatsion dasturlarni rivojlantirish bo'yicha strategik yo'nalishlar, jumladan, tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish, moliyalashtirish mexanizmlarini diversifikatsiya qilish, raqamli innovatsiyalarni joriy etish hamda kadrlar salohiyatini oshirish muhim jihatlari yoritildi. Tadqiqot natijalari innovatsion dasturlarni samarali boshqarish orqali tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish hamda iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Kirish. Zamonaviy bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonining muhim xususiyatlaridan biri mamlakatda tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyat bilan faol shug'ullanishidir. Ushbu faoliyatni samarali tashkil etish va tadbirkorlikda qulay innovatsion muhitni shakllantirish zarurati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" hamda "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar" haqidagi qarorlarida belgilangan.

"O'zbekiston-2030" strategiyasida 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari bandida O'zbekiston Global Innovatsion Indeksda Top-50 talik mamlakatlar ro'yxatiga kirishini ta'minlash, ichki va tashqi bozorlarda tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan yangi innovatsion ishlanmalar sonini 2 baravarga oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarining "drayver" yo'nalishlarida 850 turdagi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish belgilangan. Shu o'rinda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati aynan "drayver" yo'nalishlaridan biri xisoblanadi.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati zamonaviy aqlli texnologiyalar, jumladan robototexnika, sun'iy intellekt, virtual stilistlar, onlayn chakana savdo platformalari hamda yangi raqamli texnologiyalar integratsiyasi orqali tubdan o'zgargan asosiy iqtisodiy tarmoqlardan biriga aylandi. Sun'iy intellekt moda tendensiyalarini bashorat qilish, iste'molchilarning xatti-harakatlari hamda bozor talablari haqida ma'lumot to'plashda yuqori darajadagi aniqlik va tezlikni ta'minlaydi. Kiyim dizaynini intellektuallashtirish esa generativ dizayn algoritmlari asosida yangi modellarni ishlab chiqish orqali dizaynerlarning vaqtini tejaydi. Shuningdek, robototexnika mahsulot oqimini avtomatlashtirish va optimallashtirish orqali ishlab chiqarish jarayonlaridagi operatsion xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishi hamda jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'minlash jarayonida innovatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmani rivojlantirish va ularning samarali faoliyat yuritish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar hajmi tobora ortib bormoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda innovatsion infratuzilmani shakllantirish va takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ko'plab iqtisodchi-olimlarning innovatsiya va innovatsion faoliyatning mohiyatiga oid ilmiy yondashuvlari mavjud. Xususan,

ushbu masalalar Y. Shumpeter, P. Druker, S. Kuznets, G. Mintsberg, Chiung-Wen Hsu, Lela Bakhtadze, Salome Danelia kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan.

Shuningdek, MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham innovatsion muhit metodologiyasi keng tadqiq etilgan bo'lib, bu boradagi ilmiy izlanishlar D. Kotov, V. Medvedev, B. Startseva, S. Novikov, A. Karasev va S. Tixonov kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari orqali o'z aksini topgan.

Tadbirkorlikning innovatsion faoliyatini baholash metodologiyasi hamda raqamli iqtisodiyot sohasidagi amaliy va nazariy ishlanmalar I. Yepifanova, S. Alekseeva, I. Volkov, B. Castela, M. Veselovskiy kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan.

O'zbekistonda tadbirkorlikning innovatsion rivojlanishini baholash va tahlil qilishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar esa R. Rashidov, Sh. Kambarova, E. Alieva, Sh. Otamurodov, M. Ashurov, M. Farmonova va Sh. Usmonovlarning ilmiy ishlari o'z aksini topgan.


Tadqiqot metodologiyasi. Amerikaning Auburn Universiteti tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalar zamonaviy moda sanoati va jahon savdosining ajralmas qismiga aylanib, ko'plab an'anaviy yondashuvlarni yo'q qilmoqda hamda dizaynerlar, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar paradigmasini tubdan o'zgartirmoqda. To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida kuzatilayotgan eng muhim tendensiyalardan biri bu kiyim-kechak ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashdir¹. Jumladan, 3D printerda bosib chiqarish sohasidagi yutuqlar, muhandislik va texnologik tajribalarning uyg'unligi, shuningdek, avtomatlashtirilgan raqamli dizayn texnologiyalarini keng joriy etish ushbu sanoatni rivojlantirishda asosiy omillar sifatida qaralmoqda.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati zamonaviy aqlli texnologiyalar, jumladan robototexnika, sun'iy intellekt, virtual stilistlar, onlayn chakana savdo platformalari hamda yangi raqamli texnologiyalar integratsiyasi orqali tubdan o'zgargan asosiy iqtisodiy tarmoqlardan biriga aylandi. Sun'iy intellekt moda tendensiyalarini bashorat qilish, iste'molchilarning xatti-harakatlari hamda bozor talablari haqida ma'lumot to'plashda yuqori darajadagi aniqlik va tezlikni ta'minlaydi². Kiyim dizaynini intellektuallashtirish esa generativ dizayn algoritmlari asosida yangi modellarni ishlab chiqish orqali dizaynerlarning vaqtini tejaydi. Shuningdek, robototexnika mahsulot oqimini avtomatlashtirish va optimallashtirish orqali ishlab chiqarish jarayonlaridagi operatsion xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi³.

¹ Danelia, S., & Bakhtadze, L. (2022). Factors affecting the innovation economics and position of Georgia in the global innovation index. *Globalization and Business*, 7(13), 115-120.

² Pan W., Xie T., Wang Z., Ma L. (2022) Digital economy: An innovation driver for total factor productivity. *Journal of business research*. 02.01, 1;139:303-11.

³ Zhang J., Lyu Y., Li Y., Geng Y. (2022) Digital economy: An innovation driving factor for low-carbon development. *Environmental Impact Assessment Review*. 01.09;96:106821.




1 rasm. Kengaytirilgan, funksional imkoniyatlarga ega, virtual kiyim-kechak dizaynlari yaratish modeli

Mutaxassis va intellektual texnologiyalardan foydalanish imkoniyati bilan ishlab chiqarishni eskiz, konfiguratsiya, loyihalash va texnologik tayyorlash jarayonlari uchun modullarni o'z ichiga olgan "kompyuter yordamida kiyim-kechak loyihalash tizimlari"ni intellektuallashtirishning umumlashtirilgan modeli ishlab chiqilgan (1-rasm), tizimning tegishli submodullarida to'plangan iste'molchilarning turli guruhlarining afzalliklari va kutishlari, haqidagi "katta hajmdagi ma'lumotlar"ni intellektual tahlil qilish texnologiyalari takomillashtirilgan. 1-rasmda keltirilgan ijodiy faoliyatni amaliyotdagi o'rnini yuksaltirish va yuqori raqobatbardosh kiyimlarni ishlab chiqishga qaratilgan, kengaytirilgan, funksional imkoniyatlarga ega, virtual kiyim-kechak dizaynlari yaratish modeli taklif etildi.

Yuqoridagi tahlillar kiyim-kechak dizayni va sanoat ishlab chiqarishida avtomatlashtirish, raqamlashtirish hamda intellektualizatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligini ko'rsatadi. Intellektualizatsiyaning ayrim elementlari allaqachon avtomatlashtirilgan kiyim-kechak dizayni tizimining alohida submodullarida qo'llanilayotgan bo'lsa-da, kiyimni loyihalash va ishlab

chiqarish jarayonlarini global miqyosda intellektuallashtirish muammosi hali ilmiy doiralarda yetarli darajada o'rganilmagan. Ushbu yo'nalishdagi mavjud muammolarni hisobga olgan holda, tikuv-trikotaj sanoati mahsulotlarining virtual dizaynini intellektuallashtirish bo'yicha ilmiy konsepsiyani taklif etdik. Dizayn ob'ektini tavsiflashda tavsiya etilgan parametrik yondashuv ommaviy ishlab chiqarishda kompyuter yordamida loyihalash tizimlarining texnikasi va usullaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Kognitiv usullarni qo'llash mijozlarning aniq va yashirin ehtiyojlarini o'z vaqtida aniqlash hamda mijoz talablari asosida moslashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Har bir ishlab chiqarilgan mahsulotni tavsiflovchi parametrlar guruhlarini shakllantirishda asosiy omil bu mijozlarning aniqlangan ehtiyojlari va ularni qondirishga yordam beradigan funksional imkoniyatlarni tahlil qilishdir. Kelgusidagi ehtiyojlarni aniqlashda sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalanish turli iste'molchi guruhlarining internetda aks etgan afzalliklari va umidlari haqidagi katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishga asoslanadi.



Tadqiqot natijalari. Korxonalarda qulay innovatsion muhitni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida innovatsion faoliyatni jadallashtirishga ko'maklashuvchi shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan aniq yo'nalishlar va tadbirlarni belgilash imkonini beruvchi dasturni ishlab chiqish zarur⁴. Dastur belgilangan maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladigan rejalashtirilgan voqealar, tadbirlar va harakatlarning tavsifidan iborat.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda korxonalar uchun qulay innovatsion muhitni shakllantirish va rivojlantirish dasturini amalga oshirish asosida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tadbirlar majmuasi shakllantirildi:

1) moliyaviy-iqtisodiy soha:

- korxonalarda innovatsion loyihalar uchun moliyaviy yordamni qo'llab-quvvatlash;
- turli mintaqalarda innovatsion faoliyatni amalga oshirishga mo'ljallangan investitsion platformalarni rivojlantirish;
- Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlaydigan va unga ko'maklashadigan fondlar, shuningdek, venchur va investitsiya fondlarining yangi yo'nalishlarini yaratish va mavjudlarini kengaytirish.

2) Inson resurslari sohasi:

- mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini qayta qurish. Yangi tizim innovatsiyalar sohasidagi o'ziga xos kompetensiyalarni rivojlantirishga, shuningdek, talabalarda ijodiy salohiyat va innovatsion tafakkurni rag'batlantirishga urg'u berishi kerak;

- bakalavrlar, magistrlar va ilmiy tadqiqotchilarni hudud korxonalaridagi ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilishni tashkil etish. Viloyatlarda ko'rgazmalar, yarmarkalar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, innovatsion vorkshoplar, tanlovlar, forumlar va biznes o'yinlarini muntazam o'tkazish. Talabalar va ilmiy tadqiqotchilar ishtirokida innovatsion korxonalar tashkil etish;

- o'rta va oliy ta'lim muassasalarni yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatining istiqbolli yo'nalishlariga jalb etish;

- universitetlarda talabalar va o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga jalb etish maqsadida innovatsion markazlarni tashkil etish va rivojlantirish..

3) moddiy-texnik yo'nalishi:

- yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarga yo'naltirilgan hududiy klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish, uni ishga tushirish uchun kraudsorsing, innovatsiyalarni boshqarish texnologiyalari, korxonalar tomonidan universitetlar bilan birgalikda kompleks loyihalarni amalga oshirish kabi vositalardan foydalanish zarur;

- innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, shuningdek, amaldagi biznes-inkubatorlar, texnoparklar, industrial parklar va texnologiyalar hamda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlarini yaratish va takomillashtirish orqali;

- innovatsion faoliyatning dastlabki bosqichini qo'llab-quvvatlash uchun korxonalar joylashgan hududlarda ilmiy-tadqiqot tashkilotlarini yaratish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega;

⁴ Li R, Rao J, Wan L. (2022) The digital economy, enterprise digital transformation, and enterprise innovation. Managerial and Decision Economics. 43(7):2875-86.

- yangi tashabbuslarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun innovatsiyalarni tijoratlashtirish markazlarini tashkil etish talab etiladi;
- yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chikaruvchi korxonalar faoliyatining istiqbolli yo'nalishlariga yo'naltirilgan biznes-inkubatorlarni shakllantirish;

- turli tuman va hududlarda joylashgan korxonalarni birlashtirish imkonini beruvchi, innovatsion xatarlarni kamaytiradigan, doimiy tadqiqotlar uchun axborot bazasini shakllantiradigan tarmoq innovatsion komplekslarni yaratish.

4) normativ-huquqiy soha:

- innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat yordamini subsidiyalar, grantlar va soliq imtiyozlarini taqdim etish orqali rivojlantirish. Korxonalar tomonidan innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yer maydonlarini ajratishda ma'muriy to'siqlarni kamaytirish;

- innovatsion mahsulotlar uchun raqobatbardosh bozorni shakllantirish. Innovatsion mahsulotlarni ilgari surish maqsadida korxonalar uchun mintaqaviy, milliy, xalqaro bozorlarga chiqish uchun teng sharoit yaratish.

5) axborot yo'nalishi:

- Innovatsion muhit doirasida ilmiy va ishlab chiqarish sohalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni optimallashtirish. Bu maqsadga erishish uchun innovatsion infratuzilmaning axborot guruhi elementlaridan foydalanish mumkin, masalan, ilmiy-texnik xizmatlar taklif qiladigan konsalting markazlari. Ushbu markazlar biznes jarayonlari va innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va joriy etish bilan bog'liq xizmatlarni taqdim etib, innovatsion kompaniyalarning tashkil etilishi va rivojlanishiga ko'mak beradi;

- turli fanlar kesishuvida tadqiqotlarni faollashtirish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Danelia, S., & Bakhtadze, L. (2022). Factors affecting the innovation economics and position of georgia in the global innovation index. *Globalization and Business*, 7(13), 115-120.

2. Pan W, Xie T, Wang Z, Ma L. (2022) Digital economy: An innovation driver for total factor productivity. *Journal of business research*. 02.01, 1;139:303-11.

3. Zhang J, Lyu Y, Li Y, Geng Y. (2022) Digital economy: An innovation driving factor for low-carbon development. *Environmental Impact Assessment Review*. 01.09;96:106821.

- korxonaning erishilgan yutuqlari to'g'risida ishchi-xodimlarga faol ravishda xabardor qilish;

- innovatsion loyihalar va korxonaning innovatsion faoliyatini yoritishga bag'ishlangan axborot portallari uchun veb-saytlarni yaratish va ularni takomillashtirish.

6) ekologik yo'nalish:

- atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan suv resurslaridan oqilona foydalanish loyihalari, bioresurslarni o'rganish markazlarini tashkil etish va biznesda ekologik madaniyatini oshirish.

Xulosa. Tadbirkorlikda innovatsion muhit dasturlarining strategik tizimini takomillashtirish bozor raqobatbardoshligini oshirish, korxonalar samaradorligini yaxshilash va iqtisodiy o'sishni jadallashtirish uchun muhim omildir. Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, investitsion qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali tadbirkorlik subyektlarining innovatsion salohiyati sezilarli darajada oshadi⁵. Shu sababli, davlat va xususiy sektor hamkorligida innovatsion dasturlarni strategik rejalashtirish va samarali boshqarish bugungi iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish texnologiyalaridan foydalanish yangi istiqbolli yo'nalishlarni ochib beradi⁶. Ijodiy faoliyatni faollashtirish va intellektual texnologiyalar orqali yuqori raqobatbardosh kiyimlarni ishlab chiqarishga qaratilgan virtual kiyim dizayni ishlab chiqarishning ilmiy konsepsiyasi orqali korxona samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish mumkin⁷. Bu yondashuv eng muvaffaqiyatli dizayn va texnologik yechimlarni hamda ilm-fan va texnika yutuqlarini jamlash orqali tamomila yangi va zamonaviy mahsulotlarni yaratish imkoniyatini beradi.

4. Li R, Rao J, Wan L. (2022) The digital economy, enterprise digital transformation, and enterprise innovation. *Managerial and Decision Economics*. 43(7):2875-86.

5. Li G, Wei W. (2021) Financial development, openness, innovation, carbon emissions, and economic growth in China. *Energy Economics*. 05.1;97:105194.

6. Rikap C. (2021) Capitalism, power and innovation: Intellectual monopoly capitalism uncovered. Routledge.

7. Mubarik MS, Shahbaz M, Abbas Q. (2022) Human capital, innovation and disruptive digital technology: A multidimensional perspective. Routledge; 09.23.

⁵ S. Li G, Wei W. (2021) Financial development, openness, innovation, carbon emissions, and economic growth in China. *Energy Economics*. 05.1;97:105194.

⁶ Rikap C. (2021) Capitalism, power and innovation: Intellectual monopoly capitalism uncovered. Routledge.

⁷ Mubarik MS, Shahbaz M, Abbas Q. (2022) Human capital, innovation and disruptive digital technology: A multidimensional perspective. Routledge; 09.23.



HUDUDLARDA KICHIK BIZNES SOHASI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINING IFODALAOVCHI EKONOMETRIK MODELLARNI TUZISH VA ULARNI KOMPLEKS BAHOLASH

Xushvaqova Durdona Islom qizi

ISFT Instituti "Iqtisodiyot va kompyuter injiniring"

kafedra katta o'qituvchisi

E-mail: durdonaxushvaqova0@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 19 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1130	
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	
kichik biznes, hududiy rivojlanish, ekonometrik modellar, regressiya tahlili, statistika, kompleks baholash, iqtisodiy ko'rsatkichlar, tahliliy indeks, omillar tahlili, hududlararo solishtirma tahlil	Ushbu ilmiy tadqiqotda hududlar kesimida kichik biznesning rivojlanish jarayonlarini statistik jihatdan chuqur tahlil qilish, mavjud tendensiyalarni aniqlash va ular asosida ekonometrik modellarni ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqilgan. Asosiy e'tibor O'zbekistonning turli viloyatlarida kichik biznes faoliyatining o'sish sur'atlari, ularning tarkibiy ko'rsatkichlari (yangi tashkil etilgan subyektlar soni, bandlik darajasi, yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi va h.k.) hamda iqtisodiy omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot davomida korrelyatsion va regressiyaviy tahlil usullari qo'llanilib, kichik biznesga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar (soliq yengilliklari, kredit resurslariga kirish, infratuzilma darajasi va boshqalar) aniqlab berildi. Ekonometrik modellash orqali bu omillar ta'sirining miqdoriy bahosi aniqlandi va hududiy farqlarning sabablari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, kichik biznesni hududlar darajasida kompleks baholash indeksi shakllantirildi. Ushbu indeks yordamida hududlar o'rtasida solishtirma tahlil o'tkazilib, rivojlanishning asosi omillari hamda muammoli nuqtalari aniqlandi. Shuningdek, iqtisodiy siyosatni takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kirish. Jahon tajribasida tadbirkorlik, xususan, kichik biznes faoliyati milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi va iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolarni hal qilishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Xalqaro Valyuta Jam'armasi hisoboti bo'yicha: Bugungi kunda dunyo bo'yicha korxonalarning 90,0 foizi kichik va o'rta biznesga tegishli bo'lib, ular dunyo aholisining 63,0 foizini ish bilan ta'minlaydi. Yevropa Ittifoqida esa, barcha moliyaviy bo'lmagan korxonalarning 99,8 foizi kichik va o'rta biznesni tashkil etib, umumiy ishchi kuchining uchdan ikki qismini ish bilan ta'minlaydi.

Jahon iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, ularning samaradorligini oshirish, mahalliy darajada qulay biznes muhitini yaratish, ularning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini mustahkamlash hamda bandlik va daromad darajasini oshirish uchun ularning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy jihatlarini va uslubiy asoslari xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular orasida J.B. Sey, A. Smit, A. Marshall, J. Shumpeter, J. Keyns, R. Hisrich, M. Peters, F. Hayek, M. Lapusta, Yu. Starostin, K. McConnell, S. Brue va boshqalar alohida ajralib turadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida esa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tadqiq etish va ekonometrik modellash bo'yicha V.M. Vlasova, A. Rayskiy, A. Shestakov, N.E. Yegorova, V.M. Savchenko, V.M. Shepelov, M.A. Fedotova kabi tadqiqotchilar faoliyat olib borganlar.

O'zbekistonda esa, kichik biznes va tadbirkorlikning umumiy masalalari, statistik modellash va bashorat qilish bo'yicha mahalliy olimlar S.S. G'ulyamov, B.Yu. Xodiev, B.A. Begalov, T.Sh. Shodiev, Yo. Abdullayev, R.X. Alimov, B.K. G'oyibnazarov, M.R. Boltaboyev, O. Kenjaboyev, O. Rihsimboyev, A.B. Yugaev, I.O. Ulashayev, N.K. Murodova, N.B. Ashurova va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqot natijalari. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va raqobat sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ilmiy jihatdan tadqiq etishda, avvalo, makroiqtisodiy va hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni statistik tahlil qilish, ularning yillar bo'yicha dinamikasini o'rganish va mazkur yillardagi o'zgarishlarga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, ta'sir darajasini statistik baholash asosida ularning ijobiy ta'sirlarini kuchaytirish va aksincha salbiy ta'sirlarini kamaytirishga e'tibor qaratiladi. Boshqacha aytganda, ma'lumotlarning asosiy statistikasi

(descriptive statistics), ya'ni ko'rsatkich va xususiyatlarini o'rganish lozim.

Shuni inobatga olgan holda biz tadqiqotimizning oldingi boblarida Navoiy viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ifodalovchi bir qator dinamik ko'rsatkichlarining statistik tahlilini amalga oshirgan holda rivojlanish tendensiyalari hamda ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar baholab o'tishga harakat qildik. Bunda asosiy e'tibor dastlab iqtisodiy ko'rsatkichlarning yillar bo'yicha dinamikasini statistik o'rganishga, keyinchalik esa mazkur ko'rsatkichlarni tashkil qiluvchi tarkibiy qismlaridagi tendensiyasini aniqlashga qaratildi. Buning natijasida ular o'rtasida umumiylik mavjudligiga qarab, ularning o'zaro ta'siri qanchalik past yoki kuchli ekanligi aniqlandi.

Amalga oshirilgan statistik tahlillar natijalari Navoiy viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi o'zgarishi, ular o'rtasidagi bog'liqliklar to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotimizning mazkur qismida olingan natija va xulosalarga asoslanib, Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ekonometrik modellarini ishlab chiqqan holda kelgusi yillar statistik prognozini amalga oshirish maqsad qilib belgilab olindi.

Kichik biznes jarayonlarini modellash bu sohada olib borilayotgan tadqiqotlarda doimo muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Kichik biznes jarayonini yuzaga kelishi va uni rivojlanishi ko'plab omillarga, o'zgaruvchilarga bog'liq bo'lib, u murakkab tizim sifatida qaraladi: ilmiy tadqiqotlarda bu kabi tizimlar tizimli yondashuv asosida tadqiq qilinadi, ya'ni tizimli tahlil va sintez usullari asosida o'rganiladi.

Iqtisodiyotda bunday murakkab tizimlar ko'p omilli korrelyatsion-regression tahlilga asoslanib, tuziladigan ekonometrik modellar yordamida modellashiriladi.

Kichik biznes sohasini iqtisodiy rivojlanish jarayonini mamlakat miqyosidami, tarmoq va sohalar miqyosidami yoki MHT institutsional sektorlarida tadqiq qilishda unga ta'sir qiluvchi omillar to'plami e'tiborga olinadi. Shu sababli tadqiqot qaysi darajada bo'lmagan uning ekonometrik modeli ko'p omilli regressiyasiga asoslanib tuziladi. Ana shunga asoslanib, hududlar yoki milliy iqtisodiyotda kichik biznes sohasini rivojlanish jarayonini ekonometrik modellash uchun ko'p omilli regression ekonometrik modellarni tuzish nazariyasidan foydalanish taklif etiladi.

Korrelyatsion-regression tahlil nazariyasiga asosan kichik biznes sohasining iqtisodiy rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar natijaviy va omil ko'rsatkichlarga ajratib olinadi.

Tahlil qilinayotgan iqtisodiy jarayonda kichik biznes sohasini yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi ko'rsatkichi –natijaviy ko'rsatkich (belgi) va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi tarmoq, soha hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlardagi biznesni ulushi omil ko'rsatkichlar (belgilar) deb olinadi. Omil ko'rsatkichlarning soni kichik biznes yurituvchi sub'ektlarning soniga tengligi e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushini shakllanishini akslantiruvchi ko'p omilli regressiya tenglamasini umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'lsa:

$$Y = a + b_1y_1 + b_2y_2 + \dots + b_ny_n + \varepsilon \quad (3.1)$$

Tanlab olingan omillarni e'tiborga olgan holda ushbu tenglama quyidagicha ifodalanadi:

$$\hat{Y}_x = a + b_1y_1 + b_2y_2 + \dots + b_ny_n + \varepsilon, \quad (3.2)$$

ushbu tenglamada omillarni saralash natijasida ikkinchi darajali omillar chiqarib tashlangan bo'lsa $i > i'$ bo'ladi, agar qo'shimcha omil kiritilgan bo'lsa $i < i'$ bo'ladi. Bu tenglamada y_i – tarmoqdagi kichik biznesning ulushi, $b_1, b_2, \dots, b_n$ – regressiya koeffitsientlari. Ular mos ravishda har bir tarmoqda kichik biznes sohasidan tushgan tushum miqdori bir birlikka o'zgarganda, boshqa tarmoqlarda kichik biznes tushumlari miqdori o'zgarmagan holda, umumiy biznes miqdorini qanchaga o'zgarishini bildiradi. a parametr esa umumiy biznes miqdorida hali e'tiborga olinmagan tarmoqlardagi biznesning ulushiga teng. ε – yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan tasodifiy xatolik.

Tenglama parametrlarining qiymatlari tenglamalar sistemasini yechishda foydalanadigan “eng kichik kvadratlar usuli”ni qo'llab yoki Excel, Stata, Eviews10 dasturiy mahsulotining maxsus “Regressiya” buyrug'i yoki boshqa dasturiy mahsulotlar yordamida aniqlanadi.

Hisob-kitoblarni barchaga qulay bo'lishi uchun regressiya tenglamasini tuzish, tuzilgan tenglama va uning parametrlarini statistik ahamiyatligini baholashda Excel, Stata, Eviews10 dasturiy mahsulotidan foydalanilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Ekonometrik modellashirishning navbatdagi masalasi tuzilgan regressiya tenglamasini muhimligi va uning parametrlarini statistik ahamiyatligini baholashdan iborat.

Tuzilgan ko'p omilli regressiya tenglamasining muhimligi Fisherning F –mezoni yordamida baholanadi.

$$F = \frac{D_{\text{hajk}}}{D_{\text{koln}}} = \frac{R^2}{1-R^2} \cdot \frac{n-m-1}{m}, \quad (3.3)$$

bu yerda: D_{hajk} – omilning bir erkinlik darajasi bo'yicha kvadratlar yig'indisi, $\sum(\hat{y}_i - \bar{y})^2$;

D_{koln} – qoldiqning bir erkinlik darajasi bo'yicha kvadratlar yig'indisi, $\sum(y_i - \hat{y}_i)^2$;

R^2 – ko'p omilli determinatsiya koeffitsienti;

m – mustaqil o'zgaruvchilar soni;

n – kuzatuvlar soni.

Fisherning F –mezoni asosan F ning yuqoridagi formula bilan hisoblangan qiymatining jadval qiymatidan katta bo'lsa, ya'ni $F_{\text{hajk}} > F_{\text{jad}}$ shartni bajarilsa regressiya tenglamasi statistik ahamiyatga ega bo'ladi.

Ko'p omilli regressiyada nafaqat regressiya tenglamasining statistik ahamiyatligi, balki regressiya modeliga kiritilgan har bir omilning muhimligi baholanadi.

Umumiy holda x_i omilning xususiy F -mezoni quyidagicha aniqlanadi,

$$F_{x_i} = \frac{R^2_{y_{x_1 \dots x_i \dots x_p}} - R^2_{y_{x_1 \dots x_{i-1} x_{i+1} \dots x_p}}}{1 - R^2_{y_{x_1 x_2 \dots x_i \dots x_p}}} \cdot \frac{n-m-1}{1}. \quad (3.4)$$

Ularning har biri jadvaldagi qiymatlari bilan taqqoslanib, statistik ahamiyatligi baholanadi va har bir omilni modelga kiritish ketma-ketligi masalasi yechiladi.

Ko'p omilli regressiyada xususiy regressiya koeffitsientining muhimligini Student F –mezoni bilan baholashda har bir omil uchun quyidagi formula qo'llaniladi:

$$t_{b_i} = \sqrt{F_{x_i}}, \quad (3.5)$$

bu yerda F_{x_i} – omilning xususiy F -mezoni.

Agar t_{b_i} ning haqiqiy qiymati uning jadval qiymatidan katta bo'lsa, α omil statistik ahamiyatli deyiladi va regressiya tenglamasi prognoz masalasini yechishga tavsiya etiladi.

Ushbu tadqiqotimizda Navoiy viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlanishini ekonometrik modelini tuzish uchun omil belgilarni quyidagicha belgilab olamiz:

Y – kichik biznes sohasining Navoiy viloyati YaHM dagi ulushi;

X_1 – kichik biznesning sanoatdagi ulushi;

X_2 – kichik biznesning savdodagi ulushi;

X_3 – kichik biznes sohasida band bo'lganlarning ulushi;

X_4 – kichik biznesning qishloq xo'jaligidagi ulushi;

X_5 – kichik biznesning xizmatlar sohasidagi ulushi.

Navoiy viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini tahlil qilish maqsadida yalpi hududiy mahsulot ulushida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushini, sanoatda, qurilishda, qishloq xo'jaligi, savdo, xizmatlar sohasi va bandlikdagi ulushlarini 2000-2023 yillar oralig'idagi ko'rsatkichlarini ekonometrik modellar asosida tahlil qilib, ularning prognoz variantlarini ishlab chiqamiz.

1-jadval

Navoiy viloyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning 2000-2023 yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlar tarkibidagi ulushi (foizda)

Yil	YaX'Mda	Sanoatda	Savdoda	Qishloq xo'jaligida	Xizmatlar soxasida
2015	40,5	19,4	87,1	98,0	60,2
2016	41,8	20,8	89,6	98,6	63,2
2017	41,0	19,4	88,4	98,5	58,3
2018	41,0	16,8	86,3	98,3	56
2019	31,3	8,4	83,6	97,9	53,2
2020	25,4	6,5	82,3	96,7	51,8
2021	27,1	6,6	82,3	96	51,8
2022	25,9	7,2	82,4	96,1	52,8
2023	26,0	7,7	83,1	96,8	53,1

3.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Navoiy viloyati yalpi xududiy mahsuloti tarkibida kichik biznes soxasi ulushi 2021 yilda 46,8 % ga teng bo'lib, bu so'nggi yigirma yil ichidagi maksimum qiymat emas, 2016 yilda xududiy mahsulot tarkibida kichik biznes soxasi ulushi eng maksimum bo'lgan, ya'ni 67,9 % foizni tashkil etgan.

Xulosa va takliflar. Hisobot davrida viloyatdagi kichik tadbirkorlikning barcha sohalarida investitsiyalarning o'rtacha daromadligi bazaviy davrga nisbatan 2,1 baravarga oshdi. Ushbu o'sishga asosan Zarafshon shahri hamda Konimex va Nurota tumanlaridagi investitsiyalarning daromadligidagi sezilarli o'sish sabab bo'ldi. Og'irlashtirilgan o'rtacha ko'rsatkichlar natijalariga ko'ra, Navoiy shahri, Karmana va Xatirchi tumanlari ko'rsatkichlarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik sohasida 2022-yilda Navoiy viloyati shaharlari va tumanlarida investitsiyalarning mutlaq hajmi 2010-yilga nisbatan 826,534 milliard so'mga oshdi. Xususan, kichik tadbirkorlik sohasida:

Investitsiya quvvatining o'zgarishi tufayli investitsiyalar hajmi 7,145 milliard so'mga kamaydi;

Bitta kichik korxona mahsulot hajmining o'zgarishi sababli 342,121 milliard so'mga oshdi;

Kichik korxonalar sonining o'zgarishi tufayli 491,557 milliard so'mga oshdi.

Kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishda axborot-maslahat yordami tizimi doirasidagi muassasalar va boshqa bozor infratuzilmasi tashkilotlari faoliyati yetarlicha muvofiqlashtirilmagan hamda kichik biznesning innovatsion

faoliyatini axborot-maslahat yordami bilan ta'minlash tizimini tashkil etish masalasi hal qilinmagan.

Bizning fikrimizcha, kichik biznes sohasi uchun axborot-maslahat yordami tizimi tubdan isloh qilinishi va tizimli, uzluksiz hamda tartibli xizmatlar ko'rsatadigan infratuzilma shaklida zarur sharoitlar yaratilishi kerak. Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar taklif etiladi:

Kichik biznes subyektlarini yangi innovatsiyalar haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlaydigan milliy ma'lumotlar bazasini yaratish;

References:

1. Абдуллаев Ё. Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари, 100 саволга - 100 жавоб. –Т.: Меҳнат. 2002. – 157 б.
2. Абдуллаев Ё. Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари. – Т.: Меҳнат, 2010. – 349 б.
3. Абдуллаев Ё.А. Статистика назарияси. Дарслик –Т.: Ўқитувчи, 2002.
4. Абдуллаев А. и др. Методы социально-экономического прогнозирования. – Т.: Узбекистан, 1992. – 189 с.
5. Абдуллаев А.М., Ходиев Б.Ю., Ишназаров А.И. Эконометрика. – Т.: Fan va texnologiya, 2007. – 612 с.
6. Абдуллаев А., Абдурахманов О., Зокирова Н. Прогнозирование и моделирование национальной экономики. –Т.: Fan va texnologiya, 2007. – 575 с.
7. Абдуллаев Ё., Каримов Ф. Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари. – Т.: Меҳнат, 2010. – 351 б.

Iqtisodiy subyektlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish;

Kichik biznesda innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun tashkil etilgan bozor infratuzilmasi tashkilotlari faoliyatini tizimli muvofiqlashtirish;

Kichik biznes subyektlariga uzluksiz va tartibli xizmatlar ko'rsatadigan innovatsion biznes markazlarini tashkil etish.

8. Абдуллаев Ё., Юлдашев Ш. Малый бизнес и предпринимательство. – Т.: Иқтисод-молия, 2008. – 339 с.

9. Алимов Р.Х. ва бошқалар. Миллий иқтисодда ахборот тизимлари ва технологиялари. Ўқув қўлланма. – Т.: Шарқ, 2004. – 320 б.;

10. Ашурова Н.Б. Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. Иқт.фан. докт. дисс.автореф. – Т.БМА: 2018-72б:

11. Балдин, К.В. Общая теория статистики: учебное пособие / К.В. Балдин, А.В. Рукоусев. – М.: Дашков и К, 2015. – 312 с

12. Бегалов Б.А. Ахборот-коммуникациялар бозорининг шаклланиш ва ривожланиш тенденцияларини эконометрик моделлаштириш. И.ф.д. илмий даражаси олиш учун ёзилган диссертация иши. –Т.2001—330 б.;

13. Власова В.М. Основы предпринимательской деятельности. – М.: Финансы и статистика. 1996 – 106 с.;



INNOVATSION RIVOJLANISH KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING ASOSIY MEKANIZMI

Azamaliyeva Madinaxon

Qo'qon universiteti mustaqil tadqiqotchisi

MAQOLA HAQIDA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil
Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil
Jurnal soni: 14
Maqola raqami: 20
DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1131>
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Innovatsiya, kambag'allikni qisqartirish, texnologik yangiliklar, iqtisodiy barqarorlik, qishloq xo'jaligi, sanoat, xalqaro hamkorlik, ijtimoiy muvozanat, moliyalashtirish, bandlik.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada innovatsion rivojlanishning kambag'allikni qisqartirishdagi ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda texnologik yangiliklarni iqtisodiyotning turli sohalariga joriy etish orqali aholi daromadlarini oshirish, bandlikni ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha misollar keltirilgan. Shuningdek, tijorat banklarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi o'rni va xalqaro hamkorlikning zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida texnologiyalarni qo'llash kambag'allikni qisqartirish bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni yaxshilashga imkon beradi. Mazkur maqola, innovatsion yondashuvlarning iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi strategik ahamiyatini ochib beradi.

Kirish. Kambag'allikni qisqartirish bugungi kunda global muammolardan biri bo'lib, uning yechimi mamlakatlar taraqqiyotini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Kambag'allikni kamaytirish yo'nalishida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlanish muhim mexanizmlardan biri sifatida qaralmoqda. Jahon iqtisodiyotida texnologik rivojlanish va innovatsiyalar orqali kambag'allikka qarshi kurashish samaradorligi ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida, iqtisodiyotning barcha sohalarida innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish va jamiyat farovonligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Kambag'allikni qisqartirishda aholi daromadlarini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy faollikni rag'batlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsiyalarni qo'llash orqali iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish va jamiyatning barcha qatlamlari uchun iqtisodiy imkoniyatlarni teng taqsimlashga erishish mumkin. Masalan, N.Fayzullayev va S.Maliyeva o'z tadqiqotida kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi raqobat muhitini ta'minlashdagi o'rnini ko'rsatib, ularni rivojlantirish uchun muhim omillarni ta'kidlagan. Tadqiqotda kichik biznesning faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali import va eksport hajmlarini oshirish imkoniyatlari chuqur tahlil qilingan¹. Mamlakat iqtisodiyotida kambag'allikni qisqartirish strategiyalari asosan innovatsion mexanizmlarga asoslangan bo'lib, bu yo'nalishda makroiqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalasi ham dolzarbdir. K.Xamidova kambag'allikni qisqartirishni makroiqtisodiy xavfsizlikning asosi sifatida e'tirof etadi va bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyatini tahlil qiladi². Shu bilan birga, tijorat banklari ham innovatsion loyihalarni moliyalashtirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratishda alohida rol o'ynaydi. A.Murodovning tadqiqotlariga ko'ra, banklarning bu yo'nalishdagi faolligi iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga ko'maklashmoqda³. Mazkur maqola innovatsion rivojlanishning kambag'allikni qisqartirishdagi asosiy mexanizmlari, ularning iqtisodiy hamda ijtimoiy samaralari haqida batafsil tahlilni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, turli ilmiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlar asosida innovatsiyalar va kambag'allik o'rtasidagi bog'liqlik ham o'rganiladi.

Adabiyotlar tahlili. Kambag'allikni qisqartirish mavzusidagi tadqiqotlar ko'plab ilmiy ishlarda yoritilgan. N. Fayzullayev va S. Maliyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni va uni rivojlantirish yo'nalishlari muhokama

qilingan. Tadqiqotda kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash orqali eksport hajmini oshirish va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan⁴. K. Xamidova o'z ishida kambag'allikni qisqartirishni makroiqtisodiy xavfsizlik bilan bog'liq jihatlarni yoritib, bu masalaning milliy iqtisodiyot barqarorligi uchun muhimligini ko'rsatib o'tgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha olib borilayotgan siyosatlar aholi daromadlarini oshirish bilan birga iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga ham xizmat qilmoqda⁵.

Innovatsion rivojlanish orqali farovonlikni oshirish masalasida D.Amrulloyev va R.Alimova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida e'tiborga loyiq. Ular iqtisodiyotda innovatsion o'zgarishlarni tatbiq etish kambag'allikni kamaytirish va jamiyat farovonligini oshirish uchun asosiy mexanizm ekanligini ta'kidlaydi⁶. Shu bilan birga, xalqaro miqyosdagi tadqiqotlar, masalan, Pansera va Martinez tomonidan olib borilgan tahlillar kambag'allikni qisqartirishda innovatsiyalarni tatbiq etishning universal samaradorligini tasdiqlaydi⁷. H.Zameer va uning hamkasblari esa texnologik innovatsiyalar, globallashuv va moliyaviy rivojlanish orqali kambag'allikni qisqartirish mexanizmlarini chuqur tahlil qilgan. Ularning fikriga ko'ra, innovatsiyalar nafaqat iqtisodiyotni rivojlantirish, balki ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishning ham muhim omilidir⁸. Yuqorida keltirilgan adabiyotlar innovatsion rivojlanishning kambag'allikni qisqartirishdagi o'rni va ahamiyatini har tomonlama yoritib, bu boradagi ilmiy qarashlarni boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda innovatsion rivojlanishning kambag'allikni qisqartirishdagi o'rnini aniqlash uchun bir qator ilmiy tadqiqot usullari qo'llanildi. Tadqiqotning samaradorligini ta'minlash va xulosalarning ilmiy asoslanganligini oshirish uchun kompleks yondashuv amalga oshirildi. Kambag'allikni qisqartirishga yo'naltirilgan siyosatlarning ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan holda ko'rib chiqildi. Sistemali yondashuv innovatsion rivojlanishning iqtisodiyotdagi turli sohalariga ta'sirini kompleks baholash imkonini berdi.

Mahalliy va xalqaro miqyosdagi kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar aniqlash uchun taqqoslash usuli qo'llanildi. Misol sifatida texnologik innovatsiyalarning rivojlanayotgan mamlakatlar va rivojlangan davlatlardagi ta'siri solishtirildi. Bu usul yordamida iqtisodiy model va siyosatlarning samaradorligini baholash imkoniyati yaratildi.

¹ Fayzullayev, N., & Mayliyeva, S. (2023). Kambag'allikni qisqartirish maqsadida aholi daromadlarini oshirishda olib borilayotgan siyosatlar. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 3(12), 151-156.

² Xamidova, K. O. (2023). KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH MAKROIQTISODIY XAVFSIZLIK GAROVI. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 2(1), 3-6.

³ Murodov, A. (2024). KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA YANGI ISH O'RINLARINI YARATISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLINI OSHIRISH. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(11), 295-300.

⁴ Fayzullayev, N., & Mayliyeva, S. (2023). Kambag'allikni qisqartirish maqsadida aholi daromadlarini oshirishda olib borilayotgan siyosatlar. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 3(12), 151-156.

⁵ Xamidova, K. O. (2023). KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH MAKROIQTISODIY XAVFSIZLIK GAROVI. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 2(1), 3-6.


⁶ Amrulloyev, D. N., & Alimova, R. X. (2024). KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH ORQALI FAROVONLIKNI OSHIRISH: IQTISODIYOTDAGI INNOVATSION O'ZGARISHLAR. Xalqaro konferensiya va jurnallarni sifatli indexlash xizmati, 1(1), 417-421.

⁷ Pansera, M., & Martinez, F. (2017). Innovation for development and poverty reduction: an integrative literature review. Journal of Management Development, 36(1), 2-13.

⁸ Zameer, H., Shahbaz, M., & Vo, X. V. (2020). Reinforcing poverty alleviation efficiency through technological innovation, globalization, and financial development. Technological Forecasting and Social Change, 161, 120326.

Innovatsion rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Jumladan, texnologik innovatsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri, yangi ish o'rinlarini yaratishdagi o'rni va aholi daromadlariga bo'lgan ta'siri o'rganildi. Ushbu tahlillar orqali tadqiqotda ishonchli ma'lumotlar asosida xulosalar chiqarildi. Innovatsion rivojlanish bo'yicha amalga oshirilgan alohida loyihalar va dasturlar o'rganilib, ularning kambag'allikni qisqartirishdagi muvaffaqiyatlari va kamchiliklari tahlil qilindi. Masalan, qishloq hududlarida texnologik yangiliklarni tatbiq etish natijalari alohida o'rganildi. Ushbu metodlar birgalikda tadqiqot maqsadlariga erishishni ta'minlab, innovatsion rivojlanishning kambag'allikni qisqartirishdagi rolini tushunish uchun zarur bo'lgan ilmiy asoslarni yaratdi. Xulosalar chiqarishda ma'lumotlarning to'g'riligi va ob'ektivligi ta'minlanishi uchun barcha bosqichlarda tizimli yondashuv saqlab qolindi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari innovatsion rivojlanishning kambag'allikni qisqartirishdagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatdi. Bu jarayonda iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik ko'rsatkichlarning tahlili orqali muhim xulosalar chiqarildi. Quyida ushbu natijalar bo'yicha batafsil ma'lumot beriladi. Innovatsion texnologiyalarni iqtisodiyotning turli sohalariga joriy etish kambag'allik darajasining pasayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Xususan, 2020-2024 yillar oralig'ida innovatsion dasturlarni amalga oshirgan mamlakatlarda kambag'allik darajasi o'rtacha 18% dan 13% gacha qisqargan. Ushbu ko'rsatkich innovatsion siyosat olib bormagan mamlakatlarda 28% dan 25% gacha pasaygan. Bu raqamlar innovatsion yondashuvning samaradorligini ochiq-oydin tasdiqlaydi. Quyidagi jadvalda kambag'allik darajalaridagi o'zgarishlar aks ettirilgan.



1-rasm. Innovatsion siyosatning kambag'allik darajasiga ta'siri (foizda)

Texnologik innovatsiyalar aholi daromadlarini oshirishda ham muhim rol o'ynagan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, texnologik rivojlanishga asoslangan dasturlarni amalga oshirgan hududlarda aholi daromadi 2022-yilda o'rtacha 12% ga oshgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich yana 15% ga ko'paygan. Qishloq joylarda fermer xo'jaliklari texnologiyalarni joriy etish orqali mahsulot hajmini oshirishga erishgan, bu esa ularning daromadlarini 23% ga oshirishga sabab bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichlar daromad oshishi orqali kambag'allikni kamaytirish

mumkinligini tasdiqlaydi. Innovatsion rivojlanishning yana bir muhim natijasi yangi ish o'rinlarining yaratilishi bo'ldi. 2024-yilda texnologik startaplarning rivojlanishi natijasida 150 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratilgan. Bu ko'rsatkich innovatsion dasturlarni joriy etgan mamlakatlarda ishsizlik darajasining 7,5% dan 6% gacha pasayishiga olib kelgan. Ayniqsa, qishloq joylarda yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga kiritish orqali yangi bandlik imkoniyatlari yaratilgan.

1-jadval.

Yangi ish o'rinlari yaratishdagi innovatsion yondashuvning natijalari

Yillar	Yangi ish o'rinlari soni (ming)	Ishsizlik darajasi (%)
2020	80	7,5
2022	110	7,0
2024	150	6,0

Moliyaviy ko'mak va tijorat banklari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda alohida ahamiyat kasb etdi. 2024-yilda banklar tomonidan innovatsion texnologiyalarni moliyalashtirish uchun ajratilgan kreditlar hajmi 1,2 milliard dollarni tashkil etdi. Ushbu moliyaviy ko'mak orqali 5 mingdan ortiq kichik va o'rta korxonalar faoliyati qo'llab-quvvatlandi. Bu holat, o'z navbatida, ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga olib keldi.

Qishloq xo'jaligi sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish fermerlarning mahsuldorligini oshirish va kambag'allikni kamaytirishda muhim omil bo'ldi. Texnologiyalarni tatbiq etgan xo'jaliklar hosildorligini o'rtacha 30% ga oshirishga erishgan. Bu esa qishloq joylardagi kambag'allik darajasini 10% ga qisqartirishga imkon berdi. Quyidagi jadvalda qishloq xo'jaligidagi innovatsiyalar natijalari keltirilgan.

2-jadval.

Qishloq xo'jaligidagi innovatsiyalar natijalari

Yillar	Hosildorlik o'sishi (%)	Kambag'allik darajasining qisqarishi (%)
2020	15	5
2022	25	7
2024	30	10

Texnologik innovatsiyalar ijtimoiy sohalarida ham sezilarli natijalar bergan. Masalan, qishloq joylarda telemeditsina xizmatlarini joriy etish orqali tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari 40% ga oshgan. Ta'lim sohasida onlayn o'quv platformalarini keng joriy qilish orqali o'quvchilar va talabalar orasida bilim olish imkoniyatlari yaxshilangan. Ushbu natijalar innovatsion rivojlanishning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ta'sirini ham ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari innovatsion rivojlanishning kambag'allikni qisqartirishdagi o'rni va ahamiyatini aniq tasdiqlaydi. Texnologik yondashuvlar iqtisodiy o'sish, aholi daromadlarining oshishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va ijtimoiy xizmatlar sifatining yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Ushbu natijalar kelgusida innovatsion rivojlanishni yanada kengaytirish va qo'llab-quvvatlash zaruratini ko'rsatadi.

Muxokama. Kambag'allikni qisqartirish global miqyosdagi dolzarb masala bo'lib, ushbu jarayonda innovatsion rivojlanish muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, texnologik yangiliklarni iqtisodiyotning turli sohalariga joriy etish iqtisodiy farovonlikni oshirish va kambag'allikni kamaytirishda asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu fikrni qo'llab-quvvatlovchi dalillar innovatsion dasturlarni amalga oshirgan mamlakatlarda kambag'allik darajasi sezilarli darajada pasayganini ko'rsatadi. Xususan, qishloq joylarda texnologiyalarni tadbiq etish orqali fermer xo'jaliklarining mahsuldorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini ko'paytirish bo'yicha aniq natijalarga erishilgan. Innovatsiyalar iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishda alohida ahamiyatga ega. Jumladan, qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida texnologik yangiliklarni joriy etish orqali iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkinligi aniqlangan. Ushbu jarayon kambag'allikni qisqartirish bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni ham yaxshilaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi faolligi ham iqtisodiy rivojlanishga muhim hissa qo'shmoqda. Banklar tomonidan taqdim etilgan kreditlar yordamida ko'plab kichik va o'rta korxonalar faoliyatini kengaytirishga erishgan. Bu esa, o'z navbatida, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash orqali kambag'allikni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Bank kreditlari asosida kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy samaradorligi ayniqsa eksport hajmlarini oshirish va mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlashda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar, masalan, Pansera va Martinezning ishlari kambag'allikka qarshi kurashda innovatsiyalarni tatbiq etishning universal samaradorligini tasdiqlaydi. Bu yondashuv nafaqat iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi, balki ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishda ham muhim omil sifatida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, innovatsiyalarni amalga oshirishda rivojlanayotgan mamlakatlar va rivojlangan davlatlar o'rtasida sezilarli farqlar kuzatiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda texnologik yangiliklarni amalga

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fayzullayev, N., & Mayliyeva, S. (2023). Kambag'allikni qisqartirish maqsadida aholi daromadlarini oshirishda olib borilayotgan siyosatlar. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 3(12), 151-156.
2. Xamidova, K. O. (2023). KAMBAG 'ALLIKNI QISQARTIRISH MAKROIQTISODIY XAVFSIZLIK GAROVI. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 2(1), 3-6.
3. Murodov, A. (2024). KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA YANGI ISH O'RINLARINI YARATISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLINI OSHIRISH. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(11), 295-300.

oshirishda moliyaviy resurslarning yetishmasligi va infrastrukturaviy muammolar to'siq bo'lishi mumkin. Shu sababli, ushbu mamlakatlarda texnologiyalarni muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun xalqaro moliyaviy tashkilotlar va rivojlangan davlatlarning qo'llab-quvvatlovi muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq joylarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish natijalarining chuqur tahlili shuni ko'rsatadiki, bu jarayon faqat iqtisodiy farovonlikni oshirish bilanгина cheklanib qolmay, balki ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Jumladan, qishloqlarda yangi texnologiyalar yordamida yaratilgan ish o'rinlari yoshlarni band qilish, ularning qishloqdan shaharlarga ko'chib ketishini kamaytirish va mahalliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishga yordam bergan. Bu esa qishloq aholisining hayot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda keltirilgan tahlillar asosida kambag'allikni qisqartirishda innovatsion yondashuvlar bilan birga iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish muhim ekanligi aniqlangan. Xususan, yangi texnologiyalarni sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalariga teng ravishda tatbiq etish iqtisodiyotning turli segmentlarida barqaror rivojlanishni ta'minlaydi. Innovatsion rivojlanish kambag'allikni qisqartirish bilan birga, mamlakatlarning makroiqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion rivojlanish kambag'allikni qisqartirishda samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi. Texnologik yangiliklarni iqtisodiyotning turli sohalariga joriy etish orqali aholi daromadlarini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga erishish mumkin. Innovatsion rivojlanish iqtisodiyotning turli segmentlarini diversifikatsiya qilish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Tadqiqotda qishloq xo'jaligi sohasida texnologik yangiliklarni tatbiq etish orqali mahsuldorlikni oshirish va qishloq joylarda bandlikni ta'minlash masalalari batafsil yoritilgan. Ushbu yondashuv kambag'allikni qisqartirishning samarali usullaridan biri ekanligi tasdiqlangan. Shu bilan birga, tijorat banklari va moliyaviy institutlarning innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi faoliyati iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro tajribalar kambag'allikni qisqartirishda innovatsiyalarning universal samaradorligini ko'rsatmoqda. Shu sababli, rivojlanayotgan mamlakatlar xalqaro hamkorlikni kengaytirish va innovatsion texnologiyalarni milliy iqtisodiyotga tatbiq etish uchun zarur resurslarni jalb etishlari lozim. Innovatsion yondashuvlar nafaqat iqtisodiy farovonlikni oshirish, balki ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va aholi turmush darajasini yaxshilashda ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot innovatsion rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish o'rtasidagi bog'liqlikni yoritib, ushbu jarayonlarning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini ochib berdi. Kelgusida innovatsion yondashuvlarni kengaytirish va ularni milliy strategiyalarga tatbiq etish orqali mamlakatlar iqtisodiy barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari yanada oshadi. Shu sababli, innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqish va ularni hayotga tatbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

4. Amrulloev, D. N., & Alimova, R. X. (2024). KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH ORQALI FAROVONLIKNI OSHIRISH: IQTISODIYOTDAGI INNOVATSION O'ZGARISHLAR. Xalqaro konferensiya va jurnallarni sifatli indexlash xizmati, 1(1), 417-421.
5. Pansera, M., & Martinez, F. (2017). Innovation for development and poverty reduction: an integrative literature review. Journal of Management Development, 36(1), 2-13.
6. Zameer, H., Shahbaz, M., & Vo, X. V. (2020). Reinforcing poverty alleviation efficiency through technological innovation, globalization, and financial development. Technological Forecasting and Social Change, 161, 120326.



PISA XALQARO BAHOLASH TIZIMINING AMALIY AHAMIYATIDA XORIY Tajribasi

Jumanova Shaxnozaxon Ikromjonovna

Qo'qon universiteti dotsenti, (PhD)

e-mail: shahnoza.jumanova13081989@gmail.com

Odilova MaxliyoXon Doniyorjon qizi

Qo'qon universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

e-mail: odilovamaxliyo04@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 21 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1132 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS PISA, OECD, xalqaro tajriba, o'qish savodxonligi, matematika, tanqidiy fikrlash, ta'lim tizimi, tabiiy fanlar.	Ushbu maqola Germaniya va Finlyandiya tajribalari orqali PISA xalqaro baholash tizimining amaliy ahamiyatini o'rganadi. Unda Germaniya PISA natijalaridan ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda qanday foydalangani, xususan, o'qituvchilar malakasini oshirish va tengsizlikni bartaraf etish kabi sohalarida ish faoliyatini yaxshilashga olib kelgani o'rganiladi. Bundan farqli o'laroq, Finlyandiyaning doimiy yuqori PISA reytingi uning ta'limga bo'lgan yondashuvini mustahkamlab, tenglik va o'qituvchilarning avtonomiyasiga e'tibor qaratadi. Maqolada PISA qanday qilib dalillarga asoslangan ta'lim siyosatini shakllantirishda qimmatli vosita bo'lib xizmat qilishi, shu bilan birga uning tushunchalarini har bir mamlakatning o'ziga xos ta'lim kontekstiga moslashtirish muhimligi ochib beradi.

Kirish. Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi (PISA) Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan uch yilda bir marta o'tkaziladigan xalqaro so'rovdir. (OECD) o'qish, matematika va fan savodxonligini baholaydi 15 yoshlilar. 2000-yilda tashkil etilganidan buyon PISA xalqaro ta'lim landshaftining tamal toshiga aylanib, ishtirokchi mamlakatlar bo'yicha o'quvchilarning ko'rsatkichlari bo'yicha ko'plab qiyosiy ma'lumotlarni taqdim etadi.

PISA qiyosiy baholash vositasi sifatidagi rolidani tashqari, turli manfaatdor tomonlar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Siyosatchilar uchun PISA natijalari ta'lim sohasidagi islohotlar samaradorligini baholash va yaxshilash zarur bo'lgan sohalarini aniqlash uchun qimmatli ob'ektivni taklif qiladi. Siyosatchilar o'z mamlakatlari faoliyatini xalqaro standartlar bilan taqqoslash orqali o'z ta'lim tizimlarining mumkin bo'lgan kuchli va zaif tomonlari haqida tushunchaga ega bo'lishlari mumkin.

O'qituvchilar uchun PISA malaka oshirish va o'quv dasturlarini ishlab chiqish uchun asos yaratadi. PISA topshiriqlari va o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish orqali o'qituvchilar XXI asrda o'quvchilar muvaffaqiyat qozonishi uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni chuqurroq tushunishlari mumkin. Bundan tashqari, PISA tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan o'quv strategiyalarini ishlab chiqishda ma'lumot berishi mumkin.

Ota-onalar va o'quvchilar uchun PISA global ta'lim landshafti haqida qisqacha ma'lumot beradi va ularga ta'lim yo'nalishi bo'yicha qaror qabul qilishda yordam beradi. Ota-onalar o'z mamlakatlaridagi ta'lim tizimi boshqalarga nisbatan qanday ekanligini tushunib, takomillashtirishni targ'ib qilishlari va farzandlarining o'qishini qo'llab-quvvatlashlari mumkin. O'quvchilarning o'zlari PISA dan turli turdagi baholash topshiriqlari bilan tanishish va keng ko'lamli ko'nikmalarni rivojlantirish muhimligini bilish orqali foyda olishlari mumkin.

Adabiyotlar tahlili. PISA bahosi keng qamrovli akademik tadqiqotlar mavzusi bo'lib, uning ta'lim siyosati va amaliyotiga ta'sirini o'rganuvchi ko'plab tadqiqotlar mavjud.

Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) tashabbusi bilan tashkil etilgan Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi (PISA) ta'lim siyosatini shakllantirish va o'quvchilarning global yutuqlarini taqqoslashdagi o'rni bilan keng olimlar e'tiborini tortdi. Mavjud adabiyotlar PISA ning amaliy ahamiyatini ikkita asosiy sohada ta'kidlaydi: xalqaro siyosat ta'siri va pedagogik islohotlar.

Bir qator tadqiqotlar PISA ning milliy ta'lim kun tartibiga ta'sir ko'rsatish qobiliyatini ta'kidlaydi. Masalan, Breakspear (2012) va Grek (2009) baholash, ayniqsa Finlyandiya va Singapur kabi yuqori natijalarga erishgan davlatlarning muvaffaqiyatini takrorlashga intilayotgan mamlakatlarda siyosat qarz olishni rag'batlantiradigan qiyosiy asosni taqdim etishini ta'kidlaydilar. Bu o'quv dasturlari standartlarini takomillashtirish, o'qituvchilar malakasini oshirish va resurslarni

taqsimlashga qaratilgan islohotlarning kengayishiga olib keldi. Foydali bo'lishiga qaramay, Rizvi va Lingard (2010) kabi ba'zi olimlar bu ta'sirni tanqid qilib, ta'limning yaxlit rivojlanishiga emas, balki standartlashtirilgan testlarga tor e'tiborni qaratishini ta'kidlaydilar.

Amaliy darajada, PISA baholashlari o'qish, matematika va fan kabi kognitiv sohalar, shuningdek, muammolarni hal qilish va hamkorlik qilish kabi kognitiv bo'lmagan ko'nikmalar haqida tushuncha beradi. Tadqiqotlar, shu jumladan Hanushek va Woessmann (2011) tadqiqotlari, baholashning mamlakatlar ichida ham, o'rtasida ham ta'limdagi nomutanosibliklarni aniqlashdagi rolini ta'kidlaydi va shu bilan maqsadli aralashuvlarni osonlashtiradi. Biroq, Meyer va Benavot (2013) kabi boshqalar PISA vositalarining madaniy betarafiligini shubha ostiga qo'yishadi va ular G'arb ta'lim paradigmatlariga ustunlik berishi mumkinligini taxmin qilishadi.

Bundan tashqari, PISA ma'lumotlari ta'lim bo'yicha millatlararo muloqotlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Tizimli kuchli va zaif tomonlarini ta'kidlab, ta'lim siyosatchilari va tadqiqotchilar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirdi. Shunga qaramay, ba'zilarining ta'kidlashicha, PISA reytingining yuqori stavkalari, ayniqsa resurslari kam bo'lgan mamlakatlarda tengsizlikni kuchaytirishi mumkin.

Umuman olganda, adabiyotlar PISA ning ta'limni takomillashtirishning amaliy vositasi va global ta'limni boshqarishning bahsli mexanizmi sifatida ikki tomonlama rolini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturining (PISA) amaliy ahamiyatini o'rganish uchun tarixiy metod va sintez metodi usulidan foydalanildi. Yondashuv PISA 2000 yilda tashkil etilganidan buyon evolyutsiyani kuzatishni, uning rivojlanishi, joriy etilishi va global ta'siriga e'tibor qaratishni o'z ichiga oladi. Tizimning asosiy maqsadlari va mantiqiy asoslarini tushunish uchun birlamchi manbalar, jumladan OECDning asl hujjatlari, PISA asoslari va dastlabki baholash hisobotlari tahlil qilindi.

Ilmiy maqolalar va tarixiy sharhlar kabi ikkilamchi manbalardan vaqt o'tishi bilan PISA ning ta'lim siyosati va amaliyotiga ta'sirini kontekstualashtirish uchun foydalanilgan. Tadqiqot shuningdek, PISA natijalari milliy ta'lim islohotlarini qanday shakllantirganini ko'rsatish uchun Finlyandiya va Germaniya kabi muayyan mamlakatlarning tarixiy misollarini o'rganadi.

Tarixiy tahlil usuli orqali ushbu tadqiqot PISA atrofida asosiy bosqichlarni, bahs-munozaralarni va tanqidlarni yoritib beradi, bu uning global ta'lim boshqaruvidagi tarixiy roli va XXI asrdagi doimiy dolzarbligi haqida nozik tushuncha beradi.

Tadqiqot natijalari. Tahlil shuni ko'rsatadiki, Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi (PISA) 2000 yilda ishga tushirilganidan beri global ta'lim tizimlarini shakllantirishda o'zgartiruvchi rol o'ynadi. Natijalar uchta asosiy mavzu bo'yicha tuzilgan: PISA asosiy yo'nalishlari evolyutsiyasi, uning milliy ta'limga ta'siri, siyosati va uning ta'lim tengligiga ta'sirini tanqid qilish.

Tarixiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, PISA butun dunyo bo'ylab ta'lim siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Misol uchun, PISA 2000 nemis talabalari o'rtasida o'qish bo'yicha past ko'rsatkichlarni aniqladi, bu "PISA shoki" deb ataladigan va erta savodxonlik dasturlari va o'qituvchilar tayyorlashga tuzatishlar kiritish kabi islohotlarga olib keldi.

Finlyandiyaning doimiy yuqori reytinglari tenglikka yo'naltirilgan ta'lim tizimlari atrofida global rivojatlarni xuddi shunday shakllantirdi. 1-jadvalda PISA natijalari ta'sirida tanlangan mamlakatlardagi siyosat o'zgarishlari jamlangan.

1-jadval

PISA natijalari ta'sirida tanlangan mamlakatlardagi siyosat o'zgarishlari			
Mamlakat	Yili	PISA ning asosiy natijalari	Amalga oshirilgan siyosat o'zgarishlari
Germaniya	2000	O'qish samaradorligi past	Ilk savodxonlik tashabbuslari ortdi
Finlyandiya	2000–2015	Yuqori kapital, yuqori ball	O'qituvchilarning mustaqilligi va tengligiga e'tibor berish
Chili	2015 yil	O'rtacha ishlash farqi	Sifatli ta'lim olish imkoniyatlari kengaytirildi

PISA ning asosiy yo'nalishlari evolyutsiyasi

PISA tashkil etilganidan boshlab o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha kompetentsiyalarni baholashga alohida e'tibor qaratdi. Vaqt o'tishi bilan uning ko'lamini kengayib, muammolarni hal qilish, hamkorlik qilish qobiliyatlari va global kompetentsiyani o'z ichiga oladi.

2-jadvalda ko'rsatilganidek, baholangan domenlar(yo'nalishlar) soni sezilarli darajada oshdi, bu 21-asrda ilmga e'tibor kuchayishini aks ettiradi. Ushbu evolyutsiya PISA ning global miqyosda paydo bo'layotgan ta'lim ustuvorliklarini hal qilishda moslashuvchanligini ko'rish mumkin.


2-jadval.

PISA testiga yangi qo'shilgan yo'nalishlar		
Yil	Baholangan domenlar	Yangi qo'shimchalar
2000	O'qish, matematika, fan	Yo'q
2012	+ Muammoni hal qilish	Kognitiv bo'lmagan qobiliyatlarni joriy etish
2018	+ Global kompetentsiya	Madaniyatlarda aloqalarni tushunishga e'tibor qaratish

PISA reytingi ko'plab mamlakatlarda, xususan, dastlabki ko'rsatkichlari pastroq bo'lgan mamlakatlarda siyosat islohotlariga turtki bo'ldi. Misol uchun, 1-rasmda ko'rsatilganidek, Germaniya 2000-yildagi yomon natijalardan so'ng o'quv dasturlarini standartlashtirish va o'qituvchilar malakasini oshirishda muhim islohotlarni amalga oshirdi.

2022 yildagi eng so'nggi qiymat 479.794 indeks punkti, 2018 yildagi 498.279 indeks punktidan pasaygan. Taqqoslash uchun, 78

mamlakat ma'lumotlariga asosanib, jahon o'rtacha ko'rsatkichi 437.426 indeks punktini tashkil etadi. Tarixiy jihatdan, 2000 yildan 2022 yilgacha Germaniya uchun o'rtacha 495,307 indeks punktini tashkil qiladi. Minimal qiymatga, ya'ni 479,794 indeks balliga 2022 yilda erishilgan bo'lsa, maksimal 509,104 indeks punkti 2015 yilda qayd etilgan.



1-rasm. PISA testi bo'yicha Germaniya ko'rsatkichlari(2000-2022)¹

Xuddi shunday, Finlyandiyaning izchil yuqori reytinglari adolatli ta'lim siyosati modeli sifatida o'rganilgan. Bu holatlar PISA siyosati qarz olish va turli kontekstlarda moslashishga qanday yordam berishini ko'rsatadi.

PISA ning ta'lim tengligiga ta'siri

Keng tarqalgan ta'siriga qaramay, PISA tanqidlari mumkin bo'lgan salbiy tomonlarini ko'rsatadi. Ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, uning

reytingga urg'u berish, ayniqsa resurslari kam bo'lgan mamlakatlarda tengsizlikni kuchaytirishi mumkin. Misol uchun, 3-jadvaldagi ma'lumotlar yuqori daromadli va past daromadli mamlakatlar o'rtasida o'rtacha o'qish ballaridagi doimiy farqni ko'rsatadi, yigirma yil davomida sezilarli pasayish kuzatilmagan.

3-jadval

Kam va yuqori daromadli davlatlar natijalari(2000-2020)

¹ https://www.theglobaleconomy.com/Germany/pisa_reading_scores/

Daromadlar guruhi	O'rtacha o'qish balli (2000)	O'rtacha o'qish balli (2020)
Yuqori daromadli mamlakatlar	512	528
Kam daromadli mamlakatlar	387	392

Bundan tashqari, tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, PISAning G'arbga yo'naltirilgan ta'lim paradigmalarga e'tibor qaratilishi madaniy va kontekstual farqlarni etarli darajada hisobga olmasligi va uning universal qo'llanilishini cheklashi mumkin.

Sintez

Natijalar shuni ko'rsatadiki, PISA global ta'limdagi nomutanosibliklarni ta'kidlash va islohotlarni boshlashda muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, unga yondashuv muammolardan holi emas. Tarixiy dalillar uning doimiy dolzarbligi va tengligini ta'minlash uchun ko'proq kontekstga sezgir ko'rsatkichlarga ehtiyoj borligini ko'rsatadi.

Muhokama. PISA ning tarixiy tahlili uning global ta'limdagi o'zgartiruvchi kuch va tanqidiy mavzu sifatidagi ikki tomonlama rolini ko'rsatadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, PISA ta'lim siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan, bu esa mamlakatlarni kam ishlayotgan tizimlarni isloh qilishga undaydigan empirik mezonlarni taqdim etgan. Germaniyaning savodxonlikka yo'naltirilgan islohotlari va Finlyandiyaning tenglikka asoslangan strategiyalari kabi misollar siyosatni ma'lumotlarga asoslangan tushunchalar bilan uyg'unlashtirishning sezilarli afzalliklarini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, OECD mamlakatlari o'rtasida o'rtacha o'qish ballarining yaxshilanishi PISAdan foydalanib o'qish samaradorligini ko'tarishga yordam beradi.

Biroq, natijalar doimiy qiyinchiliklarni ham ko'rsatadi. Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar o'rtasidagi nomutanosibliklar baholashni tuzishda potentsial madaniy qarama-qarshiliklar va tengsizliklarga ishora qiladi. PISA universal qo'llanilishini maqsad qilgan bo'lsa-da, uning standartlashtirilgan ko'rsatkichlarga tayanishi kontekstga xos maqsadlarni global mezonlardan ustun qo'yadigan ta'lim tizimlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Keys tadqiqotlari PISA ning STEM ta'limidagi gender tengsizliklari kabi muayyan muammolarni hal qilish qobiliyatini ko'rsatadi. Shunga qaramay, uning yuqori darajadagi tabiati ta'limning yaxlit rivojlanishini rag'batlantirishdan ko'ra, faqat reytinglarni yaxshilashga qaratilgan yuzaki islohotlarni rag'batlantirish xavfini tug'diradi.

Umuman olganda, PISA tizimning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash uchun qimmatli vosita bo'lib xizmat qilsa-da, uni qo'llashda tengsizliklar davom etmasligi va global baholashlar ta'limni mazmunli

va barqaror yaxshilashga olib kelishini ta'minlash uchun mahalliy sharoitlarni hisobga olishi kerak.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, PISA ning amaliy ahamiyati mamlakatlarning oddiy reytingidan ancha yuqori. U ta'limni takomillashtirish, siyosiy qarorlar haqida ma'lumot berish hamda o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilarning barcha uchun porloq kelajak yaratish yo'lida birgalikda ishlash imkoniyatlarini kengaytirish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

Germaniya va Finlyandiyaning PISA xalqaro baholash tizimi bo'yicha tajribasi uning ta'limni rivojlantirish uchun o'zgaruvchan salohiyatini ochib beradi. Germaniyada PISA 2000-yillar boshida kutilmaganda past reytingga ega bo'lganidan keyin ogohlantiruvchi qo'ng'iroq bo'lib xizmat qildi va tizimli islohotlarga turtki bo'ldi. Bularga o'qituvchilar malakasini oshirish, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga e'tibor qaratish va kam ta'minlangan guruhlar uchun ta'limga investitsiyalarni ko'paytirish kiradi. Natijada, Germaniya keyingi baholashlarda sezilarli yaxshilanishlarni ko'rsatdi, bu PISA ning dalillarga asoslangan siyosat o'zgarishlarini amalga oshirish va mas'uliyatni kuchaytirishda foydaliligini oshirdi.

Finlyandiya PISA bo'yicha izchil yuqori natijalar uning tenglik, o'qituvchilarga ishonch va ta'limga yaxlit yondashuvni ko'rsatadigan ta'lim modelining global e'tirofini kuchaytirdi. Finlyandiya siyosatchilari o'quv dasturlarini ishlab chiqishda moslashuvchanlikni saqlab qolish va o'qituvchilarning avtonomiyasiga ustunlik berish bilan birga o'quvchilarga yo'naltirilgan metodologiyalarini tasdiqlash uchun PISA natijalaridan foydalanishgan. Finlyandiya ishi PISA qanday ta'lim sohasidagi mavjud kuchli tomonlarni tasdiqlashi va takomillashtirishi va kelajakdagi innovatsiyalar sohalarini haqida tushuncha berishi mumkinligini ko'rsatadi.

Ikkala misol ham PISA ning kuchli tomonlarini aniqlash, muammolarni hal qilish va asoslangan siyosatni shakllantirishdagi amaliy ahamiyatini ochib beradi. Biroq, ular, shuningdek, uning ta'sirini maksimal darajada oshirish uchun kontekstual moslashuvlar zarurligini ta'kidlaydilar. Germaniya va Finlyandiya tajribasini o'rganish orqali boshqa davlatlar PISA dan o'zlarining noyob ehtiyojlari va ustuvorliklariga moslashtirilgan ta'limni barqaror yaxshilashga yordam beradigan strategik vosita sifatida foydalanishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Breakspear, S. (2012). The policy impact of PISA: An exploration of the normative effects of international benchmarking in school system performance. OECD Education Working Papers, 71. <https://doi.org/10.1787/5k9fdqfqr28-en>
2. Grek, S. (2009). Governing by numbers: The PISA 'effect' in Europe. Journal of Education Policy, 24(1), 23–37. <https://doi.org/10.1080/02680930802412669>
3. Hanushek, E. A., & Woessmann, L. (2011). The economics of international differences in educational achievement. In E. A. Hanushek, S. Machin, & L. Woessmann (Eds.), Handbook of the Economics of Education (Vol. 3, pp. 89–200). Elsevier. <https://doi.org/10.1016/B978-0-444-53429-3.00002-8>
4. Jumanova, S., & Odilova, M. (2024). O 'ZBEKISTONNING XALQARO PISA TESTIDAGI NATIJALARI VA UNDA TA'LIM TIZIMI SAMARADORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA FOYDALANISH MASALALARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 11, 66-70.
5. Jumanova, S. I., & Maxliyoxon, O. (2024). O 'Zbekistonda Maktab Ta'limini Xususiylashtirish Va Pisa Testiga Tayyorlash Masalalari. Kokand University Research Base, 13-16.
6. Ikromjonovna, J. S., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). O 'ZBEKISTONDA PISA TESTI NATIJALARI VA BOSHLANG 'ICH TA'LIM O

'QUVCHILARINI BU TESTGA TAYYORLASH ISTIQBOLLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 159-162.

7. Ikromjonovna, J. S., & Maxliyoxon, O. (2024). Xalqaro Pisa Testining Ta'limdagi Ahamiyati. Kokand University Research Base, 266-269.

8. Odilova, M. (2024). O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA PISA TESTINING ISTIQBOLLARI. Nordic_Press, 3(0003).

9. Meyer, H.-D., & Benavot, A. (2013). PISA and the globalizing educational governance: Some puzzles and problems. In H.-D. Meyer & A. Benavot (Eds.), PISA, Power, and Policy: The Emergence of Global Educational Governance (pp. 7–26). Oxford Studies in Comparative Education.

10. Rizvi, F., & Lingard, B. (2010). Globalizing education policy. Routledge. <https://doi.org/10.4324/9780203867396>

11. <https://researchportal.murdoch.edu.au/esploro/outputs/diectoral/How-do-school-resources-and-learning/991005543250507891>

12. <https://www.worldbank.org/en/topic/education/brief/oecd-program-for-international-student-assessment-pisa-2018-survey#:~:text=Results%20of%20the%20PISA%202018,released%20in%20early%20December%202019.>

13. https://www.theglobaleconomy.com/Germany/pisa_readi ng_scores/



O'T TOSHINING KIMYOVIY TARKIBINI O'RGANISHGA KIRISHISH

Razzakov Nabijon Alijonovich

PhD, dotsent. Kokand university Andijon filiali

Jalilov Ma'rufjon Jumanazarovich

PhD, dotsent. Kokand university Andijon filiali

Jalilov Muzaffar Jumanazarovich

Talaba - Kokand university Andijon filiali

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil

Jurnal soni: 14

Maqola raqami: 22

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1133>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

o't toshi, xolelitiaz, xolesterin, o't kislotasi, qutbli erituvchi, efir, spektrofotometr.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o't qopidagi o'zgarishlar, kasallikka olib keluvchi omillar va uning oqibatlari haqida so'z boradi. O't toshining organoleptik xossalari laboratoriya sharoitida o'rganilish usullari va uning natijalari keltirilgan. Namunaning eruvchanlik xossasini turli hil erituvchilarda erish tabiati o'rganildi. Shu bilan birga o't toshi tarkibidagi xolesterin va o't kislotasining miqdorini spektrofotometrik usulda tadqiq qilindi.

Kirish. Jahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti (JSST) bergan ma'lumotlarga ko'ra o't – tosh kasalligi (O'TK) aholi orasida ko'p uchrashi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, g'arb mamlakatlarida (Yevropa, Shimoliy Amerika, Rossiya) keng tarqalganligi, bu kasallik chastotasi 10-15%. qayd etilgan. Afrika, Osiyo mamlakatlari va Yaponiyada esa tarqalgan 3,5-5% ni tashkil qiladi (Ивашкин.В, 2016).

Surunkali xolelitiy - o'tpufagining yallig'lanish kasalligi - ayniqsa, yoshguruhidakeng tarqalgan 40 - 70 yoshdagiguruh va yollardako'proquchraydi.

Bukasallikning aniqlanishibemorlardavaqtinchaliknogironlikningumumi ysababisifatidahayottarzingyomonlashuvio'rnidabirin chinavbatda, muayyanqiyinchiliklartug'diradi (Петров.В, 2011)

Tadqiqotlarga ko'ra, hozirgi vaqtda o't pufagi kasalligi ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari orasida kasallanish darajasi bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Rossiyada xolelitiyoz bilan kasallanish o'rtacha Evropa ko'rsatkichlari darajasida - taxminan 10% (Азатян К, 2013). O't tosh kasalligi, xolelitiyaz — organizmda moddalar almashinuvi buzilishi natijasida o't pufagi va o't yo'llarida tosh paydo bo'lishi, ularda o't dimlanib qolishi bilan kechadigan kasallik. Kasallik ayollarda ko'proq uchraydi, sekin-asta rivojlanadi. Ko'pincha bemor bir necha yil davomida o'ng qovurg'alar ostida og'irlik sezib yuradi, og'zda taxir ta'm paydo bo'lib, jig'ildoni qaynaydi (xususan, qovurilgan, dudlangan, tuzlangan mahsulotlar iste'mol qilinganida). Bu o't tosh kasalligining dastlabki alomatlar bo'lib, kasallik kechiktirib yuborilganda o'ng qovurg'alar osti sanchib og'riq, qorin, o'ng kurak, o'ng yelka, o'mrov va kuraklararo sohaga tarqaladi. Bu alomatlar o't pufagida tosh paydo bo'lganligini bildiradi. Toshlar soni va kattakichikligi har xil, tarkibiga ko'ra bir xil (xolesterinli, o't pigmentli, kaltsiy tuzli va boshqalar) va aralash bo'ladi.

Haddan tashqari ko'p ovqat yeyish, shuningdek, kam harakat (gipodinamika) hayot tarzi natijasida o't dimlanib qolishi ham o't tosh kasalligiga olib kelishi mumkin. O't dimlanib qolishiga o't pufagi va o't yo'llarining yallig'lanishi, ularda anatomik o'zgarishlar paydo bo'lishi (chandiklanish, bitib qolish) va bu a'zolar harakatining susayishi (bir maromda ovqatlanmaslik, qorin dam bo'lishi, qabziyat va boshqalar)


sabab bo'ladi. Ovqat ratsionining xilma xilligi, irsiy omil, semirishga moyillik va boshqalar o't tosh kasalligiga sabab bo'lishi kuzatiladi. Moddalar almashinuvi buzilishi, o't dimlanib qolishi natijasida, o't suyuqligi tarkibidagi o't kislotasi miqdori kamayadi, bu esa o't pigmentlar xolesterin va bilirubinning cho'kib, ulardan tosh paydo bo'lishiga olib keladi. O't kislotasi miqdori iste'mol qilinadigan yog' tarkibi va miqdoriga ma'lum darajada bog'liq; ovqat tarkibida yog' ko'p yoki kam bo'lganida ham tosh hosil bo'ladi (Паньков О, 2024). O't tosh kasalligida bemor mutahasis buyurgan ovqatlanish tartibiga qat'iy amal qilishi zarur. Badan tarbiya bilan shug'ullanish, semirmaslik chorasini ko'rish o't tosh kasalligining oldini olishda ahamiyatga ega. Kasallik xurujida spazmolitik dorilar, yallig'lanishga qarshi antibiotik va sulfanilamid preparatlari qo'llanadi. Kasallik uzoq davom etsa va asorat bersa, jarrohlik amaliyoti qo'llaniladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimizni o't toshining kimyoviy tarkibini aniqlashda kimyoviy va spektrofotometrik uslubdan foydalanildi. Namunaning kimyoviy tarkibini o'rganishda kimyoviy hamda zamonaviy fizik – kimyoviy usullar qo'llanildi. Buning uchun UV Spektrofotometr (Shimadzu UV-1800 va Rayleigh UV-2601) rusumidagi uskunadan foydalanildi.

Xolesistit, saraton kabi kasalliklarda diagnostikasida va umuman gastroenterologik yo'nalishda kasallikni erta aniqlashning eng muhim va samarali yechimi xisoblanadi (Eunjin Jang. etc., 2023).

Kimyoviy usul: Namunaning avval turli hil erituvchilarda eruvchanligi o'rganildi. Buning uchun erituvchilar sifatida etanol - 96%, metanol, efir "Dietil Efir", geksan, atseton, ionsizlashtirilgan suv dan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Yuqorida 6 xil erituvchilaryordamida 24 soat davomida erishini tekshirish jarayoni ko'rsatilgan. Har bir namuna aniq ($\pm 0,0001g$) aniqlikda tortilib, bir sutka mobaynida erituvchilarda ushlab turildi. O't toshining dietil efirida to'liq erib ketganligini ko'rish mumkin. Quyidagi diagrammada esa o't toshining eruvchanligi foizlarda keltirilgan:



1. Rasm. O't toshining turli erituvchilarda eruvchanli (foizlarda - massaga nisbatan)


O't Pufagi toshlari og'irligi aniqlab olindi, na'munalar xovoncha yordamida maydalab kukunholiga keltirib olindi va analitik tarozi yordamida 500 ± 002 mg (aniq miqdorda) maydalangan kukunidan tortib olindi. Hosil bo'lgan eritmani (0.45 μ m) li filtr yordamida filtrlandi hamda filtratdan 5ml (aniq miqdorda) olinib 50ml kolbaga quyildi va

50ml ga yetkezb erituvchi (Etanol 96%) yordamida suyultirildi. So'ngra eritma namunasi dan kyuvetaga quyib olib Shimadzu UV-1800 Spektrofotometr ga joylandi so'ng 290 nm to'qin uzunligida tekshirildi. Quyida o't toshining spektrogrammasi keltirildi;

Spectrum Point Pick Report

19.09.2024 13:11:28

Data Set: 2 - RawData



2. Rasm. Namunaning olingan spektrogrammasi

O't Pufagi toshlari og'irligi aniqlab olindi, na'munalar Xovoncha yordamida maydalab kukunholiga keltirib olindi va analitik tarozi yordamida 500 ± 0002 mg (aniq miqdorda) maydalangan kukunidan tortib olindi. Tortib olingan kukunni 50 ml lik kolbaga joylandi va 50 ml o'lchoviga yertkazib erituvchi (Etanol 96%) quyildi va 30 daqiqa davomida ultra tovushli xammomida eritildi. Hosil bo'lgan eritmani

qog'oz filtr yordamida filtrlandi. So'ngra eritma namunasidan kyuvetaga quyib olib Rayleigh UV-2601 Spektrofotometr ga joylandi va 200nm dan 300nm to'qin uzunligi belgilandi, to'qinning eng yuqori nuqtasi (219 nm) dagi korsatgichni aniqlab olindiva natijalar aniqlandi. Olingan natijalar quyidagi rasmda berildi;

Mode: Abs


Sample:

Test Time: 2024-08-26 19:06

Scan Speed: Fast

Operator: Jalilov Muzaffar

Print Time: 2024-08-26 19:07



Index	WL(nm)	Abs	Peak/Valley
1	219,00	2,425	

3. Rasm. Namunaning olingan spektrogrammasi

Olingan natijalarni quyidagi formula orqali hisoblab topildi:

$$c = \frac{A}{\epsilon \cdot l}$$

Bu yerda:

- A – absorbsiya (yutilishning pik qiymati)
- ϵ – molyar yutilish koeffitsiyenti ($\frac{1}{\text{mol} \cdot \text{cm}}$)
- c – moddalarning konsentratsiyasi ($\frac{\text{mol}}{l}$)
- l – kuyuvadan o'tgan yorug'lik nurlanish yo'li (sm).

Spektrofotometrlarda olingan natijalar hisoblanganda 500 mg O't toshi namunasida O't suyuqligi tarkibiga kiruvchi **bilirubin** moddasining miqdori 0.019 mg ga teng, **xolesterin** moddasining miqdori esa 39.1mg ga teng ekanligini aniqladik

Xulosa.. Biz tomondan olib borilgan tadqiqotlar kasallikning kelib chiqish sabablari va ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. O't toshi namunasida O't suyuqligi tarkibiga kiruvchi bilirubin moddasining miqdori 0.019 mg ga teng, xolesterin moddasining miqdori esa 39.1 mg ga teng ekanligini eksperimental yo'l bilan isbotlandi. Olingan natijalar asosida biz quyidagi tavsiyalarni beramiz:

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.В.Т. Ивашкин, И.В. Маев, Е.К. Баранская, А.В. Охлобыстин, Ю.О. Шульпекова, А.С. Трухманов, А.А. Шептулин, Т.Л. Лапина. 2016 // Рекомендации Российской гастроэнтерологической ассоциации по диагностике и лечению желчнокаменной болезни // Клинические рекомендации, №3..стр. 64

2.Азатян К.А., Алексеев А.В., Зубарева. 2013. ИССЛЕДОВАНИЕ СОСТАВА ЖЕЛЧНЫХ КАМНЕЙ И СПОСОБОВ ИХ РАСТВОРЕНИЯ Г.М. ГБОУ ВПО «Тверская ГМА Минздрава России», Тверь, №9, стр. 12

3. Паньков О.А, 2024. // Эффективность медицинской реабилитации пациентов с хроническим бескаменным

1) O't toshi kasalligini oldini olishda sog'lom ovqatlanish rejimiga qat'iy rioya qilish, ayniqsa taomlarning tarkibiga e'tibor qaratish muhimdir;

2) Yuqori yog'li va ayniqsa O'rta osiyo hududida ko'p istemol qilinuvchi Paxta moyi iste'molini kamaytirish;

3) Tez tayyor bo'luvchi ovqatlar (fast food) dan hamda uzoq turib qolgan ovqatlarni istemolini kamaytirish;

4) Meva va sabzavotlar bilan boyitib to'g'ri ovqatlanishni yo'lga qo'yish;

5) Sport bilan muntazam shug'ullanishi tavsiya etamiz.

холециститом на основе комплексного применения лечебных физических факторов // Дисс. Москва. С.16

4. Петров.В.Н, Лапотников В.А . 2011 // Хронический холецистит // Гастроэнтерологич. пор. Стр.1

5. Eunjin Jang, Sunhee Jung, Woosuk Sohng, Dongho Choi, Geum-Sook Hwang, Hoeil Chung. 2023// Screening of gall bladder cancer through infrared analysis of bile and examination of varied bile constituent composition by the disease. Spectrochimica Acta Part A: Molecular and Biomolecular Spectroscopy. P.1220



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING TARBIVAVIY FAOLIYATGA DOIR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK SHART SHAROITLARI

Orziqulov Xusnidin To'liqin o'g'li

Qo'qon universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

E-mail: xusnidinorziqulov@mail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 23 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1134 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS Kompetensiya, faoliyatga doir, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-reabilitatsion, pedagogik va psixologik shart sharoitlar	Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish muammosi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosi yetarlicha tadqiq etilmaganligi sabab, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirishning pedagogik va psixologik shart sharoitlari, o'qituvchilarda shakllanishi lozim bo'lgan kasbiy-pedagogik kompetensiyalarning ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Kirish. Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot tashkilotlarda boshlang'ich sinf o'qituvchilarini rivojlantiruvchi ta'limga maqsadli tayyorlash, ta'limni tashkil etishga doir maxsus kompetentligini shakllantirish, oila va turli tashkilotlar bilan tarbiyaviy faoliyatga doir hamkorlikni ta'minlashning metodik asoslarini takomillashtirishga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ta'lim sohasida global ahamiyat kasb etadigan tarbiyaviy faoliyatga doir integratsiyani ta'minlash, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kiber ijtimoiylashuv sharoitida bolalarni turli qiynoq va tazyiqlardan kompleks himoya qilishga tarbiyaviy faoliyatga doir integratsiyasini ta'minlash, intensiv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuqori motivatsion individual ta'lim traektoriyasini shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga e'tibor berilmoqda [8].

Bugungi kunda ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu bosqichda beriladigan bilim va tarbiya bolaning keyingi ta'lim jarayoni hamda hayotiy kompetensiyalarini egallashida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, jamiyatning ijtimoiy-madaniy o'zgarishlari, ta'lim standartlarining yangilanishi va globalizatsiya sharoitida pedagoglarning nafaqat fan bo'yicha bilimdon bo'lishi, balki tarbiyaviy jihatdan ham yetuk bo'lishi talab etiladi. Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirishning pedagogik va psixologik shart-sharoitlarini aniqlash, samarali usullarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. Bu nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalashga ham xizmat qiladi.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim mazmunini integratsiyalash, bo'lajak o'qituvchilarni raqamli texnologiyalar vositasida ta'lim-tarbiya berish bo'yicha innovatsion tayyorlarligini takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Gumanitar va pedagogik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalar ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha umumta'lim maktablariga xorijiy tillarni o'zlashtirgan, yuqori malakali professional kadrlarni yetkazib berish" ta'lim sifatini oshirishning ustuvor vazifasi etib belgilab berildi. Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirishga doir ta'limiy vaziyatlar

va topshiriqlarni loyihalash metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi [7].

Adabiyotlar tahlili. Tarbiyaviy ishlar metodikasiga oid zamonaviy ta'lim texnologiyalar asosida ta'lim sifatini oshirish O.Musurmonova, N.Muslimov, M.Urazova, B.Xodjayev, M.Mirsoliyevlar talabalarni tarbiyaviy ishlar yuzasidan faoliyatga tayyorlash M.Quronov, N.Egamberdiyeva, R.Mavlonova, F.Qo'chqarova, Sh.Sodiqova, Z.Kurbanizayova, M.Dexqonova, N.Mamatkulovalar tomonidan tadqiq etilgan.


Mustaqil davlatlar xamdo'stligi mamlakatlarida zamonaviy o'qitish texnologiyalari, ulardan o'quv jarayonida foydalanish, talabalarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish N.Azizxodjayeva, N.Belyakova, B.Baydenko, A.Markova, O.Anisimov, I.Zimnyaya, F.Alipxanov, B.Gaibova, A.Daxin, E.Shevarshinovalar pedagogning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish L.Pavlova, E.Fedorova, D.Elkoninlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida olib borishgan.

Xorijiy davlatlarda tarbiyaviy o'quv jarayonidan foydalanish yuzasidan F.Delamare va J.Winterton, B.Bishop va S.Anderson, O.S.Grebenyuk va T.B.Grebenyuklar ta'limda o'qitish samaradorligini oshirishning didaktik vositalarini ishlab chiqish va samarali foydalanish M.Berkman va E.Plutzer, N.Eisenberg, C.David Montersenlar tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Bugungi kunda ta'limning zamonaviy texnologiyalari ta'lim jarayonlarini tashkil etish shakllari va usullariga yangi talablarni qo'yadi. Ta'lim tarbiya jarayonidagi muammolari, ularni yechimini topish bo'yicha ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir.

Ta'lim tarbiya jarayonidagi muammolarni yechimini topish muhim masala sanaladi. Natijada ta'lim tarbiya jarayonidagi muammolarni yechimini topishning to'rt bosqichdan iborat mantiqiy shakli paydo bo'ldi(1-rasm):



1-rasm. Ta'lim tarbiya jarayonidagi muammolarni yechimini topishning asosiy bosqichlari.

Darhaqiqat, yangilanib borayotgan ta'lim tizimini joriy etishda har bir oliy ta'lim tizimidagi o'qituvchilarining o'z faniga, qolaversa, kelajak avlod tarbiyasiga doir ijtimoiy- pedagogik kompetentligini takomillashtirishi va ularni o'z pedagogik faoliyatida izchillilik asosida amaliyotda qo'llay olish mahoratiga ega bo'lishi bugungi kunning dolzarb talabi sanaladi. Mamlakatimizda bo'lajak mutaxassislarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish sifatini yanada oshirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash borasida ko'plab faoliyatlar olib borilmoqda. Shu o'rinda, bo'lajak mutaxassislarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish uchun pedagogik va ilmiy bilimlar integratsiyasini ta'minlash zarur. Bo'lajak mutaxassislarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish jarayonida ilmiy bilimlar kesimini fanga oid tushunchalar tizimida integratsion jarayonni foydalanishga olib kelmoqda.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish metodikasini borasida bir qator ilmiy ishlar olib borilgan. Biroq bu muammoning turli jihatlari, xususiyatlari va uning aspektlariga olimlarning qiziqishlari ortib bormoqda. Bu esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish metodikasining hozirgi globalashuv jarayoni bosqichida alohida ahamiyatga egaligi hamda uning dolzarbligidan dalolat beradi [2].

Olib borilgan tadqiqotlar ishlari shuni ko'rsatadiki, nazariy manbalar mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari bilan bevosita tanishish, oliy ta'lim tizimi faoliyatini o'rganish natijasida mavjud topilgan dalillarni sinchiklab o'rganish oliy ta'lim tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish jarayonida bir qator qarama-qarshiliklar mavjudligi aniqlandi, xususan: oliy ta'lim muassasasi bo'lajak mutaxassisning ma'lumoti darajasi bilan Davlat ta'lim standartidagi malaka talablarining mazmuni hamda uning hajmiga qo'yilayotgan talablar va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlarini amalga oshirish darajasi o'rtasida;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish jarayonida ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda oliy ta'lim faoliyati bilan talabani faoliyat jarayonini rivojlantirish mexanizmi va qonuniyatlari o'rtasida;

bo'lajak biolog mutaxassislarini tayyorlashda ularning kasbiy hamda metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonida o'qitish shakllarida qo'llanilayotgan an'anaviy hamda innovatsion metodlar o'rtasida;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish borasida umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bilan integratsiyalashgan holda yetarlicha foydalanilmayotganligi o'rtasida;

oliy ta'lim muassasalarida o'quv rejalaridan o'rin olgan fanlar hamda mazmuni o'rtasidagi ziddiyatlarni ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq sanaladi.

Yuqorida sanab o'tilgan bir nechta qarama-qarshi masalalarni bartaraf etish uchun yagona yo'l bu - bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish hisoblanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik sharoitlarni yaratish, bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlash jarayonining mazmuni, tuzilishini rivojlantirish, pedagogik-psixologik imkoniyatlarni aniqlash, nazorat qilish hamda baholash jarayonlarini zamon talablariga moslashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirishning asosiy maqsadini belgilab beradi [4].

O'zbekiston Respublikasining pedagogik kadrlari, shu jumladan, oliy ta'lim tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini oldiga qo'yilayotgan muhim vazifalaridan biri bu o'z kasbining ustasi, mahoratli faoliyat olib boruvchi kasbiy-metodik bilim sohibi, yuksak malakaga ega bo'lgan mutaxassis, tengsiz qobiliyatga ega, o'ziga xos pedagogik xususiyatini faoliyatida ko'rsata oladigan, shaxsiy fazilatlari bilan boshqa hamkasblariga o'rnatib bo'la oladigan, o'quvchilar dardi bilan yashaydigan hamda dars olib borishda innovatsion metodlar orqali o'quvchilarni qiziqitirib oladigan tengsiz iqtidor egasi sifatida faoliyat olib borishida namoyon bo'ladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining

tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish metodikasi O'zbekistonda shakllanib kelayotgan yosh avlodni g'oyalar tizimiga ta'lim - tarbiya jarayonida har tomonlama yetuk shaxs bo'lib kamol topishiga, talabaning bilim salohiyati, fikrlash qobiliyatiga bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish shu bu o'z ish faoliyatda muayyan o'ringa ega bo'lishi, odamlar ichida obro' e'tiborini qozonishi, kasbiy faoliyatida pedagogik, psixologik, metodik, ilmiy salohiyat kabi ketma ket yondashuvlar tizimiga bevosita bog'liq [3].

Fan va texnika taraqqiyotining jadal rivojlanish jarayonida raqobatbardosh bo'lish, har bir mutaxassisdan tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish masalalari tadqiqot ob'ekti sifatida oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak fan o'qituvchilari, ya'ni talaba faoliyatida qaraladi.

N.A. Muslimovning ta'kidlashicha: "Kompetentlik" tushunchasi - "qobiliyat") - ya'ni bu o'z faoliyat davomida nazariy bilimlardan foydalanib, yuksak darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni ko'rsata olishni anglatadi. "Kompetent", "kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan, kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini tutishi, muloqotda bo'la olishi, hamkasblari bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l topa bilishi, mukammal vazifalarni bajarishi, murakkab ma'lumotlardan foydalanish jarayonida, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi [2].

Tadqiqot natijalari. Pedagogika sohasida kompetensiyaviy yondashish mutloqo yangi hodisa emas, ko'pchilik olimlar N.V.Kuzmina, A.K.Markova, E.F.Zeer, E.S.Polotin o'qituvchining kasbiy kompetentligi haqidagi fikrlarga oydinlik kiritishda o'z hissarini qo'shishga yordam berishgan. Tadqiqotchi B.Nazarova o'zining ilmiy faoliyati jarayonida D.Dyui, U.Uoller, M.Mid, K.Yung, F.Znanetskiylarning qarashlarida kasbiy-pedagogik kompetentlik tushunchasiga quyidagi ta'rif bilan izohlaydi: "Bu muhitga o'rganish vositasi, chunki kasb odamni unga to'g'riylaydi, odamning qiziqishlarini aniqlaydi, bitta kasbda ishlagan odamlarning qiziqishlarini jamlaydi" [3].

R.X.Tugeshhev kompetensiyaviy tarbiyaviy faoliyatga doir jihatlarni quyidagicha bayon etadi - o'z kasbining mohir ustasi, tengi yo'q qobiliyat egasidir, o'z ta'riflarni yana quyidagicha davom ettiradi: tarbiyaviy faoliyatga doir jihatlarni davom ettirish jarayonidagi murakkab vaziyatlarni yengib o'tish texnikasi, bilimlar zanjirining ketma-ketligi, qiziqishlari va qarashlari, o'z faoliyatining ijobiy natijasi, hayotdagi egallagan o'rni, tengsiz kasb egasi, o'ziga xos xususiyat sohibi, mukammal mutaxassis bo'la olish san'ati, tarbiyaviy faoliyatga doir yetuk bilimga ega bo'lishi, amaliy ko'nikmalari, turli jarayonlarga baho bera olish san'ati, muammoli vaziyatlardan yo'l topa bilishi kabi xususiyatlar zanjiridir [4].

Yu.G.Taturning fikricha, har bir yo'lda uchrayotgan to'siqning yechimi, muammoli vaziyatlardan yo'l topa olish san'ati kabi qobiliyatlar zanjirini kompetentlik deb ta'riflaydi [5].

J.E.Usarovning ta'kidlashicha, ijtimoiy va pedagogik sifatlar tizimini uyg'unlashtirgan yaxlit sistemadir, ya'ni ulkan marralarga eltuvchi, yaxlit faoliyatni egallash jarayoni kompetensiyadir. Kompetensiya egasi bu - o'z kasbining ustasi, mukammal bilim egasi, o'z faoliyati davomida o'ziga xoslik prinsipini ilgari suruvchi, tengsiz vaziyatlarga mukammal yechim topa bilish san'ati egasi, nazariya va amaliyot zanjirini faoliyati negizida doimiy davom ettiruvchi qobiliyat sohibini nazarda tutadi.

A.K.Markova ko'plab o'qituvchi mehnatining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligi asoslarini o'rgangan pedagog olimi hisoblanib, u o'qituvchi pedagogik kompetentligining muhim tarkibiy asoslari to'rtga bo'lib, o'rganishni tavsiya etadi [3].

A.K.Markova o'qituvchining mehnati kompetentlikka aylanadi qachon-ki o'qituvchi o'z faoliyatini yetarlicha yuqori hamda talabalarni o'qitish va tarbiyalashni yuqori darajada amalga oshirsa. Ushbu asoslar bilan birga o'qituvchining kasbiy kompetentligini to'rtga bo'lib o'rganadi.

Maxsus yoki faoliyatli kasbiy kompetentlik - bu faoliyatni yuqori kasbiy darajada olib borishi. Maxsus kasbiy kompetentlik, nafaqat maxsus bilimlardan, balki bu bilimlarni amalga oshirishdan iborat.

Tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentlik – bu qo‘shimcha faoliyatni olib borish yo‘llarini hamkorlikda bajarishni bilishdir.

Shaxsiy kompetentlik – o‘zini rivojlantirish va o‘zini ko‘rsatish yo‘llarini bilish (mutaxassis o‘zining faoliyatini rejalashtirish, mustaqil qaror qilish, ma‘lumotlar bilan va o‘z ustida ishlash).

Individual kompetentlik – bu o‘zini boshqarish yo‘llarini bilish, kasbiy rivojlanishga tayyorgarlik va kasbiy yangiliklar yaratish. Shu bilan birga o‘qituvchining bilimlari yangiliklar bilan boyigan bo‘lishi, psixologik va pedagogik fazilatlar yuqori darajada bo‘lishidir. Tarbiyaviy faoliyatga doir kompetensiya va uni tushunishda – tarbiyaviy faoliyatga doir jamiyatni subyekti bo‘lgan, insonni sifatli mehnat faoliyati, jamiyat a‘zolarining o‘zaro ta‘sirini bilan bog‘liq tarbiyaviy faoliyatga doir hayotini tartibga soluvchi faoliyatga oid normalar tushuniladi.

A.K.Markova o‘qituvchini tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentlikka ega bo‘lgan o‘qituvchi deb, pedagogik faoliyatini, pedagogik muammoni yetarlicha yuqori darajaga oshirgan, yoshlarni o‘qitishda va tarbiyalashda yuqori natijalarga erishgan vaqti deb ta’kidlaydi. Mukammal kompetent egasi pedagogik va psixologik xususiyatlar zanjiridan mehnati davomida foydalanishida ko‘rinadi [3].

Xulosa. Pedagogning barcha faoliyati vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bular safiga maqsadga erishishda zarur bo‘ladigan barcha harakatlar, predmetlar, qurollar, usullar va texnologiyalarni kiritish mumkin. Har bir insonning jamiyat hayotida ongli ravishda mustaqil ishtirok etishi, tarbiyaviy ishlar bo‘yicha ma’naviy sohada yuzaga keladigan muammolarni yetarli darajada hal etishga qaratilgan harakati tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligida namoyon bo‘ladi. Mazkur harakatni ma’naviy qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar asosida tashkillashtirish – bugungi va kelajak hayotimizni ma’naviy-axloqiy inqirozlardan saqlashning har tomonlama kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

– **birinchidan**, tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligining ma’naviy-axloqiy omillar bilan o‘zaro determinlashganligi ma’lum bir shart-sharoitlarni yaratishni taqozo qiladi;

– **ikkinchidan**, axloqiy meyorlar va prinsiplarning umumiy insonparvarlik mezonini butun insoniyat tarbiyaviy faoliyatga doir faolligini barqarorlashtirish bilan tavsiflanadi;

– **uchinchidan esa**, tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligining ma’naviy-axloqiy tamoyillari ishlab chiqilishi kerak

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika (darslik) –T.: 2009 y.
2. Mavlonova R., Vohidova N.X. Ijtimoiy pedagogika (o‘quv qo‘llanma) –T.: 2009 y.
3. Галагозова М.А. Социальная педагогика (Учебное пособие) – М.2000 г.
4. Mavlonova R., Vohidova N.X., Rahmonqulova N.H. Pedagogika nazariyasi va tarixi (o‘quv qo‘llanma) –T.Fan va texnologiyalar: 2010 y.
5. Yo‘ldoshev J. Ta‘lim yangilanish yo‘lida. – T.: O‘qituvchi.

bo‘lib, ushbu tamoyillar milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan bo‘lishi lozim;

– **to‘rtinchidan**, yoshlarda ma’naviy-axloqiy sifat va fazilatlarini hamda tamoyillarni shakllantirish bilan tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini o‘zaro uyg‘unligiga erishish, kelajakda barkamol avlodni ma’naviy yetuk inson sifatida shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish bugungi ta‘lim tizimining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki boshlang‘ich sinf davri bolaning shaxs sifatida shakllanishi va ijtimoiylashuvi uchun asosiy bosqich sanaladi. O‘qituvchining, nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etish, o‘quvchilarning axloqiy-ruhiy rivojlanishiga ta‘sir o‘tkazish qobiliyati yuqori bo‘lishi talab etiladi.

Tarbiyaviy faoliyatga oid kompetentlikni shakllantirishning pedagogik va psixologik shart-sharoitlarini tahlil qilish natijasida, ushbu jarayon o‘qituvchi tayyorlash tizimidagi o‘quv dasturlari, amaliy mashg‘ulotlar, psixologik tayyorgarlik hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish bilan uzviy bog‘liq ekanligi aniqlandi. Shu boisdan, pedagog kadrlarni tayyorlashda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, zamonaviy ta‘lim va tarbiya metodlarini qo‘llash, shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan psixologik treninglar tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Takliflar: O‘qituvchi tayyorlash tizimini takomillashtirish: Oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun tarbiyaviy kompetentlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan maxsus kurslar va amaliy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish lozim.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish: Interfaol ta‘lim usullari, refleksiya, muammoli ta‘lim va loyihaviy metodlarni keng qo‘llash orqali o‘qituvchilarning tarbiyaviy faoliyat bo‘yicha malakasini oshirish zarur.

Psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish: Talabalarining tarbiyaviy jarayonda duch kelishi mumkin bo‘lgan psixologik muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus trening va seminarlar tashkil etish kerak.

Amaliy tajribalarni oshirish: Talabalar uchun maktablarda pedagogik amaliyot muddatini uzaytirish va ular tomonidan tarbiyaviy tadbirlarni mustaqil tashkil etish imkoniyatlarini yaratish.

2000 y.

6. Подласый И.П. Педагогика. В 2х кн. М.Владос.2003

7. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni / “Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi”, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son. <https://lex.uz/doss/5013007>.

8. Инчхонская декларация – Образование – 2030: обеспечение всеобщего инклюзивного и справедливого качественного образования и обучения на протяжении всей жизни // Всемирный форум по образованию, Incheon, Korea R, 2015.



TA'LIM TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI

Taylakova Dilnoza Norbekovna

Oriental universiteti dotsenti

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 24 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1135 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS didaktik shart-sharoit, ta'lim, metod, yondashuv	Ushbu maqolada ta'lim texnologiyalari asosida darslarni tashkil etishning didaktik shart-sharoitlarini haqida ma'lumot keltirilgan. Tadqiqotimizda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining o'qitish jarayonidagi o'zni va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan metodlar ko'rib chiqiladi. Maqolada didaktik shart-sharoitlar, o'qituvchi va talabaning o'zaro munosabati, shuningdek, o'quv texnologiyalarining pedagogik ta'siri yoritib berilgan. Izlanishlarimiz davomida interaktiv va multimedia vositalarini qo'llash kabi innovatsion metodlardan foydalanish orqali o'quv jarayonini yaxshilash orqali ta'lim texnologiyalarining samarali qo'llanilishi o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi hamda o'quv jarayonining sifatini yaxshilaydi. Shuningdek, didaktik shart-sharoitlarning yangilanishi ta'limda yuqori natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kirish. Dunyo bo'ylab zamonaviy ta'lim tizimida katta o'zgarishlar va yangilanishlar asta sekin o'z timsolini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda ta'limning sifati nafaqat o'quvchilarni bilimlar bilan ta'minlash, balki ularning shaxsiy rivojlanishini, kognitiv va psixologik qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan yondashuvlarni ham o'z ichiga oladi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, eng muhimi, ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llashda mavjud didaktik shart-sharoitlarning to'g'ri tashkil etilishidir. Ta'lim texnologiyalarining joriy etilishi, o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini yanada samarali qilish, o'qituvchilar esa o'z pedagogik malakalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi¹.

Ta'lim texnologiyalarini qo'llashning asosiy maqsadi, o'quv jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali qilishdir. Bunda, ta'lim texnologiyalari yordamida darslarni tashkil etishning didaktik shart-sharoitlari o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqot, o'quvchilarning faoliyatini boshqarish va ularning individual xususiyatlariga mos yondashuvlarni taqdim etish imkonini yaratadi².

Ushbu maqolada ta'lim texnologiyalari asosida darslarni tashkil etishning didaktik shart-sharoitlari o'rganiladi. Maqolaning dolzarbligi, XXI asrda ta'lim tizimining rivojlanishi bilan bog'liqdir. O'quvchilarga bilim berish jarayonida yangi texnologiyalarni joriy etish, ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarni malakali ravishda tayyorlash zaruriyati kuchaymoqda. Yangi didaktik yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar va interaktiv o'quv vositalari yordamida darslar tashkil etilishi ta'lim jarayonini samarali va mazmunli qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim texnologiyalarining so'nggi yillarda kashf etilgan innovatsion imkoniyatlari, o'qitish metodikalarini, darslarni tashkil etishning uslublarini, shuningdek, o'quvchilarning bilim olish jarayonini jiddiy o'zgartirgan. Ma'lumki, ta'lim texnologiyalari yordamida o'quvchilar faollashadi, o'qituvchilar esa darslarni yanada jonli va interaktiv shaklda o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yondashuvlar o'qituvchining pedagogik malakasini oshirishga, o'quvchilarni faollashtirishga va ularga individual yondashuvlarni taqdim etishga xizmat qiladi. Shu sababli, ta'lim texnologiyalarining didaktik shart-sharoitlarini o'rganish bugungi ta'lim tizimining asosiy yo'nalishlaridan biridir³.

Ma'lumki, bugungi kunda ta'lim jarayonida texnologiyalarni qo'llashning samaradorligini oshirish uchun doimiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, bu borada xorijiy va o'zbek olimlarining ilmiy ishlarida ta'lim texnologiyalarining ta'siri, o'quv jarayonida samarali foydalanishning usullari haqida qator izlanishlar mavjud. Bu ilmiy tadqiqotlar ta'lim texnologiyalarini didaktik shart-sharoitlar bilan birgalikda o'rganishning zarurligini ko'rsatadi.

Xorijiy olimlar ta'lim texnologiyalarining didaktik shart-sharoitlarga ta'sirini turli jihatlaridan o'rganishgan. Misol uchun, yetakchi olimlardan biri, Richard E. Mayer shunday o'z tadqiqotlarida, o'qitishda multimedia texnologiyalarini qo'llash orqali bilimlarni samarali o'zlashtirish imkoniyatlarini o'rganib, "multimedia prinsipini" ishlab chiqdi. U o'quvchilarni qiziqitirish va ularning e'tiborini jalb qilish uchun vizual va audio vositalar bilan integratsiyalashgan darslarni tashkil etish zarurligini ta'kidlagan. Mayerning fikriga ko'ra, texnologiyalar darsda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, chunki ularning vizual va eshitish qobiliyatlariga mos ravishda bilimlarni mustahkamlash imkoniyatini yaratadi⁴.

Yevropada, ayniqsa Germaniyada, ta'lim texnologiyalarining samarali qo'llanilishi bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borilgan. Jonassen, D. H o'z ishlarida o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqaning interaktiv shakllarini o'rganib, didaktik shart-sharoitlarning eng yaxshi natijaga erishishda qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. U ta'lim texnologiyalarining to'g'ri qo'llanilishi o'quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada samarali qilishini ta'kidladi⁵.

O'zbekistonda esa, ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi va ularning o'quv jarayoniga ta'siri bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. O'zbek olimlaridan biri, Hamidov J.A, o'z ilmiy ishida interaktiv texnologiyalarining o'quvchilarni motivatsiyalash va ularning faolligini oshirishdagi ahamiyatini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra, interaktiv texnologiyalar, masalan, elektron ta'lim platformalari, o'quvchilarga individual yondashuvni taqdim etishda muhim rol o'ynaydi va darslarni samarali tashkil etishga yordam beradi⁶.

Shuningdek, o'zbek olimlaridan *Qo'ysinov O.A* ta'lim texnologiyalarining pedagogik jihatlarini tahlil qilib, ta'lim jarayonining interaktiv va shaxsiylashtirilgan bo'lishi kerakligini urg'ulagan. Uning fikriga ko'ra, ta'lim texnologiyalarini joriy etish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda darslarni tashkil eta oladilar⁷.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim texnologiyalari asosida darslarni tashkil etishning didaktik shart-sharoitlarini o'rganish uchun asosiy metodologik yondashuv sifatida ta'lim texnologiyalarining pedagogik jihatlarini, o'qitishning didaktik shart-sharoitlari va innovatsion o'qitish metodlari tahlil qilingan. Keltirilgan metodologiya jarayonida amaliy va nazariy tadqiqot usullari hamda sifatli va miqdoriy tadqiqotlar kombinatsiyasi qo'llanilgan.

Birinchidan, tadqiqotda ta'lim texnologiyalarining ta'sirini o'rganish uchun mavjud adabiyotlar tahlil qilindi. Ushbu tahlil yordamida didaktik shart-sharoitlar, o'qitish jarayonining

¹ Salomon, G., & Perkins, D. N. (1998). Individual and social aspects of learning. Review of Research in Education, 23, 1–24. <https://doi.org/10.3102/00346543023001001>

² Seel, N. M. (2003). Instructional design: A systematic approach. In Handbook of research on educational communications and technology (pp. 505–521). Springer. https://doi.org/10.1007/0-387-23403-7_39

³ Anderson, C. A., & Dill, K. E. (2000). Video games and aggressive thoughts, feelings, and behavior in the laboratory and in life. Journal of Personality and Social Psychology, 78(4), 772–790. <https://doi.org/10.1037/0022-3514.78.4.772>

⁴ Mayer, R. E. (2005). The Cambridge handbook of multimedia learning. Cambridge University Press.

⁵ Jonassen, D. H. (2000). Computers as mindtools for schools: Engaging critical thinking. Prentice Hall.

⁶ Hamidov J.A Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qituvchining zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi: Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) diss. Avtoref. – T.: 2017. – 70 b.

⁷ Qo'ysinov O.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy pedagogik ijodkorligini kompetentli yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalari. Monografiya. – T.: "DELTA PRINT SERVIS" NASHRIYOTI. 2018. – 156 b

samaradorligini oshiruvchi texnologiyalar va metodlar haqida ilmiy qarashlar umumlashtirildi. Shuningdek, didaktik shart-sharoitlarning o'qituvchilar va talabalarga ta'siri, yangi pedagogik metodlarning qo'llanilishi va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni aniqlangan.

Ikkinchidan, maqolada sifatli tadqiqot metodlari hamda holat tahlili orqali o'qitishning real sharoitlarida texnologiyalarning qo'llanilishi o'rganildi. Bu jarayonda turli o'quv muassasalarida o'qitish jarayonini kuzatish, intervyular o'tkazish va o'quvchilar bilan so'rovlar o'tkazish orqali metodlar va texnologiyalarning samaradorligi haqidagi ma'lumotlar to'plandi. Tadqiqotda o'qituvchilarning fikr va mulohazalari hamda talabalar tomonidan ta'lim texnologiyalariga bo'lgan munosabatlari o'rganildi. Bu yondashuv ta'lim texnologiyalarining o'quv jarayoniga integratsiya qilinishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlarni aniqlashga yordam berdi.

Uchinchidan, miqdoriy metodlar yordamida o'qitish samaradorligini baholash uchun eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi. Tadqiqotda bir nechta guruhlar (eksperimental va nazorat guruhlari) asosida ta'lim texnologiyalarini qo'llash natijalari tahlil qilindi. Eksperimental guruhda zamonaviy ta'lim texnologiyalari (multimedia vositalari, interaktiv ta'lim platformalari, masofaviy ta'lim tizimlari) qo'llanildi, nazorat guruhida esa an'anaviy ta'lim metodlari asosida darslar olib borildi. Tadqiqot davomida talabalar o'rtasida o'quv natijalari, motivatsiya va o'quv faoliyatining faolligi o'lchandi. Olingan natijalar asosida ta'lim texnologiyalarining o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatiga ta'siri baholandi.

To'rtinchidan, maqolada tizimli yondashuv asosida o'qitishning didaktik shart-sharoitlari tahlil qilindi. Bu tahlilda o'qituvchilarning malakasi, o'quv texnologiyalarini qo'llash uchun zarur bo'lgan infratuzilma, ta'lim muassasasining material-texnik bazasi va o'quv dasturlari ko'rib chiqildi. Shuningdek, didaktik shart-sharoitlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun o'qituvchilarga maxsus treninglar va uslubiy qo'llanmalar taqdim etilishi zarurligi ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalari. Maqolada ta'lim texnologiyalari asosida darslarni tashkil etishning didaktik shart-sharoitlari tahlil qilindi va o'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi bilan bog'liq bir qator natijalar olinib, o'quvchilarning bilim olishdagi muvaffaqiyatlari, o'qitish samaradorligi va ta'lim texnologiyalarining pedagogik ta'siri haqida xulosa qilindi. Ushbu natijalar ta'limda texnologiyalarning ahamiyatini yanada oshirish zarurligini ko'rsatdi.

Tadqiqotda ta'lim texnologiyalarining o'quvchilar motivatsiyasiga salbiy yoki ijobiy ta'sirini aniqlashga urinishlar amalga oshirildi. O'qitish jarayonida interaktiv va multimedia vositalarining qo'llanilishi talabalar uchun o'qishni qiziqarli va samarali qilish imkoniyatini yaratadi. Eksperimental guruhda o'qigan talabalar, nazorat guruhiga qaraganda, darslarga yanada faol va qiziqish bilan yondashganligini ko'rsatdi. O'quvchilar o'zingizning bilim va ko'nikmalarini amalda sinab ko'rish, ta'lim jarayonini yangicha ko'rish orqali, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirdi va ta'limga bo'lgan motivatsiyasi kuchaydi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi o'quvchilarning o'quv faoliyatida yuqori natijalarga erishishiga olib keldi. Multimedia va interaktiv platformalar yordamida darslarni tashkil etish o'quvchilarning o'z fikrlarini ifodalash, muammoni hal qilish va kreativ yondashuvni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Texnologiyalar yordamida taqdim etilgan vizual va interaktiv materiallar o'quvchilarning e'tiborini jalb qilgan va mavzuni tezroq tushunishlariga yordam berdi. Bu o'z navbatida o'qitishning samaradorligini oshirdi.

Tadqiqotda shuningdek, o'qituvchilarning ta'lim texnologiyalarini qo'llashga tayyorligi ham o'rganildi. O'qituvchilar o'z malakalarini oshirish va yangi metodlarni o'zlashtirishda ba'zan qiyinchiliklarga duch kelgan. Ma'lum bo'lishicha, texnologiyalarga tayyorlik darajasi o'qitish jarayonida muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar ta'lim texnologiyalarini

Adabiyotlar

1. Salomon, G., & Perkins, D. N. (1998). Individual and social aspects of learning. *Review of Research in Education*, 23, 1–24. <https://doi.org/10.3102/00346543023001001>
2. Seel, N. M. (2003). Instructional design: A systematic approach. In *Handbook of research on educational communications and technology* (pp. 505–521). Springer. https://doi.org/10.1007/0-387-23403-7_39

to'liq va samarali qo'llash uchun, o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishi kerak. Ularning texnologik savodxonligini oshirish uchun maxsus treninglar va o'quv kurslari zarur. O'qituvchilarga kerakli texnologik vositalar bilan ta'minlash, shuningdek, o'qitish uslubiyotini yangilash, ta'limning samarali tashkil etilishiga yordam beradi.

O'quvchilarning o'zaro hamkorlik va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish: O'quvchilarga ta'lim texnologiyalari yordamida o'zaro hamkorlik qilish imkoniyati yaratilgan. Interaktiv dasturlar va onlayn platformalar orqali talabalar jamoa tarzida ishlashga, fikr almashishga va muammolarni birgalikda hal qilishga o'rgandilar. Bu usul o'quvchilarda jamoaviy ishlash, muloqot qilish, o'zaro hurmat va fikrlarni inobatga olish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarning jamoaviy faoliyatlarini tahlil qilish jarayonida, ularning o'zaro yordam berish va ko'proq faoliyat ko'rsatish tendensiyalari aniqlangani kuzatildi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning so'zlashuv va muloqot ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam berdi.

Darslarni tashkil etishda didaktik shart-sharoitlarning to'g'ri yaratilishi o'quv jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun muhimdir. O'quv texnologiyalarining samarali qo'llanilishi uchun o'qituvchilarga didaktik yondashuvni to'g'ri tanlash va o'quv jarayonini uzluksiz ravishda yangilab borish zarur. Darslarning interaktivligi, o'quvchilarning individual xususiyatlariga moslashishi va texnologiyalarning o'zaro uyg'unlashganligi o'qitishning samaradorligini oshiradi. Darslarni tashkil etishda o'qituvchilarning metodik qo'llanmalari, materiallar va texnologiyalarni to'g'ri tanlashi ham muhim rol o'ynaydi.

Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim texnologiyalarining o'quv jarayoniga integratsiyasi o'quvchilarning bilim olish jarayonini sifatli va samarali qilishga yordam beradi. Texnologiyalarning qo'llanilishi nafaqat o'quvchilarning motivatsiyasini oshirib, ularning faol ishtirokini ta'minlashga yordam beradi, balki o'qitishning didaktik shart-sharoitlarini ham yaxshilaydi. Biroq, o'qituvchilarning texnologik savodxonligi va metodik malakasi yuqori bo'lishi zarur. Shuningdek, ta'lim tizimi va o'quv muassasalari uchun zarur infratuzilmani yaratish, o'qituvchilarni doimiy ravishda yangi texnologiyalar bilan tanishtirish va ularga kerakli qo'llanma va metodik materiallar taqdim etish muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchilarning malakali bo'lishi va texnologiyalarni samarali qo'llashi ta'lim jarayonining sifatini yaxshilashga, o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, didaktik shart-sharoitlarning yangilanishi va ta'lim texnologiyalarining pedagogik yondashuvda to'g'ri qo'llanilishi o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga hamda ularning jamoaviy va individual ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining o'quv jarayoniga integratsiyasi o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshiradi. Multimedia vositalari, interaktiv platformalar va masofaviy ta'lim tizimlari yordamida o'quvchilarning motivatsiyasi va faol ishtiroki ortadi. O'qituvchilarning texnologiyalarga tayyorligi va malakasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning doimiy ravishda yangi metodlarga moslashishi talab etiladi. Darslarni tashkil etishda didaktik shart-sharoitlarning to'g'ri yaratilishi o'qitishning samaradorligini ta'minlaydi, o'quvchilarning individual ehtiyojlari va o'quv muassasasining infratuzilmasi o'qitish jarayonining sifatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llash ta'lim jarayonining barcha jihatlarida ijobiy natijalarga olib keladi va o'quvchilarning bilim olishdagi muvaffaqiyatini oshiradi. Biroq, bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun o'qituvchilarga doimiy malaka oshirish zarur.

3. Anderson, C. A., & Dill, K. E. (2000). Video games and aggressive thoughts, feelings, and behavior in the laboratory and in life. *Journal of Personality and Social Psychology*, 78(4), 772–790. <https://doi.org/10.1037/0022-3514.78.4.772>
4. Mayer, R. E. (2005). The Cambridge handbook of multimedia learning. Cambridge University Press.



BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIGA "BESHGA BO'LINISH ALOMATI" MAVZUSINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV

Mamajonov Sanjarbek Mirzayevich

Qo'qon Universiteti dotsenti

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

sanjarbekmamajonov@gmail.com

Komilova Gulnoza Kamoljon qizi

Qo'qon Universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 25 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1136	Ushbu maqolada beshga bo'linish alomati haqida batafsil ma'lumot berilgan. Beshga bo'linish alomati sonlarning beshga bo'linishini bo'lish jarayonini amalga oshirmasdan oldin aniqlashda yordam beradigan oddiy va samarali usuldir. Maqolada beshga bo'linish alomatining asosiy qoidalari, misollar va amaliy qo'llanilishi keltirilgan. Shuningdek, bu mavzu matematikada va kundalik hayotda qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida ham fikrlar bildiriladi. O'quvchilar va talabalar uchun foydali bo'lgan ushbu maqola beshga bo'linish alomati haqida chuqurroq tushuncha hosil qilishga yordam beradi.
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	
Beshga bo'linish alomati, matematik qoida, raqam, o'nlik sanoq tizimi, qoldiq, bo'linish, amaliy ahamiyati, hisob-kitob, o'quv jarayoni.	

Kirish. Davlatimiz rahbari tomonidan ta'lim tizimining ilk poydevori qo'yiladigan boshlang'ich ta'limni yangi pog'onaga olib chiqish, o'quvchilarning iqtidori hamda salohiyatini ilk yoshlardan oq to'g'ri yo'naltirish borasida juda ko'p tashabbuslar ilgari surilmoqda va bu sa'y-harakatlar o'quvchilar ta'lim-tarbiyasida o'zining ijobiy mevasini bermoqda.

Jumladan, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining tashkil topishi, Prezidentimizning "2023-2030-yillarda maktabgacha va maktab ta'limi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 8307-sonli qarori, "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"¹ kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi maktabgacha ta'lim tizimidagi ishlar sifati va samaradorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

4-sinf darsliklarda shunday misol, masala va topshiriqlarni uchratish mumkinki, u bevosita o'quvchilarda ijodkorlik, tadbirkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik xislatlarini tarbiya topishida bevosita xizmat qiladi. Matematikani zamonaviy metodlar nafaqat nazariy ahamiyati shuki, zamonaviy metodlar matematikani o'qitish jarayonida quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi:

- Talabalarga motivatsiya berish;
- Ijodkorlikni rivojlantirish;
- Individual yondashuv;
- Amaliy bilimlar berish.

Interaktiv va qiziqarli usullar orqali talabalar matematikani chuqurroq o'zlashtiradi. Zamonaviy metodlar talabalarni matematikani hayotiy vaziyatlarda qo'llashga o'rgatadi. Loyihalar va ijodiy topshiriqlar ijodiy fikrlashni shakllantiradi. Har bir talabaga individual e'tibor qaratiladi. Matematika ta'limida zamonaviy metodlar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishni osonlashtiradi, balki amaliy ko'nikmalarni ham shakllantiradi. Quyida zamonaviy metodlarda matematikani o'qitish usullari batafsil tahlil qilinadi.

1. Interaktiv o'qitish usullari o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

2. O'yin texnologiyalari, ya'ni matematik o'yinlar va viktorinalar talabalarni qiziqtiradi va raqobat ruhini uyg'otadi.

3. Jamoaviy ishlar – guruhlarda masalalar yechish talabalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantiradi.

4. Muloqotga asoslangan yondashuvda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida savol-javoblar tashkil etiladi.

Matematika fani o'zining ko'plab qoidalari va usullari bilan insoniyat tarixida muhim o'rin tutadi. Sonlar bilan ishlashda ularning bo'linishi va qoldiqlari haqida bilish juda muhimdir. Xususan, beshga bo'linish alomati sonlarning beshga bo'linishini aniqlashda ishlatiladigan oddiy, ammo samarali bir usuldir.

Beshga bo'linish alomati sonning oxirgi raqami 0 yoki 5 bo'lsa, u beshga bo'linishini ko'rsatadi. Bu qoidani bilish nafaqat matematik masalalarni yechishda, balki kundalik hayotda ham qo'llaniladi. Masalan, xarid qilishda yoki moliyaviy hisob-kitoblarda sonlarning bo'linishi ko'pincha muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqola beshga bo'linish alomati haqida batafsil ma'lumot berish, uning qoidalari va qo'llanilishiga oid misollar keltirishni maqsad qilgan. Shuningdek, bu mavzu o'quvchilar va talabalar uchun matematikani o'rganishda yordam berishi, ularning matematik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Beshga bo'linish alomati matematikada bo'linish va raqamlar bilan bog'liq muammolarni o'rganishda muhim tushunchalardan biridir. Bu mavzu bo'yicha olimlar va mutafakkirlar tomonidan olib borilgan ishlar asosan arifmetika, sonlar nazariyasi va matematik ta'lim sohalarida rivojlangan. Quyida ba'zi muhim olimlar va ularning bu mavzudagi ishlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz:

Yevklid, qadimgi Gretsiyada yashagan matematik, "Negizlar" asarida bo'linish va raqamlar nazariyasi haqida muhim ma'lumotlar keltirgan.² U raqamlarni bo'lishi va ularning xususiyatlarini o'rganish uchun asosiy qoidalarni ishlab chiqdi.

Bundan tashqari, Diofant o'zining "Arifmetika" asarida raqamlar va ularning bo'linishi haqida muhim nazariyalarni keltirgan.³ U raqamlar orasidagi aloqalarni o'rganish va bo'linish muammolarini hal qilishda birinchi qadamlarni qo'ygan.

Xalqimizning matematikasi va algebra asoschilaridan biri al-Xorazmiy, to'liq ismi – Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy al-Majusi al-Qatrabbuliy (M. 783-850), o'z asarlarida bo'linish va raqamlar nazariyasi haqida muhim ma'lumotlar keltirgan. Uning "Al-kitob al-Muxtasar fi Hisob al-Jabr va al-Muqobala" asari algebra va raqamlar nazariyasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan⁴.

¹ Xalq so'zi gazetasi. <https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-maktabgacha-talim-tizimini-2030-yilgacha-rivojlantirish-konsepsiyasi-amalda>

² <https://www.rulit.me/author/evklid/nachala-evklida-knigi-vii-x-download-392938.html>

³ https://www.koob.ru/diofant_alexandrijsky/

⁴ <https://archive.org/details/1342TheAlgebraOfMohammedBenMusaAlKwarizmiInArabic/page/n9/mode/2up>

Jahon olimlaridan Pierre de Fermat⁵ sonlar nazariyasiga katta hissa qo'shgan. U beshga va boshqa sonlarga bo'linish alomatlari bilan bog'liq bo'lgan ko'plab qiziqarli xususiyatlarni o'rganib, "Fermatning oxirgi teoremasi" kabi muhim natijalarga erishgan.

19-asrda matematiklar, jumladan, Felix Klein⁶ va Évariste Galois⁷ sonlar nazariyasini yanada rivojlantirib, bo'linish va raqamlar o'rtasidagi aloqalarni chuqurroq o'rganishdi. Ular matematik tushunchalarni yanada kengaytirish va murakkablashtirishga yordam berishdi. Hozirgi kunda, bo'linish alomatlari va raqamlar nazariyasi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Matematiklar kompyuter yordamida raqamlar va ularning bo'linishi haqida yangi nazariyalar ishlab chiqmoqda va amaliyotda qo'llanilmoqda. Beshga bo'linish alomati va umuman, raqamlar nazariyasi matematikada muhim o'rin tutadi. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar, nafaqat matematik bilimlarni kengaytiradi, balki kundalik hayotda ham qo'llanilishi mumkin bo'lgan ko'plab amaliy masalalarni hal qilishga yordam beradi.

S.R.Toshboyeva hamda H.U.Xojimamatova tomonidan "So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy-uslubiy jurnali"da 2025 yilda chop etilgan "Boshlang'ich sinflarda sonlarning bo'linish alomatlari va ularga doir misollar tahlili"⁸ nomli maqolalarida nafaqat 5 ga bo'linish alomati, balki 25 sonigacha bo'lgan ko'plab sonlarga bo'linishning nazariy asoslari keltirilgan. Lekin unda qanday qiziqarli va innovatsion metodlardan foydalanish haqida so'z yuritilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Beshga bo'linish alomati, sonlarning beshga bo'linishini aniqlash uchun ishlatiladigan oddiy qoidani ifodalaydi. Ushbu qoidaga ko'ra, agar biror sonning oxirgi raqami 0 yoki 5 bo'lsa, u holda bu son 5ga bo'linadi. Misol uchun:

15: Oxirgi raqami 5, shuning uchun, 15 soni 5 ga bo'linadi ($15 \div 5 = 3$).

30: Oxirgi raqami 0, shuning uchun, 30 soni 5 ga bo'linadi ($30 \div 5 = 6$).

22: Oxirgi raqami 2, shuning uchun, 22 soni 5 ga bo'linmaydi ($22 \div 5 = 4$ qoldiq 2).

Beshga bo'linish qoidalarini amalda matematik masalalarni yechishda va kundalik hayotda ko'plab vaziyatlarda qo'llaniladi.

Masalan, agar sizda 100000 so'm bo'lsa va siz har bir xaridni 5000 so'mdan amalga oshirmoqchi bo'lsangiz, 100000 so'mni 5000 so'mga bo'lish orqali qancha xarid qilish mumkinligini osonlik bilan aniqlashingiz mumkin ($100000 \div 5000 = 20$).

O'quvchilar sonlar bilan ishlashda beshga bo'linish alomatini bilishlari ularning matematik tafakkurlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu qoidani bilish o'quvchilarga murakkab masalalarni yechishda yordam beradi.

Beshga bo'linish alomatining o'ziga xos xususiyatlari bu boshqa bo'linish alomatlari bilan birgalikda ishlatilganda yanada samarali bo'ladi. Masalan, 10 ga bo'linish alomati (agar oxirgi raqam 0 bo'lsa) bilan birga 5 ga bo'linish alomatini bilish, sonlarning bo'linishini tezda aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, 5 ga bo'linish alomati, sonlar ketma-ketligini o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar 5 ga bo'linadigan sonlar ketma-ketligini (5, 10, 15, 20, ...) o'rganish orqali, sonlar orasidagi munosabatlarni tushunishlari mumkin.

Keling, quyida beshga bo'linish alomatini qo'llashga oid bir nechta misollar ko'rib chiqamiz:

1-misol. 45 soni 5 ga bo'linadimi?

Yechish. Oxirgi raqami 5, shuning uchun, 45 soni 5 ga bo'linadi, ya'ni $45 \div 5 = 9$.

2-misol. 82 soni 5 ga bo'linadimi?

Yechish. Oxirgi raqami 2, shuning uchun, 82 soni 5 ga bo'linmaydi, ya'ni $82 \div 5 = 16$ (qoldiq 2).

3-misol. Quyidagi sonlarni 5 ga bo'linishini aniqlang: 70, 33, 100, 57.

Yechish. 70 soni bo'linadi, chunki u 0 raqami bilan tugaydi ($70 \div 5 = 14$).

33 soni bo'linmaydi, chunki u 0 yoki 5 raqami bilan tugamaydi, 3 raqami bilan tugaydi ($33 \div 5 = 6$ qoldiq 3).

100 soni bo'linadi, chunki 0 raqami bilan tugayapti ($100 \div 5 = 20$).

57 soni bo'linmaydi, chunki u 0 yoki 5 raqami bilan tugamaydi, 7 raqami bilan tugaydi ($57 \div 5 = 11$ qoldiq 2).

Beshga bo'linish alomati, sonlarning bo'linishini tezda aniqlashda yordam beradigan oddiy va samarali usuldir. Ushbu qoidani bilish, nafaqat matematik masalalarni yechishda, balki kundalik hayotda ham foydali bo'ladi. O'quvchilar va talabalar uchun 5ga bo'linish alomatini o'rganish, ularning matematik tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi va murakkab masalalarni yechishda yordam beradi. 5ga bo'linish alomati, matematikani o'rganish jarayonida muhim bir qadamdir.

"Beshga bo'linish alomati" mavzusini o'qitish jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. Og'zaki Metod. Og'zaki metod yordamida 5ga bo'linish alomatining asosiy qoidalari tushuntiriladi. O'quvchilarga quyidagi ma'lumotlar beriladi:

Agar sonning oxirgi raqami 0 yoki 5 bo'lsa, u 5ga bo'linadi.

Misollar keltiriladi va ularni tahlil qilish uchun o'quvchilarga savollar beriladi.

Misol:

25 soni 5 ga bo'linadimi? (Oxirgi raqami 5, shuning uchun 25 soni 5 ga bo'linadi.)

48 soni 5 ga bo'linadimi? (Oxirgi raqami 8, shuning uchun 48 soni 5 ga bo'linmaydi.)

2. Amaliy Metod. Amaliy metod yordamida o'quvchilar 5 ga bo'linish alomatini qo'llashni o'rgandilar. O'quvchilarga turli sonlar berilib, ularni 5 ga bo'linishini aniqlash topshirig'i beriladi. Bunda tarqatma daraxt metodidan foydalanildi. Olmalar ortida sonlar yashiringan bo'ladi.



1. Tarqatma daraxt metodi

Misollar:

O'quvchilarga 65, 22, 90, 37 sonlarini berish mumkin.

O'quvchilar har bir sonning oxirgi raqamini aniqlab, 5ga bo'linishini belgilashlari kerak:

65: bo'linadi ($65 \div 5 = 13$)

22: bo'linmaydi ($22 \div 5 = 4$ qoldiq 2)

90: bo'linadi ($90 \div 5 = 18$)

37: bo'linmaydi ($37 \div 5 = 7$ qoldiq 2)

"Bo'linish o'yini" ni o'ynash mumkin, bunda o'quvchilar navbatma-navbat raqamlar aytadilar va ularning 5 ga bo'linishini aniqlashadi.

O'yin Qoidalari:

1. O'quvchilar doira shaklida o'tirishadi.

2. O'quvchi bir raqam aytadi.

3. Agar raqam 5 ga bo'linadigan bo'lsa, ya'ni oxirgi raqami 0 yoki 5 bilan tugasa, o'quvchi "bo'linadi" deb aytadi, aks holda "bo'linmaydi".

4. O'yin davomida har bir o'quvchi o'z navbatida son aytadi.

Ushbu metodologiya orqali o'quvchilar 5 ga bo'linish alomatini o'rganish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. O'qitish jarayonida nazariy va amaliy metodlar, interaktiv o'yinlar va guruh ishlaridan foydalanish, o'quvchilarning matematik tafakkurlarini yanada kengaytirishga yordam beradi.

⁵ https://en.wikipedia.org/wiki/Pierre_de_Fermat

⁶ https://en.wikipedia.org/wiki/Felix_Klein


⁷ https://en.wikipedia.org/wiki/%C3%89variste_Galois

⁸ Toshboyeva S.R., Xojimamatova H.U. Boshlang'ich sinflarda sonlarning bo'linish alomatlari va ularga doir misollar tahlili // So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 8-jild 2-son, 2025, 92-95 b.

Natijalar. Taklif etilayotgan usullar Namangan viloyati Chust tumani, Fargona viloyati Uchko'prik tumani hamda Qo'qon shahar maktablarida tadqiqotlarimiz jarayonida va talabalarning amaliyotlari davrida amaliyotga tadbiiq etildi va ijobiiy natijalarga erishildi.


Yuqorida keltirilgan interfaol usullar qatoriga kiruvchi "Tarqatma daraxt" metodi hamda "Bo'linish o'yini" dan foydalanish jarayonida Namangan viloyati, Chust tumanida joylashgan 32-umumiiy o'rta ta'lim maktabining 4-"B" sinf o'quvchilari misolida tahlil qilindi. Bunda 26 ta o'quvchidan deyarli hammasi faol ishtirok etdi va 22 nafar o'quvchi doim to'g'ri javob berdi.

Tarqatma daraxt metodini ham 4-"B" sinf o'quvchilarida qo'lladik va natijalarini quyidagi diagrammalar orqali ko'rishingiz mumkin:



1-diagramma. Tarqatma daraxt metodi natijalari.

Bo'linish o'yini natijasiga ko'ra o'quvchilar juda faol javob bergan deb ayta olamiz. Ushbu o'yinni 4-"A" sinf o'quvchilarida ham qo'llab ko'rdik. O'quvchilarga 5 ga bo'linish haqida tushuncha bergandan so'ng amalda qo'llab ko'rildi. Natijasini ushbu diagramma orqali ko'rishingiz mumkin:



2-diagramma. Bo'linish o'yini natijalari.

Foydalanilgan adabiiyotlar ro'yxati:

1. Jumayev M.E., Tadijiyeva Z.O'. (2005). Boshlang'ich sinflarda matemka o'qitish metodikasi. T., "Fan va texnologiya".
2. Jumayev M.E. (2004). Matematika o'qitish metodikasidan praktikum. T.: "Ouvchi".
3. umayev E.E. (2005). Bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirish nazarii. T.: "Ilm-Ziyo".
4. Jumayev M. (2022). Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodi. T.: "Bayoz".
5. Mamajonov Sanjarbek Mirzayevich. (2024). MAPLE DASTURIDA FUNKSIYALARINING GRAFIKLARINI CHIZISH. *University Research Base*, 475–480.
6. Abdullayeva B.S., Sadikova A.V., Xamedova N.A., Muxitdinova N.M., Toshptova M.I. (2020). Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi. T.: "Excet Polygraphy".

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, yuqorida aytib o'tilgan "Tarqatma daraxt" metodi hamda "Bo'linish o'yini" kabi interaktiv zamonaviy metodlar orqali darslarni tashkillash va o'tkazish o'quvchilarning mavzuni yaxshi va puxta o'zlashtirishlariga zamin bo'ladi.

Muhokama. 5 ga bo'linish alomati matematikada muhim tushuncha bo'lib, bu raqamlar nazariyasining asosiiy elementlaridan biridir. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar 5 ga bo'linish alomati bilan bog'liq nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniiyatini ko'rsatadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, tasodiiy raqamlar to'plamida 5 ga bo'linadigan raqamlar 60% ni tashkil etadi. Bu natija raqamlarning oxirgi raqami 0 yoki 5 bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, bu matematik xususiiyatlarining amaliiy dalillari sifatida xizmat qiladi.

Bundan tashqari, 5 ga bo'linish alomati arifmetik operatsiiyalar va raqamlar bilan ishlashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, bu alomatni bilish orqali matematik hisob-kitoblarni osonlashtirish mumkin. Olingan natijalar 5 ga bo'linish alomati haqida nazariy bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi va bu bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniiyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida 5 ga bo'linish alomati bilan bog'liq boshqa matematik tushunchalar, masalan, bo'linuvchilar va bo'linmalar, ko'plab matematik masalalarni yechishda qo'l keladi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarga matematikani chuqurroq o'rganish va tushunish imkonini beradi.

Natijalarimizni tahlil qilish jarayonida 5 ga bo'linish alomati haqida olingan bilimlar raqamlar nazariyasining boshqa qirralari bilan birgalikda matematik ta'lim jarayonida muhim ahamiiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu esa o'quvchilarning matematik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, 5 ga bo'linish alomati nafaqat matematik nazariyalar uchun, balki amaliiy hisob-kitoblarni va matematik ta'lim jarayonida ham muhim ahamiiyatga ega. Olingan natijalar bu tushunchani o'rganish va qo'llashda yanada chuqurroq tadqiqotlar o'tkazish zarurligini ko'rsatadi. 5 ga bo'linish alomati matematikadagi eng oddiiy, ammo juda muhim qoidalardan biridir. U nafaqat matematik hisob-kitoblarni osonlashtiradi, balki hayotimizning turli sohalarida ham qo'llaniladi. Bu alomatni yaxshi o'zlashtirish har bir kishiga sonlar bilan ishlashda osonlik yaratadi.

O'qituvchilarga quyidagi takliflarni beramiz:

1. Darslarda 5 ga bo'linish alomatini tushuntirish uchun ko'proq misollar keltiring.
2. O'quvchilarga amaliiy vazifalar berib, ularning tushunish darajasini tekshiring.
3. Qo'shimcha o'quv materiallari va o'yinlar yordamida darslarni qiziqarli tarzda o'tishga erishing.

7. Jumayev M.E., Axmedova N.T., Abdullayeva B.S., Aslonova N.U. (2016) Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan didaktik materiallar. O'qitular uchun metodik qo'llanma. T.: "Reliable print".
8. Xamedova N., Ibragimova Z., Tasetov T. (2007). Matematika. Oliy o'quv rtlarining boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. T.: "Turobol".
9. Абдуллаев А.Р. (2019). Математика дарсларида инновацион метод. Т.: "Ўқитувчи".
10. Toshboyeva S.R., Xojimamatova H.U. (2025). Boshlang'ich sinflarda sonlarga bo'linish alomatlari va ularga doir misollar tahlili // So'ngi ilmiy tadqiqr nazariyasi respublika ilmiy-uslubiiy jurnali. 8-jild 2-son, 92-95 b.



OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHI VA TARIXIY ONGNI SHAKLLANISHIDAGI FUNKSIYALARI

Miraxmedov Jaxongir Muxsinovich

Qo'qon universiteti
dotsen v.b, f.f.d (PhD)

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil

Jurnal soni: 14

Maqola raqami: 26

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1137>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

Matematika ta'limi, o'qitish usullari,
hayotiy misollar, interfaol ta'lim.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oliy ta'limda matematika fanini o'qitish metodikasining nazariy va amaliy asoslari muhokama qilingan. Matematika o'qitishning maqsadi, asosiy metodik yondashuvlar, axborot texnologiyalaridan foydalanish, baholash usullari va innovatsion yondashuvlarga alohida e'tibor qaratilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar yordamida talabalarda analitik fikrlash, mantiqiy muammo yechish qobiliyatlarini rivojlantirishning ahamiyati ta'kidlangan. Ushbu yondashuvlar matematika fanini yanada samarali o'zlashtirish va uni amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Matematika oliy ta'lim tizimida muhim fanlardan biri hisoblanadi. U talabalar uchun analitik fikrlash, muammo yechish, hamda ilmiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada oliy ta'limda matematika fanini o'qitish metodikasining asosiy jihatlarini, innovatsion usullar va samarali pedagogik yondashuvlar haqida so'z yuritiladi.

Kirish. Yangi O'zbekiston o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga qadam qo'yayotgan hozirgi davrda media sohasi vakillari – jurnalist va muharrirlar, rejissyor va operatorlar, blogerlar, tele-radio kanallar, gazeta va jurnallar, nashriyot va bosmaxona xodimlari jamiyatimizning milliy o'zligimizni anglash, tarixiy ongimizni shakllanishi, demokratik tamoyillarini rivojlantirishdagi o'rni beqiyosdir. Oxirgi yillarda mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarini xalq bilan muloqotning ishonchli ko'prigiga aylantirish, zamonaviy axborot xizmatlari bozorini, sog'lom raqobatni rivojlantirish, media tarmoqlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, milliy o'zligimizni anglash, tarixiy ongimizni shakllantirishini kuchaytirish yo'lida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, xususiy media vositalari hayotimizdan keng o'rin egallab borayotgani jamiyatimizda fikrlar xilma-xilligini ta'minlashda, tub islohotlarni amalga oshirishda, milliy o'zligimizni anglash, tarixiy ongimizni shakllanishiga xizmat qiladigan ko'rsatuvlarni tayyorlashi muhim omil bo'lmoqda. Bizning fikrimizcha, axborot sohasida milliy o'zligimizni anglash, tarixiy ongimizni shakllantirish bo'yicha miqdor ko'rsatkichlarini sifat ko'rsatkichlariga aylantirish, milliy jurnalistikamiz taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish – oldimizda turgan dolzarb vazifadir.

Adabiyotlar tahlili. Insonning yuksak ma'naviyati va milliy o'zligini anglashda ma'naviy islohotlar strategiyasi, mafkuraviy jarayonlar, g'oyaviy tahdidlar, xalqaro to'qnashuvlar, ziddiyatlar, yoshlar tarbiyasida milliy-axloqiy qadriyatlarining o'rni va mafkuraviy-siyosiy muammolarning tahlili H.Ahmedov, F.Jo'raqulov, M.Muhammadsiddiqov, N.Qalqonov, D.Ernazarov, M.Musaev, Sh.Mavlonov, O'.Shakarov, E.Yusupovalarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish sharoitida mamlakatimiz yoshlarining tarixiy xotirasi va tarixiy ongini rivojlantirish zarurati, o'quvchi yoshlar tarixiy ongining shakllanish va rivojlanish jarayonlarini o'rganish, ularda tarixiy ong yangilanishining sotsial omillarini aniqlashga doir muhim masalalar F.X.Yuldasheva, A.T.Eshmuradov, M.N.Melikova, Q.O.Mahkamov kabi olimlar ilmiy tadqiqotlarida ilgari surilgan. Ommaviy axborot vositalarini insonning yuksak ma'naviyati va milliy o'zligini anglashni tarixiy ongning shakllanish funktsiyalariga aloqador ilmiy-falsafiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi davrda kundan kunga rivojlanib, yangi shakl va usullarda namoyon bo'layotgan tarixiy ongni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va dialektik aloqadorligi tadqiqot obyekti sifatida alohida o'rganilmagan

Tadqiqot metodologiyasi. Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish hamda milliy o'zligimizni anglash, tarixiy ongimizni shakllanishiga yordam beruvchi kontentlarni tayyorlash va efitra uzatish bo'yicha qabul qilingan Prezident qarori bu borada muhim qadam bo'ldi.

Ma'lumki, jahonda e'tirof etilgan demokratik mezonlarga ko'ra, matbuot erkinligi – barcha fuqarolik va siyosiy huquqlar orasida alohida ahamiyatga ega. Yangi O'zbekistonda barpo etayotgan huquqiy demokratik davlatda so'z va matbuot erkinligi, milliy o'zligimizni anglash, tarixiy ongimizni shakllanishi doimo Konstitutsiyamiz va qonunlarimiz himoyasida bo'ladi.

Tadqiqot natijalari. Mamlakatimiz yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilayotgan, milliy o'zligimizni anglash, tarixiy ongimizni shakllanishi, ochiqlik va oshkorlik, so'z va fikr erkinligi hayotimiz mezoniga aylanib borayotgan hozirgi paytda bu mas'uliyat yanada kuchaymoqda. Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish hamda ular yordamida milliy o'zligimizni anglash, tarixiy ongimizni shakllanishiga doir keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Keyingi paytlarda mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarida ushbu yo'nalishda hayotimizdagi ijobiy o'zgarishlar tahlili oshib borayotgani alohida e'tiborlidir. Chunki bunday tendensiya islohotlarimiz samaralarini oshirishga, jamoatchilik nazoratini, fuqarolarimizning ijtimoiy faolligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Hayotimizning milliy o'zligimizni anglash, tarixiy ongimizni shakllanishdagi bugungi ulkan o'zgarishlar, islohotlarimiz mantig'i barchadan yangicha ishlashni, yangi g'oya va tashabbuslar bilan maydonga chiqishni talab etmoqda. Shu ma'noda, ommaviy axborot vositalarining moddiy-texnik bazasini, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, milliy matbuotimiz xalqaro maydonda munosib o'rin egallashiga erishish, internet jurnalistikasini rivojlantirish, noshirlik ishi, kitob savdosi, obuna masalalarida bozor mexanizmlarini keng joriy etish, ochiqlik va sog'lom raqobat muhitida shakllantirishimiz kerak, deb o'ylaymiz.

“Biz mamlakatimizda so'z va matbuot erkinligini, axborot olish va uni tarqatish huquqini ta'minlash masalasini inson qadrini ulug'lash, demokratik jamiyat va xalqparvar davlat qurishga qaratilgan taraqqiyot strategiyamizning muhim va ajralmas qismi deb bilamiz¹”, – deya ta'kidladi davlat rahbari.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda O'zbekistonda 2140 ta yoki 2016 yilga nisbatan 626 ta ko'p ommaviy axborot vositasi faoliyat yuritmoqda. Ularning 65 foizi – nodavlat media vositalari. Internet nashrlar soni 745 taga yetgan.

“Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini ta'minlash, ularning ochiqlik borasidagi samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilash hamda ilg'or xalqaro standartlar asosida baholash tizimi joriy etildi. Jumladan, yaqinda birinchi marta o'tgan yil yakunlariga ko'ra, davlat organlari va tashkilotlarida amalga oshirilgan ishlarni baholash bo'yicha Ochiqlik indeksi natijalari e'lon qilingani bu yo'ldagi muhim qadam bo'ldi²”.

¹Prezident Shavkat Mirziyoyev 27 iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi. // 27.06.2023. www.president.uz

²Prezident Shavkat Mirziyoyev 27 iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi. // 27.06.2023. www.president.uz

Prezident professional jurnalistlarning global axborot makonida milliy o'zligimizni anglash, tarixiy ongimizni shakllanishi, milliy manfaatlarini himoya qilayotganini e'tirof etish mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda axborot sohasini liberallashtirish, milliy o'zligimizni anglash, tarixiy ongimizni shakllanishini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur sohada olib borilgan islohotlar ko'lamini quyidagi yo'nalishlarda o'z aksini topdi:

- "sohaning qonuniy asoslarini ishlab chiqish;
- jahon tajribasini o'rganish;
- soha tizimida islohotlar o'tkazish;

- ommaviy axborot vositalari tizimining bozor munosabatlari sharoitida erkin faoliyat yuritishiga zamin tayyorlash va hokazo³".

Biz milliy o'zligimizni anglash, tarixiy ongimizni shakllantirish borasidagi ishlarimizda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, xususan internetning roli kun sayin oshib bormoqda. Bir so'z bilan aytganda, OAV sohasini isloh qilishga tadriijiy ravishda, tizimli va kompleks tarzda yondashilyapti.

Hozirgi kunda milliy o'zligimizni anglash, tarixiy ongimizni shakllanishi borasidagi axborot oqimlari ulardan foydalanish, tahlil qilish va tezkorlik bilan tarqatish imkoniyati zamonaviy jamiyatda ijtimoiy muloqotning asosiy shartidir. Axborot erkinligini qonuniy asosda kafolatlash esa huquqiy demokratik davlatning ajralmas xususiyati hisoblanadi. Bu fikrlar va qarashlar xilma-xilligini, fuqarolarning demokratik jarayonlarda to'laonli ishtirok etishini ta'minlaydi.

Milliy o'zligimizni anglash, tarixiy ongni shakllanishiga doir shaxs huquq va erkinliklari, imkoniyatlari jamiyat taraqqiyotining muayyan tarixiy bosqichida shakllangan shaxs erkinliklarining me'riy ifodasi hisoblanadi. Mazkur holatda inson erkinligi, adolat, qadr-qimmat va baxt-sodat kabi prinsiplarni o'zida aks ettiradigan kompleks g'oya hisoblanadi. Bu prinsiplar birgalikda ijtimoiy hayotga qaratilgan bo'lib, jamiyatdagi ahvoldan qat'i nazar, inson erkinligining ahamiyatini qaror toptirishga xizmat qilishi lozim. Chunki, har bir inson o'z fikri, qarashlariga ega va davlat ularni erkin ifoda etishni kafolatlaydi. Inson fikri ifoda etilmasa, biron-bir ishda qo'llanilmasa yashamaydi. Shaxs

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev 27 iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi. // 27.06.2023. www.president.uz
2. Do'stmuhammad X. Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning demokratik andozalari. – Toshkent: O'zbekiston, 2005. – B. 6.
3. Do'stmuhammad X. Axborot – mo'jiza, joziba, falsafa. T.: "Yangi asr avlodi", 2013. 13-bet.

o'zining milliy o'zligini anglashi, tarixiy ongini shakllanishi haqida o'ylash, fikrlash, o'z fikriga yoki qarashlariga ega bo'lish uchun inson ma'lum bir axborotga, o'z fikrlari natijalari bilan o'rtoqlashish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Shaxsning axborot sohasidagi manfaatlarini inson va fuqaroning axborotdan qonun bilan ta'qiqlanmagan faoliyatni amalga oshirishda foydalanishini ta'minlash, jismonan, ma'nau va intellektual rivojlanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, shaxsiy xavfsizlikni ta'minlaydigan axborotni himoya qilishni taqozo etadi. Jamiyatning milliy o'zligini anglashi, tarixiy ongini shakllanishi sohasidagi manfaatlarini esa shaxs manfaatlarini ta'minlash, demokratiyani mustahkamlash, huquqiy davlat barpo etish, ijtimoiy totuvlikka erishish va uni saqlash, ma'naviy yangilashdan iboratdir.

Bugungi kunda aksariyat davlatlarda axborot erkinligi to'g'risidagi qonunlar qabul qilingan. Bunday qonun hujjatlarining asosiy maqsadi ijtimoiy axborotning, ya'ni bizning holatimizda milliy o'zligimizni anglash, tarixiy ongimizni shakllanishi borasida ochiqlik darajasi, fuqarolar va tashkilotlarning undan foydalanish huquqini belgilaydigan me'yorlarni o'rnatishdir. Aslida ham axborot erkinligi to'g'risidagi qonunlarning qabul qilinishi hukumatning oshkorlik prinsipi tarafdori ekanidan dalolat beradi. Bu qonunlar insonlarni yanada keng ko'lamli axborotni talab qilishga undaydi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, milliy o'zligimizni anglash, tarixiy ongimizni shakllantirish jarayonlari ob'ektiv va sub'ektiv xususiyatlarga ega bo'lgan sabablarga ham chambarchas bog'liqdir. Shunday qilib, OAVlarida milliy o'zligimizni anglash, tarixiy ongimizni shakllantirishni amalga oshirish uchun siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiy tashkiliy ishlari va texnik sharoit-sharoitlar bo'lishi talab etiladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib ayish mumkinki, ommaviy axborot vositalari davlat milliy siyosatini amalga oshirish sub'ekti hisoblanadi. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari xalqlar milliy tillarni o'rganish va madaniy va tarixiy merosni asrab-avaylash huquqlarini himoya qiladigan og'zaki vositaga aylanadi. Milliy o'zligimizni anglash, tarixiy ongimizni shakllanishiga ommaviy axborot vositalarining ta'sirini o'rganish esa alohida dolzarblik kasb etadi.

4. Ildirov U. Demokratiya nazariyasi: muammoning metodologik jihatlarini // Jamiyat va boshqaruv, 2003. №1. – B. 25.
5. Bu haqida qarang: Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni yanada takomillashtirish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. // "Xalq so'zi", 2017 yil 12 avgust.
6. Pushkin V.G., Ursul A.D. Sistemnoe myshlenie i upravlenie. – M., 1994. – S. 172.

³Do'stmuhammad X. Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning demokratik andozalari. – Toshkent: O'zbekiston, 2005. – B. 6.



ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR TA'LIMINING RIVOJLANISH TARIXI

Isabayeva Mashhura Muxiddinova

Qo'qon universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti

E-mail: mashhuraisabayeva78@gmail.com

Telefon raqam: +998 91 141 80 01

Olimova Sarvaraxon Sobitxon qizi

Qo'qon universiteti

Maxsus pedagogika yo'nalishi 1-kurs talabasi

E-mail: sarvaraolimova7@gmail.com

Telefon raqam: +998 95 776 20 98

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 27 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1138 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS maxsus pedagogika, surdopedagogika, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar, daktilologiya, maxsus maktablar, imo-ishoralar orqali aloqa.	Ushbu maqolada maxsus pedagogika sohasining eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash tarmog'i hisoblangan surdopedagogika hamda ushbu tarmoqning mazmun-mohiyati, rivojlanish jarayoni va bugungi kunda O'zbekistonda tizimning joriy holati to'g'risida tahlil olib borilgan. Surdopedagogika sohasining xalqaro darajada rivojlanish bosqichlari, davlatlarda ta'limning qanday usullarda olib borilishi hamda sohaga kiritilgan yangiliklar bayon qilingan. Surdopedagogikaning alohida tarmoq sifatida Yevropada, AQSHda hamda Rossiyada vujudga kelishi hamda rivojlanishi, O'zbekistonda bu sohaning rivojlanishi hamda huquqiy asoslari haqida batafil ma'lumotlar keltirilgan.

Kirish. Bugungi kunda yurtimizda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ta'limning barcha tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda rivojlangan davlatlarda mavjud innovatsion yangiliklarni amaliyotga joriy etishni talab qilmoqda. Qayd etish lozimki, maktabgacha va maktab ta'limi tizimida ayniqsa yurtboshimiz tashabbusi bilan ko'plab o'zgarishlar hamda islohotlar amalga oshirildi hamda amalga oshirilmog'ida. Shu o'rinda maxsus ta'lim sohasi – maxsus pedagogika tarmog'ida nuqsonli bolalar bilan ishlash bo'yicha yangi metodlar, sohani axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish ishlari olib borilmog'ida. Maxsus pedagogika sohasi o'z ichida yana boshqa maxsus tarmoqlarga ajratilgani holda surdopedagogika ana shu tarmoq ichida alohida ahamiyatga molik bo'lgan kategoriyalardan biri hisoblanadi.

Maxsus pedagogika tarmog'i – surdopedagogika (lot. «surdsus»-karlik) eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar va katta kishilarning rivojlanishi, ularga ta'lim tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan (maxsus pedagogika tarmog'i). Eshitishda nuqsoni bo'lgan ilk va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlanishi, ularga ta'lim-tarbiya berish jarayonlari va qonuniyatlari – maktabgacha surdopedagogika fanining predmeti hisoblanadi. Maktabgacha eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir, zero korreksiopedagogika tadbirlarning barvaqt boshlanishi bola o'sishidagi kamchiliklarining oldini olishga, shuningdek, ijtimoiy faol, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yordam beradi. Surdopedagogika eshitishda nuqsonli bolalar yoki zaif eshituvchi bolalar bilan shug'ullanuvchi bo'lim hisoblanadi. Karlik-eshitishning turg'un yoqolishi bo'lib, unda mustaqil holda nutqni egallash, hattoki quloqqa yaqin bo'lgan masofada bo'lgan nutqni aniq idrok etish imkoniyati bo'lmaydi. Total (to'liq) karlik juda kam uchraydi. Ko'pincha karlikda baland nonutqiy tovushlar, quloq suprasiga yaqin masofadagi ba'zi nutqiy tovushlarni saqlab qoladi. Audiometr tekshiruvi eshitishning 80dB dan yuqori darajada yo'qolganligini ko'rsatadi. Zaif eshituvchilik-eshitishning turg'un pasayishi bo'lib, unda ushbu eshitish qoldig'i asosida nutqiy zaxirani minimal holatda mustaqil ravishda egallash, murojaat etilgan nutqni quloq suprasiga yaqin masofada idrok etish imkoniyatlari bo'ladi. Audiometr tekshiruvi eshitishning 80 dBdan kam bo'lmagan pasayishini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Surdopedagogikaning rivojlanish tarixi aynan shu nom bilan nomlanmagan bo'lsa-da qadimgi davrlarda boshlangan. Surdopedagogik amaliyotning dastlabki shakllaridan biri karlar bilan muloqot qilish uchun imo-ishora tilidan foydalanish edi. Bu ko'plab madaniyatlarda, jumladan, qadimgi Misr, Gretsiya va Rim kabi qadimgi sivilizatsiyalarda keng tarqalgan. Asrlar davomida dunyoning turli

mamlakatlarida ko'r va karlarni o'qitishning turli usullari ishlab chiqilgan va qo'llanilgan. Biroq, karlar pedagogikasi ilmiy fan sifatida faqat XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllana boshladi. Bu davrda ko'zi ojiz va kar bolalar uchun birinchi maktablar tashkil etilib, ularda maxsus o'qitish usullari qo'llanilgan. Eshitish qobiliyati zaif bolalarni o'qitishning ko'plab turlicha yondashuvlari ishlab chiqildi, jumladan, imo-ishora tilidan foydalanish, shuningdek, maxsus o'quv materiallari va darsliklarni ishlab chiqish. XX asrning o'rtalarida eshitish apparatlari va koxlear implantlar kabi texnik o'qitish vositalarining rivojlanishi bilan surdopedagogikada ulardan eshitish nuqsonlari bo'lgan kishilar bilan muloqot qilish va ta'lim berishda foydalanila boshlandi.

Yevropada karlar ta'limining rivojlanishi boy tarixga ega va bu jarayon bevosita eshitish qobiliyati zaif odamlarga nisbatan stereotiplar va noto'g'ri qarashlarni bartaraf etish, shuningdek, maxsus texnika va yondashuvlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish bilan bog'liq. XX asrning boshlarida Yevropada imo-ishora tili va eshitishni rivojlantirish tizimiga asoslangan kar bolalar uchun birinchi maxsus maktablar paydo bo'ldi. Nutq va eshitish talaffuzini rivojlantirishga asoslangan labda o'qish va eshitish aloqasini o'rgatishning dastlabki usullari ham ishlab chiqila boshlandi. XX asrning o'rtalarida Yevropada eshitish qobiliyati zaif bolalar uchun erta aralashuv va erta ta'limning ahamiyatini tushunish rivojlana boshladi. Bu davrda maxsus erta aralashuv dasturlari qo'llanila boshlandi va erta ta'lim uchun ixtisoslashtirilgan markazlar yaratildi. So'nggi o'n yilliklarda Evropada karlar uchun ta'lim yanada zamonaviy o'qitish usullari va yondashuvlariga o'tdi[1].

Amerika surdopedagogikasining rivojlanishi XVIII asr oxirida boshlangan va hozirgi kungacha davom etmoqda. Ushbu harakatning boshida karlarni o'rgatishning asosiy vositasi imo-ishora tili va Amerika imo-ishora tili (ASE) kabi imo-ishora tizimlaridan foydalanish edi. Bu fransuz imo-ishora tilining (ESF) qabul qilinishi va uning Amerikada qo'llanilishi bilan bog'liq. Qo'shma Shtatlarda karlar ta'limining rivojlanishidagi muhim daqiqalardan biri 1817 yilda Konnektikut shtatining Xartford shahrida karlar uchun birinchi maktabning tashkil etilishi edi[2]. Amerika karlar maktabi nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu maktab butun mamlakat bo'ylab ochila boshlagan boshqa maktablar uchun namuna bo'ldi. XIX va XX asrlarda Qo'shma Shtatlarda karlarning ta'limi rivojlandi, muhim o'zgarishlar, jumladan, kar talabalar uchun asosiy muloqot tili sifatida ASE ning qabul qilinishi va vizual-mekansal grammatika rivojlanib bordi. Yana bir muhim yutuq kar bolalar bilan ishlash bo'yicha maxsus ta'lim va ko'nikmalarga ega bo'lgan karlar o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha professional dasturlarning yaratilgani bo'ldi. So'nggi o'n yilliklarda Qo'shma

Shtatlarda kar bolalarni jamiyatga integratsiya qilish va ta'lim olish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash vazifasini qo'yib, AQShda karlar ta'limi yanada inklyuziv jarayonga o'tdi. Bu eshitish apparatlari va koxlear implantlar kabi texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, ko'rish qobiliyatini yo'qotadigan o'quvchilar uchun vizual ta'lim usullari va maxsus dasturlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Ushbu sohaning Rossiyada rivojlanishi o'zining alohida tarixi va evolyutsiyasiga ega. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiyada kar bolalar uchun birinchi maktablar tashkil etildi. Bu maktablarda o'qitishning turli usullari, jumladan, imo-ishora tili o'sha paytda surdopedagogik amaliyot hali boshlang'ich bosqichida edi. XX asrning o'rtalaridan boshlab Rossiyada kar bolalar uchun yangi o'qitish va muloqot usullari ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Rossiyada surdopedagogikaning rivojlanishiga Germaniya, Fransiya va AQSh kabi rivojlangan mamlakatlarning usullarini o'rganish va moslashtirish katta ta'sir ko'rsatdi. Inklyuziv ta'lim Rossiyada yaqindan qo'llab-quvvatlana boshlandi, bu surdopedagogikada yondashuv va usullarning sezilarli o'zgarishiga olib keldi. Zamonaviy rus surdopedagogikasi o'z oldiga eshitish qobiliyati zaif bolalarni ta'lim jarayoniga to'liq kiritish vazifasini qo'yadi. Trenning oddiy maktablardagi maxsus sinflarda, shuningdek, eshitish qobiliyatini yo'qotgan bolalarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiylashtirish uchun taklif qilinadigan resurs markazlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Logopediya sohasidagi tadqiqotlar va ishlanmalar va ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish Rossiyada karlar pedagogikasining rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsatmoqda. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun turli yordamchi texnologiyalarni ishlab chiqishdagi yutuqlar ularga yaxshiroq moslashish va o'quv jarayonida faol ishtirok etish imkonini beradi[3].

O'zbekistonda maktabgacha tarbiya muassasalar tizimining rivojlanishi O'zbekistonda aqliy va jismoniy rivojlanishida mavjud bo'lgan dastlabki maxsus maktab-internat 1919-yilda sobiq sovet xukumiati rahbari Y.Oxunboboyevning qaroriga muvofiq Toshkent shahrida tashkil etilgan. Maktab-intematda kar va zaif eshituvchi, ko'zi ojiz, aqli zaif, tayanch harakat a'zolari shikastlangan bolalarga ta'lim-tarbiya berilardi, davolash ishlari tashkil etilardi.. 1920-21 yillarda Toshkent shahrida Y.Oxunboboyev nomli Respublika ko'zi ojiz bolalar maktab-internati va I-sonli kar bolalar maktab-internati tashkil etiladi. Mazkur maktab-internatlar qoshida maktabgacha tarbiya bo'limlari ochilib, ularga bog'cha yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar qabul qilinadi. 1960-70 yillarda kar va zaif eshituvchi bolalar uchun alohida dastlabki maktabgacha tarbiya muassasalari va mahsus guruhlar Toshkent shahrida Toshkent, Andijon, Farg'ona, Namangan, Samarqand, Jizzax viloyatlarida ochiladi. Maktabgacha muassasalarda ishlovchi mutaxassislar sobiq Sovet Ittifoqining poytaxti Moskva Davlat Universitetida tahsil olib keladilar. Toshkent Davlat Pedagogika Instituti pedagogika va psixologiya fakulteti qoshida 1968-yilda defektologiya bo'limi ochiladi. 1974-yildan boshlab pedagogika va psixologiya fakulteti surdopedagoglarni tayyorlay boshlaydi. 1973-yilgi Sobiq Sovet Ittifoqi Ministrlar Kengashining "Maxsus maktab (maktab-internat), maktabgacha tarbiya muassasalar tarmog'ini kengaytirish to'g'risidagi" qaroriga muvofiq Respublikamizning barcha viloyatlarida kar va zaif eshituvchi bolalar uchun maktab-internatlar ochiladi. Deyarli barcha maktab-intemat qoshida maktabgacha tarbiya bo'limlari tashkil etiladi. Hozirgi kunda Respublikada kar va zaif eshituvchi bolalar uchun 19 ta maktab internati va 15 ta maktabgacha tarbiya muassasa va guruhlar faoliyat ko'rsatib, ularda qariyb o'rt ming nafar bolalar qamrab olingan[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi kunda yurtimizda turli islohatlar o'z aksini topmoqda jumladan ta'lim sifatini yaxshilashga katta e'tbor berilmoqda. Maxsus maktablarda nogironligi bo'lgan bolalarga bilim, tarbiya va hunarlar o'rgatib kelinmoqda. Masalan eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun maxsus ta'lim shakillari chet eldan kirib kelishi natijasida bundan bir necha yillar oldingi Maxsus maktablardagi ta'limdan hozirgi ta'lim jarayonlari anchagina farq qiladi. Ilk karlar maktabi 1920-yil ochilgan bo'lib unga 6-7 yoshdagi bolalar tayyorlov sinflariga qabul qilinadi. Karlar internet maktabida mutlaqo eshitmaydigan yoki zaif eshituvchi bolalar yani 75dB dan ortiq darajadan mahrum bo'lgan, kuchli ovozdan tasirlanadigan, ba'zi nutq tovushlarini qisman aytib farq qiladigan bolalar qabul qilinadi. Hozirgi kunda alohida karlar maktablari tashkil etilgan bo'lib, ularni ta'lim sohasida muvaffaqiyatga erishayotganlarini ko'rishimiz mumkin[5].

Eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning uzluksiz ta'lim tizimida maxsus maktabgacha muassasalar jiddiy ahamiyatga ega. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim berish borasidagi vazifalar O'zbekistonda 2 yoshdan 7 yoshgacha maktabgacha yoshidagi eshitishda muammosi bo'lgan bolalar uchun ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud. Eshitish va nutq holatini hisobga olgan holda kar zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus maktablar tashkil etilgan. Ularning faoliyati "Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi namunaviy Nizom"(2019) bilan boshqariladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ravishda aqliy va jismoniy teng huquqlarga ega. Salomatliklari tufayli imkoniyatlari cheklangan bolalar ta'limi ular uchun eshitadigan bolalar bilan teng rivojlanish nuqsonlarini korreksiya, davolash va sog'lomlashtirish, ijtimoiy moslashtirish uchun adekvat sharoitlarini, maxsus korreksion rivojlantiruvchi ta'lim tizimini yaratishni ko'zda tutadi.

Jahon karlar federatsiyasining hisob-kitoblariga ko'ra dunyo bo'ylab eshitish qobiliyatini yo'qotgan 34 million bolaning 80% ta'lim olish imkoniyatiga ega emas. Imkoniyatga ega bo'lgan 20% ning juda oz qismi o'zlarining milliy imzo va og'zaki yoki yozma tillarini ta'lim va o'rganish til sifatida o'z ichiga olgan ikki tili dasturlarda ta'lim oladilar[6].

Tadqiqot natijalari. Shu o'rinda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan muloqot shakli "daktilologiya" haqida alohida to'xtalib o'tish lozim. Daktilologiya – kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqining o'ziga xos shaklidir. U so'zlashuv imo-ishora nutqiga nisbatan yaqindir. U yozma harakatga ko'ra yozma nutqqa o'xshab ketadi. Uning vositasi grafik belgilar yoki harflar emas, balki qo'l, barmoq harakatlari hisoblanadi. Karlar maktabida bolalarning eshitish qobiliyatiga ko'ra "daktil" nutqi so'zlashuv nutqining barcha qoidalariga ko'ra shakllanadi va uni kar bola egallashi mumkin. L.A.Novikova va Ye.Marsinovskaya tomonidan o'tkazilgan maxsus tadqiqotlarga ko'ra daktilologiya ham og'zaki nutq kabi kinestetik sezgilar asosiga quriladi. Odatda zaif eshituvchi insonlar ko'pchilik hollarda imo-ishora nutqidan emas balki sog'lom insonlar kabi og'zaki nutq orqali bir birlari va yoki tashqi muhit bilan muloqot qila olishadi. Kar insonlar esa imo-ishora yordamida muloqatga kirishadilar. Kar bolalar hayotida imo-ishora nutqi atrof-olamni tushunishga yordam beruvchi vosita sanaladi[7].

Eshitishda muammosi bo'lgan bolalarning maktabgacha ta'lim tizimi quydagilardir:

- eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ta'limga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, ularning rivojlanish va mustaqil bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun shart sharoitlar yaratish.
- eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirish.
- kar va zaif eshituvchi bolalar tafakkurining rivojlanishini ular imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'minlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.
- o'quv faoliyatini ko'nikma va malakalarini shakllantirish, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, maqsadga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida kognitiv jarayonlarni faollashtirish.
- kasbiy faoliyatga tayyorlash, zamonaviy ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlarda mehnat faoliyati uchun lozim bo'lgan tasavvur, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish.

Eshitish nuqsonlari bo'lgan bolalar bilan o'tkazilgan tadqiqot natijalari, ular ta'lim jarayonida ko'plab qiyinchiliklarga duch kelayotganini ko'rsatdi. Tadqiqotda ishtirok etgan 50 nafar eshitishda nuqsoni bor bola (turli darajadagi eshitish yo'qligi bilan) o'zlarining o'qish, yozish, va ijtimoiy muloqot qilishda muammolarga duch kelgani aniqlangan. O'qish va yozish ko'nikmalari: Eshitishda nuqsoni bor bolalarning aksariyati o'qish va yozishda qiyinchiliklarga duch kelgan. Xususan, ular so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishda va ularni yozishda ko'p xatolarga yo'l qo'yg'an. Bu muammolar ko'pincha bola eshitish nuqsonining darajasi bilan bog'liq bo'lib, og'ir eshitish nuqsoni bo'lgan bolalar yozma va og'zaki tilni o'rganishda ancha orqada qolgan. Ijtimoiy adaptatsiya: Eshitishda nuqsoni bor bolalar o'z tengdoshlariga nisbatan muloqotda va jamiyatda moslashishda qiyinchiliklarga duch kelgan. Ularning ko'plari sinfda o'z fikrlarini ifodalashda qiynalib, guruh faoliyatlarida kam ishtirok etgan. Bu esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytirgan va ijtimoiy jihatdan izolyatsiyalashuviga olib

kelgan. O'qituvchilar va ota-onalar yordamining roli: Tadqiqotda shuningdek, o'qituvchilar va ota-onalarning eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarga ko'rsatgan yordamining ahamiyati o'rganildi. Mutaxassislar va ota-onalarning bola bilan aloqasi, maxsus o'quv materiallari va yordamchi vositalar yordamida ta'lim olish jarayoni sezilarli darajada yaxshilangan. O'qituvchilarning individual yondashuvi va bolaning ehtiyojlariga moslashtirilgan darslar samarali natijalar ko'rsatdi. 4. Maxsus ta'lim dasturlari va texnologiyalarning ta'siri: Maxsus ta'lim dasturlari va yordamchi texnologiyalar (masalan, eshitish apparatlari va vizual o'rgatish vositalari) eshitishda nuqsoni bor bolalarning ta'lim jarayonini yengillashtirishda samarali bo'ldi. Bu vositalar bolaning o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga, shuningdek, ijtimoiy moslashuvini oshirishga yordam berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, eshitish nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim tizimida ko'proq individual yondashuv va maxsus yordamni talab qiladi. O'qituvchilarning, ota-onalarning va jamiyatning qo'llab-quvvatlashi, shuningdek, maxsus ta'lim dasturlari va texnologiyalarning samarali qo'llanilishi bolalarning ta'limdagi muvaffaqiyatlarini oshirishga katta hissa qo'shadi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkin, Yevropa davlatlari va Yurtimizda eshitishda muammosi bor bolalarning ta'limining rivojlanishi ularga yaratilgan shar-sharoitlar haqida tanishib chiqar ekanmiz. Bu yo'nalish yildan yilga rivojlanayotganiga guvoh bo'lamiz. Yurtimizda ta'limga ehtiyoji bor bolalarga qaratilgan e'tibor ularning salohiyatini yuksalishiga va sog'lom bolalar singari erkin va teran firklashi va ta'lim sohasida yutuqlarga erishishiga sabab bo'ladi. Ularni eshitishda muomalarini bartaraf etish uchun fan nomzodlari va akademiklar o'z xissalarini qo'shmoqdalar. Yevropaning qator mamlakatininglar qatorida O'zbekiston ham eshitishda nuqsoni bor bolalar umuman olganda maxsus ta'limga ehtiyoji bor bolalarga katta imkoniyatlar va sharoitlar yaratmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, eshitish qobiliyati pasaygan bolalar o'qish, yozish va ijtimoiy muloqotda muammolarga duch kelmoqda, bu esa maxsus pedagogik yondashuv va texnologik

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Речицкая, Е.Г. Сурдопедагогика: учебник для студ. высш. пед. учеб. заведений / Е.Г. Речицкая. Москва: Владос, 2004. – 65 с.
2. Diana Burke, "Deaf education: The past, present, and future". Senior Honors Projects. 2019. – P. 7.
3. Курешева, И.В. Любимая психология «дошкольника»: Методические рекомендации по формированию психологической готовности к школе детей с проявлениями асоциального поведения / И.В. Курешева. - М.: Вентана Граф, 2007. – С. 137.
4. Kalbayeva X.J. Maktabgacha surdopedagogika.(O'quv qo'llanma). O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. Toshkent. 2007. – B. 18.

vositalarning ahamiyatini oshiradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi

Maxsus ta'lim tizimini yanada modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalar (eshitish apparatlari, koxlear implantlar, vizual ta'lim materiallari) imkoniyatlarini kengaytirish.

- o'quv dasturlarini raqamlashtirish va surdopedagogika bo'yicha onlayn resurslar yaratish.
- AI va VR texnologiyalaridan foydalanib, maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish.
- o'qituvchilar malakasini oshirish
- Surdopedagogika bo'yicha maxsus kurslarni ko'paytirish.
- o'qituvchilarga imo-ishora tili va daktilologiya bo'yicha chuqur bilim berish.
- Yevropa va AQSh tajribasidan foydalanib, maxsus seminar va treninglar tashkil etish.
- Inklyuziv ta'limni rivojlantirish
- eshitishda nuqsoni bor bolalarni oddiy maktablarga integratsiya qilish uchun sharoit yaratish.
- inklyuziv ta'lim uchun maxsus qo'llanmalar va moslashtirilgan darsliklar ishlab chiqish.
- kar bolalar va odatiy rivojlangan bolalar o'rtasidagi muloqotni rag'batlantirish uchun maxsus dasturlar joriy etish.
- Surdopedagogika bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni ko'paytirish.
- chet el tajribalarini o'rganib, ularni O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirish.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limining rivojlanishi zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq. Surdopedagogika Yevropa, AQSh va Rossiyada o'ziga xos rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan bo'lsa, O'zbekistonda ham maxsus ta'lim tizimi shakllangan va rivojlanmoqda. Mamlakatimizda eshitish qobiliyati cheklangan bolalar uchun maxsus maktab-internatlar, maktabgacha ta'lim muassasalari va inklyuziv ta'lim yo'nalishlari mavjud bo'lsa-da, ularni yanada takomillashtirish zarur.

5. Mualliflar jamoasi. Maxsus pedagogika asoslari(O'quv qo'llanma). Chirchiq. Chirchiq davlat pedagogika universiteti. 2022. – B. 60.
6. Joseph J Murray, Wyatte C Hall, Kristin Snoddon. Education and health of children with hearing loss: the necessity of signed languages. Bulletin of the world health organization. 2019 Aug 20;97(10):711–716. DOI: 10.2471/BLT.19.229427
7. Mualliflar jamoasi. Maxsus pedagogika (Darslik). Toshkent. «Fan va texnologiya» nashriyoti. 2014. – B. 189.



O'QUVCHILARNING YOZMA NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Parpiyev Odil Olimovich

Qo'qon universiteti,
Ta'lim kafedrası v.b. dotsenti
odilparpiyev71@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil
Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil
Jurnal soni: 14
Maqola raqami: 28
DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1139>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

boshlang'ich sinf, lug'at, kompetensiya,
lingvistik kompetensiya, so'z, yozma, nutq,
interaktiv, metod.

ANNOTATSIYA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirishdan asosiy maqsad nutqiy vaziyatlarda o'z fikrini ifodalay oladigan yoshlarni tarbiyalashdir. Ushbu maqolada o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish usullari yoritilib, soha mutaxassislarning ilmiy asarlaridan iqtiboslar keltirish orqali muallif fikrlarini izohlab bergan. Boshlang'ich sinflarda pedagogik kuzatishlar asosida muammoning mohiyati aniqlangan va topshiriqlar metodikasi ishlab chiqilgan.

Kirish. YUNESKOning "Ta'lim–2030" Inhxon deklaratsiyasida dunyo bo'yicha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish barcha uchun hayot davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratishga e'tibor qaratilgan. Respublikamiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida ta'lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o'quv dasturlari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanmalar ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirilishi lozimligi alohida ta'kidlanganligi fikrimiz isbotidir. "Shu bilan birga bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli kitoblarni yaratish zarurari, bu borada kelgusi o'quv yilidan boshlang'ich sinflarda davlat ta'lim standarti o'rniga ilg'or tajriba asosida, bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan "Milliy o'quv dasturi" joriy etiladi"¹ – deya ta'kidlanishi soha mutaxassislari oldiga mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi. Buning natijasida boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qish savodxonligi integratsiyasiga asoslangan yangi darsliklar amaliyotga joriy qilindi va bunda asosiy e'tibor o'quvchilarda to'rt xil kompetensiya: tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish va yozishni rivojlantirishga ustuvorlik qaratildi. Bu vaqtinchalik bo'lsa-da, boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limiga yangicha yondashuvlarni boshlab berdi.

2023-2024-o'quv yilidan boshlang'ich sinflarning yangi avlod darsliklari asosida ta'lim olishi, ularni kompetensiyalarga asoslangan holda XXI asr hayotiy ko'nikmalariga tayyorlab borish masalasining kun tartibida ekanligi Respublikamizda ta'limga bo'lgan e'tiborning ustuvorligidan dalolat beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining til kompetensiyalarini rivojlantirish, og'zaki nutq bilan bir qatorda fikrni yozma ifodalay olishlariga erishish orqali ularni ijtimoiy hayotning to'laqonli a'zosiga aylantirish har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisining kundalik vazifasidir. Maqolada o'quvchilarning yozma nutq kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan fikrlarni bayon qilamiz.

Kompetensiya lotincha "compete" so'zidan olingan bo'lib, "erishyapman", "munosibman", "loyiqman" degan ma'nolarni bildiradi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvmi ik bor fanga amerikalik tadqiqotchi N.Chomskiy kiritgan bo'lib, u 1965-yilda Massachusetts universitetida til nazariyasiga nisbatan "kompetensiya" atamasini ishlatdi. Bunda u "kompetensiya yoki tilni bilish va foydalana olish tilni haqiqatda ishlata olish tushunchalari o'rtasidagi farq asosini anglash" nazariyasini ilgari surib, kompetensiyalarga asoslangan ta'limga asos soldi.² Lingvistik kompetensiya – fonetik, orfografik, leksik, grammatik bilimlarni o'zlashtirishni o'z ichiga oladi va o'quvchilarda nutqiy qobiliyatni rivojlantiradi. Lingvistik kompetensiyaning asosini ikkita komponent tashkil qiladi: 1.O'rgatilgan qoidalarga asoslangan bilim. 2. Nutqni tushunish va muloqot qilish

qobiliyati. Lingvistik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sintaktik kompetensiya – og'zaki va yozma nutqni grammatik jihatdan to'g'ri qurish qobiliyati.
2. Pragmatik kompetensiya – muloqotda lingvistik tushunchalarni to'g'ri qo'llash qobiliyati.
3. Semantik kompetensiya – nutqiy iboralarni izohlash qoidalardan foydalanish qobiliyati.

Kompetensiyaviy yondashuvlar asosida yozma nutqni malakali egallash boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviy-axloqiy faoliyatining ajralmas qismidir. O'quvchilarning yozma nutq qobiliyatlarini rivojlantirish o'z milliy tili va adabiyotiga mehr-muhabbat uyg'otadi, shaxsiy fazilatlarini – tevarak-atrofga nisbatan ijobiy munosabatni, mas'uliyatni, mehnatsevarlikni, muloqot qilish qobiliyatini, maqsadga erishishda qat'iyatlilikni shakllantiradi.

Mashhur psixolog L.S. Vigotskiy shunday degan edi: "Yozma nutq bolaning aqliy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega va fikrlashni rivojlantiradi. Yozma nutqni bunday tushunish zamonaviy psixologlarining konsepsiyalari asosida yotadi, unga ko'ra malakali yozish bu nutq ishidagi fikrni lingvistik vositalar orqali ifodalash qobiliyati hisoblanadi va shaxsning dunyoga bo'lgan qarashlarini aks ettirish, xulq-atvor me'yorlarini, muloqot me'yorlarini o'zlashtirish qobiliyatini aks ettiradi."³

Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich ta'lim uchun DTSda asosiy e'tibor boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirishga qaratilgan, chunki bola aynan shu yoshda yozma nutqni o'zlashtira boshlaydi va ta'lim jarayonida olingan ko'nikmalarni yaxshilaydi va mustahkamlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Ona darsliklarida har xil turdagi leksik mashqlar berilgan bo'lib, bu esa o'qituvchidan bunday mashqlar ustida ishlashda turli variantlarda amalga oshirishni taqozo etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvistik kompetensiyasini shakllantirish o'qituvchining darsda qanday ish turlaridan foydalanishiga, leksik materialni o'rganishning qanday usullarini qo'llashiga bog'liq bo'ladi.

Leksik ishlar tizimli tarzda amalga oshirilishi, u nafaqat ona tili darslarida, balki o'qish savodxonligi, tabiiy fan, matematika, texnologiya darslarida ham o'qituvchi nazoratida o'tkazib borilishi kerak. Rus metodisti A.V. Tekuchev ham leksik ishlar tizimli asosda ona tili fanining barcha bo'limlarini qamrab olgan holda pedagogik jihatdan ma'lum maqsadni amalga oshirish asosida tuzilgan bo'lishi shart,⁴ – deya fikr bildirgan bo'lsa, T.V. Kotsareva esa "lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda lingvistik vositalarni boyitib borish, o'quvchilarni nutqda til vositalaridan foydalanishga o'rgatish, fikrni shakllantirishga o'rgatish, yozma nutq mazmunini rejalashtira olishni o'rgatish, nutq

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "O'zbekiston nashriyoti". Toshkent – 2021.

² To'xtayeva F.Sh. Ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvda pedagogning raqamli kompetentlikning ahamiyati. ISSN 2181-1717 (E) Образование и инновационные исследования (2022 год №7).

³ Выготский, Л. С. Проблема возрастной периодизации детского развития [Текст] : Л. С. Выготский // Вопросы психологии. – 1972. – № 2. – С. 114-123

⁴ Текучев А. В. Методика преподавания русского языка в средней школе. М.: 1958. С.120

zahirasini doim boyitib borish, muloqot jarayonida nutq, nutq odobiga rioya qilishni o'rgatish"⁵, kerak deb ta'kidlaydi. Ilmiy manbalarni kuzatar ekanmiz, bir guruh olimlar leksik mashqlar ustida ishlashda alohida so'zning ma'nosini tushuntirish va uni kontekstda qo'llashgacha bosqichma-bosqich ish turlarini qo'llash kerak desa, yana bir guruh olimlar so'zning ma'nosi ustida ishlashda faqat matnga asoslanishi kerak deb hisoblaydilar. Bizningcha, ona tili darslarida tizimli asosda alohida so'zning lug'aviy ma'nosini tushuntirish, shu so'z ishtirokida ibora, gap tuzish, uni kontekstda qo'llay olish darajasiga erishish bilan birga berilgan matnga asoslanib so'zlar ustida ishlash yaxshi natija beradi. Fikrimizni ona tili darsliklaridagi o'quv materiallari asosida izohlab o'tamiz. 3-sinf ona tili darsligining 2-qism⁶ida berilgan 73-mashqda sirdosh, yelkadosh, suyanchi, sadoqatli, 84-mashqda shatak, 86-mashqda qarilik, donolik, oqibatli, yoshlik, 91-mashqda bakteriya, 93-mashqda yaylov so'zlari matnga asoslanib tahlil qilinsa, 65-betda dizaynerlik, 95-mashqda g'allakor, sirdosh so'zlari ustida alohida ish turlari tashkil qilinadi. 4-sinf 1-qism⁷da berilgan 6-mashqdagi madhing, turkiy el, madhing, 7-mashqdagi kamolot, 13-mashqdagi gardish, bechora, 15-mashqdagi jonzot, xomush, 18-mashqdagi g'ururli, dimog'dor, 29-mashqdagi globus, okean, ekvator chizig'i, 53-mashqdagi payvand, band, harchand, 56-mashqdagi kit, akula, zardob so'zlari kontekst mazmunidan kelib chiqib izohlanib, bolalarning faol lug'atiga aylantirish ustida ishlansa, 14-mashqda navkar, vahm, 27-mashqdagi dovuchcha, muddat, tashabbus, 55-mashqdagi yulduz, xavfsizlik, rassom, tashakkur, shaxmat, 69-mashqdagi lohar, dilbar, muhayyo, yo'ldosh, chehra so'zlari alohida ishlashni talab qiladi. Leksik mashqlar va ular ustida ishlash o'quvchilarda lingvistik kompetensiyani shakllantirishga yordam berib, natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqni tuzishga imkon beradigan ko'nikmalar, matnni mustaqil ravishda tuzish qobiliyati, turli nutqiy vaziyatlarda so'zlardan foydalanish zarurligini tushunish qobiliyati rivojlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sintaktik kompetensiyalarni rivojlantirishda ona tili darsliklarida berilgan o'quv materiallari, sintaksisga doir mashq turlari, ular ustida ishlashning usullari muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga sintaktik bilimlar savod o'rgatish davridan boshlanib, 4-sinfda ham davom etadi va ham amaliy, ham nazariy o'rganadilar. Metodist olim T.G.Ramzayeva boshlang'ich sinflarda gap ustida ishlashni shartli ravishda besh yo'nalishga bo'ladi:

1. Gap haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish (til birligi bo'lgan gapning muhim belgilarini o'rgatish).
 2. Gap qurilishini o'rgatish (so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishi ustida ishlash, gapning grammatik asosini, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning xususiyatlari, yoyiq va yig'iq gaplar ustida ishlash).
 3. O'quvchilarning nutqida gapning maqsadga va ohangga ko'ra turlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.
 4. Gapda so'zlarni aniq qo'llash ko'nikmasini o'stirish.
 5. Yozma nutqda gapni to'g'ri tuzib yozish (uni bosh harf bilan boshlash, tinish belgilarini qo'yish) ko'nikmasini shakllantirish.⁸
- O'zbek metodist olimi S.Matchonov⁹ gap tarkibidagi so'z birikmalarini ajratish ko'nikmasini hosil qilishda gaplarni yoyish, so'zlari aralash berilgan gapni qayta tiklash, tinish belgilarisiz matndan gaplarni ajratish, gapni tahlil qilish va chizmasini chizish kabi mashq turlaridan foydalanishni tavsiya etadi. Bu mashq turlari metodik jihatdan to'g'ri tanlanganini biz amaliyotda kuzatdik va bu mashqlardan foydalanish o'quvchilarga sintaktik kompetensiyalarini rivojlantirishda yaqindan yordam berayotganining guvohi bo'ldik.

Tadqiqot metodologiyasi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishdan asosiy maqsad so'z, so'z birikmasi, gap mazmunini tushunish, nutqiy vaziyatlarda grammatik jihatdan to'g'ri shakllangan gap, matn tuza olish qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Biz ushbu maqolada asosan o'quvchilarning yozma nutq malakalariga baho berish va ularni yanada rivojlantirish uchun tavsiyalar ishlab chiqishga e'tibor qaratdik. Tadqiqotda pedagogik kuzatish, taqqoslash, solishtirish metodlaridan foydalanildi va Qo'qon shahridagi 15-, 39-maktablarining 3 – 4-sinflarida tajriba-sinov ishlari

amalga oshirildi. Ona tili ta'limi samarali bo'lishi uchun Vilyam Kilpatrik tomonidan amaliyotga kiritilgan "Loyiha metodi"dan foydalanib, o'quvchilardagi lingvistik kompetensiyalar aniqlandi. Buning uchun o'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib, pragmatik topshiriqlar tayyorlandi. Bunday topshiriqlarni tayyorlashda quyidan yuqoriga va yuqoridan pastga yondashuvidan foydalanildi. Jumladan, quyida yuqoridan pastga yondashuviga asoslanib tuzilgan, o'quvchilarning yozma nutq malakalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlardan namunalar keltiramiz. Buning uchun mashqlar uch toifaga ajratildi:

1. Berilgan so'zlar va iboralardan gaplar tuzish.
2. Berilgan so'z va iboralardan turli mavzularda paraqraflar tuzish.
3. Taqdim etilgan materialdan paraqraflar yozish.

1. Berilgan so'zlar va iboralardan gaplar tuzish.

Mashqni o'tkazishdan maqsad: O'quvchilarning sintaktik tuzilmalardan foydalanish darajasini aniqlash. Mashq 3-sinf o'quvchilariga tavsiya etildi.

1-mashq. Quyidagi so'zlarga mos qo'shimchalar qo'shing va birikmalar hosil qiling.

1. Akram _____ kitob _____
2. Gullar _____ rang _____
3. Hovli _____ yugur _____
4. Daftari _____ yozmang _____
5. Parta _____ chizmang _____
6. Uka _____ urishmang _____

2-mashq. Tartibsiz berilgan so'zlarni moslab, gap tuzing. Kelishik qo'shimchalaridan foydalaning.

1. | baliq | ovi | hamma | borish | hamma |.
2. | dunyo | bering | bolalar |.
3. | yoritadi | quyosh | dunyo | hamma | u | minnatdor |.
4. | qushlar | do'stimiz | biz |

3-mashq. Quyidagi so'z birikmalarini o'qing va gaplar tuzing.

Mayin shabada, qizil gul, esayotgan shamol, sovuq havo, tirishqoq bola, mazmunli kitob, yosh bola, oppoq qor.

4-mashq. Chiziqlar o'rniga matn mazmuniga mos so'zlarni qo'ying.

Chimyon bag'rida _____ ochildi. Oy _____ esa yanada chiroyli ko'rinadi. Uzoqdan toyning _____, sal keyin _____ shovillashi itlarning _____ bilan aralashib sokinlikni buzardi. Kamol ota _____ bosh, uning o'g'itlari _____ asqotadi. O'roqni olib, _____ kirishsa, uyalganidan _____ uning qo'lidin yumushini olardi.

Foydalanish uchun so'zlar: hammaga, lola, nevaralari, soyning, akillashi, yoshlarga, ishga, shu'lasida, ovozi,

2. Berilgan so'zlar va bir mavzuga doir ibora va gaplardan paraqraflar yasash.

Mashqni o'tkazishdan maqsad: O'quvchilarning paraqraflar mazmunini asosdagi mantiqiy izchillikda bir butun matn yaratish malakasini aniqlash. Mashq 3-sinf o'quvchilariga taqdim etildi.

1-mashq. Aralash tarzda berilgan paraqraflarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtiring.

Daraxt voqeasi.

A)–Bularni eshitgan ota “Har biringiz to'g'ri gapirdingiz. Chunki sizlar turli fasllarda bordingiz. Ammo shuni bilinglarki, bitta daraxtga bir faslning o'zi bilan hukm chiqarmaslik kerak. Agar qishdagi ko'rinishiga suyanib, “Daraxt faqat quruq” desangiz, uning bahordagi yashilligini, yozdagi go'zalligini, kuzdagi shirin mevalarini inkor qilgan bo'lib qolasiz.

B)–To'ng'ich o'g'il qish faslida, ikkinchisi bahorda, uchinchi o'g'il yozda, kenja esa kuzda bordi. Barchalari daraxtni ko'rib kelishgach, otalari ulardan “Qani, har biringiz ko'rgan daraxtingizni birma-bir sharhlab beringchi” dedi.

D)–“Xuddi shuningdek, bir shaxs haqida ham bitta vaziyatdan, bitta burchakdan turib, birgina odamning gapi bilan hukm chiqarmanglar. Uning hamma tomonini o'rganib chiqib, keyin xulosa chiqaringlar”, - dedi ota.

⁵ Коцарева Т.В. Формирование языковой компетентности младших школьников средствами лексической работы // Учительский журнал. 2013. № 1.

⁶ Baynazarova D. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinf uchun darslik. II qism. Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. –88 b.

⁷ Toirova M.E. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinf uchun darslik. I qism. Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. –88 b.

⁸ Рамзаева Т.Г., Львов М.Р. Методика обучени русскому языку в начальных классах. - М.: 1979. с.291-292.

⁹ Matchonov S., Bakiyeva H., Gulomova X., Yo'ldosheva Sh., Xolboyeva G.. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent. – 2021-yil.

E)–Bir odamning toʻrtta oʻgʻli bor edi. Shoshilib qaror chiqarmaslik, fikrlar yuzaki boʻlib qolmaslik borasida hayotiy dars oʻrgatish uchun ota ularni uzoq vodiya joylashgan katta daraxtni koʻrib kelishga yubordi.

F)–Toʻngʻich oʻgʻil “Daraxt juda xunuk va qurigan ekan”, dedi. Keyingisi “Daraxt yam-yashil bargli ekan” dedi. Uchinchisi “Daraxt xushboʻy gullar bilan qoplangan ekan” dedi. Kenja esa “Daraxtning mevalari koʻp ekan” dedi.

3. Berilgan oʻquv materialidan paragraf yozish.

Mashqni oʻtkazishdan maqsad: Oʻquvchilarning berilgan matn asosida paragraflarning tuzilishi va mazmunini tushunganliklarini aniqlash. Mashq 3-, 4-sinf oʻquvchilariga taqdim etildi.

1-mashq. Matnni oʻqing va FDM (PEE – Point- Evidence- Explanation) usulidan foydalanib, paragraf yozing.

Xazinadagi boylik meniki emas

Har safar sulton Abdulhamidxonning poyabzali yirtilganda uni oʻzi qaytadan tikib taʼmirlab olar edi.

Saroy xizmatchilari undan “Nega yangi poyabzal sotib olmaydiz” - mamlakatning boyligi oʻz qoʻlingizda-ku? - deb soʻrashganida, sulton: “Xazinadagi boylik meniki emas - xalqniki, men musulmonlarning haqini oʻz ehtiyojini uchun sarflay olmayman, axir men bu yerga ularni behuda sarflash uchun emas, uni muhofaza qilish uchun kelganman” - der edi.

Shu sababdan u oʻz kasbi boʻlmish duradgorlik bilan shugʻullanib, yogʻochdan har xil buyumlar yasay, xizmatchilar esa, buyumlarni bozorda sotib kelishar, bundan tushgan pulni sulton oʻzi va oilasi ehtiyoji uchun sarflar edi.

Sulton Abdulhamidxonni taxtdan agʻdarishgach, uning saroyiga talonchilar ishonch bilan, katta boylik umidida “hoynaxoy, sulton cheksiz boylikni yashirgan boʻlsa kerak” - degan xayolda kirishadi.

Talonchilar biror teshik tuynukni ham qoldirmasdan, hamma yoqni tintuv qilib chiqishgach, u yerdan bor yoʻgʻi, tahorat qilish uchun suv toʻldirilgan obdasta, artinish uchun sochiq va joynamozdan boʻlak hech narsa topa olmaydilar va noumid holda u yerdan qaytib chiqib ketadilar.

Natijalar. Boshlangʻich sinflarda oʻtkazilgan tajriba-sinov ishlari shundan dalolat berdiki, oʻquvchilarning yozma nutqni rivojlantirish ustida bajarilgan mashqlari tajriba va nazorat sinflarida bir xil koʻrsatkichga ega boʻlmadi. Tajriba sinflarda yozma nutqqa oid mashqlarni bajarishda pragmatik yondashuv asosida tashkil etilishi nazorat sinflariga qaraganda tajriba sinflarida yuqori samaradorlik koʻrsatkichini berdi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida lingvistik kompetensiyalarni yozma mashqlar asosida rivojlantirishga doir tadqiqot natijalarini 1-rasmda keltirib oʻtamiz. (1-rasm.)


t/r	Bajariladigan mashq turlari	2-sinf		3-sinf		4-sinf	
		TS	NS	TS	NS	TS	NS
1	Soʻzlarga mos qoʻshimchalar qoʻshish va birikmalar hosil qilish	78%	64%	86%	65%	90%	66%
2	Tartibsiz berilgan soʻzlarni moslab, gap tuzish. Kelishik qoʻshimchalaridan foydalanish	81%	68%	83%	70%	87%	69%
3	Soʻz birikmalari asosida gaplar tuzish	82%	71%	85%	71%	89%	71%
4	Chiziqlar oʻrniga matn mazmuniga mos soʻzlarni qoʻyish	83%	69%	90%	76%	91%	73%

1-rasm. Soʻzlar va iboralardan gaplar tuzish boʻyicha nazorat bosqichida boshlangʻich sinf oʻquvchilarining lugʻaviy koʻnikmasi shakllanish darajasining qiyosiy natijasi¹⁰

Loyiha metodi asosida oʻtkazilgan tajriba-sinov ishlari nazorat sinflariga qaraganda tajriba sinf oʻquvchilarida lingvistik kompetensiyalar rivojlanishi yuqori ekanligini koʻrsatdi. Tajriba sinflarida ham past oʻzlashtiruvchi oʻquvchilar bor boʻlib, ular guruhlarda ishlash jarayonida muvaffaqiyatga erishdilar. Bu esa ona tili taʼlimi jarayonida oʻquvchilarning shaxsiy qiziqish va dunyoqarashi, oʻzlashtirish darajasidan kelib chiqib ish koʻrish lozimligini eslatadi. Yuqoridagi natijalarga asoslanib, ona tili darslarida oʻquvchilarning

yoza nutq kompetensiyalarini rivojlantirishda “Kichik guruhlarda ishlash”, “Loyiha metodi” taʼlimiy metodlari samarali hisoblanadi.

Qoʻqon shahridagi 39-maktabning 3-, 4-sinflarida FDM usulidan foydalanib, oʻquvchilarning paragraflar mazmunini tushunish va matq qismlarini mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish malakasini aniqlash mashqlari oʻtkazildi. Mashqlarni bajarishda sinf oʻquvchilarining quyidan yuqoriga yondashuvi asosida olib borgan amaliy ishi kuzatildi va ijobiy natijalarga erishilgani qayd etildi. (2-rasm.)



2-rasm. 3-, 4-sinflarda paragraf yashash.¹¹

Qiyoslash metodi asosida olib borilgan tadqiqot natijasi shuni koʻrsatdiki, loyiha usulidan foydalanib paragraflar yozish va bir butun

¹⁰ Muallif ishlanmasi.

¹¹ Muallif ishlanmasi

matn qismlarini ketma-ketlikda joylashtirish, bu orqali bolalarda bir fikr bilan boshqa bir fikrni ajrata olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Natijada esa o'quvchilarning insho va bayon yozishdagi malakalari o'sib boradi.

3-, 4-sinf o'quvchilariga FDM usulidan foydalanib paragraf yozish topshirig'i berildi. Mashqni bajarish tajriba sinflarida kichik guruhlarda ishlash orqali amalga oshirilgan bo'lsa, nazorat sinflarida esa individual yoki juftlikda ishlash orqali bajarildi. Paragraf yozish boshqa mashq turlariga qaraganda murakkab bo'lgani uchun o'quvchilardan katta mehnatni talab qiladi. Paragraf bu katta yozma ijodiy ishlar,

hikoyalarning qismlarini ajratib turadigan blok hisoblanib, uning asosiy maqsadi yozma ijodiy ishda fikrlarni tartibli, izchil ifodalash imkonini berishdir. Berilgan matndan paragraf yozish mashqining natijalarini 3-rasmda ifodalashga harakat qildik. Qarang. 3-rasm. Berilgan matnda uchta paragraf mavjud bo'lib, o'qituvchi buni topish va yozish topshirig'ini beradi. Tabiiyki, o'quvchilar har xil fikrlarni bayon etdilar. Faqat jamoada ishlab, hamfikir o'quvchilargina to'g'ri paragraf tuza oldilar.

t/r	Paragraflar	3-sinf		4-sinf	
		TS, o'quvchi soni	NS, o'quvchi soni	TS, o'quvchi soni	NS, o'quvchi soni
1	Xalqning mulkini himoya qilish sulton Abdulhamidxonning asosiy maqsadi edi.	77%	66%	83%	66%
2	Sulton Abdulhamidxon duradgorlik kasbi orqali oilasini moddiy qo'llab-quvvatlardi.	82%	67%	85%	71%
3	Sulton Abdulhamidxon taxtdan ag'darilganda ham xalq mulkini muhofaza qilgani ma'lum bo'ldi.	84%	69%	87%	73%

3-rasm. Matn asosida paragraf yozish.¹²

Tajriba sinflarda o'quvchilar kichik guruhlarda ishlab, yagona umumiy fikr yozganliklari uchun natijalar nazorat sinfidagi o'quvchilar bildirgan fikrlarga qaraganda aniqroq va lo'nda ifodalandi. Chunki kichik guruhlarda ishlash orqali o'quvchilar fikrlarini mantiqan, semantik va grammatik jihatdan ifodalash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Boshlang'ich sinflardagi pedagogik kuzatishlar, o'qituvchilar bilan olib borilgan suhbatlar ayrim o'quvchilarda lingvistik kompetensiyalar yaxshi rivojlanmagani, buning oqibatida bunday o'quvchilar leksik, semantik, sintaktik, grammatik mashqlarni bajarishda o'z sinfdoshlaridan ortda qolayotgani, fikrni yozma ifodalashda jiddiy xatoliklar qilayotganini ko'rsatdi. Buning sababi sifatida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'quvchilarni hayotiy ko'nikmalarga tayyorlovchi ta'lim usullarining yetarli emasligini ko'rsatib o'tamiz.

Muhokama. Ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish dunyo olimlarining nigohidan chetga chiqmagan. Chunonchi, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan R.A. Budagov, V.A. Maslova, M.R. Lvov, o'zbek milliy metodikasi jonkuyar olimlaridan N. Mahmudov, B. To'xliyev, S. Matchonov, T. Ziyodova, M. Shamsiyeva va boshqalar o'quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishning metodikasini nazariy va amaliy asoslab berganlar. Lekin bugungi kun ta'limi soha mutaxassislaridan XXI asr o'quvchilarining qiziqishlari va o'zlashtirish darajasini hisobga olib, pragmatik topshiriqlarni ishlab chiqib, ta'lim jarayonida turli interaktiv usullarni qo'llash orqali samaradorlikka erishishni talab qilmoqda. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari ona tili darsliklarida berilgan o'quv materiallari bilan cheklanib qolmasdan, uni mazmunan va shaklan boyitib, o'quvchilar uchun qulay ta'limiy vaziyat yarata olsalargina ko'zlangan maqsadga erishish osonlashadi.

Tadqiqotchi O'g'iljon Olloqova shunday yozadi: "Pragmatika tilshunosligi kichik nazariyasi bo'lib, u "tilni foydalanuvchilar nuqtayi nazaridan, ayniqsa, ular qilgan tanlovlar, ijtimoiy o'zaro

munosabatlarda tildan foydalanishda duch keladigan qiyinchiliklar va ularning tildan foydalanishga ta'sirini o'rganish".¹³

Tilshunoslikda "pragmatika" atamasi bilan parallel ravishda "pragmatik kompetensiya", "pragmatik yondashuv" tushunchalari qo'llanadi. Pragmatik kompetensiyaga dastlab Xomskiy quyidagicha ta'rif bergan: "Turli maqsadlarga muvofiq tildan to'g'ri foydalanish shartlari va usullarini bilish".¹⁴ Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili ta'limida pragmatik yondashuv bo'yicha bilimlarini oshirish kerak deb hisoblaymiz.

Metodistlar yozma savodxonlikni oshirishning uch darajasini taqdim etadilar. Birinchi bosqichda o'qituvchi insho yoki ijodiy ishning qismlari haqida ma'lumotlar beradi. O'quvchiga nafaqat mavzu, balki qismlardagi ba'zi ma'lumotlar va reja tuzish uchun fikrlar ham beriladi. Ikkinchi bosqichda o'qituvchi sinfga yozish uchun aniq mavzu beradi. Guruh mashg'ulotlarida ushbu mavzu bo'yicha ma'lumotlarni ishlab chiqish o'quvchilarga bog'liq. Uchinchi bosqichda o'quvchilar guruh mashg'ulotlarida o'z mavzularini tanlashlari va ishlab chiqishlari kerak.¹⁵

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N. Leontev quyidagicha tavsiflaydi: "Nutqni o'stirish va rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlarning assotsiatsiya asosida bog'lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar, balki sifat jihatdan o'zgarish jarayonidir, zero u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog'langan holda so'zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir".¹⁶ Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqni rivojlantirish ularning og'zaki nutqiga asoslanib, til fanining barcha bo'limlarini qamrab olgan holda davom ettiriladi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish oddiydan murakkabga tamoyili asosida ma'lum bir izchillikda olib borilishi o'qituvchidan har bir o'quvchi nutqi uchun qayg'urishi kerakligini anglatadi. O'quvchilar yozma nutq kompetensiyalarini rivojlantirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quv-uslubiy metodik qo'llanmalar, rasmiy izohli lug'at, mashqlar to'plami bilan ta'minlash yaxshi natijalarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "O'zbekiston nashriyoti". Toshkent – 2021.
2. To'xtayeva F.Sh. Ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvda pedagogning raqamli kompetentlikning ahamiyati. ISSN 2181-1717 (E) Образование и инновационные исследования (2022 год №7).

3. Выготский, Л. С. Проблема возрастной периодизации детского развития [Текст] : Л. С. Выготский // Вопросы психологии. – 1972. – № 2. – С. 114-123
4. Текучев А. В. Методика преподавания русского языка в средней школе. М.: 1958. С.120
5. Коцарева Т.В. Формирование языковой компетентности младших школьников средствами лексической работы // Учительский журнал. 2013. № 1.

¹² Muallif ishlanmasi

¹³ Olloqova O'. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning kompetensiyaviy yondashuvini tashkil etish. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 6-son (2021-yil, dekabr).

¹⁴ Yuqoridagi manbaa.

¹⁵ Parpiyev O. Ona tili darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarning yozma nutq savodxonligini oshirish. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 02 (2024) / ISSN 2181-1415.

¹⁶ D.R. Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: «Barkamol fayz media», 2018, – 432 b.

6. Baynazarova D. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. II qism. Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 88 b.
7. Toirova M.E. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, I qism. Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. –88 b.
8. Рамзаева Т.Г., Львов М.Р. Методика обучени русскому языку в начальных классах. - М.: 1979. с.291-292.
9. Matchonov S., Bakiyeva H., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Xolboyeva G.. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent. – 2021-yil.
10. Olloqova O'. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning kompetensiyaviy yondashuvini tashkil etish. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 6-son (2021-yil, dekabr).
11. Parpiyev O. Ona tili darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarning yozma nutq savodxonligini oshirish. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 02 (2024) / ISSN 2181-1415.
- 12.D.R. Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: «Barkamol fayz media», 2018, – 432 b.



NABIJON BOQIYNING "ROHILA" QISSASIDA XARAKTER VA KONFLIKT MASALASI

Abdupattayev G'ulomjon G'ofirjon o'g'li,
Qo'qon universiteti
Pedagogika-psixologiya kafedrası o'qituvchisi

MAQOLA HAQIDA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil
Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil
Jurnal soni: 14
Maqola raqami: 29
DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1140>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS
didaktik shart-sharoit, ta'lim, metod, yondashuv

ANNOTATSIYA
O'zbek adabiyotida qissa janri o'z o'rniga ega bo'lib, undagi bosh qahramonlar xarakteri, ijtimoiy-maishiy hayotning tasviri asosiy bo'g'inlardan biridir. Ushbu maqolada Nabijon Boqiyning "Rohila" qissasidagi asosiy qahramonlar xarakterining shakllanishi ular yashagan ijtimoiy hayot fonida oshib berilganligi tahlil qilingan. Muallif ilgari surayotgan g'oyalar misollar keltirish orqali dalillangan.

Kirish. Dunyo bo'ylab zamonaviy ta'lim tizimida katta o'zgarishlar va yangilanishlar asta sekin o'z timsolini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda ta'limning sifati nafaqat o'quvchilarni bilimlar bilan ta'minlash, balki ularning shaxsiy rivojlanishini, kognitiv va psixologik qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan yondashuvlarni ham o'z ichiga oladi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, eng muhimi, ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llashda mavjud didaktik shart-sharoitlarning to'g'ri tashkil etilishidir. Ta'lim texnologiyalarining joriy etilishi, o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini yanada samarali qilish, o'qituvchilar esa o'z pedagogik malakalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi¹.

Ta'lim texnologiyalarini qo'llashning asosiy maqsadi, o'quv jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali qilishdir. Bunda, ta'lim texnologiyalari yordamida darslarni tashkil etishning didaktik shart-sharoitlari o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqot, o'quvchilarning faoliyatini boshqarish va ularning individual xususiyatlariga mos yondashuvlarni taqdim etish imkonini yaratadi².

Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirish jarayoni uzoq muddatli strategik maqsad bo'lib, xalqaro tajribalardan samarali foydalanish orqali bu yo'nalishda sezilarli yutuqlarga erishish mumkin. Kelajakda ta'lim jarayonini to'liq raqamlashtirish oliy ta'lim tizimining innovatsion rivojlanishini ta'minlaydi va mamlakatning global ta'lim tizimida yuqori o'rin egallashiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-sonli "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori.

⁴ <https://nis.egov.uz/>

⁵ <https://nis.egov.uz/>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabedagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.

4. UNESCO. (2023). Digital Transformation in Higher Education.

5. OECD. (2022). The Impact of Digitalization on Higher Education Governance.

6. Korean Ministry of Education. (2021). Smart Campus Initiative in South Korea.

7. European Commission. (2023). The Role of AI in Higher Education Administration.

8. <https://nis.egov.uz/>



TARBIYALANUVCHILARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI ANIQLASH VA ULARNI MAQSADLI RIVOJLANTIRISH USULLARIGA QARATILGAN O'YIN TEXNOLOGIYALARI

Boymirzayeva Shahnoza Olimjon qizi

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

E-mail: boymirzayevashahnoza98@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil

Jurnal soni: 14

Maqola raqami: 32

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1143>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

intellektual qobiliyatlar, o'yin texnologiyalari, ta'lim jarayoni, mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashuv, muammolarni hal etish, eksperimental tadqiqot, pedagogik texnologiyalar, ta'lim samaradorligi, motivatsiya

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola tarbiyalanuvchilarning intellektual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishda o'yin texnologiyalarining o'rnini va samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan. O'yin texnologiyalari ta'lim jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashuv va muammolarni hal etish kabi intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida qo'llanilishi mumkin. Tadqiqotda o'yin texnologiyalarining ta'limda qanday qo'llanishi va ular orqali qobiliyatlarni rivojlantirish metodlari ko'rib chiqilgan. Eksperimental tadqiqotlar va so'rovnoma orqali o'quvchilarning intellektual salohiyati o'yin texnologiyalari yordamida an'anaviy ta'lim metodlariga nisbatan yaxshilanganligi tasdiqlangan. Maqola o'yin texnologiyalarining ta'limdagi samarali qo'llanilishi uchun zarur pedagogik yondashuvlarni ham ko'rsatib o'tadi.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat bilim berishni, balki tarbiyalanuvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishni ham o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Intellektual qobiliyatlar, jumladan mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashuv, analitik qobiliyatlar va muammolarni hal etish, o'quvchilarning muvaffaqiyatli ta'lim olishida hal qiluvchi omillardan biridir. Shu bilan birga, bugungi kunda o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashda foydalanilayotgan an'anaviy usullar ko'pincha yosh avlodni faqat standart bilimlar bilan ta'minlaydi, ammo ularning ijodkorlik va fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yetarlicha ta'sir o'tkazmaydi. Shunday qilib, ta'limda zamonaviy texnologiyalarning, ayniqsa o'yin texnologiyalarining qo'llanilishi, ta'lim jarayonining sifatini oshirishda muhim o'rin egallaydi.

O'yin texnologiyalari ta'lim jarayonida interaktivlik va qiziqarli usullarni taklif qiladi. O'quvchilar o'yinlar orqali nafaqat bilim olishadi, balki o'z fikrlarini erkin ifodalash, jamoaviy ishlash, strategik fikrlash va muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar. O'yinlar orqali o'quvchilar mantiqiy fikrlashni, ijodiy yondashuvni va analitik qobiliyatlarni rivojlantirishda o'zlarini sinab ko'rishadi. Bunday texnologiyalar o'quvchilarga nafaqat bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi, balki ular o'z shaxsiy rivojlanishini boshqarish va o'z imkoniyatlarini kengaytirishga ham imkon yaratadi. O'yin texnologiyalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishda juda samarali bo'lishi mumkin. O'quvchilarga o'yin orqali ta'lim berish nafaqat ularning bilim doirasini kengaytiradi, balki o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga, guruhda ishlashni o'rganishga va turli ijtimoiy vaziyatlarda qarorlar qabul qilishni takomillashtirishga yordam beradi. O'yinlarda berilgan topshiriqlar, o'quvchilarni ijodiy yondashishga undaydi va ular o'quv jarayonida faollik ko'rsatishga majbur bo'ladi. Shuningdek, o'yin texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarning o'z intellektual qobiliyatlarini o'lgach va rivojlantirishning yangi imkoniyatlari ochiladi. O'yinlar yordamida o'quvchilarning qobiliyatlari nafaqat baholanadi, balki o'quvchilarni turli vaziyatlarga moslashtirish va ularning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan maxsus maqsadlar belgilanadi.

Ushbu maqolada o'yin texnologiyalarining tarbiyalanuvchilarning intellektual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishdagi o'rnini tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'yin texnologiyalarining pedagogik va psixologik jihatlari, shuningdek, ular yordamida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish usullari ko'rib chiqiladi. O'yin texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rnini, samaradorligi, shuningdek, bu texnologiyalarni

qanday qilib maqsadli tarzda qo'llash mumkinligi haqida ilmiy tahlil amalga oshiriladi. Maqsadli o'yin texnologiyalari yordamida o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonining metodikasi va natijalari hamda o'yinlar orqali o'quvchilarni yanada yuqori darajaga ko'tarish imkoniyatlari o'rganiladi.

Adabiyotlar tahlili. O'yin texnologiyalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi va o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda samara berishini ko'rsatuvchi ilmiy tadqiqotlar so'nggi yillarda kengayib bormoqda. Bu sohada amalga oshirilgan tadqiqotlar o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, va bilim olishning qiziqarli va interaktiv shakllarini yaratish bo'yicha ko'plab yondashuvlarni taqdim etadi.

Kappas va Barreda-Ángeles (2019) o'z ishlari o'yinlashtirish (gamifikatsiya) va o'yin asosidagi o'rganish (game-based learning)ning ta'limdagi ahamiyatini ko'rib chiqadi. Ularning fikriga ko'ra, o'yinlashtirish ta'lim jarayoniga qiziqarli va rag'batlantiruvchi elementlarni qo'shadi, bu o'quvchilarning qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi. Gamifikatsiya yordamida o'quvchilarni qiziqitirish va ularni ta'limga jalb qilish o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishga olib keladi¹.

Zheng va Lin (2016) o'yin asosidagi o'rganishning o'quvchilarning motivatsiyasi, faolligi va natijalariga bo'lgan ta'sirini o'rganib chiqqan. Ularning tadqiqotiga ko'ra, o'yin asosidagi o'quv metodlari nafaqat o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, balki ularning akademik yutuqlarini ham yaxshilaydi. O'quvchilarning faolligini oshiradigan va bilimni o'zlashtirishni osonlashtiradigan o'yin texnologiyalari ularga yanada yaxshi natijalar olish imkoniyatini beradi².

Hamari va boshqalar (2014) gamifikatsiya va o'yin asosida o'rganishning ta'limdagi samaradorligini tahlil qilgan. Tadqiqotda gamifikatsiyaning o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va o'quv jarayonida faolligini kuchaytirishdagi roli ko'rsatilgan. O'yin asosidagi yondashuvlar o'quvchilarda o'rganishga qiziqishni oshiradi, shu bilan birga ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi³.

Bates (2015) ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni, jumladan o'yin texnologiyalarini qo'llashni o'rganadi. U o'yinlarning o'quvchilarda kognitiv faollikni oshirish, o'z fikrlarini ifodalash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rnini ta'kidlaydi. Tadqiqotda, o'yin texnologiyalarining nafaqat bilim olish, balki ta'limda

¹ Kappas, A., & Barreda-Ángeles, M. (2019). Gamification and game-based learning in education. In Handbook of Research on Educational Communications and Technology (pp. 357-371). Springer.

² Zheng, B., & Lin, C. (2016). The effects of game-based learning on students' learning motivation, engagement, and achievement: A meta-analysis. Journal of Educational Computing Research, 54(1), 73-93

³ Hamari, B., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does gamification work? – A literature review of empirical studies on gamification. 47th Hawaii International Conference on System Sciences, 3025-3034.

ijodkorlik va shaxsiy o'sish uchun qanday qo'llanilishi zarurligi ko'rsatilgan⁴.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi 3-7 yoshdagi tarbiyalanuvchilarning intellektual qobiliyatlarini aniqlash va ularni rivojlantirishda o'yin texnologiyalarining samaradorligini o'rganishdir. Tadqiqotda o'yin texnologiyalarining ta'lim jarayoniga qo'llanilishi va tarbiyalanuvchilarning intellektual rivojlanishidagi o'zgarishlar eksperimental usulda o'rganilgan. Tadqiqotda qatnashgan tarbiyalanuvchilarni o'yin texnologiyalari orqali intellektual qobiliyatlarining rivojlanishini tahlil qilish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanilgan.

Tadqiqot eksperimental usulda o'tkazilgan bo'lib, unda o'quvchilarga ikki xil ta'lim yondashuvi taqdim etilgan. Birinchi guruhda tarbiyalanuvchilarga an'anaviy ta'lim usullari yordamida ta'lim berilgan, ikkinchi guruhda esa o'yin texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim berilgan. Har bir guruhda 15-20 nafar tarbiyalanuvchi qatnashgan. Tadqiqot davomida har ikki guruhning intellektual qobiliyatlari va rivojlanishini o'lchash uchun turli metodlar va asboblari qo'llanilgan.

Tadqiqotda o'quvchilarning intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun turli o'yin texnologiyalari tanlandi. 3-7 yoshdagi bolalar uchun mos o'yinlar quyidagi kategoriyalarga bo'lingan:

Kognitiv o'yinlar: Mantiqiy fikrlash, xotira va raqamlarni o'rganishga qaratilgan o'yinlar, masalan, "labirint" o'yinlari, "xotira o'yinlari" va rangli shakllar bilan ishlash.

Ijodiy o'yinlar: Bolalarda ijodiy fikrlash va tasavvur qilishni rivojlantirishga yordam beradigan o'yinlar. Masalan, rasmlar chizish, figurinalar yasash, rolli o'yinlar (masalan, "uyda o'ynash", "do'konda sotuvchi bo'lish").

Harakatli o'yinlar: Bolalarning motor ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan o'yinlar. Masalan, kichik sport o'yinlari, to'p bilan o'ynash va boshqa jismoniy faoliyatni talab qiladigan o'yinlar.

Tadqiqotda o'quvchilarning intellektual rivojlanishini o'lchash uchun bir nechta ma'lumot yig'ish usullari qo'llanilgan:

O'quvchilarni kuzatish: Tarbiyalanuvchilarning intellektual rivojlanishi va o'yinlar orqali o'zgarishlar kuzatish orqali amalga oshirilgan. Bu jarayonda tarbiyalanuvchilarning faolligi, fikrlash darajasi va ijodkorlik ko'rsatkichlari belgilanadi.

So'rovnomalar va intervyular: O'yin texnologiyalarining bolalar uchun qanchalik samarali ekanligini aniqlash maqsadida tarbiyachilar va o'quvchilar bilan so'rovnomalar va intervyular o'tkazilgan. Bu o'quvchilarning o'yinlarga qiziqishini va o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini o'lchashga yordam beradi.

Faoliyatlarni baholash: O'yin texnologiyalarini qo'llash jarayonida tarbiyalanuvchilar tomonidan bajarilgan faoliyatlar baholangan. Masalan, rangli shakllarni birlashtirish, xotira o'yinlarini o'ynash va yaratgan ijodiy ishlar tahlil qilingan.

Tadqiqotda yig'ilgan ma'lumotlar sifatli va miqdoriy tahlil qilish orqali baholangan. Asosiy tahlil metodlari quyidagilardir:

Deskriptiv tahlil: O'quvchilarning intellektual rivojlanish darajalaridagi o'zgarishlarni tahlil qilish uchun o'rtacha ko'rsatkichlar, tarqatish va farqlar hisoblangan.

T-test: Ikki guruh o'rtasidagi farqlarni tahlil qilish uchun t-test usuli qo'llanilgan. Bu metod yordamida o'yin texnologiyalarining ta'limdagi samaradorligi aniqlangan.

Kategorik tahlil: O'yin texnologiyalarining tarbiyalanuvchilarning ijodiy va kognitiv rivojlanishiga qanday ta'sir qilganini o'lchash uchun kategorik tahlil o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotning natijalari o'yin texnologiyalarining maktabgacha ta'limda tarbiyalanuvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishdagi samaradorligini ko'rsatadi. Tadqiqot davomida ikki guruhga ajratilgan 3-7 yoshdagi tarbiyalanuvchilarni kuzatish va tahlil qilish orqali quyidagi natijalar olingan.

Tadqiqotning birinchi guruhida o'quvchilarga an'anaviy ta'lim usullari orqali ta'lim berilgan bo'lsa, ikkinchi guruhda o'yin texnologiyalaridan foydalanilgan. O'yin texnologiyalari qo'llanilgan guruhda tarbiyalanuvchilarning intellektual rivojlanishida sezilarli

o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, o'yinlar yordamida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishda quyidagi o'zgarishlar aniqlangan:

Mantiqiy fikrlash va xotira: O'yinlar (masalan, xotira o'yinlari va mantiqiy labirintlar) yordamida bolalar o'zlarining mantiqiy fikrlash va xotira ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshiladilar. O'yin asosida o'rganish natijasida bolalarning masalalarni hal qilishdagi tezligi va to'g'riligi oshgan. Birinchi guruhga nisbatan ikkinchi guruhda o'quvchilarning xotira o'yinlari va mantiqiy vazifalarni bajarayotganda aniq va tez javob berish darajasi 25-30% ga oshdi.

Ijodiy fikrlash: O'yin texnologiyalari yordamida ijodiy fikrlashni rivojlantirishda o'zgarishlar kuzatildi. Tarbiyalanuvchilar o'zlarining tasavvurini ishlatishda va yangi g'oyalarni ishlab chiqishda faolroq bo'ldilar. Masalan, rolli o'yinlar va ijodiy faoliyatlar (rasmlar chizish, shakllar yasash) orqali bolalar yangi g'oyalar yaratishda faol qatnashdilar. Ikkinchi guruhda bolalar ijodiy faoliyatlarini bajarishda birinchi guruhga nisbatan 40% ko'proq faol bo'ldilar.

O'yin texnologiyalari bolalarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshirdi. Tarbiyalanuvchilarning o'yinlar orqali o'rganishga bo'lgan qiziqishi va ishtiyoqi aniq ko'rindi. Ikki guruhdagi o'quvchilar o'rtasidagi farqni o'lchashda o'yin asosida o'rganish guruhida bolalarning 85% i ta'lim jarayoniga yanada ko'proq qiziqish bildirishdi. So'rovnomalar natijasida, o'yinlarni o'ynash orqali o'rganishga bo'lgan qiziqish birinchi guruhga nisbatan 50% ga yuqoriligi kuzatildi. Harakatli o'yinlar, masalan, to'p bilan o'ynash yoki jismoniy faoliyatni talab qiladigan o'yinlar, bolalarning motor ko'nikmalarini rivojlantirishda ham samarali bo'ldi. Bu o'yinlar orqali bolalarning jismoniy faolligi va ularning o'z tana harakatlarini boshqarish qobiliyati yaxshilandi. O'yinlar orqali bolalarning koordinatsiyasi va harakatlardagi aniqligi 15-20% ga yaxshilandi. Tarbiyachilar tomonidan o'tkazilgan baholashlar shuni ko'rsatdiki, o'yin texnologiyalari yordamida o'qitishning samaradorligi ancha yuqori. Tarbiyachilar o'yin asosida o'rganishning bolalar uchun qiziqarli va foydali ekanligini ta'kidlashgan. Shuningdek, o'yinlar orqali bolalarning o'zaro munosabatlari va jamoada ishlash ko'nikmalari ham yaxshilandi. O'yin texnologiyalari bolalarning ijtimoiy va emosional rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatdi. O'quvchilarning o'yinlar davomida o'zaro muloqot qilish, bir-birlari bilan hamkorlikda ishlash va hissiy reaksiyalarni boshqarish ko'nikmalari oshdi. O'yinlar tarbiyalanuvchilarga jamoaviy ishlarni bajarish, birgalikda muammo yechish va bir-birini qo'llab-quvvatlashni o'rgatdi.

Tadqiqotning umumiy natijalari shuni ko'rsatadiki, o'yin texnologiyalari 3-7 yoshdagi tarbiyalanuvchilarning intellektual, ijodiy va ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'yinlar orqali bolalarning mantiqiy fikrlash, xotira, ijodiy fikrlash, motor ko'nikmalari va o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, o'yinlar bolalarning o'zaro muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berdi.

Muhokama. Ushbu tadqiqotning natijalari bolalar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda o'yin texnologiyalarining samaradorligini ko'rsatadi. Tadqiqot davomida olingan natijalar o'yin texnologiyalarining ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchilarning intellektual, ijodiy va jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Ammo, bu natijalar faqatgina o'yin texnologiyalarining samaradorligini emas, balki ularning ta'limda to'g'ri va o'rganilgan metodlarga asoslanishining ham muhimligini ko'rsatadi.

1. O'yin texnologiyalarining samaradorligi:

O'yin texnologiyalari tarbiyalanuvchilarning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi haqida olingan natijalar yuqori darajada ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'yinlar yordamida bolalar mantiqiy fikrlash va xotira ko'nikmalarini yaxshilashdi. O'yinlar bolalarga murakkab vazifalarni hal qilishda yordam beradi, ularning ongli ravishda qaror qabul qilish va analitik fikrlash qobiliyatlarini oshiradi. Bu natijalar, o'yin texnologiyalarining nafaqat bolalar uchun o'yin sifatida, balki ta'lim jarayonining samarali elementiga aylanishi mumkinligini ko'rsatadi. Ayrim tadqiqotlarda (masalan, Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi) bolalarning rivojlanish jarayonida mantiqiy fikrlash va xotira muhim o'rin tutishini ta'kidlashgan. O'yin texnologiyalari ushbu qobiliyatlarni samarali

⁴ Bates, T. (2015). Teaching in a digital age: Guidelines for designing teaching and learning. Tony Bates Associates Ltd.

rivojlantiradi, chunki ular bolalarni o'ziga qaratib, motivatsiya va ishtiyoqni oshiradi, bu esa ta'limga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

2. Ijodiy rivojlanish va ijodiy yondashuvning ahamiyati:

Tadqiqotda ijodiy o'yinlar orqali bolalarning ijodiy fikrlash darajasi ortgani ko'rsatildi. Bu o'yinlar bolalarning tasavvurini kengaytiradi, yangi g'oyalarni yaratishda va muammolarni hal qilishda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Ijodiy o'yinlarning samaradorligi nafaqat kognitiv rivojlanishga, balki bolalarning ijtimoiy ko'nikmalariga ham ta'sir qiladi, chunki bolalar birgalikda ijodiy faoliyatni bajarganlarida, ular o'zaro muloqot qilish, fikrlarini erkin ifodalash va jamoada ishlashni o'rganadilar. Bu o'yinlar orqali bolalar bir-birlarini tushunishni va qo'llab-quvvatlashni o'rganadilar, bu esa ijtimoiy rivojlanishning asosiy bosqichlaridan biridir. Bu o'rinda, **Vygotskiyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasini** e'tiborga olish lozim, u bolalar o'z rivojlanishida atrofdagi ijtimoiy muhit va odamlar bilan o'zaro aloqalar o'rnini ta'kidlaydi. Ijodiy o'yinlar, bolalar uchun ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim vosita sifatida ishlaydi.

3. O'yin texnologiyalarining motivatsiya va qiziqish darajasiga ta'siri:

O'yin texnologiyalarining motivatsiya oshirishdagi samaradorligi muhim natija hisoblanadi. Tadqiqotda o'yinlar yordamida bolalarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasining oshgani ko'rinadi. O'yinlar orqali o'rganish nafaqat o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, balki ularni faol va o'z-o'zini boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tadqiqotda, o'yinlar yordamida ta'lim olish o'quvchilarning ilgari qiyin va zerikarli bo'lib tuyulgan materiallarni ham o'rganishga qiziqish uyg'otganini ko'rsatdi. Bu esa o'quvchilarda mustaqil o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

4. Jismoniy faoliyat va motor ko'nikmalarining rivojlanishi:

Tadqiqotda harakatli o'yinlarning, masalan, jismoniy faoliyatni talab qiladigan o'yinlarning bolalar motor ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'siri ham ijobiy natijalarga olib keldi. Bu o'yinlar orqali bolalarning koordinatsiyasi va jismoniy harakatlarni boshqarish darajasi oshdi. O'yinlar nafaqat bolalarning kognitiv rivojlanishini, balki jismoniy salomatlik va energiyani boshqarish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

5. O'yin texnologiyalarining cheklovlar:

Biroq, o'yin texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llashning ba'zi cheklovlar mavjud. O'yinlar samarali bo'lishi uchun o'qituvchilar ularni to'g'ri va aniq metodologiyaga asoslanib qo'llashlari zarur. Shuningdek, ba'zi tarbiyachilar o'yinlarni ta'lim jarayonida samarali qo'llash uchun yetarli bilimga ega bo'lmagani mumkin. Bundan tashqari, o'yinlar faqatgina jismoniy va intellektual rivojlanishni emas, balki bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ham ko'zda tutishi kerak. Agar o'yinlar noto'g'ri tanlansa yoki o'yin jarayoni samarasiz tashkil etilsa, bu bolalarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda tarbiyalanuvchilarning intellektual qobiliyatlarini aniqlash va ularni maqsadli rivojlantirishda o'yin texnologiyalarining samaradorligi o'rganildi. Tadqiqot davomida 3-7 yoshdagi maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari o'rtasida o'yin texnologiyalarini qo'llashning ijobiy ta'siri aniqlandi. O'yin texnologiyalarining bolalarning intellektual rivojlanishiga, ijodiy va mantiqiy fikrlash, xotira ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatgani tasdiqlandi. Shuningdek, o'yinlar yordamida bolalarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi oshdi, ijodiy va jismoniy rivojlanishlari ham sezilarli darajada yaxshilandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'yin texnologiyalari faqatgina bolalar uchun qiziqarli va jozibali ta'lim vositasi sifatida ishlamaydi, balki ularning intellektual va ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'yin texnologiyalarining ta'lim jarayonida samarali qo'llanilishi o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi va o'yinlarning to'g'ri tanlanishiga bog'liq.

Ushbu tadqiqot o'yin texnologiyalarini maktabgacha ta'lim jarayonida kengaytirilgan holda qo'llashning imkoniyatlarini ko'rsatdi. Kelajakdagi izlanishlar o'yin texnologiyalarining ta'limdagi o'rni,

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Kappas, A., & Barreda-Ángeles, M. (2019). *Gamification and game-based learning in education*. In Handbook of Research on Educational Communications and Technology (pp. 357-371). Springer.
2. Zheng, B., & Lin, C. (2016). *The effects of game-based learning on students' learning motivation, engagement, and*

samaradorligi va turli yosh guruhlaridagi farqlarni chuqurroq o'rganishga yordam beradi. Bundan tashqari, o'yin texnologiyalarining uzoq muddatli ta'sirini o'rganish, shuningdek, o'quvchilarning ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini inobatga olib, ta'limda eng samarali o'yin turlarini ishlab chiqish zarurati mavjud.

Shunday qilib, o'yin texnologiyalari maktabgacha ta'limda tarbiyalanuvchilarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashning samarali vositasi sifatida tavsiya etiladi.

Takliflar. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. **O'yin texnologiyalarini ta'lim jarayonida kengaytirilgan holda qo'llash:** O'yin texnologiyalari bolalar uchun qiziqarli va samarali ta'lim vositasi sifatida tavsiya etiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinlarni ta'lim jarayoniga yanada kengroq integratsiya qilish zarur. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun tarbiyachilarni o'yin metodologiyasi bo'yicha o'qitish va ularni amaliyotda qo'llashga yo'naltirish muhimdir. Shuningdek, o'yinlarning sifatini oshirish va ularni turli yosh guruhlar uchun moslashtirish kerak.

2. **O'yinlar orqali intellektual rivojlanish uchun yangi metodiklar ishlab chiqish:** O'yin texnologiyalarini bolalar intellektual rivojlanishini mustahkamlashda samarali qo'llash uchun yangi metodiklar ishlab chiqish lozim. O'yinlar turli intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan aniq metodik tavsiyalarni o'z ichiga olishi kerak. O'yinlarning turli shakllari (mantiqiy, ijodiy, jismoniy) bolalar rivojlanishining barcha jabhalarini qamrab olishi uchun innovatsion yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur.

3. **Tarbiyachilarni o'yin texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha o'qitish va metodik qo'llanmalarga ega qilish:** O'yin texnologiyalarining ta'lim jarayonida samarali ishlatilishi uchun tarbiyachilarning metodik tayyorgarligi yuqori bo'lishi kerak. Shu bois, o'qituvchilarni va tarbiyachilarni o'yin texnologiyalarini pedagogik jarayonda to'g'ri qo'llashni o'rgatish bo'yicha muntazam ravishda treninglar o'tkazish lozim. Buning uchun o'yinlarni pedagogik maqsadlarda qo'llashga qaratilgan qo'llanmalar, kurslar va dasturlar ishlab chiqilishi zarur.

4. **O'yin texnologiyalarini ijtimoiy-emotsional rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda foydalanish:** O'yin texnologiyalari faqat intellektual rivojlanishni emas, balki bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlashda samarali vosita hisoblanadi. O'yinlar orqali bolalar o'zaro muloqot qilish, jamoaviy ishlarni amalga oshirish va hissiy reaksiyalarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Shuning uchun, o'yin texnologiyalarini bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga ham qaratish lozim.

5. **O'yin texnologiyalarining turli ijtimoiy va madaniy guruhlar uchun moslashtirilgan shakllarini ishlab chiqish:** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalarini qo'llashda ijtimoiy va madaniy farqlarni inobatga olish zarur. Bolalar o'rtasidagi madaniy va ijtimoiy farqlarni hisobga olib, o'yin texnologiyalarining shakllari va metodlari har bir guruh uchun moslashtirilishi lozim. Bu bolalarning ta'limda muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlashga yordam beradi.

6. **O'yin texnologiyalarining uzoq muddatli ta'sirini o'rganish:** Tadqiqotda o'yin texnologiyalarining qisqa muddatli samaradorligi aniqlangan bo'lsa-da, ularning uzoq muddatli ta'sirini o'rganish zarur. O'yin texnologiyalarining bolalar rivojlanishiga uzoq muddatli ta'sirini o'rganishga qaratilgan izlanishlar olib borilishi kerak. Bu, o'yin texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va samaradorligini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi.

7. **O'yinlarni individual va jamoaviy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda uyg'unlashtirish:** O'yin texnologiyalarini nafaqat individual rivojlanishga, balki jamoaviy ishlarni ham rivojlantirishga qaratish lozim. Masalan, o'yinlar orqali bolalar birgalikda muammolarni hal qilish, o'zaro fikr almashish va jamoaviy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Bu, ularning jamoaviy ruhini va ijtimoiy ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

achievement: A meta-analysis. Journal of Educational Computing Research, 54(1), 73-93

3. Hamari, B., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). *Does gamification work? – A literature review of empirical studies on gamification*. 47th Hawaii International Conference on System Sciences, 3025-3034.

4. Bates, T. (2015). *Teaching in a digital age: Guidelines for designing teaching and learning*. Tony Bates Associates Ltd.
5. Abdurashidov, A., & Turdaliyeva, N. (2023). Development of manual work in pre-school education. *Science and innovation*, 2(B2), 282-286.
6. qizi Turdaliyeva, N. A. (2024). Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning nazariy asoslari. *Golden brain*, 2(7), 48-52.
7. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich, & Boymirzayeva Shakhnoza Olimjon kizi. (2023). Systemic Organization of Professional Competence, Creativity and Innovative Activity of A Future Kindergartener. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 19, 108–112. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/3709>
8. Soliyev, I., & Boymirzayeva, S. (2023). Maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion yondashuvning uslubiy asoslari va pedagogik shart-sharoitlari. *Наука и инновация*, 1(6), 128-129.
9. qizi Boymirzayeva, S. O. (2024). Maktabgacha ta'lim tashkilotida bo 'lajak tarbiyachining kreativligini rivojlantirish. *Golden brain*, 2(7), 41-47.



BOLALAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA AYRIM DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

Eraliyeva Zamira Rasuljonovna

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

zamirahoneraliyeva22@gmail.com

Djo'rayeva Dildorahon Rahmonaliyevna

Qo'qon universiteti talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 33 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1144 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS maktabgacha ta'lim, ijtimoiy muhit, o'yin ichida o'yinlar, jismoniy rivojlanish, bilish jarayonlarini rivojlantirish.	Maqolada O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi xuzuridagi maktabgacha ta'lim agentligining 2023 yil 28 avgustdagi 99-sonli buyrug'ining 2 yo'nalishi yani davlatimiz tomonidan berilgan metodik qo'llanmalar didaktik va rivojlantiruvchi o'yinlardan to'g'ri va oqilona qo'llay olishga qaratilgan. Didaktik o'yinlar haqida ma'lumotlar, didaktik o'yinlar orqali bolalarda topqirlik, hushyorlik, hozirjavoblik, diqqatini yig'ishga o'z fikrini bildirga olishga nutqining rivojlanishdagi ahamiyatlari haqida yoritilgan. Chunki o'sib kelayotgan yosh avlod komil yetuk, mukammal shahs bo'lib yetishida o'yin faoliyatining o'rni, maktabgacha yoshdagi bolalarga ularning yoshi va intilishiga qarab, faol va rivojlantiruvchi o'yinlarni misol tariqasida keltirilgan. Adabiyotlar tahlilida K. D. Ushinskiy, Zoltan Dienes va Mariya Montessorilarning metodik ishlari haqida fikr bildirilgan. Talimiy, didaktik, umumrivojlantiruvchi o'yinlardan namunalar keltirilgan va turli DMTT larda o'tkaziladagi bolalardagi o'zgarishlar haqida natijalar qismida diagrammalarda ko'rsatib berilgan.

Kirish. Bolaning aqlan, jismonan, ruhan maktabga tayyor holda chiqarish tarbiyachilarni oldiga qo'ygan eng katta maqsadlaridan biri bo'lib, bu maqsad yo'lida ijodkor, yaratuvchi, kireativ va zamon bilan hamnafas bo'lish kerakligi talab qilinadi. Ya'ni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan ta'limiy didaktik rivojlantiruvchi o'yinlarning ahamiyati muhim hisoblanadi. Didaktik o'yinlar orqali bolalarda topqirlik, hushyorlik, hozirjavoblik, diqqatini yig'ishga o'z fikrini bildirga olishga nutqining rivojlanishiga o'yinlar orqali erishsak bo'ladi. Didaktik o'yinlarni tanlab olishda bolalarni yoshi, ularning jismoniy rivojlanishi, psixologik holatini va bolalarning qiziqishlarini ham hisobga olish kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan talimiy rivojlantiruvchi, didaktik o'yinlar ham harakatga keltiruvchi, ham miya faoliyatini rivojlantiruvchi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. K. D. Ushinskiy analogiya bo'yicha quyidagi. "Taqqoslash har qanday tushunchaning va har qanday tafakkurning asosidir. Odamdagi narsalarning hammasini taqqoslab ko'rish yo'li bilan bilolmasak, boshqa yo'l bilan bila olmaymiz, agar hech narsa bilan solishtirishimiz va farqini bilib olishimiz mumkin bo'lmagan biron yangi narsaga, duch kelganimizda edi (boshqa shunday narsa bor bo'lsa), u holda biz shu narsa to'g'risida hech qanday fikr hosil qila olmagan bo'lar edik va u to'g'risida biror so'z ayta olmagan bo'lar edik" – degan fikrni bildirgan edi. Olimning bu fikriga asos sifatida aytadigan bo'lsak. Masalan, "Shakllarni ustma-ust qo'yish" va multimediali kompyuter o'yinida tarbiyalanuvchi yuqori qatordagi shakllarni taqqoslab, o'xshashini topadi va o'yinni bajaradi. Bu o'yinlar orqali bolalar o'ynashadi va o'yinlar orqali o'rganishadi.

Yana bir pedagog olim Zoltan Dienesning metodikasi haqida to'htaladigan bo'lsak. Bu venger psixologi, nazaristika va amaliyotga - Yangi matematikaga asos solgan. U maktabgacha yoshdagi bolalar uchun Dienes bloklerini o'ylab topgan. Dienes blokleri bilan o'yinlar soni juda katta va xilma-xildir. Mantiqiy blokler to'plami 48 jildlardan iboratdir. Unda bolalarni eng oddiydan murakkabga qadar matematik va tasviriy faoliyatida bilimlarini rivojlantirish uchun ushbu bloklerden foydalanish mumkin. Bolalar geometrik shakllar, tushunchalar "katta kichik", "yo'g'on- ingichka", "huddi shunaqa", "unday emas" kabi bilimlarga ega bo'ladi. Katta yoshli bolalar uchun o'yinlar bir nechta xususiyatlarga ob'ektlarni taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash uchun mavjuddir.¹

Mariya Montessori 1870 yil 31 avgustda Italiyada tug'ilgan va 1952 yilda Gollandiyada vafot etgan. U Italiyadagi birinchi ayol shifokor bo'lgan, psixiatriya klinikasida assistent bo'lib ishlagan, Rim universitetida dars bergan va doktorlik ilmiy darajasini olgan. Aynan u keyinchalik "Bolalar uyi" noyob asarini yozdi. M. Montessori o'zining

pedagogik tizimini didaktik jihatdan tayyorlangan muhitda bolaning o'zini o'zi rivojlantirish tizimi deb atagan. Mariya Montessori "kattalar bilan yaqin joyda bo'ladigan bolaning hayot yo'lini o'rganish, uning ta'lim usullari va tamoyillariga aralashish emas, balki u pedagogik antropologiyaning asosini o'rganish edi" – deb aytgan. M. Montessori har qanday amaliy harakatlar, nazariyalar va modellar faqat rivojlanayotgan shaxs haqidagi fundamental bilimlarga asoslanishi mumkin deb hisoblardir.²

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan ta'limiy didaktik rivojlantiruvchi o'yinlarning ahamiyati muhim hisoblanadi. Didaktik o'yinlar orqali bolalarda topqirlik, hushyorlik, hozirjavoblik, diqqatini yig'ishga o'z fikrini bildirga olishga nutqining rivojlanishiga o'yinlar orqali erishsak bo'ladi. Didaktik o'yinlarni tanlab olishda bolalarni yoshi, ularning jismoniy rivojlanishi, psixologik holatini va bolalarning qiziqishlarini ham hisobga olish kerak. O'yinlardan foydalanilayotganda o'tilayotgan oy mavzusi hafta mavzusidan kelib chiqqan holda uzviy bog'lash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu o'yinlarini o'ynatishdan oldin mavzu haqida tushinchalarni to'liq berib, mavzuni mustahkamlash uchun o'ynatish lozim. Masalan predmetlar bilan shakllarni bog'lash o'yinini o'ynatishdan oldin bola shakllar haqida ma'lumotga ega bo'lsa o'yin qiziqarli va mazmunli bo'ladi. Bolajonlar bu o'yin faoliyatini mobaynida mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlari yanada boyib hotirasiga muhirlanib boradi va nutq boyligi, muloqotchangligi ham ortadi. Biz o'yin tanlashda qo'llanma va materiallarni ham bolajonlarning o'rgana olish doirasidan chiqmagan holda yengillroq bo'lishi kerak. Chunki bu kabi o'yinlar orqali bolalarda bilim, ko'nikma va malaka shakllanib boradi. Bunday o'yinlar yordamida bolalarda o'zaro yordamlashish, qo'llab-quvvatlash hissiyotlarini tarbiyalash lozim. Buning uchun "qo'ldan o'tkiz", "predmetlar bilan shakllarni bog'la", "soat nechchi o'yini" va boshqa o'yinlardan foydalanish mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinlarni tanlab olishda bolalarning qiziqishini ham hisobga olish zarur. Bu o'yinlarda ularga faoliyat mavzusi emas topqirlik, zukkolik bilan o'yinda qatnashish qiziqarli boladi. Didaktik o'yinlarda ham harakarli bo'ladi, ham talimiy yani, biror bir yechimga qaratilgan harakatli o'yin bo'lishi mumkin. Masalan "o'yin ichida o'yin" nomli oyinni olsak, ko'zi bog'langan holda lankani oldindan tayyorlangan o'yin katakchalari ustiga otadi va katakchadagi topshiriqni bajaradi bunda ham harakarli ham talimiy o'yin o'ynaladi. Bunday o'yinlarda topshiriqlar murakkablashib boradi. Masalan, "predmetlar bilan shakllarni bog'la" o'yinida bolalar shakllar bilan predmetlarni bog'lagan holda o'yin ustida sakrab o'tishi va shaklni joylab yana ortga qaytishi lozim.

¹ Stolyar A.A. Maktabgacha tarbiyachilar tomonidan boshlang'ich matematik g'adoni shakllantirish. M.: "Ta'lim".

² <https://minikar.ru/uz/goroskopy/metodika-marii-montessori-osnovnye-principy-dostoinstva-i/>

Kichik yoshli tarbiyalanuvchilarni aql doirasi tarqoqroq bo'ladi, diqqat qilishi tez chalg'ib turadi. Shu sababli tarbiyalanuvchilarga oddiy va ular osongina tushuna oladigan o'yinlarni o'rgatish kerak. Idishlarga joyla o'yinida, bolajonlar bir hil rangli predmetlarni rangiga mos savatga soladi va kim ko'p predmetlarni solsa o'sha g'olib bo'ladi. Shu kabi yengil o'yinlar qo'llanila maqsadga erishiladi. O'yin ichidagi topshiriqlarni (*shakllar, raqamlar, predmetlar*) tarbiyalanuvchilar bilishi va ko'nikma hosil bo'lgan bo'lishi kerak. Ko'rsatilgan topshiriq haqida ko'nikmasi bor o'yinlarni tarbiyalanuvchilar kuchli qiziqish bilan o'ynaydi.

O'rta yoshli tarbiyalanuvchi bilim olish faolligini boyib borishi va ko'nikmalarini shakllanib borishi bilan qoidalar qiyinlashib boradi. Tarbiyaviy, didaktik o'yinlarning mazmuni ham xilma-xil bo'ladi. O'yinlarda bolalarda buyumlarni tanish shaklini (*kub, doira, kvadrat*) eslab qolish bilan bog'liq, ranglarni ajratish, tovushlarni farq qilish kabi topshiriqlar bera boshlash kerak. Ba'zi o'yinlar mazmunini kengaytirish va shartli topshiriqlar qo'yish qo'yish kerak. Bu yoshda bolalar harakatlarini rivojlantirish uchun birinchi galda, qo'yilgan o'yin shartlari bilan tanishtiriladi. Asta-sekin bolalarga beriladigan vazifani topshiriq'ini o'zgartirib boriladi. Undagi harakatlarning mazmuni tushunarli va juda qiziqarli bo'lishi juda muhim. Bu bolalarning faoliyatini oshiradi, qiziqishi va ma'suliyat bilan yondoshish tuyg'ularini shakllantiradi va bilish ko'nikmasini shakllantiradi.

Katta guruh yoshiga qadam qo'ygan bolalar bilan o'tkaziladigan o'yinlarda topshiriqlar ancha murakkablashtirish (*zehni rivojlantiruvchi, hotira boyligini oshiruvchi topshiriqlar yanada murakkablashtirilishi*) lozim. Tarbiyalanuvchilarni topshiriqlar hilma hilligi va mazmunga va tushunchalarga qaratilganligi bilan ham katta yoshli bolani qiziqishini ortirib ko'zlagan maqsadimizga erishamiz.

Tayyorlov guruh yoshidagi bolalarga o'yinatiladigan o'yinlar topshiriqlarga boy murakkab bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki tayyorlov yoshida bola ancha bilim va malakalarga ega bo'ladi. Bolalarning o'yin vaqtida faol harakat qilishi ko'p jihatdan ularning malakasi va ko'nikmasi va ijtimoiylashuv jarayoni idrok va hamkorlikda bajarishiga ham bog'liq. Aksariyat o'yinlarda boshlovchi bo'ladi, lekin bazan bu vazifani o'yinchilarning ikki-uchtasi va guruh-guruh bolib bajarishi mumkin.

O'yin qoidalari ham murakkablashib borishi tufayli ularni bajarishda aniqlik, diqqat va zehinlilik yaxshi natija beradi. O'yinlarda ishtirok etish uchun bolalarni guruhlariga bo'lish va bo'lingan guruhdagi bolalarni ham moslash, guruhdagi bolalar kuchini teng qilish kerak.

O'yin mobaynida bolalarga tarbiyaviy, ahloqiy jihatlar haqida ham bilim va ko'nikmalar berib borish lozim.

Quyida ilk yosh uchun asosiy harakat turlariga ko'ra maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada o'tkaziladigan o'yinlardan namunalar keltiramiz.

Sanoqchi to'pchalar. Maqsad: Maktabgacha yoshdagi bolalarni zehni, xotirasini, ko'rish, eshitish mayda qo'l matorikalarini va his qilish qobiliyatlarini shakllantirish va diqqatni jamlashni o'rganadi. Raqamlarni to'g'ri sanashni o'rganadi va o'n ichida qo'shish va ayirish amallarini bajarish ko'nikmasi shakllanadi.

O'yinning jihozi: Xar hil rangdagi bir hil kattalikdagi to'pchalar, birdan o'ngacha bo'lgan raqamlar ketma ketligi.

O'yin jarayoni: Tarbiyachi bolani o'yin oldiga taklif qiladi va bolaga o'n ichidagi raqamlardan topishini hamda ko'rsatilgan raqamga teng to'pchalar jolashgan qatorni sanab topib aytishi lozim.

O'yin ichida o'yin. O'yinning maqsadi: Maktabgacha yoshdagi bolani nutqini rivojlantirish, so'z boyligini oshirish, mayda va yirik matorikalarini rivojlantirish, hotira va qobiliyatlarini rivojlantirish. Bolaning munosabatga kirishishi, o'z fikrini bildira olish va guruh bo'lib ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'yinning jihozlari: Mahsus tayyorlangan turli hil ko'rgazmalardan tayyorlangan supacha.

O'yin jarayoni: O'yinning qoidasi;- bolalar 5 kishidan ikki guruh bo'lishadi va mahsus lankani ko'zi bog'langan holda o'yin ustiga otadi. Bunda qatnashuvchiga 2 marta imkoniyat beriladi. Lanka qaysi qatorga tushsa o'sha qatordagi topshiriq bajariladi. O'yin qoidasi;

1) Nota ko'rsatilgan katakchaga tushsa, hohlagan musiqasini og'zaki kuylab o'xshatib berishi lozim.

2) Ertak qahramonlari ko'rsatilgan qatorga tushsa, qahramonlarning so'zlaridan parcha keltiradi.

3) Maqollar katakchasiga tushsa, maqol aytishi yoki tarbiyachi aytgan maqolni davom ettirishi lozim.

4) Mikrafon ushlagan qizchaga tushsa, qo'shiq aytib berishi lozim.

5) Rag'bat katakchaga tushsa, hech qanday topshiriqsiz guruhga rag'bat kartochkasi beriladi.

6) Mimika bilan so'zlashish ko'rsatilgan qatorga tushsa, ovozsiz fantamima shaklida, harakatlar orqali so'zlaydi. Bolalar uni nima demoqchi ekanligini topishlari kerak bo'ladi.

7) Bankrot ko'rsatilgan qatorga tushsa, guruhdan 1ta rag'bat kartochkasi olib tashlanadi.

8) Mashq qilayotgan bola ko'rsatilgan qatorga tushsa, mashq bajarib beradi.

9) Qo'l ko'tarib turgan bolaga tushsa, tezkor savolga javob beradi.

10) Kulgan stikrga tushsa, kulgili biror voqea aytishi lozim.

11) 1 oyoqda turgan bolaga tushsa, 10 gacha bir oyoqda turib sanashi lozim.

12) Sh'er aytayotgan bola katakchasiga tushsa, sh'er aytib beradi.

13) Ofarin katakchasiga tushsa guruhga bitta rag'bat qo'shiladi.

14) So'roq ko'rsatilgan qatorga tushsa, savolga guruhi bilan birgalashib javob beradi.

15) O'yinga tushayotgan bolalar katakchasiga tushsa, raqsga musiqasiz tushib berishi lozm.

O'yin yakunlangach guruhdagi rag'bat kartochkasi hisoblanib, g'olib guruh taqdirlanadi.

Soat nechchiligini top. Maqsad: Bolalarga soat haqida vaqt haqida tushuncha berish, raqamlarni to'g'ri topishshga o'rgatish, soat strelkalarini vazifasi haqida tushunchaga ega bo'lish, hotirasini rivojlantirish mustaqil faoliyat ko'nikmasini shakllantirish mayda va yirik matorikalarini rivojlantirish.

O'yinning jihozlari: Mahsus tayyorlangan glamcha ko'rinishidagi doska, raqamlar, mahsus tayyorlangan soatcha maketchalari.

O'yin jarayoni: Bolalar 2 guruhda 4 tadan bo'linishadi, oldindan tayyorlangan stol ustidagi soat maketchalari teskari holatda turadi. Undan ishtirokchilar navbat bn tortishadi. Qo'llariga olgan soat makechada qanday vaqt va soat ko'rsatilgan bo'lsa o'sha vaqt va soatga gilamchadagi soat strelkani suradi. Shu tariqa o'yin davom etadi. O'yin so'ngida g'olib guruh aniqlanib bolalar rag'batlantiriladi.

Chaqqon oyoqlar. Maqsad: Bolajonlarga o'ng va chapni to'g'ri topa olishga o'rgatish, zehni rivojlantirish diqqatini yig'ish malakalarini shakllantirish.

O'yinning jihozlari: Oldindan tayyorlangan mahsus o'yin supachasi.

O'yin jarayoni: Bolalar 2 guruh bo'lishib o'yinda ko'rsatilgan qadamlarini to'g'ri bosib birin ketin bajarishadi. O'yin so'ngida bolalar rag'batlantiriladi.

Predmetlar bilan shakllarni bir biriga bog'la. Maqsad: Bolalarda geometrik shakllar haqidagi tushunchalarini boyitish, predmetlar bilan bog'lash ko'nikmasini shakllantirish. Ko'rish idrok qilish malakalarini rivojlantirishdan iborat.

O'yin jihozlari: Oldindan tayyorlangan supachali o'yin, geometrik shakllar.

O'yin jarayoni: Bolalar 2 guruhda 4 tadan bola bo'lishadi. Bolalar shakllardan tanlab shu shaklning ustidan shaklga mos predmetga sakrashadi va huddi shunday qaytishadi o'yin shu tariqa davom etadi, o'yin so'ngida g'olib guruh taqdirlanadi.


Yo'lingni to'g'ri top. Maqsad: Bolalarni aqliy faoliyatini rivojlantirish, mustaqil faoliyatga o'rgatish.

Bolani nutq boyligini oshirish, ko'rish, eshitish, solishtirish malakalarini shakllantirish.

O'yinning jihozlari; Oldindan tayyorlangan ko'rgazmali supacha.


O'yinning jarayoni; Oldindan tayyorlangan mahsus o'yin gilamchasi solinadi, stolda shu o'yinning kichiklashgan varianti teskari holatda turadi. Bolalar 2 guruhda 5 yoki 6 tadan bo'lib bo'linib ishtirok etishadi. O'yin ichida bolalar rag'batlantirib boriladi to'g'ri bajargan bola o'yin boshidagi rag'batli so'zga ega bo'lishadi bajara olmagan bolaga so'z qo'shilmaydi. O'yin so'ngida qaysi guruh ko'p rag'batli so'z yig'gan bo'lsa o'sha guruh g'olib bo'ladi.

Tadqiqot natijalari. Sanoqchi to'pchalar. Bu o'yinni men Furqat tumani 17 DMTT ning 3-4 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan guruhida o'tkazdim. O'yinlardan foydalanmasdan oldin, o'yinlar davomida va o'yinlardan foydalanilgandan so'ng yaxshi natijalarga erishdim.



Bu o'yindan 17 DMTT ning kichik guruhida o'yindan foydalanilmasdan oldin men faoliyatlarimda oldimga qo'ygan maqsadimga deyarli erisholmas edim. O'yindan foydalanishni boshlaganimda men kutgan natijamga erisha boshladim va oyindan so'ng men faoliyatga qo'yilgan maqsadimga to'liq erishdim.

O'yin ichida o'yin. Bu o'yinni men Furqat tumani 17 – DMTT ning 4-5 yoshli bolalar guruhida va 14-DMTT ning 4-5 yoshli guruhlarida o'tkazildi. O'yinlardan foydalanmasdan oldin, o'yinlar davomida va o'yinlardan foydalanilgandan so'ng olingan natijalar.



Bu oyinlarni 17-DMTT ni katta guruhida o'ynatishdan oldin faoliyatlarda ko'zlagan maqsadga erisha olinmayotgan edi, o'yindan foydalanish bilan natijaga erisha boshlandi chunki bolalar bu o'yinlarni ishtiyoq, zavq, qiziqish bilan o'ynab, o'yin o'ynatish davomida oldinga qo'ygan maqsadga to'liq erishildi, o'yinlar bolalarda bilim, ko'nikma, malakani hosil qilib kompetentlik hosil qilishiga erishilindi.

Xulosa. Bu maqola orqali hulosasi qilindiki hozirgi zamon tarbiyachisi ilodkor, intiluvchi, zamon bilan hamnafas bo'lishi kreativ **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. 2018-yil
2. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi 2022- yil
3. "Maktabgacha pedagogika" F.Qodirova. - Tafakkur 2019.
4. "O'yin orqali ta'lim olish" Grosheva I.V., Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Ismailova M.A., Kenjabaeva D.A. Toshkent 2020.
5. Eraliyeva, Z. (2023). MTT NING MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNI MANTIQUIY FIKRLASH VA BAHS MUNOZARALI VAZIYATLARGA YECHIM TOPISHGA VA BADIY NUTQQA O'RGATISH. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(18). izвлечено от <http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/19>
6. Yuldasheva Dilafuz, Jabborova Marifatxon, Eraliyeva Zamira Rasuljonovna, & Maziayeva Muqaddasxon (2022). MAKTABGACHA TA'LIMGA YANGICHA YONDASHUV. Central Asian

bo'lishi kerak. Zamon va bolajonlar talabidan kelib chiqib ular uchun didaktik ta'limiy o'yinlarni ijod qilinsa, o'ylaymizki bolajonlar bu o'yinlarni o'ynashi bilan kasbga yo'naltiriladi. O'z hayot yo'lidagi amaliy kasb yo'nalishiga qarab katta bir yo'l ochishni MTT danoq boshlab yuksak cho'qqilarga qadam qo'yishni kelajakda yaxshi natijalarga erisha olishiga amin bo'lamiz.

Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2 (Special Issue 3), 121-125.

7. Children's reading and expression of childhood concept in the media. Eraliyeva Zamira Rasuljonovna. "MAKTABGACHA TA'LIM MUTAXASSISLARINING XALQARO FORUMI" "INKLYUZIYA: MAKTABGACHA TA'LIMDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR" ilmiy-amaliy konferensiya 2023 yil 10-11-noyabr. 144-bet.

8. Организация подвижных игр в дошкольных образовательных учреждениях. УДК 796. 29. ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И ЗДОРОВЬЕ: МОЛОДЕЖНАЯ НАУКА И ИННОВАЦИИ Сборник научных трудов участников XI МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ 19 мая 2022 г. УДК 378.17 ББК 75.116.42 Ф50 ISBN 978-5-7679-5060-7.



OLIY TA'LIMDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI

Iqboljon Xaydarov

Qo'qon universiteti,
"Raqamli texnologiyalar va matematika"
kafedrası o'qituvchisi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 34 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1145	Ushbu maqolada oliy ta'limda matematika fanini o'qitish metodikasining nazariy va amaliy asoslari muhokama qilingan. Matematika o'qitishning maqsadi, asosiy metodik yondashuvlar, axborot texnologiyalaridan foydalanish, baholash usullari va innovatsion yondashuvlarga alohida e'tibor qaratilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar yordamida talabalarda analitik fikrlash, mantiqiy muammo yechish qobiliyatlarini rivojlantirishning ahamiyati ta'kidlangan. Ushbu yondashuvlar matematika fanini yanada samarali o'zlashtirish va uni amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Matematika oliy ta'lim tizimida muhim fanlardan biri hisoblanadi. U talabalar uchun analitik fikrlash, muammo yechish, hamda ilmiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada oliy ta'limda matematika fanini o'qitish metodikasining asosiy jihatlari, innovatsion usullar va samarali pedagogik yondashuvlar haqida so'z yuritiladi.
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS Matematika ta'limi, o'qitish usullari, hayotiy misollar, interfaol ta'lim.	

Kirish. Matematika fundamental fan bo'lib, turli ta'lim sohalarida uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Matematik tushunchalar va muammolarni yechish ko'nikmalari oliy ta'limda o'qiyotgan talabalar uchun murakkab masalalarni samarali tahlil qilish va sharhlash uchun juda muhimdir. Biroq, bu muammolar talabalarga matematikani o'rgatish o'ziga xos muammolar keltirib chiqaradi va bu esa ta'lim natijalarini oshirish uchun innovatsion va samarali metodlarni talab qiladi. Oliy ta'limda mustahkam matematik asoslarning ahamiyatini oshirib bo'lmaydi, chunki matematik tamoyillar, modellar va empirik tahlillarga asoslanadi. Shu sababli, nafaqat tushunishni osonlashtiradigan, balki matematikaning dolzarbligi va qo'llanilishini chuqur tushunishga yordam beradigan o'qitish strategiyalarini o'rganish va amalga oshirish juda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tajribalarni O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirish orqali rahbarlarning stressga chidamliligini oshirish va ta'lim tizimining umumiy samaradorligini yaxshilash mumkin. Bu esa nafaqat rahbarlarning shaxsiy farovonligini ta'minlaydi, balki butun ta'lim tizimining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Hargreaves, A., & Shirley, D. (2020). Well-Being and Burnout in the Teaching Profession: A Global Perspective. Routledge.
2. Sahlberg, P. (2015). Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? Teachers College Press.
3. Darling-Hammond, L. (2017). Empowered Educators: How High-Performing Systems Shape Teaching Quality Around the World. Jossey-Bass.
4. Fullan, M. (2014). The Principal: Three Keys to Maximizing Impact. Jossey-Bass.
5. OECD (2019). TALIS 2018 Results (Volume I): Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. OECD Publishing.
6. Umarov, T. (2024). BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI: ASOSLARI, MAQSADLARI VA AHAMIYATI. University Research Base, 1079-1082.
7. Umarov, T. (2024). BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI, XODIMLARNI BOSHQARISHNING MOHIYATI VA ASOSIY BOSQICHLARI. University Research Base, 1038-1045.

8. Umarov, T. (2024). TA'LIM TIZIMI RAHBAR XODIMLARINING STRESSGA BARQARORLIGINING TA'MINLASH MEKANIZMLARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 230-232.
9. Maxmudova, Z. (2024). TA'LIM TIZIMINI TARAQQIYOTINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH. Nordic_Press, 3(0003).
10. Zilola, M. (2023). TALIM MUASSASI RAHBARLARIDA YUKSAK AXLOQIY SIFATLARI RIVOJLANTIRISH. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 1(2), 78-83.
11. Maxmudova, Z. (2024). ZAMONAVIY TA'LIM SHAROITIDA TALABALAR SHAXSINING MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH. University Research Base, 1034-1037.
12. Maxmudova, Z. (2024). RAHBAR SHAXSI PSIXOLOGIYASI VA MULOQOTINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI. University Research Base, 1020-1023.



ADABIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA "IJODKOR SHAHARLAR" NING O'RNI

Zeboxon Kobilova,

Qo'qon universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektori, f.f.d., professor.

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 39 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1152 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS adabiy turizm, ijodkor shahar, sayohat, ijod, adabiyot, ma'rifat, iqtisodiyot, tarix, adabiy muhit, kutubxona, muzey, rivojlanish	Mazkur maqolada Adabiy turizmni rivojlantirishda Xalqaro UNESCO tashkilotining "Ijodkor shaharlar" tarmog'i va uning "Adabiyot" yo'nalishi ahamiyatiga diqqat qaratilgan. Qo'qon shahrini mazkur tashkilotga kiritish uchun qanday ishlar amalga oshirilganligi, tarmoqqa a'zo bo'lsa, natijalar qanday bo'lishi haqida zaruriy va aniq fikrlar yuritilgan.

Kirish. Adabiy turizm — bu turizmning bir shakli bo'lib, unda sayohatchilar o'z sayohatlarini adabiyotga, yozuvchilarga, ularning asarlariga yoki adabiy tarixga oid joylarga asoslangan faoliyatlarini o'rganishga bag'ishlaydilar. Adabiy turizm ko'plab turistlarni o'ziga jalb etadi, chunki bu turizm turi o'quvchilar, yozuvchilar, adabiyot ishqibozlari va keng jamoatchilik uchun madaniy, tarixiy va ijodiy tajribalarni taklif etadi.

Adabiy turizmning quyidagi afzalliklari mavjud:

1. Hududdagi madaniy merosni saqlashga va o'rganishga yordam beradi.
2. Yozuvchilar va ularning asarlari orqali tarixiy va madaniy an'analar kelajak avlodlarga yetkaziladi;
3. Ko'plab yangi turistlar jalb etiladi, bu esa mehmonxona, restoran, transport, yodgorliklar va kitob do'konlari kabi xizmatlar orqali iqtisodiy foyda keltiradi;
4. Adabiy turizm bilan shug'ullanuvchi shaharlar va mintaqalar o'zining madaniy va ijodiy salohiyatini dunyo miqyosida namoyish etadi, bu esa ularning obro'sini oshiradi.
5. Adabiy turizm sayohatchilarga adabiyot, tarix va madaniyat haqida yangi bilimlar olish imkoniyatini taqdim etadi.

Shunday imkoniyatlaridan kelib chiqib, jahonda adabiy turizm alohida bir mustaqil soha sifatida o'sib chiqib, kundan kun rivojlanib bormoqda. Dunyo mamlakatlarida adabiy turizm rivojlanishini YUNESKO tashkiloti ham har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. Mazkur tashkilotning "Ijodkor shaharlar" tarmog'i, ayniqsa, **adabiyot** yo'nalishidagi shaharlari adabiy turizmni rivojlantirishda juda muhim rol o'ynaydi. UNESCO tomonidan tan olingan shaharlar o'zlarining ijodiy salohiyatini va madaniy merosini dunyo bo'ylab tanitish orqali adabiy turizmni rivojlantiradi. Jannatmonand o'lkamizning har bir shahri o'ziga xos moddiy va nomoddiy obektlarga ega ekanligini hisobga olsak, shaharlarni har taraflama rivojlantirish, adabiy turizmni yangi bosqichga olib chiqish uchun YUNESKOning Barqaror rivojlantirish bo'yicha "Ijodkor shaharlar" tarmog'iga kiritilishi g'oyat muhimdir.

Mazkur maqolada "Ijodkor shaharlar" tarmog'i nima?, uning ahamiyati nimada?, qadimiy va hamisha navqiron Qo'qon shahrini YUNESKOning "Ijodkor shaharlar" tarmog'ining "Adabiyot" yo'nalishiga kiritish uchun qanday ishlar amalga oshirildi? Shahar tarmoqqa kirs, natijalar qanday bo'ladi? Shu savollarga javob beramiz.

Adabiyotlar tahlili. Adabiy turizm va "Ijodkor shaharlar" konsepsiyasi bugungi global madaniyatshunoslik va turizm tadqiqotlarida dolzarb mavzulardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Ushbu maqolada tadqiqotning metodologik asosi sifatida madaniyatshunoslik yondashuv, tarixiy-kultural tahlil, adabiyotshunoslik tahlili hamda empirik kuzatuvlar qo'llanilgan.

Tadqiqotning nazariy asosini UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "Ijodkor shaharlar tarmog'i" konsepsiyasi tashkil etadi. Xususan, ushbu tarmoqning "Adabiyot" yo'nalishi bo'yicha shaharlarning a'zolikka qabul qilinishida e'tiborga olinadigan mezonlar va prinsiplar, shuningdek, bu maqomning shaharlar taraqqiyotiga ijobiy ta'siri haqida rasmiy manbalarga tayangan holda yondashilgan (UNESCO, 2024).

UNESKOning rasmiy hujjatlari va Cities of Literature portali (<https://www.citiesoflit.com>) orqali adabiyot yo'nalishida a'zo bo'lgan shaharlar, ularning tajribalari, tarixiy yondashuvlari va adabiy muhitni saqlashdagi faoliyati o'rganildi. Mazkur manbalar orqali xalqaro miqyosdagi adabiy turizm tajribalari tahlil qilinib, Qo'qon shahrida bu yondashuv qanday amalga oshirilayotganini baholashga harakat qilindi.

Shuningdek, maqolada zamonaviy adabiy muhitni tarixiy ildizlar bilan bog'liq holda tahlil qilish uchun tarixiy-madaniy manbalar, xususan, Qo'qon xonligi davridagi adabiy an'analar, Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Gulxaniy kabi ijodkorlarning faoliyati asosida madaniy-manfiy merosni saqlash va undan foydalanish holati chuqur tahlil qilindi. Bu jihatlar orqali Qo'qon shahrining "Adabiyot shahri" maqomiga loyiq ekanligini ilmiy asoslashga intilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda foydalanilgan asosiy metodlar quyidagilardan iborat: Tarixiy-kultural yondashuv: Qo'qon shahrining XVIII-XIX asrlardagi adabiy muhitini tahlil qilishda yozma manbalar, devonlar va tazkiralalar, jumladan "Tazkirai Qayyumiy" (Qayyumov, 1998), Amiriy devoni (2017) va boshqa tarixiy adabiy manbalar asosida tarixiy rekonstruksiya qilindi. Bu metod madaniy xotirani tiklash va zamonaviy adabiy rivojlanishni tarixiy asoslar bilan mustahkamlashga xizmat qildi. Adabiyotshunoslik tahlil usuli: Qo'qon adabiy muhitining nufuzli vakillari (Amiriy, Nodira, Uvaysiy)ning badiiy asarlari, ularning obrazlar tizimi, vazn xususiyatlari, san'atlar va estetik tafakkuri chuqur adabiy tahlil qilindi (Kobilova, 2021; 2022; Tursunova, 2025). Bu yondashuv orqali Qo'qon adabiy merosining bugungi adabiy turizmga ta'siri aniqlab berildi.

Tadqiqot natijalari. UNESCO "Ijodkor shaharlar" tarmog'i — bu 2004-yilda tashkil etilgan global tashabbus bo'lib, uning maqsadi dunyo bo'ylab ijodiy faoliyatni rivojlantirish, madaniy merosni saqlash va shaharlar orasida madaniy aloqalarni kuchaytirishdir. Ushbu tarmoq shaharlarni ijodkorlikka va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga undaydi, shuningdek, ijodiy sohalar orqali ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi. "Ijodiy shaharlar tarmog'i 7 ijodiy yo'nalishni qamrab oladi:

1. Dekorativ-amaliy va xalq amaliy san'ati.
2. Dizayn.
3. Kino.
4. Gastronomiya.
5. Adabiyot.
6. Mediasan'at.

Musiqa". [1, <https://www.unesco.org/en>]

Tarmoqqa a'zo bo'lgan shaharlar ijodkorlik va madaniy sohalarini rivojlantirish, ilg'or tajribalarni almashish, madaniy ishtirok darajasini oshirish hamda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqishda madaniyatni hisobga olish uchun hamkorlik qilish va hamkorlikni rivojlantirish majburiyatini zimmasiga oladi.

Biz uchun ahamiyatli bo'lgan "Adabiyot" yo'nalishi UNESCO "Ijodkor shaharlar" tarmog'ida muhim o'rin tutadi. Chunki adabiyot, tarixan insoniyat madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, turli xalqlarni, madaniyatlarni, tillarni birlashtiruvchi kuchga egadir. **Adabiyot**

yo'nalishi bo'yicha shaharlar adabiyotning rivojlanishini, yozuvchilarning ijodini qo'llab-quvvatlashni va adabiyotga bo'lgan qiziqishni oshirishni o'zlarining asosiy maqsadlari sifatida belgilaydilar. Hozirda dunyoning 300ga yaqin shaharlari "Ijodkor shaharlar" tarmog'iga kirgan bo'lib, shundan 53 tasi "Adabiyot" yo'nalishida a'zo hisoblanadi. Bular Angouleme, Bog'dod, Barselona, Beirut, Bremen, Bucheon, Dublin, Dunedin, Durban, Edinburg, Gothenburg, Granada, Exeter, Heidelberg, Hobart, Iasi, Iova city, Jakarta, Kozhikode, Krakov, Kuhmo, Kutaisi, Lahor, Ljubljana, Leeuwarden, Lillehammer, Lviv, Lyon, Melburn, Milan, Manchester, Montevideo, Nanjing, Obidos, Odessa, Norwich, Nottingham, Quebec, Okayama, Praga, Rio de Janeyro, Reykjavik, Seattle, Slemani, Taif, Tukums, Tartu, Ulyanovsk, Utrecht, Vilnius, Vonju, Vroslav [2, <https://www.citiesoflit.com/>] shaharlaridir. Bulardan Dublin Nobel mukofoti sovrindorlarini tarbiyalagan shahar sifatida mashhur bo'lsa, Melburn, Barselona, Krakov, Montevideo kabi shaharlar adabiy an'analar, xalqaro yozuvchilar uchrashadigan, turli adabiyotga oid tadbirlar, festivallar o'tkaziladigan asosiy shaharlar qatoriga kiradi. Bundan tashqari, ushbu shaharlardan qaysidir birida kutubxonalar ko'p bo'lsa, yana birida adabiyotga oid muzeylar ko'p. Yana bir xil turi mavjudki, u shaharlar yozuvchilarning asarlarida reallashgan. Masalan, James Joyce "Ulysses" asari voqealari Dublin ko'chalarida xususan, Trinity College va Martello Tower kabi joylarda kechadi, Peter Carey "Oscar and Lucinda" asarida Melburnning muhim joylarini tasvirlaydi.

Adabiyot shahri sifatida tasdiqlanishi uchun shaharlar UNESCO tomonidan belgilangan bir qator mezonlarga javob berishi kerak: UNESCO Ijodiy shaharlar tarmog'ining kotibiyati standart ariza shaklini yuboradi va uni so'z cheklovlariga rioya etib to'ldirish talab etiladi. Dastavval, shahar, davlat nomlari va aloqa uchun vositalar o'rni to'ldiriladi. So'ngra, shaharning umumiy taqdimoti beriladi, shaharni rivojlantirishning asosiy imkoniyatlari va muammolari yoritiladi, global rivojlanish strategiyalari va siyosatlarini bayon etiladi, a'zolikning shahar barqaror rivojlanishiga kutilgan ta'siri keltiriladi, arizaga tayyorgarlik jarayoni tasvirlanadi, ariza beruvchi shaharning tarmoqqa taqdim etilgan qiyosiy aktivlari punktlariga monand ko'rsatiladi, tarmoq maqsadlariga erishishga hissa qo'shishdagi tashabbuslar taqdim etiladi, davriy a'zolik monitoringi hisobotini taqdim etish, tarmoqning yillik konferensiyalarida ishtirok etish, kotibiyatga axborot taqdim etish shakllari tavsiflanadi. Biz ushbu mezonlarni puxta o'rganib chiqib, Qo'qon shahrimizni "Adabiyot" yo'nalishida UNESCOning "Ijodkor shaharlar" tarmog'iga kiritishni qat'iy maqsad qilganmiz va amaliy ishlarni ikki yildirki, uzluksiz olib bormoqdamiz. Natija esa arizalar ustida ishlangani sayin yuqorilashib bormoqda.

Tarixdan ma'lumki, Qo'qon shahri XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'z adabiy muhitiga ega. Farg'ona vodiysi Buxoro xonligidan ajralib, bu yerda mustaqil Qo'qon xonligiga asos solingach, poytaxt Qo'qon shahri ilm-fan va madaniyat markazi sifatida ravnaq topib bordi. Ayniqsa, Umarxon Amiriy hukmronligi yillarida (1810-1822) shakllangan Qo'qon adabiy muhiti, xonlik madaniy hayotida muhim o'rin egallaydi. "Yozma tarixiy manbalarda Qo'qonda badiiy ijod bilan shug'ullanish, xususan, she'r yozish an'anasi XVIII asrdan boshlanganligidan darak beruvchi ma'lumotlar uchraydi"[3,108]. Mirzo Ma'sum Kosoniy, Mirzo Sho'hiy kabi o'sha davr shoirlarining Qo'qon xonligidagi ayrim muhim tarixiy voqealar (hukmdorlarning tug'ilishi, taxtga o'tirishi, vafoti, saroy, qal'a, masjid, madrasalarning barpo etilishi)ga bag'ishlangan she'riy ta'rixlari fikrlarimizga dalil bo'lib xizmat qiladi. Tarixda Qo'qon shahri Xo'qandi latif deb yuritilib, "latif", "bahavo shahar" degan ma'noni anglatgan. Odamlari mehmondo'st, she'riyatga havasmand bo'lib, so'zlashganda qofiya bilan fikr almashganlar. Shuning uchun ham hikoyalar, voqealar ko'proq she'riy usulda bitilgan. Qo'qon adabiy muhiti 2 asrdan ko'proq vaqt davomida mavjud bo'lib, u turli sohalarida gullab-yashnamoqda. XIX asrdan buyon Qo'qonda shoir va yozuvchilar soni 300 yuzdan oshdi. Azaldan Qo'qon shahri xonlikning poytaxti bo'lganligi sababli, yillar davomida madaniy va adabiy muhit rivojlanib kelmoqda. Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Gulxaniy, Maxmur, Muqimiy Furqat, Zavqiy, Hamza kabi Qo'qon adabiy muhitining o'nlab namoyondalarining asarlari o'zbek xalqining ma'naviy boyligiga aylangan. Qo'qon O'zbek adabiyoti tarixida birinchi marta ayol ijodkorlarni ham yetishtirgan. Nodira, Uvaysiy, Mahzuna, Nozik, Anbar Otin, Niso, Xoniy kabi bir qator shoirlar Sharq mumtoz she'riyati taraqqiyotiga muhim hissa qo'shganlar. XX asr davomida ham bu adabiy muhitdan ko'plab shoir va yozuvchilar yetishib chiqdi. Demakki, Qo'qon shahri avvaldan adabiyot shahri bo'lib, yetuk iste'dodlarga homiylik qilgan va adabiyot ilmining rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Yaqin besh yil

ichida bu rivojlanish yangi bosqichga ko'tarildi, adabiyotni rivojlantirishga qaratilgan turli dasturlar amalga oshirildi. Masalan, 2019-yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda Zokirjon Furqat, Hamza Hakimzoda Niyoziy va Ozod Sharofiddinov sharafiga yubileylar o'tkazildi, Ssenariyimiz asosida suratga olingan Qo'qon adabiy muhitining tashkilotchisi va homiysi ulug' shoir Umarxon Amiriy hayoti va faoliyatidan hikoya qiluvchi "Qo'qon shamoli" tarixiy-badiiy filmi Respublikaning barcha ta'lim tashkilotlarida, korxonalarda namoyish etildi, televideniya ham eng ko'p namoyish etilayotgan filmlardan biri ham "Qo'qon shamoli" hisoblanadi.

2022-yili rahbarligimiz ostida Qo'qon adabiy muhiti targ'ib etishga qaratilgan AL-322103020 raqamli "Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlarining hayoti va ijodi bo'yicha veb-sayt va elektron platforma yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha bajarilgan. Loyiha doirasida quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

- adabiy va tarixiy qo'lyozma hamda toshbosma manbalar asosida Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy biografiyasi, oilaviy muhiti, adabiy merosi yangi ma'lumotlar bilan to'ldirilgan;
- qo'lyozmalar va toshbosma nashrlar asosida "Qo'qon adabiy muhiti" antologiyasi ilmiy muomalaga kiritilgan;
- zullisonayn shoirlarning o'zbek va tojik tillaridagi g'azal va muxammaslari tahlili asosida adabiy an'ana, o'zaro ta'sir, izdoshlik va o'ziga xoslik masalalari tekshirilib, bu borada bir qator yangi qarashlar misollar asosida dalillangan;
- adabiy muhit shoirlari she'riyatining obrazlar tizimi, vazn xususiyatlari, badiiy san'atlarini tadqiq etish orqali XVIII asr oxiri – XIX asr boshlari Qo'qon adabiy muhitidagi badiiy-estetik tafakkur mezonlari aniqlangan;
- Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari hayoti bilan bog'liq tarixiy voqelik, adabiy merosining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari ilmiy tadqiqot, audio va video materiallar orqali namoyish etilgan;
- Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari haqida yaratilgan badiiy va hujjatli filmlar, ko'rsatuvlar elektron platformaga joylangan;
- Qo'qon adabiy muhiti tarixi va taraqqiyotiga oid adabiy-tarixiy va me'moriy yodgorliklar tasviri elektron platformaga joylangan va bu bilan mamlakatimizdagi ichki va tashqi turizm ishlariga ko'maklashilgan;
- Qo'qon adabiy muhiti vakillari ijodiga xos eng sara asarlarning badiiy tahlili va sharhlari amalga oshirilgan, nashrlarga tayyorlangan va ular veb sayt orqali muntazam berib borilmoqda;
- Qo'qon adabiy muhiti vakillarining xorij kutubxonalari va muzeylari fondida saqlanayotgan qo'lyozma va toshbosma asarlaridan nusxalar olingan va bu kelgusi tadqiqotlar uchun yo'l ochadi;
- Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari adabiy merosini targ'ib qilishga qaratilgan IOS va Android platformalari uchun ilova dasturlari yaratilgan va ular orqali mumtoz adabiyotimizda aks etgan milliy va umumbashariy qadriyatlar keng targ'ib qilinmoqda;
- loyiha doirasida 2022-yil may oyida "Qo'qon adabiy muhiti va uchinchi renessans" mavzusida xalqaro miqyosda konferensiya o'tkazilgan.

2022-yilning aprelida Qo'qonlik adabiyotshunos va tanqidchi Ashurali Zohiriy sharafiga bag'ishlangan konferensiya tashkil etildi, va bu tadbir natijasida taniqli olimlarning hissi bilan kitob nashr etildi. 2-12-sentabr kunlarida biz Turkiya Jumhuriyatida bo'lib, Istanbul kutubxonasida saqlanayotgan Umarxon Amiriy devonini ikki faksimile nusxasini olishga erishdik, 15-22 noyabr kunlari Ozarboyjonning Boku shahrida "Turkiy xalqlar adabiyoti, adabiy aloqalar va tarjima" mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etdik. Konferensiyada Ozarboyjon, Turkiya, Qirg'iziston, Tojikiston Respublikalaridan 150 dan ortiq olimlar o'z maqolalari bilan qatnashdilar. Shu yil dekabr oyiga kelib esa, delegatsiyamiz Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati kutubxonalarida bo'lib, Qo'qon adabiy muhitiga oid manbalarni o'rgandi. 21-sentabrda Qo'qon shahrida viloyat va shahar mutasaddilari, Qo'qon shahar hokimi, adabiyotshunos olimlar va adabiyot ixlosmandlari ishtirokida "Amiriy" kutubxonasi ochildi. Bundan tashqari, 2022-yildan to hozirgi kunga qadar O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanalini"ning "G'azal bo'stoni", Ma'rifiy suhbatlar" turkum eshittirishlarida har choshanba Qo'qon adabiy muhiti vakillari hayoti va ijodini o'zida aks ettirgan adabiy suhbatlar davomiy uzatilmoqda.

2023-yilning 13-aprelida Qo'qon Universitetida Zahiriddin Muhammad Boburning 540 yilligiga bag'ishlangan "Boburshoh" konferensiyasi o'tkazildi. 11-15-iyun kunlari esa Qo'qon shahrida o'tkazilgan "Turkiy tilli yoshlar" xalqaro festivalini yuqori saviyada

tashkil etishga qo'shgan hisssasi uchun Qo'qon Universiteti Madaniyat va turizm vazirining tashakkurnomasi bilan taqdirlandi.

Qo'qon jahonning Sheki va Kuytun shaharlari bilan "qardosh shahar" hisoblanadi. 2023-yil 24 fevralda Qo'qon shahri va Ozarboyjon Respublikasining Sheki shahri "qardosh shaharlar" deb e'lon qilindi. Shartnomaga ko'ra O'zbekiston va Ozarboyjon xalqalari o'rtasidagi azaliy do'stlik aloqlarini mustahkamlash, ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy, ilmiy- texnikaviy, madaniy- adabiy aloqlarni yanada mustahkamlash nazarda tutilgan.

2023-yilning may oyida esa Qo'qon shahri Xitoy Xalq Respublikasining Kuytun shahri o'rtasida "qardosh shaharlar" shartnomasi imzolandi. Shartnomaga ko'ra ikki shahar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, fan va ta'lim, adabiyot va madaniyat, sport va tibbiyot sohasidagi hamkorlik aloqlari mustahkamlanadi, bu orqali shaharlarning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shiladi. Qo'qon shahar "Buyuk allomalar muzeyi" da "Kuytun-Buyuk Ipak yo'lidagi afsonalar shahri" foto va hunarmandchilik ko'rgazmasi hamda "Sharqiy taqvim bo'yicha Yangi yil va Navro'z: o'zbek va xitoy xalqlarining o'lmas an'analari» ilmiy- amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi. Xitoy va O'zbekiston yoshlari birligini ta'minlash maqsadida 2024-yil 26-sentabr kuni Qo'qon Universitetida o'zbek-xitoy yosh tadqiqotchilarining "Birgalikda Qo'qon-Siyan-Zomin turizm hamkorligini yaratamiz" mavzusidagi Xalqaro forumi o'tkazildi.

2024-yil 12-13-fevral kunlari Alisher Navoiyning 583 yilligi munosabati bilan Qo'qon Universitetida Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY) hamkorligida "Alisher Navoiyning ilmiy merosi" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi. Konferensiya doirasida g'azal mulkining sultoni, buyuk mutafakkir, davlat va jamoat arbobi, o'zbek adabiy tilining asoschisi – Alisher Navoiyning jahon xalqlari madaniyatidan munosib o'rin olgan ilmiy-adabiy merosi keng o'rganildi.

Qo'qon Universiteti Turkiy Universitetlar Ittifoqi (TURKUNIB) tashkilotiga a'zo bo'ldi. 2024-yil 27-may kuni "Ko'ngil chirogi" mavzusida O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim va navoiyshunos Olimjon Davlatov bilan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi. Tadbirida Qo'qon adabiy muhiti, kitob mutolaasi, avvalgi va hozirgi zamon she'riyati, umuman adabiyotimiz to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berildi. Yil yakuniga borib, 3-oktabrda Qo'qon shahrining "Adiblar xiyoni"da Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat haykali ochildi.

2025-yil 6-yanvarda Qo'qon Universiteti O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi. Memorandumga ko'ra, adabiyot sohasiga oid o'quv qo'llanma, darslik va monografiyalarni birga yaratish, hamkorlikda Xalqaro va Respublika miqyosida konferensiya, anjuman va simpoziumlarni o'tkazish rejalashtirilgan. Qo'qon universiteti, Davlat tilini rivojlantirish departamenti, O'zbekiston Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi hamkorligida 2025-yil 20-fevral kuni Qo'qon Universitetida, 21-fevralda esa Andijon viloyatida joylashgan Qo'qon universiteti Andijon filialida "Alisher Navoiy ensiklopediyasi" kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi.

Guvohi bo'lganimizdek, Qo'qon shahrida yilning o'n ikki oyida adabiyotga bo'lgan e'tibor, ixlosmandlik tuyg'usi, xalq ma'naviyati va ma'rifatini o'stirishga bo'lgan sa'y-harakatlar muttasil davom etib kelmoqda. Fitratida adabiyotga ixlosmandlik mavjud bo'lgan shahar ahli va ilm vakillari bu jarayonni bundan-da taraqqiy etishini xohlashmoqda. Shu sababdan, Qo'qon shahrini UNESCO "Ijodkor shaharlar" tarmog'ining "Adabiyot" yo'nalishi bo'yicha a'zolikka olib kirish va bu masalani rasmiylashtirish kun tartibiga qo'yilgan. Arizani tayyorlash jarayonida Qo'qon shahrida manfaatdor tomonlar bilan 11 marta uchrashuvlar tashkil etildi. Tadbirlarda Qo'qon Universiteti rektori, 50 nafar filolog olimlar, 20 nafar Yozuvchilar uyushmasi a'zolari, 4 nafar mahalliy bosmaxona direktorlari faol ishtirok etishdi. Bundan tashqari, 2025 yilda UCCNga qo'shilish rejasini taqdim etish uchun Qo'qon universiteti binosida 5 marta ommaviy yig'ilishlar o'tkazildi. Shahar hokimligi tashabbusi bilan tashkil etilgan yig'ilishda 13 ta jamoa (mahalla) yetakchilari, 2 ta nodavlat tashkilot ("Nogironlar uchun yaxshi niyatlar" va "Ekologiya va Salomatlik") hamda 2 ta nodavlat ("Mehr-Saxovat" va "Xo'qandi Latif kelajagi") mustaqil fondlar ishtirok etdi. UNESCO Milliy komissiyasi talabi bo'yicha so'nggi yig'ilish tadqiqot natijalari va mavjud ma'lumot resurslarini muhokama qilish uchun onlayn formatda o'tkazildi.

UNESCO "Ijodkor shaharlar" tarmog'ining adabiyot bo'yicha maqomini olish, shaharlar uchun katta ahamiyatga ega va bir qancha ijobiy natijalarga olib keladi:

1. Madaniy va ijodiy obro'ni oshirish. UNESCO "Ijodkor adabiyot shahri" maqomini olish shaharni dunyo miqyosida tanitadi. Bu shaharni adabiyot sohasidagi yetakchi markazlardan biri sifatida e'tirof etilishiga olib keladi. Shahar nafaqat adabiyot, balki umuman madaniyat va san'atga oid barcha faoliyatlarda global e'tibor qozonadi. Bu, o'z navbatida, shaharga xorijiy va mahalliy turistlar, san'atkorlar va yozuvchilar oqimini kengaytiradi. Qo'qon shahri adabiy muhiti sababli azaldan tarixiy-madaniy markaz bo'lib kelgan. Shu sababli, Qo'qon adabiy muhitini o'rganishga va targ'ib etishga e'tibor kuchaytirilsa, bu adabiy muhit vakillarining ijod namunalari jahon bo'ylab keng tarqaladi. Hamda bu yerga sayohatchilar va turistlar oqimi ko'payadi. Respublikada birinchi bo'lib Qo'qonda 1961 yilda adabiyot muzeyi tashkil etildi. O'tgan 60 yil davomida bu muzeyda 12000 dan oshiq eksponat saqlanib kelinmoqda. Bularning 2000 dan oshig'i noyob qo'lyozmalar bo'lib, O'zbekistonda eng boy qo'lyozma xazinalaridan biri hisoblanadi. Kelajakda bu kitoblarni ilmiy o'rganib, nashr etish zarur. Bundan tashqari, Qo'qon adabiy muhitining alohida xususiyatini e'tiborga olib, shaharda xalqaro adabiyot festivalini tashkil qilish ijobiy natijalar berishi shubhasiz. O'z navbatida, bunday tadbirlar Qo'qon adabiy muhitini tanitishga qulay sharoit yaratadi. Qo'qon adabiy muhitining yirik namoyondalarining xaykallarini o'rnatish, uy muzeylari tashkil qilish, ular xaqida hujjatli va badiiy filmlar yaratish zarur. Shahar ijodkor shaharlar tarmog'iga kiritilishi natijasida shaharda Qo'qon universiteti qoshida adabiy muhitini o'rganish ilmiy tekshirish instituti tashkil etiladi, ilmiy xodimlar ishga qabul qilinadi. Yangi ish o'rinlari yaratiladi. Har 2 yilda "Ayol dunyosi" ijodkor ayollar xalqaro festivali o'tkazilishi natijasida shaharning turizm salohiyati, jozibardorligi ham oshib boradi. Ijodkorlar uchun ijod uyi tashkil etilishi natijasida ularga jahonga yo'l uchun imkoniyat yaratiladi.

2. Iqtisodiy rivojlanish. UNESCO "Ijodkor adabiyot shahri" maqomini olish, shaharga iqtisodiy foyda keltiradi. Adabiyotga oid tadbirlar, festivallar va kitob yarmarkalari turizm va savdoni oshiradi. Shahar xalqaro miqyosda tanilganligi sababli, turistik oqim ortadi, bu esa mahalliy bizneslarga va sanoatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, mutaxassislar uchun yangi ish o'rinlari va imkoniyatlar yaratiladi. Qo'qon iqtisodiyotida turizm muhim o'rin tutadi. Shahar Farg'ona vodiysida yagona bo'lib, paleolit davri yodgorliklari, 3000 yillik artefaktlar, Qo'qon xonligi va Rossiya imperiyasi davri me'morchiligini o'ziga xos tarzda saqlab qolgan, mahalliy va xorijiy sayyohlarni o'ziga jalb qiladi. Qo'qonning boy adabiy merosi va ijodiy ko'rinishi uni barqaror rivojlanish uchun katalizator sifatida joylashtiradi. Ijodkor Shahar sifatida tayinlanishi madaniy sohalarida 3000 dan ortiq yangi ish o'rinlari, jumladan, an'anaviy qog'oz ishlab chiqarishda 600 ta va kitob bog'lash, muqova dizayni va nashriyot sohasida 500 ta ish o'rne yaratadi. Hikoyalar, ssenariy yozish va qo'shiq yozish bo'yicha maxsus dasturlar 200 nafar yangi iste'dodni tarbiyalab, musiqa va kino sohasida o'sishni rag'batlantiradi. Qo'qonda, shuningdek, yozuvchilar, rassomlar va bastakorlar uchun ilhomlantiruvchi muhitni taqdim etadigan noyob Ijodkor sayyohlar markazini ochishni rejalashtirmoqda. Ushbu makon an'anaviy Qo'qon madaniyatini zamonaviy qulayliklar bilan birlashtiradi, fanlararo hamkorlik va global bog'lanishni targ'ib qiladi. Shaharning tashabbuslari orasida Milliy kutubxona, tadqiqot va ta'lim markazi hamda festivallar va ijodiy ustaxonalar uchun tiklangan joylar qurilishi kiradi. Ushbu sa'y-harakatlar orqali Qo'qon o'zining madaniy iqtisodiyotini rivojlantiradi, xalqaro sheriklikni rivojlantiradi va inkluziv ijodiy rivojlanish uchun global modelga aylanadi.

3. Adabiyot va madaniyatni rivojlantirish. UNESCO tarmog'iga kirgan shaharlar, adabiyot sohasida o'z ijodiy va madaniy faoliyatlarini rivojlantirishga ko'proq resurs ajratadilar. Bu shaharda yozuvchilar va adabiyot ishqibozlari uchun turli tadbirlar, seminarlar, o'quv kurslari va yosh yozuvchilarni qo'llab-quvvatlovchi dasturlar tashkil etiladi. Shahar adabiy tadbirlarni, kitob festivallarini va nashrlarni qo'llab-quvvatlash orqali o'zining madaniy merosini saqlash va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qo'qonning Markaziy Osiyodagi adabiy markaz sifatida 200 yildan ortiq ta'sirga ega bo'lgan merosi shaharlarning barqaror rivojlanishi uchun madaniyat va ijodan foydalanish imkoniyatlarini taqdim etadi. Qo'qonda uning adabiy merosini o'rganish va targ'ib qilishga bag'ishlangan bir qancha ilmiy-tadqiqot muassasalari va dasturlari mavjud. Qo'qon adabiy muzeyida 2 mingdan ortiq qo'lyozma va 10 mingdan ortiq arxiv hujjatlari saqlanayotgan bo'lib, ular olimlar va talabalar tomonidan o'rganilmoqda. Universitetlar bilan hamkorlikdagi

dasturlarda ushbu tarixiy matnlar va ularning madaniy ahamiyatini tahlil qilishga e'tibor qaratilgan. O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha yuqori ma'lumotli kadrlarni tayyorlash uchun oliy ta'lim tashkilotini, ijod maktabini ochish zarur. Natijada, badiiy ijod bilan shug'ullanayotgan va adabiyot yoki nutq san'atiga qiziquvchi yoshlar uchun katta imkoniyatlar yaratiladi. Shuningdek, Yozuvchilar ittifoqining Qo'qon bo'limini tashkil etish zarur. Shuni aytish mumkinki, Yozuvchilar ittifoqi 1934-yilda sobiq SSSRda tashkil etilgan. Ungacha 1810-yilda Qo'qonda Amir Umarxon rahbarligida Yozuvchilar va Shoirilar ittifoqi tashkil etilgan. Qo'qonda 300 dan ortiq shoir va shoirilar gullab-yashnagan. Yuzlab qo'lyozmalar va litografik manbalarni hozirgi alifboga aylantirish, ularni turli tillarga tarjima qilish, ularning mazmuni va mohiyatini o'rganish va targ'ib qilish uchun zamonaviy "Mohlaroyim" nomi kutubxona va universitet qoshida tadqiqot markazini tashkil etish dolzarb vazifalaridandir. Ushbu zamonaviy obekt bilim markazi va tadqiqot platformasi bo'lib xizmat qiladi, bu esa mahalliy va xalqaro olimlar, yozuvchilar va tadqiqotchilarga o'z ishlarini yanada rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu kutubxonaning tashkil etilishi shaharning adabiyotni rivojlantirish va intellektual faoliyatni qo'llab-quvvatlash (shu jumladan intellektual mulk huquqlarini qo'llab-quvvatlash)ga bo'lgan sodiqligini namoyish etadi. Qo'qon adabiy muhitini o'rganish bo'yicha taklif etilayotgan ilmiy-tadqiqot instituti she'riyat, nasr va xattotlik bo'yicha chuqur izlanishlar olib borish orqali bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu institut o'zbek, rus va ingliz tillarida ochiq matnli manbalar bilan ta'minlaydi, adabiy boyliklardan global foydalanishni yo'lga qo'yadi. Qolaversa, Qo'qon qo'lyozmalarini bir necha tillarga tarjima qilish va raqamli saqlash kabi loyihalar xalqaro ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlikda qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu tashabbuslar Qo'qon shahrini jahon adabiyotshunoslik va innovatsiya markaziga aylantirishga qaratilgan. Shu maqsadda Qo'qon adabiyotshunoslik ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish, "Amazon Kindle" kabi global platformalar uchun qo'lyozmalarni raqamlashtirish, Qo'qonning an'anaviy qog'oz ishlab chiqarishini jonlantirish, nashriyotni qo'llab-quvvatlash va aholini ish bilan ta'minlashni rejalashtirmoqda.

4. Mahalliy aholi va jamoalar uchun imkoniyatlar. UNESCO *"Ijodkor adabiyot shahri"* maqomi shaharni o'z ichki resurslarini va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga undaydi. Mahalliy jamoalar va yosh yozuvchilar uchun turli treninglar, kurslar va imkoniyatlar yaratish orqali shahar jamoasi adabiyot va madaniyatga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Bu, o'z navbatida, shahar ichidagi ijtimoiy va madaniy rivojlanishning mustahkamlanishiga olib keladi. Ta'lim muassasalari qo'shma adabiyot dasturlarini kengaytirib, adabiyot va ijodiy yozishga qiziquvchi talabalar uchun ko'proq kurslar va resurslar taklif qiladi. Bundan tashqari, Qo'qonda ijodiy sohalariga bevosita bog'liq bo'lgan ish o'rinlari ko'payadi. Bularga muzey mediatorlari, nashriyot uyi mutaxassislari, adabiyotning targ'iboti va saqlanishi bilan bog'liq o'qituvchilar kabi lavozimlar kiradi.

5. Xalqaro aloqalar va hamkorlik. *"Ijodkor adabiyot shahri"* maqomini olish, shaharni boshqa *"Ijodkor shaharlar"* bilan hamkorlik qilishga imkoniyat yaratadi. Boshqa shaharlar bilan adabiyot, san'at va madaniyat bo'yicha tajriba almashish va loyiha hamkorliklarini tashkil etish imkoniyati yanada kengayadi. Shuningdek, bu shaharni dunyo miqyosida adabiyot va san'at markazi sifatida shakllantirishga yordam beradi. Shahrimiz madaniy infratuzilmani, jumladan, xalqaro adabiy forum, xattotlik, muqovalash va muqova dizayni bo'yicha seminarlarni rivojlantiradi, shu bilan birga barqaror amaliyotlar bo'yicha tajriba almashish uchun global hamkorlikni rivojlantiradi. Ushbu tashabbuslar Qo'qonning kreativ iqtisodiyotini yuksaltirish, xalqaro aloqa, hamkorlik, turizm va inklyuziv o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan.

6. Madaniyat diplomatiyasini yaxshilash. UNESCO *"Ijodkor adabiyot shahri"* maqomi shaharni madaniyat diplomatiyasi sohasida ham faol ishtirok etishga imkon yaratadi. Shahar xalqaro miqyosda o'zining madaniy salohiyatini tanitishi mumkin, bu esa global miqyosda shaharni ijobiy ravishda tanitadi. Madaniyat diplomatiyasi orqali, shahar boshqa mamlakatlar bilan ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantiradi. Qo'qon, shuningdek, yozuvchilar, san'atkorlar va raqamli sayyohlar uchun ilhomlantiruvchi muhitni taklif qiluvchi noyob Creative Nomadic Hub'ni tashkil etishni rejalashtirmoqda. Ushbu makon Qo'qonning an'anaviy madaniyatini zamonaviy qulayliklar bilan uyg'unlashtiradi, fanlararo hamkorlik va global bog'liqlikni rivojlantiradi. Qo'qon adabiy muhiti o'rganish bo'yicha taklif qilinayotgan ilmiy-tadqiqot instituti bu ishni yanada rivojlantiradi, she'riyat, nasr va xattotlik bo'yicha chuqur o'rganishlarni qo'llab-

quvvatlaydi. Ushbu institut o'zbek, rus va ingliz tillarida ochiq manba resurslarini taqdim etadi, bu esa adabiy xazinalarni global miqyosda ochiqlikni ta'minlaydi. Mahalliy universitetlar, xalqaro tashkilotlar va chet el oliygohlar bilan adabiy aloqlarni o'rnatadi. Natijada, professor-o'qituvchilar almashinuvi, malaka oshirish kurslari, noyob qo'lyozmalar fondidan foydalanish imkoniyati yaratiladi, Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya va anjumanlar tashkil etilishi va ilmiy tadqiqotlar yuzaga kelishi uchun zamin tayyorlanadi. Qo'qonda mavjud oliy ta'lim tashkilotlarining dunyoning adabiyot sohasidagi oliy ta'lim tashkilotlari bilan aloqasi mustahkamlanadi, adabiyot sohasidagi ilmiy faoliyat rivojlanadi. "Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari hayoti va ijodi bo'yicha veb sayt va elektron platforma" sining ingliz tilidagi variantini yaratish orqali yosh tadqiqotchilar ish bilan taminlanadi, adabiy diplomatiyaga keng yo'l ochiladi.

7. Yangi imkoniyatlar yaratish. UNESCO maqomini olish, shaharni o'z ijodiy yo'nalishlari bo'yicha yangi imkoniyatlar va rivojlanish sohasini ochishga undaydi. Adabiyot sohasidagi yangi loyihalar va dasturlar, shaharni ijodiy markaz sifatida rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Yozuvchilar va san'atkorlar uchun yangi tarmoq va resurslar taqdim etiladi. Qo'qonning *"Ijodkor shaharlar"* tarmog'i yangi o'zosi sifatida tayinlanishi shaharning barqaror rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu global e'tirof turli sohalar uchun bir qancha ijobiy o'zgarishlar olib keladi va shaharning umumiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Ko'nib turganimizdek, UNESCOning "Ijodkor adabiyot shahri" maqomini olish shahar uchun faqat madaniy-ma'rifiy jihatdan emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va global miqyosdagi aloqalar nuqtai nazaridan ham katta foyda keltiradi. Bu maqom, shaharni ijodiy va madaniy markaz sifatida mustahkamlab, uning global obro'sini oshiradi va rivojlanishga imkon yaratadi.

Muhokama. Ushbu maqolada adabiy turizmni rivojlantirishda UNESCOning "Ijodkor shaharlar" tarmog'i, xususan, "Adabiyot shahri" maqomi berilishi shaharlarning madaniy, iqtisodiy va turistik salohiyatiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida fikr yuritildi. O'rganilgan faktlar va dalillar shuni ko'rsatadiki, adabiy turizm sohasida jahon miqyosidagi ilg'or tajriba — Dublin, Melburn, Barselona, Krakov, Reykjavik, Edinburg kabi shaharlarda allaqachon samarali yo'lga qo'yilgan. Ular yozuvchilar, adabiyot muxlislari va madaniyat ixlosmandlarini o'ziga tortuvchi kuchli adabiy muhitni yaratgan bo'lib, bu jarayonlar asosan UNESCO maqomi orqali jadallashgan.

Qo'qon shahrining tarixiy-adabiy salohiyati bu yo'nalishda salmoqli asos bo'lib xizmat qilmoqda. Tarixda Qo'qon xonligi davrida shakllangan adabiy muhit, Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi ijodkorlarning asarlari orqali shakllangan boy adabiy meros Qo'qonning "Adabiyot shahri" sifatidagi maqomini mustahkamlash uchun poydevor vazifasini o'taydi. Ayni paytda zamonaviy adabiy hayotda ham bu an'analar davom etmoqda. "Qo'qon shamoli" filmi, adabiy veb-platforma, xalqaro konferensiyalar, ijodiy uchrashuvlar, kutubxonalar, nodir qo'lyozmalar jamg'armasi — bularning barchasi adabiy turizmga xizmat qiluvchi ob'yektiv infratuzilmadir.

Muhokama davomida, shuningdek, Qo'qon shahrining adabiy turizm infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha ko'rilayotgan choratadbirlar tahlil qilindi. Jumladan, xalqaro festival va anjumanlar, adabiy merosni raqamlashtirish, zamonaviy tadqiqot institutlari, ijodiy markazlar va kutubxonalarning tashkil etilishi kabi tashabbuslar Qo'qonni madaniyat markazi sifatida tanitmoqda. Shu bilan birga, shahar aholisining adabiyotga bo'lgan ixlosi, yosh ijodkorlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va turizmni qo'llab-quvvatlovchi iqtisodiy rejalarning mavjudligi — bu tashabbuslarning barqaror asosda rivojlanishiga ishonch uyg'otadi.

Qo'qonning Xitoy va Ozarbayjon shaharlari bilan "qardosh shahar" aloqalari, TURKSOY va TURKUNIB doirasidagi hamkorliklar, xalqaro festivallar va kutubxonalarda olib borilayotgan qo'lyozmalar tadqiqoti — bularning barchasi Qo'qonning xalqaro maydonda adabiyot orqali o'z ovozi mustahkamlab borayotganini ko'rsatadi. UNESCO mezonlari doirasida ariza topshirish bo'yicha olib borilayotgan keng qamrovli tayyorgarlik, jamoatchilik bilan doimiy muloqot, mahalliy va xalqaro hamkorliklar ham Qo'qonning global adabiy tarmoqdagi mavqeini belgilovchi muhim omillardir.

Xulosa. Yuqoridagi tahlil va dalillarga asoslanib, quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin: Qo'qon shahri o'zining boy tarixiy-adabiy merosi, zamonaviy adabiy hayoti va madaniy infratuzilmasi bilan UNESCOning "Ijodkor shaharlar" tarmog'i, ayniqsa, "Adabiyot shahri"

maqomiga munosib nomzod hisoblanadi. Adabiy turizmni rivojlantirish orqali Qo'qonda madaniyat, ta'lim va iqtisodiyot sohaslarida sinergiya hosil bo'ladi. Bu esa nafaqat shahar aholisining madaniy ongini yuksaltiradi, balki yangi ish o'rinlari, iqtisodiy o'sish va xalqaro hamkorliklarga ham turtki beradi. Qo'qonda adabiy merosni chuqur o'rganish, targ'ib qilish va xalqaro miqyosga olib chiqish bo'yicha bir necha muhim tashabbuslar — veb-platforma, konferensiyalar, festival va kutubxonalar faoliyati allaqachon amalda qo'llanilmoqda. Bu jarayonlar systematik va strategik rejalashtirilgan bo'lib, UNESCO maqomining amaliy asoslarini mustahkamlaydi. Shahar aholisining adabiyotga bo'lgan munosabati, yosh ijodkorlar avlodining shakllanishi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori
3. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir: Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi.— 2017.— 4 avg.
4. Amiriy. Devon. I. O'zbekcha she'rlar / Nashrga tayyorlovchilar: A. Madaminov, E.Ochilov, Z.Qobilova, O. Davlatov.—Toshkent:Tamaddun, 2017.
5. Qayyumov P.D. Tazkirai Qayyumiy. Uch kitobdan iborat. 1-kitob. — Toshkent, 1998.
6. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 271-276.
7. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 173-176.
8. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In *Konferensii*.
9. Kobilova, Z. (2019). THE TRADITION AND FEATURE IN THE CREATIVE WORK OF AMIRIY. *Theoretical & Applied Science*, (9), 436-439.

va ijodiy salohiyatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha mahalliy institutlar faoliyati adabiy muhitning barqaror rivojlanishiga asos bo'lmoqda. Qo'qonning "Adabiyot shahri" sifatida tan olinishi nafaqat shahar, balki O'zbekiston madaniy diplomatiyasining kuchayishiga, xalqaro miqyosda o'zbek adabiy merosining keng targ'ib etilishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, adabiy turizm va "Ijodkor shaharlar" tarmog'i integratsiyasi orqali Qo'qon shahrining madaniy, iqtisodiy va ilmiy salohiyatini yangi bosqichga ko'tarish mumkin. Bu esa UNESCO tomonidan taqdim etilayotgan global platformaning imkoniyatlaridan samarali foydalanish evaziga amalga oshadi.

10. Kabilova, Z. (2022). STUDYING EMIRI DEVON IN TURKEY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 669-671.
11. Bakirovna, K. Z. (2019). The Rhythm of the Literary Impact. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(9), 58-67.
12. Kobilova, Z. B., & Zokhidova, D. L. (2022). KOKAND LITERARY ENVIRONMENT. *Ann. For. Res*, 65(1), 878-888.
13. Kabilova, Z. (2022). GRIEF OF THE LAND AND NATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036*, 11(09), 228-230.
14. TURSUNOVA, N. (2025). ALISHER NAVOIY AN'ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI. *Hamkor konferensiyalar*, 1(11), 260-263.
15. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(09), 187-191.
16. Qizi, I. M. I. (2021). Mohlaroyim nodira's skill in using a satellite. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1048-1052.
17. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10, 121-123.
18. <https://www.unesco.org/en>
19. <https://www.citiesoflit.com/>
20. <https://Hugand.adab.uz>



O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SEMIK TAHLIL ORQALI SINONIMLARNI BELGILASH USULLARI

G'afforjon Ro'zmatovich Rahmonov,

Qo'qon universiteti dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha

falsafa doktori (PhD)

gafforjon1968@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1153>

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil

Jurnal soni: 14

Maqola raqami: 40

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1153>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

so'zning semantik strukturasi, semema, sema, nomema, semantik hodisa, semasiologik asos, lug'aviy sinonimlar, leksik ma'no, semik tahlil, ma'noviy farqlar, uslubiy xoslanish belgisi, konnotatsiya, ma'no nozikligi, emotsional bo'yoq, dominant, neytral so'z.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida keyingi yillarda lug'aviy sinonimlarni ularning leksik ma'nolari tarkibini semik tahlil qilish asosida belgilash haqida fikr yuritiladi. Shuningdek mazkur maqola tilshunoslikda sinonimlarning ahamiyati, tuzilishi va semik tarkibi, uning graduonimiy hoidasi bilan aloqasini tahlil qilishga qaratilgan.

Kirish. Jahon tilshunosligida ham, o'zbek tilshunosligida ham sinonimiyaga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari ko'p. O'zbek tilshunosligida sinonimiyaga hodisasi leksik, morfologik, sintaktik sath birliklari misolida chuqur o'rganilgan¹. Bu ishlarda sinonimiyaga hodisasining mohiyati, hosil bo'lish omillari, funksional-stilistik xususiyatlari, turli sath birliklarida amal qilishi, boshqa yondosh hodisalar bilan munosabati kabi masalalar tahlil etilgan.

Sinonimlar tadqiqiga bag'ishlangan ishlarning soni ko'pligiga qaramay, ularda bu hodisaga berilgan ta'riflarning xilma-xilligi ko'zga tashlanadi.

O'zbek tilshunosligida sinonimlarga berilgan ta'riflarga e'tibor berilsa, ularni belgilashda dastlab leksemalarning ma'no jihatdan bir xilligiga², so'ngra ma'nolarning umumiyiligi³, keyinchalik esa ma'noviy o'xshash (aynan)likka⁴ asoslanilganligi kuzatiladi. Sinonimiyaga berilgan dastlabki ta'riflarning aksariyatida sinonimlar leksemalar ifoda etgan ma'nolarning aynan bir xilligi asosida belgilangan.

O'tgan asrning 70-yillariga qadar o'zbek an'anaviy tilshunosligida sinonimiyaga hodisasiga mana shu yondashuv asosida tavsif berib kelindi. O'zbek tilshunosligi taraqqiyotining keyingi bosqichlarida sinonimiyaga bo'lgan yondashuvlar ham o'zgardi. An'anaviy tilshunoslikda sinonimiyaga berilgan ta'riflarning izchil emasligi, muammo mohiyatini to'liq qamrab olmasligi ma'lum bo'ldi.

Adabiyotlar tahlili. Leksik sinonimlarning leksik, morfologik, sintaktik jihatlar bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar ko'lami keng bo'lib, ular turli sathlar orqali tahlil qilishni tavsiya qiladi. O'tgan asrning 70-yillarigacha leksik sinonimiyaga judayam tor doirada ta'riflar berilgan. Jumladan, Jumanioyov R. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida nashr qilgan "Sinonimlar ta'rfi masalasi" nomli maqolasida sinonimlarning ma'no jihatdan bir xilligini ta'kidlagan bo'lsa, Akademik A.Hojiyev "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" orqali an'anaviy tarzda sinonimiyaga berib kelingan bunday ta'riflarga tubdan o'zgartirish kiritdi⁵. Uning fikricha, "Talauffuzi va yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma'nosi bir xil (umumiy) bo'lgan, qo'shimcha ma'no nozikligi, emotsional bo'yog'i, qo'llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadigan so'zlar sinonimlardir"⁶.

Keyinchalik olimning fikrini professor Sh.Rahmatullayev to'ldirib, o'zbek tilshunosligida sinonimlarni semik tahlil qilish orqali ularning ma'noviy farqlanishi masalasini o'rganishga e'tiborni qaratadi. Sh.Rahmatullayevning bu muammo tahliliga oid maqolasida sinonimiyani belgilashda leksik ma'noning bo'linishi, uning tarkibiy qismlar, ya'ni sememalardan iborat ekanligini hisobga olish lozimligi ko'rsatiladi⁷.

Sinonimiyaga hodisasi tadqiqiga bag'ishlangan keyingi tadqiqotlarda "ma'nosi aynan bir" ta'rifidan voz kechildi, sinonimiyada kuzatiluvchi ma'noviy farqlarga, uslubiy xoslanish belgisi, konnotatsiyaning ifodalanishi kabi jihatlar ham e'tibor qaratila boshlandi.

O'zbek tilshunosligida ham o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab so'zning semantik strukturasi semik tahlil asosida o'rganila boshlandi. Bu muammo bo'yicha Sh.Rahmatullayev, H.Nematov, E.Begmatov, R.Rasulovlarning nazariy qarashlari maydonga keldi. Ularning ishlarida *so'zning semantik strukturasi, semema, sema, nomema* tushunchalariga oydinlik kiritildi. Semani hosil qiluvchi ma'no bo'laklari (sememaning tarkibiy qismlari)ning sema ekanligi asoslab berildi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, leksik sinonimlar lingvistik nazariyadan tashqari amaliy tadqiqotlarda ham beqiyos ahamiyatga ega. Ular tilshunoslikni rivojlantirish bilan birga, zamonaviy axborot tizimlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tilshunoslikda sinonimlarning ahamiyati, tuzilishi va tarkibini o'rganish uchun adabiyotlar tahlili va amaliy yondashuvlardan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqotda semik tahlil usulidan foydalanib, sinonimlarning semantik tamoyillari va bosqichlari o'rganildi. Maqsadli ravishda tanlangan maqolalar va konferensiya materiallari asosida tilshunoslikda sinonimlarning semantik tahlili bo'yicha amaliy tajribalar o'rganildi. Semantik tahlil doirasida sinonimlardan foydalanish holatlari tahlil qilinib, semantik munosabatlarni aniqlash uchun semantik tarmoqlardan foydalanish usullari ko'rib chiqildi. Mazkur metodlar asosida sinonimlarning tilshunoslikdagi nazariy va amaliy ahamiyatini aniqlashga

¹ Yunusov R. Polisemiya i sinonimiyaga imen sushestvitelnix mesta v sovremennom uzbekskom literaturnom yazike: Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1974. – S.24; Sayfullaeva R. Sinonimiyaga povestvovatelniy predlozheniy v sovremennom uzbekskom yazike: Avtoref. ... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1982. – S. 20; Shamsiddinov H. O'zbek tilida so'zlarning funksional-semantik sinonimlari: Filol. fan. dokt. ... diss. avtoref. – Tashkent, 1999. – B. 32; Siddikova I.A. Sinonimiyaga kak mikrosistema yazika. Monografiya. – Tashkent, 2008. – S.138; Jumayeva F. Polisemem leksemalar doirasidagi sinonim va antonim semalar tadqiqi: Filologiya fanlari bo'yicha fals. fan. dokt. ... diss. avtoref. – Farg'ona, 2018. – B. 53.
² Jumanioyov R. Sinonimlar ta'rfi masalasi // O'zbek tili va adabiyoti. 1970. № 1-35 b.

³ Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1974. – 4-10 b.

⁴ Rahmatullaev Sh. Semik tahlil va leksik sinonimiyani ta'riflash masalasi // O'zbek tili va adabiyoti. 1979. №5. – 55 b.

⁵ Hojiyev A. Ko'rsatilgan lug'at. – 3-b.

⁶ Hojiyev A. Ko'rsatilgan lug'at. – 3-b.

⁷ Rahmatullayev Sh. Semik tahlil va leksik sinonimiyani ta'riflash masalasi // O'zbek tili va adabiyoti. 1979. №5. – 56-b.

qaratilgan kompleks yondashuv ta'minlandi. Tilshunosligimizda leksemalarni semik tahlil qilish asosida leksema lug'aviy ma'nosi orqali anglashiluvchi tushunchalar farqlandi. Darhaqiqat, ayrim leksemalarning semik tahlili ularning sememasi birdan ortiq tushunchani anglatishini ko'rsatdi. Masalan, o'zbek tilidagi ota leksemasining sememasida quyidagi tushunchalarni farqlashimiz mumkin:

- a) inson;
- b) erkak jinsiga mansub;
- d) farzandi bor erkak;
- e) g'amxo'r;
- f) mehribon;
- g) jonkuyar;
- h) fidoiy;
- i) ta'minotchi;
- j) himoyachi;
- k) qattiqqo'l;
- l) maslahatgo'y va hakazo.

Ko'rinadiki, ota leksemasi 11 ta tushunchani qamrab oladi (buni yana davom ettirish mumkin). Ammo "O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari" kitobi mualliflari qayd etishganidek, tushuncha va semema o'zaro hamma vaqt ham mos kelmaydi. Bu hodisani, ayniqsa, sinonimlarda yaqqol ko'rish mumkin; yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, jamol leksemalarining sememalari, asosan, bitta tushuncha bilan odam boshining old tomoni atalmishi bilan bog'lanadi. Ammo ayni vaqtda har bir leksema ushbu ma'noni o'ziga xos xususiyati, ya'ni qo'shimcha ma'no munosabati bilan anglatib, ifodalab keladi. Bu qo'shimcha ma'no munosabati emotsional bo'yoqdorlik belgisiga ko'ra, ya'ni ijobiy-salbiy bo'yoqdorlik nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda o'zaro farqlanadi. Bu esa sinonimlarni belgilashga ham semik tahlilning tatbiq etilishi sinonimik qatorlarga birlashtirilayotgan leksik birliklar ma'nolaridagi aynanlik, umumiylik va farqlilikka aniqlik kiritish imkoniyatini yaratadi.

Leksemalar sinonimik qatordan o'rin olishi uchun ularning har birida leksik ma'nolarning tarkibi o'zaro teng kelishi lozimligi ma'lum bo'ldi. Bu qarashni asoslash uchun sinonimik munosabatdagi kuchli, baquvvat, zabardast leksemalarining leksik ma'nolari tarkibini o'rganamiz.

Akademik A.Hojiyev ning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"da kuchli, baquvvat, zabardast leksemalari sinonimlar sifatida ko'rsatilgan. Ushbu sinonim leksemalar leksik ma'nolarining tarkibi jihatidan tengligi ularga berilgan quyidagi izohlardan ham ko'rinadi: 'kuchi, quvvati ko'p'; 'yetarli'; 'normal darajadan ortiq'; 'yuqori'; 'jismoniy qobiliyati baland'; 'kuchsizning aksi'. Mana shu tenglik kuchli, baquvvat, zabardast leksemalarini sinonim qatoriga birlashtiradi.

Kuchli, baquvvat, zabardast sinonim leksemalaridagi farq ularning uslubiy xoslanishi bilan bog'liq holda nutqda qo'llanish darajasi, konnotativlik belgisi, baho munosabatini ifodalashi kabilar orqali belgilanadi. Jumladan, kuchli leksemasida belgi (kuchlilik)ning darajasi, konnotatsiya, nutq egasining baho munosabati neytral tarzda aks etgan, baquvvat leksemasida esa bu belgilar nisbatan kuchli, nutq

egasining ijobiy bahosi sezilarli; zabardast leksikasida belgining darajasi yanada ortiq, ijobiy baho munosabati lug'aviy ma'no negizida yaqqol namoyon bo'ladi.

Demak, semantik tahlil metodi orqali sinonimlar qatoridagi leksemalarning ma'no farqliligini ham kuzatishimiz mumkin ekan.

Tadqiqot natijalari. Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, til sathida lug'aviy sinonimlarni belgilashda leksemalar ma'no tarkibining teng kelishi tamoyili muhim o'rin tutadi. Ammo nutqiy sinonimlarni belgilashda bunday yondashuvning ahamiyati kuzatilmaydi.

Nutqda shakllanuvchi sinonimlar ham tildagi sinonimlar kabi umumiy ma'no atrofida birlashadi. Ammo nutqiy sinonimlar birlashtiruvchi umumiy ma'nosidan tashqari, o'ziga xos farqlovchi ma'nolariga ham ega. Ular muayyan nutqiy vaziyatdagina umumiy ma'noga ega bo'ladi. Masalan, xunob, diqqat sinonimik qatoridagi a'zolarining lug'aviy ma'nolarini tahlil qilamiz.

Xunob leksemasi 'siqilgan kayfiyatli', xafa ma'nosini anglatadi. Muayyan nutqiy vaziyatda ko'chma ma'noda qo'llanib, unga sinonim bo'lib kela oladigan diqqat leksemasida 'kuyungan holatli', 'qayg'urgan' ma'nolari mujassam.

Bu ikki leksemaning semantik tahlili shuni ko'rsatadiki, ular farqli ma'nolarga ham ega. Bu holat mazkur leksemalarning til sathida sinonimik qatorlardan o'rin olishiga yo'l bermaydi.

Yuqorida kuchli, baquvvat, zabardast sinonimik qatoriga e'tiborni qaratgan edik, endi fikrlarimizni quyidagi natijalar asosida semik tahlil qilib davom ettiramiz. 'Kuch-quvvati me'yoriy darajadan ortiq, kuchsizning aksi' sememasidagi kuchli, baquvvat, zabardast sinonimik qatoriga mansub leksemalar ham differensial semasiga ko'ra farqlanadi. Ushbu sinonimik qatordagi leksemalarning "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi izohlariga e'tibor qaratamiz:

Kuchli. 1. Jismoniy qobiliyati, kuch-quvvati nisbatan ortiq; baquvvat. Kuchli yigit⁸.

Baquvvat. 1. Kuch-quvvati normal darajadan ortiq, zo'r jismoniy kuchga ega bo'lgan, kuchga to'la, kuchli⁹.

Zabardast. 1. Jismoniy jihatdan baquvvat, kuchli; qudratli. Zabardast yigit¹⁰.

Yuqoridagi leksemalarning ma'nolariga diqqat qilsak, 'kuch-quvvati normal darajadan qay darajada ortiqlik' belgisi kuchli leksemasida nisbatan ortiq bo'lsa, baquvvat leksemasida zo'r jismoniy kuchga ega, zabardast leksemasida kuch-quvvati normal darajadan o'ta ortiqligini, ya'ni qudratli ekanligini kuzatamiz. Shunga ko'ra bu sinonimlar qatorida kuchli leksemasini me'yorda deb olsak, baquvvat leksemasida belgi me'yordan bir pog'ona yuqorida, zabardast leksemasida esa belgi yanada kuchli bo'lganligi uchun bu leksemani me'yordan ikki pog'ona yuqorida joylashtiramiz. Demak, yuqoridagi sinonimlar qatoridagi leksemalar ortiq-kamlik belgisiga ko'ra o'zaro farqlanib, graduonimiyani o'zida quyidagicha namoyon qiladi:

'kuch-quvvati me'yordan qay holatda ortiqligi' darajalari		
kuchli	baquvvat	zabardast
me'yorda(0)	1	2

Demak, natijalarimizni quyidagi jadval asosida umumlashtiramiz:

Differensial semalar Leksemalar	Daraja ko'rsatkichi	Emotsionallik	Ortiq-kamlik	Uslubiylik	Qo'lla-nish keng yoki torligi	Zamonga munosabat
1	2	3	4	5	6	7
zabardast	2	ijobiy	2 pog'ona ortiq	kitobiy	tor	0
baquvvat	1	ijobiy	1 pog'ona ortiq	kitobiy	keng	0
kuchli	0	ijobiy	me'yorda	kitobiy	keng	0

Yoki semik tahlilimizni yana ushbu sinonimik qatorga qaratsak:

'kuch, quvvati oz, yetarli emas, jismoniy qobiliyati past' sememasida kuchsiz, bequvvat, kamquvvat, zaif, nimjon, ojiz sinonimik qatorini tahlil qilganimizda, undagi leksemalar ham differensial semalariga ko'ra farqlanib, graduonimiy hodosasini namoyon qilmoqda. Mazkur sinonimik qatordagi leksemalarning "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi izohlariga e'tibor qaratamiz:

Kuchsiz. 1. Jismoniy qobiliyati past, kuch-quvvati nisbatan oz; zaif

Bequvvat. Quvvati, darmoni oz; holsiz, nimjon, zaif. Bequvvat odam.

Kamquvvat. Kuch-quvvati me'yordan kam, quvvati oz. Kamquvvat odam.

Zaif. 1. Jismonan quvvati kam, bequvvat nimjon, kuchsiz. Zaif bola.

Nimjon. 1. Kuch-quvvati kam; zaif, nozik.

Ojiz. 1. Jismoniy jihatdan kuchsiz; zaif, bequvvat, notovon. Ojiz kampir.

⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomlik. – Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2008. T. II. – 441-b.

⁹ O'zbek tilining izohli lug'ati. Ko'rsatilgan lug'at. – 189-b.

¹⁰ O'zbek tilining izohli lug'ati. Ko'rsatilgan lug'at. – 120-b.

Yuqoridagi leksemalarda `kuch-quvvati normal darajadan qay darajada past`ligi belgisi kuchsiz leksemasida jismoniy qobiliyatning me'yorda ekanligini, bequvvat leksemasida belgi me'yordagi leksemaga nisbatan bir oz kuchsiz, kamquvvat leksemasida belgi darajasi me'yorga nisbatan yana ham past bo'lsa, zaif leksemasida belgi yanada past darajada ifodalanmoqda. Nimjon leksemasida belgi darajasi o'ta past bo'lsa, ojiz leksemasida jismoniy qobiliyatning me'yordan pastligi ancha yuqori darajada ifodalanmoqda. Shunga ko'ra ayni sinonimik qatordagi leksemalar me'yordan pastga qarab tushib boradi, ya'ni kuchsiz leksemasini kuch-quvvati normal darajadan pastligi me'yorda deb belgilasak, bequvvat me'yordan bir pog'ona, kamquvvat ikki pog'ona,

zaif leksemasi me'yordan uch pog'ona, nimjon leksemasi me'yordan to'rt pog'ona, ojiz leksemasi esa me'yordan besh pog'ona pastda joylashadi.

Mazkur sinonimik qatordagi leksemalar ortiq-kamlik belgisiga ko'ra o'zaro farqlanib, graduonimiyani quyidagicha namoyon qiladi:

`kuch-quvvati normal holatdan qay nisbatda past`ligi darajalari

Ojiz	nimjon	zaif	kamquvvat	bequvvat	kuchsiz
-5	-4	3	-2	-1	me'yorda(0)

Mazkur holat bildiruvchi sinonimik qatorning semik tahlil darajasidagi ifodalanishini quyidagi jadval orqali umumlashtiramiz:

Differensial semalar Leksemalar	Daraja ko'rsatkichi	Emotsionallik	Ortiq-kamlik	Uslubiylik	Qo'lla-nish doirasi keng yoki torligi	Zamonga munosabat
1	2	3	4	5	6	7
kuchsiz	0	0	me'yorda	kitobiy	keng	0
bequvvat	-1	0	1 pog'ona kam	kitobiy	tor	0
kamquvvat	-2	0	2 pog'ona kam	kitobiy	tor	0
zaif	-3	0	3 pog'ona kam	kitobiy	keng	0
nimjon	-4	0	4 pog'ona kam	so'zlashuv	keng	0
ojiz	-5	0	5 pog'ona kam	so'zlashuv	keng	0

Muhokama. Tilshunoslikda sinonimlar tilning lug'atboyiligini, uning ma'naviy va aqliy imkoniyatlarini yoritishda muhim rol o'ynaydi. Sinonimlar tilshunoslikda so'zlarning ma'naviy munosabatlarini, ular orasidagi o'zaro aloqalarni va o'zaro ma'naviy farqlanishni aniqlashda, tilning semantik tuzilishini chuqurroq tushunishga yordam beradi. U, ayniqsa, lingvistik tadqiqotlar, tarjima, til o'qitish va matnlarni tahlil qilishda qo'llaniladi. Sinonimlar tilning dinamik tabiatini va uning o'zgarishini ham ko'rsatadi, chunki u tilning yangi so'zlari va ifodalarini o'z ichiga oladi.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, til sathida lug'aviy sinonimlarni belgilashda leksemalar ma'no tarkibining teng kelishi tamoyili muhim o'rin tutadi. Ammo nutqiy sinonimlarni belgilashda bunday yondashuvning ahamiyati kuzatilmaydi.

Xulosa. Tilshunoslikda sinonimlarning ahamiyati cheksizdir, chunki u nafaqat tilning semantik xususiyatlarini tushunishda, balki

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Apresyan Yu.D. Leksicheskaya semantika. Sinonimicheskie srestva yazıka. — M.: Nauka, 1974. — S.368
2. Gak V.G. K probleme gnoseologicheskix aspektov semantiki slova. — M., 1971. — S.95;
3. Jumanioyozov R. Sinonimlar ta'rifi masalasi // O'zbek tili va adabiyoti. 1970. № 1. — 35 b.
4. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 1995. — 57 b.
5. Rahmatullayev Sh. Semik tahlil va leksik sinonimiyani ta'riflash masalasi // O'zbek tili va adabiyoti. 1979. №5. — 55 b.

uning evolyusiyasini tahlil qilishda ham katta rol o'ynaydi. Sinonimlar tilshunoslarga so'zlar orasidagi ma'naviy aloqalarni aniqlash, sinonimlar va graduonimlar orasidagi farqlarni ko'rsatish va matnni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, sinonimlar, lingvistik tadqiqotlarda aniq va to'g'ri tarjima, til o'qitish va texnik leksikalarni yaratish uchun zarur vosita sifatida xizmat qiladi.

Xullas, o'zbek tilshunosligida sinonimlarni belgilashda an'anaviy va zamonaviy qarashlar tubdan farq qiladi. Keyingi yillarda lug'aviy sinonimlarni ularning leksik ma'nolari tarkibini semik tahlil qilish asosida belgilash keng tus oldi. Sinonimlarni belgilashga bunday yondashuv ularning mohiyatidagi aynanlik va farqlilik belgilarini ajratishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

6. Rahmatullayev Sh. Semema — mustaqil til birligi // O'zbek tili va adabiyoti. 1984. №5. — 80 b;

7. Begmatov E., Ne'matov H., Rasulov R. Leksik mikrosememma va uning tadqiq metodikasi. Sistem leksikologiya tezisları // O'zbek tili va adabiyoti. 1989. — №6. — 35-50 b.

8. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. — Toshkent: O'qituvchi, 1974. — 4-10 b.

9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomlik. — Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2008. T. II. — 441-b.



MAKTAB O'QUVCHILARINING MA'NAVYI DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI

Qobilova E'zozxon

Qo'qon Universiteti dotsenti

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 41 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1154 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	Ushbu maqolada maktab o'quvchilarining ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishda xalq og'zaki ijodining o'rni hamda bo'lajak pedagoglarda musiqiy-pedagogik, psixologik kompetentlikni shakllantirish jihatlariga qaratilgan. O'quvchilarini xalq og'zaki ijodi vositalarida ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishning shart-sharoitlari hamda shakllanishning mohiyatli xarakteriskalari va ta'lim jarayonida o'quvchilarini xalq og'zaki ijodi janrlari vositasida ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish haqida ma'lumot berilgan.
tarbiya, ta'lim, madaniyat, oila, kreativlik, san'at tadbir, marosim, idrok, musiqa, nafasat, hamkorlik, ma'naviy dunyoqarash, xalq og'zaki ijodi, san'at	

Kirish. "Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliyog' domlasi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lishlari kerak." - Sh.Mirziyoyev¹.

Mamlakatimizda zamonaviy ta'lim tizimida ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda va bu o'z navbatida jamiyatimiz hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadi. Bugun jamiyatimiz ta'lim tizimidan oliy ma'lumotli, aqlli, aql-idrokli, iqtidorli, doimo rivojlanib borayotgan tadbirkor, yetuk insonlarni yetishtirishni talab qilmoqda. Shu maqsadda, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida komretentli ilmiy redagogik kadrlar zahirasini yaratish" vazifasi belgilandi². Albatta, yuqoridagi talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlash bilimlari, tajribali o'qituvchilarning mehnatiga bog'liq. Bugungi kunda redagog kadrlarning kasbiy faoliyati va malakasi, kasb mahorati va rivojlanishiga intilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Haqiqatan ham, o'quvchilarini xalq og'zaki ijodiga mehr-muhabbat ruhida tayyorlash aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan baxramand qilish, umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash istiqol talabidir. Buning uchun avvalo o'qituvchining o'zi ana shunday buyuk fazilatlariga ega bo'lishi kerak. Bu uning zimmasiga juda katta ma'suliyat yuklaydi. Demak, bugungi o'qituvchi - ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlaridan to'la xalos etish, ta'lim-tarbiya jarayonini jahon rivojlangan ta'lim darajasiga ko'tarishda faol ishtirok etishi bilan birga o'quvchilar qalbi va ongida xalq og'zaki ijodiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xalq og'zaki ijodiga mehr-muhabbat ruhida tayyorlash dastlab oilada, bog'chada keyinchalik, maktabda bilim olayotgan bolalarda shakllanadi³. Xalqimiz qadim-qadimdan ajoyib odatlari, o'g'itlari bor, yurtga muhabbat, Ona Vatanga sajdagoh, kabi muqaddas bilish kabilardir.

"O'quvchilarga qachondan boshlab, qanday qilib, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlarimiz, urf - odatlarimizni o'rgatishimiz, chuqur anglatishimiz kerak?" degan savollar bilan o'qituvchilar, olimlarning fikrini bir qancha muammolarni yechimiga qaratgan edi. Yosh avlodni ta'lim mazmunini takomillashtirish bilan birga uning shaxs kamolotidagi ahamiyatini rivojlantirish, o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ayniqsa ularda xalq og'zaki ijodiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash, barkamol avlodni voyaga yetkazishning bosh ob'ekti hisoblanadi.⁴

O'zbekiston mustaqilligi tufayli yosh avlodni ta'lim mazmuni tubdan o'zgardi. Milliy va ma'naviy qadriyatlar asosida yangi dasturlar,

darsliklar, o'quv metodik tavsiyalar, ilmiy-metodik qo'llanmalar yaratildi. Dunyoqarashi, Mustaqil respublikamizda o'quvchilarni yangi talab asosida o'qitish va tarbiyalashga alohida e'tibor berildi. Bugungi kunda xalq og'zaki ijodiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash yordamida, o'quvchilarda odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni xurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishga g'amho'rlik qilish haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish mehnatsevarlikning asosiy negizini tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yosh avlod - maktab o'quvchilari o'z oldiga qo'ygan maqsadni uzoq vaqt davomida ko'zlab borishni, qiyinchilik va to'siqlarni qat'iyatlik bilan yengishni hali bilmaydi. U muvaffaqiyatsizlikka uchragan paytda o'z kuchiga va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni yo'qotib qo'yishi mumkin. Xalq og'zaki ijodining bunday namunalari shakllantirishda qarama-qarshiliklarni ham uchratish mumkin. Bu kamchiliklar oila tarbiyasida yo'l qo'yilgan nuqsonlar oqibatida paydo bo'lishi mumkin. Bunda bola o'zining barcha talab va hoxishlari qondirilishiga odatlanib qolgan bo'ladi. Boladagi bu salbiy illatlar asosan o'z oldiga maktab tomonidan qo'ygan talablarga, norozilik alomatlarida namoyon bo'ladi. Shuningdek, bu yoshdagi o'quvchilarda mehribonlik, bilimga qiziquvchanlik kabi ijobiy xislatlar mavjud bo'ladi. Bu yoshdagi o'quvchilarning muhim yosh xususiyatlaridan biri taqlidchi-likdir. Bolalar o'z xursandchiliklarini, tashvishlarini, g'amginliklarini, qo'rquvlarini, qanoat hosil qilganliklarini yoki qanoatlanmaganliklarini samimiy ravishda, ochiq - oydin izhor qiladilar.

Yoshlari ulg'aygan sari ularda o'z hissiyotlarini boshqarish va bu hissiyotlarning yoqimsiz namoyon bo'lishiga yo'l qo'ymaslik qobiliyati rivojlana boradi. Uchinchi sinfning boshlariga kelganda tobora ortib borayotgan talablar va to'g'ri tashkil qilingan ta'lim - tarbiya ishlarining ta'siri tufayli bu yoshdagi o'quvchilarda menatsevarlik, tirishqoqlik, batartiblik kabi fazilatlar paydo bo'ladi. Sekin-asta ularning hatti-harakatlarida mehnatsevarlik xususiyatlarini rivojlana boradi. O'zini tuta bilish va hatti - harakatlarini nazorat qilish hamda bevosita hissiyotlarga berilmaslik malakasi yuzaga keladi. qat'iyat va qiyinchiliklarni yengish malakasi o'sadi. Ayniqsa, o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti namunalari o'rganishda, yoshlarda barkamol inson fazilatlarini tarbiyalash uzoq zamonlardan beri davom etib kelayotgani, ularning xilma-xil shakli va metodlariga ega ekanligining guvohi bo'lamiz. Xususan, pand-nasihat mazmunidagi topishmoq, maqol, masal, she'r va xalq o'g'itlarida bunday fazilatlar maslahat, nasihat, istak, buyruq shakllarda namoyon bo'ladi.⁵

Tadqiqot natijalari. Xalq og'zaki ijodiyoti namunalari yordamida o'quvchilarida, o'qishga bo'lgan qiziqishning rivojlanishi asosan ta'limiy ishlarining tashkil qilinishiga bog'liqdir. Shuning uchun o'qituvchi bu yoshdagi o'quvchilar bilan ishlashda ular qiziqishlarining rivojlanish

¹ <https://uz.uz/oz/posts/o-z-bekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-o-30-09-2020>.

² "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar Strategiyasi to'g'risi" da 2017-yil 7- fevraldagi PF-4947-sonli farmoni.

³ Aliev A. Pedagogik madaniyat: metod va mahorat qirralari.: J.Xalq ta'limi. 1992. № 10-12 b

⁴ Arziqulov D.N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari.: Ps.fan.nom. ...diss. avtoref. - T.: 2002. - 22 b.

⁵ Rahimov B.X. Zamonaviy o'qituvchi-muloqot madaniyati ob'ekti va sub'ekti. J. Xalq ta'limi. 2004. №3. 88-89b.

qonuniyatlarini nazarda tutishi kerak. Shuni yodda saqlash kerakki, qiziqishlarning rivojlanishi oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa. tasvirlashdan tuShunishga, dalillardan umumlashtirishga qarab boradi. Bu yoshdagi o'quvchida o'qishga bo'lgan qiziqishlarni tarbiyalash borasida o'quvchilar qanchalik yosh bo'lsalar, ta'lim Shunchalik ko'rgazmali bo'lishi lozimligiga e'tiborni qaratish kerak.

Bolada o'z qiyinchiliklari va nuqsonlarini tushunib, anglab olishda unga o'qituvchining xuddi katta dono o'rtoqdek yordam berishi uning shaxsiga ta'sir etishining muhim sharti hisoblanadi. Bu yerda o'qituvchi e'tibor berishi lozim bo'lgan ruhiy olam bilan bog'liq bo'lgan muhim nozik narsa bor.

Agar ta'lim jarayonida o'qituvchi o'z talablarining o'quvchisi javobida mufasssalroq ochib bergan tomonlarni har yul bilan rag'batlantirsa, u bilan individual tarbiyaviy ishni muloqot shaklida emas, balki mehnatsevarlik, g'amxo'rlik tusida olib borsa, bola o'zining ichki kechinmalari haqida ochiq - oydin gapirib berish ehtiyojini namoyon qiladi. O'qishda duch kelayotgan qiyinchiliklarini aytib beradi va ayni

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1."O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar Strategiyasi to'g'risi"da 2017-yil 7- fevraldagi PF-4947-sonli farmoni.
- 2.RahimovB.X. Zamonaviy o'qituvchi-muloqot madaniyati ob'ekti va sub'ekti. J. Xalq ta'limi. 2004. №3. 88-89b.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 noyabrdagi -Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida PQ-3990- son qarori. www.lex.uz
- 6.Kobilova, Ezozkhon Bakirovna. "Classical music and youth education." Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 12.9 (2022): 126-130.
7. Qobilova, E. "FORMING A SENSE OF INTERNATIONALITY IN STUDENTS THROUGH THE TRADITIONAL MUSIC OF AZERBAIJAN." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.10 (2023): 127-132.
8. Azizkhonova, M., and E. Qobilova. "IMPORTANCE OF MUSIC EDUCATION IN FORMING YOUTH'S MUSICAL CULTURE AND SPIRITUALITY." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 51-57.
9. Kabilova, E. B. "FORMING A SENSE OF PATRIOTISM IN STUDENTS THROUGH THE LIFE AND WORK OF COMPOSER DONI ZAKIROV." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 10.10 (2023): 68-74.
11. Qabilova, E. "FORMING A SENSE OF INTERNATIONALITY IN STUDENTS THROUGH THE TRADITIONAL MUSIC OF AZERBAIJAN."

chog'da o'qituvchining uni tuShunishini, unga achinishi va yordam berishini shohidi bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yoshlarda musiqiy madaniyatni shakllantirishda har tomonlama yuksak ma'naviyatli, axloqan yetuk, barkamol inson etib tarbiyalashda boy milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning ulkan me'rosidan foydalanishning bugungi kunning yetakchi vazifalaridan biridir. O'zbek xalqi bola tarbiyasi bobida katta tajribaga ega. Ota-bobolarimiz uzoq asrlar davomida tarbiyaning bir qancha vosita, ularni qo'lga kiritganlar va bunga meros qilib qoldirganlar.Tarixan o'zbek xalq og'zaki ijodining bir qator janrlari tarbiya vositalari bo'lib, xizmat qilib kelgan. Bular: ertak, doston, rivoyat, afsona, masala, maqol, topishmoq, xalq kuy va qo'shiqlaridir. Ular ma'naviy-axloqiy fazilatlarini o'quvchi yoshlarda tarkib toptirishda muxim omil bo'lib xizmat qiladi. Matallar, qo'shiqlar,hikmatlar, qayroqi so'zlar, tez aytishlar, aforistik iboralar ham shular jumlasidandir.O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari ya'ni xalq qo'shiqlari orqali o'quvchilarda vatanga, xalqiga, mehnatga, tabiatga, kattalarga, ota-onaga, boshqalarga va o'z-o'ziga nisbatan axloqiy munosabatda bo'lishini tarbiyalash imkoniyatiga ega.

International Bulletin of Applied Science and Technology 3.10 (2023): 127-132.

12. QOBILOVA, E'ZOZXON. "Forming A Sense Of Love For The Profession By Teaching Labor Songs To 4th Class Students In Music Culture Lessons." Journal of Positive School Psychology 7.2 (2023).

13. E.Qobilova Developing methodological competence in future music teachers. Qo'qon DPI. Scientific Reports 2024 Issue 3, page 722

14.E'zozxon Qobilova THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF COOPERATION BETWEEN SCHOOL AND FAMILY IN SHAPING MUSICAL CULTURE AMONG YOUTH. International Journal of Pedagogics.(ISSN – 2771-2281) VOLUME 04 ISSUE 10 PAGES: 162-166

10. Qobilova, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MUSIC TEACHING IN EDUCATION. QO'QON UNIVERSITY NEWSLETTER, 12, 99–100. <https://doi.org/10.54613/ku.v12i.999>

11.E.Qobilova.Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish. Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024 3-son 722-bet.SAN'ATSHUNOSLIK (MUSIQA, TASVIRIY SAN'AT)Orcid: 0009-0001-1275-3080

12. E.Qobilova .Yoshlarda musiqiy madaniyatni shakllantirishda maktab va oila hamkorligining tarbiyaviy ahamiyati. *Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024 4-son* 383-bet SAN'ATSHUNOSLIK (MUSIQA, TASVIRIY SAN'AT



MUQIMIY IJODIGA YANGICHA YONDASHUVLAR

Namuna Tursunova

Qo'qon universiteti Pedagogika va psixologiya
kafedrası katta o'qituvchisi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 42 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1155 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS Muqimiy, adabiyotshunoslik, adabiy meros, hajviyot, g'azal, yangicha me'zon, jadid, adabiy muhit.	Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning ijodiy merosi sho'ro tuzumi yillarida o'zining xolis bahosini olmadi. To'laqonli tadqiq etilmaganiga yarasha g'oyaviy tahrir ham qilindi. Natijada asarlarining mohiyatiga mutlaqo teskari talqinlar maydonga keldi. Shoir she'riyatini xolis o'rganish zarurati paydo bo'ldi. Mazkur maqolada shoir adabiy merosi mustaqillik mafkurası va adabiyotshunoslikda qaror topgan yangicha me'zonlar asosida xolis, qayta baholandi. Narijada shoir ijodidagi matni qayta tiklangan asarlarning aksariyati diniy-ma'rifiy, falsafiy, ijtimoiy mavzuda ekanligi aniqlandi. Shoirning dunyoqarashi, ijtimoiy voqelikka munosabati, ijodkor sifatidagi qiyofasiga xolis baho berildi.

Kirish. Qo'qon adabiy muhiti tashkil topgandan buyon davom etgan barcha davrlarda ijod qilgan shoirlarga haq so'zni aytish xos edi. Shunga yarasha sharoit mavjud edi. Qo'qon adabiy muhitining Gulxaniy va Maxmur kabi o'tkir qalam sohiblari ijodi misolida o'zbek adabiyotida hajviyot, xususan, satira rivoj topdi. Turli janrlardagi 70 ga yaqin hajviy asarlar ijodkori bo'lgan Maxmur satirasining markazida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy nufuzga ega qatlam vakillari turganligini muayyan darajada Amiriy zamonidagi ijodiy so'z erkinligidan dalolat sifatida baholash mumkin.

Chor Rusiyasi istilosi davriga (XIX asrning oxirgi choragi va XX asr boshlari) kelib, Qo'qon xonligi rasman tugatilib, uning o'rniga Farg'ona viloyati tashkil qilingan bo'lsa-da, xonlik davridagi geografik-ma'muriy hudud doirasida shakllangan adabiy hayot, ijodiy hamkorliklar davom etdi. Qo'qon ko'plab shoirlar uyushgan holda faoliyat ko'rsatgan ijodiy markaz vazifasini bajarishda davom etdi. Amiriy davridagi badiiy adabiyotning xarakterli xususiyatlaridan bo'lgan hajviyot an'analari Muqimiyning "Aroba", "Loy", "Bezgak", "Pashshalar" singari yumoristik, "Dar shikoyati Laxtin", "Tanobchilar", "Maskovchi boy ta'rifi", "Voqeai Viktor", "Saylov", "To'yi Iqonbachcha", "Voqeai ko'r Ashurboy hoji" kabi satirik asrlarida davom ettirildi.

Istiqlol davri muqimiyshunosligida ikki muhim tamoyil ko'zga tashlanadi:

1. Muqimiy asarlari qo'lyozmalari va toshbosmalarini matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtai nazaridan qayta tadqiq etish;

2. Muqimiyning dunyoqarashi, ijtimoiy voqelikka munosabati, ijodkor sifatidagi o'rnini mustaqillik mafkurası va adabiyotshunoslikda qaror topgan yangicha me'zonlar asosida qayta baholash.

Mazkur maqolada ikkinchi tamoyil yuzasidan tahlillarimizni ilmiy asoslaymiz.

Adabiyotlar tahlili. Qo'qon adabiy muhitidan boshqa bir madaniy va ijodiy muhitda Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy singari haqgo'y iste'dodlarning bemaol qalam tebratishiga men uncha ishonmayman. [1.42] deb yozgan edi atoqli adabiyotshunos Ibrohim Haqqul. XIX asrning 80-yillarida Qo'qonda Amiriy davridagi ijodiy hamkorlik an'analari izchil ravishda davom ettirgan adabiy anjuman tashkil topganini Furqatning ushbu fikrlari ham tasdiq etadi: «...asr shuarolarikim, chunonchi mavlono Muhyi va mavlono Muqimiy va mavlono Zavqiy va mavlono Nisbatdurlar, hamisha majlis bunyod aylab, zodai tab'larimizdin mushoira qilur erdik va bir g'azalda tatabbu' ko'rguzub, bir mazmun har nav' ifoda topar erdi» [2.12].

Bu davrda Turkiston o'lkalarining madaniy, ijtimoiy siyosiy hayotida keskin o'zgarishlar yuz berdi. Bir hududda turli madaniyat, turli xil e'tiqodiy qarashlar to'qnashdi. Oqibatda yerli aholi dunyoqarashida ham o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. She'riyat ham turli g'oyalarni kuylay boshladi, natijada she'r ham oddiy xalq hayotiga yaqinlasha boshladi. Professor Begali Qosimov "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" kitobida bu davr adabiyotini quyidagicha ta'riflaydi: "Bu davr adabiyoti yangilanish davri adabiyotidir. Unda qadim davrlardan kelayotgan adabiy turlar saqlandi. Devon adabiyotida she'riyat (poeziya)

asosiy o'rin egalladi. Aruz asosiy vazn bo'ldi. G'azal, tuyuq, ta'rix, ruboiy, muxammas, musaddas, musamman, muvashshah va ayniqsa, masnaviydan keng foydalanildi. Sayohatnoma janri maydonga keldi. Ishq mavzusi bu davrda ham she'riyatning markaziy mavzusi bo'lib qoldi. Lekin ilohiy ishq, tasavvuf g'oyalari kuchaydi. Yusuf Saryomiy (1845-1912), Ziyovuddin Haziniy (1867-1923) kabi shoirlar ko'proq diniy-tasavvufiy she'rlar bilan shuhrat topdilar. Badiiy adabiyotda hajviyot rivoj topdi. Adreslik tanqid kuchaydi. Realistik tasvir keng o'rin ola boshladi. Kundalik matbuot va bosmaxonalar maydonga kelishi bilan she'riyat va o'quvchi orasi yaqinlashdi... "Qo'qonda Muqimiy (1850-1903), Zavqiy (1853-1921), Nisbat(1903 yil vafot etgan), Muhayyir(1845-1918), Qori Yusuf Muntazir (1899 yil vafot etgan), Usmonxo'ja Zoriy (1839-1916) kabilar adabiy davra tashkil etdilar"[3.30]. Bu ro'yxatga Muhyi, Furqat, Fansurulloh Xisrav, G'urbat, Yoriy, Nusrat, Pisandiy, Tahayyur, Qoriy, Rojiy, Nayyiriy, Mirzoi Xo'qandiy, Mahmud Hakim Yayfoni, Muhsiniy, Shaydoi Ho'qandiy, Mavlaviy Yo'ldosh kabi shoirlarni ham kiritish mumkin. Mazkur davr adabiy muhitining o'ziga xosliklari bu vaqtda ijod qilgan ijodkorlar faoliyatida aks etdi.

Albatta, bu davrdagi Qo'qon adabiy muhiti she'riyatida mavjud ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar natijasi o'laroq yangi mavzular, an'anaviylik bag'ridagi zamonaviylik singari xususiyatlar qaror topdi. Jumladan, Chor Rusiyasining mustamlakachilik siyosatiga norozilik motivlari paydo bo'ldi, istibdodga nisbatan murosasizlik ifodasi bo'lgan islomiy ma'rifat g'oyalari kuchaydi. Masalan, Furqatning (1859-1909) "Munojoti musaddas"i, "Begim" radifli g'azali, "Bo'ldi" radifli muxammasi, Muqimiyning 1892-yildagi Toshkent qo'zg'olonining tashkilotchilaridan va faol ishtirokchilaridan In'omxo'ja vafoti munosabati bilan yozilgan "Tarixi favti noibi Toshkandiy" marsiyasi, Zavqiyning "Ajab ermas" muxammasi kabi asarlar bu kayfiyatning ochiq badiiy ifodasi sifatida yuzaga keldi.

Adabiyotshunos Q. Pardayev "Adabiy manbalar bilan ishlash amaliyoti (Muqimiy ijodi manbari)" [4.110] va "O'zbek adabiyoti tarixi" (Muqimiy ijodi)" [5.120] o'quv qo'llamasi, Adabiyotshunos Z.Qobilovning "Amiriy va Muqimiy" [6.5] monografiyasini Muqimiy ijodiga xolis baho berilgan, shoirning badiiy mahorati qirralari o'rganilgan tadqiqot sifatida baholash mumkin. Mazkur ilmiy risolalarda shoir ijodiga yangicha nuqtai nazar asosida, xolis ilmiy xulosalar chiqargan.

Metadologiya. Muhammad Aminxo'ja Muqimiy adabiy merosiga adabiyotshunoslikda qaror topgan bir qator tahlil metodlaridan foydalanilgan holda qayta o'rganildi. Adabiyotshunoslar G'ulom Karimov, Abdulatif Turdialiyev, Qo'ldosh Pardayevlar tomonidan chop etilgan Muqimiyning ijod namunalari qiyosiy o'rganilib, notog'ri o'qilgan, g'oyaviy tahrir qilingan misra va baytlar aniqlandi. Asl matnlar qayta tiklanib, kontekstual, immanent, tarixiy-madaniy, psixologik, biografik tahlil metodlaridan foydalanib, shoirning dunyoqarashi, ijtimoiy voqelikka munosabati, ijodkor sifatidagi qiyofasiga xolis baho berildi.

Natija. Muqimiy vatanimiz tarixi va xalqimiz hayotida jiddiy ijtimoiy-siyosiy voqealar yuz bergan ana shunday suronli bir davrda yashab, ijod etgan. U o'z hayotida Chor Rossiyasining yurtimizni mustamlakaga aylantirgani va buning oqibatida xalq ahvoli yanada

og'irlashib, zulm kuchaygani, inson qadri toptalganining guvohi bo'ldi. Davr ijodkorlari singari Muqimiy ham mavjud voqelikni ang'ay va badiiy idrok eta boshladi. Muqimiy davrdoshlari Furqat, Zavqiy, Ibrat kabi asrlar bo'yi davom etib kelgan aruzda barakali ijod qilgan so'nggi shoirlardan edi. Uning she'riyati sekin-asta davrda yuz berayotgan o'zgarishlar kayfiyatini aks ettira boshladi. Adabiyotshunos B.Qosimov "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" darsligida: "Shoir bosib o'tgan murakkab ijodiy yo'l va uning sermazzun adabiy merosini mustaqillik, Millat va Vatan manfaatlarini nuqtai nazaridan ko'zdan kechirish va xulosalar chiqarishga ehtiyoj bor." [3.95], deb yozgan edi. Darhaqiqat, muqimiyshunoslik bosib o'tgan uzoq yo'l davomida tarixiylik tamoyili yetakchilik qilgan bo'lsa-da, hukmron mafkura talablariga ortiqcha berilish hollari ham kuzatiladi. Shuni diqqatga sazovorki, o'tgan asrning birinchi choragida adabiyotshunoslikda Muqimiyning XIX asr oxiri XX asr boshida shakllanayotgan jadid adabiyotining ilk nomayondasi sifatida baholash ko'zga tashlanadi. Xususan, 1934-yilda nashr etilgan Abdurahmon Sa'diyning "O'zbek burjua adabiyoti, XIX-XX asrlar" nomli darsligida Muqimiyning "burjua jadid shoiri, "jadidlarning salafi" [7.15] degan edi. Miyon Buzruk Solihov shunday fikrlarni bildiradi: "Muqimiy, Muhyi, Furqat, Vasliy, Akmal kabi sonlari 50 dan ortiq shoirlarning jadidizm davrini ko'rib o'tkanlarini ko'ramiz" [8.88]. Aslida har ikki olim mazkur fikrni vulgar sotsiologizm pozitsiyasida turib aytgan bo'lsalar-da, ularning qarashlari haqiqatga mos kelardi. Bu haqda atoqli adabiyotshunos Begali Qosimov shunday yozadi: "...bizning jadidlarda fikr va g'oya qorishiligi juda kuchli. Mana, masalan, yangi o'zbek adabiyotining shakllanishi boshida turgan Muqimiy, Furqatlarni oling. Ular 30-yillarda jadid vakillari sifatida, umuman, to'g'ri talqin qilingan" [3.88].

Major olimi Yanosh Ekman ham Muqimiy va uning davrdoshlarining ma'rifiy qarashlarini Turkistondagi jadidchilik harakatiga asos bo'lganligini ta'kidlagan edi: "...Xivali shoir Avaz O'tardan boshqa jadid adabiyotining dastlabki namoyandalari Muqimiy, Furqat, Zavqiy va Zoriy kabi Xo'qandli shoirlardir" [9.209].

B.Qosimovning oliy o'quv yurti talabalari uchun mo'ljallangan "Milliy uyg'onish davri adabiyoti" darsligida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xorazm, Qo'qon, Toshkent adabiy maktablarida ijod qilgan shoirlar hayoti va adabiy faoliyati qisqacha yoritib berilgan. Shu ijodkorlar orasida Muqimiy hayoti va ijodiga ham munosabat bildirilgan. "Muqimiyshunoslikka bir nazar" rejasida Muqimiy faoliyatini o'rgangan N.Ostromov, G.G'ulom, H.Yoqubov, A.Olimjonov, H.Zaripov, H.Razzoqov, G'.Karimov, A.Abdug'afurov kabi olimlar nomlari sanab o'tilgan. Shoirning hayoti haqida qisqacha to'xtalangan. "Tanobchilar", "Oqjar odamlari haqida muxammas" "Noibi Toshkandiy" ta'rix-marsiyasi, "Sayohatnoma" asarlari ham qisman tahlil qilingan. "Noibi Toshkandiy" marsiyasi haqida gapirilar ekan, darslikda "Ta'rix-marsiyada shoirning rus siyosatiga qarshi bosh ko'targan qahramonga mehr-muhabbati ochiq ifodalanadi", deyiladi va tahlil so'ngida "Afsuski, Muqimiy 1898-yilgi Dukchi Eshon boshchiligidagi xalq ozodlik harakatini mana shunday teran ang'ay olmadi. Rus hukumatining rasmiy talqini izidan borib, hajviyalar bitdi" [3.98], deb yoziladi. Ma'lumki, shoirning "Bachchag'ar", "Qurbaqalar" radifli ikki hajviyoti sho'ro davri muqimiyshunosligida Dukchi eshonga bag'ishlangan ilk she'r sifatida talqin qilingan bo'lsa, istiqbol arafasida va dastlabki yillarida har ikki she'r o'zining xolis va to'g'ri yechimini topmaganligi aytiladi. [5.39]. Shuning uchun ham B. Qosimov yuqoridagi fikrga kelgan.

Muhokama. Sho'rolar davrida Muqimiyning turli janrlardagi "Darig'o mulkimiz", "Hajvi Bekturboy", "Dar mardumi Oqjar batariqi muxammas", "Dar mazammati zamona", "Voqeayi ko'r Ashurboy hoji", "Veksil", "Dar mazammati qurbaqa", "Hajvi xalifayi Mingtepa" sarlavhali hajviy asarlari tahrir qilinib, davr mafkurasiga moslab talqin qilinganini qayd etgan. Olim asl matnni tiklagan.

O'tgan yillar davomida tatariston jadidlarning ta'sirida Turkiston o'lkalarida jadidchilik g'oyalari yoyilganligi e'tirof etib kelindi. Aslida esa XIX asr oxiridagi mavjud sharoit, endi eskicha yashab bo'lmashligini, tuzum ham, odamlar ham o'zgarishi lozimligini birinchi navbatda Muqimiy singari ijodkorlar yaxshi anglashgan. Ular mavjud holatdan qutulishning yo'lini esa ma'rifatda ko'rganlar, shu bois ham asarlarida ma'rifat g'oyalarini kuylay boshlaganlar. Adabiyotshunos olim U.Hamdam jadid she'riyatida eng ko'p qalamga olingan mavzulardan birini Turkistonning, millatning mavjud ahvoli mavzusi ekanligini, mavzu talqinidagi umumiy jihatni esa "mavjud ijtimoiy voqelikdan qoniqmaslik hissingan ustivorligi" deb belgilaydi.[10.91]. Olim mazkur mavzuda yozilgan she'rlarning barchasida jaholatga botgan yurt, shu holatda qoladigan bo'lsa, qoloqlik domidan chiqishi amri mahol ekanligi aks etganini, shoirlar mavjud

holatni qayd etish bilan cheklanmasdan, uning yuzaga kelish sabablarini tahlil, mushohada etganliklarini va shu tahlil-u mushohadalarni natijasi o'laroq yana bir muhim g'oyaviy tematik yo'nalish yurtdagi mavjud qoloqlik sababi bo'lgan ijtimoiy hayotdagi illatlarni fosh etish yo'nalishi vujudga kelganligini ta'kidlaydi. Aytish mumkinki, U.Hamdamning jadid adabiyoti mavzulari haqidagi qarashlarini Muqimiy kabi ijodkorlar qalam tebratgan ma'rifatchilik davriga bema'lol tatbiq etish mumkin. Ta'bir joiz bo'lsa, adabiyotda mazkur mavzular ma'rifatchilik davridan boshlangan. Xususan, Muqimiyning "Darig'okim, ajoyib turfa bir oxir zamon bo'ldi, lki qo'l to'yoqda yurmasang, ishlar yomon bo'ldi" bayti bilan boshlanuvchi "Dar mazammati zamona" sarlavhali g'azalida xalqning tobora din-u diyonatdan yiroqlashib borayotgani, axloq va tarbiya masalasi og'irlashib, "ishlar yomon"lashib, millat ma'naviy inqirozga yuz tutgani aks etgan. Matnshunos olim Q.Pardayev mazkur g'azal shoir asarlarining 1958, 1960, 1974-yillardagi nashrlarida 7 bayt qisqartirilib berilganligini, bu holat shoirning chor mustamlakasiga nisbatan tanqidiy qarashlarini yashirin qolishiga olib kelganligini ta'kidlaydi va g'azalning to'liq matni Muqimiyning 1325 raqamli dastxat bayozida (120 a sahifa) berilganligini ta'kidlab, tushirib qoldirilgan baytlarni ma'lum qiladi. [11.29]. G'azalning joriy nashrlarga kiritilmagan baytlariga diqqat qarataylik:

*To'lib cherkas, qizilbosh, armanilar shahrimiz ichra,
Musulmonlar tahipo, yaxshilar ko'zdin nihon bo'ldi.
Hamiyat aylab Ahmadjon turib tutjor ahlidin,
Shijoatdin tanida har sarimo'yi sinon bo'ldi.
Chidolmay g'ayratidin yurtini xayriyatini istab,
Olib ahli saroyin to'g'ri hokimg'a ravon bo'ldi[12.262].*

Tushirib qoldirilgan baytlarda g'ayridinlar mustamlakasi dastidan musulmonlar oyoq osti bo'lgani, savdogarlar bosh ko'targani, ularning vakili sifatida Ahmadjon ismli tutjor bu holga chidolmay yurt xayriyatini o'ylab, hokimga borgani ya'ni mavjud ijtimoiy ahvol ro'y rost ko'rsatilgan.

Muqimiy millatning rivojlanishi, yuksalishiga to'siq bo'layotgan illatlarni: jaholat, ilm-fan taraqqiyotidan ortda qolish, o'zaro nifoq va nizolar va bu illatlarning boshi bo'lgan ichkilikbozlikni ayovsiz qattiq tanqid ostiga oldi. Muqimiyning:

*Ichkilikka o'rgatib, oxir piyonista qilib,
O'zlaridek sog'ni ham qildilar cho'log'lar.[12.27]*

bayti Abdulhamid Cho'lponning: "Ey qarindoshlar...katta iltimosimiz shuldurki, Ovro'poning mo'dosidin, shishasidan, buzuq axloqidan namuna olmasdan va bunlarga bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, hunar, sanoatga o'xshashlik madaniyatlaridan namuna olub, bul jihatdan taqlid qilmog'imiz lozimdur. Ovro'poning mo'dosi, shishasi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevatan, asir, qul qiladur. Bundan saqlaningiz!.. Birodarlar, ko'zlaringizni ochib, yaxshi o'ylangizlar! [13.26] degan fikriga hamohangdir.

Muqimiy dunyoqarashi, hayot tarzi haqidagi asos manbalardan biri uning maktublaridir. Muqimiy jiyani Ro'ziqumhammad Do'smatovni ham zamonasining ilmiy, dongdor kishilaridan bo'lishini juda-juda orzu qilgan va bu haqda unga yuborgan maktublardan o'qiyimiz: "...xalq ichida bir masal bordurkim, ajab ermaskim, non-u nasib, siz qayda erdingiz va Moskov qayda erdi, yana oxirida, ajab ermaskim, ...bir katta amaldor bo'lub shul tarafdagi yana ikkinchi kelsangiz.. Ul mamlakatlarda ajoyib va g'aroyib ishlar ko'p, yozib xatingizni ko'prog' qilinkim, filjumla o'qub qongudek bo'laylik. [12.339]. Qaydlardan anglashiladiki, Muqimiy jiyani timsolida Vatan va millat manfaatlarini uchun xizmat qiluvchi, yangi asr ilm-u fanidan yaxshi xabardor avlodni ko'rgan.

Muqimiy ijodida diniy-ma'rifiy va tasavvuf g'oyalari bilan sug'orilgan she'riy asarlar ham talaygina. Avvalo, bu hol ko'p asrlik o'zbek mumtoz adabiyotining bosh mavzusi bo'lib kelgan ishqni kuylashga tutashsa, ikkinchi tarafdin shoir bosib o'tgan yo'l bilan bog'liq. Ishqi ilohiyni kuylash barcha mumtoz shoirlar uchun xos edi. An'anaviy mavzuda o'ziga xoslik namoyon bo'lgan ijod namunalari borki, barchasi asrlar osha mutolaa qilinyapti. Muqimiyga zamondosh bo'lgan Furqat, Zavqiy, Muhyi, Qoriy kabi shoirlar ijodida ham diniy- ma'rifiy ruhdagi asarlar talaygina.

Muqimiyning hayot yo'li haqidagi manbalar ko'rib chiqilganda, shoirning e'tiqodi, dunyoqarashi, asarlari qatidagi tasavvuf g'oyalar ildizi yaqqol namoyon bo'ladi.

"Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari ijodiy merosining umrboqiyiligi ta'minlab kelayotgan bosh omil islom ma'rifati va tasavvuf axloqi ekanini ayni haqiqatdir"[14.87]. Shoirning "yo Rab", "boramiz", "bor", "qaydadur", "gul", "yig'lasam", "ko'rmay" radifli, "Oshiq ermasman yuzingga yakka bu Farg'onada", "To'bi demakda qomating, ey sho'x muddao" deb boshlanuvchi g'azallari mazkur fikrlarning isbotidir.

Hidayot qilmasa tavfiqi fazling, g'arqi isyonman,

Ibodatlarda nuqson ko'p, namozimda riyo, yo Rab.

Hayotim mazraiga ma'siyatlar donasin sochdim,

Agarchi tongla lutf et, hosilim jurmu xato, yo Rab.

Harimi qurbig'a mendek gadoni yetmaki mushkul,

Anikim dargohida bo'lsa sultonlar gado, yo Rab.[12.18]

"Yo rab" radifli ushbu g'azalni shoirning yaratganga munojoti sifatida qabul qilmoq kerak. Chunki unda "g'arqi isyon", "ibodatlarida nuqson", "namozida riyo" bo'lgan, hayoti davomida hayot marzasiga gunoh donalarini sochgan bandaning Alloh taolaga yozg'irishlari, O'zidan hidoyat, mahshar kunida lutf etishini o'tinib so'rashi aks etgan.

Jiyani Ro'zimuhammadga yozgan xatlarida jiyani besh vaqt namozni kanda qilmaslikka chaqiradi, hayit bayrami bilan qutlaydi, bu dunyoning bevafo ekanligini eslatadi: "Bizlar besh vaqt namozda eson-omon yurmog'ingizni, hech bir kasallik ko'rmay, sihat-salomat, o'ynab-kulib yurmog'ingizni Xudodan tilab yurmoqdamiz...Sizga ham iydi sharif muborak bo'lg'ay. ...Sizdan o'tunamanki, zud-zud xat va xabaringizni uzmay turing. Hamma bir-biriga bu bevafo dunyoda g'animatdur"[12.344].

Muqimiyning islomiy tasavvufiy hayot tarzi haqida xabar beruvchi yana bir muhim manba bu Po'latjon Qayyumovning "Tazkirai Qayyumiy" tazkirasidir. Unda quyidagi ma'lumot berilgan: "Muqimiy xalqg'a shoir bo'lib tanilgan. Shu ishda faqirlik ila yashagan. Husni xat egasi xattot, insho, tahrirda mukammal xatnavislik bilan hayot kechirgan. Imom, mutavalli, yo qozi bo'lsa, ilmi tayyor edi. Bu xizmatlarni qilmadi"[15.210]. Darhaqiqat, Muqimiy diniy ilmlarni puxta egallagan ilm egasi edi, ammo o'zigacha yashab, ijod etgan so'fiy shoirlar kabi halol rizq topish bilan ya'ni xattotlik bilan kun kechirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Хаққул И. Ҳамза абадияти. / Ҳамза ва аср ўзбек адабиёти. - Фарғона нашриёти, 2019. – 142.
2. Хўқандлик шоир Зокиржон Фурқатнинг аҳволати - ўзи ёзгани // Туркистон вилоятининг газети. 1891, №9.
3. Қосимов Б. Юсупов Ш. Долимов У. ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти дарслиги. – Т.: Маънавият, 2004. – 330.
4. Pardayev Q. Adabiy manbalar bilan ishlash amaliyoti (O'quv qo'llanma) Toshkent: Bookmany print, 2022. —110.
5. Pardayev Q. O'zbek adabiyoti tarixi (Muqimiy ijodi) (O'quv qo'llanma) Toshkent: Bookmany print, 2023. —120.
6. Қобилова З. Амирий ва Муқимий (монография). – Фарғона: Фарғона, 2020. –135.
7. А. Саъдий. Ўзбек буржуа адабиёти. XIX-XX асрлар. – Тошкент: Ўздавнашриёт, 1934. –115.
8. М.Бузрук. Ўрта Осиё ва ўзбек адабиёти тарихига умумий қараш. Биринчи қисм. -Тошкент: Ўздавнашриёт, 1930. – 88.

Shoir bir baytida bu dunyoni mehnatxona deb ataydi. Kishini tafakkur qilishga chorlaydi va dunyoi uqbodan rohat ko'rish mumkin chunki bu mehnatxonada shodlik kutib bo'lmaydi, deb yozadi:

G'ofilo, fikr aylag'il uqboni rohat istasang,

Shodlig' ko'z tutmakim, bo'lmaydi mehnatxonada.[12.117]

Xulosa. Tahlillardan ayon bo'ldiki, o'zbek adabiyotshunosligida hayoti va ijodi eng ko'p o'rganilgan shoirlardan biri shubhasiz, Muhammad Aminxo'ja Muqimiydir. Aytish mumkinki, adabiyotshunoslikda muqimiyshunoslik yo'nalishi paydo bo'ldi va uning tarixi o'tgan asrning birinchi choragiga borib taqaladi. Lekin ko'plab tadqiqotlar, chop etilgan shoir to'plamlarida shoir she'rlarining matni tahrir qilingan yoki noto'g'ri o'qilgan. Biz mazkur maqolamizda adabiyotshunos olimlar V.Rahmonov, A.Madaminov, R.Tojiboyev, A.Turdaliyev, O.Jo'raboyev, Q.Pardayev singari matnshunos olimlar izlanishlariga tayanib, shoir ijodiga nisbatan chalkashlik fikrlar, matn bilan bog'liq xatolarni bartaraf etishga harakat qildik.

Qo'qon adabiy muhiti xususan, Muqimiy she'riyatida mavjud ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar natijasi o'laroq yangi mavzular, an'anaviylik bag'ridagi zamonaviylik singari xususiyatlar qaror topganligi, Chor Rusiyasining mustamlakachilik siyosatiga norozilik motivlari paydo bo'lganligi, istibdodga nisbatan muhosasizlik ifodasi bo'lgan islomiy ma'rifat g'oyalari kuchayganligi aniqlandi. Muqimiy ijodidagi matn qayta tiklangan asarlarning aksariyati diniy-ma'rifiy mavzudadir. Bu asarlar davrlar mobaynida berkitilib, xolisona bahosini topmadi. Mazkur maqoladagi tahlillar va yana boshqa tahlillarni ko'paytirib, maktab, oliy ta'lim darsliklariga kiritish, o'sib kelayotgan yosh avlodga shoirning xalqchil she'riyati bilan birga, falsafiy she'riyatini ham tanishtirish zarurdir.

9. Janos Eckmann. Harezmi, kipchak ve cagatay turkcesi uzerine arastirmalar. Ankara, 1996, B-209.

10. Ҳамдамов. У. Ҳамза ва янги ўзбек адабиёти. / Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти. (Нашрга тайёрловчи З.Қобилова). – Фарғона, 2019. –Б. 91.

11. Пардаев Қ. Муқимий шеърляти: матн тарихи, таҳрири ва талқини. Монография. –Тошкент. Мухаррир, 2019. –Б.29.

12. Муқимий. Тўла асарлар тўплами. (Нашрга тайёрловчи: Турдалиев А.). –Тошкент: Иқтисодиёт, 2021. –362.

13. Чўлпон. Ватанимиз Туркистонда темир йўллар. // Садои Фарғона, 1914 йил 6 июнь, № 26

14. Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Ф.ф.д. дис. - Тошкент: 2004. –287.

- Қаюмов. П. Тазкираи Қаюмий. -Тошкент: Қўлғезмалар институти, 1998. 210.



O'RTA SINIF O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILI DARSLARIDA LUG'AT VA GRAMMATIKANI O'RGATISHDA NEYRON TARMOQLARNING QO'LLANILISHI

Begmatov Aziz Tursunbayevich

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Email: abegmatov@kokanduni.uz

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil

Jurnal soni: 14

Maqola raqami: 43

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1156>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

sun'iy intellekt, neyron tarmoqlar, ingliz tili ta'limi, lug'at o'rgatish, grammatika, raqamli ta'lim.

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot o'rta sinf o'quvchilariga ingliz tili darslarida lug'at va grammatikani o'rgatishda neyron tarmoqlarning qo'llanilishiga bag'ishlangan. Zamonaviy sun'iy intellekt texnologiyalari, xususan, neyron tarmoqlarning ta'lim jarayonida qo'llanishi til o'rganish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda lug'at boyligini kengaytirish, grammatikani interaktiv tarzda o'zlashtirish va o'quvchilarning individual xususiyatlariga moslashgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Neyron tarmoqlar asosida ishlaydigan ilovalar va platformalar orqali o'quvchilarning bilim darajasini baholash, tahlil qilish va shaxsiylashtirilgan o'quv materiallarini taqdim etish mexanizmlari o'rganiladi. Tadqiqot natijalari ingliz tili ta'limini raqamlashtirishga hissa qo'shib, o'qituvchilarga yangi texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etishda metodik tavsiyalar beradi.

Kirish. Hozirgi kunda sun'iy intellekt va neyron tarmoqlar texnologiyalari ta'lim jarayoniga faol integratsiya qilinmoqda. Xususan, ingliz tilini o'qitishda zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga yordam bermoqda. Ayniqsa, o'rta sinf o'quvchilari uchun lug'at boyligini oshirish va grammatikani o'rgatishda neyron tarmoqlarning imkoniyatlari juda keng. An'anaviy dars usullari ko'pincha yodlash va takrorlashga asoslangan bo'lib, bu jarayon o'quvchilar uchun qiziqarli jihatidan sust bo'lishi mumkin. Neyron tarmoqlar esa individual yondashuv, interaktiv mashg'ulotlar va real vaqt rejimida fikr-mulohazalar berish orqali til o'rganish jarayonini yanada jonlantiradi. Sun'iy intellekt asosidagi dasturlar o'quvchilarning qiziqishlari va o'rganish sur'atiga mos keladigan mashqlarni taqdim etib, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Ushbu tadqiqotda o'rta sinf o'quvchilariga ingliz tili darslarida lug'at va grammatikani o'rgatishda neyron tarmoqlarning qo'llanilishi, ularning samaradorligi va ta'lim jarayoniga ta'siri o'rganiladi. Neyron tarmoqlar yordamida so'z yodlashni osonlashtirish, grammatikani tushuntirishning yangi usullarini qo'llash va o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Kelajakda ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi natijasida o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos keluvchi o'qitish uslublari paydo bo'lishi kutilmoqda. Aynan shu sababli, ushbu mavzu bugungi kunda dolzarb bo'lib, ta'lim sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etish va ularning natijalarini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

В теории текста – типовая функция лица (предмета) в повествовании. Соотношения актантов образуют *актантную модель* повествования.

То же, что агент.

- Т е н ь е р Л., Основы структурного синтаксиса, пер. с франц., М., 1988;

G r e i m a s А. J., Sémantique structurale: recherche de méthode, P., 1966¹⁸.

Yuqorida keltirilgan lugʻat maqolasidan maʼlum boʻladiki, lingvistik termin – “aktant” bosh soʻz sifatida ajratilgan, uning etimologiyasi haqida maʼlumot keltirilgan (от лат. ago – привожу в движение, действую). Mikro strukturada eng katta qismni mazkur termin haqidagi ensiklopedik maʼlumot tashkil etadi. Eʼtibor berilish kerak boʻlgan jihat mazkur atamaning “til nazariyasi”dagi oʻrni alohida koʻrsatilib, terminning bu sohada tushunilishi alohida izohlangan. Mazkur lugʻat maqolasidagi medio struktura lugʻat maqolasi oxiridagi oхиridagi “То же, что агент” qismi tashkil qiladi. Demak, “aktant” termini haqida koʻproq maʼlumot olish uchun “agens” terminiga murojaat qilish kerak. Elektron ensiklopediyalarda bu yana ham oson: giper havola ustiga bosilganda, boshqa lugʻat maqolasiga oʻtiladi. Lugʻat maqolasi oxiridagi bibliografiya ham medio strukturaning tarkibiga kiradi. K oʻrinadiki, aksariyat lingvistikaga oid ensiklopediyalarda ensiklopedik tavsiflarning aksariyatida E.V.Juchkova taʼkidlagan tarkibiy qismlar mavjud.

МУНОКАМА

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, lingvistik atamalar tizimi murakkab va koʻp qatlamli tuzilishga ega. Har bir atama oʻzining semantik yuklamasi, struktur shakli va funksional xususiyati bilan ajralib turadi. N.M. Shanskiy va A.Hojiyev tomonidan ilgari surilgan nazariy asoslar atamalarni tahlil qilishda muhim metodologik poydevor boʻlib xizmat qildi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, koʻpgina lingvistik atamalar sinonimiya va polisemiya ega boʻlib, bu holat terminlarning aniq va yagona talqinini murakkablashtiradi. Ayniqsa, turli lingvistik maktablar va yondashuvlar bir atamaga turlicha

mazmun yuklaydi, bu esa terminologik tizimda izchillik muammosini yuzaga keltiradi. Shu sababli zamonaviy lingvistika uchun terminlarning standartlashuvi va ularning aniq tasnifi dolzarb vazifa boʻlib qolmoqda. Qolaversa, taqqoslamali tahlillar orqali atamalar oʻrtasidagi oʻxshashlik va tafovutlar aniqlandi, bu esa lingvistik konsepsiyalarni yanada mukammallashtirishga xizmat qiladi. Muhokama jarayonida aniqlangan natijalar lingvistik atamalar tizimini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari lingvistik atamalarni tavsiflash va tasniflash masalasida muayyan xulosalar chiqarishga imkon berdi. Avvalo, har bir lingvistik atama aniq semantik chegaraga ega boʻlishi va u oʻzaro sinonimik munosabatlarda aniqlikni taʼminlashi zarur. Atamalarining struktur va semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni yagona meʼyorga solish lingvistik terminologiyaning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Tadqiqotda taʼkidlab oʻtilganidek, mavjud terminlar oʻrtasidagi sinonimiya va polisemiyaning oldini olish uchun ularning izohlanishida bir xillik va aniq mezonlar boʻlishi lozim. Shuningdek, taqqoslamali tahlillar natijasida lingvistik atamalar tizimida mavjud boʻlgan tafovutlarni bartaraf etish va umumiy standartlarni ishlab chiqish zarurati koʻrsatib oʻtildi. Ushbu xulosalar kelgusida lingvistik lugʻatlarni tuzishda va ilmiy ishlar yozishda metodologik asos boʻlib xizmat qilishi mumkin. Umuman olganda, tadqiqot lingvistik atamalar tizimini yanada mukammallashtirish va ularni amaliyotga toʻgʻri tatbiq etish zarurligini koʻrsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. – М., 1972.
2. Адóнина О.Д., Сиренов Б.Д. Терминоведение и терминография. – М., 1988.
3. ғаниев А. Адабий тил нормалари ва услуб. – Тошкент, 1980.
4. Аҳмедов А. Хозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1976.
5. Радбил Ш. Очерки по лексикологии современного узбекского языка. – Ташкент, 1963.
6. Каюмов А. Лексикология ва фразеология. – Т., 1976.
7. Мадрaxимов Н.М. Лингвистик атамаларнинг таснифи ва услубий хусусиятлари. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2004.
8. Ҳожиёв А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўқитувчи, 1987.
9. Шарипов Х. Лексикология масалалари. – Т., 1987.
10. Назаров С.Н., Юсупов Ш.С. Ўзбек тилининг умумий лексикологияси. – Т., 2006.

¹⁸ [http://tapemark.narod.ru/les/022c.html\(murojaat\)](http://tapemark.narod.ru/les/022c.html(murojaat)) sanasi 12.12.2023)



YOZUVCHILAR IJODINI TANITISH ORQALI ADABIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH

(Isajon Sulton asarlari misolida)

Ergasheva Sug'diyona

Qo'qon universiteti tayanch doktoranti

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 45 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1158 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS adabiy turizm, SWF, GOLDEN WORD, raqamli texnologiya, kontent marketing, virtual sayohat, tarjimashunoslik, adabiy tarjima.	Maqolada adabiy turizm va uning turizm sohasida tutgan o'rni, yozuvchilarning ijodini tanitish orqali rivojlantirish yo'llari, sayyohlarga yaratilayotgan qulayliklar, global adabiy festivallar tashkil etish, innovatsion texnologiyalar va raqamli marketingdan foydalanish usullari, tarjimashunoslik sohasidagi yangiliklar va uning adabiy turizm rivojlanishida turgan o'rni haqida ma'lumot beriladi.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida turli madaniyatlarni o'rganish va tanishtirish usullari sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Adabiy turizm eng muhim va zamonaviy yo'nalishlardan biri bo'lib, yozuvchilarning ijodiy merosi orqali madaniy almashinuvga yangicha nuqtai nazardan yondashadi, uning asosiy maqsadi yozuvchilar, she'riyat va adabiy meros bilan chambarchas bog'langan joylarni ziyorat qilish orqali sayyohlarni ularga bo'lgan qiziqishini oshirishdir.

Adabiy turizm klassik sayohatlardan farq qiladi u faqatgina yozuvchilarning tug'ilgan joylari va yashagan uylari, mashhur adabiy asarlar yozilgan manzillar yozuvchilarning uy muzeylari, tarixiy adabiy obyektlarni sayr qilish emas, balki yozuvchilarning ichki dunyosiga sayohat qilishdir. Adabiy turizm sayyohga oddiy sayohatdan ko'ra yangi madaniyatlar haqida atroflicha ma'lumot olish, ularning o'ziga xos jihatlarni tushunish, tarixiy shaxslar va ijodkorlarning hayot yo'lini o'rganish, dunyoqarashni kengaytirish, asarlarning geografik va tarixiy kontekstini his qilish va eng asosiysi insoniy qadriyatlarini chuqurroq anglab yetish va yozuvchilarning ijodiy dunyosiga kirib borish kabi keng imkoniyatlar, noyob va qimmatli tajribalar beradi.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda davlatimiz rahbari boshchiligidagi turizm sohasida yirik islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, viza rejimi soddalashtirildi, ayni paytda 93 dan ortiq xorijiy davlat fuqarolari uchun vizasiz kirish, 56 ta davlat uchun elektron kirish vizasi, 47 davlat uchun besh kunlik tranzit vizasiz kirish, shuningdek, 76 davlat uchun turistik viza berishning yengillashtirilgan tartibi belgilandi. Markaziy Osiyo davlatlarining madaniy merosini bir-biriga o'zaro bog'liq sifatida targ'ib qilish bo'yicha tashabbusga asosan UNESCOning "Xiva deklaratsiyasi" qabul qilindi. Islom hamkorlik tashkiloti tomonidan Xiva 2024-yil "Islom dunyosining turizm poytaxti" deb e'lon qilindi.[1, <https://kun.uz/news/2023/10/16/ozbekistonda-turizm-sohasi-2017-2023-yillarda-islohotlar-qanday-natijalarga-olib-keldi>] 2023-yil turkiy davlatlar tashkilotining Turizm vazirlarining yig'ilishida Qo'qon shahriga "Ilk turizm poytaxti" nomi berildi. Mamlakatimizga tashrif buyurayotgan sayyohlar soni ham kundan kunga ortib bormoqda. Joriy yilning boshida Yamanning Hardamawt axborot agentligi O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish istiqbollarga bag'ishlangan maqolani e'lon qildi. Unda ta'kidlanishicha, O'zbekiston Turizm qo'mitasi 2025-yilda mamlakatga 12 million xorijiy sayyoh kelishi prognoz qilinmoqda. Shu xususda **BBC Travel** global media portal ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 2025-yilda sayohat qilish uchun eng yaxshi 25 ta yo'nalish ro'yxatiga kirdi. Maqolada ta'kidlanishicha, turizm O'zbekistonning o'ziga xos an'analari va madaniy me'rosini saqlash strategiyasining muhim qismiga aylanib bormoqda. Mamlakat infratuzilmani jadal rivojlantirmoqda, yangi mehmonxonalar, yuqori tezlikdagi temir yo'l mashrutlari, ichki aviareyslar va yangilangan madaniy diqqatga sazovor joylar sayohatchilar uchun betakror imkoniyatlarni yaratmoqda. 90 dan ortiq mamlakatning, jumladan Buyuk Britaniya, Kanada va Avstraliya fuqarolari O'zbekistonga vizasiz tashrif byurishlari mumkinligi sayohatni sezilarli darajada osonlashtiradi va sayyohlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi, deyiladi xabarda.[2, <https://wah.news/pages/1>]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada adabiy turizmni rivojlantirishda zamonaviy yozuvchilarning, xususan, Isajon Sulton ijodining ahamiyati madaniyatshunoslik, adabiyotshunoslik va turizm

sohalari kesimida tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy-kultural tahlil, badiiy matn tahlili va komparativ yondashuvlar asosiy metod sifatida qo'llanilgan. Shuningdek, yozuvchining asarlari asosida yaratilgan turistik marshrutlar, adabiy festival va uchrashuvlarning adabiy turizmga ta'siri empirik dalillar bilan asoslanadi. Isajon Sultonning tarix, she'riyat va zamonaviylikni uyg'unlashtirgan asarlari orqali adabiy merosni targ'ib qilish imkoniyatlari yoritiladi.

Tadqiqot natijalari. Adabiy turizm madaniy merosni saqlash, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va xalqaro miqyosda tanilish uchun katta imkoniyatga ega. Adabiy festivallarni tashkillash va xalqaro hamkorlikdan foydalanish bu sohani yangi bosqichlarga olib chiqadi.

Yuqorida ta'kidlangan, amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay yozuvchilarning ijodini tanitish orqali adabiy turizmni rivojlantirish to'liq shakllanmagan.

Quyidagi omillar adabiy turizm rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi:

- uning asosan lokal sayyohlar uchun mo'ljallanganligi,
- marketing strategiyasining zaifligi,
- raqamli texnologiyalardan yetarli darajada foydalanmaslik,
- Adabiy festivallarni aniq va izchil rejaiga asoslangan holda tashkillamaslik;

Tarjimashunoslik sohasidagi ayrim kamchiliklar:

- xalqaro tarjima muassasalari bilan cheklangan a'loqalar,
- xalqaro nashriyotlarda o'zbek adabiyotiga qiziqishning pastligi,
- yurtimizda badiiy asarlarni chet tiliga mukammal tarjima qila oladigan professional tarjimashunoslarning yetishmasligi,
- zamonaviy o'zbek adabiyotining jahon tillariga yetarli darajada tanitilmasligi,
- milliy kolorit va madaniy kontekstni saqlab qolish qiyinchiligi,
- o'zbek tilidagi o'ziga xos iboralar va tushunchalarni boshqa tillarga to'g'ri tarjima qilishdagi muammolar.

Yozuvchilar ijodini tanitish orqali adabiy turizmni rivojlantirishning quyidagi yo'llar bilan amalga oshirish mumkin:

1. Global adabiy festival va forumlarni tashkil etish lozim

Xalqaro darajada yozuvchilar ijodiga bag'ishlangan adabiy festival, seminar va konferensiyalar tashkil etish, bu tadbirlarda yozuvchilarning badiiy asarlariga oid muhokama va sharhlar olib borish turli millat yozuvchilarini bir-biriga yaqinlashtiradi, madaniy almashinuvni kengaytirishga yordam beradi. Bunga misol tariqasida 2011-yildan buyon Singapurda o'tkazib kelinayotgan Singapur Writers Festival (SWF) ni keltirish mumkin. Singapur Yozuvchilar Festivali Singapur Milliy San'at Kengashining tashabbusi bilan tashkil etiladigan muhim adabiy tadbir hisoblanadi. 1986-yilda tashkil etilgan festival Singapur va Osiyo adabiyotini xalqaro miqyosda targ'ib qilish, shuningdek global yozuvchilarni singapurliklarga tanishtirish maqsadida o'tkaziladi. U dunyodagi kam sonli va ko'p tili adabiy festivallardan biri bo'lib, Singapurning rasmiy tillarida – ingliz, malay, xitoy va tamil tillarida olib boriladi.

Bu festivalning asosiy belgilari:

- Ko'p tili yo'nalish: SWF Singapur madaniy xilma xilligini aks ettiruvchi ko'p tili adabiyotni ta'kidlaydi.

- Mahalliy va xalqaro ishtirok: Festivalda mashhur singapurlik yozuvchilar masalan, Meira Chand va Cyril Wong, xalqaro yulduzlar qatorida esa Neil Gaiman va Michael Chabon ishtirok etadi

- Yillik tadbir: 2011-yildan buyon festival har yili o'tkazilib kelinmoqda va minglab ishtirokchilarni jalb qiladi. Unda o'qishlar, seminarlar, yozuvchilar uyiga ekskursiyalar, diskussiyalar va spektakllar bo'lib o'tadi.

Festivalda shuningdek, **Golden Point Award** (Oltin Nuqta Mukofoti) taqdim etiladi. Bu Singapurning rasmiy tillarida she'r va qisqa hikoyalar uchun milliy tanlovdir. U yangi adabiy iste'dodlarni ochish va kelajakdagi yozuvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida o'tkaziladi. Ushbu festival har yili turli xil mavzularga bag'ishlanadi. Masalan, 2024-yil 8-noyabrda 17-noyabrgacha bo'lib o'tgan festivalning mavzusi **"In our nature"** (Tabiatimizda) bo'lib, insonning tabiat bilan aloqasiga qaratildi. 2025-yil uchun ushbu festivalni tashkillash 7-noyabrda 16-noyabrgacha rejalashtirilgan. Festivalning mavzusi **"Shape of to Things Come"** (Kelajakning Shakli). SWF adabiyotga bo'lgan mehrni rivojlantirish va madaniy almashinuvni qo'llab quvvatlash uchun muhim platforma bo'lib qolmoqda.[3, <https://www.futuremarketinsights.com/reports/literary-tourism-sector-outlook>]

Mamlakatimizda ham Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-apreldagi 338-sonli "Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini kompleks rivojlantirish, jumladan, tog'li hududlarda ekologik turizmini rivojlantirish yuzasida chora-tadbirlar dasturi"da 2019- yil 9-maydan boshlab har yili Abdulla Oripov xotirasiga bag'ishlangan **Golden Word** xalqaro adabiyot festivalini o'tkazish vazifasi belgilangan edi. Dastur ijrosini ta'minlash, O'zbekiston Qahramoni, madhiyamiz muallifi Abdulla Oripov xotirasini abadiylashtirish, Shahrisabzni "Festival shahri"ga aylantirish maqsadida 2019-yil 8-9 may kunlari Qarshi va Shahrisabz shaharlarida " Oltin so'z" I xalqaro adabiyot festivali o'tkazilgan. Festivalda dunyoning turli mamlakatlaridan shoirlar, yozuvchilar hamda jurnalistlar ishtirok etgan, festival doirasida Qarshi shahridagi Abdulla Oripov nomidagi ona tili va adabiyoti fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashgan maktab internatida adabiy uchrashuv o'tkazilgan, Qarshi va Shahrisabz shahridagi tarixiy-madaniy maskanlarga, G'uzor tumanidagi "Tohir-Zuhro" majmuasiga tashrif, mushoiralar tashkil etilgan. 2020-yilning 19-20-dekabr kunlari "Oltin so'z" II xalqaro adabiy festival pandemiya sababli virtual formatda o'tkazilgan. Unda dunyoning 50 ta mamlakatdan 200 nafardan ortiq ijodkorlar ishtirok etishgan. Osiyo-Afrika, Yevropa-Amerika ijodkorlari ingliz tilida, hind, turk, ispan, o'zbek, italyan shoirlari o'z tillarida seksiyalar tashkil etishgan.[4, <https://daryo.uz/k/2019/05/07/ozbekistonda-abdulla-oripov-xotirasiga-bagishlangan-oltin-soz-xalqaro-adabiyot-festivali-otkaziladi>] Biroq qarorga muvofiq har yili o'tkazilishi lozim bo'lgan "Oltin so'z" xalqaro adabiy festivali 2021-yildan buyon tashkillanmay kelmoqda. Bu esa madaniy tadbirning davomiylikka ega bo'lishi uchun zaruriy choralar ko'rilmaganligi va davlatning madaniy siyosatidagi kamchiliklarini ko'rsatadi.

Yana bir misol tariqasida 2022-yil sentyabrida Toshkent va Buxoro shaharlarida o'tkazilishi rejalashtirilgan **"Buyuk ipak yo'lidagi adabiy festivali" (Silk Road Lit Fest)** to'xtatilgan. Xususan, O'zAda e'lon qilingan maqolada ushbu xalqaro festival Yozuvchilar uyushmasi, Tashqi ishlar hamda Turizm va madaniy meros vazirliklari, mamlakatning Londondagi elchixonasi va "Buyuk ipak yo'lidagi adabiy festival" ma'muriyati hamkorligida o'tkazilishi qayd etilgan. O'zAga intervyu bergan Yozuvchilar uyushmasi Xalqaro aloqalar va badiiy tarjima bo'limi raisi Rustam Musurmonning aytishicha, 2021-yilda O'zbekistonning Buyuk Britaniyadagi turizm brendi elchisi **Sofi Ibbotson** uyushmaga mazkur festivalni o'tkazish taklifi bilan murojaat qilgan. Festival direktori hisoblangan Sofi Ibbotson O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi bilan kelishgan holda tadbir dasturini ishlab chiqqan. Hatto ishtirokchilar ro'yhati ham shakllantirilgan. Bu xalqaro adabiy festival doirasida yigirmadan ortiq tadbirlar: adabiy munozaralar yangi kitoblarni taqdimoti, dolzarb adabiy mavzulardagi seminarlar o'tkazilishi, festival badiiy tarjima, o'zbek adabiy an'analari, o'zbek mualliflarining asarlarini Yevropa nashrlarida chop etish, zamonaviy sharoitlarda noshirlik biznesini rivojlantirish kabi masalalarni qamrab olishi rejalashtirilgan edi. Festivalni Buyuk Britaniya tomonidan tashkil etishda **"Shute Festival"** adabiy festivali ma'muriyati, Osiyo adabiy agentligi, Osiyo ishlari bo'yicha Qirollik jamiyati Britaniya kengashi ishtirok etishi belgilangan. Shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasi tarixi va madaniyatiga oid asarlar chop etgan xorijlik yozuvchilar, nashrlar,

adabiy agentliklar va kitob sotuvchilari, o'zbek yozuvchilari va shoirlari ishtiroki kutilayotgani ta'kidlangan. Jumladan, Britaniya tomoni ma'ruzachilari sifatida taniqli tarixchi olimlar – **Uilyam Dalrimpl, Piter Frankopan**, O'zbekistonga oid kitoblarni muallifi **Kerolayn Iden** qatnashishi rejalashtirilgan. Biroq, tadbirga oz vaqt qolganda Yozuvchilar uyushmasi hamkorlik qilish fikridan qaytgan.[4, <https://oyina.uz/uz/article/949>] Bunga sabab esa **birinchidan**, tashabbuskorlar taqdim etgan ilk dastur loyihasida o'zbek adabiyotiga aloqasi bo'lmagan masalalarni asosiy o'rinni egallagani. Masalan, "Madaniy repatriatsiya va o'tmishni xisobga olish", "O'rta Osiyoda arxeologiyani nima kutmoqda", "Sayohatlar haqida maktub", "Botanik san'at", "Nikita Makarenko bilan uchrashuv"; **ikkinchidan**, Yozuvchilar uyushmasi tomonidan taklif qilingan dasturda ko'rsatilgan: "She'riyat va makon" (o'zbek she'riyatining bugungi kuni haqida suhbat. Moderator: O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim), "Abdulla Qodiriy uy-muzeyida yozuvchi Xurshid Davron bilan suhbat", "XXI asr Britaniya va o'zbek nasri: avangard va an'anaviylik" (Moderator: O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sulton), "Adabiyot va kino: badiiy asarni ekranga ko'chirilishi. Erkin A'zam va britaniyalik ma'ruzachi ishtirokida adabiy suhbat" kabi mavzularning tashabbuskorlar tomonidan ayrimlarinigina qabul etilishi; **uchinchidan**, Yozuvchilar uyushmasi tomonidan 2021-yil ohirida 10 nafar xorijlik mehmonga mo'ljallab smeta hujjatlari tashkillanganligi va tegishli mablag'lar ajratilganligi, biroq 2022-yil may oyida tashabbuskorlar 36 kishidan iborat ro'yxatni uyushmaga taqdim etganligi; **to'rtinchidan**, bo'lib o'tgan adabiy tanlovga S.Ibbotson adabiy tanlov hakamlariga O'zbekiston tomonidan vakil qabul qilinmasligini aytishi; **beshtinchidan**, festival dasturida Yozuvchilar uyushmasi tomonidan istalgan Osiyo adabiy agentligi va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o'rtasida muzokaralarga mutlaqo vaqt ajratilmaganligi; **oltinchidan**, Abdulla Qodiriy uy-muzeyida taniqli yozuvchi Xurshid Davron bilan o'tadigan adabiy suhbat o'rniga konsert dasturini uyushtirish g'oyasini tashabbuskorlar tomonidan berilishi va bir qator boshqa talab va takliflarning rad etilishidir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo'lsak, Yozuvchilar uyushmasi zimmasiga faqat festivalni tashkillash va moliyalashtirish vazifalarini yuklatilishi, o'zbek adabiyotini xorijliklarga ko'proq tanitish imkoniyatining kamligi uyushma e'tiroziga sabab bo'lgan. Yozuvchilar uyushmasi adabiyotga an'anaviy nigoh bilan qaragan bo'lsa, narigi taraf adabiyotni kattaroq kontekstga joylashni shu orqali festivalni madaniyat va turizm tadbiriga aylantirishni istagan. Va bu masala mavhumligicha qolgan. Aslida buning zamiridagi g'arbiy qarashlar va yondashuvlardagi o'zaro tushunmovchilikdir. Bugun rivojlanish jihatdan eng orta qolgan Afrika adabiy festivallarni o'tkazish an'anaga aylanib borayotgan bir paytda boy adabiy merosi va kundan kunga rivojlanib, sayqallanib borayotgan zamonaviy adabiyotga ega bo'lgan O'zbekistonda yuqoridagi kabi holatlarni sodir bo'lishi va bu kabi katta mashtabni qamrab olgan adabiy tadbirlarni o'tkazilmasligi nafaqat adabiyot sohasi balki turizm sohasi uchun katta yo'qotishlardan biri deb bilaman. Chunki, bunday festivallarning o'tkazilishi natijasida yozuvchi va shoirlarimiz asarlari uchun Yevropa nashrlariga kengroq yo'l ochiladi, bu orqali xorijiy kitobxonlarni yurtimizning boy adabiy va madaniy an'analari bilan tanishtirish, qiziqitirishga keng imkoniyat yaratadi. Adabiyotni turizm orqali, turizmni adabiyot orqali targ'ib qilish bugungi kunda dunyodagi eng zamonaviy usullardan biridir. Bu usul orqali adabiyot va turizm o'zaro bog'liq holda rivojlanadi.

2. Innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish

Texnologiyalar taraqqiy etgani sari insoniyatga kundan kunga keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalangan holda yozuvchilar haqida virtual turlar, audiovisual materiallar, interaktiv multimedia kontentlar yaratish; virtual kutubxonalar tashkillash, mashhur yozuvchilar va ularning ijodi haqida jahon tillarida elektron platformalar yaratish, ularning ijodiy merosini raqamli platformaga o'tkazish, jahon auditoriyasiga bag'ishlangan ochiq resurslarni shakllantirish; yozuvchilar marshrutlari bo'yicha mabil ilovalar, interaktiv xaritalar hamda sayohat qiluvchilar uchun navigatsiya tizimini yaratish; ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalangan holda yozuvchilar ijodini keng tarqatish, badiiy asarlardan yangi avlodga qiziqarli va ibratli kontentlar yaratish, podkastlar, video-suhbatalar, multimedia loyihalarini tayyorlash lozim. Bularni amalga oshirish uchun davlat va xususiy sektorlar hamkorligi, qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish, adabiy turizm loyihalarini moliyalashtirish, grantlar va imtiyozlar tizimi, innovatsion loyihalarni rag'batlantirish lozim. Adabiy turizmni rivojlantirish faqat turizm sohasi emas, balki mamlakatning madaniy diplomatiyasini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishi hamdir.

3. Raqamli marketing xizmatlarini amalga oshirish

Hozirgi jamiyat rivojlanishining shunday bosqichida turibdiki, bu bosqichda yangi axborot texnologiyalarning tez tarqalish jarayoni va shu jarayon ta'sirida ijtimoiy iqtisodiy hayotning ko'plab jabhalarida o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Global axborot va kommunikativ texnologiyalarning rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan elektron muhitning mavjudligi va shu muhitning afzalliklaridan foydalangan holda raqamli marketing strategiyalarini ishlab chiqish va foydalanish lozim. Masalan, QR kodlar orqali adabiy meros haqida ma'lumot olish va Raqamli marketing orqali adabiy turizmni targ'ib qilish samaradorligini oshirish mumkin. Kontent marketingi va hikoya yaratish usullari turistlarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. **Kontent marketingi** – bu ishonchni qozonish va potentsial mijozlarni jalb qilish, iste'molchilar uchun foydali ma'lumotlarni yaratish yoki tarqatishga asoslangan marketing usullari to'plami. Kontent marketing to'g'ridan to'g'ri reklama emas, balki bilvosita auditoriyani ishonitiradigan yuqori sifatli, dolzarb va qimmatli ma'lumotlarni tayyorlash va tarqatishni o'z ichiga oladi.[6,78]

4. Yosh avlodga adabiy merosga nisbatan qiziqishini uyg'otish

Adabiy meros yoshlar xarakterini shakllantirishda, milliy qadriyatlarimizni, tarix va madaniyatimizni tushuntirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, adabiyot millatning ma'naviyatini ta'minlaydigan omil bo'lib, ularni vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida haftaning har juma kuni o'tkaziladigan ma'naviyat soatlarida adabiy turizm bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish va albatta adabiy ekskursiyalar va sayohatlar tashkil etish lozim. Chunki, dono xalqimizning hikmatli gaplari bo'la "Ming marotaba eshitgandan, bir marotaba ko'rgan afzaldir". Darhaqiqat, bunday sayohatlarning tashkillanishi, o'quvchi yoshlarning sevimli yozuvchilari yashagan, ijod qilgan joylarini o'z ko'zlari bilan ko'rishi, zamonamizning mashhur yozuvchilari hamda shoirlari bilan o'tkaziladigan adabiy uchrashuvlar qalblarida adabiyotga bo'lgan muhabbatni yanada oshirishga, badiiy asarlar mohiyatini teran anglab yetishiga, his etishiga turtki bo'ladi. Katta taassurot bilan qaytgan o'quvchi shubhasiz bu sevinchini oila a'zolari bilan bo'lishishi tabiiy. Natijada nafaqat o'quvchida balki uning oilasida ham adabiy meroslarga nisbatan hurmat va qadr tuyg'usi shakllana boshlaydi. Va bu ichki adabiy turizmni rivojlanishiga ham sabab bo'ladi.

Tarjimashunoslikning adabiy turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati

Bugungi kunda jahon miqyosida tarjimaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xalqaro aloqalari rivojlangan mamlakatlar uchun tarjima xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj tabiiy holdir. Tarjima turli xalqlarni iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy nuqtai nazaridan birlashtiruvchi hamda davlatlararo munosabatlarni mustahkamlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shu boisdan tarjima faoliyatini turli xalqlarni yaqinlashtiruvchi ko'priklarni deb ta'riflash mumkin. Tarjima azaldan insoniyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va ma'rifiy hayotida muhim rol o'ynab kelgan. Qadim zamonlardan boshlab tarjima jarayoni turli xalqlar o'rtasidagi siyosiy-iqtisodiy aloqalarni o'rnatishda, millatlararo adabiy hamkorlikni rivojlantirishda mustahkam poydevor vazifasini o'tagan. Tarjima insoniyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biridir. Hozirgi kunda tarjima milliy adabiyotni boyitish, ma'naviy qadriyatlar va g'oyalarni almashish vositasi deb qaraladi, tarjimon esa haqiqiy ijodkor adib sifatida e'tirof etiladi. Shu sababdan adabiy turizmni xalqaro miqyosda yozuvchilarning ijodini tanitish orqali rivojlantirishda tarjimashunoslik sohasi katta ahamiyat kasb etadi.

XX asrda tarjima sohalarida qilingan rang-barang ishlar tarix bo'lib qoldi. Bu asr o'zbek tarjimonlarining aksariyati badiiy ijodkorlik bilan shug'ullanuvchi adib, shoir, dramaturg, jurnalist, tarjimonlar edi. XX asrning boshida Maxmudxo'ja Behbudiy bizning ma'rifiy-madaniy dasturimiz sifatida O'zbekiston yoshlari to'rt tilni bilmaklari lozim. Bu bizning dunyo zamonaviy madaniyati va ilm-fanini egallashimizga, dunyoda o'z o'rnimizga ega bo'lishimizga, ilg'or millatlar qatoridan o'rin olishimizga xizmat qiladi, degan g'oyani ko'tarib chiqdi va butun kuch-g'ayrati bilan shu oliyanob g'oyani amalga oshirishga intildi. XX asr madaniyatida yorqin iz qoldirgan bizning adib, shoir va tarjimonlarimiz Abdulla Qodiriy, Cholpon, Oybek, G'afur G'ulom, Uyg'un, Usmon Nosir, Abdulla Qahhor, Maqsd Shayxzoda, Mirtemir, Zulfiya, Sidqi Xundayliqiy, Mirkarim Osim, Mirzakalon Ismoiliy, Hamid G'ulom, Nabi va Abdurahmon Alimuhammedov Behbudiyning idealiga javob beradigan to'rt tili tarjimon edilar. O'tgan asrda O'zbekistonda Sharq tillaridan o'zbek tiliga tarjima qiluvchi ulkan olim, ulamo tarjimonlar otryadi maydonga chiqib arabshunos, urdushunos, forsshunos, turkshunos allomalardan Ubaydulla Karimov, Abdulfattoh Rasulov, Abduqodir Murodov, Shoislom Shomammedov, Chustiy, Abdulla Nosirov, Ashraf Ahmedov, Anisiy, Xurshid, tarjimashunoslik maktabi asoschisi G'aybullay Salomov singari fozil tarjimonlar asrlar qarida bizga sirlarini ochmay

yotgan Farg'oniy, Xorazmiy, Zamaxshariy, Ibn Sino, Beruniy, Xayyom, Xofiz, Sa'diy asarlari bilan o'z ona tilimizda tanishish imkonini berdilar.[7,14] Yuqorida keltirilgan tarjimon olimlarimizning say-harakatlari tufayli Yevropa adabiyoti: Shekspir asarlari ("Hamlet", "Otello", "Qiroli Lir"), Gyote ("Faust"), Tolstoy ("Urush va tinchlik", "Anna Karenina"), Dostoyevskiy ("Jinoyat va jazo"), Chexovning birqancha hikoyalari; Zamonaviy jahon adabiyoti durdonalari: Gabriel Garsia Markes ("Yolg'izlikning yuz yili"), Ernest Hemingvay ("Alvido Qurol", "Chol va dengiz"), Jorj Oruell ("1984"), Kafka ("Jarayon"); Sharq adabiyotidan: Firdavsiy ("Shohnoma"), Umar Hayyom ruboiylari, Hofiz g'azallari, Sa'diy ("Guliston", "Bo'ston") kabi jahon adabiyoti va madaniyatining nodir namunalari bilan o'z tilimizda tanishish adabiy dunyoqarashimizni kengaytirish, boshqa xalqlarning tarixi, madaniyati va qadriyatlarini o'rganish va dunyoga yangi ko'z bilan qarash imkonini berdi. O'zbek tiliga tarjima qilingan jahon adabiyoti asarlari salmog'i olti yuzdan oshadi. Bugun o'zbek kitobxoni bu asarlarni sevimli mutolaa qilmoqda.

Ma'lumki, o'zbek adabiyotining sara namunalari jahonning ko'plab tillariga tarjima qilingan. XX asrda yashagan Abdulla Qodiriy, Oybek, Primqul Qodirov, Odil Yoqubov kabilarining asarlari rus tilida jaranglagan.[8,97] Eng ko'p tarjima qilingan o'zbek adabiyoti namunalari: Alisher Navoiy asarlari – Navoiyning "Xamsa", "Lison ut-tayr", "Mahbub ul-qulub" kabi asarlari ingliz, nemis, fransuz, rus, turk tillariga; Abdulla Qodiriy romanlari – "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" asarlari rus, ingliz, nemis, fransuz, turk; Oybek asarlari – "Qutlug' qon", "Navoiy" kabi asarlari rus, ingliz; G'afur G'ulom asarlari – "Shum bola" va boshqa hikoyalari rus, ingliz, nemis; Abdulla Qahhor asarlari – "Dahshat", "Sinchalak" kabi asarlari rus, ingliz, nemis; Odil Yoqubov – "Ulug'bek xazinasi" va "Ko'hna dunyo" romanlari rus, ingliz; Erkin Vohidov va Abdulla Oripov she'riyati rus, – ingliz; Tohir Malikning "Shaytanat" romani turk va rus; O'tkir Hoshimov asarlari – "Dunyoning ishlari", "Ikki eshik orasi" kabi asarlari rus, ingliz; Primqul Qodirov – "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni" romanlari rus, ingliz, turk; Said Ahmad – "Ufq" trilogiyasi va "Kelinlar qo'zg'oloni" asarlari rus, ingliz; Murod Muhammad Do'stning "Lolazor" romani turk, rus va boshqa tillarga tarjima qilingan.

So'nggi yillarda O'zbekistonda adabiy tarjima sohasiga katta e'tibor berilmoqda va yangi avlod yozuvchilarining asarlari ham chet tillarga tarjima qilinmoqda. Zamonaviy o'zbek adabiyotidan chet tillarga tarjima qilingan asarlar: Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" romani, Erkin A'zamning "Shovqin" va boshqa hikoyalari, Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va "Isyon va itoat" romanlari, Jamol Kamolov va Muhammad Yusufning she'riy to'plamlari, Zulfiya Qurolboy qizining hikoyalari to'plami, Xurshid Do'stmuhammad hikoyalari, Shavkat Rahmon, Salomat Vafu, Usmon Azimning she'riy to'plamlari Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" va boshqa hikoyalari ingliz va rus tillarga tarjima qilingan.

Bu ro'yxatda zamonaviy o'zbek adabiyotining benazir yozuvchisi **Isajon Sulton** nomini alohida ta'kidlashni lozim deb bildim. Isajon Sultonning asarlari o'zining badiiy yuksak saviyasi, chuqur falsafiy mazmuni va betakror obrazlar tizimi bilan ajralib turadi. Yozuvchining asarlarida sharqona donishmandlik, sufiylik falsafasi va zamonaviy dunyoqarashlari uzviy bog'lanib ketgan. Isajon Sultonning asarlari nafaqat O'zbekistonda, balki xorijning bir qator mamlakatlarida ham e'tirof etilib yusak unvonlarga sazovor bo'lgan. Yozuvchi o'zbek adabiyotini xalqaro miqyosga olib chiqqan ijodkorlardan sanaladi. Masalan, 2011-yilda "Qismat" hikoyasi AQSHning Chikago shahrida chop etiladigan "Leksikon" adabiy jurnali tomonidan e'lon qilingan xalqaro tanlov g'olibi deb topilgan. 2014-yilda "Bog'i Eram" hikoyasi Turkiyaning Alaniya shahrida chiqadigan "Guncel Sanat" jurnalining xalqaro adabiy tanlovida g'olib deb topilgan. 2017-yilda "Shamolli kecha" hikoyasi B.B.Bianki nomidagi Rossiya-Belorusiya xalqaro adabiy tanlovining maxsus sovriniga sazovor bo'lgan. [9,379]

Keyingi yillarda hikoya va romanlari bilan kitobxonlar e'tiborini qozonayotgan Isajon Sulton asarlari turk kitobxonlarini ham befarq qoldirmayapti. Adib hikoyalari Turkiyaning markaziy jumalari chiqib etilgan. Shuningdek, o'quv qo'llanma va o'zbek adabiyotidan tuzilgan antologiyalardan joy olgan. Yozuvchi hikoyalari kitobxonlarga ziyrak tarjiymon, o'zbek madaniyati ixlosmandi Husayn Oqbo'sh bilan birgalikda kitob holida tarjima qilinadi. Tarjima qilingan hikoyalarni mas'ul muharrir Otaturk universiteti dotsenti, o'zbek adabiyoti va folklorining zahmatkash tadqiqotchisi Husayn Boydemirga yuboriladi. Husayn Boydemir nihoyatda sinchkovlik bilan tarjimani ko'zdan kechirib qiyoslaydi. Kitob shu tarzda jarayonlardan o'tib nashriyotga beriladi va Guncel Sanat jurnalining Baygen nashriyotida tanliq yozuvchi Arslan Bayir so'zboshisi bilan chop qilinadi. To'plamga yozuvchining 8 ta hikoyasi kiritilgan. "Shamolli kecha", "Bog'i Eram", "Mansub-1984", "Qo'riqchi" (M.Yo'ldoshev tarjimasi), "Farishta",

"TODD", "Sofiya" (Husayin Boydemir tarjimasini), "Qismat" (Isajon Sulton tarjimasini) [10,362]

Uning mashhur "Boqiy darbadar" , "Navoiy", "Beruniy", "Bilgaxoqon" kabi yigirmaga yaqin asarlari rus, ingliz, turk, ozarbayjon kitobxonalar tomonidan katta qiziqish bilan mutolaa qilinmoqda. Buni Isajon Sulton ijodi bo'yicha yozilgan ilmiy maqola, taqriz, adabiy suhbat va maktublar jamlangan "Yetuklik jozibasini" deb nomlangan toplamda keltirilgan xorijlik yozuvchi, tadqiqotchi va talabalarning yo'llagan maktublarida bitilgan fikr-mulohazalardan bilib olsak bo'ladi. Shulardan argentinalik yozuvchi **Viktoriya Kasersning** "Isajon Sulton bilan O'zbekistonga sayohat" nomli maqolasi e'tiborimni tortdi. Maqolada muallif "olti bosqichli tanishuv nazariyasi"ni adabiyot orqali bog'lanish imkoniyatlari bilan boyitib, o'zining o'zbek adabiyoti bilan tanishish yo'lini tasvirlaydi. Avval Borxesning "Marvlik Hakim" asari orqali O'zbekiston haqida dastlabki tasavvurga ega bo'lgan muallif, keyinchalik AQSHning Ayova shtatida tashkillangan xalqaro yozuvchilar dasturida o'zbek shoiri A'zam Obidov bilan uchrashib, uning orqali o'zbek madaniyati bilan yaqindan tanishadi. So'ngra yozuvchi Isajon Sulton bilan o'rnatilgan do'stlik tufayli o'zbek adabiyoti xususiyatlarini chuqurroq anglaydi va uning "Qismat" hikoyasidagi ramziylik, majoziylik kabi badiiy vositalarni tahlil qiladi. Maqola Argentina va O'zbekiston adabiyoti o'rtasida o'zaro aloqalar va madaniy ko'priklar qurish g'oyasi bilan yakunlanadi.[11/357] Yana bir AQSHning Michigan universiteti tadqiqotchisi **Kristofer Fortning** "Isajon Sulton va Postmodernizm" mavzusidagi maqolasida Isajon Sulton ijodining G'arb adabiy an'analari kontekstida tahlili amalga oshirilgan. Muallif yozuvchining asarlarini postmodernizm, indianist adabiyoti, magik realizm va postsovet adabiyoti nuqtai nazaridan o'rganadi. Tadqiqotchi I.Sulton ijodining o'ziga xosligini, uning postmodernistik elementlarni an'anaviy bayon uslubi bilan uyg'unlashtirish, inson va tabiat munosabatini tasavvufiy qarashlar asosida qayta anglash, globallashuvga nisbatan murakkab munosabatini ko'rsatadi. Maqolada "Boqiy darbadar" romani, "TODD", "Sofiya" va boshqa asarlar tahlili orqali yozuvchining badiiy kontseptsiyasi ochib berilgan. Tadqiqotchi Isajon Sulton ijodining betakrorligi – indianistik yondashuvning tasavvufiy g'oyalar bilan uyg'unlashuvida ekanligini

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://kun.uz/news/2023/10/16/ozbekistonda-turizm-sohasi-2017-2023-yillarda-islohotlar-qanday-natijalarga-olib-keldi>
2. <https://wah.news/pages/1>
3. <https://www.futuremarketinsights.com/reports/literary-tourism-sector-outlook>
4. <https://daryo.uz/k/2019/05/07/ozbekistonda-abdulla-oripov-xotirasiga-bagishlangan-oltin-soz-xalqaro-adabiyot-festivali-otkaziladi>
5. <https://oyina.uz/uz/article/949>
6. Bakirovna K. Z. The Rhythm of the Literary Impact. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 8(9), 2019.

ta'kidlaydi va uning asarlarini ingliz tiliga tarjima qilish istagini bildiradi.

Muhokama. Yuqorida keltirilgan maqolalardagi fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, tarjimashunoslik va xalqaro adabiy turizm o'rtasidagi aloqa muhim ahamiyatga ega bo'lgan mavzu sanaladi. Chunki, adabiy merosni xalqaro miqyosda tanitish bevosita milliy adabiyot namunalarini boshqa tillarga tarjima qilish orqali amalga oshiriladi. Bu esa o'z navbatida chet ellik kitobxonlarni o'sha adabiyot yaratilgan makonlarga tashrif buyurishga undaydi. Tarjima – ikki millat o'rtasida madaniy ko'priklar vazifasini bajaradi. Tarjima qilingan asarlar asosida o'tkaziladigan xalqaro adabiy anjumanlar, festivallarga xorijiy mehmonlarning tashrifi adabiy turizmning muhim qismidir. Tarjimashunoslik sohasini rivojlantirish orqali milliy adabiyotning jahon miqyosida tanilishi, o'z navbatida, iqtisodiy manfaat keltirish bilan birga, madaniyatlararo muloqotni ham kuchaytiradi.

Xulosa o'rni, yozuvchilar merosini tanitish yo'lidagi har qanday sa'y-harakatlar avvalo adabiy hamjamiyat, so'ngra mahalliy aholi va turizm industriasiga foyda keltiradi. Buning uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va mahalliy aholini jalb qilish muhimdir. Adabiy turizm madaniy qadriyatlarini targ'ib etishning eng samarali usuli bo'lib, yozuvchilar ijodi orqali milliy o'zlikni asrash uni dunyo miqyosida tanishtirishga xizmat qiladi. Adabiy turizm sohasini rivojlantirish uchun kompleks yondashuv, barqaror rivojlanish tamoyillari va xalqaro hamkorlik zarur. O'zbekiston madaniyati Markaziy Osiyo xalqlarining ko'p asrluk an'analari va turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq bo'y madaniy meros va tarixga ega bo'lgan mamlakatdir. Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashganligi, hududida ko'plab me'moriy yodgorliklari, qadimiy qal'a obidarlari, sirli hamda noyob tabiati, rang-barang afsonalarga boy xalq og'zaki ijodi namunalari va bebaho adabiyoti bilan jahon madaniyatda yetakchi mavqega ega. Biz kabi yoshlar oldida, O'zbekiston adabiy merosini xalqaro maydonlarda tanitish, adabiy an'analarni davom ettirish va o'zimizdan keying yosh avlodga uzatish, yozuvchilarni xotirasini abadiylashtirish kabi bir qator vazifalar turadi. Bularni amalga oshirishda adabiy turizm sohasida jahon standartlariga mos keladigan yangi innovatsion loyihalarni shakllantirish va bu harakatlarni rag'batlantirish lozim.

7. Qobilova Z., & Binnatova, A. SHARQ MUMTOZ ADABIYOTSHUNOSLIGIDA AN'ANA VA O'ZIGA XOSLIK MASALALARINING NAZARIY ASOSLARI. Interpretation and researches, 1(1), 2023.

8. Tursunova, N. FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(09), 2021.

9. Xurramov, O. Raqamli marketing. – Buxoro; 2021. 78 b.

10. G'afurov I. Tarjima san'ati – Toshkent; 2023. 14 b.

11. Nazarov B., Sattorova G., Qo'chqorova M. Isajon sulton nasri va badiiyati – Toshkent; 2017.



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA DIREKTIV NUTQIY AKTLARNI IFODALOVCHI VOSITALARNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK TADQIQI

G'opporova Nigoraxon Mo'minjon qizi

Qo'qon universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

nigoragofforova7@gmail.com

ORCID.ID 0009-0004-5685-6980

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 46 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1159 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS direktiv nutqiy aktlar, kommunikativ pragmatika, lingvistik vositalar, qiyosiy tahlil, madaniy omillar, ingliz tili, o'zbek tili.	Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida direktiv nutqiy aktlarning ifodalash usullari va ularning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Direktiv nutqiy aktlar muloqot jarayonida muhim rol o'ynab, so'zlovchi tomonidan tinglovchiga buyruq berish, tavsiya qilish, iltimos yoki majbur qilish kabi maqsadlarda ishlatiladi. Tadqiqotda ushbu nutqiy aktlarning grammatik, semantik va pragmatik jihatlarini qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi buyruq, iltimos, maslahat va taklif shakllari hamda ularning muloqotdagi o'rnini yoritiladi. Shuningdek, direktiv aktlarning madaniy va sotsiologik omillarga bog'liqligi tahlil qilinib, gapiruvchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy maqom, nutq sharoiti va kommunikativ maqsadlarning ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida direktiv aktlar ko'pincha yumshoq shakllarda qo'llanib, iltifot va diplomatik uslublariga asoslanadi. O'zbek tilida esa nutqiy aktlarning qo'llanilishi tinglovchining maqomiga bog'liq bo'lib, rasmiy va norasmiy shakllar turlicha qo'llaniladi. Ushbu farqlar tillararo pragmatik tahlil va tarjima jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda tilning kommunikativ funksiyalarini chuqur o'rganish, ayniqsa, nutqiy aktlar nazariyasini amaliy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Har qanday til – bu faqat ma'lumot yetkazish vositasi emas, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi kuchli vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonida direktiv nutqiy aktlar, ya'ni suhbatdoshga ta'sir o'tkazishga qaratilgan buyrug', iltimos, maslahat, ogohlantirish kabi shakllar muhim o'rin egallaydi.

Direktiv nutqiy aktlar har bir tilning lingvopragmatik xususiyatlarini, shu til vakillarining madaniy, ijtimoiy va psixologik xatti-harakatlarini aks ettiradi. Ingliz va o'zbek tillari bu borada muayyan farqlarga ega bo'lib, bu farqlar ayniqsa direktiv aktlarning ifodalanish shakllari, intonatsion vositalari hamda xushmuomalalik darajasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ingliz tilida direktiv aktlar ko'pincha bilvosita va muloyim uslubda ifodalansa, o'zbek tilida esa ijtimoiy maqom, yosh, vaziyatga bog'liq holda rasmiy va norasmiy shakllarda ifodalanadi.

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida direktiv nutqiy aktlarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot asosida har ikki tilning o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy omillar ta'siri, xushmuomalalik strategiyalari hamda bu aktlarning lingvistik ifoda vositalari taqqosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ikki til vakillarining muloqotdagi nutqiy strategiyalarini chuqurroq anglash, tarjima jarayonida yuzaga keladigan pragmatik noaniqliklarni kamaytirish hamda xorijiy til o'rgatish metodikasini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Nutqiy aktlar nazariyasi tilshunoslik va pragmatikaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonida qanday qilib so'zlar bilan harakatlarni amalga oshirish mumkinligini tushuntiradi. Bu nazariyaning asoschisi J. L. Ostin (1962)¹ o'zining "How to Do Things with Words" asarida nutqni uch turga ajratgan:

- Lokutiv akt – oddiy bayon yoki axborot yetkazish jarayoni (*Men derazani ochdim*).
- Illokutiv akt – so'zlovchining niyatini ifodalash (*Derazani och!* – buyruq, iltimos yoki maslahat sifatida qabul qilinishi mumkin).
- Perlokutiv akt – nutqning tinglovchiga ko'rsatgan real ta'siri (*Deraza ochildi* yoki *tinglovchi javob qaytardi*).

Keyinchalik J. R. Searle (1969)² ushbu tamoyillarni kengaytirib, nutqiy aktlarni tasniflagan va direktiv aktlarni alohida toifaga ajratgan. Direktiv nutqiy aktlar so'zlovchining tinglovchiga ma'lum bir harakatni

bajarish yoki bajarmaslik bo'yicha ta'sir ko'rsatishiga xizmat qiladi. Ular quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- Buyruq (*Close the door!* / *Eshikni yoping!*)
- Talab (*I need you to sign this document.* / *Bu hujjatni imzolashingiz kerak.*)
- Maslahat (*You should see a doctor.* / *Shifokorga borishingiz kerak.*)
- Iltimos (*Could you please help me?* / *Iltimos, menga yordam bera olasizmi?*)
- Taklif (*Let's go to the park.* / *Parkga boraylik.*)

G'arb madaniyatida, ayniqsa, ingliz tilida muloqot jarayonida xushmuomalalik strategiyalari ustuvor o'rin tutadi. Inglizcha direktiv aktlar ko'pincha bilvosita, yumshoq shaklda ifodalanadi:

- *Would you mind closing the door?* (*Eshikni yopishga qarshi emasmisiz?*)
- *I'd appreciate it if you could send me the report by tomorrow.* (*Agar hisobotni ertagacha yuborsangiz, minnatdor bo'lardim.*)

Bunday iboralar Brown va Levinson (1987)³ tomonidan ilgari surilgan xushmuomalalik nazariyasiga mos keladi. Ularning ta'kidlashicha, G'arb muloqot madaniyatida so'zlovchi suhbatdoshning shaxsiy hududiga bosim o'tkazmaslikka harakat qiladi, shu bois buyruqlar bilvosita shaklda beriladi.

O'zbek tilida esa direktiv nutqiy aktlar ijtimoiy maqom va kontekstga qarab turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, buyruq shakllari norasmiy va rasmiy muhitda turli ko'rinishlarda ifodalanishi mumkin:

O'zbek madaniyatida yoshi kattalar, ustozlar yoki ijtimoiy maqomi yuqori insonlarga nisbatan odobli so'zlashuv shakllaridan foydalanish juda muhimdir. Bunday kontekstda direktiv aktlar yumshoqroq ifoda etiladi, hatto buyruq shakllari ham iltimos yoki maslahat ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, o'zbek tilida intonatsiya va tana harakatlari ham direktiv aktlarning qabul qilinishida muhim rol o'ynaydi.

Shunday qilib, ingliz va o'zbek tillarida direktiv aktlarning ifodalanishi lingvistik tizimdan tashqari, madaniy qadriyatlar, ijtimoiy maqom va nutqiy etikaga ham bog'liq ekanini ko'rish mumkin. Ingliz tilida so'zlovchining shaxsiy chegaralar va xushmuomalalikni saqlash istagi ustuvor bo'lsa, o'zbek tilida ijtimoiy maqom va hurmat asosiy o'rinda turadi.

Direktiv nutqiy aktlarning bunday farqlanishi ularni lingvistik va pragmatik nuqtayi nazardan alohida tadqiq qilish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu esse aynan shu mavzuga bag'ishlanib, ingliz va o'zbek tillarida

¹ <https://archive.org/details/howtodothingswithwords?utm>

² <https://archive.org/details/speechactessaysi000sear?utm>

³ https://www.academia.edu/34503339/Theories_on_Politeness_by_Focusing_on_Brown_and_Levinsons_Politeness_Theory?utm

buyruq, iltimos, maslahat va talab shakllarining qanday ifodalanishini o'rganadi. Bundan tashqari, bu aktlarning madaniy omillar bilan qanday bog'liq ekanligini tahlil qiladi va ikki til o'rtasidagi o'xshashlik hamda farqlarni ochib beradi.

Til muloqot vositasi bo'lishi bilan birga, u jamiyatning qadriyatlarini ham aks ettiradi. Shu bois direktiv aktlar oddiy so'zlashuv qoidalarining bir qismi emas, balki muayyan xalqning mentalitetini ifodalovchi vosita hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqot tilshunoslik, pragmatika va madaniyatshunoslik uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotimizning dolzarbligi shundaki, bugungi globalashuv sharoitida xalqaro muloqotning samaradorligini oshirish va lingvistik tafovutlarni tushunish muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz va o'zbek tillarida direktiv nutqiy aktlarning ishlatilishiga oid pragmatik tadqiqotlar cheklangan bo'lib, ushbu mavzuni chuqur o'rganish lingvistik va tarjima tadqiqotlari uchun ham muhimdir. Shuningdek, O'zbekistonda tilshunos olimlar – G'. Abdurahmonov, Sh. Rahmatullayev⁴ va U. Tursunovlar pragmatika va kommunikativ yondashuvlarga oid muhim tadqiqotlar olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda tilshunoslik va pragmatika sohasida keng qo'llaniladigan qator metodlardan foydalanildi. Direktiv nutqiy aktlarning kommunikativ-pragmatik tahlilini amalga oshirish uchun qiyosiy-tahliliy metod, kontekstual analiz, diskurs tahlili, korpus lingvistikasi va statistik tadqiqot usullari ishlatildi. Ushbu metodlar yordamida ingliz va o'zbek tillaridagi direktiv nutqiy aktlarning ifodalanish shakllari va ularning pragmatik vazifalari qiyosiy tahlil qilindi.

Qiyosiy-tahliliy metod (contrastive analysis) – ikki yoki undan ortiq tillardagi til birliklarini qiyoslash orqali ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu metod tilshunoslikda Ch. Friz (1952)⁵ va R. Lado (1957)⁶ tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, keyinchalik pragmatik tadqiqotlarda ham keng qo'llanilgan. Ushbu maqolada qiyosiy metod orqali ingliz va o'zbek tillaridagi direktiv aktlarning lingvistik va pragmatik jihatlari o'rganildi.

Kontekstual analiz – nutqiy aktlarning ma'nosini va ularning pragmatik ta'sirini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Bu metod Lev Vygotskiy (1934)⁷ va Dell Hymes (1972)⁸ tomonidan pragmatolingvistik va sotsiolingvistik sohalarda rivojlantirilgan. Kontekstual analiz orqali direktiv aktlarning rasmiy va norasmiy nutqda qanday ishlatilishi, ular kim tomonidan va qaysi vaziyatda qo'llanilishi o'rganildi.

Diskurs tahlili (discourse analysis) – til birliklarining keng matn kontekstida qanday ishlatilishini tahlil qilishga imkon beradi. M. Fuko (1969) va N. Feyrklaf (1992) kabi olimlar diskurs tahlilining lingvistik va ijtimoiy jihatlari tadqiq qilganlar. Ushbu metod yordamida ingliz va o'zbek tillarida direktiv aktlarning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi ishlatilishi o'rganildi.

Korpus lingvistikasi (corpus linguistics) – katta hajmdagi matnlarni kompyuter dasturlari yordamida tahlil qilish usuli bo'lib, U. Labbov (1972)⁹ va D. Byber (1998)¹⁰ tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida direktiv aktlarning qo'llanilish chastotasi va ularning strukturaviy xususiyatlarini aniqlash uchun korpus lingvistikasi usulidan foydalanildi. Buning uchun British National Corpus (BNC) va O'zbek tilining milliy korpusi (O'zTK) ma'lumotlar bazalaridan foydalangan holda analiz amalga oshirildi.

Statistik tahlil – turli tillardagi nutqiy aktlarning ishlatilish chastotasini aniqlashda yordam beradi. Ushbu usul J. Sinclair (1991)¹¹

va G. Leech (2005)¹² tomonidan lingvistik tadqiqotlarda keng qo'llanilgan. Ushbu maqolada statistik analiz orqali ingliz va o'zbek tillaridagi direktiv aktlarning turli bo'yicha taqsimlanishi va ularning qaysi holatlarda ko'proq ishlatilishi aniqlandi.

Yuqoridagi metodlar kombinatsiyasi orqali ingliz va o'zbek tillarida direktiv nutqiy aktlarning lingvistik va pragmatik jihatlari chuqur tahlil qilindi. Bu esa har ikkala tilning kommunikativ xususiyatlarini chuqurroq tushunishga yordam berdi.

Tadqiqot natijalari. Direktiv nutqiy aktlarning ingliz va o'zbek tillarida ishlatilishi turli lingvistik va madaniy xususiyatlarga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bu ikki tilning nutqiy aktlari pragmatik jihatdan turlicha ishlatiladi, biroq ular umumiy kommunikativ maqsadlarga xizmat qiladi.

Birinchidan, ingliz tilida direktiv aktlar ko'pincha yumshoq shakllarda ifodalanadi. Masalan, ingliz tilida buyruq berishda "Can you...?", "Could you...?", "Would you mind...?" kabi yumshoq iltimos shakllari keng qo'llaniladi. O'zbek tilida esa bu jarayon sezilarli farqlarga ega. Masalan, o'zbek tilida bevosita buyruq shakllari ko'proq ishlatiladi: "Eshikni yop!", "Ishingni qil!" kabi buyruq shakllari odatiy hol hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, o'zbek tilidagi ijtimoiy munosabatlarning bevositaligini va an'anaviy hurmat tizimiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ingliz tilida direktiv nutqiy aktlar ko'pincha passiv va bevosita bo'lmagan shakllarda beriladi. Masalan, rasmiy hujjatlarda "It is advised that you submit your application by Monday" kabi strukturalar qo'llaniladi. O'zbek tilida esa bunday holatlarda ham kamroq passiv shakllar ishlatiladi: "Arizangizni dushanba kuni topshirish tavsiya etiladi." Bunday farq kommunikativ madaniyatdagi tafovutlar bilan bog'liq bo'lib, ingliz tilida noziklik va diplomatik usullar muhim ahamiyatga ega ekanligini, o'zbek tilida esa bevosita va an'anaviy yondashuv ustuvor ekanligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, iltimos shakllarining ishlatilish chastotasi ham sezilarli farq qiladi. Ingliz tilida "please" so'zi keng qo'llanilsa, o'zbek tilida bu kabi iltimos shakllari ba'zan tushirib qoldiriladi yoki boshqa yumshatuvchi so'zlar bilan almashtiriladi. Masalan, ingliz tilida "Please, take a seat" shaklida aytiladigan gap o'zbek tilida "Marhamat, o'tiring" yoki ba'zan shunchaki "O'tiring" tarzida ifodalanishi mumkin.

To'rtinchidan, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, madaniy xususiyatlar nutqiy aktlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ingliz tilida rasmiy muhitlarda ham yumshoq va diplomatik shakllar afzal ko'riladi, o'zbek tilida esa rasmiylik darajasiga qarab turlicha yondashuvlar kuzatiladi. Masalan, akademik va davlat hujjatlarida o'zbek tilida ham yumshoq shakllar afzal ko'riladi: "Sizga quyidagi hujjatni to'ldirish tavsiya etiladi."

Beshinchidan, ingliz va o'zbek tillarida ogohlantirish va tavsiyalar ham turlicha ifodalanadi. Ingliz tilida "You should..." yoki "It would be better if you..." kabi konstruksiyalar keng tarqalgan bo'lsa, o'zbek tilida "Yaxshisi...", "Sizga maslahat beraman..." kabi ifodalar ko'proq ishlatiladi.

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillarida direktiv nutqiy aktlar qo'llanilishi til strukturasi, madaniy omillar va ijtimoiy muloqotning o'ziga xos jihatlarga bog'liq. Ingliz tili diplomatik va yumshoq ifodalarga moyil bo'lsa, o'zbek tilida bevosita ifodalash usullari ustunlik qiladi. Kelajakda ushbu mavzuni yanada chuqurroq o'rganish pragmatik tadqiqotlar uchun katta ahamiyat kasb etadi.

1-jadval: ingliz va o'zbek tillaridagi direktiv nutqiy aktlarning qo'llanilishi

O'zgaruvchilar	Ingliz tili	O'zbek tili
Til strukturasi	Yumshoq va diplomatik ifodalar, modal fe'llar keng qo'llanadi.	Bevosita va buyruq fe'llari keng qo'llanadi.
Madaniy omillar	"Face-saving" strategiyasiga asoslangan, hurmatni saqlashga e'tibor beriladi.	To'g'ridan-to'g'ri ifodalash odatiy holat.
Ijtimoiy muloqot xususiyatlari	Norasmiy muloqotda ham iltifot shakllari keng qo'llanadi.	Norasmiy muloqotda bevosita talab shakllari keng tarqalgan.

⁴ <https://library.uzfi.uz/ebooks/view?id=904&utm>

⁵ <https://archive.org/details/structureofengli0000frie2utm>

⁶ <https://archive.org/details/linguisticsacros0000robe2utm>

⁷ <https://www.simplypsychology.org/vygotsky.html>

⁸ <https://www.scrip.org/reference/ReferencesPapers?ReferenceID=1190080>

⁹ <https://archive.org/details/sociolinguisticp00will>

¹⁰

¹¹ https://www.academia.edu/16757872/Sinclair_Corpus_Concordance_Collocation

¹² <https://archive.org/details/glossaryofenglis0000leec/page/n5/mode/2up>

Rasmiy uslubda qo'llanilishi	Rasmiy so'zlashuvda passiv shakllar va yumshoq buyruqlar ko'proq ishlatiladi.	Rasmiy nutqda hurmat ifodalari keng qo'llanadi.
Norasmiy uslubda qo'llanilishi	Norasmiy suhbatda iltimos shakllari afzalroq ("Could you...?", "Would you mind...?").	Norasmiy muloqotda bevosita buyruq shakllari ("Kel!", "Bor!") ko'proq ishlatiladi.

Direktiv nutqiy aktlarning ingliz va o'zbek tillarida ishlatilishi til strukturasi, madaniy omillar va ijtimoiy muloqotdagi farqlarni aks ettiradi. Quyida ularga toxtalib o'tamiz.

- ingliz tili va o'zbek tilidagi direktiv aktlar muloqot strategiyasida sezilarli farq qiladi. Ingliz tilida odatda muloyimlik va diplomatik yondashuv ustuvor bo'lsa, o'zbek tilida bevositalik va ijtimoiy maqomga mos yondashuv muhim ahamiyatga ega. Masalan, ingliz tilida "Could you please close the door?" kabi yumshoq iltimos shakllari keng tarqalgan bo'lsa, o'zbek tilida "Eshikni yop!" kabi bevosita buyruqlar ko'proq ishlatiladi. Ushbu holat shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida "face-saving" strategiyalari (Brown & Levinson, 1987)¹³ keng qo'llaniladi, ya'ni tinglovchining hissiyotlarini inobatga olgan holda iltimos yoki buyruq shakllantiriladi.

- ingliz tilida direktiv aktlar rasmiy kontekstlarda ko'proq passiv shaklda ifodalanadi. Masalan, "It is recommended that you complete this form" kabi iboralar rasmiy hujjatlarda keng uchraydi. O'zbek tilida esa, ayniqsa davlat hujjatlarida, ko'proq bevosita tavsiyalar beriladi: "Mazkur hujjatni to'ldirish tavsiya etiladi." Bu farq ingliz tilida rasmiy muloqotda ob'ektivlikni saqlashga intilish bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilida buyruq va tavsiyalar rasmiy kontekstda ham shaxsqa qaratilgan bo'lishi mumkin.

- ingliz va o'zbek tillarida ijtimoiy maqom direktiv aktlarning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ingliz tilida rahbar xodimga "I would appreciate it if you could submit the report by tomorrow" deb aytsa, o'zbek tilida rahbar xodimga bevosita "Hisobotni ertaga topshiring" deb murojaat qilishi mumkin. O'zbek madaniyatida buyruq shakli maqom va ijtimoiy munosabatlarni aks ettirishi sababli, bu kabi bevosita ifodalar kamroq muloyimlik talab qiladi.

- pragmatik nuqtayi nazardan, ingliz tilida "softeners" (yumshatuvchi elementlar) keng qo'llanadi. Masalan, "Would you mind...?", "If possible...", "I was wondering if..." kabi yumshatuvchi iboralar iltimos shakllarida ishlatiladi. O'zbek tilida esa odob va hurmatni ifodalash uchun "iltimos", "marhamat", "rahmat" kabi so'zlar keng qo'llanadi, ammo ba'zan bevosita ifodalanishi ham mumkin.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillari direktiv aktlarni turli madaniy va kommunikativ strategiyalar orqali ifodalaydi. Ingliz tili diplomatik va bilvosita yondashuvga moyil bo'lsa, o'zbek tilida bevosita va maqomga asoslangan kommunikatsiya ustuvorlik qiladi. Ushbu farqlar tarjima jarayonida ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tilning direktiv aktlari boshqa tilga moslashtirilganda pragmatik moslashuvni talab qiladi.

Muhokama. Direktiv nutqiy aktlarning ishlatilishidagi tafovutlar lingvistik xususiyatlar bilan bir qatorda madaniy, ijtimoiy va psixologik omillar bilan ham bog'liq. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda direktiv aktlarning ifodalanishi va ularning ijtimoiy qabul qilinishi o'ziga xos farqlarga ega.

Ingliz tilida direktiv aktlar ko'pincha yumshoq, diplomatik shaklda ifodalanadi. Masalan, ishbilarmonlik muhitida yoki rasmiy hujjatlarda "It is recommended that you..." kabi passiv ifodalardan foydalaniladi. Bu esa kommunikativ jarayonda bevosita buyruq berishdan qochish, suhbatdoshning obro'sini saqlashga harakat qilish bilan bog'liq. O'zbek tilida esa rasmiy uslubda ham faol gap shakllari keng qo'llaniladi, masalan, "Sizga quyidagi hujjatni to'ldirish tavsiya etiladi."

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Austin, J. L. (1962). *How to Do Things with Words*. Oxford: Oxford University Press.
2. Searle, J. R. (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Brown, P., & Levinson, S. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Kasymova, M. (2021). *O'zbek tilida direktiv nutqiy aktlar va ularning pragmatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan va texnologiya.

Shuningdek, ingliz tilida madaniy jihatdan "face-saving" strategiyasi, ya'ni tinglovchining obro'sini saqlash tamoyili kuchli ekanini kuzatiladi. Bu tamoyil Brown va Levinson (1987) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ularning nazariyasiga ko'ra, insonlar muloqot jarayonida o'zlarining va suhbatdoshlarining ijtimoiy maqomini saqlashga harakat qiladilar. O'zbek madaniyatida esa bunday yondashuv kamroq kuzatiladi va bevosita talab shakllari keng tarqalgan.

Ijtimoiy maqom ham direktiv aktlarning ishlatilishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ingliz tilida rasmiy va norasmiy kontekstlar o'rtasida aniq chegaralar mavjud. Rasmiy kontekstlarda passiv shakllar, norasmiy suhbatlarda esa iltimos shakllari ustunlik qiladi. O'zbek tilida esa kontekstga qarab direktiv aktlarning turlicha qo'llanilishi kuzatiladi. Kattalar bilan muloqotda hurmat shakllari qo'llanilsa, tengdoshlar o'rtasida ancha to'g'ridan-to'g'ri buyruq shakllari qo'llanadi.

Shuningdek, pragmatik nuqtayi nazardan ingliz tilida direktiv aktlar bajarilishi majburiy emasligi bilan ajralib turadi. Masalan, ingliz tilida "You should..." yoki "You might want to consider..." kabi maslahat beruvchi shakllar ishlatiladi. O'zbek tilida esa direktiv aktlar ko'proq bajarilishi kutiladigan shaklda ifodalanadi, masalan, "Shunday qilishingiz lozim."

Umuman olganda, ingliz va o'zbek tillaridagi direktiv aktlarning ishlatilishidagi farqlar ushbu tillarning madaniy va sotsiologik xususiyatlari bilan bog'liq. Ingliz tili diplomatik va yumshoq yondashuvga moyil bo'lsa, o'zbek tilida an'anaviy va bevosita talab shakllari ustunlik qiladi. Bu tafovutlar ikki tilda muloqot qilish jarayonida hisobga olinishi lozim.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalariga asoslanib, ingliz va o'zbek tillarida direktiv nutqiy aktlarning qo'llanilishi muayyan lingvistik va madaniy omillar ta'sirida shakllanganligini ta'kidlash mumkin. Ingliz tilida direktiv aktlar ko'pincha yumshoq, diplomatik shakllarda ifodalanadi va suhbatdoshning obro'sini saqlashga yo'naltirilgan. Bunga "Would you mind...?", "Could you please...?" kabi iboralar misol bo'la oladi. O'zbek tilida esa bevosita ifodalanish usullari ustunlik qiladi, masalan, "Eshikni yop!", "Marhamat, o'tiring!".

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilida rasmiy nutqda passiv konstruksiyalar afzal ko'riladi, masalan, "It is recommended that you...", o'zbek tilida esa faol gaplar saqlanib qoladi, masalan, "Sizga ushbu hujjatni to'ldirish tavsiya etiladi." Bu esa har ikkala tilda rasmiy muloqot madaniyatining o'ziga xos jihatlari ko'rsatadi.

Shuningdek, ingliz tilida direktiv aktlar ko'pincha suhbatdoshning tanlov erkinligini saqlab qolish maqsadida yumshatiladi, o'zbek tilida esa ba'zan iltimos shakllari tushirib qoldirilishi yoki bevosita buyruq berilishi kuzatiladi. Bu esa o'zbek madaniyatida nutqiy bevositalik va pragmatik samaradorlikning yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Kelajakda ushbu mavzu bo'yicha tadqiqotlarni kengaytirish, ayniqsa, muloqot pragmatikasi, tarjimashunoslik va psixolingvistik nuqtayi nazaridan qo'shimcha tahlillar o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, til o'rganuvchilar va tarjimonlar uchun ingliz va o'zbek tillarida direktiv aktlarni to'g'ri qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillaridagi direktiv nutqiy aktlarning ifodalanishida pragmatik va madaniy tafovutlarni yoritib berdi va bu borada qo'shimcha tadqiqotlar olib borish zarurligini ko'rsatdi.

¹³ <https://archive.org/details/politenessomeun00brown>

7. Nasridinov, M. (2022). NUTQIY AKTNING ASOSIY KATEGORIYALARI. ILMOSUNDUV NUTQIY AKTI. *Science and innovation*, 1(B8), 905-909.

8. Majidova, Z. (2024). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SUGGESTIV NUTQIY AKTINING TURLARI VA ULARNING IFODALANISHI. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 3(8), 12-15.

9. Islomovna, K. N., & Institut, S. D. C. T. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TA'QIQ NUTQIY AKTLAR.

10. Baxtiyorovna, B. D. (2024). MURAKKABLAHGAN SODDA GAPLARDA AKSILOGIK MODALLIKNING SEMANTIK-PRAGMATIK TADQIQI.



MASHINA VA INSON TARJIMASI: O'ZBEKCHA-INGLIZCHA TARJIMANING ANIQLIGI VA MADANIY SEZGIRLIGINI BAHOLASH

G'ulomov Jamshidbek Islomjon o'g'li

Qo'qon Universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

ijulomov@kokanduni.uz

Tel: (90) 068-14-10

MAQOLA HAQIDA

ANNOTATSIYA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil

Jurnal soni: 14

Maqola raqami: 47

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1160>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

Sun'iy intellekt, til, idiomatik iboralar, mashina, inson, morfologiya, tarjima, madaniy sezgiriklik

Sun'iy intellekt (AI)ning jadal rivojlanishi bilan Google Translate va DeepL kabi mashina tarjimasi (MT) vositalari tillararo muloqotda keng qo'llanilmoqda. Biroq, ularning aniqligi, ravonligi va madaniy moslashuvchanligi, ayniqsa, o'zbek tilidek kamroq o'rganilgan tillar uchun, haligacha muammoli sohalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu tadqiqot o'zbekcha-inglizcha til juftligi bo'yicha mashina va inson tarjimasi samaradorligini tahlil qilib, lingvistik aniqlik, idiomatik ifodalarni saqlash va madaniy sezgiriklikni solishtiradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, inson tarjimasi, ayniqsa, murakkab va kontekstga bog'liq matnlarda, mashina tarjimasidan birmuncha ustundir. Tadqiqot Alning yanada rivojlanishi zarurligini ta'kidlab, tarjima jarayonida inson va sun'iy intellekt hamkorligini targ'ib qiladi.

Kirish. Kommunikatsiyaning tobora globallashtirib borishi tarjimoni lingvistik va madaniy tafovutlarni bartaraf etish uchun muhim vositaga aylantirdi. Sun'iy intellekt (AI)ning rivojlanishi bilan Neyron Mashina Tarjimasi (NMT) turli tillar o'rtasida tarjimoni osonlashtirish uchun keng qo'llaniladigan usulga aylandi. Biroq, Google Translate va DeepL kabi mashina tarjimasi (MT) vositalari lingvistik aniqlik bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, ularning murakkab sintaktik tuzilmalarga, madaniy nozik jihatlarga va idiomatik iboralarga ishlov bera olish qobiliyati hali ham munozaralarga sabab bo'lmoqda. Bunga qarama-qarshi ravishda, inson tarjimasi (HT) kontekst yaxlitligi, madaniy sezgiriklik va lingvistik aniqlikni saqlab qolish uchun eng yuqori mezon sifatida qaralmoqda. Ushbu tadqiqot mashina va inson tarjimasining o'zbek-ingliz til juftligi kontekstida qanchalik aniq va madaniy jihatdan moslashuvchan ekanligini baholashga qaratilgan.

Dunyoda 35 milliondan ortiq inson tomonidan so'zlashiladigan turkiy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili mashina tarjimasi uchun o'ziga xos qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi (Turaev, 2019). Bunga uning murakkab morfologiyasi, agglutinatib tuzilishi hamda ingliz tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti bo'lmagan ko'plab idiomatik iboralari sabab bo'ladi. Bundan tashqari, madaniy kontekst ma'no hosil qilishda muhim rol o'ynaydi, biroq avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari bu jihatni aks ettirishda ko'pincha qiyinlanadi. Mashina tarjimasi vositalarini rivojlantirish yo'lida katta yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, ularning natijalari matn murakkabligiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Bu esa quyidagi savolni tug'diradi: mashina tarjimasi ayniqsa nozik va madaniy jihatdan murakkab matnlar uchun inson tarjimonlarini ishonchli tarzda almashtira oladimi?

Mashina va inson tarjimasi bo'yicha avvalgi tadqiqotlarning aksariyati ingliz, ispan va xitoy kabi keng tarqalgan tillarga qaratilgan (Toral & Way, 2018). Biroq, mashina tarjimasi kam o'rganilgan o'zbek tili bilan qanday ishlashini tahlil qilgan tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi. Professional va kundalik muloqotda mashina tarjimasiga bo'lgan qaramlik ortib borayotgan bir paytda, uning o'zbek-ingliz tarjimasi uchun samaradorligini baholash zarurati yuzaga kelmoqda. Ushbu tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirishni maqsad qilgan bo'lib, mashina va inson tarjimasi natijalarining aniqligi, ravonligi va madaniy dolzarbligini qiyosiy tahlil qilishga yo'naltirilgan.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi mashina va inson tarjimasi o'rtasidagi farqlarni sintaksis, idiomatik iboralar va madaniy kontekst kabi aniq lingvistik qiyinchiliklarga e'tibor qaratgan holda tahlil qilishdir. Adabiy parchalar, huquqiy hujjatlar va kundalik suhbatlardan tanlangan matn namunalari orqali ushbu tadqiqot mashina tarjima vositalari asl ma'no va madaniy ohangni inson tarjimonlariga nisbatan qay darajada saqlab qolishini baholaydi. Shuningdek, mashina tomonidan yaratilgan tarjimalarni inson sifati darajasiga yetkazish uchun talab qilinadigan post-tahrir darajasi ham o'rganiladi.

Adabiyotlar tahlili. Tarjima tadqiqotlari uzoq vaqtdan beri inson va mashina tarjimasining qiyosiy ustunliklari va cheklolarini o'rganib kelmoqda. Sun'iy intellekt asosida ishlaydigan til modellari rivojlanishda davom etar ekan, tadqiqotchilar ularning lingvistik aniqlik va madaniy nozik jihatlarni samarali ifodalash qobiliyatini muhokama qilishmoqda. Ushbu bo'lim ingliz va o'zbek adabiyotlarida olib borilgan asosiy tadqiqotlarni ko'rib chiqib, tarjima sifati, sintaktik qiyinchiliklar va madaniy tasvirning o'rganilishiga e'tibor qaratadi.

Neyron Mashina Tarjimasi (NMT) tarjima sohasida ravonlik va izchillikni yaxshilash orqali inqilob yasadi. Koehnga ko'ra, Google Translate va DeepL kabi NMT tizimlari chuqur o'rganish modellariidan foydalanib, kontekstual tahlil orqali tarjima aniqligini oshiradi. Biroq, bu tizimlar hali ham o'zbek kabi morfologik jihatdan boy tillarda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ayniqsa, agglutinatib tuzilmalar va idiomatik iboralar mashina tarjimasi uchun jiddiy muammo tug'diradi (Garcia, 2010).

Garcia mashina tarjimasi ko'pincha kontekst yaxlitligidan ko'ra, so'zma-so'z aniqlikka e'tibor qaratishini ta'kidlaydi, bu esa idiomatik tarjimalarda xatolarga olib keladi. Masalan, o'zbek maqollari va madaniy metaforalar mashinalar tomonidan tarjima qilinganda ko'pincha asl ma'nosini yo'qotadi. Xuddi shuningdek, Zaretskaya va Seghiri huquqiy va badiiy matnlari sohasida mashina tarjimasi natijalarini yaxshilash uchun sezilarli darajada post-tahrir qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Bir qator o'zbek tadqiqotchilari o'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi tarjima jarayonida uchraydigan o'ziga xos qiyinchiliklarni o'rgangan. Ismoilovning fikriga ko'ra, o'zbek sintaksisi ingliz tilidan sezilarli farq qiladi, bu esa to'g'ridan-to'g'ri tarjimoni murakkablashtiradi. Masalan, o'zbek tili Subject-Object-Verb (SOV) tuzilishiga amal qiladi, holbuki ingliz tili odatda Subject-Verb-Object (SVO) tartibini qo'llaydi. Ushbu farqlar mashina tarjimasi tizimlarida tabiiy bo'lmagan tarjimalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, Karimov o'zbek tilida bevosita inglizcha ekvivalenti bo'lmagan ko'plab idiomatik iboralar mavjudligini ta'kidlaydi. Masalan, o'zbekcha "Ko'ngli ochiq" iborasi so'zma-so'z "open heart" deb tarjima qilinadi, lekin uning kontekstual ma'nosi "saxiy" yoki "mehmondo'st" degan mazmunga yaqinroqdir (Karimov, 2020). Mashina tarjima vositalari bunday iboralarni tushunishda va tarjima qilishda qiyinchiliklarga duch keladi, natijada noto'g'ri yoki g'alati tarjimalar yuzaga keladi.

Tursunovning so'nggi tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, gibrid yondashuv – mashina tarjimasi va inson post-tahririni birlashtirish – tarjima sifatini oshirish uchun istiqbolli echim bo'lishi mumkin. Ushbu yondashuv mashina tarjimasining tezligini inson mutaxassisligi bilan uyg'unlashtirib, madaniy va lingvistik aniqlikni ta'minlashga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot aralash usullar yondashuvidan foydalanib, o'zbek-ingliz til juftligida mashina va inson tarjimalarining aniqligi, ravonligi hamda madaniy sezgirlikni taqqoslaydi. Tadqiqot uch asosiy bosqichga bo'lingan: ma'lumot yig'ish, tarjima tahlili va baholash mezonlari.

Ma'lumot yig'ish. Turli matn turlarini tanlash orqali xilma-xil va vakillik qobiliyatiga ega namunalar ta'minlandi. Bular orasida badiiy parchalar, huquqiy hujjatlar va kundalik suhbatlar mavjud. Ushbu matnlar murakkab sintaktik tuzilmalar, idiomatik iboralar va tarjima uchun muhim madaniy ma'lumotlarni o'z ichiga olgani sababli tanlandi (Munday, 2016). Umumiy hisobda 30 ta parcha (har bir toifadan 10 tadan) nashr qilingan manbalar va rasmiy hujjatlardan ajratib olindi.

Tarjima jarayoni. Har bir matn namunasi ikkita usul orqali tarjima qilindi: mashina tarjimasi (Google Translate va DeepL) va professional inson tarjimasi. Mashina tarjimalari onlayn platformalardan hech qanday o'zgartirishsiz olingan. Inson tarjimasi uchun esa o'zbek-ingliz tarjimasi bo'yicha akademik va kasbiy tajribaga ega mutaxassis tarjimonlar jalb qilindi, bu esa yuqori sifatli natijalarni ta'minlashga yordam berdi.

Baholash mezonlari. Tarjima sifatini baholash uchun quyidagi mezonlar belgilandi:

- Aniqlik: Tarjima matni asl matn mazmunini qay darajada to'g'ri ifodalaydi.
- Ravonlik: Tarjimaning o'qilishi va grammatik to'g'riligi.
- Madaniy sezgirlik: Madaniy kontekst va idiomatik iboralarining saqlanishi.
- Post-tahrir talabi: Mashina tarjimasini to'g'rilash uchun zarur bo'lgan inson aralashuvi darajasi.

Har bir tarjima uchta mustaqil ikki tilli ekspert tomonidan besh balli Likert shkalasi bo'yicha baholandi, bunda yuqori ball yaxshi natijani anglatadi. Mashina va inson tarjimalari o'rtasidagi farqlarni aniqlash uchun statistik tahlil o'tkazildi.

Sifat tahlili. Sonli baholashdan tashqari, ekspertlarning sharhlari ham to'plandi. Mashina tarjimalaridagi keng tarqalgan xatolar, madaniy

noto'g'ri talqinlar va sintaktik nomuvofiqliklar o'rganildi. Shuningdek, tarjimonlar bilan intervyular o'tkazilib, mashina tarjimalarining post-tahrir jarayonidagi tajribalari haqida fikrlar olindi.

Sonli va sifat tahlillarini integratsiya qilish orqali ushbu tadqiqot o'zbek-ingliz til juftligi bo'yicha mashina tarjimasining imkoniyatlari va cheklovlarini har tomonlama baholaydi. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt asosida ishlaydigan tarjima tizimlari haqida davom etayotgan muhokamalarga hissa qo'shib, lingvistik aniqlik va madaniy tasvir masalalariga yangicha yondashuvni taklif etadi.

Tadqiqot natijalari. Ushbu tadqiqot natijalari mashina va inson tarjimalari o'rtasida aniq farqlar borligini ko'rsatdi. Statistik tahlil shuni ko'rsatdiki, inson tarjimasi barcha baholash mezonlari bo'yicha, ayniqsa idiomatik iboralar va madaniy nozik jihatlarni saqlab qolishda, mashina tarjimasidan ancha ustun.

Inson tarjimasi o'rtacha 4.7/5, mashina tarjimasi esa 3.2/5 ball oldi. Mashina tarjimasi murakkab gap tuzilmalari va idiomatik ifodalar bilan qiynaldi, natijada ba'zi jumlar ma'nosi buzildi. Inson tarjimasi esa ancha izchil, grammatik jihatdan to'g'ri va kontekstga mos ravishda aniqroq bo'ldi.

Bu farqni aniq ko'rsatish uchun "Kichik Shahzoda" (The Little Prince) asaridan kichik matn tarjima qilindi:

Asl inglizcha matn:

"All grown-ups were once children... but only few of them remember it."

Inson tarjimasi (o'zbek tilida):

"Barcha kattalar bir paytlar bola bo'lganlar... lekin ularning faqat oz qismi buni eslaydi."

Google Translate tarjimasi (o'zbekchadan inglizchaga qayta tarjima):

"All adults were once children... but only a small part of them remembers it."

Ushbu misol bo'yicha solishtirish natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan:

Kategoriya	Mashina tarjimasi (Google Translate)	Inson tarjimasi	Ball (5 dan)
Aniqlik	Biroz noto'g'ri; "a small part of them" (ularning kichik qismi) iborasi asl matndagi "few of them" (ularning oz qismi) ma'nosini to'liq aks ettirmaydi.	Ma'noni to'g'ri yetkazadi.	MT: 3.5 HT: 5.0
Ravonlik	Grammatik jihatdan to'g'ri, lekin tabiiy emas ("small part of them" g'alati eshitiladi).	Tabiiy va izchil tarjima.	MT: 3.8 HT: 5.0
Madaniy moslik	Ushbu matnda katta muammo yo'q.	Ma'no to'liq saqlanib qolgan.	MT: 4.5 HT: 5.0
Post-tahrirlash	Matnni yaxshilash uchun ozgina o'zgartirish talab etiladi.	O'zgartirishga hojat yo'q.	MT: 20% tahrir HT: Minimal

1.1-jadval. Mashina va inson tarjimasining solishtirma tahlili

Madaniy moslik jihatidan mashina tarjimasi sezilarli darajada kamchiliklarga ega ekanligi aniqlandi. Tekshiruvchilar shuni ta'kidlashdi: mashina tarjimasi madaniy iboralarni ko'pincha noto'g'ri talqin qiladi va ba'zida noo'rin yoki g'alati tarjimalar yaratadi. Inson tarjimasi esa madaniy noziklikni yaxshiroq tushunib, 4.8 ball, mashina tarjimasi esa 2.9 ball oldi.

Mashina tarjimasi natijalarini post-tahrirlash jarayoni anchagina mehnat talab qildi, ayniqsa adabiy va huquqiy matnlarda. Tarjimonlar mashina tarjimasi natijalarining 60% dan ortig'i sezilarli darajada tahrir talab qilganini aytishdi, ba'zi holatlarda esa to'liq qayta tarjima qilish zarur bo'lgan. Inson tarjimasi esa faqat ozgina yaxshilashni talab qildi.

Ushbu natijalar inson tarjimonlari hali ham murakkab va madaniy jihatdan boy matnlarni tarjima qilishda juda muhim ekanligini tasdiqlaydi. Mashina tarjimasi tezkorlik va qulaylik taqdim etsa ham, lingvistik va madaniy nozik jihatlarni to'liq tushinishda inson nazorati zarur bo'lib qolmoqda.

Muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari mashina tarjimasi (MT) va inson tarjimasi (HT) o'rtasidagi davom etayotgan muammolar va yutuqlarni yoritib beradi, ayniqsa o'zbek-ingliz til juftligi kontekstida. MT aniqlik va ravonlik bo'yicha sezilarli darajada rivojlangan bo'lsa-da,

murakkab lingvistik tuzilmalar, madaniy kontekstlar va idiomatik ifodalarni to'g'ri tarjima qilishda sezilarli kamchiliklarga ega.

Tadqiqotning asosiy kuzatuvlaridan biri shundaki, MT o'zbek tilining agglutinatив xususiyatini samarali qayta ishlashda qiynaladi. O'zbek so'zlari ko'pincha muhim grammatik ma'lumotlarni ifodalovchi ko'plab affikslardan iborat bo'lib, MT tizimlari ularni noto'g'ri talqin qiladi. Natijada, asl ma'noni saqlay olmaydigan g'alati yoki noto'g'ri tarjimalar yuzaga keladi. Inson tarjimonlari esa til sezgisi va kontekstual tushuncha asosida bu murakkabliklarni muvaffaqiyatli boshqaradi.

Ravonlik masalasida ham inson tarjimasi MTdan ancha ustun chiqdi. MT tomonidan yaratilgan jumlar grammatik jihatdan to'g'ri bo'lsa-da, tabiiylik va izchillikdan mahrum edi. Bu ayniqsa badiiy va og'zaki matnlar uchun muhim, chunki o'qilishi va ifodaviyligi muhim ahamiyatga ega. Inson tarjimonlari jummalarni tabiiyroq qayta tuzish orqali tarjimaning ham grammatik, ham uslubiy jihatdan mos kelishini ta'minladi.

Madaniy sezgirlik MT uchun asosiy muammo sifatida ko'zga tashlandi. Mashina tomonidan yaratilgan tarjimalarda madaniy jihatdan muhim bo'lgan ma'nolar ko'pincha noto'g'ri ifodalanar yoki umuman tushib qolar edi. Bu ayniqsa idiomatik iboralar va madaniy

jiyatdan maxsus ma'nolarga ega iboralarda sezildi. MT ko'pincha bunday iboralarni so'zma-so'z tarjima qilgani sababli, natijalar mantiqsiz yoki noto'g'ri bo'lib chiqdi. Bunga qarama-qarshi ravishda, inson tarjimonlari ekvivalent ifodalarni topish yoki matnni qayta tuzish orqali madaniy moslikni saqlashda muvaffaqiyatli bo'ldi. Ushbu natijalar avvalgi tadqiqotlar bilan hamohang bo'lib, mashina o'rganish modellari lug'aviy tarjima uchun samarali bo'lsa-da, madaniy tafsir talab qilinadigan holatlarda yetarlicha chuqur anglash qobiliyatiga ega emasligini ko'rsatadi.

Post-tahrir natijalari MTning cheklovlarini yanada ochib beradi. Sun'iy intellektga asoslangan tarjima tizimlari rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, inson aralashuvi mashina tarjimasini takomillashtirish uchun hanzu muhim sanaladi, ayniqsa murakkab matn turlarida, masalan, huquqiy va badiiy tarjimalarda. Post-tahrir uchun talab etiladigan yuqori darajadagi inson ishtiroki shuni ko'rsatadiki, MT dastlabki tarjima loyihalari uchun foydali vosita bo'lsa-da, aniqlik va madaniy

moslik muhim bo'lgan kontekstlarda professional inson tarjimonlarini to'liq almashtira olmaydi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot o'zbek-ingliz til juftligi uchun mashina va inson tarjimasining kuchli va zaif tomonlarini yoritib beradi. Mashina tarjimasini tezlik va qulaylikni ta'minlashda, aniqlik, ravonlik va madaniy sezgirlik jihatidan sustlik qiladi hamda ko'p hollarda keng qamrovli post-tahrirni talab etadi. Inson tarjimasini esa ko'proq vaqt talab qilganiga qaramay, kontekstual aniqlik va madaniy moslikni ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mashina tarjimasini umumiy tushuncha uchun foydali bo'lsa-da, murakkab matnlarni yetarli darajada tarjima qilish uchun hali yetarlicha mukammal emas. Kelajakdagi sun'iy intellektga asoslangan tarjima tizimlari kontekstual tushuncha va idiomatik ifodalarni aniq talqin qilish imkoniyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim. Oxir-oqibat, inson tarjimonlari va sun'iy intellektning hamkorligi tarjima sifatini oshirish bilan birga samaradorlik va madaniy yaxlitlikni saqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Garcia, I. (2010). Is machine translation ready yet? *Target: International Journal of Translation Studies*, 22(1), 7-21. <https://doi.org/10.1075/target.22.1.02gar>
- House, J. (2016). Translation quality assessment: Past and present. *Routledge*.
- Munday, J. (2016). Introducing translation studies: Theories and applications (4th ed.). *Routledge*.
- Alimov, S. (2018). *Tarixiy matnlarning tarjima muammolari* [Translation challenges of historical texts]. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
- Karimov, O. (2020). *O'zbek tilidagi idiomalar va ularning tarjima muammolari* [Uzbek idioms and translation challenges]. Toshkent: Sharq.
- Otto, M., & Thornton, J. (2024). SHARQ VA G'ARB ADABIYOTIDAGI QAHRAMON OBRAZLARI: MADANIY O'XSHASHLIK VA FARQLAR. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 13, 202-204.
- Islomjon o'g, G. U. J., & Muslimaxon, N. (2025, March). Til o'rganishda sun'iy intellektning roli va imkoniyatlari. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 3, No. 3, pp. 19-21).
- Islomjon o'g, G. U. J., & Ruhshona, B. (2025, March). O'ZBEK MAKTABLARIDA INGLIZ TILINI ERTA YOSHDAN O'QITISHNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 3, No. 3, pp. 22-25).
- Akhmadjonov, A. (2023). THESIS FOR THE ANALYSIS OF GRAMMAR ACTIVITIES . RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 94–97. Retrieved from
- Умурзакова, К. (2024). ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР ВА ИДЖИМОЙ ИННОВАЦИЯЛАР: КЕЛАДЖАК УЧУН ИМКОНИЯТЛАР. Университетская исследовательская база , 733–737. Получено с <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/715>.
- Fotima, S. (2025). THE ROLE OF POETRY IN THE STUDY OF LEARNING ENGLISH LITERATURE. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(7), 95-103.
- Madumarov Muhammadodil Matkomilovich (2025) READING BETWEEN THE LINES: USING LITERATURE TO BOOST ENGLISH LITERACY. Vol. 1 No. 7 (2025): MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS
- Begmatov, A. (2024). STUDY OF ONOMASTIC UNITS IN ENGLISH AND UZBEK. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(12), 274–280. <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I12Y2024N43>
- Turaev, O. (2019). *O'zbek tilining tarjima muammolari*. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
- Toral, A., & Way, A. (2018). What level of quality can neural machine translation attain on literary text? *Translation Quality in the Age of AI*.



A COMPARATIVE ANALYSIS OF POETIC DEVICES: ALLITERATION, ASSONANCE, AND ENJAMBMENT IN ENGLISH AND UZBEK POETRY

Karimova Ozodaxon Avazxon qizi

Teacher of World Language department, Kokand University

e-mail: o1516067@gmail.com

ORCID: 0009-0009-0643-8445

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATION
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 48 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1161 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS alliteration, assonance, enjambment, English poetry, Uzbek poetry, stylistic analysis, oral traditions, cultural context	This research compares the stylistic purposes and cultural systems of three poetic devices—enjambment, assonance, and alliteration—across English and Uzbek poetry. Ten exemplary poems in every language are compared within the research to note how such strategies enhance rhythm, emotion, and thematic efficiency. They are generally used in Uzbek poetry for oral tradition rhythm and memorability but used in English poetry to establish mood, attract attention to the issue, and initiate melody. Enjambment is uncommon in traditional Uzbek poetry due to formal metrical forms, but increasingly used in modern poetry. This comparative methodology brings to the fore the liaison between language, culture, and sense of aesthetics inasmuch as it places before us the universal as well as culturally specific poetic devices. This book encourages cross-cultural literary study and suggests further research studies on poetical devices across cultures.

Introduction. Poetry is a global art form that uses many creative techniques to communicate ideas, emotions, and cultural values. Enjambment, alliteration, and assonance are just a few of the techniques that are needed in order to determine the poetic and interpretive features of a poem. In addition to contributing to the poetry's rhythm and melody, these features also reveal the linguistic and cultural environments within which poets compose. Uzbek poetry based on Central Asian traditions has received less attention comparatively than English poetry, which is well studied because of its style variety. This research seeks to fill this lacuna by investigating the application of alliteration, assonance, and enjambment in Uzbek and English poetry.

Because of its mnemonic and rhythmic appeal, alliteration is widely used. It is the device that repeats consonants at syllable beginning. One such usage can be seen in William Blake's poem "The Tyger," which uses repetitive "b" and "t" sounds in the line "Tyger Tyger, burning bright" to create a hypnotic rhythm to keep up with the poem's majestic subject matter. Similarly, in the line "Bir bahrida behisht, bir bog'ida bo'ston," Alisher Navoi applies alliteration in Uzbek poetry to produce a musical rhythm that serves to facilitate oral tradition (Karimov, 1995). These examples demonstrate how alliteration is employed as both a stylistic device and a cultural signifier, reflecting the language and performative practices of Uzbek poetry and English poetry, respectively. In William Shakespeare's Sonnet 18, the phrase "Rough winds do shake the darling buds of May" is one instance of how alliteration contributes to the musicality of the poem. Alliteration performs a similar function in Uzbek poetry, but usually within the oral narrative tradition context. Alisher Navoi, who is one of the renowned figures in Uzbek literature, extensively utilized alliteration in his epic poems to create rhythm and make it easier to memorize. As Karimov (1995) has analyzed, Navoi's mastery of alliteration is an expression of the oral-conditioned pre-modern Uzbek poetry in which the rhythmic recurrence was obligatory to perform.

Assonance, or the repetition of the vowel sound, enhances the musical sound and emotion of a poem. In, for example, "Thou wast not born for death, immortal Bird!" of John Keats' Ode to a Nightingale, the lengthened vowel sounds enhance the tone of the poem as contemplative (Keats, 1819). Abdulla Oripov also utilized assonance with repeated 'o' and 'a' sounds in his Uzbek poem "Ko'zimda yosh, yuragimda yosh yashaydi" to achieve powerful emotional impact (Sattorova, 2010). According to studies done by scholars such as Sattorova (2010) and Karimov (1995), aside from being a decorative feature, assonance is also critical to the melodic quality and oral tradition of Uzbek poetry. Assonance in English poetry is seen in lines such as "Thou wast not born for death, immortal Bird!" in John Keats' Ode to a Nightingale. The long vowel sounds are used to create the melancholic and reflective atmosphere of the poem. In Uzbek poetry

as well, assonance is employed to enhance the lyricism of poem. Abdulla Oripov's lyrical poetry, for instance, uses assonance to unite the concepts of patriotism and love. Assonance is often utilized by Uzbek poets to elicit certain emotional responses, which is consistent with the melodic nature of the Uzbek language (Sattorova, 2010).

Enjambment, running over of a sentence without interruption after the line ending, is used to keep suspense and continuity going while narrating. It is a common practice in English verse to convey a sense of flow and imminence, as Sylvia Plath has in Morning Song. On the other hand, enjambment, which is focused on melody and improvisation in works such as those by Arthur Rimbaud, illustrates the French Romantic tradition of poetry (Rimbaud, 1871). Since traditional measures such as aruz have otherwise controlled Uzbek poetry, enjambment has otherwise remained less common. But with the progress of literature globally, this technique has found its application among poets such as Zulfiya in free verse to express matters of the contemporary period (Ismatova, 2018). The differences in the uses in traditions reveal how it is practiced in different linguistic and cultural contexts. Enjambment can be best exhibited in Sylvia Plath's Morning Song as lines go on to establish an informal tone. Simultaneously, however, classical Uzbek poetry uses less enjambment since it is more based on classical metrical forms, such as the ancient aruz meter. Enjambment in free verse, however, has become wider in use among modern Uzbek poets due to external literary influences. Zulfiya's work, for example, illustrates how enjambment is applied in Uzbek poetry to convey contemporary thought and deviate from strictly traditional forms (Ismatova, 2018).

In an attempt to reveal the determinants of linguistics and culture in the usage of some devices of poetry, this study contrasts their application within Uzbek and English poetry. The outcomes generate a richer picture of traditions in poetry and disclose the mutual intersection of universally efficient stylistic options and expression of a conditional kind. Not only does the comparative approach formulate the science of poetics, but it also makes literary art understandable between cultures (Karimova & Sobirova, 2025).

Research methodology. To demonstrate various historical periods and famous poets of both background, a particular sample of twenty English and twenty Uzbek poetry was used for research. English poems were collected from different anthologies, including The Collected Poems of Sylvia Plath (Plath, 1981), The Complete Poems of Emily Dickinson (Dickinson, 1960), and The Norton Anthology of Poetry (Ferguson, Salter, & Stallworthy, 2005). The Collected Works of Abdulla Oripov (Oripov, 1992), the Anthology of Uzbek Poetry (Ismatova, 2003), and historical collections of Alisher Navoi's works (Karimov, 1995) were used as sources of selections for the Uzbek corpus. Alisher Navoi, Abdulla Oripov, Zulfiya, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, and others were employed in the Uzbek corpus, whereas William Shakespeare's

writings, John Keats's writings, Sylvia Plath's writings, Edgar Allan Poe's writings, Robert Frost's writings, Emily Dickinson's writings, and others were employed in the English corpus.

The enjambment, alliteration, and assonance of both poems were examined qualitatively. The principal concentration of the analysis was:

- Frequency: How many times each device occurs.
- Function: The stylistic and thematic functions of the devices.
- Context: Cultural or linguistic variables that define the use of the devices.

A three-step analytic procedure was used in the study:

Identification: It was easier to pinpoint examples of alliteration, assonance, and enjambment via reading each poem carefully. Syntactic flow and auditory repetition were used to categorize language patterns.

Comparison: The comparison of how these techniques were used in English and Uzbek poetry was done to explore commonalities and differences. It involved analyzing how the poets used specific techniques to achieve specific artistic goals.

Interpretation: Cultural and historical contexts were utilized in interpreting the outcomes. For example, the role of oral traditions within Uzbek poetry and literary movements like Romanticism and Modernism on English poetry were considered.

For providing authenticity, the following sources were examined, i.e., critical anthologies and existing literature. Expert opinions of the literary experts specialized in English and Uzbek poetry also aided with the interpretations.

Preventing a researcher-centered approach from entering into its account, methodical and just appraisal of literary devices and their linguistic and cultural significance while showcasing them, methodology prevented researcher bias.

Research results. English poetry: Shakespeare's Sonnet 18 ("Rough winds do shake the darling buds of May") depicts the application of alliteration for stress and melody numerous times (Shakespeare, 1609). Similarly, Edgar Allan Poe's *The Raven* employs words like "weak and weary" to create its mournful atmosphere (Poe, 1845). Another instance is in Edgar Allan Poe's *The Raven*, where the mournful atmosphere is created by repetition of consonants like "weak and weary."

Other than that, in William Blake's *The Tyger*, "Tyger Tyger, burning bright" uses the letter "T" over and over again to create a hypnotic tone that suits the theme of awe and fear in the poem (Blake, 1794). In *Mending Wall*, Robert Frost uses alliteration too in "Good fences make good neighbors," which supports the casual tone of the poem (Frost, 1914).

And as in Keats' *Ode to a Nightingale* ("Thou wast not born for death, immortal Bird!"), conventionally, feeling was built with assonance (Keats, 1819). The repetition of the 'e' and 'o' sounds in Emily Dickinson's *Because I Could Not Stop for Death*, for example, is employed to achieve the otherworldly and reflective mood of the poem (Dickinson, 1890). W. B. Yeats' "The Lake Isle of Innisfree," the repetition of lingering vowel sounds causing lines such as "I hear it in the deep heart's core" to sound over and again in a reflective mood.

Furthermore, such as "In the room the women come and go, / Talking of Michelangelo" in T. S. Eliot's "The Love Song of J. Alfred Prufrock" employs assonance; repetition of sound "o" usually gives a perception of retarded rhythm and melancholic rumination (Eliot, 1915).

The purpose of enjambment was to make smoothness and to sustain the tension. Sentences extending from one to the next, such as "Love set you going like a fat gold watch," is the best example of the same in Sylvia Plath's *Morning Song*. Also, enjambment is used to establish a reflective rhythm in Robert Frost's *Stopping by Woods on a Snowy Evening*, for instance, "The woods are lovely, dark, and deep, / But I have promises to keep." (Frost, 1923). Because there is no punctuation, readers are encouraged to read the stanza in one breath (Plath, 1961).

In addition, Walt Whitman's *Leaves of Grass* has much enjambment, as is the case in the line "I celebrate myself, and sing myself, / And what I assume you shall assume." Disregard for the rules of strict poetry and the poet's broad vision are replicated through the continuum of thoughts that does not stop (Whitman, 1855).

Uzbek poetry: Since it is oral in nature, alliteration was used more often in epic and didactic poetry. Navoi, for instance, employs repeated

consonants to achieve rhythmic repetition in the line "Bir bahrida behisht, bir bog'ida bo'ston" (Karimov, 1995). Uzbek poetry tends to use such alliterative patterns in order to facilitate performance as well as memorization.

In addition, Erkin Vohidov's "Til" ("Language"), with its adherence to the mnemonic patterns of Uzbek oral storytelling, is adamant about the emotional connection between language and identity through its doubling of consonants "T" and "L" in the lines like "Til bu xalqning dardi, til bu xalqning baxti" (Vohidov, 1980).

Assonance in lyrical and narrative poetry put thematic unity on the poem. Repetition of vowel sounds in "Ko'zimda yosh, yuragimda yosh yashaydi" by Oripov, for example, is used to create strong emotional suggestion (Sattorova, 2010). Phonetic concordance of the Uzbek language is consonant with melodic effect. As in "Baxtim mening yorug' osmonda, ko'nglimda bahor" ("My happiness is in the bright sky, spring in my heart"), where assonance is used to make the tone lighter and the originality of the poem more powerful, Zulfiya uses more assonance in his poetry lines (Zulfiya, 1965).

As a result of the use of traditional metrical forms, enjambment was unusual. Yet, enjambment is more and more used by contemporary Uzbek poets like Zulfiya. In her poem "Yuragimni to'lqinlarga tashlar, kechalar....," for instance, the sentence spills over into the following line, skipping over the old caesuras in order to convey emotional and subjective depth (Ismatova, 2018).

And so, Enjambment is easily utilized in Muhammad Yusuf's modernist poetry, including "Ko'ngil," to upend conventional anticipation of rhythm and allow a freer and more individual exploration of themes like love and loss (Yusuf, 1990).

Discussion. The discovery confirms that poetic devices possess culturally particular and universal characteristics. Correspondence of sound and meaning in poetry works in a manner that tends to cross cultural boundaries and align discordant language systems, based on the analysis of Tsur (2008) and Jakobson (1960). For example, the more autonomous stylistic use of alliteration in English poetry (Shakespeare, 1609) differs from its mnemonic use in Uzbek oral poetry, as outlined by Karimov (1995). These trends demonstrate the worth of comparative approaches to literary analysis in terms of explaining both linguistic variation and macro-scale cultural narratives. Both assonance and alliteration operate the same aesthetic purposes in both Uzbek and English poetry but with differing cultural applications. From free verse of 20th-century experimentation to formalized ones of the Renaissance, English poetry demonstrates enormous creative and versatile spirit in using such devices for whatever literary trend there is. Plath's enjambment in modernism, for instance, goes against convention in evoking the voice of self and here-and-now issues, while Shakespeare's alliteration is within rhythmic conventions of Elizabethan form.

Oral tradition directly affects the use of such devices in Uzbek poetry. In a culture where poetry has been oral, alliteration not only serves aesthetically but also functionally as a device for helping to memorize and recite. The mnemonic function of alliteration in encoding and passing on cultural tradition is emphasized in its frequency in Navoi's epic poems, as Karimov (1995) suggests.

A comparison of English and Uzbek poetry illustrates culturally specific as well as universal trends in the use of alliteration, assonance, and enjambment. These technical devices are not decorative; they structure the rhythm, tone, and subject resonance of a poem. The free use of alliteration and assonance in English poetry will tend to mirror the phonetic structure of the language itself and its poetry tradition. They have been employed by poets like Shakespeare and Poe to make significant points and provide melody. For instance, assonance in Edgar Allan Poe's *The Raven* works towards the morose atmosphere, and alliteration underlines the fleeting nature of beauty in Shakespeare's Sonnet 18. Modern poets like Sylvia Plath, whose use of enjambment shuns convention and emphasizes immediacy and subjectivity, also depict the cultural responsiveness of these instruments.

The same techniques are employed regularly in Uzbek poetry for the support of oral tradition. Excessive use of alliteration and assonance, as a device in the poetry of Alisher Navoi, not only adds to the phonic value of the poetry but also to its memorability, which is of maximum utility in a literature based on oral tradition. As it is based on formal forms of meter, enjambment was less common for classical Uzbek poetry, but as the new phase of world poetry evolution developed, enjambment became more common. Following the

tendencies of world literature, contemporary poets such as Zulfiya use enjambment to convey emotional and psychological tension (Ozodakhon, 2024).

Comparative literature studies, for example, by Tsur (2008) and Jakobson (1960), show unique cultural forms of poetic devices' occurrence and universality. In contrast to the freer application of the device in English poetry, the mnemonic and rhythmic roles of alliteration in Uzbek poetry, established by Karimov (1995), are utilized to emphasize its oral tradition. The expressive function of assonance in Uzbek poetry, found by Sattorova (2010), also demonstrates the sound beauty of the language and adheres to its melodic oral tradition.

Use of enjambment in emergent Uzbek poetry represents a development towards a cosmopolitan style for literary composition. The change follows other literary canons, which see free verse and structural inventiveness re-make canonical poetic form. The findings extension to implications impacts the greater theoretical discussion for cross-cultural literary analysis by caring at the areas where language, culture, and stylistic choice come together (Karimova, 2024).

Besides, the results of this comparative research put into perspective culturally determined characteristics of enjambment, alliteration, and assonance poetry devices in Uzbek and English poetry, and their global application. The essay demonstrates the influence of linguistic structure and cultural heritage on the stylistic choice of the poets in both traditions through examination of complex forms of these devices.

Although both exist for different purposes and in the two cultures in different ways, alliteration came to be a powerful poetic device in English and Uzbek. Alliteration tends to enrich theme factors in English poetry with the delivery of planes of meaning and attraction of sound. For example, Edgar Allan Poe's "The Raven" is enriched in mood by the use of alliteration. Words such as "weak and weary" with repetition of initial consonants emotionally involve the reader by expressing the speaker's psychological pain (Poe, 1845). Also, in William Shakespeare's "Sonnet 18," conscious deployment of alliteration, "darling buds," beautifies the poem's sweet melody (Shakespeare, 1609). This unconscious deployment of alliteration supports Jakobson's (1960) argument that poetic sound structures enhance reader engagement and emotional effect.

Alliteration also played another mnemonic role in Uzbek poetry, specifically in the oral genres that have contributed to its literary legacy. Alliteration was used by Alisher Navoi, the father of Uzbek classical literature, in his epics on a frequent basis to enable oral recitation and memorization (Karimov, 1995). For instance, the verse "Bir bahrida behisht, bir bog'ida bo'ston" brings out the spoken-nature of the poem using consonants repeated in sequence to bring out the rhythm and melody of the words. English poetry being a written poetry has benefited from the usage of alliteration to aid memorization fade away incrementally. As Sattorova (2010) and Karimov (1995) pointed out, the importance of alliteration in Uzbek poetry has been maintained because of the Central Asian history of oral recitation dependency.

Uzbek and English poetry, although with a difference in cultures, showed the aesthetic and emotive roles of assonance. Assonance is extensively used in English poetry to increase the emotional depth and lyrical charm of the poem. For instance, to evoke a serious and contemplative mood, John Keats uses assonance in lines like "Thou

wast not born for death, immortal Bird!" in "Ode to a Nightingale" (Keats, 1819). This conscious repetition of vowel sounds is utilized to achieve the reflective and individualistic nature of the Romantic tradition.

Similarly, assonance is also essential to evoking emotion and enriching verse in Uzbek poetry. Abdulla Oripov, for example, uses constant vowel repetition sounds in his line "Ko'zimda yosh, yuragimda yosh yashaydi" to evoke sensations of love and patriotism (Sattorova, 2010). Poets of Uzbek include assonance as an element of oral reciting prowess, whereas on the other hand, English poetry uses assonance for aesthetics. Tsur (2008) draws attention to the cultural importance of oral poetry within the Uzbek context through the statement that assonance plays an important role in securing the melodic coherence of a performance.

More enjambment—a stylistic technique building tension and helping narratives to run on—was found to happen in English poetry concerning traditional Uzbek poetry. Enjambment is also one of the most common techniques used by English poets like Robert Frost and Sylvia Plath to maintain rhythm and provide fluidity. In Plath's "Morning Song," for example, the absence of a pause in some lines through punctuation enables thinking to pass over into the next, paralleling the poem's simplicity and conversational mood (Plath, 1961). Thus, Frost's "Stopping by Woods on a Snowy Evening" challenges readers to pause and relish the density of the poem's themes with enjambment to give a reflective rhythm (Frost, 1923).

Enjambment, however, has been employed traditionally sparingly in the traditional Uzbek poetry that relies primarily on accepted metrical forms like the aruz. The strict forms of these structures normally demand abrupt breaks at line ends, and this is in keeping with oral performance conventions. However, contemporary Uzbek poets now employ enjambment in their free verse poetry because of global literary influences. For example, the poetry of Zulfiya illustrates how enjambment can transcend classical limits to express personal and modern themes (Ismatova, 2018). This transformation follows the movement whereby Uzbek poetry is moving inasmuch as it seeks the middle path between tradition and modernism.

Conclusion. The subtle cross-transference between poetic devices and cultures is attested to by the variation in English and Uzbek poetry's applications of alliteration, assonance, and enjambment. Comparable in the work they are performed, adding rhythm, mood, and theme-depth, they tap into different linguistic and cultural tradition. Because poets use them to be part of numerous schools of imagination and personal sentiments, English poetry displays a huge range of stylistic diversity. Because Uzbek poetry has its roots in oral forms, it uses such devices repeatedly and memorably to display its cultural and temporal inheritance.

The study also acknowledges the dynamic character of poetic traditions. The flexibility of Uzbek poets to adapt to the most recent trends and issues is seen in the prevalence of enjambment in contemporary Uzbek poetry as a tendency towards the employment of international literary norms. Apart from educating us on the understanding of Uzbek and English poetry, a comparative study like this one opens up the possibility of more research on how poetical devices are used in other linguistic and cultural traditions.

References:

1. Dickinson, E., & Johnson, T. H. (1960). *The Complete Poems of Emily Dickinson*. Edited by Thomas H. Johnson. Little, Brown & Company.
2. Ferguson, M., & Salter, M. J. (Eds.). (2004). *The Norton Anthology of Poetry: Full Fifth Edition*. WW Norton & Company.
3. Frost, R. (1978). *Stopping by Woods on a Snowy Evening*. Irwin Limited.
4. Ismatova, Z. (2003). *Anthology of Uzbek Poetry*.
5. Ismatova, Z. (2018). *Collected Essays on Modern Uzbek Poetry*.
6. Jakobson, R. (1960). Linguistics and Poetics. *Selected Writings III/Mouton*.
7. Karimov, A. (1995). *Alisher Navoi and the Oral Traditions of Uzbek Poetry*. Tashkent: Uzbekistan Academy of Sciences.
8. Karimova, O. (2024). Comparative study of SLA: effects of early exposure, education, and psychology on sixth-graders. *Tamaddun Nuri Jurnali*, 12(63), 28-30.
9. Karimova, O., & Sobirova, N. (2025). MUQIM FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASINING O 'ZIGA XOSLIK LARI. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 1(64), 214-217.
10. Keats, J. (1819). *Ode to a Nightingale*.
11. Oripov, A. (1992). *Collected Works of Abdulla Oripov*.
12. Ozodakhon, K. (2024). THE BENEFITS AND DRAWBACKS OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE (ChatGPT) IN EDUCATION. *University Research Base*, 805-808.
13. Plath, S. (1961). *Morning Song*. In *Collected Poems of Sylvia Plath*. Faber & Faber.
14. Poe, E. A. (1998). *The Raven:(1845)*. Trade Binders Local.
15. Rimbaud, A. (1974). *A Season in Hell and the Illuminations* (Vol. 403). Oxford University Press, USA.
16. Sattorova, S. (2010). Melodious Traditions in Uzbek Poetry. *Uzbekistan: Language and Culture*, 1(1).
17. Shakespeare, W. (1609). *Sonnet 18*. tredition
18. Tsur, R. (2008). *Toward a Theory of Cognitive Poetics: Second*.



KONSTRUKSION GRAMMATIKANING KOGNITIV TILSHUNOSLIKKA QO'SHGAN HISSASI VA FARQLARI

Komilova Malikaxon Nodirjon qizi

Qo'qon universiteti Jahon tillari kafedrasida o'qituvchisi

Tel: +998943601216

Email: hurramsulton2000@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 49 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1162	Ushbu maqolada zamonaviy lingvistik yo'nalishlaridan biri bo'lgan konstruksion grammatika hamda kognitiv tilshunoslik o'rtasidagi uyg'unlik va farqlar tahlil qilinadi. Konstruksion grammatika "konstruksiya"ni asosiy lingvistik birlik sifatida qarar ekan, so'z, so'z birligini va grammatik shakllarning shakl-semantik xususiyatlarini chuqur o'rganishni maqsad qiladi. Kognitiv tilshunoslik esa bu shakllar ortida yotgan bilish jarayonlari, metafora va metonimiyaga asoslangan ma'no transferlari, madaniy kontekst hamda konseptual strukturalarni sharhlaydi. Mazkur uyg'unlashuv tilda kuzatiladigan o'zaro bog'liq jarayonlarning to'liq va izchil tahlil qilinishiga xizmat qiladi. Konstruksion yondashuv real nutq strukturalarining vazifaviy va funksional tomonlarini yoritib bersa, kognitiv yondashuv ularning mental asoslarini izohlashni taklif etadi. Natijada tilshunoslikdagi nazariy ko'lam yanada kengayib, kommunikativ jarayonning shakl-semantik va bilish-ma'no jihatlarini yaxlit holda tadqiq etilishiga imkon yaratiladi. Bunday integratsiya orqali lingvistik xulosalarni madaniy, psixologik va ijtimoiy omillar bilan ham bog'lash imkonini tug'iladi, natijada til fenomenining murakkab tabiatini yaxlit tarzda tushunish imkoniyati aniq ifodalanadi.
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS konstruksion grammatika, kognitiv tilshunoslik, konstruksiya, bilish jarayonlari, metafora, metonimiya, konseptual model, diskurs, shakl-semantik birlik, madaniy kontekst	

Kirish. Hozirgi zamon lingvistik tadqiqotlarida tilni faqat rasmiy qoidalar majmui sifatida emas, balki chuqur ma'no va bilish jarayonlari bilan uzviy bog'liq murakkab sistema sifatida o'rganish tendensiyasi kuchaymoqda. Shu boisdan turli nazariy yondashuvlar – konstruksion grammatika va kognitiv tilshunoslik – bir-birini to'ldirgan holda, til haqidagi an'anaviy qarashlarni qayta ko'rib chiqishga zamin yaratdi. Bunday integrativ nazariy qarashlar til birligi sifatida so'z, shakl yoki gapdan tashqari, undan kengroq ma'no va funksiyaviy makonni o'z ichiga oluvchi konstruksiyalarni ham ilmiy diqqat markaziga olib chiqmoqda.

Konstruksion grammatika nazariyasi, asosan, "konstruksiya" tushunchasiga tayanib, til birligining shakl-semantik yaxlitligini ta'kidlaydi. An'anaviy yondashuvlardan farqli o'laroq, u har bir konstruksiyaga xos bo'lgan o'ziga xos ma'no, funksional rol va kommunikativ ahamiyatni inobatga oladi. Kognitiv tilshunoslik esa tilning shakliy xususiyatlaridan tashqari, ushbu shakllar ortida yotgan bilish jarayonlarini, konseptual tuzilmalarni va inson tafakkuri bilan bog'liq murakkab metafora-metonymiya mexanizmlarini o'rganishi bilan e'tibor tortadi. Natijada, konstruksion grammatika va kognitiv lingvistik o'zaro aloqada bo'lganda, tilning kognitiv va funksional jihatlarini izchil tahlil qilish imkonini beradi.

Mazkur ilmiy maqolada konstruksion grammatikaning kognitiv tilshunoslikka qo'shgan hisssasi va ikki yondashuv o'rtasidagi farqlarga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, konstruksion yondashuvning ma'no va shakl o'rtasidagi bog'liqlikni izohlashi, kognitiv metodlar yordamida konstruksiyalarni tadqiq etish imkoniyatlari hamda bunday integratsiya natijasida lingvistik sohasida yuzaga keladigan ilmiy istiqbollar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, konstruksion grammatikada nutqiy namuna, idiomatik birkimlar hamda mental jarayonlar qanday o'zaro uyg'unlashishi kognitiv tahlil doirasida ochib beriladi. Shu tariqa, kognitiv tilshunoslik va konstruksion grammatika nafaqat tilshunoslik nazariyasini boyitadi, balki amaliy tadqiqotlarda ham nutq modelini yaxlit, mazmunli va tushunarli tarzda izohlash uchun yangi metodologik asosga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Konstruksion grammatika va kognitiv tilshunoslik sohalarida olib borilgan tadqiqotlar o'zaro aloqada bo'lgan, ammo farqli yondashuvlarga asoslanadi. Konstruksion grammatika, asosan, til birligi sifatida "konstruksiya"ni qarab, uning shakl-semantik va funksional jihatlarini tahlil qilishga qaratilgan. G. Lakoff va M. Johnsonning *Metaphors We Live By* (1980) asarida ta'kidlanishicha, metaforalarning kundalik nutqdagi roli va uning bilish jarayonlariga qanday ta'sir ko'rsatishi tilning kognitiv asoslarini tushunishga yordam beradi. Lakoff va Fillmor (1988) esa konstruksion grammatikada til birligini faqat sintaktik emas, balki semantik va pragmatik nuqtai nazardan ham ko'rib chiqishni ta'kidlaydi.

Kognitiv tilshunoslik esa tilning o'ziga xosligini, inson tafakkuri bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni tushunishga qaratilgan. R. Langacker (1987) o'zining *Cognitive Grammar* asarida tilni bilish jarayonlariga asoslangan, konseptual tuzilmalar orqali izohlashga harakat qilgan. Langacker tilni faqat formal qurilishlar tizimi sifatida emas, balki uning shaklini bilish jarayonlariga kognitiv asosda aniqlashni ko'rsatadi. Uning yondashuvi tilni insonning dunyo haqidagi bilimlarini aks ettiruvchi tizim sifatida tushunishga imkon beradi. A. Goldberg (1995) esa konstruksion grammatikaning rivojlanishida muhim rol o'ynagan va "konstruksiya"ni semantik ma'nolarni o'z ichiga olgan va grammatika qoidalariga mos tushadigan birlik sifatida ta'riflagan.

Konstruksion grammatika va kognitiv tilshunoslik o'rtasidagi aloqalar hamda farqlarni ko'rsatishda bir nechta izlanishlar mavjud. R. Jackendoff (2002) konstruksion yondashuvni va kognitiv tilshunoslikni birlashtirishga urinib, tilning shakl-semantik birliklarini, ularning inson tafakkuridagi o'rni va tasavvurlari bilan qanday bog'lanishini tahlil etgan. U kognitiv lingvistikaning tilni faqat semantik va sintaktik jihatdan emas, balki uning tafakkur tizimiga asoslangan tarzda tushunishga harakat qilganligini ta'kidlagan. Shuningdek, kognitiv va konstruksion yondashuvlarning integratsiyasi natijasida tilni ko'proq kontekstual va madaniy omillar bilan bog'lash imkonini yaratiladi.

S. Talmy (2000) o'zining *Cognitive Linguistics* asarida kognitiv tilshunoslikning asosiy tamoyillarini ishlab chiqqan va tilni insonning bilish jarayonlarining bir qismi sifatida ko'rib chiqishga alohida urg'u bergan. Talmy, shuningdek, tilning konseptual tuzilmalari va ularning qanday qilib real nutqdagi konstruksiyalar bilan mos kelishi haqidagi tadqiqotlarni rivojlantirgan.

Adabiyotlardan kelib chiqqan holda, konstruksion grammatika va kognitiv tilshunoslikning uyg'unlashuvi tilning o'zaro bog'langan shakl-semantik va bilish-ma'no jihatlarini izchil o'rganishga imkon yaratadi. Bu ikki yondashuv, o'z navbatida, tilni faqat grammatik qoidalar sifatida emas, balki inson tafakkuri, madaniy kontekst va kommunikativ jarayonlar bilan uzviy bog'langan murakkab tizim sifatida ko'rishga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologiyasi konstruksion grammatika va kognitiv tilshunoslik yondashuvlarini uyg'unlashtirish hamda ular o'rtasidagi o'ziga xos farqlarni aniq ko'rsatish maqsadiga qaratilgan. Buning uchun avvalo, nazariy manbalar tahlili, korpus lingvistikasi usullari, diskursiv tahlil hamda kognitiv model va metafora-metonymiya tahlillaridan foydalanildi. Ushbu metodlar bir-birini to'ldirgan holda, konstruksion grammatikaning asosiy g'oyalari kognitiv lingvistik nazariyalari bilan bog'lash imkonini beradi.

Birinchi bosqichda, **nazariy manbalar tahlili** amalga oshirildi. Bunda G'arb lingvistik maktabining yetakchi namoyandalari – G. Lakoff, Ch. Fillmor, A. Goldberg, R. Langacker va boshqalarning konstruksion

grammatika hamda kognitiv tilshunoslik bo'yicha fundamental asarlari o'rganildi. Shuningdek, an'anaviy generativ grammatika (N. Xomskiy) nazariyalaridagi asosiy tamoyillar, ularning konstruksion yondashuvdan farqi va kognitiv tahlilda qanday jihatlar qayta ko'rib chiqilishini aniqlashga harakat qilindi. Bu bosqichda nazariy manbalarining chuqur o'rganilishi ko'tarilgan masalaning ilmiy kontekstini tushunishga xizmat qildi.

Keyingi bosqichda **korpus lingvistikasi** usullaridan foydalanish rejalashtirildi. Tadqiqot uchun turli nutqiy kontekstlarda, ijtimoiy muhitlarda va turli mavzularda qo'llangan konstruksiya namunalari aniqlash maqsadida elektron matnlar bazasi tanlab olindi. Korpusdan olingan ma'lumotlar konstruksion modellarni real nutqda qanday ifodalanganini empirik asosda ko'rish, ularning shakl-semantik o'zgarishlarini aniqlash imkonini berdi. Shu orqali kognitiv yondashuvda ta'kidlangan "ma'no – shakl" o'zaro bog'liqligining real nutq namunalari bilan qanchalik mos kelishi tahlil qilindi.

Uchinchi bosqichda **diskurs tahlili** usuli ishga solinib, tanlab olingan konstruksiyalar turli janr va nutq shakllarida (ilmiy, badiiy, ommaviy axborot vositalaridagi matnlar) qanday semantik yuklama va funksiyani bajarishi kuzatildi. Bunda konstruksiya ortidagi ma'no, uning kontekstual ta'siri va nutq paytidagi kommunikativ maqsadlar aniqlashga harakat qilindi. Diskurs tahlili konstruksiyalarni faqat sintaktik yoki leksik birlik sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy, pragmatic holatlar bilan bog'liq, kengroq nutq jarayonining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqishga imkon berdi.

To'rtinchi bosqichda, **kognitiv model va metafora-metonimiya tahlili** konstruksion grammatikaning konseptual asoslarini aniqlashga yordam berdi. Tildagi ayrim muntazam metaforalar (masalan, "hayot – yo'l", "sevgi – sayohat") yoki metonimiyaviy ko'chishlar (masalan, "qalb → his-tuyg'u manbai") konstruksion shakllar bilan qanday uyg'unlashishi, ularning semantik hamda funksional xususiyatlari nima ekanligi kognitiv usullarda tahlil qilindi. Buning natijasida, konstruksiya ichida "shakl – ma'no" bog'liqligi bilan birga, inson ongidagi konseptual model va bilish jarayonlarining ta'siri ham ochib berildi.

So'ngra olingan natijalar xulosa qilish bosqichida **taqqoslash va sintez** qilindi. Bunda konstruksion grammatika yondashuvining kognitiv tilshunoslikka qo'shayotgan hissassi aniq qayd etilar ekan, ikki yondashuv o'rtasidagi farqlar (masalan, kognitiv lingvistika e'tiborini keng konseptual jarayonlarga qaratishi, konstruksion grammatika esa til birligini konkret shakl-semantik struktura sifatida tahlil qilishi) taroziga solindi. Shuningdek, konstruksion yondashuvning kognitiv aspektlari qanday kengayishi va ikki nazariya biriganda tilni chuqurroq tahlil qilish usullari qay yo'sinda rivojlanishi namoyon etildi.

Xulosa qilish mumkinki, mazkur tadqiqot metodologiyasi nazariy manbalar tahlili, korpus lingvistikasi, diskurs tahlili hamda kognitiv metafora-metonimiya tadqiqidan iborat integratsiyalashgan yondashuvni o'z ichiga oladi. Bunday kompleks metodologik asos konstruksion grammatika va kognitiv tilshunoslik o'rtasidagi bog'liqlikni nafaqat nazariy, balki empirik dalillar bilan ham isbotlash, buning natijasida tilni o'rganishning yanada mukammal modelini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari. O'tkazilgan tadqiqot natijalari konstruksion grammatika va kognitiv tilshunoslik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni bir nechta muhim jihatdan yoritib berdi. Avvalo, konstruksion grammatika nazariyasi asosida o'rganilgan nutq namunalari tilda shakl va ma'no birliqi nafaqat fonologik yoki sintaktik sathda, balki mental jarayonlar va konseptual munosabatlar sathida ham chuqur ildiz otishini ko'rsatdi. Bu borada kognitiv tilshunoslik usullari – xususan, metafora va metonimiya tahlili, frame-semantik tadqiqotlar va konseptual strukturalar bilan ishlash konstruksiyalarni keng ko'lamda tahlil qilish imkoniyatini taqdim etdi. Shunday qilib, konstruksiya darajasida ko'rib chiqilgan lingvistik birliklarning ma'no-semantik xususiyatlari ongda bilish modellari bilan bevosita bog'liqligi aniqlandi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, konstruksion yondashuvda o'rganilgan bir qancha konstruksiya turlari – masalan, doimiy iboralar, frazeologizmlar, idiomatik birikmalar va sintaktik qoliqlar – nutqda ma'lum funksiyani bajarish bilan birga, madaniy va idrok jarayonlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Ayni shu tahlil jarayonida kognitiv usullardan foydalanganimiz konstruksiya deganda faqat "gap tuzilmasi" yoki "morfologik birlik" tushunilmasligi, balki kengroq konseptual kontekstda qo'llanadigan til birligi nazarda tutilishi lozimligini isbotladi. O'z navbatida, bu metod konstruksiyalarning pragmatik va diskursiv o'lchamlarini ham chuqurroq yoritish imkonini berdi.

Korpus lingvistikasi asosida tekshiruvdan o'tkazilgan matnlar turli uslubiy, ijtimoiy va ma'no doiralari qamrab olganligi sababli, konstruksion yondashuvning real nutqda qanday namoyon bo'lishi, qanday takrorlanuvchan xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Natijada til kodida, xususan, o'zbek tilida qo'llaniladigan ayrim qotib qolgan iboralar (masalan, "ko'ngliga tugib qo'yish", "o'zini yo'qotib qo'yish", "yurakka yaqin olish" kabi frazeologik konstruksiyalar) faqat sintaktik birlik sifatida emas, balki ularning ortida yotgan konseptual model yoki kognitiv sema bilan namoyon bo'lishi qayd etildi. Shu jihatdan, har bir konstruksiya inson ongidagi ma'lum bir konseptual blokni faollashtirishi ma'lum bo'ldi. Demakki, konstruksion grammatikaning kognitiv jihatlarini o'rganish bunday birikmalarni kengroq ma'no va idrok doirasiga joylashtirishga yordam beradi.

Tadqiqot jarayonida diskurs tahlili usuli qo'llangani, konstruksiya va uning turli matnlardagi vazifalarini aniqlash imkonini yanada kengaytirdi. Xususan, gazeta maqolalarida paydo bo'ladigan "X yelkasidan tog' ag'darilgandek bo'ldi" kabi metaforik ifodalar faqat leksik darajadagi ko'chma ma'no emas, balki konstruksiya sifatida nutqda tez-tez takrorlanishi kuzatildi. Bu ibora kengroq diskurs kontekstida kognitiv model sifatida ham xizmat qilishi mumkinligi ma'lum bo'ldi. Konstruksion grammatika bunday ifodalarning o'ziga xos shakl va semantik-funksional jihatlarini ko'rsatib bersa, kognitiv tilshunoslik ularning ongda konseptual manbasini, emosional yo'naltirilganligini va madaniy konnotatsiyalarini sharhlaydi. Natijada ushbu "X yelkasidan tog' ag'darilgandek bo'ldi" konstruksiyasi barkamol tahlil qilinganda, nutq qatlamida qanday ma'no yukini olib borishi va qanday tasviriy-ifodaviy kuchga egaligi tushuntirildi.

Natijalar shu bilan ham cheklanmaydi. O'zbek tilida uchraydigan turli konstruksiyalarning paydo bo'lish manbalarini tahlil qilish jarayonida, ko'p hollarda ular madaniy an'analar, ijtimoiy ko'nikmalar va tarixiy til qatlamlaridan oziqlanishi aniqlangan. Masalan, ayrim konstruksiyalarda qadimiy e'tiqodlar yoki milliy udumlar ifodasi topishi mumkin. Bunday konstruksiyalarni konstruksion grammatika nazariyasi nuqtai nazaridan tahlil qilganda, ularning leksik shakl, sintaktik joylashuv va semantik funksiyasi izchil ifodalanadi. Shu bilan birga, kognitiv yondashuv esa bu konstruksiyalarning ming yillik tajriba yoki ongda shakllangan konseptual xaritalar bilan bog'lanishini tasdiqlaydi. Natijada har bir konstruksiya, odatda, nafaqat lingvistik, balki madaniy-kognitiv boylik ham ekanligi oydinlashdi.

Tadqiqot natijasida aniqlandiki, konstruksion yondashuvning kognitiv tilshunoslikka qo'shadigan eng katta hissassi – tilning shakl va ma'no uyg'unligini ongda bilish jarayonlari bilan hamohang ravishda ko'rsatib berishdan iborat ekan. Bu esa an'anaviy grammatika doirasidan tashqariga chiqib, "gap qurilishi" ni jiddiy ma'no-funksional qirrada tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, konstruksiya darajasida tekshiriladigan "shu gap" yoki "shu birikma" qanday kognitiv model bilan bog'liqligi, qanday metaforik tizimni ifoda qilishi va qanday diskursiv vaziyatda nima sababdan qo'llanishi kabi savollar ham yanada keng qamrovli javob topdi.

Metafora va metonimiya tahlillaridan olingan natijalar konstruksion yondashuv uchun ham mazmunli bo'lib chiqdi. Masalan, ayrim konstruksiya misollarida an'anaviy ma'no o'zgarishlari (metaforik yoki metonimik ko'chishlar) uzil-kesil leksik qatorda emas, balki butun gap yoki so'z birikmasi darajasida ro'y berishi aniqlandi. "Tilingni tiy!" kabi ifodalarda ma'no to'g'ridan-to'g'ri "gapirishni bas qilish" talabini bildirsa-da, semantik asosda "til" konsepti "gapirish jarayoni" bilan mental ravishda bog'liq ekani kuzatildi. Shu o'rinda konstruksion grammatika ushbu birikmaning shakli, nutqiy funksiyasi va kontekstdagi o'rni qandayligi haqida ma'lumot bersa, kognitiv tahlil uning asosida "gaplashishni to'xtatish" konsepti bilan "til" konseptini birlashtiruvchi metaforik modelni fosh qiladi.

Natijalar doirasida aniqlangan yana bir muhim nuqta – konstruksion grammatika ham kognitiv tilshunoslik singari tilni bilish jarayonlarining turli sathlari bilan bog'lashga harakat qiladi, ammo ularning tadqiqot fokuslari bir oz farqlanishi mumkin. Konstruksion grammatika diqqat markazida aniq, kuzatiladigan, formal va semantik jihatdan ifodalangan konstruksiya turadi, kognitiv tilshunoslik esa bu konstruksiya ortidagi ong jarayonlarini, mental modellash va konseptual tarmoqlanishni chuqurlashtirib o'rganadi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, aynan shu farq ularning bir-birini mukammal to'ldirishiga xizmat qiladi. Konstruksion yondashuv "tilning real qurilishi"ni izohlar ekan, kognitiv yondashuv bu qurilishning "mental me'morchiligi"ni ta'riflab beradi.

Empirik ma'lumotlar tahlilining yana bir xulosasi – til konstruksiyalari turli darajalarda shakllangan bo'lishi, ya'ni ayrimlari ancha izchil, "qotib qolgan" shaklda uchrasa, ba'zilar aniq kontekstda moslashuvchan, ijodiy tarzda vujudga kelishi mumkin. Bunday moslashuvchanlik aynan kognitiv yondashuv ko'taradigan individual nutq ijodi, nutq jarayonida ijodkorlik, metaforik ko'chishlarga ochiqlik bilan bog'liq. Shunda konstruksion grammatika mikrosathda bu "newly coined" konstruksiyaning shakl-semantik o'ziga xosliklarini ifodalasa, kognitiv tadqiqot makrosathda bu ijodkorlikka turtki bo'luvchi umumiy konseptual mexanizmlarni aniqlashi mumkin. Shuning uchun ham, natijalar shuni ko'rsatadiki, konstruksion grammatika va kognitiv tilshunoslik integratsiyasi lingvistik hodisalarni o'rganishda yanada keng qamrovli yondashuvni yaratuvchi omil ekan.

Yakuniy tahlillardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, konstruksion grammatika kognitiv lingvistikaning uslub, nazariy qarashlar va bilish jarayonlari to'g'risidagi g'oyalarni amaliy grammatik tadqiqotlarga tadbiiq etadi. Natijada an'anaviy yondashuvlarda nazardan chetda qolishi mumkin bo'lgan ma'no-semantik jihatlar va nutqiy nozikliklar har tomonlama yoritiladi. Bu esa tilni chuqurroq tushunish, madaniy-ma'naviy va mental qirralar bilan bog'liq ko'plab lingvistik hodisalarni izohlash uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, tadqiqotda erishilgan natijalar konstruksion grammatika va kognitiv tilshunoslikni o'zaro uyg'unlashtirish orqali real nutq jarayonini, bilish modellarini va lingvistik birliklarning funksional-semiosfer xususiyatlarini yanada chuqur ochib berish mumkinligini ko'rsatadi.

Muhokama.

Mazkur tadqiqotda olingan natijalarni chuqurroq tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, konstruksion grammatika va kognitiv tilshunoslik integratsiyasi lingvistik hodisalarni o'rganishga yanada keng ko'lamli yondashuv taklif etadi. An'anaviy grammatika tilda so'z turkumlari, morfologik shakllar va sintaktik tuzilmalar ustida to'xtalib, ma'no va funksional jihatlar u qadar keng yoritilmasligi mumkin. Kognitiv yondashuv ham, o'z navbatida, ma'no hamda bilish jarayonlariga diqqatni qaratib, konkret lingvistik strukturaning formal xususiyatlarini izchil tasvirlab berishga kamdan-kam hollarda e'tibor qaratadi. Biroq konstruksion grammatika shakl-semantik birlik – "konstruksiya"ni tahlil qilishga yo'naltirilgani bois, u tilning har ikki – formal va kognitiv – jihatini birdek inobatga oladi.

Ushbu ish jarayonida aniqlandi: konstruksion grammatikaning asosiy nazariy ko'rsatkichlari (masalan, shakl va ma'no uyg'unligi, o'ziga xos funksional yuklama) kognitiv lingvistika tahlillari (metafora, metonimiya, konseptual model) bilan uyg'un ravishda qo'llanganda, til birligi faqat "gap qurilishi" yoki "morfemalar birikmasi"dan iborat bo'lmay, balki ongda mustahkam o'rin egallagan konseptual strukturaga ham mos kelishi aniqlanadi. Shunday qilib, kognitiv yondashuv konstruksiyalar ortidagi mental mexanizmlarni ko'rib chiqsa, konstruksion grammatika bu mexanizmlarning lingvistik shaklga qanday tadbiiq etilishini ochib beradi.

Diskurs tahlili jarayonida kontekstual omillar, nutqning maqsadi va madaniy ko'rsatkichlar ham konstruksiyalarni shakllantirishi, ularning qo'llanishini cheklashi yoki kengaytirishi mumkinligi ko'rindi. Bu esa konstruksion yondashuvni faqat "grammatik" qoliqlar bilan cheklab bo'lmazligini, kognitiv yondashuvdagi ijtimoiy-madaniy, psixologik va bilish jarayonlari bilan ham uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Masalan, frazeologik birikmalarning diskursdagi ahamiyati faqat leksik ko'chma ma'nogina emas, balki matnning butun semantik, uslubiy va assotsiativ qurilishini o'z ichiga oladi. Demak, "konstruksiya"ni tahlil qilish uchun kognitiv usullardan foydalanish aynan shu ijtimoiy-madaniy va psixolingvistik omillarni qamrab olishga yordam beradi.

Natijalarda ko'rinadiki, konstruksion grammatika kognitiv tilshunoslik nazariyalariga tayangan holda, lingvistik strukturaning kelib chiqishi, rivojlanishi va aktual kommunikativ jarayonda qanday ma'no hosil qilishini aniqlab bera oladi. Bunday yondashuv tilshunoslikda oldindan shakllangan turli nazariy "lagers" o'rtasida o'ziga xos ko'priq bo'lib xizmat qiladi. Zero, kognitiv lingvistika ma'no va idrok jarayonlarini ilmiy markazga olib chiqishi bilan ajralib tursa, konstruksion grammatika esa o'sha ma'no va idrok vositalarining real lingvistik shakldagi namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Natijada tadqiqotda keltirilgan misollardan ko'rish mumkinki, tilshunoslikda bir paytlar bir-biriga raqibdek ko'ringan nazariy oqimlar (masalan, generativ yondashuv va funksional-kognitiv yondashuvlar) o'rtasidagi

tafovutlarni bartaraf qilishda ham konstruksion prinsiplar muhim rol o'ynashi mumkin.

Yakuniy muhokamada aytish mumkinki, konstruksion grammatika va kognitiv tilshunoslikning uyg'unligi til birligi sifatida "konstruksiya" tushunchasini inson ongidagi konseptual jarayonlar, madaniy tajriba va diskursiv kontekstlar bilan chambarchas bog'laydi. Bu, bir tomondan, til tahlilini aniq semantik, pragmatik va formal me'zonlar asosida mustahkamlasa, ikkinchi tomondan, tadqiqotchilarni lingvistik hodisalarning chuqur bilish (kognitiv) ildizlari tomon yetaklaydi. Shunday qilib, tadqiqot natijalari kelajakda konstruksion grammatika va kognitiv lingvistika tamoyillaridan integratsiyalashgan holda foydalanish tilni yanada mukammal, chuqur va ma'no-funksional nuqtai nazardan tahlil qilishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Bu esa, pirovardida, til fenomenining inson ongidagi aks etish mexanizmlari va madaniy ijtimoiy ta'sirchanligi haqida keng qamrovli tasavvur shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot konstruksion grammatika va kognitiv tilshunoslikning bir-birini qanday to'ldirishi va tilshunoslikka qanday yangi imkoniyatlar ochib berishini ko'rsatdi. Konstruksion yondashuv asosida til birligi faqat so'z, so'z shakllari yoki sintaktik tuzilmalar majmui emas, balki keng ko'lamli semantik va funksional yuklamaga ega bo'lgan "konstruksiya" sifatida qaralishi aniqlandi. Bunday konstruksiyalarni tahlil qilishda kognitiv lingvistikadagi konseptual model, metafora va metonimiya, frame-semantika hamda bilish jarayonlariga oid uslublar qo'llanilishi konstruksion grammatikaning semantik, pragmatik va diskursiv talqinlarini kengaytirishga xizmat qildi. Natijada har bir konstruksiya ortida nafaqat formal qoidalar, balki inson ongida shakllanib boradigan konseptual tarmoqlar, madaniy an'analar va idrok jarayonlari yotishi ravshanlashdi.

Konstruksion grammatika an'anaviy grammatik tadqiqotlarda yetarlicha yoritilmagan yoki ikkinchi planda qolib ketadigan nutqiy namunalarga ham e'tibor qaratadi. Aniqlik, gap tuzilishi, frazeologik birikmalar, idiomatik iboralar va hatto fonetik o'zgarishlarda ham takrorlanadigan namuna – konstruksiya – muhim rol o'ynashi kuzatildi. Kognitiv tilshunoslik esa aynan shu konstruksiyalar ortidagi bilish jarayonlarini: inson ongida ma'lum konseptual uyg'unlik, metaforik ko'chishlar, tajribaviy asos va xotira mexanizmlarini sharhlab beradi. Bu ikki yondashuvning uyg'unligi tufayli lingvistik birlikni chuqurroq, mazmunan va funksional nuqtai nazardan tahlil qilish mumkin bo'ldi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, konstruksion yondashuv avvalo lingvistik strukturaning shakl va ma'no o'rtasida mustahkam bog'liqlik bo'lishini ta'kidlaydi. Kognitiv yondashuv esa bu bog'liqlik nega va qanday shakllanishini, bilish jarayonlari bilan qay darajada o'zaro ta'sirga kirishishini tushuntirishga harakat qiladi. Natijada konstruksion grammatika tilda "rasmii" ko'rinadigan strukturaviy qonuniyatlarni aslida ongimizdagi konseptual model, madaniy-ma'naviy meros va ijtimoiy tajriba belgilashini tasdiqlovchi boy ilmiy ma'lumotlarni keltira oldi. Bu, o'z navbatida, lingvistik tadqiqotlar doirasini kengaytirib, nafaqat til qurilishi, balki nutqning emotsional, ma'naviy va diskursiv ko'rinishlarini ham o'rganish muhimligini ta'kidladi.

Tahlillar natijasida aniqlanganki, konstruksion grammatika ma'lum bir konstruksiyani shakl, funktsiya, semantika va pragmatik xususiyatlar jihatidan bevosita tahlil qiladi, kognitiv lingvistika esa bu konstruksiyaning ijodiy qo'llanilishi, metaforik kengayishi va madaniy kontekstdagi o'rnini sharhlab beradi. Ushbu ikki uslubdagi tafovut aslida ularning bir-birini mukammal ravishda to'ldirishini anglatar ekan. An'anaviy "grammatik qoidalar" tili haqida gap borganda, kognitiv yondashuvda o'sha qoidalar ortidagi tafakkur jarayonlarini, simvolik ma'nolarni va konseptual moslashuvchanlikni ham inobatga olish lozimligi ko'rindi. Bu esa ma'no-semantik hodisalarning faqat lingvistik emas, ayni paytda psixologik, ijtimoiy va madaniy mezonlar bilan ham uzviy bog'liqligini ochib berdi.

Umuman olganda, konstruksion grammatika va kognitiv lingvistikani integratsiyalash ma'no, funksional yuklama va bilish jarayonlarini birlashtirish demakdir. Buning natijasida tilga xos qoidalar va qonuniyatlar real nutqiy kontekstda qay tarzda ishlashi, nima sababdan ba'zi konstruksiyalar takrorlanib, boshqalari esa zamon o'tishi bilan o'z shakl va ma'nosini o'zgartirishini aniqroq izohlash imkoniyati tug'iladi. Shuningdek, bu usul lingvistik analizni bilish nazariyasi, psixolingvistik, diskurs tahlili va hatto neyrolingvistik bilan bog'lashga ham yordam beradi. Natijada tilni o'rganish an'anaviy formal doiradan chiqib, chuqur kognitiv va kulturaviy poydevor bilan uyg'unlashgan keng qamrovli izlanishlarga zamin yaratadi. Shu tariqa,

konstruksion grammatika kognitiv yondashuv nazariyalarining amaliy tatbiqini osonlashtirib, lingvistik birliklar shakl-semantik mohiyatini mental jarayonlar nurida izohlashga katta hissa qo'shadi.

Mazkur xulosalarga asoslanib aytish mumkinki, konstruksion grammatika va kognitiv tilshunoslikning uyg'unligi nafaqat lingvistik, balki madaniy, psixologik, pedagogik hamda metodik tadqiqotlar uchun ham yangi istiqbollarni ochib beradi. Kelgusida turli sohalardagi nutq

namunalari, xususan, badiiy adabiyot, ommaviy axborot vositalari yoki internet diskursining konstruksion-kognitiv tahlili orqali ham til, ham inson ongining murakkab tabiatini yanada chuqurroq anglash mumkin bo'ladi. Shu ma'noda, konstruksion grammatika va kognitiv lingvistika nafaqat mustaqil yo'nalishlar, balki o'zaro integratsiyada tubdan yangi ilmiy tasavvurlarni boyitadigan, til va ong haqidagi bilimlarimizni kengaytiradigan salohiyatga ega zamonaviy lingvistik oqimlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal About the Mind. — Chicago: University of Chicago Press, 1987. — 614 p.
2. Fillmore C. J. Frame Semantics // *The Linguistic Society of Korea (Ed.). Linguistics in the Morning Calm*. — Seoul: Hanshin, 1982. — P. 111–137.
3. Goldberg A. Constructions: A Construction Grammar Approach to Argument Structure. — Chicago: University of Chicago Press, 1995. — 265 p.
4. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. — Cambridge (MA): The MIT Press, 1965. — 251 p.

5. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980. — 242 p.
6. Fillmore C. J., Kay P., O'Connor M. Regularity and Idiomaticity in Grammatical Constructions: The Case of Let Alone // *Language*. — 1988. — Vol. 64, №3. — P. 501–538.
7. Croft W., Cruse D. A. Cognitive Linguistics. — Cambridge: Cambridge University Press, 2004. — 356 p.
8. Komilova, M. (2024). LANGUAGE AND SOCIAL INEQUALITY: A PRAGMATIC PERSPECTIVE. *University Research Base*, 809-813.
9. Komilova, M. (2024). THE POWER OF CONCEPTS: EXPLORING THEMES AND THEIR MANIFESTATIONS IN LITERARY TEXTS. *University Research Base*, 814-817.



“ME’ROJNOMAYI TURKIY” DA AN’ANAVIYLIK VA O’ZIGA XOSLIK

Latipova Saodat A'zamovna,

Buxoro davlat universiteti

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

yo'nalishi magistranti

E-mail: saodatlatipova43@mail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil

Jurnal soni: 14

Maqola raqami: 50

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1163>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

Qur'oni Karim, hadis, Me'roj kechasi, Me'rojnoma, “Me'rojnoma turkiy”, jannat va do'zax, farishtalar

ANNOTATSIYA

Me'roj islom dinidagi muhim voqealardan biri bo'lib, Payg'ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vasallamning Makkadan Quddusga va u yerdan samoga ko'tarilish voqeadir. Mazkur maqolada Me'roj kechasi bilan bog'liq ilmiy va badiiy asarlar tahlilga tortiladi. Shuningdek, Buxoro adabiyot va san'at muzeyi fondida saqlanayotgan “Me'rojnoma turkiy” asaridagi ayrim qismlarning joriy yozuvdagi tabdili va g'oyaviy-badiiy tahlili keltiriladi. Qolaversa, mumtoz adabiyotda yaratilgan ayrim me'rojnoma, hadislar hamda Me'roj hodisasi keltirilgan ba'zi asarlar haqida ma'lumotlar ham beriladi. Shu bilan birgalikda, Payg'ambarimizning hayot tarzlari bilan bog'liq ayrim jihatlarga ham e'tibor qaratiladi.

Kirish. “Me'rojnoma turkiy” asari turkiy adabiyotning muhim asarlaridan biri bo'lib, unda payg'ambarimiz davrlarida shakllangan diniy, axloqiy qarashlar mujassamlangan. Ushbu asarda an'anaviylik va o'ziga xoslikning uyg'unlashuvi diqqatga sazovordir. Bu borada bir qancha asarlar o'rganilishiga qaramay, yana bir qanchasi o'z tadqiqotchisini kutib turibdi. “Me'rojnoma turkiy” asari ham shunday asarlar sirasiga kiradi. Asar toshbosma holatida bosilgan. 1914-yilda bosilgan bo'lishiga qaramay haligacha o'qib o'rganilmagan edi. Ushbu maqolada asarning ba'zi o'rinlarini o'qib, boshqa me'roj ruhida yozilgan asarlar bilan solishtirib sharhlashga harakat qilamiz.

Ma'lumki, me'roj mavzusi turkiy adabiyotda ham bir qancha ijodkorlarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Alisher Navoiy, So'fi Olloyor kabi allomalar bu borada qimmatli fikrlarni berib o'tganlar.

Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi huzuridagi “Hujjatlar” fondida 23497/ 11 inventar raqami ostida saqlanayotgan “Me'rojnoma turkiy” asari musulmon adabiyotiga xos tarzda an'anaviy basmala bilan boshlangan. Ya'ni asarning boshlanish qismida “Bismillahir rohmahir Rahim” oyati keltirilgan Kitobning birinchi sahifasida unvon qismi mavjud bo'lib, chiroyli naqshlar bilan bezalgan. Unvon¹ barcha qo'lyozma va toshbosmalarning birinchi sahifasida keltiriladi. “Me'rojnoma turkiy” da ham unvon qismi va matn birgalikda berilganligini ko'rish mumkin.



1-rasm. “Me'rojnoma turkiy”ning basmala qismi

Me'roj hodisasi islom madaniyatida muhim voqea sifatida o'z o'rniga ega. Bu hodisa Muhammad sallolohu alayhi vasallamning Makka shahridan Quddusga, so'ngra yetti qavat osmonga ko'tarilib, Alloh bilan muloqot qilganligi haqidagi rivoyatdir. Me'rojda payg'ambar alayhissalom tarixi bilan bog'liq tun kechasida amalga oshirilgan sayohat tavsif etiladi². Aynan insoniyatga buyuk mo'jiza hisoblangan Me'roj kechasi diniy asarlarda ham, diniy manbalardan oziqlanuvchi badiiy adabiyotda ham ta'rif-tavsif etib kelinadi. Ayni mavzuda asar yozish an'ana tusiga kirib, arab, fors va turkiy adabiyotda katta

turkumdagi – “Me'rojnoma”larni yuzaga keltirgan³. Ushbu hodisa turli davrlar va xalqlarda o'ziga xos tarzda tasvirlangan. Turkiy Me'rojnoma, Alisher Navoiy va So'fi Olloyor asarlarida Me'roj hodisasi o'ziga xos tarzda yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili. Maqolada tilga olingan “Turkiy Me'rojnoma” an'anaviy asar bo'lib, islom madaniyatida keng tarqalgan me'roj rivoyatlariga asoslanadi. Me'roj, ya'ni Payg'ambar Muhammad sallolohu alayhi vasallamning Olloh huzuriga ko'tarilishi haqidagi rivoyatlar o'rta asrlarda turli tillarda keng tarqalgan. Ushbu asarda Payg'ambarning osmonga ko'tarilishi va u yerdagi ruhiy tajribalar tasvirlangan:

Muhammadga inoyat qildi Me'roj
O'shal tunda boshig'a qo'yuldi toj
Tushi ersin vahiy ogah edilar
Alarga to'rt malak hamroh edilar
Biri Jabroil va Mikroil erdi
Biri Azroil va Isrofil erdi
Buroq kelturdilar tun uyqusinda
Muhammad erdi ummat qayg'usinda
Kirib Jabroil ul dam qildi bedor
Dedi Haq ko'rsatur bul kecha diydor⁴ [Me'rojnoma turkiy.

(1914) Toshbosma]

“Turkiy me'rojnoma”da me'roj hodisasi tunda sodir bo'lgani haqida so'z boradi. Payg'ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vasallamga bu borada vahiy kelganligi, u muborak zotga esa to'rt farishta: Jabroil, Mikroil, Azroil, Isrofil hamrohligi ko'rsatiladi. Shuningdek, Buroq ot tasviri ham mavjud. Bu kabi tasvir Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodida ham uchraydi. Navoiyning me'roj peyzajiga o'ta ohistalik xos, u ilohiy mo'jiza tasviriga o'tishdan oldin uning munosib shart-sharoit, muhitda yuz berganini ko'rsatishga e'tibor qaratadi. Nizomiyda ham tun tasviri mavjud, ammo u qisqa bo'lib, mo'jizaning qanday muhitda yuz berganini tushuntirishga kamlik qilgan. Nizomiy nima uchundir Buroq tasviri, payg'ambarning unga minib barqdek yetti osmonga ko'tarilishiga katta e'tibor qaratgan. Navoiy esa munosib sharoitni tasvirlagach, payg'ambarning manzilini eslatadi, so'ngra nogoh barq chaqilib, ofoq nurga to'lgani va barqdek uchuvchi Jabroil barqandom ot – Buroqni yetaklab payg'ambar ostonasiga olib kelgani qayd etiladi, ya'ni Navoiy badiiy lavhalarini o'zaro mantiqiy ketma-ketlikda bog'lab boradi. Nizomiyda esa Buroqning payg'ambarimiz huzuriga qanday keltirilgani, jarayon qay tarzda sodir bo'lgani, Jabroilning kelgani yoxud kelmagani kabi jihatlar ochiq qoladi. Navoiy esa ayni mana shu bog'lanishlarga e'tibor qaratadi⁵. “Turkiy me'rojnoma”da ham “Buroq kelturdilar tun

¹ Ilk sahifaning yuqori qismida joylashtiriladigan bezak. Ш.Сирожиiddinov. Матншунослик сабоқлари. – Т.: Fan, 2019. – B.85.

² Qobilov U. Nubuvvat haqiqati – badiiy ijod ruhi. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2021. – B. 28.

³ Turdiyev Jahongir Zafariddin o'g'li Turkiy tildagi me'rojnoma larning qiyosiy-matnii tadqiqi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi. – T.: 2022. – B.13.

⁴ Me'rojnoma turkiy. (1914) Toshbosma. Buxoro adabiyot va san'at muzeyi. Inv.23497/11. – B2

⁵ Ismoilov I. (2021) Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni debochasi badiiyati. Oltin bitiglar. Toshkent. (1). – B113

uyqusinda, tarzida berilgan. Asarda Buroq – Muhammad sallolohu alayhi vasallamning osmonlarga ko'tarilishida hamroh bo'lgan muhim va sehrli hayvon sifatida tasvirlanadi. U Payg'ambarimizning Makka va Quddus orasidagi safarlarida va keyin osmonga ko'tarilishida ulkan rol o'ynagan. Turkiy adabiyotda me'rojga oid dastlabki ma'lumotlar Ahmad Yassaviy hikmatlarida ham uchraydi. Aynan hikmatlarda ham Buroq tasvirini ko'rishimiz mumkin:

Ondin so'ngra Buroq, hulla kelturgoylar,
Boshiga toj, hulla, Buroq mindurgoylar,
Taxti behisht uzrasiga qo'ndurg'oylar,
Yig'lab yurgil, ko'z yoshini riyosi yo'q.⁶ [Me'rojnoma turkiy.

(1914) Toshbosma]

Me'rojnomalarda Buroq ko'pincha chiroyli, oq rangda, parvoz qilishga yaroqli va ba'zi tasvirlarda esa, uning qanotlari ko'rsatiladi. Ko'pincha, Buroqning o'ziga xos xususiyati sifatida uning o'rniga keltirilgan "goh ot, goho xachir shaklida, oq rangli, bo'yni cho'ziq, quloqlari uzun, oyoqlarida qanoti bo'lgan"⁷, degan ta'riflar ham uchraydi. Buroqning rasmi va tasviri tasavvufiy ifodalar bilan ham boyitiladi.

An'anaviy islomiy-tasavvufiy asarlar singari, "Turkiy Me'rojnoma"da ham Ollohnning buyukligi, Payg'ambarning ulug'vorligi, iymon, taqvo, adolat va axloqiy qadriyatlar haqida fikr yuritiladi.

"Turkiy Me'rojnoma"ni boshqa tasavvufiy asarlardan ajratib turadigan asosiy xususiyat, uning turkiy tilda yozilgani va turkiy xalqlarning madaniy xususiyatlarini o'zida aks ettirganidir. Asarda turkiy xalqlar o'rtasida keng tarqalgan ibora va obrazlar qo'llangan, bu esa asarning o'ziga xosligini oshirgan. Shuningdek, asarda xalq og'zaki ijodidan olingan obrazlar va ramzlar, turkiy qahramonlik va folklor an'analari ham ko'zga tashlanadi. Bu jihatlar asarning turkiy madaniyatni o'zida mujassam etganligini ko'rsatadi.

"Turkiy Me'rojnoma" asarida tasavvufiy tafakkurning turkiy madaniyat bilan uyg'unlashuvi, diniy an'analari va xalq an'analari birlashuvi aniq seziladi. Bu asar o'rta asrlar turkiy madaniyatining ko'zgusi bo'lib, undagi an'anaviylik va o'ziga xoslikning uyg'unlashuvi uni madaniy va adabiy merosimizning muhim qismi sifatida qadrlashga sabab bo'ladi.

Me'roj hodisasi talqinini turkiy adabiyotda ko'plab ilmiy va badiiy manbalarda uchratish mumkin. Jumladan, Imom Buxoriy hadislarida, Nosiruddin Rabg'uziy, Alisher Navoiy, So'fi Olloyor kabi ijodkorlarning asarlarida uchratish mumkin.

Imom Buxoriy "Sahih al-Buxoriy"da Me'roj hodisasi haqida bir qancha hadislarini keltirgan. Bu hodisa Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning hayotlaridagi eng muhim voqealardan biri bo'lib, ularning Isro va Me'roj kechasida sodir bo'lgan. Isro hodisasi Payg'ambarimizning Makkadan Quddusgacha Buroq nomli ulovda olib borilgan safarini anglatadi, Me'roj esa samoviy ko'tarilish, ya'ni Alloh huzuriga chiqish voqeasidir.

Imom Buxoriy o'zining hadislar to'plamida ushbu hodisani ifodalovchi hadislarini "Isro" va boshqa tegishli boblar orqali keltirgan. Fikrimiz isboti sifatida "Sahih al-Buxoriy"da keltirilgan ba'zi muhim ma'lumotlarga e'tibor qaratamiz:

1. Isro va Me'roj haqida dalillar

Imom Buxoriy hadislarida Payg'ambarimizning Buroqqa minib Quddusga yetkazilgani, u yerda barcha payg'ambarlar bilan uchrashgani va ularga imomlik qilganlari haqida so'z yuritiladi. Keyinchalik, Allohning amri bilan samoviy ko'tarilish, ya'ni Me'roj amalga oshirilgan. Aynan bu tasvirdagi ba'zi bir jihatlar (Payg'ambarimizning samoga ko'tarilish tasvirlari, Buroq ot tasviri) "Turkiy Me'rojnoma" da ham aynan keltirilganligini ko'rishimiz muki. Bu orqali "Turkiy Me'rojnoma"ning manbasi sifatida Imom Buxoriy asarini qayd etish lozim.

2. Samoviy ko'tarilish tafsilotlari. Alixonto'ra Sog'unining "Tarixi Muhammadiya" asarida ham Me'roj kechasi haqida fikrlar mavjud. Muallif bir o'rinda ushbu faslni Imom Buxoriyning "Sahih Buxoriy" asaridagi hadislar tarjimasi deb beradi: Endi bu o'rinda haqiqatga muvofiq ravishda, qisqacha qilib Me'roj voqeasini bayon qilib o'tamiz. Bu haqda uzun-qisqa so'zlar yozilgan kitoblari ko'p bo'lsa ham, ammo haqiqati ila yozuvchilar ozdur. Shuning uchun Islom olamida Qur'ondin so'ngra ishonimlik kitobimiz «Sahih Buxoriy» so'zlariga qanoat qilib,

aning Me'roj haqida keltirgan hadislarini bu o'rinda tarjima qildim. Alloh o'zi madad berishini so'rayman⁸.

"....Mundan keyin Rasullulohni yana Buroqqa mindirib, Jabroil alayhissalom jilovlarida, nosut olamidin lohut jonibiga, ya'ni yer ustidin osmonga ko'tarildilar. Birinchi osmonga yetdilar. Jabroil alayhissalom eshik saqllovchi farishta: «Ochgil», dedi. «Kimdursan, kim bilan kelursan?» deb so'radi. «Jabroildurman, yo'ldoshim Muhammad», dedi. «Aning payg'ambarlik davri keldimu?» deb farishtalar darhol eshik ochdi. Dastlab qarshilariga Odam alayhissalom chiqdilar. «Xush keldingiz, ey aziz farzandim», deb haqlariga duo qildilar. Ul joydin ko'tarilib, ikkinchi osmonga yetdilar. Ul joyda ham yuqoridagidek savol-javoblar bo'ldi. Hazrati Iso, Hazrati Yahyo payg'ambarlarning makonlari shu osmonda edi. Bu zotlar ham qarshi olib, xayr-duoda bo'ldilar. Bundin o'tib, uchinchi osmonga chiqish navbati yetdi. Yusuf alayhissalomning makoni shu osmonda edi. Jabroil alayhissalom eshik qoqdi. Yuqorigi savol-javoblar o'tgandin so'ngra eshikni ochdilar. Yusuf alayhissalom qarshi olib, Payg'ambarimizni tabrikkladi. So'ngra bu joydin o'tib, to'rtinchi osmon sari yuzlandilar. Bu haqida «Varafa'nahu makanan aliyya» oyati kelgan. Hazrati Idris payg'ambarning maqomlari shu edi. Bunda ham yuqorida o'tgan so'zlardin so'ngra, eshik ochilib, Idris alayhissalom bilan ko'rishdilar. Shundan so'ng beshinchi osmonga ko'tarildilar. Jabroil alayhissalom eshik qoqdi. Savol-javoblar o'tgandan so'ngra eshik ochildi. Horun alayhissalomning joylari shunda edi. Ko'rishgandin so'ng, bundin o'tib, oltinchi osmonga chiqdilar. Muso alayhissalom shu joyda edilar. O'tmish so'zlardin so'ngra eshik ochildi. Muso alayhissalom ta'zim bilan Payg'ambarimizni ko'p olqishladilar. Yana ul joydin Buroq uchib, yettinchi ko'kka yetkuzdi. Ul joyda bobolari Hazrati Ibrohim alayhissalomni ko'rdilar. «Otangiz Ibrohimdur», degan ishorat bo'lib, payg'ambarimiz salom berdilar. Salom javobin qaytargandin so'ngra: «Ey aziz farzandim, xush kelding, qandoq ulug' maqomlarga yetding», deb duo qildilar. Payg'ambarimiz ko'rdilarkim, Ibrohim Halilulloh osmon farishtalarining Ka'basi — «Baytul Ma'mur»ga suyanib o'tiribdilar⁹. Demak, "Sahih Buxoriy"da keltirilgan hadisga ko'ra Payg'ambarimiz har bir osmondan o'tganlarida turli payg'ambarlar bilan uchrashganlar, ya'ni

Birinchi osmon: Odam alayhissalom bilan uchrashuv.

Ikkinchi osmon: Iso va Yahyo alayhissalom bilan uchrashuv.

Uchinchi osmon: Yusuf alayhissalom bilan uchrashuv.

To'rtinchi osmon: Idris alayhissalom bilan uchrashuv.

Beshinchi osmon: Horun alayhissalom bilan uchrashuv.

Oltinchi osmon: Muso alayhissalom bilan uchrashuv.

Yettinchi osmon: Ibrohim alayhissalom bilan uchrashuv.

"Turkiy Me'rojnoma"da esa yuqorida nomlari keltirilgan payg'ambarlar me'roj tunida emas, asarning boshlanish qismida keltirilgan. Ya'ni ular sanab o'tilib Muhammad alayhi vasallamning ulardan ulug'liklariga urg'u berib o'tilgan:

Alarni avvali Odam safiydur

Muhammad Mustafo hotam nabiyydur

Ki Odam anbiyolar sarvaridur

Muhammad barchasini rahbaridur

Oni so'ngida erdi Shish mursal

Muhammad barchasidin erdi Afzal

Jahong'a muttaqi Nuh-i nabiyydur

Muhammad barchasini matlabidur

Xudoni do'sti Ibrohim Xalidur

Muhammad asli ahabobi jalidur

Kalimulloh erdi barhaq rasuli

Muhammad jumlan erdi qabuli

Xalilni o'g'li Ismoil Sodiq

Muhammad vasfidur mahbubi sobiq

Agarchi jannati Idris makoni

Muhammad ko'rdi me'roj lomakoni

Payambar erdi ul Ayyubi Sobir

Muhammaddur Abu Toyiybi Tohir

Bani Isroil erdi oti Yaqub

Muhammad barchasiga erdi mahbub

Ani o'g'lini oti erdi Yusuf

Muhammadga qilur hular taassuf

Bani Isroil o'g'li erdi Dovud

Muhammad erdilar mahbubi ma'bud

⁶ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (Yangi topilgan namunalari). T.:Movarounnahr. 2004. - B20

⁷ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Birinchi jild. T.:2000

⁸ Sog'unij Alixonto'ra. Tarixi Muhammadiy. — T.: Movarounnahr, 1997. — B51.

⁹ Sog'unij Alixonto'ra. Tarixi Muhammadiy. — T.: Movarounnahr, 1997. — B51.

Ani o'g'li jahon olgan Sulaymon [Me'rojnoma turkiy. (1914) Toshbosma]
Muhammad erdilarkim xos rahmon
Masihulloh otondi ibni Maryam
Muhammad barchadin erdi mukarram¹⁰ [Me'rojnoma turkiy. (1914) Toshbosma]

Yuqoridagi misralardan ko'rish mumkinki, "Turkiy Me'rojnoma" dagi Muhammad sallolohu alayhi vasallam tasvirlari ifodasi So'fi Olloyor ijodiga yaqin:

Sanovu hamd qudratlig' Xudoga
Ki iymon keltiribmiz anbiyog'a
Alarning avvallikim Odam erdi,
Muhammad barchasig'a xotam erdi.
Barisi tangrini suyg'on qulidir
Barisi jannati rizvon gulidir¹¹. [Me'rojnoma turkiy. (1914) Toshbosma]

3. Allohning huzurida bo'lish va namoz farz qilinishi
Imom Buxoriy hadislariga ko'ra, Me'rojda Payg'ambarimiz Alloh huzuriga ko'tarilib, 50 vaqt namoz farz qilinadi. Keyinchalik, Muso alayhissalomning maslahatlari bilan ushbu namozlar soni qisqartilib, 5 vaqt qilib belgilangan.

"Turkiy Me'rojnoma" da esa bunday tasvir mavjud emas. Unda Muhammad alayhissalomning Oloh bilan uchrashuvlari keltirilgan-u, lekin namozga oid Me'rojnomalarda berilgan voqealar bayon etilmagan. Bu asar ayni xarakterdagi asarlardan farqli ravishda Janobi Rasulning Haq bilan ota va onalaridan erta qolganliklari, yetimlikning azoblari, ota-onasiz bolalarga qanchalik qiyinligi haqida suhbatlashganliklari tasviriga ham egadir:

Ey Karimo, aytayin tug'qonda ul otam qani?
Siynasiga jo qilib emchak berur onam qani?
Qo'llariga ko'torib olib desa bolam qani?
Koshki biri ketib qolsa, biri ul ham qani?
Bu yatimlikdin yana ko'ksim yara keltumisham.
Bu yatimlikda yana kuykon kimarsa bormikan?
Ham yatimligg'a taqobil hech nimarsa bormikan?
Ikki dunyoni g'ami bundog' nimarsa bormikan? [Me'rojnoma turkiy. (1914) Toshbosma]

Ushbu tasvirlarni esa yana bir bor "Turkiy Me'rojnoma" asarining o'ziga xos jihati sifatida qayd etish mumkin. Baytlar Payg'ambarimizning yetimlik dardlarini va bunday ahvoldagi yetimlarning boshiga tushadigan azoblarini Allohga izhor qilganini ko'rsatadi. Munojot shu ohangda davom etadi:

Oh, yetimlik dardidin qatig' nimarsa bormikan?
Ushbu g'amdin jon berurdek g'arg'ara keltumisham.
O'z taning borub yugur deb onasini oldiga,
Jon bolam deb sevinib olgay ko'tarib yoniga
Ichiga qonlar yutub, yetimlar urgay yoniga
Tarbiyat kimlar qilur kimlar qaroydir holiga,
Ko'zlarimni yoshini chun shira-shira keltumisham.
Ey Xudoyo, hech o'g'lon otasi o'lmasin
Ustiga mendek bo'lub yana onasi o'lmasin
Qayga borurni bilmay ko'chalarda yurmasin
Hech odamni bolasini bu kuyiga solmasin
Xizmatingga bu erur tahaffum mana keltumisham
Man qiyos oldim o'z zindin kim yetimlar holini
O'tkarur g'am-g'ussa birlan muncha mohi solini
Kimga tushsa yeb yuborurlar yetimlar molini
Hech kimarsa o'ylamas yetimlarning ubolini
[Me'rojnoma turkiy. (1914) Toshbosma]

Ushbu misralarda ota-onasidan ayrilgan yetim bolaning holati, uning ichki iztiroblari, yomon kunlarda ota va onaning yo'qligi, bolaning kimga borishni bilmay, ko'chalarda sarson yurishi tasvirlanadi. Bu tasvirlar orqali yetimlikning inson hayotiga qanchalar qattiq ta'sir qilishi ko'rsatiladi. Shu bilan birga, bu misralarda Allohga bo'lgan munojotni ham ko'rishimiz mumkin. Muhammad sallolohu alayhi vasallamning Allohga qilgan arizasida yetimlik azoblari va ummatlari uchun iltijolari bayon etiladi. Bu baytlarda Allohdan yetimlarga rahmat, marhamat so'rash, ularning holiga yordam berish iltijolari mavjud. Payg'ambarimizning dardlari orqali Allohdan inoyat va rahmat so'raladi:

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Dunyoda ko'rsang, yetimlar barchadin munglug' erur
Xor o'lur yetim agarchi sajralik tug'lug' erur
Hazratimg'a hasratimni ozg'ina keltumisham
Ul yetim bo'lgan kimarsa angla Payg'ambar erdi
Ul dam yetimlik dardini me'roj tuni Haqqa dedi
Bu yetimlik sharbatini ichdi odam sayyidi
Sen bilan menga bu ishni ibrat olsun deb aytdi
Men qazosig'a rizo bermakka tan keltumisham
Mundayin arzin dedi Me'roj tuni Haqqa Rasul
[Me'rojnoma turkiy. (1914) Toshbosma]

Ushbu baytlarning zamirida insonning ichki dunyosi va Allohga bo'lgan muhabbati, taqdir mashaqqatlarini sabr va qanoat bilan qabul qilish bilan bog'liq badiiy mushohadalar mavjud. Payg'ambarimizning yetimlik azoblarini Allohga aytib, bu dunyodagi barcha musibat va sinovlarni sabr bilan qabul qilish lozimligi tasvirlanadi. Shu bilan birgalikda, ushbu baytlarda yetimlarning og'ir ahvoli ifoda etilishi bilan birga, ularga nisbatan jamiyatning mehribon bo'lishi kerakligi urg'ulanadi. Payg'ambarimizning Allohga qilgan arizalari orqali yetimlarning holiga e'tibor qaratish, ularga mehr-muruvvat ko'rsatish va ularning huquqlarini himoya qilishga chaqiradi. Buning isbotini esa yetimlar haqida keltirilgan bir qancha sahih hadislar ham ko'rishimiz mumkin.

Natijalar. Tadqiqot davomida "Turkiy me'rojnoma" asarining adabiyotshunoslik va tarixiy-madaniy jihatlarini bo'yicha muhim ma'lumotlarga erishildi. Tadqiq etilgan asarlar orasida til, imlo va mazmun jihatdan ayrim farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Qur'on oyatlari va hadislar bilan yaqin aloqasi kuzatilib, bu asarning diniy-didaktik maqsadda yozilganini tasdiqladi.

Asar an'anaviy me'rojnoma janriga oid bo'lib, unda Muhammad sallolohu alayhi vasallamning me'roj safarlarini tasvirllovchi hikoya usulidan foydalanilgan. Shu bilan bir qatorda payg'ambarimizning vafotlari, qizlari Fotima raziyallohu anho va kuyovlari Ali haqida ham asarning so'ngida ma'lumot berib o'tilgan. Manba turkiy tilda yozilgan bo'lishiga qaramay unda arabcha va forschaga so'zlar ham talaygina. Toshbosmada morfologik qo'shimchalarning o'ziga xos ko'rinishi qo'llanilgan. Asarning tili va uslubi Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy va So'fi Olloyor asarlariga yaqinligi bilan ajralib turadi.

Muhokama. Tadqiqot davomida shu narsa aniqlandiki, Me'rojnoma asarlar faqat bitta muallifga tegishli emas, balki turli davrlarda yozilgan turli qo'lyozma va toshbosmalarning to'plamidir. Bizning qo'limizdagi manba esa yuqorida aytganimizdek, 1914-yilda toshbosma usulida ko'chirilgan. Qo'lyozma va toshbosmalar bir-biridan uslub va imlo jihatidan farqlanishi mumkin. Asar islomiy ta'limotdan tashqari, tasavvufiy qarashlar bilan ham bog'liq. Matnda Qur'ondan tashqari xalqona tasavvufiy motivlar ham uchraydi. Bu esa uning an'anaviy diniy me'rojnoma asarlaridan farqli turkiy madaniyat bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

"Me'rojnoma turkiy"ning lug'at tarkibini o'rganish barobarida bu tarkib orqali turkiy tilning rivojlanishi haqida ma'lumot olish mumkin degan xulosaga keldik. Chunki unda gaplarning qurilish tizimi va qo'shimchalarning qo'llanishi o'ziga xos.

Bundan tashqari bunday asarlar islom dini tarixi va me'roj haqidagi rivoyatlar bilan bog'liq bo'lgani uchun uni diniy ta'lim tizimida qo'llash mumkin. Asarning til, janr va uslubiy xususiyatlari eski turkiy adabiyotning rivojlanish bosqichlarini o'rganish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi huzuridagi "Hujjatlar" fondida saqlanayotgan "Me'rojnoma turkiy" asarining an'anaviy jihatlarini bilan bir qatorda o'ziga xos jihatlarini ham talaygina. Asar she'riy shaklda yozilgan bo'lsa-da, sarlavhalari nasrda berilgan. Asar "Me'rojnoma turkiy" deb nomlangani holda faqat me'roj hodisasi bilan cheklanib qolinmagan. Unda Rasullulloh sallolohu alayhi vasallamning vafotlari hamda Fotimay Zahro raziyallohu anhoning otalari bilan so'zlashganlari, ularning Fotimaga pand-nasihat qilganlari va vafotlari haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan. Shuningdek, Hazrati Alining Fotimaga va o'g'illariga naqadar mehribonliklarini ham ko'rish mumkin.

¹⁰ Me'rojnoma turkiy. (1914) Buxoro adabiyot va san'at muzeyi. Inv. 23497/11. – B. 3

¹¹ So'fi Olloyor. Sabot ul ojizin. T.: –Mehnat, 1991. – B. 16.

1. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (Yangi topilgan namunalar). T.: Movarounnahr. 2004.
1. . Imom Buxoriy. Al jome as- sahih. I jild. – T.: Qomuslar, 1991.
2. Imomi A'zam Abu Hanifa. Musnad. – T.: Hilol, 2014.
3. Lison ut-tayr (nasriy bayoni bilan). Tahrir hay'ati: A. Qayumov va boshq. – T.: Adabiyot va san'at, 1991.
4. Me'rojnoma turkiy. Buxoro adabiyot va san'at muzeyi. – T.: G'ulomiya. 1914. Inv. 23497/11
5. Sog'uniy Alixonto'ra. Tarixi Muhammadiy. – T.: Movarounnahr, 1997.
6. So'fi Olloyor. Sabot ul –ojizin. T.: Mehnat. 1991:
7. Sirojiddinov Sh, Yusupova D, Davlatov O. Navoiyshunoslik. – T.: Tamaddun. 2019.
8. Turdiyev Jahongir Zafariddin o'g'li Turkiy tildagi me'rojnoma larning qiyosiy-matniy tadqiqi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi. T.: 2022.
9. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi va tafsiri /Tarjima va tafsir muallifi: Shayx Abdulaziz Mansur. T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti matbaa birlashmasi. 2012.
10. O'zbekiston musulmonlari idorasi Samarqand viloyati vakilligi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning qisqacha tarixlari va ahli baytlari. 11.12.2017. www.islamonline.uz
11. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Birinchi jild. T.: 2000



ASAR TARJIMASIDA EKSTRALINGVISTIK VOSITALARNI IFODALANISHI (A.QODIRIYNING "O'TKAN KUNLAR" ROMANINING INGLIZCHA TARJIMASI ASOSIDA)

M.M.Madumarov,

Qo'qon universiteti, ingliz tili o'qituvchisi,

phone: +998 91 687 33 83

m.m.madumarov@kokanduni.uz

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil

Jurnal soni: 14

Maqola raqami: 51

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1164>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

Ekstralingvistik vositalar, qahramon xarakterini ochish, tarjima texnikalari, madaniy moslashuv, noverbal ifodalar, psixologik holatlar, badiiy tarjima.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanining ingliz tiliga tarjima qilingan nusxasida qahramonlarning xarakterini ochishda qo'llanilgan ekstralingvistik vositalarni tahlil qilishga bag'ishlangan. O'zbek Oyimning emotsional va ruhiy holatlari, uning o'g'li bilan munosabatlari va oilaviy muammolari kinetik va ekstralingvistik vositalar orqali namoyon qilingan. Ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida ikki madaniyat o'rtasidagi farqlar, milliy urf-odatlar va qadriyatlar borasidagi muammolar tarjimon Mark Riz tomonidan muvaffaqiyatli hal etilgan. U O'zbek Oyimning shaxsiy muammolarini va o'ziga xos emotsional holatlarini soxta hamda yangilangan tarzda tarjimaga kiritgan. Ekstralingvistik elementlar, jismoniy harakatlar, ishoralar va mafkuralar tarjimada xos maqsadga muvofiq shaklda berilib, asli asarning mazmunini saqlab qolgan. Bu maqola ekstralingvistik vositalarni tarjimada tahlil qilishning ahamiyatini yoritib, ularning tarjima jarayonidagi o'rni va qahramonlarning ichki dunyosiga ta'sirini ko'rsatadi.

Kirish. Adabiyot va tarjima o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish, uning o'ziga xos uslublari va madaniyatlararo tafovutlarni aks ettirishda muhim ahamiyatga ega. Tarjima jarayoni nafaqat so'zma-so'z tarjima qilishni, balki bir tilning nuanslari va uning madaniyatiga moslashtirishni ham talab qiladi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani badiiy tarjima jarayonida bu talablarni yanada oydinlashadi. Ushbu maqola aynan romanning ingliz tilidagi tarjimasida orqali qahramonlarning xarakterini ochishda qo'llanilgan ekstralingvistik vositalarni tahlil qilishga bag'ishlanadi. Ekstralingvistik vositalar, ya'ni jismoniy harakatlar, ishoralar, turgan joy va boshqa noverbal ifodalar, tarjima jarayonida qahramonlarning ichki holatini va emotsional ta'sirini to'g'ri etkazishda alohida rol o'ynaydi. Ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida, madaniy moslashuv va tilning noverbal jihatlarini hisobga olish zarurati yuzaga keladi. Bu maqolada, Mark Riz tomonidan amalga oshirilgan tarjima, ikki madaniyat o'rtasidagi farqlarni muvaffaqiyatli engib o'tib, original asarning ruhini va muhim qismlarini saqlab qolish bilan birga, O'zbek Oyimining murakkab emotsional holatlari va o'ziga xos xususiyatlarini ingliz tiliga moslashtirishda qanday yondashuvlar qo'llanilganligi ko'rib chiqiladi. Ekstralingvistik elementlar, jumladan, jismoniy harakatlar va ishoralar, tarjimada muvaffaqiyatli tarzda berilgan, bu esa asar mazmunining to'liq va aniq tushunilishiga yordam beradi. Tarjima jarayonidagi ekstralingvistik vositalarning tahlilini o'rganishning ahamiyatini yoritib, ular orqali qahramonlarning ichki dunyosini va psixologik holatlarini qanday yoritish mumkinligini ko'rsatadi. Bu orqali tarjima va madaniyatlararo muloqotning yangi imkoniyatlarini ochishga intilamiz.

Adabiyotlar tahlili. Erkin Vohidovning Kecha va kunduz asarida qahramonlarning ichki dunyosi va ruhiy holatlari chuqur tahlil qilingan. Eksterlingvistik vositalar, ya'ni jismoniy harakatlar, mimikalar va hissiyotlarni aks ettiruvchi iboralar keng qo'llaniladi. Misol: "Yuzida o'zgacha bir hayajon bor edi. Ko'zlari porlab, tishini tishlab, so'zlarni tiliga olib kelolmay turardi" ¹. Bu misolda, qahramonning ichki kurashi (hayajon) va jismoniy reaksiyalar (ko'zlarining porlashi, tishini tishlab turishi) orqali ifodalangan. Tarjimada bunday eksterlingvistik elementlarni to'liq aks ettirish uchun ingliz tilida "He had a strange excitement on his face. His eyes were shining, his teeth clenched, and he was struggling to find the words." kabi iboralar ishlatilishi mumkin.

Tarjimada mimika va harakatlarning aniq va to'liq aks ettirilishi muhimdir. Chunki bu harakatlar va ifodalar qahramonning ichki holatini (hayajon, ikkilanish, qaror qabul qilishda qiynalish) yanada aniqroq tushunishga yordam beradi.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning asarlarida eksterlingvistik vositalar

orqali qahramonlarning ichki hissiyotlari va ruhiy holatlari tasvirlanadi. Bu vositalar orqali ularning xarakteri va harakatlari aniq ko'rsatiladi. "Shu payt, Iskandarning yuzida bir qisqa kulgu paydo bo'ldi. U engilgina jilmayib, gapni davom ettirdi" ². Bu erda kulgu va jilmayish qahramonning ichki holatini aks ettiradi. Tarjimada, aynan shu mimikani saqlash uchun "A brief smile appeared on Iskandar's face. He smiled lightly and continued talking." deb tarjima qilinishi mumkin. Bu tarjima qahramonning ichki ruhiy holatini, engil va tinchlashgan hissiyotini saqlaydi.

Jilmayish va kulgu kabi eksterlingvistik elementlarning tarjimadagi to'g'ri aks ettirilishi qahramonning xarakterini va ruhiy holatini tushunishga yordam beradi.

Abdulla Qahhorning hikoyalarida qahramonlarning ichki tuyg'ulari, nafas olishlari, harakatlari orqali tasvirlanadi. Bu eksterlingvistik elementlar orqali ular o'zlarining ruhiy holatlari va ichki kurashlarini namoyon etadi. Misol uchun: "Qahramon, kuchli bir nafas olib, ko'zlarini yummasi, so'ngra o'zini bosib, yuzini yuvdi" ³. Bu iborada nafas olish, ko'zlarni yummaslik va yuzini yuvish orqali qahramonning ichki holati (salbiy hissiyotlar, qayg'u yoki o'zini anglash) aks etgan. Tarjimada bu harakatlarni ifodalovchi ibora sifatida "He took a deep breath, closed his eyes, and then washed his face." deb tarjima qilish mumkin. Nafas olish va ko'zlarni yummaslik kabi eksterlingvistik vositalar qahramonning ruhiy holatiga oid ko'p ma'lumot beradi. Bu elementlar tarjimada ham o'zining o'rni topishi kerak.

Muhammad Yusufning she'rlari ko'pincha figurativ va tashqi ko'rinishdagi detallar orqali qahramonlarning ruhiy holatini tasvirlaydi. Bu turdagi ifodalar eksterlingvistik vositalar sifatida keng qo'llaniladi. Misol: "Yuzimga qaraganingda, go'yo elkamda tog'larni ko'rib turibman" ⁴. Bu misolda, tashqi ko'rinishda yuzga qarash orqali qahramonning ichki holati (tashvish, og'irlik hissi) ifodalanmoqda. Tarjimada bunday ifodani "When you look into my face, it feels like I am carrying mountains on my shoulders" deb tarjima qilish mumkin. Tashqi ko'rinishdagi bu kabi tasvirlar orqali qahramonning ruhiy holatini tasvirlashda tarjimachi figurativ va symbolik ifodalar yordamida tarjima qilishi lozim. Tarjimon bu holatni to'g'ri aks ettirish uchun tilning barcha imkoniyatlaridan foydalanishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Romanda ota-ona orzusi tufayli Zaynabga yulgan Otabekning yangi kelinga beparvoligi, sovuq munosabatini kuzatgan O'zbek Oyimning xunob holati tasviri kinetik vosita orqali tasvirlanadi:

....O'g'lining miridan sirini ajratib o'turg'uchi ona yana olazarak og'rig'ig'a yo'liqdi. ...O'zbek Oyim ich-etini eb, yutkan luqmasining

¹ Madumarov, M. M. (2022). Usage of words in Abdulla Qadiri's works. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 908-914.

² Madumarov, M. M. (2023). Abdulla's creativity and expression of the national spirit. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 908-914.

³ Madumarov, M. M. (2023). Translation of the imagery of nature in the novel "Days Gone By" by Abdulla Qadiri. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 915-919.

⁴ Madumarov, M. M. (2024). Cultural adaptation and symbolism in translating heroic figures. IMRAS, 7(5), 541-550.

mazasini ham bilmas, qisqasi o'lturish so'zsiz, go'yo tussiz va ma'nosiz edi⁵.

"O'tkan kunlar" romanini ingliz tiliga tarjima qilishda ikki madaniyat o'rtasidagi tafovut ko'p hollarda milliy urf-odat hamda qadriyatlarda namoyon bo'ladi. Bu muammo g'ayrilisloniy ekanligi va asliyat va tarjima kitobxonlari qadriyatlaridagi farq bilan belgilanishini yaxshi tushungan mutarjim O'zbek Oyimning ruhiy holtini adekvat bera olgan:

...the mother, completely obsessed with analyzing her sons every move, was taken over by the need to look at him compulsively... Uzbek Oyim continued to eat her inside out, swallowing food now tasteless to her; it seems as if her disquiet left life with no flavor or meaning⁶.

Abdulla Qodiriy asarda personajlar xarakterini, xulqini namoyon qiluvchi ekstralingvistik vositalardan ham mohirona foydalangan:

Erining bu so'ziga O'zbek Oyim ortiqcha qizishadir, labi-labiga tegmay bobillab beradir⁷...

The words of Uzbek Oyims husband made her fly into a rage, her shouts contorting her mouth into a snarl⁸.

O'zbek Oyim depsinib-depsinib eriga qarab olar edi⁹.

Uzbek Oyim slipped unheeded and winked at Hajji¹⁰.

O'zbek Oyimning eriga o'tkirligi, chala-dumbul tabiati qahramon hissiy kechinmalarini paralingvistik tarzda ifodalash orqali ochib berilgan.

Asar voqealari rivojida endigina Xomid xotinbozning tuxmatlaridan qutulib, Kumushi bilan o'tkaza boshlagan Otabekning nurli kunlariga soya solib O'zbek Oyim obrazi kirib keladi. Romanning ikkinchi bobi hisoblangan "Ota-ona orzusi" bo'limida uch oylab ko'rmagan farzandini kutib olgan O'zbek Oyim xarakteri ekstralingvistik vosita orqali yorqin aks ettiriladi:

Uch oylab ko'rmagan o'g'lini quchog'iga olib ko'rishmak o'rniga undan yuzini o'gurib, san kimsan, keldingmi, deb so'ramadi va salomiga alik olmadi. Go'yo uxlamochi bo'lgan tovuqdek hurpayib oldi¹¹.

Instead of hugging her son, who had not seen for three months, Uzbek Oyim turned her face from him, not asking how he fared, if he was well, and remaining stone in reply to his greetings. She seemed like a hen ruffling her feathers in contempt¹².

Otabek ... Marg'ilonga jo'nab soladir. Tag'in O'zbek Oyimning rangi o'chkan, qoni qochqan: tovoqni kosaga, cho'michni piyolaga urib dodu faryod: "Siz otamisiz, nimasiz axir¹³....

Otabek... left for Margilan. Again, Uzbek Oyims blood boiled in her vein as she broke dishes, plov cups, and a ladle for drinking tea... "Are you a father or not?"¹⁴

Bu yerda tovoq, kosa, cho'mich kabi milliy buyumlar tarjima qilishda qiyinchilik tug'dirganligi uchun ingliz tiliga ularning shakli emas, mazmuni ko'chganligini ko'ramiz. Ya'ni dishes, plov cups, a ladle deya o'g'irilganki, O'zbek Oyim xarakterini ochib beruvchi paralingvistik holatlar mazmuni inglizchada ham saqlab qolgan.

Asarda Xomidning razil ishlarini amalga oshirishga ko'mak bergan poraxo'r amaldor Qo'rboshining xarakteri —olchoqligi, ochko'zligi, xarom pulga o'chligi ekstralingvistik vosita asosida ochib berilgan:

Homid ... oltinlarni sanab tushira berdi. Qo'rboshining ko'zi oltinlar ustida o'ynab ... sanoqqa ishonmay ko'rib turg'anim tushmi, deb... Homid oltinlarni uzatdi...

Qo'rboshi titrab, qaxshab oltinlarni joyladi¹⁵

Hamid...beginning to count out gold coins from one hand to the next. the qorboshis ees plaed upon these gold coins...he felt as if he was seeing a mirage, not believing the quantity of gold coins...Hamid handed the gold coins....

...hands shaking, the qorboshi placed the coins in his chance purse.¹⁶

"O'tkan kunlar"romani yaratilgan zamin madaniyati bilan inglizzabon kitobxon madaniyati me'yorlarining bir-biridan uzoqligi omilining tarjima jarayoniga ta'siri sezilarli ekanligi ko'inib tursa-da, qo'rboshining ruhiy xolati tarjimada ishonarli chiqqan.

Muallif O'zbek Oyimning o'tkir xarakterini ochishda davom etadi:

O'zbek Oyim kelib kirdi va o'lturmasdanoq hojiga imlab qo'ydi. Bu imqo'qni Otabek payqamagan bo'lsa ham lekin anuv gapni aniq shu majlisda ochilishiga ko'zi etib, chiqib ketishning ilojini qilolmadi.¹⁷

"imlab qo'ydi", "imqo'q" ekstralingvistik vositalari tarjima tiliga "signalling" tarzida ko'chgan. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, tarjima jarayonining ikki bosqichi - asliyatga yondashish va uni qayta yaratish o'zaro ajralmas, doimo o'zaro almashinib turuvchi jarayon bo'lsa ham, aksar hollarda ayni qayta yaratish bosqichi mutarjim uchun qiyinchilik tug'diradi, ya'ni u asliyatni tushungani darajasida o'g'ira olmasligi mumkin. Lekin ayni o'rinda asliyatga yondashish bosqichining o'zi ham alohida ahamiyat va diqqat talab etadi. Zero, "O'tkan kunlar" kabi tarixiy romanlarni tushunish-o'zlashtirishning o'zi nisbatan qiyin kechadi.

Hassos yozuvchi Abdulla Qodiriy roman personajlari mavqei, hayotdagi o'rnini yoritib beruvchi ekstralingvistik vositalardan ham o'rnida foydalangan:

— Xudog'a shukur, davlatlari ko'lankasida,- deb qo'rboshi tavozilandi va qo'l qovushtirib qushbегining yoniga cho'kkaladi.¹⁸

Qo'rboshining tana harakatlari (tavozilandi, cho'kka tushdi) orqali qushbегining mavqei, darajasi ifodalangan bu holat inglizchaga quyidagicha tarjima qilingan:

— "Thanks God the are under the benevolent shadow of your state," said the qorboshi, paying homage nervously by clenching his hands and kneeling at Qushbegis feet.¹⁹

Mutarjim Mark Risning bu erdagi mahorati shundaki, u ta'zim qilib, cho'kka tushgan qo'rboshi holati tarjimasida kneeling so'zini ishlatish bilan asliyat ekspressiyasini kuchaytirishga muvaffaq bo'lgan.

Abdulla Qodiriy asarda qalanga olingan davr tarixiy mohiyatini ochib berar ekan davr ruhiga mos voqea— Toshkent hokimi Azizbekning Qo'qonga qarshi bosh ko'tarishi voqearasini yoritadi. Yozuvchi tarixiy voqealarga xarakterlar orqali jon beradi. Xarakter yaratish tarixiy voqelikni estetik o'zlashtirishning muhim shartlaridandir. Azizbekning Yusufbek hojidek iymonli, dono insonga muomalasi misolida uning xulq-atvorini ko'rsatadi:

Hoji so'zini tugata olmadi, hojining ters so'ziga chidalmagan Azizbek vahshiylarcha hayqirdi:

— Nima deysan?²⁰...

Hajji was not allowed to finish his thoughts. Azizbek could not no longer stand to hear a counterargument and screamed savagely, - "What are you saying?"²¹.

Tarjimada personaj ruhiy-hissiy holati fonatsion vosita orqali (vahshiylarcha hayqirdi - screamed savagely) ifodalaniб, nutqning sifati o'zgargani zolim hukmdorga xos xarakterni gavdalandiradi.

Taxlillardan ko'rinadiki, tarjimon Mark Ris asliyatdagi imo-ishoralar, harakatlar orqali qahramonlar xarakterlari, xulq-atvori, ichki dunyosi mohirona ochib berilgan ekstralingvistik, kinetik vositalarning badiiy asardagi vazifasi muhim ahamiyatga ega ekanligini yaxshi tushungan va tarjimada adekvat bera olgan. Zero, kishi (tana) harakatlari, imo-ishoralar tasvirining tarjimada berilishini o'rganish asar badiiyati tarjimasiga baho berishga imkon beradi.

Abdulla Qodiriy azim iste'dodi, dunyoqarashi, mahorati o'laroq noverbal vositalarning lisoniy ifodalarni tanlab ishlatgan holda personajlar xarakterini ochib berishda imo-ishoralar, harakatlar, fonatsion va kinetik vositalar tasviridan unumli foydalangan bo'lsa, o'zbek adabiyotida milliyligi jihatidan "o'zbek entsiklopediyasi" darajasini qariyb bir asrdan beri egallab kelayotgan shoh asarni inglizzabon o'quvchiga etkazishdek murakkab ishga qo'l urgan mutarjim Mark Ris tarjimada romandagi ekstralingvistik vositalar tasvirini alohida e'tibor bilan o'g'irganligi uning teran mushohadaga ega ekanligini anglatadi.

Yuqoridagi mushohadalardan kelib chiqib quyidagicha xulosaga kelamiz:

"O'tkan kunlar"romanidek milliylik ufurib turgan romanda qo'llangan noverbal vositalarni tarjimada mukammal aks ettirish g'oyat

⁵ Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.

⁶ Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

⁷ Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.

⁸ Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

⁹ Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.

¹⁰ Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

¹¹ Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.

¹² Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

¹³ Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.

¹⁴ Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

¹⁵ Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.

¹⁶ Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

¹⁷ Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.

¹⁸ Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.

¹⁹ Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

²⁰ Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.

²¹ Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

ahamiyatli bo'lib, tipologik uzoq madaniyat o'quvchisiga yozuvchi niyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Roman tarjimasidagi milliy o'ziga xoslikni aks ettirishning ekstralingvistik masalalari taxlili noverbal vositalar estetik butunlikning bir qismi ekanligini dalilaydi.

Imo-ishora, kishi (tana) harakatlari asar qaxramonlarining ruhiyatini, his-tuyg'ularini ochib berishda ahamiyatli bo'lib, ularni tarjimada aks ettirish muhim sanaladi.

Romandagi obrazlar karakterini, xulq-atvorini aks ettiruvchi ekstralingvistik vositalar tarjimasida tarjima o'quvchisi tasavvurini boyitadi, karakterlarni to'la namoyon bo'lishiga imkon beradi.

... Otabeknima uchundir g'ayri-ixtiyoriy bir tebrandi. Uning yuzida bir o'zgarish va vujudida bir chayqalish bor edi.²²

O'quvchiga noma'lum voqea natijasida Otabek ruhiyatida ro'y berayotgan o'zgarish tarjimada ham ochib berilgan:

Tarjimasi:

Rahmat, attempting to keep the conversation from falling into a lull again, declared to Otabek, "There is a girl in Margilan... Such a beauty! I think she has no equal; in all our city, I have never seen no beauty to rival her own." ...his house is situated on the corner of the shoe market...

*"...Perhaps," said Otabek, seized by involuntary shiver as if chilled by an unseen draft. His face shifted from its usual calm to strange, slight swaying from side to side.*²³

Tarjimon Otabekning imo-ishorasi, gavda harakatlarini e'tibor bilan o'g'irganligi natijasida qahramon karakteri, hissiy holati haqida fikrlarni boyitishga erisha olgan.

Muallif Otabekning ruhiy, hissiy holatini ifoda etuvchi informativ-xarakterlovchi nolisniy vositalardan mohirona foydalanadi:

... Ammo Otabek nima uchundir tez kira bermadi. Hujra eshigi ochilganidan, sham' yoqilib, o'rin yozilganidan go'yo xabarsiz kabi ustung'a suyalgan'ancha qotib turar edi... Biroq Otabek to'shagi yonig'a o'turdi-da, yana o'ylab qoldi...²⁴

Asliyatda qahramon ruhiyatida ro'y berayotgan bu o'zgarish ingliz kitobxoniga quyidagicha etkazilgan:

*Yet, strangely, Otabek remained outside for sometime and even the door to their cell finally opened, Otabek still lingered in the doorway... Otabek continued to sit on his bedding, his mind deep in some trance.*²⁵

Tadqiqot natijalari. O'zbek adabiyotining klassik asarlarini ingliz tiliga tarjima qilishda ekstralingvistik vositalarning muhimligini ko'rishimiz mumkin. Noverbal elementlar – imo-ishoralar, harakatlar va tana tili – tarjimadan butunlay chiqarib tashlanmasdan, o'z ma'nosini va hissiy ruhiyatini aks ettiradi. Tarjimada bu vositalarni moslashda madaniyatlararo tafovutlar e'tiborga olinadi. Madaniyatlararo farqlarni hisobga olish, tarjimaga yondashishning asosiy qismi bo'lishi kerak. Asliyatdagi milliy xususiyatlar, masalan, O'zbek Oyimning o'ziga xos harakatlari, tananing yoki ovozning ifodasi, ingliz tiliga qarab qayta ishlab, uning hissiy ma'nosi saqlanishi lozim. Mark Ris, bu jarayonda milliy tafovutlarni yodda tutgan holda, tarjimada muvofiqlikni ta'minlagan. Otabek, O'zbek Oyim kabi personajlarning ruhiy holatini ochishda noverbal vositalar juda muhim. Tarjimon, asliyatdagi voqealarning va personajlarning ruhiy holatlarini, ularning ichki kechinmalarini to'g'ri aks ettirishda muvaffaqiyat qozongan. Bunda paralingvistik va kinetik vositalardan foydalanish juda muhim. Tarjima jarayonida noverbal vositalarni to'liq aks ettirish – bu faqat matnni o'g'irishdan iborat emas, balki uning hissiy, ijtimoiy va madaniy kontekstini saqlab qolishdir. Tarjimon, asliyatdagi ma'no, tovush, harakatlarni saqlab qolgan holda, ularni moslashtirgan. Tarjimada noverbal vositalarning to'g'ri o'g'irilishi, personajlarning karakteri va ruhiy holatining chuqurroq tushunilishiga imkon beradi. Bu esa, romanlarning ingliz tilidagi o'qilishi va qabul qilinishini ancha osonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at.
2. Abdulla Qodiriy. (2014). O'tkan kunlar: Tanlangan asarlar. Sharq.
3. Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov,

Muxokama. "O'tkan kunlar" romanining tarjimasida orqali ekstralingvistik vositalarning (imo-ishoralar, harakatlar, fonatsion va kinetik vositalar) ta'siri va ularning ingliz tiliga qanday o'zgarganini tahlil qilish, adabiy tarjimaning qiyinchiliklari va murakkabliklarini ko'rsatadi. Tarjima jarayonida asosiy vazifa, asliyatdagi noverbal vositalarning ma'nosini, o'ziga xosligini va uning ruhini boshqa tilga to'liq o'tkazishdir. Ekstralingvistik vositalar (imo-ishoralar, harakatlar, tana tili) ifodalovchi elementlar) adabiy asarlarning personaj xarakterlarini yaratishda, voqealarning dramatik tusini kuchaytirishda, ruhiy holatlarni ochishda muhim rol o'ynaydi. Bu vositalar orqali, asar voqealarini o'qigan kitobxon, personajlarning ichki dunyosini yaxshiroq anglaydi. Tarjima jarayonida esa, madaniy farqlar, til va uslubdagi tafovutlar tarjimaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, O'zbek Oyimning harakati yoki ifodalari kabi milliy xususiyatlarga ega noverbal vositalar ingliz tiliga o'g'irilganda, ularning aniq va to'liq ma'nosi saqlanib qolishi kerak. Bu jarayonda, tarjimonning noverbal elementlarni, ya'ni tana harakatlari, so'zlarning ohangini va paralingvistik vositalarni aniqligi muhimdir. Mark Risning tarjimasida, bu elementlarni muvaffaqiyatli o'g'irib, asliyatdagi hissiy holatlarni, personajlarning ichki kechinmalarini ingliz tilida aniq aks ettirganini ko'rsatadi.

O'tgan kunlar romanida tarjimaning murakkabligi, asosan, milliy xususiyatlar, urush davridagi madaniy tafovutlar va noqonuniy yoki boshqa ijtimoiy normalar bilan bog'liq. Misol uchun, O'zbek Oyimning ruhiy holatini aks ettiruvchi harakatlar, asliyatda chuqur madaniy ma'no kasb etadi. Tarjimada esa bu ma'no, ingliz tiliga qarab to'liq tushunilishi uchun, ijtimoiy va madaniy farqlarni hisobga olish zarur.

Xulosa. "O'tkan kunlar" romanining ingliz tiliga tarjima qilingan nusxasida qahramonlarning karakterini ochishda qo'llangan ekstraparingvistik vositalarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Xususan, asarda O'zbek Oyimning emosional va ruhiy holatlari, uning o'g'li bilan munosabatlari va oilaviy muammolari kinetik va ekstraparingvistik vositalar orqali tasvirlanadi.

Tarjima jarayonida ikki madaniyat, ya'ni o'zbek va ingliz madaniyatlarini orasidagi farqlar, milliy urf-odatlar va qadriyatlar o'rtasidagi muammolar ko'p hollarda o'z ifodasini topadi. Bu masalalar, tarjimon Mark Rizz tomonidan muvaffaqiyatli hal qilinib, O'zbek Oyimning hissiy holatlari va ichki dunyosini ingliz tilida ham o'ziga xos tarzda aks ettirgan. Ekstraparingvistik elementlar, masalan, jismoniy harakatlar, ishoralar va makoniy havolalar tarjimaga shunday tarzda kirganki, ularning mazmuni asliyatdagi ma'noni saqlab qolgan.

Maqolada shuningdek, ekstraparingvistik vositalarning badiiy tarjimada qanday rol o'ynashi, ularning qahramonlarning ichki dunyosini va hissiy holatlarini qanday ifodalashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Misol uchun, O'zbek Oyimning o'g'lini uch oy kutib, uni ko'rganidan keyingi reaksiyasi orqali uning ichki holati tasvirlanadi. Bu kabi holatlar tarjimaga ekstraparingvistik vositalar orqali ko'chirilgan va asliyatning ruhi saqlangan.

Bundan tashqari, maqolada Qorboshining karakteri va uning mas'uliyatli pozitsiyasi ham ekstraparingvistik vositalar orqali ochib berilgan. Uning oltinlarni sanash va qo'rqulvi harakatlari orqali uning ochko'zligi va pullarga bo'lgan ishtiyoqi tasvirlangan. Tarjimada bu harakatlar to'g'ri aks ettirilgan, natijada asar ruhining saqlanishiga erishilgan.

Xulosa qilib aytganda, maqola ekstraparingvistik vositalarni tarjimada tahlil qilishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ular asar mazmunini, qahramonlarning ichki dunyosini va hissiy holatlarini to'liq va aniq ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Tarjima jarayonida bu vositalarni aniq va to'g'ri tarzda ko'chirish, tarjimonning mahoratini va asar mazmunini to'g'ri tushunishini ko'rsatadi. Abdulla Qodiriyning asaridagi ekstraparingvistik vositalar, ayniqsa, milliy xususiyatlarni, personajlarning xulq-atvorini va ularning ruhiy holatlarini ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

4. Axmadjonov, A., & Sultonova, G. (2024). "CONTENT AND LANGUAGE INTEGRATED LEARNING" (CLIL) METODINING INGLIZ TILINI O'QITISHDA QO'LLANILISHI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 278–280. <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1075>

²² Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at

²³ Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

²⁴ Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san'at

²⁵ Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

5. Begmatov, A. (2024). STUDY OF ONOMASTIC UNITS IN ENGLISH AND UZBEK. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(12), 274–280. <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I12Y2024N43>
6. G'ulomov, J. (2024). SHARQ VA G'ARB ADABIYOTIDAGI QAHRAMON OBRAZLARI: MADANIY O'XSHASHLIK VA FARQLAR. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 202–204. <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1056>
7. Husayniy, A. (1981). *Бадойиъу-с-санойиъ* (A. Rustamov, Trans.). Adabiyot va san'at.
8. Khabitovich, O. B., & Alisherovna, K. D. (2023). Derivation Tools For Geology-Related Terms In English And Uzbek Languages. *Onomázein*, (62 (2023): December), 2106-2112.
9. Kiličeva, M. R. (2011). Адабиёт ва туш. *Адабиётшунослик ва бадиий таржима муаммолари илмий мақолалар тўплами* (pp. 167–169). Buxoro.
10. Kiličeva, M. R. (2011). Шекспирнинг «Юлий Цезар» трагедиясида тушнинг бадиий вазифалари. *Адабиётшунослик ва бадиий таржима муаммолари илмий мақолалар тўплами* (pp. 24–26). Buxoro.
11. Madumarov, M. M. (2022). *Andragogical education: Ways to use fiction translations in learning English*. Innovations in Technology and Science Education
12. Madumarov, M. M. (2022). *Usage of words in Abdullah Qadiri's works*. Innovations in Technology and Science Education,
13. Madumarov, M. M. (2023). *Abdulla's creativity and expression of the national spirit*. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 908-914.
14. Madumarov, M. M. (2023). *Translation of the imagery of nature in the novel "Days Gone By" by Abdullah Qadiri*. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 915-919.
15. Madumarov, M. M. (2024). *Cultural adaptation and symbolism in translating heroic figures*. IMRAS, 7(5), 541-550.
16. Madumarov, M. M. (2024). *Exploring translation techniques for heroic characters in literature*. Journal of Multidisciplinary Bulletin, 7(5), 141-149.
17. Madumarov, M. M. (2024). *Extralinguistic devices in character development and translation*. Kokand University Research Base, 173-179.
18. Madumarov, M. M. (2024). *Translation of stylistic devices in the English translation of Abdullah Qadiri's novel Days Gone By*. Journal of Multidisciplinary Bulletin, 7(5), 141-149.
19. Nazarova, G. P. (2016). Ingliz uyg'onish davri adabiyotida odalar va ularning xususiyatlari. *Чет тиллари ўқитушда коммуникатив ёндашув: тил, тафаккур, маданият* (pp. 81–84). Buxoro.
20. Nazarova, G. P. (2019). Brief look at the Uzbek women mythological characters. *Adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va komparativistika: Maqola va tezislar to'plami*. Navro'z nashriyoti.
21. Niyoz, H. H. (1935). *Asar nomi*. Toshkent: O'zbekistan nashriyoti.
22. Otto, M., & Thornton, J. (2024). SHARQ VA G 'ARB ADABIYOTIDAGI QAHRAMON OBRAZLARI: MADANIY O 'XSHASHLIK VA FARQLAR. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 202-204.
23. Oybek, E. (2024). THE ISSUE OF TOLERANCE IN THE HISTORY OF RELIGION. *Academia Repository*, 5(2), 77-81.
24. Oybek, E., & Shaxzod, X. (2023). Qiyosiy dinshunoslikning nazariy-metadologik masalalari. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 1(2), 968-972.



ZAMONAVIY INGLIZ TILIDAGI NEOLOGIZMLAR VA ULARNING TARAQQIYOTI

Mulaydinov Farxod,

Qo'qon universiteti registrator ofis muovini

Po'latova Ruxshonaxon,

Qo'qon universiteti, Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 52 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1165 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS Neologizm, ingliz tili, lingvistika, so'z yasashi, globalizatsiya, tarjima, sotsiolingvistika, texnologik terminlar, internet leksikasi, ommaviy axborot vositalari.	Ushbu tadqiqot zamonaviy ingliz tilidagi neologizmlarning shakllanishi, rivojlanishi va ularning lingvistik tizimdagi o'rnini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – yangi so'zlarning paydo bo'lish manbalari, ommalashish jarayoni va boshqa tillarga ta'sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqot metodologiyasi sifatida lingvistik tahlil, korpus tadqiqotlari va statistik tahlil usullari qo'llanildi. Shuningdek, so'nggi yillarda ingliz tiliga kirib kelgan neologizmlar va ularning qo'llanilishi ommaviy axborot vositalari hamda ilmiy adabiyotlar asosida o'rganildi. Ma'lumotlar internet, lug'atlar va akademik maqolalar orqali jamlandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, neologizmlar asosan texnologiya, internet va ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liq holda shakllanadi. Ularning lug'atlarga kiritilishi o'rta 3-10 yil davom etadi va bu jarayonga ommaviy axborot vositalari katta ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ayrim neologizmlar boshqa tillarga bevosita o'zlashadi yoki moslashgan shaklda qabul qilinadi. Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidagi neologizmlar global kommunikatsiyaning muhim qismi bo'lib, ularning kelajakdagi rivojlanish tendensiyalarini o'rganish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Tadqiqot natijalari lingvistika, tarjima nazariyasi va sotsiolingvistika sohalari uchun foydali bo'lib, neologizmlarning uzoq muddatli barqarorligini aniqlash va tahlil qilish uchun yangi yondashuvlarni taklif etadi.

Kirish. Til har qanday jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, u inson tafakkuri va madaniy taraqqiyotini aks ettiradi. Zamonaviy dunyoda globallashuv, ilm-fan va texnologiya rivojlanishi natijasida tillarning lug'aviy tarkibida doimiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ayniqsa, ingliz tili xalqaro muloqot va axborot texnologiyalari tili sifatida neologizmlarga eng boy tillardan biri hisoblanadi. Yangi tushuncha va hodisalarni ifodalash ehtiyoji neologizmlarning tez shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Til – millatning ma'naviy boyligi, uning madaniyati va tafakkurining asosiy mezonidir." Bu fikr zamonaviy tilshunoslik uchun ham dolzarb bo'lib, neologizmlarni o'rganish faqat lingvistik jihatdan emas, balki ijtimoiy-madaniy va kognitiv nuqtayi nazardan ham muhimdir. Til inson tafakkuri va jamiyat taraqqiyotining aksidir. Har bir davrda ilm-fan, texnologiya, ijtimoiy jarayonlar va madaniyatning rivojlanishi natijasida yangi tushuncha va atamalar paydo bo'ladi. Ayniqsa, ingliz tili dunyo miqyosida ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning asosiy vositalaridan biri bo'lib, unda neologizmlarning shakllanishi va keng tarqalishi tez suratlarda kechmoqda. Zamonaviy ingliz tilidagi neologizmlar ko'pincha internet, ijtimoiy tarmoqlar, texnologiyalar va ekologiya kabi sohalarga bog'liq holda yuzaga keladi. Yangi so'zlarning paydo bo'lishi nafaqat lug'at tarkibiga ta'sir qiladi, balki til tizimining dinamik xususiyatini ham namoyon etadi. Shuningdek, neologizmlar global madaniyat va kommunikatsiya jarayonlarida muhim o'rin tutadi. Neologizmlarning paydo bo'lishi tilning tabiiy rivojlanish jarayoni bo'lib, ular yangi ehtiyojlar va kontseptlarni ifodalashga xizmat qiladi. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, global ijtimoiy tendensiyalar va ekologik muammolar tufayli ingliz tiliga minglab yangi so'zlar qo'shildi. Masalan, "selfie," "cryptocurrency," "metaverse" kabi atamalar qisqa vaqt ichida keng qo'llanila boshlandi va bugungi kunda umumiy lug'at tarkibining ajralmas qismiga aylandi. Neologizmlar ko'pincha quyidagi usullar orqali shakllanadi: mavjud so'zlarning yangi ma'no kasb etishi, qisqartirishlar, ikki yoki undan ortiq so'zlarning qo'shilishidan hosil bo'lishi (portmanteau), shuningdek, boshqa tillardan so'zlar o'zlashtirilishi. Bunday jarayon ingliz tilining ochiqqligini va moslashuvchanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, neologizmlar nafaqat lingvistik hodisa, balki ijtimoiy-madaniy ko'rinish hamdir. Ular jamiyatning turmush tarzidagi o'zgarishlarni aks ettiradi, yangi avlod tafakkurini shakllantiradi va kommunikatsiya jarayonlarini osonlashtiradi. Shu bois, ularning o'rganilishi zamonaviy lingvistika uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega. Neologizmlarning shakllanishi va ularning ommaviy qo'llanilishi til rivojining tabiiy jarayoni bo'lsa-da, ularning barqarorligi va uzoq umr ko'rishi ham

muhim masaladir. Har yili minglab yangi so'zlar paydo bo'lsa-da, ularning aksariyati qisqa vaqt ichida iste'moldan chiqib ketadi. Ushbu maqolada quyidagi masalalar tahlil qilinadi:

- *Zamonaviy ingliz tilidagi neologizmlarning asosiy manbalari va shakllanish usullari qanday?*
- *Neologizmlar til tizimiga qanday ta'sir ko'rsatadi?*
- *Ularning qo'llanilishi qanday omillarga bog'liq va kelajakda qanday o'zgarishlar kuzatilishi mumkin?*

Mifologik tasavvurga ko'ra, xazinalarni katta ilonlar va ajdaholar qo'qirlab yotishi haqidagi tasavvur mavjud. Shunga ko'ra Avaz mol-dunyoga hirs qo'yganlarni ana shu ajdaho va ilonlarga qiyos etadi. Boylikka, o'tkinchi narsalarga bo'lgan muhabbat asl maqsadni unuttiradi. Shuning uchun Avaz o'ziga va barcha insonlarga mol-dunyodan hazar qilishni nasihat qiladi. Ertaga qabrga kirganingda ular ilonlarga aylanib o'zingni chaqmasin deydi.

Insonlarga nasihat qilish, ularni haq yo'lga yo'naltirish an'anasini Otaniyoz Niyoziy ham davom ettiradi:

Ko'rarsan ishqning dashtini muhlik bo'lmayin xunso,

Bu vodiy ichra o'zni solg'oli mard ayta, ey oshiq. [7,123]

Ushbu baytda ijodkor hayotda qanday yashashdan tashqari, eng avvalo, mard bo'lishga chorlaydi. Quyidagi baytga ham e'tibor qaratamiz:

Ko'zung bedodidin jonlar ko'ngul shohiga dod etmish,

O'zi ko'rgan sitamni shoh raiyatga yod etmish. [8,124]

Baytning birinchi misrasida ishq mavzusi yaqqol ko'zga tashlanadi. Oshiqlar mashuqa ko'zining bedodligidan ko'ngil hukmdoriga shikoyat qiladi. Demak, Allohga arz qilayotgan ekanda. Axir har bir inson Yaratganning bir zarrasi va har kishining ko'ngilida Allohning jilvasi mavjud. Keyingi misraga o'tib esa xuddiki hukmdorlarga ogohlik beradi. Xalqini o'ylaydigan podsho o'zi chekkan uqubatlarni xaqi ham tortishini istamaydi. Bu misraga Niyoziyning odil podsho haqidagi o'ylari ham singdirib yuborilgan.

Ishq mavzusi umumsharq she'riyati, jumladan, o'zbek adabiyotining bosh mavzularidan biridir. Adabiyot tarixiga nazar soladigan bo'lsak, har bir ijodkor bu ko'hna mavzuni yangi-yangi tashbehar bilan boyitib kelganini kuzatish mumkin. Adabiyotshunos Rahim Vohidov fikricha, "Ishqni kuylamagan shoirni va ishq dardi aralashmagan she'rni topish mutlaqo mumkin emas". [9,142]

Feruz adabiy merosining ham salmoqli qismini ishqiy lirika tashkil etgan bo'lib, deyarli barcha janrdagi she'rlarida ayni janr imkoniyatiga qarab ishqni tarannum etgan. [10,52] Xususan, shoir ijodida ham zohid va uning minnatli ishq haqidagi baytlarni uchratish mumkin. Chunonchi,

Dema ey zohid, manga jannat guli avsofini,

Ko'zga ilmon gulshan ko'yida butgan xoricha. [11,97]

Bu yerda Feruz lirik qahramonini zohidni gulshandalardan ham ortiq bo'lgan yori jamoli oldida jannatning bitta gulini madh etishi ajablantiradi. Chunki u shunday zebolig' oldida jannat gulini nazarga ham ilmaydi. "Jannatdagi eng oliy ne'mat – Allohning diydorini ko'rish hisoblanadi". [12,80] So'fiyning jannatdan maqsadi esa unda Alloh jamoliga muyassar bo'lishdir. Shuning uchun ham lirik qahramon zohiddan Alloh diydori turganda Firdavs-u Rizvondan so'z ochmasligini so'raydi.

Xorazm adabiy muhitining yirik vakillaridan Munis esa zohidning ta'mali ibodatini keskin tanqid qiladi:

Ko'yi gulzori erur albatta ortuq, zohido,

Or erur bilmak oni firdavsi rizvoningcha xo'b. [13,74]

Munis ushbu baytda zohidga murojaat qilib yorining husnu malohatda tengsiz jamoli zohidning azaliy orzusi bo'lgan jannatdan ustun ekangilini ta'riflar ekan, unga yor jamolini firdavsi rizvonga qiyoslash hatto ordek tuyuladi. Bu yerda, albatta, Alloh ma'nosida. Yana bir baytida Munis zohidning bu ishidan, ya'ni jannatni har narsadan ustun qo'yishi-yu barcha qilgan harakatlari faqatgina shaxsiy manfaati uchun ekanligidan unga nafratini izhor qiladi. Insoniyatga nasihat qilib, borsang faqat mayxonaga borginki, barcha yaxshiliklar u yerda jam bo'lgan va zinhor masjid tomon yurmagin, chunki u yerda senga zohidning kasofati uradi deydi. Buning natijasida ilohiy ishq minnatga aylanib qolishi mumkinligini uqtiradi:

Mayxona sori borki, sharofatlar andadur,

Masjidga kirma, yetgusi zohid kasofati. [13,150]

Otaniyoz Niyoziy ham zohidga murojaat etib agar sen mayning qudrati va ma'nosini anglamoqchi bo'lsang, tabiatidagi shaxsiy xohish-istaklardan voz kechishing kerak deya maslahat beradi:

Zohido, may ma'nin etding, emdi bil kayfiyatini,

Gar zamiringda kudurat birla hissat bo'lmasa. [8,116]

Zohid va uning minnatli ibodatiga Amiriy va Xorazm ijodkorlarining munosabatlari shundan dalolar beradiki, kimdir u orzu qiladigan jannatdan yor yuzini ortiq bilsa, yana kimdir jannatdagi gullardan mashuqasi jamoliga tenglasha olmasligi haqida bong uradi. Boshqa biri esa zohidga va uning riyodan iborat ibodatiga bo'lgan o'z nafratini bayon etadi.

Alisher Navoiy "kecha tong otquncha" kutgan, "joni bo'g'ziga kelgunicha" yo'llarini poylagan, kutaverib ko'zlarini to'rt qilgan mashuqani Amiriy yaxshi gap bilan chorlamoqchi bo'ladi:

Kulbam sori gar kelsangiz, jon naqdidir podoshingiz,

Ko'z ashki birla suv sepib, mijgon bo'lur farroshingiz. [2,119]

Baytda Amiriy lirik qahramoni mashuqasining bir bora kulbayi vayronasiga kelishi uchun jonini nisor qiladi. Hatto ko'z yoshlaridan suv sepib, kipriklari bilan supurib qo'yadi. Jonini sovg'a tariqasida berishga hozirligi milliy odatlarimizda bo'lgani kabi uyga kelgan mehmonga tuhfa berilish holatini yodga soladi.

MUHOKAMA

"Mumtoz adabiyotdagi ma'shuqa o'zining bir qator an'anaviy xislatlariga ega. Shulardan biri uning hammaga mehr va muhabbat bilan qaragani holda haqiqiy oshiqqa nisbatan beparvo munosabat ko'rsatishidir". [14,17] Shuning uchun ham mumtoz she'riyatimizda, xususan, tasavvufiy ma'nolar kuylangan asarlarda yor hamisha kofir, nomusulmon, zolim, bevafo, beparvo, toshbag'ir, jafakor, sifatida mazammot qilinadi. Unga shuncha tuhfa tayyorlab turgan oshiq kulbasiga kelmasligi ana shu bemehr va beparvolik sifatidir.

Xorazm adabiy muhitining homiysi Feruz ijodida ham ushbu mavzuning ijodkor dunyoqarashi ta'sirida shakllantirilgan yangicha ifoda usulini ko'rishimiz mumkin:

Bo'lsangiz aylabon karam kulbamiz ichra mehmon,

Maqdamingizga bo'lgusi javhari jon nisorimiz. [11,45]

Feruz ham Amiriy singari kulbasiga mashuqasining bir bora kelishi uchun jonini poyondoz qiladi. Shu kabi ohanglarni Munis ijodida ham uchratish mumkin:

Dardi ishqingga erur ham javhari jonim nisor,

Ham yo'lingga ko'ngul o'tlig' bo'stonimdur fido...

Nega Munis sori kelmassan hiromi noz ila,

Qaddu xush raftoringa nazmi ravonimdur fido. [13,203]

Munis ijodida ushbu mavzu ana shu ikki bayt orqali biroz ma'nosi kuchaytirilgan holda yuzaga kelgan. Baytda Munis mashuqasi keladigan yo'lga ko'ngil bo'stonini fido qilmoqda, ishqida jonini u ham Amiriy va Feruz singari nisor aylagan. Keyingi baytda esa ulardan ham ortiqroq narsani yorining yurishiga qurbon qiladi. Serjilo nazm bo'stonini tortiq qilmoqda. Bu shoir uchun juda katta jasorat. Chunki butun mehnatlari, jondan aziz asarlaridan voz kechish oson emas. Bu tuhfa larning barchasi mashuqani oshiqning kulbai vayronasiga bir bora qadam bosishi uchun xolos.

Mashuqning oshiq uyiga mehmonga kelishi, yoki oshiq uning kelishini istashi mazmunidagi baytlat Ogahiy ijodida ham uchraydi:

Ey shohsuvorim markabi qo'ygil qadam men sorikim,

Yo'lingga tufroq aylabon boshim, Tuyog'ingni o'pay. [15,82]

Ogahiyda mavzu biro o'zgacha tus oladi. Uning lirik qahramoni yorini u tomonga yetakagan oyoqlarini o'pishga tayyor. Amiriy yorini kelishi uchun kipriklarini farroshga aylantirsa, Ogahiy lirik qahramoni boshini mashuqasi yo'lga tuproqdek sochmoqchi. Otaniyoz Niyoziyda bu mavzu juda baland pardalarda kuylanmaydi:

Qo'ysang makonimg'a qadam ko'z ustina, ko'z ustina,

G'am haylini aylab adam ko'z ustina, ko'z ustina. [8,129]

Niyoziy mashuqasi uning huzuriga tashrif buyurishi bilan alamlari chekinishini ma'lum qiladi va shu bilan yoriga boshqa hadyalar in'om etmaydi.

Rojiy ijodida ham bu mavzu ma'lum daraja ijodiy yondashilgan:

Kelib kulbama qilmag'il ketgali,

Shitobu shitobu shitobu shitob [16,28]

Rojiyda lirik qahramon mashuqasi allaqachon kulbasiga yetib kelgan va endi u yoridan ketmoqqa shoshmasligini so'raydi. Xorazm adabiy muhiti vakilari ijodiga nazar tashlash jarayonida shu narsaga amin bo'ldikki, Niyoziy va asosan, Rojiy asarlarida ma'noni kuchaytirish uchun takror san'atidan unumli foydalangan.

Hamisha ishq razmi sifatida e'tirof etiluvchi obrazlardan Majnun ham Amiriy ijodida yangi qirralari bilan ko'rinish beradi. Odatda Majnun obrazi oshiq'larga maslahat beruvchi, ishqdan telba bo'lganlarga namuna sifatida ko'rsatiluvchi bir obraz sifatida mumtoz adabiyotimizda mavjud edi. Amiriy unga o'ziga xos tarzda yondashib "Laylining xaridori Majnun bo'lsa, men senga oshiqman, zero har kimning o'z munosibi bor (351)", "Boshimdan Layli hayolini ketkazmagin, meni hamisha majnun qilgil, yo rab (311)" deya Majnunga munosabatini ma'lum qiladi. Quyidagi baytida esa lirik qahramon o'zini ishq-muhabbat ramzi bo'lgan, oshiqlik qismati bo'lgan shaxslardan ham ustun qo'yadi:

*Dema Majnun ila Farhod ishq ichra musallamdur,
Bihamdillahi, mandurman muhabbat hayli yaktosi. [2,331]*

Demakki, lirik qahramon ishqda Farhod-u Majnun hamisha ilg'or degan xulosa bermanglar, men chin ishqda yagonaman, ularning ishq mening muhabbatim oldida hech narsa emas demoqda. Bundan ayon bo'ladi, Amiriy o'zini Majnun va Farhodlardan ortiq qo'ymoqda.

*Ko'rubon Majnuni zabun holim junun vodiysida,
Dedi taslim aylabon: "Ishq ichra ustodim kelur".11,[41]*

Feruz qalamiga mansub ushbu bayt Amiriyga izdoshlik asosida yuzaga kelgan bo'lib, unda ham oshiq o'zini Majnundan ustun qo'yadi, hattoki Majnun oshiqqa "Ustoz" deb murojaat qiladi. Ishq bobida Majnunga ustozlik qilganlardan yana biri Munisdir:

*Ne tong Majnun mening shogirdim o'lsa,
Ki ishq atfolining ustodi men-men. [13,179]*

Baytdan anglashiladiki, Munis ishq bobida Majnunga ustoz, nafaqat Majnunga, balki barcha oshiq'larga ustoz - u.

Amiriy Feruz va Munisdek aynan Majnun ustoziman demaydi, lekin ijodini kuzatganimizda bunga qator ishoralar qilib o'tganligining guvohi bo'ldik. Bilamizki, Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni qahramoni Majnun ko'ngliga ishq o'ti tushgan betob bo'lib, yotib qoladi. Otasi unga turli yerlardan tabiblar olib keladi, dardiga har xil choralar izlaydi. Oxiri Allohdan shofi istab Kabatullohga ham olib boradi. U yerda o'g'liga dardingga Allohdan shifo so'ragin deb uqtiradi. Majnun bu dard jism dardi emas, balki ko'ngil dardi, qalb og'rig'i ekanligini anglagani uchun Allohdan ishqini yana ham yuksaltirishini so'raydi. Amiriy ham quyidagi baytida Majnun kabi oshiqlikda rasvoya jahon bo'lishni, ishqini orttirishini so'rab Allohga murojaat etadi:

Tilar ko'ngulki, oshiqlikda rasvoya jahon o'lsam,

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Қобилова З. Мухаббат мамлакатининг амири. Амриий ва Қўқон адабий муҳити мавзусидаги республика илмий-адабий анжуман материаллари. Тошкент. "Тамаддун" 2017.:Б-122
2. Amiriy. Devon.O'zbekcha she'rlar.- Toshkent: Tamaddun, 2017.
3. Саримсоқов Б. Фолклоризм типологиясига доир // Ўзбек тили ва адабиёти.1980/4.: Б-39.
4. Шарипова Л. XX асрнинг 70-80-йилларида ўзбек шеърларида фолклор. Тошкент: Фан, 2011. Б-22
5. Komil Xorazmiy. Devon.- T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975.Б-72
6. Avaz. Saylanma. Б-182
7. Отаниёз Девон Охунд. Девони Ниёзий. Тошкент.: Ўзбекистон-2016.Б-123
8. Ғайипов Д. Отаниёз Ниёзий.Тошкент "Фан" 2010. Б-123
9. Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро, 1996.– Б.142.

Ul o'yning husniga, yo Rab mani mundin battar zor et.[2,62]

Fikrimizni Ogahiy ijodi bilan davom ettiradigan bo'lsak, uning ijodidagi komil inson to'g'risidagi qarashlardan tortib, obraz, timsol, tasviriy vositalarni qo'llashgacha Amiriyga ergashish yaqqol sezilib turadi. Ushbu izdoshlik bir tomondan, Ogahiy mavjud an'analarga yuksak muhabbat bilan qaraganligida ko'rinsa, ikkinchi tomondan, mavjud poetik an'analarni o'ziga xos tarzda va muayyan darajada takomillashtirishga ham erishganligini qayd etish lozim. Buning yorqin natijasi sifatida shuni ko'rishimiz mumkinki, Ogahiy Amiriyning :

*Kechalar mahrum emas vayronalar oy nuridin,
Sol buzuq ko'nglumga husning partavi, ey mahliqo![2,43]*

Baytiga mazmuniy davomiylik ulab bayt bitadi. Amiriy talqinicha oshiqning ko'ngli siniq, unga malham esa mashuqaning husnu jamoli. Shuning uchun mashuqa bir bor husnini ko'rsatib inoyat qilishiga O'yning nuri hatto vayronalarga tushib hammayoqni birdek nurafshon qilish holatini tamsil sifatida keltiradi. Ogahiy ushbu fikrlarni shunday davom ettiradi:

*Ey shah, karam aylar chog'i teng tut yomonu yaxshini,
Kim, mehr nuri teng tushar vayronu obod ustina. [15,37]*

Ushbu baytni ikki xil ma'noda tushunish mumkin. Birinchi ma'nosida Ogahiy xuddiki, mamlakat hukmdori bo'lgan shohga nasihat qiladi. Himmat ko'rsatmoqchi bo'lgan oningda insonlarni tabaqalashtirmasdan, u boy, bu kambag'alga ajratmasdan hammani teng tutgin tarzida nasihat qiladi. Ikkinchi ma'nosida murojaat husn iqlimining sultoni hisoblanmish mashuqaga qaratiladi. Quyosh joy tanlamay har vayrona-yu, har obod yerga birdek nurlarini taqsimlagani kabi yoridan ham hadeb raqiblariga inoyat qilavermay oshiqqa ham bir qiyoy boqib qo'yishini istaydi.

XULOSA

Ko'rinib turganidek, mumtoz adabiyotimizda bir mavzudagi, ayni bir masalani yoritishga bag'ishlangan bayt-u misralar talaygina. Bunga Amiriy va Xorazm shoirlari ijodini kuzatish orqali ham guvoh bo'ldik. Ushbu xususiyat, avvalo, ijodkorlarning qalban yaqinligidan, fikran umumiylikidan dalolat beradi. Ikki adabiy muhit o'rtasidagi bunday hamohanglik asriy an'analarning ta'siri sifatida namoyon bo'lgan. Obrazlarga yuklangan ma'nolar har bir ijodkorning maqsad va muddaolarini, shu bilan bir qatorda, mavjud masalalarga oid munosabatini ham yoritish uchun xizmat qilgan.

10. Маҳаммадиева Ю. Ферузнинг бадий маҳорати. PhD илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент-2020. : Б-52
11. Мухаммад Раҳимхон Феруз. Элға шоҳу ишққа қул. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1994. – Б. 97
12. Ислон. Энциклопедия. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2004. –Б. 80.
13. Шермуҳаммад Мунис Хоразмий .Сайланма.Тошкент-1980.Б-150
14. Тўхлиев Б. "Ул ойки, меҳр ила оламни муҳтарам қилди" \\ Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар (Ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари). X жилдлик, 10-жилд. – Тошкент: "Ўзкитобсавдо", 2020. – Б.17.
15. Огаҳий. Девон. Асарлар II жилд. Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент -1972. Б-82
16. Мухаммад Юсуф Роҳий Хоразмий.Жамолнинг гулшанининг булбулиман. Танланган асарлар. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти.Тошкент-2008.Б-28



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI TAHALLUSLAR VA LAQABLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI

Raximjonova Muxtasarxon Madaminjon qizi

Qo'qon Universiteti magistranti

mmraximjonova@kokanduni.uz

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 55 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1168 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi tahallus va laqablar bir-biri bilan taqqoslanib ularni tilshunoslik nuqtai nazaridan struktur va semantik tahlillari haqida so'z boradi. Jumladan, bu mavzu ingliz va o'zbek adabiyotshunosligi bilan ham chambarchas bog'liq bo'lib, asosan ingliz va o'zbek adabiyotida tahallus va laqablar ilan ijod qilgan shoir va yozuvchilarning tanlangan va jamiyat tomonidan berilgan, hurmat va ehtirom darakchisi hisoblanmish tahallus va laqablarning kelib chiqish tarixi va ularning semantikasi o'rganiladi va bu jarayon davomida ularni tilshunoslik nuqtayi nazaridan birma bir struktur tahlil qilib chiqiladi. Bu izlanish orqali tilshunoslikning ham struktur ham semantik tahlil nuqtalari ochib beriladi va natijalar tahlil qilinadi. Bu mavzuni chuqur o'rganish va tadqiq qilish uchun vatanimiz olimlari va chet el, xususan ingliz olimlarning tilshunoslik va adabiyotshunoslik kitoblaridan foydalaniladi hamda ulardan ba'zi iqtiboslar keltiriladi. Chunki ingliz va o'zbek xalqi va madaniyati bir biridan tubdan farq qiladi va ularning tahallus va laqablarini o'rganish ko'plab bahslarga va xulosalarga sabab bo'luvchi mavzu hisoblanadi. Va shuni aytish joizki, ushbu mavzu o'zining qiziqarliligi va o'ziga xosligi ilan o'quvchi hamda o'z o'rnida tadqiqotchini o'ziga torta oladi.
tahallus, laqab, struktura, semantika, struktur tahlil, struktur tilshunoslik, tuzilish, so'z shakli, tashqi tomon, ichki tomon, leksikologiya, birlik, termin.	

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar millat va yurtning yorqin kelajagini yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu kabi keng qamrovli islohotlar jamiyatimizning barcha bo'g'inlarini shuningdek fan va ta'lim jabhalarini ham o'z ichiga qamrab olgan. Bu keng qamrovli islohotlarning asosiy qismi ilm-fanga qaratilgan tahsinga sazovor, negaki, ilmdagi har qanday rivojlanish mamlakat kelajagiga poydevordir. Ilmga ochilgan istiqbolli keng yo'l tufayli, xususan, o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi sohasiga ham jahon andazasidagi zamonaviy metod va uslublarning tatiq etilishi ilmiy salohiyat va tafakkur taraqqiyotiga ham xizmat qilmoqda. Bu esa o'z navbatida milliy tilshunosligimizda va adabiyotshunosligimizda ham turli yangicha yo'nalishlar va konsepsiyalarni paydo bo'lishiga zamin yaratmoqda.

Har bir tilning o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari bo'lgani kabi ingliz va o'zbek tillarida ham o'ziga xos o'xshashliklar va albatta farqli jihatlari bisyor. Xususan, bu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi tahallus va laqablarning o'ziga xos birlashtiruvchi va farqlovchi tomonlarini muhokama qiladigan bo'lsak unda shaxsiy nomlar tahalluslar va laqablar muhim o'rin tutadi. Tahallus va laqablar asosan insonlarning shaxsiyati, muhim xarakter xususiyatlari va ijtimoiy mavqeini o'zida aks ettiradi. Bu ikki tilde ya'ni ingliz va o'zbek tillarida ularning qo'llanilishi, tanlanilishi va struktur va semantik tahlili albatta farq qiladi chunki ikkala tilning ham bu ism va nomlarga o'zining madaniyati, sotsial tarkibi va mentalitet kabi asosiy mezonlari o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu o'rinda O'Imas Sharipova va Ibrohim Yo'ldashevlar o'zlarining "Tilshunoslik asoslari" tilshunoslik nazariyasiga asoslangan kitoblarda quyidagi jumalarni keltirib o'tishgan: "Til va jamiyat tushunchalari ma'no anglatish nuqtayi nazaridan farqli-farqli ma'nolarni ifodalasada bir biri bilan uzviy bog'langandir. Tilni xalq yaratafi va o'z navbatida, jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas ohangda takomil topib boradi. Xalqning madaniy va ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti o'z navbatida o'z izlarini birinchi galda, tilda qoldiradi. Shu bois, jamiyatdagi har qanday o'zgarish, birinchi navbatda, tilda aks etadi."¹ Bu purma'no tushunchalarni biz o'z fikrimizning yorqin va mustahkam dalili sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Yuqorida keltirilganidek jamiyatda, davlatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar albatta birinchi o'rinda davlat va jamiyat tiliga ta'sir krsatadi, xususan tahalluslar va ismlarga ham. Shuning uchun ham bu ikki tildagi tahalluslar va laqablarning bir-biridan farqli jihatlari bisyor. Va ularning strukturasi va semantikasiga ham to'xtalib o'tadigan bo'lsak, tahalluslar va laqalarning bu xususiyatlarini tilshunoslik nazariyasi chuqur tahlil qili beradi va bunda ham biz bu ikki tildagi nomlarning qator farqli jihatlari ko'rishimiz mumkin. Tilshunoslikda strukturalizm tillarning tashqi tuzilishini ularning tarkibini o'rgansa, semantika esa so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarini ya'ni ularning ma'no jihatdan tahlillarini ko'rib chiqadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tahallus va laqablarning tahlili metodologik jihatdan ikki asosiy yo'nalishda – adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilishi mumkin. Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahallus va laqablar, ayniqsa, o'zbek adabiyotida buyuk shaxslar va yirik adabiyot namoyandalari hurmat-ehtirom sifatida berilgan bo'lib, ularni o'zbek adabiyoti asarlari orqali o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bunda H. D. Abdullayevning O'zbek adabiyoti tarixi o'quv qo'llanmasi muhim manba sifatida qoraladi. Ushbu qo'llanmada qadimdan tahallus va laqab bilan ijod qilgan adabiyot namoyandalari haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Bundan tashqari, Ibrohim Sultonov tomonidan yozilgan Adabiyot nazariyasi kitobida ijodkorlarning tahalluslari ilmiy asosda o'rganilgan bo'lib, bu asar tahalluslarning adabiy va badiiy funksiyalarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, Tohir Qorayevning Tahalluslar nomli asarida tahalluslarning shakllanish jarayoni, ularning adabiy-estetik vazifalari va tarixiy o'zni batafsil tahlil qilingan.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahalluslar va laqablarning morfologik, sintaktik hamda semantik xususiyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu borada tahalluslar va laqablarning lingvistik xususiyatlarini o'rganish uchun struktur tilshunoslik bo'yicha tadqiqotlar asosiy manba sifatida foydalaniladi. Jumladan, Abdulhamid Nurmonovning Struktur tilshunoslikning ildizlari va yo'nalishlari nomli magistrantlar uchun mo'ljallangan o'quv qo'llanmasida tilshunoslikning struktur tahliliga oid muhim nazariyalar yoritilgan. Tilshunoslik fanida muhim o'rin tutuvchi olimlardan biri Ferdinand de Sossurening Umumiy tilshunoslik kursi asarida so'zlarning struktur va semantik jihatdan tahlili hamda bu boradagi nazariy yondashuvlar keng muhokama qilingan.

Ingliz tili va adabiyotida tahalluslar va laqablarning o'rganilishi ham muhim ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada qator ingliz tadqiqotchilarining asarlari ilmiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Jumladan, The Oxford Companion to English kitobida ingliz adabiyotining umumiy taraqqiyoti bilan birga, tahallus ishlatgan yozuvchi va shoirlar haqida ham ma'lumot berilgan. Bundan tashqari, Virjiniya Vulfning A Room of One's Own (1929) asarida ayol yozuvchilarning, xususan, tahallus ishlatgan ijodkorlarning o'ziga xos yondashuvlari haqida fikr yuritilgan. Ingliz olimi Margaret Atwood esa Negotiating with the Dead: A Writer on Writing (2002) nomli asarida ijodiy shaxsiyat va tahallus ishlatish sabablari haqida atroflicha tahlil yuritgan.

Umuman olganda, tahalluslar va laqablarning metodologik tahlili adabiyotshunoslik va tilshunoslikning turli nazariy yondashuvlarini o'z ichiga olib, ularni madaniy, tarixiy va lingvistik kontekstda o'rganish imkonini beradi. Bu boradagi tadqiqotlar tahallus va laqablarning jamiyatdagi kommunikativ hamda sotsiomadaniy funksiyalarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shu sababli, kelgusida bu mavzu

¹ O'Imas Sharipova, Ibrohim Yo'ldashev "Tilshunoslik asoslari" -Toshkent 2006. -B18-19.

bo'yicha adabiyotshunoslik, lingvistika va sotsiolingvistika nuqtayi nazaridan kompleks tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalari. Dunyoda tillar ko'p va har bir til o'zining o'z nomlash tizimiga ega bo'lib, unda shaxsiy nomlar, ismlar, tahalluslar va laqablar muhim o'rin tutadi. Tahallus va laqablar asosan insonlarning shaxsiyati, kasbi, ijtimoiy mavqei yoki xarakteristik xususiyatlarini ifodalash uchun va buyuk va mashhur shaxslarga jamiyatda hurmat ehtirom ko'rsatish uchun foydalaniladi. Bu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi tahallus va laqablar struktur va semantik jihatdan tahlil qilinadi. Birinchi o'rinda tahallus va laqabning lug'aviy ma'nolarini ko'ri chiqadigan bo'lsak, tahallus u adabiyotda shoir yoki yozuvchi tomonidan qo'llaniladigan tahallus yoki ijodiy laqabdir. Badiiy adabiyotlarda odatda shoir va yozuvchilar o'z asarlarining oxirida tahalluslarini qo'llaganlar. Masalan, o'zbek adabiyotida Navoiy Nizomiddin Mir Alisherning tahallusi hisoblanadi u adabiyotda bu tahallusdan o'z asarlarini oxirida foydalanib ketgan. O'zbek adabiyotida ko'plab shoir va yozuvchilar tahallus bilan ijod qilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur "Bobur", Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li "Ogahiy", Komil Xorazmiy "Komil", Muhammad Aminxo'ja Muqimiy "Muqimiy", Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat "Furqat", Hamza Hakimzoda Niyoziy "Niyoziy", Abdulla Qodiriy "Julqunboy" tahalluslaridan o'z asarlarida foydalanishgan va bu bilan ular o'zek adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shganlar. Ingliz adabiyotida ham tahallus bilan qalam tebratgan shoir va yozuvchilar ham bisyor bo'lib, masalan Samuel Langhorne Clemens o'z asarlarida "Mark Twain" tahallusi bilan, Eric Arthur Blair "George Orwell", Robert Galbraith "J.K.Rowling", Charles Lutwidge Dodgson "Alice's adventures" asarini "Lewis Carroll" tahallusi bilan yozgan. Victoria Lucas "Sylvia Plath", B.H. Dias "Ezra Pound" tahallusi bilan ijod qilgan. Ingliz adabiyotida mashhur bo'lgan Charlotte, Emily va Anne Bronte o'zlarini jinsini yashirish maqsadida "Currer", "Ellis" va "Acton Bell" tahalluslari bilan ijod qilishgan.

Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha qilib ingliz va o'zbek adabiyotida laqablarni bir-biriga solishtirish uchun ikkala tilning ham adabiyoti bilan chuqur tanishib chiqish lozim. Laqab – insonning ismi bilan birga yoki uning o'rnida ishlatiladigan sharafli yoki tavsifiy nom hisoblanib, odatda u ko'proq xalq tomonidan beriladi buyuk va mashhur shaxslarga hurmat va ehtiromni ifodalash uchun. Laqab odatda insonning xulq-atvori, qiyofasi yoki kasbi bilan bog'liq bo'ladi. O'zbek adabiyotida va tarixida laqab bilan nom qozongan va xalqqa tanilgan ko'plab buyuk shaxslar va shoirlar, yozuvchilar bor. Masalan, ilm-fan va adabiyotsohasida o'z tahalluslari bilan nom qozongan ijodkorlar qatoriga Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud az-Zamaxshariy va Abdurauf Fitrat kabi uyuk shaxslarni qo'shishimiz mumkin. Tarixda o'z tahalluslari bilan nom qozongan tarixiy mashhur shaxslarga misol tariqasida Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Mirzo Ulug'bek va Pahlavon Mahmud kabi mard va jasur insonlarni ko'rsatishimiz mumkin. Abu Rayhon Beruniy "Sharq Aristoteli" nomi bilan xalq orasida mashhur bo'lgan bo'lsa, Abu Ali Ibn Sino "Shayx ur-Rais" ya'ni "olimlarning yetakchisi" tahallusi bilan nom taratgan. Mahmud az-Zamaxshariy esa o'z asarlarida "Faxr Xorazm" ya'ni "Xorazmning faxri" tahallusidan foydalangan. Abdurauf Fitratga esa o'zbek xalqi "Turon shoiri" deya ulug' nom bilan atagan. Amir Temur "Sohiqiron" nomi bilan dunyoga mashhur bo'lgan. Mirzo Ulug'bekni esa "Sulton ul-munajjim" deb atashgan. Jaloliddin Manguberdi esa "Sher sulton", "Turon yo'lbarisi" omlarini olgan. Pahlavon Mahmudni esa "Xivalik Bahodir" deb atashgan. Bu shaxslar o'z faoliyatlarini va iste'dodlari bilan tarixda va o'zbek adabiyotida chuqur iz qoldirgan. Ingliz tilida laqab "nickname" deb nomlanadi va bu xalqda ham laqab o'zbek laqablariga o'xshash bo'lib, inglizlar ko'pincha o'zlari tanlab oladi va jamiyatda bu laqabdan keng foydalanishadi. Ingliz tilida laqablar ikkiga bo'linadi odamlar uchun laqablar va guruhlar va har xil guruhlar ham o'ziga xos laqalari bo'ladi. Masalan, ingliz tilida shaxslar uchun Ann, Lucy, Emily, Rose, John, Jack kabi laqablar xalq orasida mashhur. Ingliz tarixida mashhur qiroli King Richard 1 "Dick" laqabi bilan tanilgan, Edward Kennedy esa "Ted Kennedy" laqabi bilan, Robert Frost "Bob" laqabi bilan mashhur. Inliz xalqi orasida mashhur bo'lgan guruhlar va millarlarning mashhur laqalari misolida ko'ri chiqadigan bo'lsak "Brits" bu laqab Britaniya millatiga mansub bo'lgan barcha odamlarga nisbatan ishlatiladi. "The Redcoats" nomi esa barcha ingliz askarlariga tegishli bo'lib, bu nom ularning kiyimlari rangidan keli chiqqan. Ya'ni ularning kiyimlari qizil rangda bo'lgan shuning uchun ularni hamma tarixda "The Redcoats" ya'ni "Qizil kiyimlilar" deb nomlashagan. "Scousers" laqabi esa

Liverpooldan kelgan odamlarga nisbatan ishlatilgan. Ingliz va o'zbek tillarida tahallus va laqablar o'zining tarixiy, madaniy va lingvistik xususiyatlariga ega bo'lib, inliz tilida ko'pincha qisqartma shakllar yoki o'xshashlik asosida nomlash kengtarqalgan ("The Rock" Dwayne Johnson). O'zek tilid aesa tarixiy nomi va adabiy qoidalar muhim o'rin tutadi ("Bobur" Zahiriddin). Yuqoridagi fikrlarimizga asos tariqasida Asatullayev Alisher Asatullo o'g'lining maqolasidan quyidagi jumalarni keltirishimiz mumkin: "Taxallus qo'llashning yana bir jihati shundaki, o'tmishda shoir asarlarini xalq orasida tarqalishida hofizlarning xizmati katta bo'lgan. O'tmishda xalq orasida kuylanayotgan g'azal kimniki ekanligini taxallus orqali bilib olishgan.

Ikkinchidan, g'azallar o'zining vazni, mavzu, qofiyasi va radifi bilan bir-biriga o'xshaganligi sababli, taxallussiz she'r kimning qalamiga mansub ekanligini bilish noma'lum bo'lib qolgan. Shunda bu g'azalning kimga tegishli ekanligini unda qo'llangan taxallus aniqlab bergan.

Uchinchidan, she'riyat terminining binokorlikka nisbat berilishi, she'r tuzilishining uy qurilishiga o'xshatilishi ayrim xulosalar chiqarishga imkon beradi. Jumladan, bayt-uy, rukun-ustun, tarse-ayvon va hokazo. Modomiki, shunday ekan, binoni nihoyasiga yetkazgan me'mor amalining kimga tegishli ekanligini ham qayd etadi.² Yuqoridagi tahallus va laqablarning struktur-semantik tahlili bilan yuzlanadigan bo'lsak, tilshunoslikda struktur tahlil - bu til birliklarini ularning tuzilishi va ularning o'zaro aloqalarini o'rganadigan bo'limidir. Bu tahlilda so'zlar sintaktik, morfologik va fonologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tilshunoslikda struktur termini so'zning tuzilishi degan ma'noni anglatadi. Bu maqolada asosan tahallus va laqablarning tuzilish jihati birinchi tahlil qilini olinadi. Ularni struktur tomondan tahlil qilinayotganda asosan struktur tilshunoslikning uch asosiy xususiyati inobatga olinadi. Bulardan birinchisi formal yondashuv bo'lib, bu so'z va gaplarning ma'nosidan ko'ra ularning tuzilishiga e'tibor qaratadi. Ikkinchi asosiy xususiyati esa tizimlilik bo'lib, bunda tilning barcha elementlari bir-biri bilan bog'liq tizim sifatida qaratiladi. Uchinchisi asosiy xususiyati esa struktur komponentlarga ajratish bo'lib, bunda so'z, gap va fonemalar tahlil qilinib, ularning o'zaro aloqalari ko'rib chiqiladi. Bu terminlarni tahlil qilishda struktur tahlilning asosiy yo'nalishlari bilan ham yondashiladi. Struktur tahlilning asosiy yo'nalishlaridan eng birinchisi fonologik tahlil bo'lib, bunda tahallus va laqablarning tovushlar tizimi tomonidan tahlil qilinib chiqiladi. Ikkinchi asosiy yo'nalishi esa morfologik tomondan tahlil qilish bo'lib, bunda tahallus va laqablarni tuzilishi va ularning shakli jihatdan tahlil qilinadi. Uchinchisi muhim yo'nalish esa sintaktik tahlil bo'lib, bunda yuqoridagi terminlarning tuzilmalari va tarkibiy qismlari o'rganiladi. Yuqorida keltirilgan fikrlarni bir qator mamlakatimiz va chet el tilshunos olimlari o'zlarining asarlari va kitoblarida nazariy jihatdan tahlil qilib asoslaganlar. Shu jumladan, Shveysariyalik tilshunos, zamonaviy tilshunoslik va struktur tilshunoslikning asoschilaridan biri hisoblangan Ferdinand de Sossyur o'zining "Umumiy tilshunoslik kursi" (1916) kitobida tilning struktur tahliliga shunday ta'rif beradi: "Til tahlili ikki qismdan iborat bo'ladi uning tuzilish ya'ni sintaktik shakli va uning ma'no shaklidan".³ Demak bu fikrlardan ko'rinib turibdiki, tahalluslarni struktur tahlil qilishda ularning tashqi tomoni ya'ni ularni shakl jihatdan tahlil qilinadi. Ya'ni ularning qanday yasalgani, sintatik, fonologik va morfologik jihatidan tahlil qilinadi. Tahallus va laqablar struktur tahlil qilinish jihatidan uch guruhga bo'linadi:

1. Odiy shakldagi tahalluslar
2. qisqartirilgan shakldagi laqablar
3. Metaforik tahalluslar

Masalan, Navoiy, Bour, Fuzuliy, Zarif yuqorida keltirilgan tahalluslar oodiy tub o'zakdan tashkil topgan adabiy tahallus va laqablarga misol bo'la oladi. Temur, Buyuk, Sulton kabi tarixiy laqablar ham odiy shakldan yasalgan tahalluslarga misol bo'ladi.

Tahalluslar va laqablarni semantik jihatdan tahlil qilish uchun, avvalo, "semantika" tushunchasining mohiyatini anglash zarur. Semantika – tilshunoslikda ma'no haqidagi fan bo'lib, so'zlarning semantik jihatdan tasnifi, ularning lug'aviy va kontekstual ma'nolarini o'rganadi. Ushbu yo'nalish tahallus va laqablarning jamiyatdagi lingvistik hamda madaniy funksiyalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir jamiyatda tahallus va laqablarning o'ziga xos ijtimoiy va madaniy roli mavjud. Masalan, o'zbek jamiyatida laqablar ko'pincha shaxsiy aloqalar, hurmat va ehtirom ifodasi sifatida ishlatiladi, ingliz madaniyatida esa ular mashhurlik yoki kinoyaviy ifoda vositasi sifatida

² Asatullayev Alisher Asatullo o'g'li ToshDO'TAU talabasi "O'zbek adabiyotida tahalluslar" nomli maqola. 2023

³ Ferdinand de Sossyur "Umumiy tilshunoslik kursi". -1916. -B 40-41

keng qo'llaniladi. She'riyat va adabiyotda tahalluslar ijodiy ifodaning ajralmas qismi hisoblanib, muallifning shaxsiy uslubini aks ettiradi. Masalan, ingliz adabiyotida O. Henry tahallusi bilan ijod qilgan yozuvchi aslida William Sydney Porter nomi bilan tanilgan bo'lsa, o'zbek adabiyotida Cho'lpon nomi bilan mashhur bo'lgan ijodkor Abdulhamid Sulaymon o'g'li edi.

Zamonaviy ommaviy madaniyatda tahalluslar shaxsiy brend va imidj yaratishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, Eminem sahna nomi ostida tanilgan qo'shiqchi aslida Marshall Bruce Mathers III bo'lib, uning taxallusi uning san'atdagi shaxsiy identifikatsiyasining bir qismidir. Xuddi shuningdek, futbol yulduzi Cristiano Ronaldo ham CR7 brendi orqali dunyo miqyosida tanilgan.

Tahallus va laqablarning tarjimai jarayonida ma'no yo'qolishi yoki noto'g'ri talqin qilinishi ehtimoli mavjud. Masalan, Iron Lady iborasini to'g'ridan-to'g'ri "Temir ayol" deb tarjima qilish mumkin bo'lsa-da, aslida

bu tahallus nafaqat kuch va qat'iyat ramzi, balki siyosiy yetakchilik timsoli sifatida ham ishlatilgan. Shu bois, bunday tahalluslarni tarjima qilishda kontekstual va semantik jihatlarni hisobga olish zarur.

Buyuk britaniyalik tilshunos, professor va semantika sohasi bo'yicha mutaxassis David Crystal so'zlarning ma'nosi haqida shunday fikr bildiradi: "Ma'no – bu so'zlarning ortidagi tarix va his-tuyg'ular yig'indisidir." Xuddi shunday, ingliz va o'zbek tillaridagi tahallus va laqablar ham shaxsning ijtimoiy mavqei, tarixiy o'rni va jamiytdagi nufuzidan kelib chiqib shakllanadi. Ularning ortida ma'lum bir yashirin tarixiy ma'no, hissiy ko'rinish va madaniy ahamiyat yotadi. Shu nuqtayi nazardan, tahalluslar va laqablarning semantik tahlili lingvistika, sotsiolingvistika va madaniyatshunoslikning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Quyidagi jadvalda o'zbek xalqida o'zining tahallus va laqablari bilan nom taratgan uyuk shaxslar ismlari, tahalluslari va ularning ma'nolari keltirilgan:

1-jadval. O'zbek tilida tahalluslarning semantik tahlili

T/r	O'zbek jamiyatida asosiy tahallus va laqab bilan mashhur bo'lgan buyuk shaxslar	Ularning qo'llagan tahallus va laqablari	Tahallus va laqablarning ma'nolari
1.	Alisher Navoiy	Navoiy	Navo-kuy,ohang
2.	Abu Rayhon Beruniy	Sharq aristoteli	G'arb Aristoteliga tenglashtirilib berilgan nom
3.	Amir Temur	Sohibqiron	Uch yulduz (Saturn, yupiter, mars) bir chiziqqa tushgan paytda tug'ilgan buyuk sarkarda
4.	Zahiriddin Mhammad Bobur	Bobur	Sher
5.	Boborahim Mashrab	Mashrab	Haroratli, jo'shqin
6.	Abdulhamid Sulaymon o'g'li	Cho'lpon	Eng yorqin yulduz
7.	Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li	Ogahiy	Xabardor, ogoh
8.	Abu Ali Ibn Sino	Shayx ur-Rais	Olimlarning yetakchisi
9.	Jaloliddin Manguberdi	Turon yo'lbarsi	Jasur
10.	Mahmud az-Zamaxshariy	Faxr Xorazm	Xorazmning faxri

Ingliz adabiyotida ham bir qator yozuvchi va shoirlar tahalluslar orqali Qalam tebratishgan bo'lib quyidagi jadval orqali ularning asl ismi va tahalluslari ma'nolarini ko'rishimiz mumkin:

2-jadval. Ingliz tilida tahalluslarning semantik tahlili

Ingliz adabiyotida mashur yozuvchilar	Tahalluslari	Ma'nolari
Samuel Clemens	Mark Twain	Chuqurlik
Mary Ann Evans	George Eliot	O'z jinsini yashirish uchun ishlatilgan
Eric Arthur Blair	George Orwell	'Ovell' daryosi nomidan olingan
William Shakespeare	The Bard of Avon	O'zi tug'ilgan shahar nomidan olingan
Geoffrey Chaucer	Father of English Literature	Ingliz adabiyoti otasi
Oscar Wilde	The Aesthete	Estetik harakatning asosiy vakili
John Ketas	The Romantic Poet	Romantik shoir
J.K. Rowling	Robert Galraith	Fantastik asar yozuvchi
Charles Lutwidge Dodgson	Lewis Carroll	O'z ismining lotincha shakli
Charlotte, Anne and Emily Brontes	Currer Bell, Acton Bell and Ellis Bell	Mashhur opa singil yozuvchilar o'z jinslarini yashirish maqsadida

Yuqoridagi jadvallarda o'zbek va ingliz adabiyotidagi mashhur yozuvchi va shoirlarning asl ismi bilan tahallus va o'zlari va xalq tomonidan berilgan laqablari keltirilgan bo'lib, ularning semantik jihatdan tahlilini ham ko'rishimiz mumkin. Yuqorida aytilganidek bu tahallus va laqablar buyuk shaxslarning ichki tuyg'ulari, hislari va jamiyatdagi o'rni, ba'zan orzu va armonlarini ham anglatib keladi. Jadvalda keltirilganidek, ko'proq ayol yozuvchi va shoirlar o'z jinsini yashirish maqsadida o'zga jins vakili ismlaridan foydalanishgan.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tahallus va laqablar har ikki tilda ham faqatgina shaxsiy identifikatsiya vositasi bo'libgina qolmay, balki ularning lingvistik va madaniy xususiyatlarini ham ochib beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. O'zbek va ingliz tillarida ishlatiladigan tahallus va laqablarning shakllanish jarayoni ularning morfologik tuzilishi, semantik xususiyatlari va sintaktik funksiyalaridan kelib chiqqan holda farqlanadi. O'zbek tilidagi laqab va tahalluslar ko'proq ijtimoiy mavqe, tabiat hodisalari va his-tuyg'ular bilan

bog'liq bo'lsa, ingliz tilidagi ekvivalentlar shaxsiy tajriba, tarixiy jarayonlar va badiiy-estetik jihatlar asosida shakllanganligi kuzatiladi.

Shuningdek, tahallus va laqablarning semantik tahlili natijasida ularning faqatgina shaxsiy xususiyatlarni emas, balki ijtimoiy-madaniy va tarixiy jarayonlarni ham o'zida aks ettirishi aniqlangan. Masalan, o'zbek adabiyoti va xalq orasida tarqalgan laqab va tahalluslar milliy mentalitet, urf-odatlar hamda ramziy obrazlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular shaxsiylikdan ko'ra umumijamoaaviy identifikatsiyaga urg'u beradi. Ingliz adabiyotida esa aksincha, laqab va tahalluslar asosan individual o'ziga xoslik, ijodiy uslub hamda shaxsiy identifikatsiya jarayonini aks ettiradi.

Mazkur tadqiqot ikki tilda tahallus va laqablarning shakllanish qonuniylari, ularning jamiyatdagi kommunikativ hamda sotsiomadaniy funksiyalarini chuqurroq o'rganishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kelgusidagi tadqiqotlar ushbu lingvistik birliklarning madaniyatlararo xususiyatlarini yanada kengroq tahlil qilish imkonini beradi va ularning antropologik, sotsiolingvistik hamda tarixiy jihatdan o'rganilishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asatullayev Alisher Asatullo o'g'li ToshDO'TAU talabasi "O'zbek adabiyotida tahalluslar" nomli maqola. 2023
2. O'lmas Sharipova, Ibrohim Yo'ldashev "Tilshunoslik asoslari" - Toshkent 2006. -B18-19.3. Ferdinand de Sossyur "Umumiy tilshunoslik kursi". -1916. -B 40-41
3. David Crystal "How language works" (2005).
4. Abdulhamid Nurmonov "Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari". "Ta'lim" nashriyoti Toshkent – 2009.
5. H.D. Adullayev "O'zbek adabiyoti tarixi". Toshkent -2020.
6. O'lmas Sharipova, Ibrohim Yo'ldashev "Tilshunoslik asoslari" Toshkent -2006. 8. Omonov, M. (2020). Madaniyat va til: Ismlar, laqablar va tahalluslarning milliy xususiyatlari. Toshkent: Akademnashr.
7. Muminov, R. (2018). Tahalluslar lingvistikasi: Ingliz va o'zbek adabiyotining qiyosiy tahlili. Toshkent: Fan.
8. Watt, H. (2015). Pseudonyms and Pen Names: The Cultural Significance of Literary Aliases. Routledge.



THE COMPARATIVE RESEARCH ON CONJUNCTIONS OF COMPARISON OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Saidvaliyeva Fotima Saidikromxon qizi

Kokand University

fssaidaliyeva@kokanduni.uz

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATION
Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil Jurnal soni: 14 Maqola raqami: 56 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1169	
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS conjunctions, coordinating, subordinating, correlative, languages, words, part of speech, explanation, comparison	English and Uzbek are two distinct languages that use different conjunctions to join words and clauses together. In English, conjunctions are used to join words and clauses together in order to create compound sentences. Common English conjunctions include "and," "but," "or," "so," "if," "because," and "although." In Uzbek, conjunctions are used to link words, phrases, and clauses together to create compound sentences. Common Uzbek conjunctions include "agar," "ki," "ammo," "ya'ni," "shunda," "balo," and "garchi." One major difference between English and Uzbek is the difference in conjunctive frequency. In English, the conjunctions "and" and "but" are the two most commonly used conjunctions, often appearing in nearly every sentence. In Uzbek, the conjunctions "agar" and "ki" are the two most frequently used conjunctions, appearing often in spoken and written Uzbek. Another notable difference between English and Uzbek is the way in which the two languages use conjunctions for emphasis. In English, the conjunction "but" is often used to draw attention to a contrast between two clauses or phrases. In Uzbek, the conjunction "ammo" is most commonly used for emphasis. In this article variety of conjunctions will be observed, compared and analyzed below.

Introduction. In contemporary linguistics, parts of speech are distinguished based on three criteria: semantic, formal, and functional. Words are separated into conceptual and functional categories in accordance with the aforementioned requirements. These categories are then further divided into smaller groupings, reflecting the ancient grammatical tradition's separation of words into changeable and unchanging categories. Nouns, adjectives, adverbs, prepositions, conjunctions, pronouns, verbs, and interjections are the eight parts of speech that are typically recognized. The majority of the major language families used today, particularly the Semitic and Indo-European languages, employ very identical categories.

Divergent opinions on the types of conjunction exist among linguists. For instance, coordinating and subordinating conjunctions are the two categories into which conjunctions are divided by Baskerville and Sewell (1), Arthur (235), Lester (63) and Eckhard-Black (97). Because, in their opinion (e.g. Lester (65)), correlative conjunctions are comparable to coordinating conjunctions, these researchers (along with others not included here) omit them from their analyses. Yet, there are typically only three different kinds of conjunctions: coordinating, subordinating, and correlative. A different development is that Halliday and Hasan (242-267) offer four sorts of conjunctions that, generally speaking, ensure cohesiveness in English: (1) Adding Conjunctions add to the proposed item to structurally coordinate or link it, and they are denoted by the words and, also, furthermore, additionally, etc. Additive conjunctions, which are indicated by nor, and... no, neither, may also be used to negate the proposed item. Alternative words like or, or else, alternatively, afterthought words like incidentally, by the way, expository words like that is, I mean, in other words, exemplificatory words like for instance, thus, comparison words like likewise, similarly, in the same way (or in the same vein), and comparison words for dissimilarities like on the other hand, by contrast, on the contrary are all examples of additive. (ii) Contradictory Conjunctions, such as but, on the other hand, nonetheless, still, yet, and only, are used to compare or contrast sentences. Adversatives come in a variety of forms, such as emphatic (such as nevertheless, despite this), contrastive (such as in fact, actually, as a matter of fact), meaning correction (such as instead, rather, at least), closed dismissal (such as in any case, in either case, whichever way it is), and open-ended dismissal (such as anyhow, at any rate, however it is). Causal (iii)

Conjunctions are used to explain the origin or rationale behind a statement. They comprise the words then, so, hence, and therefore.

Research methodology. The articles produced by the two groups were examined using the coherence framework proposed by Halliday and Hasan. The writing of the two groups was analyzed. In this article, comparison, analyzing and observation are some of the approaches employed to look into the study paper. Comparison is used to compare how words are formed in English and Uzbek, and usage observation is done to see how previous academics have used conjunction data from both languages in their research.

Research results. Moreover, Halliday categorizes conjunction into three additional abstract types: elaboration, extension, and augmentation, as cited by Saya and Fatemi (135). Apposition, like in other words, and explanation, like rather, are examples of how to elaborate. Addition and variation, such as alternatively, are included in extension. Enhancement contains spatial-temporal concepts such as there, before, and causal-conditional concepts such as accordingly and in that situation. We feel it vital to point out that Halliday's taxonomy and examples above are more adverbs than conjunctions. The four sorts of conjunctions that Murthy (212) describes are the coordinating, subordinating, correlative, and compound conjunctions. We'll think about each one in turn.

Coordinating conjunctions

They link words, phrases, and clauses together. These are conjunctions that link clauses of the same rank together. They so typically link sentence components belonging to the same grammatical class, such as nouns with nouns, adverbs with adverbs, phrases with phrases, and clauses with clauses. Also, they connect two statements whose meanings are independent of one another. They are simply referred to as coordinators, and coordination is the art of employing coordinators to connect two words, phrases, clauses, or sentences. Basic coordination, which can be directly described, is divided into two categories by Huddleston (194), such as

(1) Her daughter is a dentist and her son is studying law;¹

and non-basic coordination, which is tangentially characterized by its relationship to the more basic form.

According to Okosun, who claims to be an unbiased witness, he is innocent.

We treat coordination as an instance of parataxis, which is a term taken from Greek and means "syntactic side-by-side arrangement," in

¹ Aarts, Bars. English Syntax and Argumentation. 2nd ed. New York: Palgrave, 2001. Print.

accordance with Aarts (45–6). Moreover, syndetic coordination is used to describe all instances of coordination in which there is a clear coordinator. Asyndetic coordination is used when there isn't a clear coordinator. Examples of asyndetic cooperation include the following:

- (2) (a) She is trustworthy, diligent, and smart.²
- (a) Bananas, apples, oranges, and pears are necessary.
- (c) Abu and Jummai both laughed, and Ojo smiled.

The following are coordinating conjunctions: and, nor, but, and or. Sentential illustrations

- (3) (a) I purchased a keyboard and a computer.³
- (b) He did not bother to go and beg for his wife's return when she left him.

- (C) Despite her poverty, she is content.
- (d) The books are either in the cabinet or on the table.

Murthy (215) divides coordinating conjunctions into three categories. As follows:

Conjunctions that are cumulative or copulative
Disjunctive or Alternate Conjunctions and Adversative Conjunctions

Also, we will think about them sequentially:
Conjunctions that are cumulative or copulative
They are employed to link statements or to combine statements.

They consist of: and, hence, both... likewise, also, additionally... additionally, not less than, etc. Sentential illustrations:

- (4) (a) I purchased a keypad and a computer.⁴
- (b) He did not care to go and beg for his wife's return when she left him.

- (C) Despite her poverty, she is content.
